




O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI
MIR ARAB OLIIY MADRASASI

GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA VA TASAVVUF MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
(2025 YIL 13-NOYABR)





**O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI
MIR ARAB OLIY MADRASASI**

GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA VA TASAVVUF MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(2025 yil 13-noyabr)



Buxoro - 2025

“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

“Globallashuv davrida sof aqida va tasavvuf masalalari”// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Ilmiy to‘plam [Mir Arab oliy madrasasi. Mas’ul muharrir f.f.d.prof.G.N.Navro’zova] Buxoro: 2025. 284 b.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasida 2024 yil 27 dekabrda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnika anjumanlar rejasi to‘g‘risida”gi 490-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2025 yilning 13 noyabr kuni Mir Arab oliy madrasasida o‘tkazilgan “Globallashuv davrida sof aqida va tasavvuf masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning materiallari e’lon qilinmoqda.

Konferensiya Mir Arab oliy madrasasi va hamkor tashkilotlar –O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Buxoro viloyat hokimligi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyat vakilligi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar va maqolalar mazmuni uchun javobgarlik mualliflar zimmasida.

Mas’ul muharrir:

Navro`zova Gulchehra Ne`matovna

Buxoro davlat texnika universiteti professori, falsafa fanlari doktori.

Tahrir hay’ati:

Elov Jobir Rustamovich

Mir Arab oliy madrasasi rektori

Avliyoqulov Uchqun Mardanovich

Mir Arab oliy madrasasi «O`quv ishlar» bo`yicha prorektori

To`xtasinov Ro`zimuxammad Nurmaxamad o`g`li

Mir Arab oliy madrasasi “Diniy fanlar” kafedrasida o`qituvchisi, Islomshunoslik fanlari bo`yicha falsafa doktori (PHD)

Sharapov Ma`mur Murodovich

Mir Arab oliy madrasasi “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektori” mudiri.

Ahmadov Xurshid San`atovich

Mir Arab oliy madrasasi xodimi, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.

Taqrizchilar:

Inoyatov Azizxo`ja Xayrulloevich

Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi rahbari, islomshunoslik fanlari bo`yicha falsafa doktori(PHD), dotsent.

Yuldashxodjayev Haydar Hashimxanovich

Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, t.f.n.

***To`plovchi va
nashrga tayyorlovchi:***

Muhsinov Abdulmajid Erkin o`g`li

Mir Arab oliy madrasasi “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektori” muxandisi.

KIRISH SO‘ZI

Bugungi globallashuv davrida insoniyat tafakkuri, e’tiqodi va ma’naviy qarashlari keskin o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot oqimining kengayishi, diniy talqinlarning turlicha yondashuvi va g‘oyaviy kurashlarning kuchayishi natijasida inson ongida diniy beqarorlik, ma’naviy bo‘shliq va e’tiqodiy chalkashliklar yuzaga kelmoqda. Shunday sharoitda sof islom aqidasiining pokligini saqlash, tasavvufning asl mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish va uni jamiyat hayotida to‘g‘ri tatbiq etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Alloh taolo Qur’onda shunday marhamat qiladi: **“Bas, (ey, Muhammad,) yuzingiz (o‘zingiz)ni doimo to‘g‘ri bo‘lgan dinda (Islomda) tuting! Insonlarni o‘sha asosda yaratgan Allohning yaratuvchiligini (anglangiz!) Allohning yaratishiga o‘zgartirish yo‘q. Eng to‘g‘ri din shudir! Lekin ko‘p odamlar bilmalar”** (*Rum surasi, 30-oyat*). Mazkur oyat inson tabiatining asosida sof e’tiqod va to‘g‘ri aqida mujassam ekanini bildiradi.

Shuningdek, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: **“Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirsa, yaxshilik so‘zlasin yoki sukut saqlasin”** (*Imom Buxoriy va Muslim rivoyati*). Demak, e’tiqodning sofliqi faqat bilim bilan emas, balki amal, axloq va so‘zda ham o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Shu boisdan, sof aqidani ilmiy asosda o‘rganish, uni yoshlar ongiga sog‘lom shaklda singdirish, tasavvufning inson ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rnini chuqur tadqiq etish har bir davrning zaruriyatidir.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi Mir Arab oliy madrasasi tomonidan tashkil etilgan “Globallashuv davrida sof aqida va tasavvuf masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ana shu dolzarb masalalarga bag‘ishlanib, zamonaviy diniy tafakkurda sof e’tiqod va ma’naviy poklikni mustahkamlash yo‘nalishida muhim ilmiy minbar bo‘lib xizmat qiladi.

Konferensiyada islom ilmlari sohasida faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda xalqaro ilmiy markazlardan kelgan mutaxassislar, olimlar va tadqiqotchilar o‘z maqolalari bilan ishtirok etishgan. Mazkur ilmiy to‘plamda ular tomonidan taqdim etilgan maqolalar jamlanib, globallashuv sharoitida diniy tafakkur, aqida sofliqi, tasavvufning ma’naviy hayotdagi o‘rni, diniy ekstremizmga qarshi tasavvufiy yondashuvlar, shuningdek, islom merosining ilmiy talqini kabi masalalar tahlil etilgan.

Tasavvuf islom ta’limotining ruhiy-axloqiy mohiyatini ifodalaydi. U insonni poklikka, sabrga, kamtarlikka va mehr-oqibatga chorlaydi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: **“Alloh sizlarning qiyofalaringizga va mol-mulkingizga emas, balki qalblaringiz va amallaringizga nazar solidi”** (*Imom Muslim rivoyati*).

Shu ma’noda tasavvuf – inson qalbini poklovchi, e’tiqodni mustahkamlaydigan va jamiyatda tinchlik hamda totuvlikni qaror toptiruvchi ruhiy manbadir.

Konferensiya ikki sho‘bada faoliyat yuritdi:

- Birinchi sho‘ba — “Globallashuv davrida sof aqida: muammo va yechimlar”, unda e’tiqod sofliğini saqlash, diniy talqinlardagi chalkashliklarning oldini olish va Qur’on-hadis asosidagi aqidaviy barqarorlik masalalari muhokama qilindi.

- Ikkinchi sho‘ba — “Globallashuv davrida tasavvuf: ma’naviy meros va zamonaviylik”, unda tasavvufning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va globallashuv davrida ruhiy muvozanatni ta’minlashdagi tasavvufiy yondashuvlar yoritildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sof aqida va tasavvuf masalalarini chuqur o‘rganish – bugungi notinch dunyoda ruhiy barqarorlik, ummat birligi va ma’naviy uyg‘onishning kalitidir. Zero, Alloh taolo marhamat qilganidek: **“Albatta, Alloh biror qavm o‘zlaridagi narsa (yaxshi holat)ni o‘zgartirmaganlaricha, ulardagi narsa (holat)ni o‘zgartirmas”** (*ar-Ra’d, 13:11*). Demak, haqiqiy taraqqiyot va barqarorlikning poydevori – sof aqida, pok ma’naviyat va ilmga tayanilgan tafakkurdir. Ushbu ilmiy to‘plamda jamlangan maqolalar sof e’tiqod, sog‘lom tafakkur va ma’naviy uyg‘onish yo‘lida qimmatli ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Elov Jobir Rustamovich
Mir Arab oliy madrasasi rektori

1.SHO‘BA : GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИДА ТАФВИЗ ВА ТАЪВИЛ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Аллоқулов Абдулатиф Абдуллаевич

*Имом Мотурудий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
мотурудийлик таълимоти тадқиқотлари бўлими бошлиғи, доцент*

Аннотация: Ушбу мақолада Ислом илоҳиётидаги энг мураккаб назарий масалалардан бири — Аллоҳ таолонинг сифатларига оид муташобих матнларни танзиҳ тамойили асосида талқин қилиш муаммоси таҳлил қилинади. Замонавий салафийлик оқимларининг муташобих оят ва ҳадисларни таъвил қилишга нисбатан радикал муносабати, шунингдек, уларнинг зоҳирий талқин услуби натижасида юзага келган тажсим ва ташбеҳ мойилликлари ёритиб берилади. Шу билан бирга, анъанавий аҳли сунна вал жамоа мактабларининг (ашъарийлик ва мотуридийлик) таъвил методологияси илмий-мантикий асосларда изоҳланади. Мақолада Қуръон ва суннатдаги муташобих матнларни англашда танзиҳ, таъвил ва тафвиз тамойилларининг аҳамияти кўрсатилади.

Калит сўзлар: Ислом илоҳиёти, Аллоҳнинг сифатлари, муташобих оятлар, танзиҳ, таъвил, тафвиз, ташбеҳ, тажсим, салафийлик, ашъарийлик, мотуридийлик, аҳли сунна вал жамоа.

Ислом илоҳиётидаги энг мураккаб доктринал масалалардан бири — Аллоҳнинг сифатларига оид муташобих¹ матнларни танзиҳ² тамойилига мувофиқ талқин қилишдир. Замонавий салафийлик оқимлари, ўзларини салафи солиҳлар йўлининг давомчилари сифатида тақдим этиб, Қуръон ва суннатдаги муташобих матнларни талқин қилишда анъанавий калом

¹ Муташобих (араб. متشابه) сўзи араб тилидаги «ташоббух» (تشابه) ўзагидан олинган бўлиб, «ўхшаш бўлиш», «бир-бирига киришиб кетиш», «ноаниқ бўлиш» деган маъноларни англатади. Бир нечта эҳтимолий маънолар бир-бирига ўхшаб қолгани учун, уларнинг қайси бири асл мақсад эканини ажратиш қийин бўлган сўз ёки жумла «муташобих» дейилади. Истилоҳий маъноси: Муташобих – бу Қуръон ёки Суннатдан олинган, асл мақсад қилинган маъноси зоҳиран (сўзма-сўз) аниқ бўлмаган, бир нечта маънони англатиши мумкин бўлган ва уларнинг қайси бири тўғри эканини аниқлаш учун қўшимча далилга ёки чуқур тадқиқотга муҳтож бўлган матндир.

² Танзиҳ (араб. تنزيه) сўзи «назаҳа» (نزاهة) феълидан олинган масдар (ҳаракат номи) бўлиб, луғатда «поклаш», «узоклаштириш», «беайб деб билиш», «юксакка кўтариш» каби маъноларни англатади. Бирор нарсани унга нолойиқ бўлган айб-нуқсонлардан, паст сифатлардан поклаш ва узок тутишга «танзиҳ» дейилади. Истилоҳий маъноси: Танзиҳ – бу Аллоҳ таолони Унга нолойиқ бўлган барча айб-нуқсонлардан, янги пайдо бўлган (ходис) махлуқотларга хос бўлган барча сифатлардан ва ҳар қандай ўхшашликдан поклашга қаратилган асосий эътиқодий тамойилдир.

мактаблари (ашъарийлик ва мотуридийлик) томонидан қўлланилган таъвил (تأويل) методологиясини кескин рад этадилар. Улар ушбу услубни қўллаган аҳли сунна уламоларини бидъат ва залолатда айблайдилар. Бироқ, таъвилни инкор этиш ва матнларнинг зоҳирий маъносини исботлашга уриниш, уларнинг доктринал тизимида ташбеҳ³ ва тажсим⁴га мойил қарашларнинг юзага келишига замин яратди.

Аҳли сунна вал жамоа методологиясига кўра, Қуръон ва суннатдаги шаръий матнлар учун асосий қоида уларни зоҳирий маъносида қабул қилишдир. Бироқ, агарда бошқа бир қатъий ақлий ёки нақлий далил ушбу зоҳирий маънодан воз кечишни ва бошқа, мажозий маънони ирода қилишни тақозо этса, матн таъвил қилинади. Қуръон ва суннатда шундай матнлар мавжудки, уларнинг зоҳирий маъноси Аллоҳ таолога жисм ёки макон нисбатини беришни ёхуд Уни яратилганларга ўхшатишни тақозо этадигандек туюлиши мумкин. Айнан шундай вазиятларда, бошқа қатъий далиллар ушбу матнларнинг зоҳирий маъносини қабул қилмасликни талаб этади.

Бу борада Аллоҳ таолонинг Ўзи шундай деган:

لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ وَهُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ

“У Зотга ўхшаш ҳеч нарса йўқдир. У эшитувчи, кўрувчи Зотдир”
(Шуро сураси, 11-оят).

وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ

“Ва Унга ҳеч ким тенг бўлмаган” (Ихлос сураси, 4-оят).

Мантиқий асос: Соғлом мантиқ Аллоҳ таолонинг яратилган мавжудотлардан тубдан фарқли бўлиши ва ҳар қандай номукаммалликдан пок эканини талаб қилади. Жисмонийлик, аъзоларга эга бўлиш ва маконда жойлашиш эса яратилган мавжудотларга хос хусусиятлардир.

Муташобих оят ва ҳадисларга дуч келинганда, ислом ақидаси бўйича асосий вазифа танзих (تنزيه) тамойилига амал қилишдир. **Танзих** – бу Аллоҳ таолони ҳар қандай нуқсондан, камчиликдан ва махлуқотларга хос бўлган хусусиятлардан мутлақо поклаш қоидасидир. Бу тамойил баъзи муташобих матнларнинг зоҳирий маъноси Аллоҳ таолонинг мукаммал Зотига лойиқ эмаслигини эътироф этиш ва улар Аллоҳнинг Ўзи ирода қилган, Унинг улуғлигига мос бошқа маънони англатишига қатъий эътиқод қилишни тақозо этади.

³ «Ташбеҳ» сўзи араб тилидаги «шабах» (شبه) ўзагидан олинган бўлиб, «ўхшатиш», «киёслаш», «мисол келтириш» деган маъноларни англатади. Истилоҳий маъноси: Аллоҳ таолонинг Зотини, сифатларини ёки феълларини Унинг яратган махлуқотларининг зоти, сифатлари ёки феълларига ўхшатишдир.

⁴ «Тажсим» сўзи араб тилидаги «жисм» (جسم) ўзагидан олинган бўлиб, «жисмга эга деб билиш», «тана, шакл ёки вужуд нисбат бериш» деган маънони билдиради. Истилоҳий маъноси: Аллоҳ таолони жисм (яъни, узунлик, кенглик, чуқурлик каби ўлчовларга, чегарага, шаклга ва қисмларга эга бўлган моддий ёки номоддий вужуд) деб эътиқод қилишдир.

Ушбу фундаментал ақидавий асосдан келиб чиқиб, уламолар бундай матнларни талқин қилишда иккита асосий услубдан бирини қўллаганлар:

1. **Тафвиз** (تفويض – маъносини Аллоҳга ҳавола қилиш): Бунда Аллоҳни ҳар қандай ўхшашликдан поклагандан сўнг муташобих лафзнинг аниқ маъносини тайин қилмасдан, унинг илмини Аллоҳ таолонинг Ўзига ҳавола қилинади. Бу – салафи солиҳлар тутган йўл бўлиб, энг хавфсиз услуб ҳисобланади [1, 39 b].

2. **Таъвил** (تأويل – мажозий талқин): Бунда ҳам аввало танзиҳ қондасига амал қилиниб, сўнгра араб тили услублари, ҳақиқий ва мажозий маънолар, киноя ва истиора каби балоғат илми воситаларидан фойдаланиб, лафзнинг зоҳирий маъносидан, Аллоҳнинг улуғлигига мос келадиган эҳтимолий мажозий маънога бурилади. Бу йўлни баъзи салафлар ва аксарият халаф уламолари, айниқса, одамлар орасида ташбеҳ фикрлари ёйилганда, ақидани ҳимоя қилиш заруратидан қўллаганлар [2, 41 b].

Аҳли сунна вал жамоанинг муташобих сифатлар борасидаги ушбу мўътадил ёндашуви, яъни бир томондан ташбеҳ ва иккинчи томондан таътил (илоҳий сифатларни бутунлай инкор этиш) каби тамойили қуйидаги нақлий далиллар билан ҳам мустаҳкамланади:

وَالرَّاسِخُونَ فِي الْعِلْمِ يَقُولُونَ آمَنَّا بِهِ كُلٌّ مِنْ عِنْدِ رَبِّنَا

“Илмда собит бўлганлар эса: “Унга имон келтирдик, барчаси Раббимиз ҳузуридан дир”, дерлар” (Оли Имрон сураси, 7-оят).

إِنَّ الْقُرْآنَ لَمْ يُنْزَلْ يُكْذِبُ بَعْضُهُ بَعْضًا بَلْ يُصَدِّقُ بَعْضُهُ بَعْضًا فَمَا عَرَفْتُمْ مِنْهُ فَاعْمَلُوا بِهِ وَمَا جَهِلْتُمْ مِنْهُ فَارْتَدُّوا إِلَىٰ عَالِمِهِ.

Расулуллоҳ саллаллоҳу алайҳи васаллам дедилар: «Қуръони карим бир-бирини ёлгонга чиқариш учун нозил қилинмаган, балки унинг оятлари бир-бирини тасдиқлайди. Шундай экан, ундан нимага тушунсангиз, унга амал қилинг. Нимага тушунмасангиз, уни олимига қайтаринг» (Имом Аҳмад ривояти).

Саҳобий ва тобеинларнинг сўзлари: Уламолар орасида «Таржумонул Қуръон» (ترجمان القرآن) номи билан танилган Абдуллоҳ ибн Аббос розияллоҳу анхумо “Қалам” сураси, 42-оятида «**Соқ очиладиган Кун...**» (يَوْمَ يُكْتَفَىٰ عَنْ سَاقٍ), деб келган «ас-соқ» (الساق) сўзи борасида: “Бу **ишнинг шиддатли** бўлишидан киноя”, деган. Буни Ибн Ҳажар Асқалоний (773/1372–852/1449) ўзининг «Фатҳул Борий» (فتح الباري) асарида келтирган [3, 531 b]. Шунингдек, Имом Ҳофиз Байҳақий (384–458/994–1066) ва тилшунос муфасссир Абу Ҳайён ҳам ўз тафсирида айни шу таъвилни Ибн Аббосдан нақл қилиб келтирган. Имом Табарий (ваф. 923) эса ўзининг “Тафсири Табарий” асарида Ибн Аббос, Мужоҳид ва Қатодалардан “Қалам” сураси, 42-оятда келган «ас-соқ» (الساق) сўзини “**ишнинг шиддатли** бўлишидан киноя”, деб нақл қилган [4, 555 b].

Ибн Аббос розияллоху анхумо Аллоҳ таолонинг **“Бас, бу Кунда улар бугунги ҳолга дучор бўлишларини унутганлари ва оятларимизни инкор қилганларидек, Биз ҳам уларни унутамиз”** (*Аъроф сураси, 51-*) оятидаги **“унутамиз”** (نَسَاهُمْ) деб таржима қилинган сўзни Аллоҳ таолога нисбатини бериш мумкин бўлмагани сабабли уни **«тарк қилиш»** (яъни, уларни азобда, раҳматсиз қолдириш), деб таъвил қилган. Зеро, Аллоҳ таоло инсонларда маълум бўлган унутишдан покдир, чунки инсонлардаги унутиш нуқсондир, нуқсон эса Аллоҳга лойиқ эмасдир. Шу сабабли Ибн Аббос бу оятни таъвил қилган. Худди шунингдек, Имом Табарийдан ҳам, Мужоҳиддан ҳам айна шу таъвилни нақл қилган [5, 475 б].

Имом Бухорий (ваф. 870) ҳам ўзининг «Саҳиҳи Бухорий» асарида Аллоҳ таолонинг **«Унинг важҳидан (وجهه) бошқа ҳар бир нарса ҳалок бўлувчидир»** (*Қасас, 88*) ояти тафсирида, Аллоҳ таолога нисбатан ишлатилган **“важҳ”** (юз) сўзини **“[Унинг] мулки”**, деб таъвил қилган. Шунда оятнинг маъноси қуйидагича бўлади: **«Унинг мулкидан бошқа ҳар бир нарса ҳалок бўлувчидир»** [6, 505 б].

Имом Аҳмад (ваф. 855) Аллоҳ таолонинг: **“ва Раббинг ва фаришталар саф-саф бўлиб келса...”** (*Фажр, 22*) оятидаги جاء “келди” феълини **“Унинг савоби келди”** деб таъвил қилганлар. Буни ундан Имом Байҳақий ривоят қилган. Чунки Аллоҳ таолога جاء “келди” феълини нисбатини беришда ташбеҳ ва тажсим маънолари юзага келиб қолади. Шунинг учун олимлар уни таъвил қилганлар [7, 376 б].

Хўш, салафи солиҳларнинг улуғ уламоларидан бўлган бу зотларни, улар айрим ўринларда таъвил услубини қўллаганлари сабабли, жаҳмия ёки адашган оқимларга мансуб дейиш мумкинми?! Ёки сифатларга оид баъзи оят ва ҳадисларни таъвил қилганлари учун уларни «нажот топувчи» аҳли сунна вал жамодан чиқариш тўғри бўладими?! Йўқ, албатта!

“Салафийлар” жамиятда Аллоҳга жисм, маконни нисбат беришга ундовчи қарашларни тарқатадилар. Бунга уларнинг Абу Ҳурайра розияллоху анхудан ривоят қилинган: *«Ҳар кеча охирги учдан бир қисми қолганда, Парвардигоримиз таборака ва таоло дунё осмонига лутф кўрсатиб, шундай дейди: “Ким Менга дуо қилади, уни ижобат қиламан. Ким Мендан сўрайди, унга берсам. Ким Мендан мағфират сўрайди, уни мағфират қилсам?”* ҳадисидаги «ينزل» (янзилу) **“тушади”** сўзини **“қандай бўлса шундайлигича қабул қилиш керак”** деган гаплари мисол бўлади. Ушбу ҳадисдаги **“тушади”** сўзи мажозий маънода, яъни Аллоҳ таолонинг бандаларига лутфу марҳамат кўрсатиши, дуоларини қабул қилиши каби маъноларда тушунилади. Агар бундай талқин қилинмаса, у **“Шуро”** сураси, 11-оятга (**“У Зотга ўхшаш ҳеч нарса йўқдир. У эшитувчи, кўрувчи Зотдир”**) зид келиб қолади.

Айрим олимлар “тушади” сўзини “Аллоҳ таоло фариштани туширади, у эса одамларга ўшандай нидо қилади”, деб изоҳлаганлар. Бу талқинга кўра «ينزل» (янзилу) сўзи фаришталарнинг тушишига амр қилиш маъносида Аллоҳ таолога нисбати берилган бўлади. Ушбу фикрни қуйидаги ривоят қўллаб-қувватлайди: «Аллоҳ таоло ярим тун ўтгунча муҳлат беради, сўнгра бир нидочига: “Дуо қилувчи борми, дуоסי ижобат қилинса!”, деб нидо қилишга амр этади».

Бу ўринда ушбу икки тушунчани бирлаштириш ҳам мумкин, чунки улар ўзаро зид эмас, балки маъно эътиборидан бир-бирини қўллаб-қувватлайди, яъни “Аллоҳ таоло кечанинг охирги учдан бирида бандаларига лутф кўрсатиб, дуоларни ижобат қилиш эшигини очади ва мазкур нарса билан жар солишга бир фариштани туширади” [8, 119 б].

Муташобих сўзларни тушунишда барча замонларда турли тортишув ва келишмовчиликлар бўлиб ўтган ҳамда бир-бирига қарама-қарши кескин фикрлар ўртага ташланган. Афсуски, мусулмонлар уларни тушунишда турли тоифаларга ажралиб кетганлар. Қуръони карим ва ҳадиси шарифдаги муташобих матнларни шарҳлаш масаласи аҳли сунна вал жамоа ҳамда “салафийлик” ўртасидаги ақидавий ихтилофлардан биридир. Аҳли сунна танзиҳ (Аллоҳни нуқсонлардан поклаш) тамойилини сақлаш учун тафвид ва зарурат туғилганда таъвил услубларини қўлласа, “салафийлик” таъвилни рад этиб, матнларнинг зоҳирий маъносини қолдиришга интилишади. Энг чуқур ихтилоф “била кайф” (кайфияти номаъулм) тушунчасида намоён бўлади. Аҳли сунна бу билан кайфиятнинг ўзини мутлақо инкор этса, салафийлик кайфиятнинг мавжудлиги, бироқ унинг номаълум эканини таъкидлайди. Бу эса, ўз навбатида, салафийлик ақидасини яширин тажсимга (Аллоҳга жисм нисбатини беришга) олиб келишини асослайди.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Ҳамза Бакрий. Усасул ақидатил исламия. – Истанбул: нашрети кўрсатилмаган, 2013. – Б. 39
2. Ҳамза Бакрий. Усасул ақидатил исламия. – Истанбул: нашрети кўрсатилмаган, 2013. – Б. 41.
3. Ибн Ҳажар Асқалоний. Фатҳул Борий. – Қоҳира: Дорур райён лит турос, 1986. – Ж. 8. – Б. 531.
4. Муҳаммад Ибн Жарир Табарий. Тафсирут Табарий. – Қоҳира: Дорул маъориф, нашр йили кўрсатилмаган. – Ж. 23. – Б. 555.
5. Муҳаммад Ибн Жарир Табарий. Тафсирут Табарий. – Қоҳира: Дорул маъориф, нашр йили кўрсатилмаган. – Ж. 12. – Б. 475.
6. Ибн Ҳажар Асқалоний. Фатҳул Борий. – Қоҳира: Дорур райён лит турос, 1986. – Ж. 8. – Б. 505.

7. Ҳофиз ибн Касир. Ал-Бидоя ван ниҳоя. – Ж. 14. – Б. 386.
8. Ҳамза Бакрий. Усасул ақидатил исламия. – Истанбул: нашрети кўрсатилмаган, 2013. – Б. 119.

ГЛОБАЛЛАШУВНИНГ МУСУЛМОН УММАТИГА МАДАНИЙ-МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРИ ВА ҲИМОЯ ЙЎЛЛАРИ

Хусен Хайруллоевич Джурсаев,

*Бухоро давлат университети “Ислом тарихи ва манбаишунослиги, фалсафа” кафедраси
доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори.*

Ўзбекистон, Бухоро. ORCID ID: [0009-0006-9223-4980](https://orcid.org/0009-0006-9223-4980).

E-mail: husaynbuxoriy@mail.ru; x.x.djuraev@buxdu.uz.

Дилишод Жўрақулович Алиев,

*Бухоро давлат университети Исломшунослик таълим йўланиши магистранти
Ўзбекистон, Бухоро.*

buxorilaruz@gmail.com тел: +99890.715-00-63.

Аннотация: Ушбу мақолада глобаллашувнинг, айниқса, иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатлар илгари сураётган шаклининг, маданий-мафкуравий жиҳатлари ва унинг мусулмон жамиятига бўлган потенциал салбий таъсири таҳлил қилинади. Таъкидланишича, замонавий глобаллашув дунёвий, материалистик ва индивидуал (шахсий) қадриятларга асосланган ягона глобал маданиятни шакллантиришга интилоқда. Бу эса исломий дунёқарашнинг асоси бўлган Тавҳид (яккахудолик) тамойилига ва диний-ижтимоий анъаналарга жиддий таҳдид солади. Мусулмонларнинг глобал жараёнларда фаол иштирок этиши зарурлиги эътироф этилган ҳолда, улар ўзларининг диний ва ахлоқий қадриятларини ҳимоя қилиш йўллари излашлари кераклиги кўрсатилади.

Калит сўзлар: Глобаллашув, Маданий таҳдид, Ислом дунёқараши, Секуляризм, Индивидуализм, Тавҳид, Маданий ҳимоя, Моддийлик.

Глобаллашув замонавий даврнинг энг муҳим ва мураккаб жараёни бўлиб, у асосан иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатлар илгари сураётган шаклда, замонавий фан ва технологиялардаги оқимларнинг акси сифатида намоён бўлмоқда. Сўнгги йигирма йил ичида бу жараён кенг муҳокама қилинди, асосан иқтисодий ўзаро боғлиқлик нуқтаи назаридан. Бироқ, глобаллашувнинг асосий мақсади алоҳида-алоҳида кўплаб маданиятларни бирлаштириб, **ягона бир маданиятга эга глобал жамият** яратишга қаратилган. Бундай таклиф қилинган «янги» жамиятда урф-одатлар ва диний-ижтимоий анъаналарни тарк этиш зарурий ҳисобланади, чунки улар янги,

материалист ва **секуляр** замонавий маданият ривожига тўсқинлик қилиши мумкин.

Ушбу мақоланинг асосий мақсади — маданият жиҳатдан глобаллашувнинг мусулмон умматга тушадиган мумкин бўлган фожияли жиҳатларини ва салбий таъсирларини кенг кўламда кўрсатишдан иборат. Гарчи глобаллашув транспорт, алоқа ва ахборот технологиялари соҳаларида инсон тараққиёти учун фойдали айрим ютуқларни туғдириши мумкин бўлсада, саноатланмаган жамиятлар учун энг катта таҳдид — бу **маданий-ижтимоий кучлар** ҳамда рамзий қадриятларнинг таъсиридир. Биз мусулмонлар сифатида бу глобаллашув маданиятидан — яъни, бизга мажбуран ёки маромига кўра йўналтирилаётган глобал маданият таъсиридан — қандай ҳимояланиш йўллари топишга умид қиламиз.

Исломий дунёқарашда муқаддас, мустаҳкам тамойиллар мавжуд бўлиб, улар диний манбага таянади. Бу мусулмонлар бошқалардан ўрганишга қийналади дегани эмас. Аксинча, глобал жараёнларда тўлиқ иштирок этиш учун илм-маълумот, технология, бошқарув кўникмалари ва билимларни олишлари зарур. Лекин бу йўлда ижтимоий мувозанатни ва диний қадриятларни белгиловчи асосий қоидалар, худди Ислом дунёқарашда кўрсатилганидек, сўзсиз бузилмаслиги керак. Мақола доирасида маданий глобаллашувнинг **моддий-дунёвий ва нотўғри индивидуалистик фалсафаси** ҳамда унинг исломнинг тавҳид тамойилига зид келиши атрофлича таҳлил қилинади.

2.1. Глобаллашувнинг тарихий ва мафкуравий шаклланиши.

Глобаллашув сиёсий шаклланиши ҳақида тарихий мисолларга қайтсак — XV асрдан бошлаб Европа давлатларининг мустамлака юритиш фаолияти;

а) Испания-Португал мустамлака ҳаракатлари «вахший» деб аталган халқларни насронийлаштиришга йўналтирилган бўлса;

б) Буюк Британия, Франция ва Голландия каби давлатлар Осиё, Африка ва Яқин Шарқдаги «қадимий аҳоли»ни «тайёрлашга» ўз миссиясини кўрсатган;

с) замонавий капиталистик ғарб давлатлари эса модернизация ва секуляризация орқали, хусусан исломлашган жамиятларни ҳам, «ривожланмаган» деб белгилаб, ўз аралашувини амалга оширган.

2.2. Исломий ва ғарбий дунёқараш зиддияти

Ислом Дунёқараш Ислом ақидасининг ўзи бўлиб, тавҳидга ва ягона ҳақиқатга асосланади. Унда дунёвий жиҳат охирагача тайёргарлик сифатида кўрилади. Исломда инсоннинг Аллоҳга бўлган муносабати — **бўйсунуш, ибодат қилиш ва итоат қилиш** тартибида бўлиши лозим. Исломнинг

универсал табиати (намоз, рўза, ҳаж каби ибодатларда) турли миллат ва тилдаги мусулмонларни ягона ибодатда бирлаштиради.

Бунинг акси ўлароқ, **ғарб дунёқараши** дунёвий секуляризмга таянган бўлиб, одамлар яшаётган дунёга глобал тасвир ҳосил қилишга қаратилган. Янги глобал маданиятнинг асоси бўлган бу фалсафада инсон – Худо эмас – оламнинг эгаси ҳисобланади. Шу боис, инсонга илоҳий ҳидоят керак эмас, унга ўзининг “ratsional тафаккури” етарли, деб ҳисобланади.

2.3. Маданий глобаллашувнинг асосий хавфлари

Мафкуравий асосга эга бўлган маданий глобаллашувнинг асосий хавфи, глобаллашув жараёнининг ўзида эмас, балки Исломнинг жамиятда ҳалоллик ва адолатга асосланган ҳаётни барпо этишдаги ролини камайтириш йўлидаги яширин ва мувофиқлаштирилган ҳаракатлардир.

Истеъмолчилик Рухи: Янги глобал маданият истеъмолчилик руҳида бўлиб, пайғамбарлар ахлоқини фойда ва даромад ахлоқи билан алмаштиради.

Нотоғри Индивидуализм: Бу фалсафа одамни ўзини ўзи яратувчи, тўлиқ мустақил, жамиятга миннатдорлик билдирмайдиган шахс сифатида кўради. Бу эса **тавҳид тамойилига** бутунлай зид.

Ахлоқий бузилишлар тарғиботи: Оммавий кўнгилочар воситалар ва коммуникатсия тармоқлари Ғарб жамиятидаги **ахлоқий бузилишларни** (никоҳдан олдинги жинсий алоқалар, гомосексуализм, спиртли ичимликлар) гўёки “нормал” ҳаёт сифатида тарғиб қилади. Бу жараён кино, интернет, мусиқа ва реклама каби соҳаларни ўз ичига олади.

2.4. “Эркинлик” тушунчасининг нотоғри талқини

Ғарб маданияти илгари сураётган “эркинлик” тушунчаси ҳақиқий бахт манбаи бўлган танлаш эркинлигини, йўл-йўриқсиз ва масъулиятсиз хатти-ҳаракат эркинлиги билан аралаштириб юборган. Уларнинг “эркинлик” ва “инсон ҳуқуқлари” деб атаган нарсаси аслида одамнинг истаган ишни қилиш ҳуқуқидир.

Бу нотоғри талқин салбий оқибатларга олиб келади:

- Спиртли ичимлик ичиш “эркинлиги” — ичкиликбозлик ва қарамликка.
- Жинсий бузуқлик “эркинлиги” — ОИТС каби касалликлар тарқалишига.
- Қимор ўйнаш “эркинлиги” — молиявий йўқотишларга.
- Фоизхўрлик “эркинлиги” — банкротликка.

Ислом дунёқарашига кўра, эркинлик — Худо ҳалол қилган нарсалар орасида танлаш ҳуқуқи, чексизлик эса — тўғри ёки нотоғрилигидан қатъи назар, хоҳлаган ишни қилишдир. Маданий глобаллашувнинг асосий белгиси

бу глобал фикрий ҳукмронлик натижасидаги танлаш эркинлигининг йўқолишидир.

Маданий глобаллашувнинг ҳозирги шакли, чуқур моддий, дунёвий ва индивидуалистик фалсафага асосланганлиги сабабли, у мусулмон уммати ва диний кадриятларга асосланган ҳар қандай маданият учун жиддий мафкуравий таҳдид ҳисобланади. Бу таҳдиднинг асосий мақсади – Ислом маданиятини йўқ қилишга, яъни инсон билан Аллоҳ ўртасидаги алоқанинг асоси бўлган пайғамбарликка ишониш ва унга асосланган диний амалиётларни заифлаштиришга қаратилган.

Мусулмонлар учун ҳимоя йўллари ва тавсиялар:

1. **Тавҳид ва исломий дунёқарашни мустаҳкамлаш:** Мусулмонлар ўз эътиқодлари, яъни тавҳид тамойилига қаттиқ амал қилишлари ва исломий дунёқарашнинг ҳаққонийлигини мустаҳкамлашлари зарур. Исломда дунёвийлик охиратга тайёргарлик эканини англаш.

2. **Технологик ва илмий интерпация:** Глобаллашувнинг ижобий жиҳатларидан (илм-маълумот, технология, бошқарув кўникмалари) фаол фойдаланиш, аммо буни ижтимоий мувозанат ва диний кадриятларни белгиловчи асосий қоидаларни сўзсиз бузмаган ҳолда амалга ошириш керак.

3. **Оммавий маданиятга қарши маданий иммунитет:** Ёш авлод онгини оммавий ахборот воситалари орқали тарғиб қилинаётган ахлоқий бузилишларга қарши ҳимоя қилиш, исломий ахлоқ ва кадриятларни тарғиб қилиш орқали кучли маданий иммунитетни шакллантириш.

4. **“Эркинлик” тушунчасини тўғри талқин қилиш:** “Эркинлик”ни чексизлик ва масъулиятсиз хатти-ҳаракат эмас, балки Аллоҳ ҳалол қилган нарсалар орасида тўғри танлов қилиш ҳуқуқи сифатида тушуниш ва буни кенг омма онгига етказиш.

Хулоса қилиб айтганда, мусулмон уммати глобаллашув шароитида ўзлигини сақлаб қолиш учун пассив ҳолатда кутиш ўрнига, бу жараёнларда фаол иштирок этиши, бироқ ўз диний ва ахлоқий асосларига қатъий риоя қилган ҳолда ривожланиши лозим. Акс ҳолда, глобал фикрий ҳукмронлик оқими исломий жамиятларни ўз кадриятларидан маҳрум этиш хавфини туғдиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ал-Боқиллани, “Китоб ат-Тамҳид”, Қоҳира, 1984.
2. Амир ар-Рубайъи, “Глобаллашув ва миллий давлат бошқаруви”, ИНТАН журнал, жилд 5, сон 1, 2000.

3. Др Умар Жоҳ «Глобаллашувнинг Ислом оламига таъсири» 21-асрдаги муаммолар ва ташқи алоқалар ва дипломатия институти, Куала-Лумпур, Малайзия, 2001 йил 13 июнь.

4. Саййид Муҳаммад Накиб ал-Атас, “Ислом ва илм фалсафаси” (Islam and the Philosophy of Science), Куала-Лумпур: ИСТАС, 1989 ва 1995.

GLOBALLASHUV VA UNING DINIY ONGGA TA’SIRI: SOF AQIDA NUQTAYI NAZARIDAN

G‘uzarov O‘tkir Umbarovich

Mustaqil izlanuvchi

Xoja Buxoriy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi mudiri

Tel: +998973801886

utkirguzarov@rambler.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonining insonning diniy ongiga ko‘rsatayotgan ta’siri sof islom aqidasi nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Maqolada e’tiqod va aqidaning inson hayotidagi o‘rni, ularning jamiyat barqarorligi va ma’naviy birlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida diniy qadriyatlar va islom aqidasini asrab qolish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Imom G‘azzoliy, Ibn Xaldun va boshqa mutakallimlar qarashlari asosida e’tiqodning ilmiy, aqliy va ma’naviy jihatlari tahlil qilingan. Maqola yakunida globallashuv jarayonida sof aqidani mustahkamlashning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, diniy ong, e’tiqod, aqida, islom ta’limoti, Moturidiy, G‘azzoliy, ma’naviyat, jamiyat barqarorligi, aqoid, sof e’tiqod.

Bugungi kunda insoniyat hayoti globallashuv deb nom olgan murakkab ijtimoiy jarayon bilan uzviy bog‘lanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, kommunikatsiya tizimlarining kengayishi, madaniy va mafkuraviy almashinuvning kuchayishi natijasida dunyo “bir qishloq” darajasiga yaqinlashdi. Bu jarayon iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalar bilan bir qatorda diniy sohada ham o‘zining ijobiy va salbiy ta’sirlarini ko‘rsatmoqda.

Globallashuv zamonaviy inson tafakkuriga, e’tiqodiga, qadriyatlariga, dunyoqarashiga bevosita ta’sir etayotgan jarayondir. Shu sababli bu hodisaga **sof aqida nuqtayi nazaridan** yondashish — ya’ni uni Qur’on, sunnat va Ahli sunna val jamoa manhaji asosida tahlil etish — bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

“Globallashuv” (lot. *globus* — “yer kurrasi”) atamasi dunyoning yagona axborot, iqtisodiy va madaniy maydonga aylanib borishini ifodalaydi [7, 1 b]. Bu

jarayon insonlar o‘rtasidagi aloqalarni osonlashtirgan bo‘lsa-da, u bilan birga turli g‘oyaviy tahdidlarni ham olib keldi. Ayniqsa, diniy ong va e‘tiqod sohasida bu jarayon sezilarli o‘zgarishlar keltirib chiqarmoqda.

Globallashuv insoniyatni umumiy axborot makoniga birlashtirgan holda, diniy qadriyatlarning nisbiylashuviga sabab bo‘lmoqda. Sekulyarizm, g‘arbona erkinlik, individualizm va materializm kabi tushunchalar insonning ruhiy olamiga singib, diniy qadriyatlarga raqobatchi sifatida chiqmoqda. Natijada, ko‘plab yoshlar o‘z e‘tiqodida ikkilanish, diniy masalalarda yuzaki qarash shakllanishi, yoki mutaassib oqimlarga aldanish xavfiga duch kelmoqda.

Islom ta‘limotida “e‘tiqod” yoki “aqida” insonning butun ruhiy hayotini tartibga soluvchi asosiy omildir. “Aqida” arab tilida “aqd” — “bog‘lamoq” ma‘nosidan kelib chiqib, qalbni haqiqat bilan mahkam bog‘lashni anglatadi. [1, 12 b.] Demak, aqida — bu insonning Alloh, Uning farishtalari, kitoblari, payg‘ambarlari, oxirat kuni va taqdirga bo‘lgan qat‘iy iymonidir.

Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Imom Taftazoniy, Imom Jurjoniy kabi mutakallimlar ta‘kidlaganidek, aqida ilmi insonni ilmiy asoslangan e‘tiqod sari etaklaydi. Bu ilm orqali mo‘min inson iymonini dalil va aql bilan mustahkamlaydi, shubha va gumonlardan saqlanadi.

Sof aqida nuqtayi nazaridan globallashuv ikki yo‘nalishda ta‘sir etadi:

1. **Ijobiy jihati** — dinni, Qur‘on va hadis ilmini keng targ‘ib qilish imkoniyati oshadi. Internet va texnologiyalar orqali islomiy manbalar, darslar, ma‘ruzalar, onlayn ta‘lim platformalari orqali diniy bilimlar global miqyosda tarqalmoqda.

2. **Salbiy jihati** — ayni shu vositalar orqali buzuvq firqalar, soxta shayxlar, ekstremistik va g‘ayriislomiy g‘oyalar ham tarqalmoqda. Buning natijasida diniy ongda chalkashliklar, e‘tiqodiy zaifliklar paydo bo‘lmoqda.

Globallashuvning asosiy tahdidi — bu **nisbiylik mafkurasidir**. Ya‘ni “hamma haqli”, “har kim o‘zi xohlagancha ishonadi” degan g‘arbona dunyoqarash. Bu qarash sof islomiy aqidaga zid bo‘lib, Alloh tomonidan nozil qilingan yagona haq din tushunchasini zaiflashtiradi. Qur‘on Karimda bu haqda shunday marhamat qilinadi:

“Albatta, Allohning huzuridagi din — Islomdir.”

(*Oli Imron surasi, 19-oyat*) [2, 320 b.]

- Allohning huzurida faqat Islomgina to‘g‘ri, maqbul dindir. Undan boshqalari qanday nomlansa ham Allohning huzurida e‘tiborsizdir.
- Islom bandalarning faqat Alloh taologa to‘liq ibodat qilishidir.
- Islom bandalarning faqat Alloh taolo ko‘rsatgan yo‘ldan yurishidir.
- Islom bandalarning faqat Alloh taoloni ibodatga sazovor yagona zot deb tan olishidir.

- Islom bandalarning faqat Alloh taoloni o‘zlari ustidan yagona qoim turuvchi deb tan olishlaridir.

Demak, sof aqida nuqtayi nazaridan, globallashuvni qabul qilish mumkin, ammo uning natijasida diniy relyativizm [8, 1 b](e’tiqodiy nisbiylik)ga berilmaslik zarur.

Imom Abu Mansur al-Moturidiy o‘z ta’limotida aql, naql (vahiy) va tajriba uyg‘unligini asoslab berdi. U zotga ko‘ra, inson e’tiqodi uch omil bilan mustahkamlanadi:

Aql — e’tiqodni dalil bilan isbotlash vositasi;

Ilm — insonni jaholatdan, bid’at va gumondan asraydigan nur;

Dalil — Qur’on va sahih hadislar orqali iymon asoslarini mustahkamlovchi manba.

Moturidiylik, Ahli sunna val jamoa yo‘li sifatida, insonni muvozanatli fikrlashga, din va dunyo orasidagi uyg‘unlikni saqlashga chorlaydi. Bu yo‘l globallashuv davrida ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydigan eng to‘g‘ri manhajdir.

Globallashuv davrida diniy ongni himoya qilish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Ilmiy asoslangan diniy ta’limni kuchaytirish.** Yoshlarni Qur’on, sunnat va aqida ilmi asosida o‘qitish — e’tiqodiy immunitetni shakllantiradi.

2. **Moturidiy merosini chuqur o‘rganish.** Chunki bu ta’limot dalil va mantiqqa asoslangan e’tiqodiy tizimdir.

3. **Axborot savodxonligini oshirish.** Soxta manbalardan himoyalaniish uchun diniy axborot manbalarining ishonchliligini tekshirish zarur.

4. **Ommaviy axborot vositalarida islomiy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish.** Globallashuv vositalaridan foydali maqsadda foydalanish diniy ongni mustahkamlaydi.

5. **Oilaviy va ijtimoiy tarbiyada e’tiqodiy tarbiya berish.** Bola yoshligidan islomiy qadriyatlar bilan tanishsa, keyingi bosqichda globallashuv ta’siriga bardosh bera oladi.

Globallashuvning diniy ongga ta’siri faqat e’tiqod bilan cheklanmaydi. U axloqiy qadriyatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Dunyo miqyosida iste’molchilik, lazzatparastlik, individualizm va ma’naviy beparvolik kuchaymoqda. Bunday muhitda sog‘lom e’tiqod — insonni ma’naviy halokatdan asraydigan qalqondir. Islom aqidasi e’tiqod, amal va axloq bir butun tizimdir. Imom G‘azzoliy shunday degan:

“E’tiqod daraxtdir, amal uning mevasi, axloq esa soyasidir. Daraxtni tuzatmasdan meva keltirmas.”

Demak, globallashuv sharoitida diniy amallarni emas, avvalo, e’tiqod asoslarini to’g’ri shakllantirish zarur. Chunki e’tiqod buzulsa, jamiyatning axloqiy ustunlari ham emiriladi.

Globallashuv — bu zamonaviy dunyoning muqarrar jarayoni. Ammo u insonning e’tiqodi va diniy ongi uchun sinov maydonidir. Sof aqida nuqtayi nazaridan qaraganda, globallashuvning salbiy ta’sirlarini bartaraf etishning yagona yo’li — **sog’lom e’tiqod, chuqur ilm va mustahkam diniy tafakkur**dir.

Moturidiylik va Ahli sunna val jamoa yo’li — bu globallashuv asrida mo’min insonni adashuvdan saqlaydigan eng ishonchli yo’nalishdir.

Shunday ekan, har bir musulmon, ayniqsa yosh avlod, globallashuvning ta’sirlariga qarshi ruhiy tayyorgarlik ko’rishi, o’z e’tiqodini ilm, dalil va Qur’on asosida mustahkamlashi lozim. Chunki sog’lom e’tiqod — nafaqat shaxsiy fazilat, balki millat va ummat barqarorligining poydevoridir.

Alloh taolo marhamat qiladi:

“Ularni zulmatlardan nurlarga chiqarur.” (*Baqara surasi, 257-oyat*) [3, 265 b.]

Iymon deb atalgan nurga chiqaradi. Allohning yo’li, Iymon yo’li bitta nur yo’lidir. Zulmatlardan iborat bo’lgan noto’g’ri yo’llar esa juda ko’p. Shuning uchun ham oyatda nur birlikda, zulmatlar ko’plikda zikr qilinmoqda.

Globallashuv insoniyat hayotining barcha jabhalariga ta’sir qilayotgan murakkab jarayondir. U diniy ong va e’tiqod sohasiga ham ijobiy va salbiy ta’sirlar ko’rsatadi. Sof aqida nuqtayi nazaridan qaraganda, musulmon kishi o’z e’tiqodini Qur’on, sunnat va Ahli sunna val jamoa yo’li asosida mustahkamlashi lozim. Sog’lom e’tiqod inson qalbini haqiqat bilan bog’lab, jamiyatni adolat, tinchlik va bag’rikenglik sari etaklaydi. Shu bois, globallashuv sharoitida e’tiqodiy barqarorlikni saqlash, yosh avlodni diniy bilim bilan tarbiyalash va ilm asosida iymonni mustahkamlash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Demak, sof aqida — musulmon jamiyatining ma’naviy poydevori va globallashuv sharoitida xavfsizlik kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Qoriy, Ali ibn Sultan Muhammad. *Sharh al-Fiqh al-Akbar*. — Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyyah, 2001. — B. 12.
2. Giddens, Anthony. *The Consequences of Modernity*. — Stanford University Press, 1990. — B. 64.
3. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. *at-Tavhid*. — Riyadh: Dar al-Salam, 2005. — B. 35.
4. Taftazoniy, Abu Nasr. *Sharh al-Aqoid*. — Tehran: Bunyad-i Tarikh va Farhang-i Islami, 1999. — B. 88.

5. Imom Jurjoniy. *Ta'rif al-Aqida*. — Qohira: Dar al-Kutub al-Misriyya, 2000. — B. 55.
6. G'azzoliy, Abu Hamid. *Ihyo 'Ulum al-Din*. — Damashq: Dar al-Fikr, 1995. — B. 112.
7. https://www.sup.org/books/sociology/consequences-modernity?utm_source
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Relyativizm>

GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

*Jiyanov Ulug'bek Nasriddinovich
Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi,
Buxoro shahri, +998507056366*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuvning islomiy e'tiqod, xususan, sof aqidaga ta'siri ko'rib chiqiladi. Sof aqida – Allohga, payg'ambarlarga, oxiratga ishonchni ifodalovchi to'g'ri e'tiqoddir va Islom dinining asosiy e'tiqodiy tamoyillarini o'z ichiga oladi. XXI asrda internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sof aqidaga turli tahdidlar keltirmoqda, chunki yosh avlod ko'pincha noto'g'ri ma'lumotlar asosida diniy qarashlarini shakllantirmoqda.

Maqola, sof aqidani saqlash uchun diniy ta'limni ilmiy asosda olib borish kerakligini ta'kidlaydi. Sof aqida faqat diniy masala emas, balki musulmonlarning dunyoqarashi va hayot falsafasining asosi ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: “Aqida”, “globallashuv”, “Ahlus sunna”, “Moturiydiylik”, “Ash'ariylik”, “sof”, tafakkur”, “sobit”...

Bismillahir rohmanir rohiym

Inson yaralibdiki, albatta nimagadir ishonib, e'tiqod qilib yashaydi. Ko'zi bilan ko'rmasa ham aql va zakovati bilan anglagan va ishongan narsalari inson hayotida muhim rol o'ynaydi. U ishongan eng muhim narsalardan biri Allohning borligi va yagonaligidir. Odamzot Allohga talpinib yashaydi. Lekin Xudoni izlagan hamma ham to'g'ri e'tiqodda bo'lavermaydi. Chunki haqni topishning o'z qonun-qoidasi bo'lib uning asosida harakatlanmagan inson adashib ketishi turgan gap. Shuning uchun o'zimizning ham, yosh avlodning ham aqidasi sof va to'g'ri bo'lishiga harakat qilishimiz kerak. Xo'sh sof aqida nima?

Sof aqida – bu insonning Allohga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirga va boshqa asosiy e'tiqod masalalariga oid qat'iy va aniq ishonchi demakdir. U islomiy hayot va dunyoqarashning markazida turadi hamda musulmon shaxsining dunyoni idrok etishi, unda o'z o'rnini belgilashida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning yana bir

nomi “Ahlus sunna val jamoa aqidasi”dir. Ahlus-sunna val-jamoa aqidasi Islom olimlari tomonidan Qur’onu sunnatga muvofiq eng ishonchli va mo’tabar manba sifatida musulmon ummati asrlar davomida e’tirof etib kelayotgan e’tiqod hisoblanadi. Haqda sobit turish va adashib ketmaslik uchun mazkur e’tiqodni yaxshi anglab etishishimiz lozim. Lekin to’g’ri e’tiqodni saqlab qolish uchun har bir zamonda o’ziga xos uslublardan foydalanish o’ta muhimdir.

XXI asr insoniyat tarixida axborot, texnologiya va madaniyatlar o’rtasidagi chegaralar tobora yo’qolib borayotgan, har bir sohada globallashuv jarayonlari jadallik bilan kechayotgan davr sifatida ajralib turadi. Bu jarayonlar inson hayotining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy qatlamlarini qamrab olgani singari, diniy tafakkur va e’tiqod sohalariga ham chuqur ta’sir ko’rsatmoqda. Ayniqsa, globallashuvning diniy maydondagi eng sezilarli oqibatlaridan biri bu sof aqida — ya’ni Islom dinining asl e’tiqodiy asoslarini himoya qilish, tushunish va avlodlarga to’g’ri etkazish masalasining dolzarblashganidir.

Aslida “Aqida” so’zi arab tilidagi “aqada” fe’lidan olingan bo’lib, “bog’lamoq”, “mustahkam tutmoq” ma’nolarini anglatadi. Shar’iy ma’nosi esa yuqorida ta’kidlangani kabi, Alloh va Uning sifatlariga, farishtalarga, payg’ambarlarga, ilohiy kitoblarga, oxirat kuniga, qadar (taqdir)ga bo’lgan qat’iy e’tiqodlar majmuasidir. Bu e’tiqodni sof va pokiza saqlash uchun uni bid’at, xurofot, falsafiy yoki insoniy ta’sirlardan saqlab, Qur’on va sunnat asosida qalbga mahkam tugishimiz kerak. Islomiy fathlar davrida ham musulmonlar boshqa millat va elatlar bilan aralashishlari natijasida xuddi hozirgidek aqidaga turli ma’naviy tahdidlar vujudga kelgan edi. Turli millatlardan islom diniga kirgan insonlar oldingi e’tiqodlari qoldiqlaridan batamom qutulolmay aqidada turli xatoliklarga yo’l qo’yishgan, buning natijasida turli oqim va fiqrlar vujudga kelgandi. Bunday tahdidlarga haqda sobit ulamolar javoblar berib o’z vaqtida bularga barham berishgan edi. Bir so’z bilan aytganda Ahlus-sunna val-jamoa ta’limoti musulmon ummatining e’tiqodiy birligini saqlab qolishda asosiy rol o’ynadi. Bu ta’limotning ikki asosiy maktabi – Moturidiylik va Ash’ariylik – asrlar davomida musulmon dunyosida sof e’tiqodning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi. Imom Abu Mansur al-Moturidiy (v. 944) Movarounnahrda, Imom Abu al-Hasan al-Ash’ariy (v. 936) esa Iroq hududida e’tiqodiy ilmlarni tartibga soldi. Ularning asarlari, xususan, imom Moturidiyning “*Kitob at-Tavhid*”, imom Ash’ariyning “*al-Ibana*” asarlari hamda ularga ergashgan buyuk ulamolarning turli matn va sharh kitoblari sof aqidaning ilmiy asoslarini belgilab berdi. Bu maktablar Qur’on va sunnat asosida aqlni ham e’tiborga olib, diniy masalalarga muvozanatli yondashuvni ta’minladi.

Hozirgi kunda ham globallashuv natijasida insoniyat ongi axborot maydoniga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali

dunyoqarashlar aralashib, turli mafkuralar va diniy qarashlar bir zumda keng auditoriyaga etib boradigan va singdiriladigan bo'ldi. Bu jarayon esa bugun sof aqida uchun xavf tug'dirmoqda. Chunki, e'tiqodga tegishli bo'lgan har qanday ma'lumot ilmiy tahlilsiz va tanqidiy fikrlarsiz qabul qilinmoqda. Natijada, aqidaviy masalalarda chalkashliklar, noto'g'ri talqinlar va xatoliklar yuzaga kelmoqda. Qolaversa, bu globallashuv fonida diniy bag'rikenglikni xato talqin qilib, “Dinlarning birlashishi” deytganlarga ham duch kelmoqdamiz. Ba'zi g'arb g'oyalari barcha dinlarni birdek haqiqat deb e'tirof etishga chorlamoqda, “Har bir inson o'zicha haq” degan yondashuvni ilgari surmoqda. Bunday qarashlar islomiy e'tiqodning “Haqiqat bitta” tamoyiliga zid bo'lib, musulmonlar orasida aqidaviy zaiflikni kuchaytiradi. Ayniqsa, bunday xato e'tiqodlar to'yintirilgan yoshlar na Vatanning, na Millatning va na dinning hurmatini joyiga qo'yishadi. Buning tasdig'ini hayotimizda ko'rib turibmiz. Chunki ularga bu haqda aytilayotgan gaplarga “Bu nisbiy haqiqat, aslida bu gaplar cho'pchak” deb qarashyabdi. Oqibatda, dinsizlik kuchayib, diniy qadriyatlarining inson hayotidagi o'rnini kamaytirishga olib kelmoqda. Shuningdek, bu harakatlarga qarshi o'laroq yangi diniy harakatlar, turli oqimlar paydo bo'lib, an'anaviy aqidani soxta “yangilanish” nomi bilan almashtirishga intilmoqda. Internet erkinligining natijasi sifatida diniy mavzularda mutaxassis bo'lmagan shaxslarning chiqishlari, noto'g'ri tarjimalar va kontekstdan uzilgan hadislar keng tarqalmoqda. Bu holat sof aqidaga nisbatan shubhalar tug'dirib, musulmonlarning e'tiqodida parokandalikni kuchaytirmoqda.

Yoshlarga to'g'ri tushuntirilmagani sabab ular o'z dunyoqarashini va diniy ehtiyojini asosan internetdan shakllantirmoqda. Bu esa ularni ko'pincha noto'g'ri va radikal manbalarga em bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Diniy savodsizlik tufayli ular yo noto'g'ri e'tiqodiy yo'nalishlarga berilib ketish, yoki bo'lmasa dinsizlik balosiga muhtalo bo'lish xavfi ostida qolmoqda. Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi inson hayotini osonlashtirgan bo'lsa-da, bu globallashuv natijasida ba'zi doiralarda “Ilm diniy e'tiqodning o'rnini bosadi” degan noto'g'ri qarashlar paydo bo'lgan. Bu esa juda xatarli qarash bo'lib, bizning zimmamizga sof e'tiqodni asrash vazifasini yanada qattiqroq yuklaydi. Diniy ta'limni zamonaviy usul va metodlar bilan uyg'unlashtirish hozir har doimgidan ham zarur hisoblanadi. Chunki, yosh avlodni globallashuv sharoitida e'tiqodiy jihatdan ham mustahkam qilish, ularni har kim aldayolmaydigan sof aqida bilan ta'minlash – ular ko'p qo'llanadigan o'sha zamonaviy usullar bilan bo'ladi. Ularga ruhiy ozuqa ham muhimligini eng chiroyli va oson tarzda anglatishimiz kerak. Zero ruhiy-ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashish sof aqidaning hayotdagi o'rnini kamaytiradi.

Sof aqidani saqlashning eng asosiy yo'llaridan biri – uni chuqur va ilmiy asosda o'rganish va o'rgatishdir. Qur'on va sunnat asosidagi e'tiqodiy ta'limni kengaytirish,

imom Moturidiy rohmatallohi alayh merosini yosh avlodga etkazish orqali noto‘g‘ri g‘oyalarga qarshi immunitet hosil qilinadi. Bugungi yoshlar asosan raqamli platformalar orqali bilim olmoqda. Shu bois diniy targ‘ibot va ta‘lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslash zarur deb bilamiz. Televideniya, radio va internet platformalarida mutaxassislar tomonidan tayyorlangan sifatli diniy kontent yaratish – muammoga salmoqli echim bo‘ladi.

Yana shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, to‘g‘ri e‘tiqod barcha insonlar uchun zarur bo‘lgani kabi, uni himoya qilish ham faqat diniy doiralar zimmasidagi vazifa emas. Balki bu - barcha vatandoshlar birgalashib, haqiqiy ulamolar maslahati va ko‘rsatmasi bilan bajariladigan muhim ishlardandir. Zero sof aqida – bu faqat diniy ta‘limot emas, balki musulmon shaxsining dunyoqarashi, qadriyati va hayot falsafasining asosi hisoblanadi. Uni asrash har bir musulmonning burchi bo‘lib, ilm, tafakkur va ma‘naviyat uyg‘unligida harakat qilgan ummat globallashuv sinovlaridan omon chiqadi va o‘z e‘tiqodini mustahkam saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Moturidiy, Abu Mansur. *Kitob at-Tavhid*. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2001.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Iymon*. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2015.
3. Al-Ash‘ariy, Abu al-Hasan. *Al-Ibana ‘an Usul ad-Diyana*. – Qohira: Maktabat as-Salafiyya, 1990.
4. Qur‘on Karim. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2017.
5. Abu Zahra, Muhammad. *Tarikh al-Madhahib al-Islamiyya*. – Qohira: Dar al-Fikr, 1989.
6. Hasanov M. *Globallashuv va ma‘naviyat: dolzarb muammolar*. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2020.
7. Ramadan Tariq. *Islam and the Arab Awakening*. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
8. Esack Farid. *Qur‘an, Liberation and Pluralism*. – Oxford: Oneworld, 1997.
9. Yusuf al-Qaradawi. *Al-Islam wa al-‘Aql al-Mu‘asir*. – Qohira: Maktabat Wahba, 2010.
10. Qarshiyev A. *Globallashuv va diniy qadriyatlar*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2022.
11. Rahmonov B. *Globallashuv sharoitida diniy qadriyatlarni asrash masalalari*. O‘zbekiston Islom akademiyasi ilmiy jurnali, №3, 2022.

MOTURIDIYLIKDA ILM MANBALARINING KOMIL TIZIMI

Maxmudov Asrorxon Yusufxonovich,

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi

erkin izlanuvchisi. Mir Arab oliy madrasasi katta o'qituvchisi

Telefon: +998905130515

Annotatsiya: Moturidiya ta'limotining fundamental asoslari va xususiyatlariga bag'ishlangan ushbu maqolada, Imom Abu Mansur al-Moturidiy (r.a.) tomonidan ilgari surilgan “Asbobul-Ilm” (ilm hosil bo'lish sabablari) tushunchasi chuqur tahlil qilinadi. Ta'limotga ko'ra, haqiqatga erishishning uchta asosiy manbai mavjud: Hislar (sezgilar), rost xabar (naql) va aql. Matnda ushbu uch manbaning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi va komil tizimni tashkil etishi ko'rsatilgan. Hislar birlamchi ma'lumotni bersa, Aql uni tahlil qiladi. Naql esa his va aql qamrab ololmaydigan g'aybiy haqiqatlarni ochib beradi. Maqolada aqlning nafaqat mustaqil ilm manbai, balki vahiyni anglash kaliti va taklifning asosi ekanligi, shuningdek, Moturidiylar tomonidan aql va naql o'rtasida o'rnatilgan muvozanat va uning chegaralari yoritilgan.

Kalit so'zlar: asbobul-ilm, aql, naql, rost xabar, sezgilar, jannat, do'zax, mo'jiza, din, kitob.

Kirish. Moturidiya ta'limoti islomiy aqidaning eng nufuzli maktablaridan biri bo'lib, o'zining e'tiborini dastlab ilm hosil bo'lish sabablari tushunchasiga qaratadi. Ushbu ta'limotning buyuk imomi, Alloma Abu Mansur al-Moturidiy rahimahulloh tomonidan asoslangan bu maktab, haqiqatga erishishda turli manbalarning uyg'unligini ilgari suradi. Moturidiy ulamolarning ta'limotiga ko'ra, ilm hosil bo'lishining sabablari uchta asosiy poydevorga qurilgan: 2. Hislar, ya'ni, 5 ta salomat sezgilar. 2. Rost xabar (naql): Ishonchli va qat'iy ma'lumot beruvchi naqliy manbalar. 3. Aql: Tafakkur va istidlol qilish qobiliyati.

Moturidiylikda his, aql va naql o'zaro uzviy bog'liq, yagona va komil tizimni tashkil etadi. Bu tizimda: His – birlamchi ma'lumotni etkazadi. Aql – his orqali kelgan ma'lumotni tahlil qiladi, tartibga soladi va xulosa chiqaradi. Naql (rost xabar) – his va aql qamrab ololmaydigan g'aybiy va ilohiy haqiqatlarni ochib beradi. Moturidiylar bu uch manbaning birgalikda ishlashini ilmning komil tizimi deb hisoblaganlar. Ular aql va naqlning mutlaq hukmronligini tan olgan guruhlardan ham, hisni mutlaq manba deb bilganlardan ham ajralib turib, o'rta va muvozanatli yo'lni tutganlar.

Moturidiylar nazdida, dalil keltirish va haqiqatga etish yo'llaridan biri – bu hissiy idrok, ya'ni 5 ta zohiriy sezgilar orqali bilishdir: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va teri orqali his qilish. [1, 65-69-betlar.] Bu sezgilar inson uchun atrof olam haqida birlamchi ma'lumot beruvchi va ilm hosil qilishda muhim vosita bo'ladi.

Imom Moturidiy o‘zlarining “Kitobut-Tavhid” asarlarida: “Inson ilmining boshlang‘ich manbai his va idrokdir. Chunki his orqali hosil bo‘lgan ma’lumot tafakkur va istidlol uchun zamin yaratadi” [2, 175-bet.] deganlar. Demak, his – ilmning ilk va zaruriy pog‘onasi hisoblanadi. Inson avval his qiladi, keyin uni aqliy tahlil qiladi va xulosaga erishadi. Masalan, inson olamdagi harakatlarni, yaratilgan narsalarning tartibli bog‘liqligini his qiladi. Bu hissiy ma’lumotlar asosida uning aqli Yaratuvchi bor ekani haqida xulosa chiqaradi.

Qur’oni Karim ham insonni o‘z atrofidagi jarayonlarni sezgilari ila kuzatish orqali haqiqatga erishishga chaqiradi: **“Ayting: “Yer yuzida sayr etib yuringlar va maxluqotlarni U zot avval-boshdan qanday yaratganiga nazar solinglar...”** (Ankabut surasi, 20-oyat). [3, 398-bet.] Bundan tashqari, Moturidiylar nazdida his orqali hosil bo‘lgan bilim – zaruriy (dalil haqida fikr yuritishga muhtoj bo‘lmaydigan) ilmdir. Abul Muin Nasafiy “Tabsiratul-adilla” asarida: “His orqali hosil bo‘lgan ilm — zaruriy ilmdir, chunki inson his etilayotgan narsalar haqida shubha qilmaydi” [4, 15-16-betlar] deganlar.

Moturidiylar hisni qadrlagan holda, uni mutlaq ilm manbai sifatida qabul qilmaganlar. Ular hisning faqat moddiy olamni idrok etish bilan cheklanganini ta’kidlaydilar. Allohning Zoti, malakut olami, jannat va do‘zax kabi g‘aybiy ishlar va ma’naviy haqiqatlar his doirasidan tashqaridir. Shuningdek, his ba’zan adashtirishi (masalan, suv ichidagi narsaning singandek ko‘rinishi) mumkin. Shu bois, salomat sezgilar aql va naql bilan birga ishlaydigan tizimning faqat bir qismi deb belgilangan.

Moturidiya ta’limotining asosiy xususiyatlaridan biri aql va naql (rost xabar) o‘rtasidagi muvozanat va uyg‘unlikni ta’minlashdir.

Moturidiy ulamolar nazdida rost xabar (naql) – ishonchli va qat’iy ma’lumot beruvchi manbadir. Imom Moturidiy: “Din ikki asos orqali bilinadi: biri sam’iy dalil (ya’ni naql), ikkinchisi aqliy dalil” [5, 179-bet] deganlar. Moturidiylar nazdida “rost xabar” deganda faqatgina xabar emas, balki qat’iy ilmni ifodalovchi xabarlar tushuniladi. Bular ikki turga bo‘linadi: Mutavotir xabar: Turli makon va zamonlarda ko‘p sonli kishilarning yolg‘onga kelishib olishi aqlan mumkin bo‘lmagan darajada bir xil ma’lumotni naql qilgan xabar. Bu turdagi xabar zaruriy ilmni ifodalaydi. Rasulning xabari: Mo‘jiza bilan tasdiqlangan nabiy yoki rasul etkazgan xabar. Bu istidloliy (dalillashtirilgan) ilmni ifodalaydi. Chunki aql mo‘jizani ko‘rib, rasulning rostgo‘yigini tasdiqlaydi. Rasulning yolg‘on gapirishi mumkin emas, aks holda Alloh taoloning murodi (ilohiy hukmlarni etkazish maqsadi) amalga oshmay qolgan bo‘lar edi. Bu esa joiz emas. Demak, rasulning yolg‘on gapirishi mumkin emas.

Moturidiylar ta’limotida aql – Alloh taolo insonlarga bergan ulkan ne‘mat bo‘lib, u orqali inson haqiqatni anglaydi, haqni botildan ajratadi. Aql nafaqat

ma'lumotni tahlil qiluvchi vosita, balki mustaqil ilm manbaidir. Imom Moturidiy: “Alloh taoloning borligi, yagona ekani va sifatlarini bilishda aqlning ulkan o'rni bor. Aql — Allohni tanishga eltuvchi ilk vositadir” [6, 182-bet] deganlar.

Aql nafaqat mustaqil ilm manbai, balki naqliy dalillarni (Qur'on va Hadisni) to'g'ri anglash uchun kalit hamdir. Abul Muin Nasafiyning so'zlariga ko'ra, “Aql va vahiy bir-biriga zid bo'lmaydi. Chunki har ikkalasi Alloh taoloning ne'mati va hidoyatidir”. [7, 20-bet] Vahiy aqlni nur bilan to'ldiradi, aql esa vahiyning tushunishga xizmat qiladi. Moturidiylar nazdida aql bo'lmagan joyda taklif (diniy mas'uliyat) ham yo'qdir. “Taklif, aql bilan bog'liqdir. Aqlsiz kishiga shariat hukmi yo'q” qoidasi Moturidiy aqidasi asoslaridan biridir.

Moturidiylar aqlni ulug'lagan bo'lsalar-da, uni mutlaq hukmdor darajasiga ko'tarmaganlar. Aql Allohning borligi va sifatlarini tanisa-da, Uning Haqiqatini to'liq idrok eta olmaydi. Shu bois, Moturidiylar aqlni mutlaq hokim deb bilgan faylasuflardan ham, aqlni butunlay rad etgan mutaassib guruhlardan ham farq qilib, o'rta yo'lni tutganlar.

Xulosa qilib aytganda, Moturidiya ta'limotida insonni komil ma'rifatga etkazuvchi ushbu uch manba (his, aql va naql) bir-birini to'ldiruvchi, uzviy va uyg'un tizimni tashkil etadi. Aql va naqlning bir-biriga muqobil emas, balki bir-birining mohiyatini ochishga xizmat qilishi Moturidiy aqidasi eng yorqin va go'zal jihatidir. Ular aqlning salomat hissiy ma'lumotlar asosida Yaratuvchini anglashga etaklashi va naql (vahiy)ning esa aql va his qamrab ololmaydigan g'aybiy haqiqatlarni ochib berishi orqali, insonni haqiqiy ilohiy ma'rifatga erishtirishni asoslab berganlar.

AQIDA BO'YICHA KLASSIK ASARLARNING BUGUNGI TALQINI

Saidov Ibrohim

Mir Arab oliy madrasasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqida ilmining tarixiy merosi bo'lgan klassik asarlar mazmuni bugungi davr talqinida qayta o'rganiladi. Asosiy e'tibor ilmiy manbalardagi aqidaviy qarashlarning zamonaviy dinshunoslik yondashuvlari bilan uyg'unlashuviga, talabaniy diniy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi metodik imkoniyatlariga qaratiladi. Shuningdek, klassik matnlarning hozirgi zamon yoshlarining tafakkuri, ijtimoiy-medial muhit hamda diniy-ma'naviy savodlilikka ta'sir etish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aqida bo'yicha yaratilgan qadimiy manbalarni zamonaviy talqin va ilmiy sharhlar bilan uyg'unlashtirish diniy saboqlilik va ma'rifiy immunitetni kuchaytirishda samarali vosita bo'lishi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: aqida, klassik asarlar, diniy dunyoqarash, zamonaviy talqin, aqidaviy meros, maʼrifiy immunitet, diniy-maʼnaviy savodlilik.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida diniy-maʼnaviy qarashlar, eʼtiqodiy tasavvurlar va ruhiy tamoyillarning mazmun-mohiyatini toʻgʻri anglash yoshlar tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, aqida boʻyicha klassik asarlarning ilmiy jihatdan qayta oʻrganilishi, ularning mazmunini zamonaviy talqin asosida tahlil qilish taʼlim hamda ilmiy izlanishlarda dolzarb mavzu sanaladi. Chunki aqidaviy manbalar nafaqat eʼtiqodning nazariy asoslarini tushuntiradi, balki insonning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy maʼnaviy immuniteti va fikriy mustahkamligining shakllanishiga ham bevosita taʼsir etadi.

Shuni alohida taʼkidlash joizli, mamlakatimizda diniy-maʼnaviy ongni sogʻlom shakllantirish va diniy bilimlarni ilmiy yondashuv asosida oʻqitish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Buni “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonunning 2021-yil 5-iyuldagi yangi tahriri mazmuni ham tasdiqlaydi. Mazkur qonunda diniy taʼlim jarayoni, diniy bilimlarni oʻrgatish tartibi va ilmiy sharhlash asosiy tamoyillar sifatida belgilangan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5953-son Farmoni 2020-yil 7-fevralda ilm-maʼrifatni rivojlantirish va yoshlar tafakkurini ilmiy asosda shakllantirish vazifalarini belgilagan boʻlib, bu oʻz navbatida diniy merosni zamonaviy ilmiy talqin bilan oʻrganish zarurligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, PQ-5937-sonli Qaror 2020-yil 3-fevralda maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlar ongida sogʻlom eʼtiqod, xolis diniy qarashlarni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratgan.

Shu bilan birga, aqidaning klassik manbalarida ilgari surilgan tushunchalar bugungi davr kontekstida ilmiy mantiq, fikriy tahlil va izchil sharhlar orqali qoʻllanilganda, ular yosh avlod ongida diniy tushunchalarning toʻgʻri shakllanishi va radikalizmning oldini olish jarayonida samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Zero, qadimiy aqida asarlarini zamonaviy ilmiy-pedagogik sharhlar bilan uygʻunlashtirish diniy-maʼnaviy taʼlimning sifatini oshirish, xolis dunyoqarashni shakllantirish va diniy bilimlarni sistematik yondashuvda talqin qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat ilmiy izlanishlar uchun, balki amaliy taʼlim jarayonlarida oʻqituvchi, talaba va tadqiqotchilar uchun ham zaruriy metodik asos hisoblanadi. Shu sababli ushbu mavzuning oʻrganilishi bugungi kunda diniy saboqlilik darajasini oshirish, qadriyatga asoslangan dunyoqarashni rivojlantirish hamda aqidaviy manbalarni teran oʻrganishga ehtiyojning ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Aqida ilmining oʻrganilishida klassik manbalar alohida oʻringa ega, chunki ular eʼtiqodning nazariy, mantiqiy va daliliy asoslarini shakllantirgan fundamental poydevor hisoblanadi. Masalan, Imom Abu Mansur al-Moturidiyning “Kitob at-

Tavhid” asari moturidiy aqida maktabining asosiy manbasi bo‘lib, unda aqida masalalari aqliy dalillash asosida izohlangan¹. Bu asar o‘z mohiyatida e’tiqod faqat marosim yoki shior emas, balki inson miyasida mantiqiy asosga ega bo‘lishi kerakligini isbot etadi. Shu sababli Moturidiy maktabida aqida “aql bilan mustahkamlangan e’tiqod” sifatida qarang.

Shuningdek, Imom Abu Hafs an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiy” asari qisqa, lo‘nda, ammo juda tizimli tuzilishga ega bo‘lgani sababli asrlar davomida madrasa ta’limida asosiy matn sifatida o‘qitib kelingan. Bu matnning eng kuchli jihati aqidani qisqa jumlar bilan ifodalab, keyinchalik yuzlab sharh va izohlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganidir. Ya’ni, Nasafiy matni bugungi pedagogik talablarga ham mos: mazmun ixcham, tushuntirish esa sharh orqali amalga oshiriladi. Bu bugungi zamonaviy o‘qitish metodlariga juda yaqin ya’ni, asosiy mazmunni qisqa berish, fikrlashni esa izohlash orqali shakllantirish.

Aqidani faqat nazariy bilim emas, balki ruhiy-ma’naviy tozalanish vositasi sifatida ko‘rsatgan olimlardan biri Abu Homid al-G‘azzoliy bo‘lib, u “Ihyo ulumiddin” asarida e’tiqod va amal uyg‘unligini inson qalbini tarbiyalashning asosiy omili deb izohlaydi. G‘azzoliy yondashuvi bugungi psixologik-pedagogik talqinlar bilan mutanosib ravishda, aqida inson ruhiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qilishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Chunki inson faqat bilgan e’tiqodga amal qilganda, o‘sha aqida uning axloqiga, xulqiga va hayotiy qarorlariga singib boradi.

Demak, Moturidiyning aqliy dalillashga asoslangan metodologiyasi, Nasafiyning ixcham-tizimli bayoni va G‘azzoliyning ruhiy-amaliy yondashuvi aqidaviy merosni zamonaviy talqin bilan uyg‘unlashtirishda uchta asosiy yo‘nalishdir. Bu uchlik shu bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, aynan hozirgi davr sharoitida yanada zarurlashgan. Chunki axborot oqimi kuchli, diniy tushunchalar ko‘p buzilgan shaklda tarqalmoqda. Shunday sharoitda, talaba, yoshlar, o‘quvchi aqidani asl manbadan o‘rganishi eng to‘g‘ri yo‘ldir. Xususan, klassik aqida asarlarini zamonaviy sharh bilan uyg‘un o‘rganish yoshlar ongida e’tiqod masalalarini dalil bilan tushunishga, xolis fikr shakllanishiga va noto‘g‘ri diniy ta’sirlarga qarshi intellektual himoya hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, bugungi O‘zbekistonda ham aqida bo‘yicha klassik merosni ilmiy asosda qayta o‘rganish va talqin qilish davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro markazi, Imom Termiziy ilmiy markazi kabi tashkilotlar ochildi va bu markazlarda klassik matnlarning tanqidiy tekstologik tahlili, manbalarning ilmiy nashrlarini chiqarish, zamonaviy sharhlar tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning o‘zi shuni ko‘rsatadiki, aqida merosi hozirgi zamonaviy diniy-ma’naviy siyosatda ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy asoslangan ta’limiy

platformalar orqali, yoshlar ongiga to‘g‘ri, xolis, tekshirilgan manbaga tayangan holda etkazilmoqda. Zero, milliy ilmiy markazlarning faoliyati diniy bilimlarni nazariy matn sifatida emas, balki amaliy hayotiy tushunchani shakllantirish vositasi sifatida qayta o‘qish imkonini yaratmoqda. Shu orqali klassik aqida merosi – zamonaviy jamiyatda ham o‘z ta’sir kuchini yo‘qotmagan, aksincha, ilmiy metodlar bilan uyg‘unlashgan holda yanada jonlanmoqda.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tahlillar va manbaviy asoslar shuni ko‘rsatadiki, aqida bo‘yicha klassik asarlar bu shunchaki diniy tarix yodgorliklari emas, balki bugungi zamonaviy tafakkur bilan o‘qilishga munosib, ilmiy-metodik qiymati yuqori bo‘lgan manbalardir. Imom Moturidiy e’tiqod masalalarini aqlga tayanib izohlashi, Imom Nasafiy aqidani ixcham jummalarda tizimlashtirib berishi va Imom G‘azzoliy e’tiqodning ruhiy-amaliy jihatini ochib berishi mazkur klassik merosning har bir qatlami zamonaviy izlanishlar uchun ham o‘ziga xos kuchli yo‘nalishlar taqdim etishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi axborot asrida diniy savodsizlik, noto‘g‘ri talqin, internetdagi zararli diniy targ‘ibotlarning ko‘pligi, yoshlar tafakkuriga bevosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan xavflar fonida, aqida merosini ilmiy usulda, izchil mantiq asosida, psixologik-pedagogik yondashuv bilan talqin etish zamonaviy ta’lim jarayonining strategik vazifalaridan biridir. Zero, aqida insonning e’tiqodini shakllantiribgina qolmay, uning dunyoqarashini, ruhiy barqarorligini va intellektual immunitetini mustahkamlaydi. Diniy tushunchalarni izohlashda “asl matnga tayangan holda talqin qilish” tamoyili bugun nafaqat ilmiy metod, balki yoshlar ongini sog‘lom shakllantirishning ijtimoiy zaruriyati sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, klassik aqida asarlarini zamonaviy ilmiy sharh bilan uyg‘un holda o‘qitish, izohlash va o‘rgatish dinshunoslikda ham, pedagogik jarayonda ham yangi metodik yo‘nalishlarni belgilab beradi. Bu jarayon yoshlarning tafakkurida mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi, diniy savodlilik darajasini oshiradi, noto‘g‘ri diniy oqimlarga qarshi ongli immunitet yaratadi va eng muhimi e’tiqod mazmunini xolis, daliliy, asoslangan ko‘rinishda tushunishga yordam beradi.

Demak, munosib xulosa shuki, aqida bo‘yicha klassik asarlar o‘tmish mahsuli bo‘lsa-da, bugungi ilmiy talqin uchun ham eng ishonchli, eng mustahkam va eng asosiy manba bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy pedagogik amaliyotda ana shu manbalardan oqilona foydalanish yosh avlodni diniy-ma’naviy jihatdan sog‘lom tarbiyalashning eng to‘g‘ri, eng barqaror yo‘lidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid. – Istanbul: Dar al-Ma’arif, 2017.
2. Abu Hafs an-Nasafiy. Aqoid an-Nasafiy. – Qohira: Al-Azhar Library, 2020.

3. Abu Homid al-G‘azzoliy. Ihyo ulumiddin. – Damasq: Dar al-Fikr, 2005.
4. Madina Ibrahimova. “Aqida matnlarining zamonaviy talqini metodikasi”. – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy jurnali, №3, 2022.
5. Yerkin Otarbayev. “Religious literacy and classic aqida texts in youth education”. – KazNU Religious Studies Review, №2, 2021.
6. Mustafa Öztürk. “Aqidede metin, tarih ve çağdaş yorum sorunu”. – İlahiyat Araştırmaları Dergisi, Cilt 14, Sayı 1, 2020.

BUYUK SALJUQIYLAR DAVRIDA XUROSONDA KALOM ILMINING RIVOJI (XI ASR)

*Rajapov Pirnazar Sardor o‘g‘li,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti,
“Falsafa” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Tel: 998 99 847-75-94
E-mail: rajapovpirnazar@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI asrda Buyuk Saljuqiylar davlati (1038-1157) da tasavvuf ilmi rivojiga hissa qo‘shgan Abulqosim Qushayriy, Imom G‘azzoliy, Abdulvohid Ismoil, shayx Abdulloh Ansoriy va Abu Ali al-Formadiy kabi buyuk mutakallimlar ilmiy faoliyati ochib berilgan. Shuningdek, Saljuqiylar davlatining mo‘taziliy e‘tiqoddagi vaziri Amidulmulk Kunduriyning ash‘ariylarga qarshi faoliyati natijasida “Ikkinchi Mihna” fitnasi sodir bo‘lishi hamda Abulqosim Qushayriyning ash‘ariylik aqidasi himoya qilish yo‘lidagi harakatlari, shu bilan birga, tasavvuf va kalomni bir-biriga uyg‘unlashtirib, Islom tafakkurida yangi yo‘nalishga asos solgan Imom G‘azzoliyning tasavvuf va kalom ilmiga oid asarlarining qisqacha mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buyuk Saljuqiylar davlati, tasavvuf, kalom, Abulqosim Qushayriy, Imom G‘azzoliy, Abdulvohid Ismoil, shayx Abdulloh Ansoriy, Abu Ali al-Formadiy, ash‘ariylar, Amidulmulk Kunduriy, “Ikkinchi Mihna” harakati.

Afrikadan tashqari deyarli butun Islom olamiga hukmronlik qilgan saljuqiylar davrida siyosiy barqarorlik ta‘minlandi. Saltanat sarhadlari bo‘ylab madrasa, kutubxona va zoviyalar qurilib, ularga vaqflar ajratilishi natijasida ilm-fan va madaniyat taraqqiy etdi.

To‘g‘rulbey (1040-1063), Alp Arslon (1063-1072), Malikshoh (1072-1092) va Sanjar (1118-1157) kabi saljuqiy sultonlar olimlarga hurmat ko‘rsatib, butun mamlakat bo‘ylab ilm-ma‘rifatni yoyishga harakat qilganlar. To‘g‘rulbey fath

etilgan shaharlarga kirgach, birinchi navbatda olimlar va shariat peshvolarini ziyorat qilardi. Sulton Alp Arslon davrida esa madrasalar mamlakatning chekka hududlarigacha yoyildi. U shaxsiy tushumining bir qismini kambag‘allarga, 1/10 qismini esa olimlarga xayr-ehson qilardi [1:43]. Malikshoh esa o‘zi tashkil qilgan madrasalar va ilmiy-madaniy muassasalardan tashqari har yili olim va mutasavvuflarga 300 ming dinor (oltin) mablag‘ ajratardi [2:255; 3:67].

Islom olamining buyuk mutakallim, faqih, mufassir, muhaddis va mutasavviflarining aksariyati Saljuqiylar davrida etishib chiqdi. Jumladan, tasavvuf ilmi yuqori darajaga ko‘tarildi. Ushbu ilmni o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchayib, hatto oddiy xalq vakillarining ham tasavvufiy ruhdagi majlislarda ishtirok etishga rag‘bati oshgan.

Abulqosim Qushayriy (376/986-462/1072) Ustuvu⁵ shahrida tug‘ilgan [4:204]. Qushayriy “Zaynulislom” nomi bilan tanilgan bo‘lib, tasavvuf, kalom, hadis, fiqh, tafsir, usul, adabiyot va lug‘at ilmlari bo‘yicha zamonasining mashhur olimlaridan edi. Qushayriyni ko‘proq mutasavvif sifatida e‘tirof etishadi. U “Risolayi Qushayriya” asarida so‘fiylikning sunniylik ta‘limoti asoslariga zid emasligini isbotlashga harakat qilgan. Shuningdek, uning “Tafsiri kabir” kitobi mashhur tafsir asarlaridan hisoblanadi.

Olim yashagan davrda ash‘ariylik ta‘limotiga qarshi fitna avj olib, mazkur fitna tarixda “Ikkinchi Mihna” yoki “Mihna al-Ash‘ariya” nomini olgan [4:208]. Ash‘ariylikka ixlos qo‘ygan olim 436/1045-yil imom Ash‘ariyning ahli hadis ekani va sunniylik aqidasi ergashgani to‘g‘risida fatvo berdi. Ushbu fatvoning to‘liq matnini Tojuddin Subqiy “Tabaqot ash-shofe‘iya al-kubro” asarida keltirib o‘tgan [5:374].

Ikkinchi Mihna harakati 1053-yil Amidulmulk Kunduriyning Saljuqiylar davlatiga vazir bo‘lishi bilan boshlanib, 1063-yilgacha davom etgan. Fiqhiy jihatdan hanafiy, e‘tiqodda esa mo‘taliziy bo‘lgan Kunduriy To‘g‘rulbeydan bid‘at ahliga minbarlardan la‘nat aytilishiga ruxsat olgan. Shofe‘iylarga nafrati bo‘lgan Kunduriy la‘nat aytiladigan bid‘at ahllari safiga ash‘ariylarni ham kiritgan edi. Ish shu darajaga bordiki, Imom Ash‘ariy va ash‘ariylarni kofirga chiqarganlar ham bo‘ldi [4:208-209]. Imom Qushayriy boshliq bir guruh ash‘ariy olimlar To‘g‘rulbeydan ash‘ariylarga qarshi haqsiz da‘volar bekor qilinishini talab qilishsa-da, To‘g‘rulbey vaziri Kunduriyning ash‘ariylar haqidagi noto‘g‘ri ma‘lumotlariga asoslanib, ash‘ariy olimlar talabini rad etadi. Natijada Imom Qushayriy 446/1054-yil bu zulmni butun Islom olami ulamolariga bildirish maqsadida “Shikoyati ahli-sunna bi hikoyati ma nalahum minal-Mihna” maktubi (risolasi) ni yozgan [6:200-201; 7:473-475].

⁵ Bugungi kunda Eron Islom Respublikasining Turkmaniston bilan chegara qismida joylashgan Quchan shahriga to‘g‘ri keladi.

Mashhur mutakallim, faqih va mutasavvif Imom G‘azzoliy (450/1058-505/1111) Xurosonning Tus shahrida dunyoga kelgan. U Islom ilmlarining deyarli barchasida so‘z sohibi bo‘lgan. G‘azzoliy yoshligida Nishopur Nizomiyasi bosh mudarrisi Juvayniydan mantiq, usul, fiqh va kalom ilmlari bo‘yicha tahsil olgan. U Islomning boshqa diniy e‘tiqod va falsafiy ta‘limotlardan ustunligini isbotlashga harakat qilgani uchun “hujjatul-Islom” nomini olgan [8:139-140]. Imom G‘azzoliy 34 yoshida Bag‘dod Nizomiyasiga mudir bo‘lgan. Bir muddat Nishopur Nizomiyasida mudarrislik ham qilgan [9:165-166]. Hayotining so‘nggi yillarini tug‘ilgan joyi Tusda o‘tkazgan. Uyi yaqinida takka va madrasa qurdirib, yana ta‘lim berishda davom etgan. Lekin ig‘vogarlar Xuroson hokimi Sanjar (490/1097-511/1118) ga uni Abu Hanifaga qarshi faoliyatda ayblab, olimning bahs-munozaraga kelishini talab qilishsa-da, bahs-munozarada ko‘zlagan maqsadlariga erisha olishmagan [10:396].

Tasavvuf va kalomni bir-biriga uyg‘unlashtirib, Islom tafakkurida yangi yo‘nalishga asos solgan G‘azzoliy Islom ilmlari bo‘yicha 100 yaqin asar yozgan [9:165-166]. Uning tasavvufga oid 4 jildlik “Ihyou ulumid-din” asari asrlar davomida ahli ilmlar e‘tiborini o‘ziga qaratib kelgan. Qolaversa, o‘zining hayoti va asosiy e‘tiqodiy masalalar yoritilgan “al-Munqiz minad-dolal hamda o‘sha davrda tobora qizg‘inlashib, ildiz otib borayotgan botiniylik ta‘limoti qarashlariga qarshi xalifaning xohishiga binoan jarh yo‘li bilan yozgan raddiyasi (“al-Mustazhiri fir-raddi alal-botiniya”), “Hujjatul-haq fir-raddi alal-botiniya”, “al-Qistos al-mustaqim” nomli asarlari ham diqqatga sazovor. Shuningdek, uning falsafaga oid qarashlari aks etgan “Faysalut-tafriqa baynal-Islom vaz-zindiq”, “Maqosidul-falosifa”, “Tahofutul-falosifa”; shofe‘iy fiqhiga oid “al-Mustafo fiy usulil-fiqh”, “Bayon al-qavlayn”, “Xulosat ar-rasoil ila ilmil-masoil, “Bosit”, “Vosit”, “Vojiz”, “al-Xulosa”; tasavvufga oid “al-Maqsad al-asno”; kalomga doir “Qavoidul-aqoid”, “Iljamul-avom an ilmil-kalom” nomli asarlari ham muhim ahamiyatga ega [9:165-166]. G‘azzoliyning Islom aqidasi botil e‘tiqodiy ta‘limotlardan himoya qilish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari va bu borada faylasuflarni ham tanqid ostiga olgani uning Islom olamiga tanilishi hamda qarashlarining keng omma tomonidan qabul qilinishiga sabab bo‘ldi.

“Ikkinchi Shofe‘iy” nomi bilan tanilgan Abdulvohid Ismoil (vaf. 1108) Omul Nizomiyasida mudarrislik qilgan. Olim fiqh va tasavvufga oid 40 ga yaqin asar yozgan bo‘lib, uning asarlari XIII asrda ham mazkur sohalarga doir muhim adabiyotlar sifatida foydalanilgan. Ayniqsa, uning “Kitob bahrul-mazhab”, “Kitob Kofiya” asarlari diqqatga sazovor [9:167].

Shayx Abdulloh Ansoriy (vaf. 1087) buyuk xanbaliy faqihi, hadisshunos va mutasavvif bo‘lib, “Zammul-kalom”, “Manozil as-soirin”, “Zod ul-orifin”,

“Manoqibi Ahmad Xanbal”, “Munojot”, “Kitobul-asror” va “Nasihat” asarlarini yozgan [9:168].

Buyuk mutasavvif Abu Ali al-Formadiy (vaf. 477/1084) Abulqosim Qushayriyga shogird hamda do'st bo'lgan. Hatto Imom G'azzoliy bir muddat Formadiydan ta'lim olgan [9:168-169].

Xulosa qilib aytish mumkinki, insoniyat tarixining har bir davrida mutaassib toifalar yuzaga kelib, o'zlarining radikal ruhdagi g'oyalarini targ'ib qilishi aqidaviy ixtiloflarni keltirib chiqargan. Natijada zamonasining mutasavvif va mutakallimlari adashgan toifalar g'oyaviy xurujlaridan sof Islom aqidasi himoya qilish uchun ularga raddiya mazmunida asarlar yozishgan. Shu taxlit aqida va tasavvuf ilmlari muttasil ravishda metod o'zgarishi jarayonlariga yuz tutgan va har bir davrning turli xil murakkab sharoitlariga muvofiq mazmunda kitoblar yozilgan. Jumladan, XI asr o'rtalarida Buyuk Saljuqiylar davlati vaziri Amidulmulk Kunduriy ash'ariylarga qarshi “Ikkinchi Mihna” fitnasini avj oldirgach, Abulqosim Qushayriy ash'ariylik ta'limoti himoyasi yo'lida harakat qildi. Shu bilan birga, olim “Risolayi Qushayriya” asarida so'fiylikning sunniylik ta'limoti asoslariga zid emasligini bayon qilgan. Shuningdek, Imom G'azzoliy esa tasavvuf va kalomni bir-biriga uyg'unlashtirib, Islom tafakkurida yangi yo'nalishga asos soldi hamda botiniylik talimotiga raddiya ruhida bir qator asarlar yozdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Yahya Akyüz. Türk Eğitim Tarihi. – Ankara: Pegem Akademi Yayınları, 2008. – 529 s.
2. Osman Turan. Selçuklular Tarihi ve Türk-İslâm Medeniyeti. – İstanbul: Turan, 1969. – 478 s.
3. Sadriddin Abulhasan Husayniy. Axbor ad-davlat as-Saljuqiyya (أخبار الدولة السلجوقية). – Lohur: Panjob universiteti nashriyoti, 1933. – 245 b.
4. S.Yılmaz, M.S.Kaya. Selçuklu sultanı Tuğrul bey döneminde etkin bir âlim: Abdülkerim el-Kuşeyrî ve Şikâyetü Ehli's-Sünne başlıklı risalesi // SDÜİF Dergisi, sayı 40, 2018. – S. 203-216.
5. Tojuddin Subqiy. Tabaqot ash-shofe'iya al-kubro (طبقات الشافعية الكبرى), III jild. – Qohira: Darul-ihya al-kutub al-arabiya, 1992.
6. Kadir Özköse. Klâsiklerimiz/III: “er-Risâle” (İmam Abdülkerim el-Kuşeyrî) // Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi, C.2, sayı: 4, 2000. – S. 199-214.
7. Süleyman Uludağ. Kuşeyrî, Abdülkerim b. Hevazin // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.26. – Ankara: TDVY, 2002. – S. 473-475.

8. Selim Özarslan. Selçuklularda kalam ilmi ve kalam alimleri // I.Uluslararası Selçuklu kültür ve medeniyeti kongresi, C.2. – Konya, 2001. – S. 137-145.
9. İ.Kafesoğlu. Büyük Selçuklu imparatoru Sultan Melikşah. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1973. – 201 s.
10. Sevim Tekeli. Büyük Selçuklu İmparatorluğunun uygarlığa katkıları // Erdem, C.9, sayı 25, 1996. – S. 393-421.

RUDAKIY IJODI VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING ISLOM AQIDALARDA YORITILISHI.

Azimov Adiz Abdullayevich

Buxoro davlat texnika universiteti

“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada Abu Abdulloh Rudakiyning bizlargacha etib kelgan me’rosida Qur’oni Karim va Hadisi sharifdan foydalanganligi yoritib bergan. Rudakiy o‘z zamonasining juda kam shoirlari qatori mohirlik bilan ilohiy kitob oyatlaridan foydalanib umuminsoniy qadriyatlarni yoritib bergan shoir ekanligi aytiladi.

Kalit so‘zlar: Abu Abdulloh Rudakiy, Qur’on, hadis, Qur’on motivlari, Markaziy Osiyo, Odam, Sulaymon, Muso, Iso, Imron.

O‘rta asr adabiyotining mumtoz asoschilaridan biri Abubdulloh bin Muhammad Rudakiy 858[1] yilda Samarqand yaqinidagi (Hozirgi Tojikiston Respublikasi) Penjikent tumanidagi Panjrud qishlog‘ida tug‘ilgan. U shu erda vafot etgan va 941 yilda dafn etilgan. O‘rta asr Markaziy Osiyo adabiyotining barcha olimlari, shoir va yozuvchilar uni shoirlarning ustoz (shuaro) va tojik-fors she’riyatining otasi deb bilishgan. Bizgacha qasidalar, g‘azallar, ruboiylar, kit’a, tarqoq baytlar va alohida parchalardan iborat 1050 ga yaqin Rudakiy baytlar etib kelgan[2].

Tadqiqotimiz natijasida Rudakiy she’rlarini falsafiy mulohaza qilganda uning Qur’onni chuqur bilgan va bu bilimlardan o‘z asarlarida mohirona foydalangan, degan farazni tasdiqlaydi. Rudakiy ijodida Qur’on motivlari va mavzularidan foydalanishning 50 ga yaqin misollarini ko‘rib chiqish mumkin, ular Muqaddas Kitob va Payg‘ambar hadislaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va mazmunli iqtiboslar bilan tasdiqlangan.

Taqdir degan islomiy tushunchani yaxshi bilgan Rudakiy quyidagi she’rida misralarda so‘z nisbatining poetik qurilmasini ustalik bilan qo‘llaydi:

*Қазо гар доди ман насонад аз ту,
Зи сӯзи дил бисӯзонам қазоро! [3].*

"Taqdir sevgilimni ayaganda,

Men o'zim taqdirni ehtiroslarim olovi bilan yoqib yuboraman."

Bu erda uning she'rlarida taqdir va taqdirga oid Qur'on oyatlariga asoslanadi: "U osmonlaru erning yaratuvchisidir. Qachonki biror ishni hukm qilsa, unga faqat: "Bo'l!" deydi. - va yo'qdan bor bo'ladi."

Tadqiqotlarimiz natijasida Rudakiyning poetik va falsafiy obrazlar ijodkori sifatidagi iste'dodi yaqqol namoyon bo'ladi. U o'ziga xos tarzda va o'z qarashlari prizmasi orqali uni o'rab turgan hamma narsaga, shu jumladan o'zini ongli mavjudot sifatida bog'laydi. Va inson sifatida u o'zining "ego" sini his qiladi, bu uning xarakterini, tabiatini ochib beradi, qaysarlik bilan chegaradosh qat'iyatlilikni namoyon qiladi. Rudakiy esa xudbinlik va molparastlik yaxshilikka olib bormasligini, takabburlik va o'z-o'zini sevishning "sovuq temir so'qmoq" ("o'lchangga suv urish" sinonimi)dek foydasiz ekanligini ogohlantiradi:

*Дило то кай ҳамечӯйӣ манеро,
Чӯ дорӯ дӯст ҳарза душманеро?!
Чаро чӯйӣ вафо аз бевафое,
Чӯ кӯбӯ беҳуда сард оҳанеро?*

"Oh, yurak, yana qancha ko'ragimda urasan,

Nega zaiflashgan dushmanni qonning urishi bilan isitish
kerak!

*Siz hamma narsaga ishonchini yo'qotgandan sadoqat izlaysiz,
Lekin sovuq temirni soxta qilish uchun behuda yig'ildingiz".*

Bu erda biz she'r bilan Qur'onning xudbinlikni insoniy illat sifatida qoralovchi bir nechta oyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni osongina topish, ayniqsa xiyonat va beqarorlik bilan ajralib turadigan tez buziladigan dunyo kontekstida: "Albatta, Alloh maqtanguvchi kimsalarni sevmas..." yoki "Odamlarga burningni qaratma va er yuzida maqtanib yurma. Albatta, Alloh hech kim kibrli va maqtanguvchini yoqtirmas!"[4]

Bu erda tahlil qilinayotgan har bir she'r mazmuni nafaqat Qur'ondan keltirilgan oyatlar bilan qiyoslanadi, balki tegishli hadislar bilan ham tasdiqlanadi, bu Rudakiy she'rlarining g'oyaviy bog'liqligi haqidagi taassurotni mustahkamlaydi. Jumladan, xudbinlik haqidagi yuqoridagi hukmni "O'z-o'zini sevish etmish yillik amalning natijasini bekor qiladi" degan hadisi sharif bilan tasdiqlanadi.

Rudakiyning o'lim va oxirat haqidagi o'ziga xos nuqtai nazarini alohida ta'kidlash joiz. Rudakiy o'limni muqarrar va inson mavjudligining bosqichlaridan biri deb hisoblab, unga falsafiy nuqtai nazardan qaraydi.

*Зиндагонӣ чӣ кӯтаҳу чӣ дароз,
На ба охир бимурд бояд боз?!...
Хоҳӣ андар анову шиддат зӣ.
Хоҳӣ андар амон ба неъмату ноз...
Ин ҳама рӯзи марг яксонанд.
Нашиносӣ зи якдигаршон боз.
«Qancha yashasangiz ham, qasam ichaman,
O'limdan boshqa oxiri yo 'q...
Tinchlikda, hashamatda, boylikda yashang,
Yoki hayotingiz mashaqqat ichida qattiq o'tadimi...
O'lim kunida hamma sen bilan bir bo'ladi,
Yaxshi-yomonni ajrata olmaysiz”.*

Bu she'ning ma'nosi o'lim muqarrarlighi va har bir insonning qilgan amaliga ko'ra unga munosib ajr berilishi haqida: “Har bir jon o'limni tatib ko'rar, qiyomatda ajringiz to'liq beriladi...” degan baytdan kelib chiqadi.

Rudakiyning ko'p she'rlarida keyingi hayotga ishora qilingan, shoir o'z sevgilisiga bo'lgan his-tuyg'ularini ifodalashda bu fikrni go'zal qo'llaydi. Bu Rudakiyning o'limdan keyingi hayot motivlaridan foydalangan holda yaratgan tasvirlarini asoslaydi:

*Нагунҷам дар лаҳад, гар з-онки лаҳте,
Нашинӣ бар мазорам сӯзворо [5].*

Bu oyatda marhumlarning ruhlari qabrlari ustida duo o'qib yodga olinishi va qiyomat kuni kelishi va barcha insonlar qiyomat kuni o'z yaratuvchisi huzuriga chiqishlari haqidagi Qur'on motiviga ishora qilish qiyin emas. qabrlar”.

Maqolada Qur'on motivlari va payg'ambar hadislarining ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilingan barcha she'riy parchalar so'z yaratish san'ati va she'riy uslublardan foydalanish nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqiladi. Buyuk Rudakiyning o'zlashtirilgan diniy g'oyalar va iqtibos parchalarini o'zining shirin va hayratlanarli nutqining nozik o'ylangan, xushbo'y guldastasi tarzida go'zal taqdim etishida ham o'quvchini befarq qoldira olmasligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu dunyoga, insonning bu hayotdagi o'rni va maqsadi masalasiga munosabat bildirar ekan, Rudakiy Qur'on qissalariga alohida noziklik bilan murojaat qilib, ko'plab she'riy vositalarni qo'llaydi:

*Ба сарои сипанҷ меҳмонро,
Дил ниҳодан ҳамешагӣ на равост,
Зери хок андарун-т бояд хуфт,
Гарчи акнун-т хоб бар дебост.
Бо касон буданат чӣ суд кунад.*

*Ku ba z̧yr andaryun budan tanxost.
“Uch kunlik dunyoga bir lahzaga kirib,
Siz o‘zingizni unga jalb qilmasligingiz kerak,
Agar siz hashamatli to‘shakda yotishga odatlangan bo‘lsangiz ham,
Siz hali ham er yuzida tinchlik topasiz.
Hali yolg‘iz qabrga tushasan,
Siz odamlar orasida, yaltiroq odamlar bilan o‘ralgan bo‘lmaysiz.”.*

Dastlabki ikki baytda shoir “saroj sipanj” metonimik iborasini ishlatib, insonning qisqa umriga ishora qiladi, undan oqilona foydalanish va yodda tutish kerak. *“...U sizlarga belgilangan chegaragacha yaxshi bo‘ylik beradi”, “Yer – mehmonxona, biz hammamiz undamiz – ertami kech uni tark etishi kerak bo‘lgan mehmonlar, bizning barcha mulkimiz vaqtinchalik foydalanishga mo‘ljallangan, uni muddatimiz oxirida qoldirish kerak!”.*

Oxirgi bayt go‘zal surat bo‘lib, agar savob yuki arzimasi bo‘lsa, najotingizga hech bir dabdabali hayot va rang-barang mulozimlar yordam bera olmasligiga ishora qiladi, bunga Qur‘oni Karimning “Mol va farzandlar dunyo ziynatidir, bardavom yaxshilik esa Parvardigoring huzurida ajr va umid jihatidan yaxshiroqdir” oyatlari dalolat beradi. Rudakiy ijodi va mavzuiga diniy motivlarning ta‘sir doirasi juda keng va rang-barangdir. Bu dunyodagi voqealarning ibratli tabiati, hasadning behudaligi va yomon so‘zning oqibatlarini, moddiy dunyoning vasvasasi va aldashi, Xudo yaratgan narsalardan yomon maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi, yomon ishlarning majburiy jazosi, saxovatning foydalari va baxillik oqibatlarini va yana ko‘p narsalar Rudakiy asarlarida, Qur‘on qissalari va hadislariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va mazmunli murojaatlar bilan to‘la. Rudakiy asarlarida Qur‘on rivoyatlaridan ancha erkin iqtibos keltiriladi, bunda shoir payg‘ambarlar va Odam, Sulaymon, Muso, Iso, Imron kabi Qur‘on qahramonlarining ijobiy obrazlaridan ustalik bilan foydalanadi.

Xulosa qilib aytilganda Rudakiy o‘z sherlarida Qur‘on va Hadisdan foydalanish orqali uning ahamiyatini oshirishga erishdi va shu bilan bir qatorda inson tarbiyasi qanchalik zarur ekanligini aytib o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Mirzoyev. “Rudakiy: jizn I tvorchestvo” M-1968 g.
2. Braginskiy. Rudaki: monograficheskiye stixi. 1989 g.
3. Рӯдакӣ. Девон. Алмаата. 2007.- С.23
4. Рудаки. Стихи. Редакция и комментарии И.С.Брагинского. – М.:”Наука”, 1964.-С.22-23
5. مجلسی:بحار الانوار.ج.۷۴/۸۵

6. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-aqoid an-nasafiyya. – Karochi: Shu’ba al-kutub ad-dirosiyya, 2012.
7. Abu Mansur Moturidiy. Tahqiq: Usmon Ahmad Sa’d. “Kitobut-Tavhid”. Iotdaniya. Maktabatul g’onim. 2023.
8. Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf. “Tafsiri hilol”. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2024.
9. Abul Muin Nasafiy. “Tabsiratul-adilla”. Damashq. Al-Jaffan al-Jabi. 1990.
10. Abu Mansur Moturidiy. “Ta’viloti ahli sunna”. Bayrut. Darul kutubul ilmiyya. 2005. 1-juz.
11. Abu Mansur Moturidiy. Tahqiq: Usmon Ahmad Sa’d. “Kitobut-Tavhid”. Iotdaniya. Maktabatul g’onim. 2023.
12. Abul Muin Nasafiy. “Tabsiratul-adilla”. Damashq. Al-Jaffan al-Jabi. 1990.

HANAFIY MAZHABIDA E’TIBOR QOZONGAN BA’ZI FIQHIY MATN KITOBLARI

*Ro‘zmetov Muhammad Mustafo
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch
doktaranti, Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi
e-mail: mustafohafiz0880@gmail.com. 99 013 08 80*

Annotatsiya. Maqolada hanafiy mazhabi fuqaholari tomonidan ta’lif etilgan fiqhiy matn va sharh asarlarining mazmun-mohiyati, ularning islom huquqshunosligida tutgan o‘rni va ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, sharx janrining paydo bo‘lishi va rivojlanish sabablari, uning mazhab doirasidagi ilmiy ehtiyojlar bilan bog‘liqligi yoritib berilgan. Hanafiy ulamolar tomonidan yozilgan “Muhtasarut Tahoviy”, “Muhtasarul Karxiy”, “Bidoyatul mubtadiy”, “Tuhfatul fuqaho”, “An-Niqoya”, “Mavohibur Rahmon”, “Multaqal abhur” kabi muhim asarlar ilmiy manbalar sifatida tahlil qilingan. Maqolada ushbu asarlarning mazhab ilmiy an’analaridagi o‘rni, ulardagi fiqhiy qoidalarning tizimlashuvi, hamda sharhchilarning ilmiy uslubi va maqsadlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Hanafiy mazhabi, fiqh, fiqhiy matnlar, sharh janri, islom huquqi, mazhab an’analari, fuqaho, Muhtasarut Tahoviy, Bidoyatul mubtadiy, Tuhfatul fuqaho, An-Niqoya, Mavohibur Rahmon, Multaqal abhur.

Hanafiy mazhabi fuqaholari tomonidan ko‘plab kitoblar ta’lif etilgan. Mazkur yozilgan kitoblar ichida sharh janrida ta’lif etilgan kitoblar alohida o‘rin tutadi. Bu kitoblarni sharh deb nomlanishiga sabab, mualliflar mazhab doirasida eng sahih va ishonchli qavllarni o‘z ichiga olgan matn kitoblarini sharhlaganlar. Sharh kitoblarini yozilishiga asosiy turtki matn kitoblarida ibodat masalalari bilan bir qatorda

muomalat masalari ham atroflicha yoritib o‘tilishida mazhabdagi odamlarda tushunmovchiliklar paydo bo‘lgan. Mazkur muammolarga echim sifatida faqihlar matn kitoblariga sharhlar yozganlar. Shorih faqihlar matn kitoblariga kiritilmagan ba’zi sahih qavllarni yana o‘sha zamon uchun zaruriy bo‘lgan fatvolarni ham sharh kitoblarida batafsil keltirib o‘tishgan.

Har bir mazhabning o‘ziga xos fiqhiy matn kitoblari bor. Fiqhiy matn hanafiy mazhabida e’tiborli bo‘lishi uchun o‘z sohasida mohir imomlar, ilm, fiqh va zuhdga tanilgan, rivoyatda ishonchli faqihlar tomonidan yozilishi, unda zaif rivoyatlar, marjuh (kuchsiz) qavllar uchramasligi, ixtiloflarning barchasi zikr etilavermasligi, o‘qilishi oson, dalil va hujjatlari zikr etilmasligi, eng asosiysi, qisqa iboralar, muxtasar risolasimon asarlar bo‘lishi kerak. Aksar holatda fiqhiy matnlarda mazhabning eng asosiy rivoyatlari, “Zohirur rivoya” masalalari aks etgan bo‘ladi.

Ba’zi matnlarda Abu Hanifaning qarashlari ko‘proq zikr etiladi. Mutaqaddimin ulamolar taxrijlari va Abu Hanifaning qavliga shogirdlari tomonidan zid ravishdagi rivoyatlar oz bo‘lsa ham uchrab turadi. (Abdulhay Laknaviy., 2009:2) Mazhab doirasida Abu Hanifaning barcha qarashlari olinmaganligi bois ayrim fiqhiy matnlarda fatvo berilmasligi ham mumkin. Fiqhiy matn kitoblaridan eng ahamiyatlilari quyidagilardan iborat: “Muxtasarut Tahoviy”. Abu Ja’far Ahmad ibn Muhammad ibn Saloma ibn Salama Azdiy Tahoviy (853-933) asari. (Shuhrat qozongan fiqhiy matn kitoblaridan biri bo‘lmish ushbu asar Qohirada 1950- yili Abul Vafo Afg‘oniy tomonidan nashr etilgan). Mazkur asar muallifining ilm va amalda peshqadam olimlardan bo‘lgani bois maqomi ulug‘ hisoblanadi.

“Muxtasarul Hokim ash-shahid”. Abul Fazl Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy Balxiy Hokim Shahid (855-945) asari. U Buxoroda qozi, keyinchalik Xurosonda vazir ham bo‘lgan. Uning yozgan “Al-Kofiy” (Kifoya qiluvchi) asari usul kitoblarining eng mashhur va eng e’timodlilaridan biriga aylangan. U 334/945 yil sajda qilayotganida qatl etilgan. Afsuski, ushbu fiqhiy matn kitobining hatto qo‘lyozma nusxalari ham topilgan emas.

“Muxtasarul Karxiy”. Abul Hasan Ubaydulloh ibn Husayn ibn Dallol Karxiy (Imom Karxiy Zahabiyning “Siyaru a’lamin nubalo” kitobida zikr qilinganidek aqiydada mo‘taziliy mazhabini tutib, uning eng kuchli etakchilaridan biri bo‘lgan.) (873-952) asari. Abu Nasr Isbijobiy (vaf. 480/1087) va Rukniddin Kirmoniy (1064-1148) kabi ulamolar tomonidan sharh etilgan ushbu fiqhiy matn kitobi hozirgacha nashr qilingan emas.

“Xizonatul fiqh”. Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vaf. 393/1003) asari. U 42 ta mustaqil kitob, 54 ta bob, 45 ta matlab va 5 ta masaladan tashkil topgan. Har bir mavzu avvalida umumiy tushunchalar berilgan. Asarga faroiz va masjid odoblari kitobi ham kiritilgan. “Alfozul kufr” deb nomlangan alohida bob

ham mavjud. Asar Salohiddin Nohiy tomonidan 1966 -yili Bag‘dodda muallifning “Uyunul masoil” kitobi bilan birga nashr etilgan.

“Bidoyatul-mubtadiy”. Burhoniddin Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Farg‘oniy Rishtoniy Marg‘inoniy (1123-1197) asari. “Bidoyatul mubtadiy” (Fiqhni o‘rganishni boshlovchilar uchun boshlang‘ich qo‘llanma) nomli mazkur asarni muallif yoshlik vaqtida hajmi kichik, rasmiy jihatdan katta e‘tiborga ega kitob bo‘lishini ko‘zlab yozgan. U Bag‘dod safari chog‘ida Abul Husayn Quduriyning (972-1037) “Muxtasarul Quduriy” asaridan ta’sirlanib, unga asoslanib ta’lif eta boshlagan. “Bidoyatul mubtadiy” qisqa so‘zboshi bilan boshlanib, mavzular 58 ta kitobga ajratilgan holda bayon etiladi.

“Tuhfatul fuqoho”. Bu asarning muallifi Alouddin Samarqandiydir (vaf. 539/1144). Bu kitob keng matndan iborat bo‘lib, muallif engil uslub va ravshan iboralar bilan fiqhiy masalalarni bayon qilgan. Bu narsa o‘quvchida so‘zlarni tushunish va maqsadga etishga oson bo‘lishini ta’minlagan. Muallif asarini “Muxtasarul Quduriy” kitobi asosida yozgan. “Muxtasarul Quduriy”da qolib ketgan ba’zi masalalarni keltirgan va mushkul joylarini kuchli dalillar bilan izohlagan. Buni muallif asarning muqaddimasida aytib o‘tgan. (Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod., 2017:5)

“Al-Fiqhun nofe’”. Bu asar muallifi Nosiruddin Abul Qosim Samarqandiydir (To‘liq ismi - Nosiruddin Abul Qosim Muhammad ibn Yusuf Husayniy Samarqandiy bo‘lib, o‘z davrida Movarounnharning buyuk faqihlaridan bo‘lib, zamonasining mujtahidi bo‘lgan. U kishining “Xulosatul muftiy”, “al-Fiqhun nofe’” va “al-Multaqit fil fatovo” nomli asarlari bor.) Bu kitob hanafiy fiqhi borasida batafsil yozilgan matndir. Tahorat kitobi bilan boshlanib, xunasa kitobi bilan tugagan. Muallif fiqhiy masalalarga Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan dalil keltirishga e‘tibor qaratadi. Shu bilan birga, sahobalarning osorlari va qiyosga tayangan. Ko‘pgina masalalarda Abu Hanifa bilan shogirdlari Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan va Zufar ibn Huzayllarning raylarini qiyoslaydi. Ba’zi o‘rinlarda hanafiylar va shofeiylar ra’ylarini qiyoslaydi, ayrim o‘rinlarda esa hanafiylar bilan molikiylarning ra’ylarini qiyoslab dalillarini keltiradi. Muallif ko‘pincha Abu Hanifaning rayini qo‘llab-quvvatlab, dalillarini batafsil keltiradi. Bir qancha ulamolar ushbu kitob haqida yaxshi so‘zlarni aytishgan. Jumladan, Romishiy bunday deydi: “Bu kitob o‘z nomiga muvofiq manfaatli asardir”. (Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod., 2017:5)

“An-Niqoya” (“An-Niqoya”, “Niqoyatur rivoya”, “Niqoyatul Viqoya” yoki “Muxtasarul Viqoya”). Sadrush sharia al-asg‘ar Ubaydulloh ibn Mas‘ud Mahbubiy Buxoriy (vaf. 747/1347) qalamiga mansub ushbu asar fiqhiy matn kitoblari ichida o‘zining qisqaligi, mo‘jazligi bilan ajralib turgani uchun “Muxtasarul Viqoya” nomi

bilan tanilgan. Muallif uni bobosi Mahmud ibn Ahmad Mahbubiy (vaf. 630/1232) “Al-Hidoya”ni qisqartirib tartib bergan “Al- Viqoya” asosida yaratgan. Shunday qilib, “Al-Viqoya” qisqaligi bilan “Al-Hidoya” ning mag‘zi, “An-Niqoya” esa “Al-Viqoya” ning mag‘zi hisoblanadi. Muallif o‘z muxtasari muqaddimasida bunday yozadi: “Kimki “Al-Hidoya” masalalari o‘zida hozir bo‘lishini yaxshi ko‘rsa, unga “Al-Viqoya”ni yod olish lozim bo‘ladi. Kimniki vaqt shoshiltirsa, diqqat-e’tibor tizginini ushbu muxtasarni yodlashga bursin” (Ubaydulloh Ibn Mas’ud Tojush shari’a., 2016:9) “Muxtasarul viqoya” asrlar davomida madrasalarda darslik sifatida o‘qitilib kelingan, unga nisbatan ulamo va faqihlarning e’tibori yuksak darajada bo‘lgan. Shu boisdan unga o‘ndan ortiq sharhlar bitilgan. Uning eng birinchi sharhi sifatida muallifning o‘zini ko‘rsatish mumkin. U “Al-Viqoya”ni sharh qilish asnosida o‘zining muxtasarini ham sharhlab ketishga muyassar bo‘lgan va buni “Sharhul Viqoya” muqaddimasida alohida ta’kidlagan. (Ubaydulloh Ibn Mas’ud Tojush shari’a., 2005:10)

Jaloliddin Davvoniy (1427-1502) “Muxtasarul Viqoya”ga yozgan sharhida asardagi barcha masalalar ishonchli va e’tirof qilingani, fatvo berilmagan masalalar unda yo‘q ekanini alohida qayd etgan. “Mavohibur Rahmon”. Bu asar muallifi Ibrohim ibn Muso ibn Abu Bakr Taroblusiy (vaf. 922/1516) uning to‘liq nomi “Mavohibur Rahmon fiy mazhabi Abi Hanifata an-Nu’mun” (Abu Hanifa No‘monning mazhabida Rahmonning tuhfalari) hisoblanadi. Muallif asarda fiqh boblarining ko‘pchiligini zikr qilgan. Muallif asarni yozishda “Majmaul bahrayn” sohibi Ibn Soatiyning uslubidan foydalangan. Bu asar ham “Majmaul bahrayn” kabi mazhabda qimmatli foydali kitobdir. (Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod., 2017:5)

Ibrohim Taroblusiy o‘zining “Mavohibur Rahmon” asariga “Al-Burhon sharhu mavohibir Rahmoni fi mazhabi Abi Hanifata an-Nu’mun” nomli sharh yozadi. Alloma Bannuriy ushbu kitob haqida shunday deydi: “Mavohibur Rahmon” asarining sharhi “Al-Burhon” yaxshi kitob bo‘lib, hanafiy mazhabiga sahih hadislarni dalil qilib keltiradi”. (Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod., 2017:5)

“Multaqil-abhur”. Ibrohim ibn Muhammad ibn Ibrohim Halabiy (vaf. 956/1594) asari. “Multaqil abhur” hajmi kichik, iboralari ravon va qisqa bo‘lgani uchun unga bir qancha sharhlar bitilgan, matn va ba’zi sharhlari nashr qilingan. Ushbu zikr qilingan kitoblar hanafiy mazhabidagi mo‘tabar fiqhiy matnlar hisoblanadi. Mazkur kitoblar hanafiy mazhabida yozilgan katta sharh kitoblarini qaymog‘ini o‘z ichida jamlagani uchun mo‘tabar va qiymati baland matn kitoblar deyiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Abul-Barakot Nasafiy (2011). Kanzud daqiq. Madina: Dorus Siroj.

2. Abdulhay Laknaviy. (2009). Muqaddimatu Umdatir rioya Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya.
3. Abdulhay Laknaviy (1998). Al-Favoid al-bahiyya fiy tarojim al-hanafiyya. Bayrut: Dorul Arqam.
4. Ahmad ibn Nasriddin Naqib. (2001). Al-Mazhab Hanafiy. (J. 2.) Riyoz: Maktabatur Rushd.
5. Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod. (2017). Hanafiy fihi tarixi, manbalari va istelohlari. Toshkent: Movarounnahr.
6. Juzjoniy. Islom huquqshunosligi.(2002). Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
7. Muhammad Amin ibn Umar ibn Obidin Dimashqiy.(2020). Sharhul manzuma Uqudu rasmi muftiy // Rasoiu Ibn Obidin. Istanbul: Sahhofiya.
8. Muhammad Amin ibn Umar Ibn Obidin. (2003). Raddul muhtor ala Durri muhtor. (J. 1.). Bayrut: Dorul kutubil ilmiya.
9. Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Tojush shari'a.(2016). Muxtasarul Viqoya fi masoilil Hidoya. Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya.
10. Ubaydulloh ibn Mas'ud Buxoriy. (2005). Sharhul Viqoya // Hoshiyasida Umdatir-rioya. (J. 1.) Ummon: Muassasatul varroq.

**ALLOH TAOLONING MUTASHOBH SIFATLARI BORASIDA
SALAFLAR, XALAFLAR VA SOXTA SALAFIYLAR HAMDA
MAZHABSIZLARNING AQIDAVIY QARASHLARI O'RTASIDAGI
FARQLARI VA IXTILOF NUQTALARI.**

*Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o'g'li,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
maqsadli tayanch doktoranti. Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi
Telefon: +998902161496*

Annotatsiya. Bu maqola Alloh taoloning mutashobih sifatleri (“Yad”, “Vajh”, “Ayn” kabi) to'g'risidagi aqidaviy munozaralarni o'rganadi. Unda asosan Salaf va Xalaf ulamolarining mazhablari eng to'g'ri mazhab deb e'tirof etiladi. Maqolada, ayniqsa, ushbu sifatlerin zohiriy, haqiqiy ma'nosini isbot qiluvchi soxta salafiylerin qarashlari qattiq tanqid ostiga olinadi. Imom Navaviy, Ibn Hajar, Ibn al-Javziy va boshqa ulug' allomalarning fikrlari keltirilib, salafiyler va mazhabsizlerin tutgan yo'llari botilligi isbotlanadi. Asosiy ixtilof nuqtasi mutashobih lafzlarning zohiriy ma'nosini Alloh taologa nisbat berish yoki bermaslik ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit soʻzlar: mutashobih sifatlar, “Yad” (Qoʻl), “Vajh” (Yuz), salaflar mazhabi, xalaflar mazhabi, tafviz (topsirish), taʼvil (izohlash), ijmoliiy taʼvil, tashbih (oʻxshatish), taʼtil (inqor qilish), soxta salafiyya, mujassima, zohiriy maʼno, tanziyh (poklash), aʼzo.

Kirish. “Yad” (Qoʻl) kabi iroda qilingan maʼnosi ochiq-oydin boʻlmagan mutashobih sifatning zohiriy maʼnosi iroda qilinmaydi. Balki Alloh taolaga loyiq boʻlgan maʼno murod qilinadi. Bu maʼnoning haqiqatini biz bilmaymiz. Shu sababli, uning aynan qaysi maʼno ekanligini belgilash va chegaralashni faqat Alloh taolaga topshiramiz (tafviz qilamiz). Bu — aksar salaf va baʼzi xalaf ulamolarimizning yoʻlidir. Buni ijmoliiy taʼvil yoki tafviz (topsirish) deb ataladi.

Mutashobih sifatlar borasida faqatgina shu ikki salaf va xalaf ulamolarimizning mazhabi toʻgʻri hisoblanadi, chunki ulardan boshqasi yo tashbih (oʻxshatish) yoki taʼtil (inqor qilish) qilishadi, bularning tutgan yoʻli botildir.

Alloma Badruddin Ibn Jamaʼa aytadi: “Salaflar va ahli taʼvillar, Alloh taoloning ulugʻligiga loyiq boʻlmagan maʼnon iroda qilinmaganligiga ittifoq qildilar. Ammo ulugʻlikka loyiq boʻlgan ehtimoliiy maʼnolarni aniqlashda ixtilof qildilar. Salaflar bu haqda sukut saqladi, taʼvil qiluvchilar esa uni izohladi”. [1, 103-bet.]

Ibn al-Javziy “Nuzul” (Alloh taoloning dunyo osmoniga tushishi) hadisini sharhlar ekan, shunday deydi: “Nuzul hadisini yigirmata sahoba rivoyat qilgan. Oldin aytilganidek, Alloh azza va jalla uchun harakat, koʻchish va oʻzgarish mumkin emasdir. Bu masalada odamlar ikki toifaga boʻlinadi: Birinchisi - taʼvil qiluvchilar, yaʼni Alloh Oʻz rahmati bilan yaqinlashadi deb izohlaydilar... Ikkinchisi - tanziyh (Allohni nuqsonlardan pok bilish) eʼtiqodi bilan bu haqda gapirishdan sukut saqlaydiganlar”. [2, 49-bet.]

Imom Navaviy rahmatullohi alayh joriya hadisi haqida aytadi: “Bu hadis Alloh taoloning sifatleri borasidagi hadislaridan boʻlib, iymon kitobida bir necha bor zikr qilingan ikki mazhab bor. Birinchisi – uning maʼnosiga chuqur kirishmasdan, Alloh taoloning misli hech narsa yoʻqligiga eʼtiqod qilish va Uni maxluqotlarning sifatlaridan pok deb bilish bilan unga iymon keltirish. Ikkinchisi – Uni Oʻziga loyiq boʻlgan maʼno bilan taʼvil (izohlash) qilish”. [3, 503-bet.]

Alloma Mahmud Muhammad Xattob as-Subkiy aytadi: “Salaf va xalaf ulamolarimiz Alloh taoloning Aziz Kitobida va Sunnati Muhammadiyada vorid boʻlgan sifatlerini isbot qilishga jamlanganlar, ularning ixtilofi faqat mutashobihning maʼnosini tafviz (topsirish) qilishda boʻlib, bu Salaflarning mazhabidir. Xalaflar esa uning maʼnosini bayon qilish yoʻlini tutganlar”. [4, 30-bet.]

Hofiz Ibn Hajar rahmatullohi alayh aytadi: “Ahli Sunna val-jamoa “Yad” (Qoʻl)dan murod, yaratilganlarning sifati boʻlgan aʼzo ekanligi emasligiga ittifoq

qildilar, va bu haqda kelgan narsani isbot qildilar va unga iymon keltirdilar. Ulardan ba’zisi to’xtaldi va ta’vil qilmadi, ba’zisi esa har bir lafzni o’ziga zohir bo’lgan ma’noga yukladi. Shunga o’xshash kelgan barcha (mutashobih) kalimalarda shunday qildilar”. [5, 208-bet.]

Salafiy va mazhabsizlarning fikricha, “Yad” mutashobih sifatlardan emas, balki muhkam (ma’nosi ochiq-oydin) sifatlardandir. Uning zohiriy, haqiqiy va urfiy ma’nosi sobitdir. Ha, uning tashqaridagi haqiqati (qandayligi) ma’lum emas. Shayx al-Usaymin aytadi: “Vajh” (Yuz) ning ma’nosi ma’lum, ammo uning kayfiyati (qandayligi) noma’lum, biz Alloh azza va jallaning yuzi qanday ekanligini bilmaymiz. Aytamiz-ki: Bu yuz ulug’ yuz, maxluqotlarning yuzlariga aslo o’xshashi mumkin emas. Bizning aqidamiz shuki, Allohning Yuzi haqiqatdir, biz bu yuzning kayfiyatini bilmaymiz. U bizga nisbatan a’zolar va qismlar hisoblanadigan zotiy xabariy sifatlardandir”. [6, 504-bet.]

Bu Salafiyya aqidasiining zohiri ziddiyatlidir. Chunki “Yad” (qo’l)ning zohiriy va haqiqiy ma’nosi a’zo va tanaga dalolat qiladi. Shunday ekan, qo’lning haqiqiy ma’nosini isbot qilib, a’zo va kayfiyatni inkor qilish — bir vaqtning o’zida bir narsani isbot qilish va uni inkor qilishdir. Bunday e’tiqoddan Alloh taolo panoh bersin.

Shayx Hamid as-Sinnon va Favziy al-Anjariy aytadilar: “Unga (mutashobih sifatlarga) zohiriy ma’nosida hukm qilamiz va kayfiyatning (qandaylikning) ilmini Alloh taologa topshiramiz, deb aytilmaydi. Chunki bu so’z g’aflat sababli yuzaga kelgan ochiq ziddiyatdir. Zero, bu erda jismdan boshqa zohir yoki haqiqat yo’q. Zohiri bilan Alloh taoloni sifatlash mutlaqo mumkin emas. Kayfiyatni Alloh taologa topshirish, o’z-o’zidan ular isbot qilishni da’vo qilgan ma’noning (qandayligining) aynan o’zidir. Chunki bu lafzlarning zohiriy ma’nolari kayfiyatlidir. Agar ma’no isbot qilinsa, haqiqat isbot qilingan bo’ladi. Agar kayfiyat topshirilsa, ma’no topshirilgan bo’ladi”. [7, 504-ber.]

Xulosa shuki, Ash’ariylar va Moturidiylar (ya’ni: Salaf va Xalafar) hamda soxta salafiylarning ixtilofi “Yad” (Qo’l), “Vajh” (Yuz), “Ayn” (Ko’z) va shunga o’xshash mutashobih sifatlarda emas, chunki ularning barchasi bu lafzlarni Alloh taoloning sifatlari deb hisoblaydi. Ixtilof bu sifatlarning zohiriy ma’nosini Alloh taologa isbot qilish borasidadir. Soxta salafiylar bu lafzlar zohiri bilan Alloh taoloning (Bunday e’tiqoddan Alloh panoh bersin) a’zosini (jorihagini), ya’ni tanasining qismini isbot qiladi. Ibn al-Javziy aytadi: “Ixtilof “Yad”da emas, balki a’zoda (jorihada), “vajh” (Yuz)da emas, balki jismoniy suratda, “Ayn” (Ko’z)da emas, balki qorachiqdadir”. [8, 159-bet.]

Alloma Badriddin az-Zarkashiy uch mazhab haqida aytadi: “Oyat va hadislarida vorid bo’lgan mutashobih sifatlari borasida odamlar uch firqaga bo’lindi.

Birinchisi: Ularda ta’vil qilishga yo‘l yo‘q, balki zohirida qoldiriladi va birortasini ham ta’vil qilmaydi. Ular mushabbihlardir (o‘xshatuvchilar).

Ikkinchisi: Ularning ta’vili bor, lekin biz undan tiyilamiz, e’tiqodimizni o‘xshatish va inqor qilishdan poklaymiz va “Uni faqat Alloh biladi” deymiz deyishadi. Bu Salafning so‘zidir.

Uchinchisi: Ular (mutashobih sifatlar)Allohga loyiq bo‘lgan ma’no ila ta’vil qilinadi. Birinchi firqa botil firqa, ikkinchi va uchinchi firqalar sahobalardan Ali, Ibn Mas’ud, Ibn Abbos roziyallohu anhum va boshqalardan naql qilingan”. [9, 505-bet.]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badriddin ibn Jamoa. “Iyzohud dalil fi qot’i hujaji ahli at-ta’tiyl”. Damashq. Daru iqro. 2005.
2. Ibn al-Javziy. “Daf’ shubhat at-tashbih”. Taqhiq: Muhammad Zohid Kavsariy. Misr. Al-maktaba al-azhariyya litturos. 89 b.
3. Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz. (Sharh an-Navaviy ‘ala Sahih Muslim, 20/5)
4. Alloma Mahmud Muhammad Xattob as-Subkiy. “Ad-Dinul-xolis”. 1991. 503 b.
5. Hofiz Ibn Hajar. “Hady as-sari”. Daru tiyba. 1-juz.
6. Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz. (Muhammad Solih Usaymiy. “Sharh al-Aqida al-Vositiiyya”. Riyoz. Daru ibn Javziy. 1-juz. 283-287-betlar.)
7. Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz. (Shayx Hamid as-Sinnon va Favziy al-Anjariy.” Ahlu sunna al-Asha'ira”. Daruz ziyo. 318 b. 144-bet.)
8. Ibn al-Javziy. “Majalis Ibn al-Javziy fi al-Mutashabih min al-Ayat al-Qur’aniyya”. Tahqiq: Basim Makdash. Bayrut. Dorul kutubul ilmiyya. 2013. 208 b.
9. Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz.

AHLI SUNNA VAL-JAMOANING ALLOH TAOLONING MUTASHOBIH SIFATLARINI BORASIDA TUTGAN YO‘LI

*Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o‘g‘li,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

maqsadli tayanch doktoranti. Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

Telefon: +998902161496

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islomdagi mujassima va mushabbiha firqalarining mutashobih oyat va hadislarning zohiriy ma’nosini dalil qilishga bo‘lgan

urinishlarini, Ahli Sunna val-Jamoaning bu boradagi ikki asosiy metodini: Salaf ulamolarining tafviz (ma’nosini Allohga topshirish) yo’li va Xalaf ulamolarining ta’vil (Allohga loyiq ma’no bilan izohlash) yo’lini tutganligini tahlil qilinadi. Nuriddin Sobuniy, Imom Shahrisoniy va Imom Abu Bakr al-Jassos kabi buyuk allomalarning so’zlari bilan dalillangan bu matnda, har ikki yo’l ham tashbih (o’xshatish)dan tiyilish, Qur’onning muhkam oyatlariga qaytish va Alloh taoloni maxluqotlarning sifatlaridan poklash maqsadida ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: mujassima, mushabbiha, ahli sunna, mutashobih, muhkam, firqa, tafviz, ta’vil.

Nuriddin Sobuniy o’zlarining “Al-bidoya fi usulid-din” asarlarida quydagilarni keltiradi: “Mujassima va mushabbiha firqalari o’zlarining iddaolariga mutashobih⁶ oyat va xabarlarning zohiriy ma’nolarini hujjat qilganlar. Ahli sunnaning bu borada ikki xil yo’li bor:

1. Ularni qabul qilib tasdiqlash va ularning ta’vilini Allohga havola qilish, tashbih vojib qiladigan narsadan Alloh taoloni xoli deb bilish. Bu salafi solihlarimizning tutgan yo’lidir.

2. Mazkur oyat va hadislarni qabul qilish va ularning ta’viylari haqida Alloh taoloning Zotiga loyiq bo’ladigan ma’nolarni berish. Ushbu ma’nolarni berishda asl lug’atga muvofiq bo’lishini va Alloh taolo iroda qilgani shu deb qat’iy aytmaslikni shart qilganlar. Bu xalaf ulamolarning tutgan yo’lidir. Ushbu bahsda salaf ulamolarning tutgan yo’llari (xatodan) salomat bo’luvchiroq, xalaf ulamolarning tutgan yo’llari esa (xato e’tiqoddan) tiyuvchiroq hisoblanadi. [1, 31-32-betlar.]

Demak, mutashobih matnlar borasida Ahli sunnaning tutgan yo’li quyidagicha: Ularning ta’viliga kirishmaslik, chunki ko’plab buyuk shayxlarimizdan rivoyat qilinganidek: “Biz ularning nozil qilinganiga imon keltiramiz, ammo ta’viliga kirishmaymiz.” deganlar. Yoki lafz ehtimol qiladigan ba’zi ma’nolarga jazmsiz haml qilmog’imiz ham mumkin. Mashoyixlarimiz: “Bu lafzlar bir necha ma’nolarni o’z ichiga oladi, shuning uchun ularni qat’iy aqliy dalilga va muhkam oyatlarga mos keladigan ma’noga haml qilish kerak, toki Alloh taoloning hujjatlarida ziddiyat yuzaga kelmasin” deyishgan. [2, 74-bet.]

Imom Shahrisoniy rohimahulloh shunday deydi: “Bilingki, hadis ashoblaridan bo’lgan Salaflar (avvalgilar) mo’tazilalarning kalom ilmiga chuqur kirib ketganini, roshid imomlardan odat qilingan sunnatga xilof ish tutganini, ba’zi Umaviylar amirlari ularni qadar (taqdir) haqidagi so’zlarida qo’llab-quvvatlaganini, ba’zi Abbosiylar xalifalari esa ularni sifatlarini inkor qilish va Qur’onning

⁶ Ma’nosi bir qarashda tushunarli bo’lmagan yoki bir nechta ma’noga ehtimoli bor bo’lgan Qur’on oyatlari va hadislar.

yaratilganligi haqidagi soʻzlarida qoʻllab-quvvatlaganini koʻrganlarida, Hakim Kitob (Qurʻon)ning mutashobih (maʼnosi aniq boʻlmagan) oyatlari va Omonatli Paygʻambarimiz alayhissalomning xabarlar (hadislari) borasida Ahli Sunna val-jamoa mazhabini qanday bayon qilishda hayratda qoldilar.

Ahmad ibn Hanbal, Dovud ibn Ali al-Isfahoniy va salaf imomlaridan boʻlgan bir guruh ulamolar, oʻzlaridan avvalgi hadis ashoblaridan boʻlgan Molik ibn Anas, Muqotil ibn Sulaymon kabi salafning yoʻlidan yurdilar va salomatlik yoʻlini tanladilar.

Ular shunday dedilar: “Biz Kitob va Sunnatda kelgan narsalarga iymon keltiramiz va taʼvil (maʼno berish)ga kirishmaymiz. Zero, Alloh azza va jalla maxluqotlarning birortasiga oʻxshamasligi, xayolda paydo boʻlgan har bir narsani Uning oʻzi Yaratuvchi va Oʻlchovchi ekanligi qatʼiy ravishda maʼlum boʻlgandan soʻng taʼvilga hojat yoʻq”.

Ular tashbih (oʻxshatish)dan haddan tashqari ehtiyot boʻlishar edilar. Hatto shunday dedilarki: “Kimki Alloh taoloning: **“Ey Iblis, Men Oʻz qoʻllarim bilan yaratgan narsaga sajda qilishingdan seni nima toʻsdi?”** (Sod surasi: 75-oyat) degan qovlini oʻqiyotganda qoʻlini qimirlatsa, yoki **“Moʻminning qalbi Rahmonning ikki barmoqlari orasidadir”** degan rivoyatni aytayotganda ikki barmogʻi bilan ishora qilsa, uning qoʻlini kesish va barmoqlarini sugʻurish vojib boʻladi.” Ular oyatlarni tafsir qilishdan va taʼvil qilishdan toʻxtaganlariga ikki sabab borligini aytishdi:

1. Qurʻonda kelgan manʼ (taqiq): Alloh taoloning: **“...Bas, qalblarida egilish borlar fitna izlab va taʼvilini talab qilib, undan mutashobih boʻlgan narsaga ergashurlar. Holbuki, uning taʼvilini Allohdan boshqa hech kim bilmas. Ilmda mustahkam boʻlganlar esa: “Unga iymon keltirdik, barchasi Robbimiz huzuridan”, deyдилar. Faqat aql egalarigina eslatma olurlar.”** (Oli Imron surasi: 7-oyat) degan qovlidir. Bas, biz egilishdan (adashishdan) ehtiyot boʻlamiz.

2. Taʼvilning ijmo (ittifoq) bilan zonniy (gumonli) ish ekanligi: Alloh taoloning sifatleri haqida zon bilan gapirish joiz emas. Aks holda, oyatni Alloh taoloning murod qilmagan maʼnosida taʼvil qilib qoʻyishimiz va shu bilan egilishga (adashishga) tushib qolishimiz mumkin. Balki biz ilmda mustahkam boʻlganlar aytganidek: **“Barchasi Robbimiz huzuridan”** (Oli Imron surasi: 7-oyat) deymiz, zohiriga iymon keltiramiz, botinini tasdiqlaymiz va uning ilmini Alloh taologa topshiramiz. Biz bu narsani bilishga mukallaf emasmiz, chunki bu iymon shartlari va ruknlaridan emas. Baʼzilari esa yanada koʻproq ehtiyot boʻlib: **““Yad”, “Vajh”, “Nafs” va “Istavo” kabi soʻzlarni va ularga oʻxshash mutashobih oyat va hadislarni tarjima qilmaslik, balki zikr qilishga hojat boʻlsa, uni lafziy (arabcha) kelganidek**

ifodalash lozim” dedilar. Mana shu salomatlik yo‘lidir va u tashbih (o‘xshatish)dan mutlaqo uzoqdir”. [3, 103-bet.]

Imom Abu Bakr al-Jassos shunday dedi: **“Alloh taoloning “Ular bulut soyabonlari ostida Allohning va farishtalarning kelishidan boshqa narsaga intizor bo‘lishmoqdami?!”** (Baqara surasi: 210-oyat) degan qovli, bizga Alloh taolo O‘zining **“U zot senga Kitobni nozil qilgan zotdir. Unda muhkam oyatlar ham bor, ular Kitobning onasidir (asosi). Boshqa oyatlar esa mutashobihdir. Bas, qalblarida egilish borlar undan mutashobih bo‘lgan narsaga ergashadilar...”** (Oli Imron surasi: 7-oyat) degan qovlida buyurganidek, muhkam (ma’nosi aniq) oyatga qaytarishga buyurilgan mutashobih oyatlardandir. Bu oyatning mutashobih bo‘lishiga sabab, u lafzning haqiqiy ma’nosini, ya’ni Allohning kelishini ham ehtimol qiladi, shuningdek, u Allohning amrini va uning oyatlarining dalilini (ya’ni, amr yoki azobning kelishini) nazarda tutishni ham ehtimol qiladi. Xuddi boshqa o‘rinda shunday deyilganidek: **“Ular faqat o‘zlariga farishtalarning kelishiga yoki Robbingning kelishiga yoki Robbingning ba’zi oyat-alomatlarining kelishiga intizor bo‘lishadimi?”** (An’om surasi: 158-oyat).

Bu mutashobih oyatlarning barchasi Alloh taoloning **“...yoki Robbingning kelishiga...”** (An’om surasi: 158-oyat) degan qovlida bayon qilingan narsaga haml qilinadi. Chunki Alloh taologa “Kelish”, “Intiqol” (ko‘chish) va “Zavol” joiz emas. Zero, bu narsalar jismlarning sifatleri va yaratilganlikning dalolatlaridir (alamatlaridir). Alloh taolo muhkam oyatda shunday degan: **“Unga o‘xshash biron narsa yo‘qdir”** (Shuuro surasi: 11-oyat). Ibrohim alayhissalom yulduzlarning harakatlanishi, ko‘chishi va zavol topishini ularning yaratilganligiga dalil qilib keltirdi va buni o‘z qavmiga hujjat qildi. Alloh taolo mushabbihalarning so‘zlaridan yuksakdir va ulug‘dir”. [4, 397-bet]

Xulosasi o‘rnida shuni aytamizki, Ahli Sunna val-Jamoa mutashobih oyat va hadislarga yondashuvda mujassima va mushabbiha firqalariga qarshi qat’iy pozitsiyada turadi. Salaf ulamolarimiz zohiriy ma’noni rad etib, mutashobih sifatlarining haqiqiy ma’nosini Alloh taologa topshirish yo‘lini tanlaganlar. Bu yo‘l salomatlik (ehtiyotkorlik) jihatidan eng afzal yo‘ldir. Xalaf ulamolari esa, aqliy dalillar va muhkam oyatlarga asoslanib, Alloh taoloning ulug‘ligiga loyiq bo‘lgan ta’vil (izoh) yo‘lini tutganlar. Bu yo‘lni insonlarni Alloh taolo haqqida noto‘g‘ri e’tiqod qilishlaridan saqlaguvchi yo‘l deb e’tirof erganlar.

Ikkala mazhabning ham asosiy maqsadi bitta: Alloh taoloni mutlaqo maxluqotlariga o‘xshatishdan poklash va Uni jismlarning sifatlaridan (harakat, ko‘chish, zavol) xoli deb bilishdir. Ulamolar, mutashobih matnni doimo **“Unga o‘xshash biron narsa yo‘qdir”** (Shuuro, 11-oyat) kabi muhkam oyatlarga qaytarishni shart qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuriddin Sobuniy Buxoriy. “Al-bidoya fi usulid-din” (*Usulid-dinga kirish*). Istanbul. Maktabatul hanafiyya. 2023. 31-32-betlar
2. Mahmud ibn Zayd al-Lomushiy. “At Tamhid liqovaid at-tavhiyd”. Tahqiq: Usmon Arquj. Turkiya. Erenler vakfi ilm va hizmat yo‘linda. 2021. – 74-bet.
3. Abu bakr Ahmad as-Shahristoniy “al-Milal va an-Nihal”. Bayrut. Darul ma’rifa. 1993. 1-juz. 103-bet.
4. Ahmad ibn Ali ar-Roziy al-Jassos. “Ahkomu al-Qur'on”. Bayrut. Darul ihyo. 1992. 1-juz. 397-sahifa.

YOSHLARNING ORASIDA SOF ISLOMIY AQIDANI TARG‘IB QILISH YO‘LLARI VA VOSITALARI

Raxmonov Akbar

Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada XXI asrda axborot va global madaniyat ta’siri ostida yoshlar ongida shakllanayotgan turli g‘oyaviy, diniy va falsafiy qarashlar tahlil qilinadi. Muallif yoshlar dunyoqarashida paydo bo‘layotgan diniy savodsizlik, noto‘g‘ri talqin va radikal qarashlarning oldini olishda sof islomiy aqidani shakllantirishning ahamiyatini asoslab beradi. Shuningdek, imom Abo‘ Mansur Moturidiy ta’limotining bu jarayonda tutgan o‘rni, ya’ni aqidada “aql va imon uyg‘unligi” tamoyilining tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Maqolada yoshlarda sof islomiy aqidani qaror toptirishning samarali yo‘llari — ta’lim tizimi, oila muhiti, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirish strategiyalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot maydonida yoshlar ongini muhofaza qilish va islom dinining insoniylik, bag‘rikenglik, ilm va adolatga asoslangan haqiqiy qiyofasini etkazish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: islomiy aqida, yoshlar tarbiyasi, Moturidiy ta’limoti, imon va aql uyg‘unligi, diniy maorif, radikalizm, ma’naviy tarbiya, axborot ta’siri, ma’rifiy targ‘ibot, bag‘rikenglik.

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida axborot va texnologiyalar inqilobi davri sifatida kirib keldi. Bugungi yoshlar o‘z dunyoqarashini nafaqat oilaviy muhit, balki internet, ijtimoiy tarmoqlar, global madaniyat va turli mafkuraviy oqimlar ta’sirida shakllantirmoqda. Shunday sharoitda ularning ongiga har xil diniy, falsafiy va g‘oyaviy qarashlar kirib kelmoqda. Natijada ayrim yoshlar orasida diniy masalalarda yuzaki yondashuv, noto‘g‘ri talqin va radikal fikrlar paydo bo‘layotgani kuzatiladi.

Shu bois, sof islomiy aqidani shakllantirish — yoshlarning iymonini to‘g‘ri asosga qurish, ularni buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish va ularning qalbida Yaratganga sadoqat, insonparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni qaror toptirishning eng muhim omilidir.

Aqida — bu musulmonning butun dunyoqarashi, e‘tiqodi va hayotiy qarashlarini belgilab beruvchi negizdir. Imom Abu Mansur Moturidiy ta‘limotiga ko‘ra, *“aqida — bu ilm va iymon uyg‘unligidir.”* Demak, sof aqida insonni jaholatdan, xurofotdan va noto‘g‘ri talqinlardan saqlaydi.

I.Sof islomiy aqidaning mohiyati va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni

Islom aqidasi Qur‘on va sahih hadislar asosiga qurilgan. Unga ko‘ra, har bir mo‘min Allohning yagonaligiga, Uning sifatlariga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg‘ambarlarga, oxirat kuniga va taqdir masalasiga ishonadi. Bu e‘tiqod inson ruhiyatida sobitlik, hayotda maqsadlilik va jamiyatda tinchlikni ta‘minlaydi.

Islom aqidasi nafaqat diniy bilimlar tizimi, balki inson tafakkurini tarbiyalovchi ma‘naviy maktabdir. Chunki u iymon bilan birga aql, ilm va adolatni ham o‘z ichiga oladi. Imom Moturidiy *“Kitob at-Tavhid”* asarida shunday deydi:

“Allohni tanish – bu inson aqlining eng oliy darajasidir. Iymon esa aql bilan mustahkamlangandagina sobit bo‘ladi.”

Demak, yoshlarning aqidaviy tarbiyasida asosiy yo‘nalish — ularni iymon va aql uyg‘unligiga o‘rgatishdir. Faqat his-tuyg‘u emas, balki dalil, ilm va tafakkur asosidagi e‘tiqod mustahkam bo‘ladi.

Shuningdek, sof aqidani shakllantirishning asosiy vazifasi — yoshlarni bid‘at, xurofot, ekstremistik va radikal g‘oyalardan himoya qilishdir. Bugungi kunda ayrim yot oqimlar yoshlarni diniy savodsizlikdan foydalanib, *“sof islom”* ni o‘zcha talqin qilishga urinishmoqda. Ularning maqsadi islomning asl mohiyatini buzish va jamiyatda bo‘linish keltirishdir. Shu sababli to‘g‘ri aqidaviy ta‘lim — bu mafkuraviy xavfsizlik kafolatidir.

II. Yoshlar orasida sof islomiy aqidani shakllantirishning samarali yo‘llari

Yoshlarning iymoniy dunyoqarashini shakllantirish murakkab va tizimli jarayon bo‘lib, u quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilishi kerak:

a) Ta‘lim tizimi orqali shakllantirish

Diniy-ma‘rifiy bilimlarni davlat ta‘lim tizimi bilan uyg‘un holda berish zarur. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida *“Ma‘naviyat asoslari”*, *“Dinshunoslik”*, *“Islom tarixi”* kabi fanlar orqali o‘quvchilarga diniy qadriyatlarning insonparvarlik mohiyati tushuntirilishi kerak.

Zamonaviy pedagogik yondashuv — muhokamali darslar, interfaol metodlar, tarixiy manbalarga tayangan tahliliy ishlanmalar yoshlarning diniy tafakkurini

mustahkamlaydi. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband kabi allomalar hayoti va merosini o‘rganish yoshlar uchun ideal namuna bo‘la oladi.

b) Oila muhitida diniy tarbiya

Oila — aqidaviy tarbiyaning birlamchi o‘chog‘idir. Har bir ota-ona farzandlariga Allohni sevish, minnatdorlik, halollik va adolat kabi fazilatlarni singdirish orqali islomiy e‘tiqodning ildizini mustahkamlaydi. Rasululloh (s.a.v.) hadislarida:

“Eng yaxshi meros — bu ota-onaning bolaga qoldirgan yaxshi axloqi va to‘g‘ri e‘tiqodidir.”

Ota-onalar farzandlarining diniy savodini oshirish uchun ishonchli manbalardan birgalikda o‘rganish, masjid va diniy-ma‘rifiy tadbirlarda qatnashish, farzandlar bilan aqidaviy mavzularda suhbat qurishlari zarur.

c) Ommaviy axborot vositalari va internet orqali targ‘ibot

Bugungi yoshlar ko‘proq axborotni ijtimoiy tarmoqlardan oladi. Shu sababli diniy-ma‘rifiy kontentni zamonaviy uslublarda, yoshlar tili bilan etkazish dolzarb masala hisoblanadi.

Podkastlar, qisqa videoroliklar, grafik dizaynli hadislar, mobil ilovalar orqali aqidaviy bilimlarni O‘zbekiston musulmonlari idorasi xodimlari tomonidan tushunarli tarzda etkazish mumkin. Bu borada O‘zbekiston musulmonlari idorasi, “Muslim.uz”, “Mir Arab.uz” kabi rasmiy platformalar muhim o‘rin tutadi.

d) Yoshlar tashkilotlari va jamoat faoliyatida islomiy qadriyatlarni targ‘ib etish

Mahalla, ta‘lim muassasalari va yoshlar markazlarida “Aqidaviy savodxonlik klublari” tashkil etish yoshlarning o‘zaro muloqot va o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, “Ma‘rifat kuni”, “Islom va bag‘rikenglik” kabi mavzularda tanlov va ilmiy konferensiyalar tashkil etish orqali ularning diniy bilimini amaliy tarzda mustahkamlash mumkin.

III. Sof islomiy aqidani targ‘ib etishda zamonaviy yondashuvlar

Sof aqidani yoshlar orasida keng targ‘ib qilish uchun quyidagi zamonaviy strategiyalar muhim ahamiyatga ega:

1. Madaniy kontekstga mos yondashuv — aqidaviy mavzularni milliy qadriyatlar, o‘zbek madaniyati va ma‘naviy meros bilan uyg‘un holda talqin etish. Bu orqali islom dini xalqimiz tarixiga singib ketgan an‘naviy qadriyatlar bilan bir butun holda yoritiladi.
2. Ilmiy asoslangan metodologiya— aqidaviy masalalarni hissiy da‘vat emas, balki tarixiy, mantiqiy va ilmiy asosda tushuntirish. Masalan, “iymon va aql” o‘rtasidagi uyg‘unlikni ilmiy dalillar bilan yoritish yoshlarning qiziqishini oshiradi.

Xulosa. Yoshlar — millatning kelajagi, dinning tayanchi va jamiyatning kuchidir. Ularning qalbida sof islomiy aqidani shakllantirish — bu nafaqat diniy, balki ijtimoiy va mafkuraviy xavfsizlikning garovidir. To‘g‘ri e‘tiqod insonni nafs, johillik va buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qiladi.

Shu bois, davlat siyosati, ta‘lim tizimi, diniy idoralar, ota-onalar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorlikda ****ilmiy asoslangan, zamonaviy va yoshlar ruhiyatiga mos diniy-ma‘rifiy strategiyani**** ishlab chiqishlari zarur.

Sof aqida — bu nur, u jamiyatni tozalaydi, qalblarga tinchlik keltiradi va yosh avlodni komil insonlik sari etaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Qur‘oni karim. Tarjima va tafsir. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2019.*
2. *Imom Abu Mansur Moturidiy. *Kitob at-Tavhid*. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2000.*
3. *Imom al-Buxoriy. *Al-Jomi‘ as-sahih*. – Qohira: Dar al-Hadis, 1998.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–4068-son qarori, 2018-yil.*
5. *Alouddin Mansur. *Islom aqidasi*. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016.*
6. *Said Ahmadjon. *Moturidiylik ta‘limoti va zamonaviy aqidaviy muammolar*. – Toshkent: O‘zbekiston Islom akademiyasi, 2020.*

ZAMONAVIY AXBOROT OQIMIDA SOF AQIDANI HIMOYA QILISH

*Boqiyev Azizbek Abdullajon o‘g‘li
Mir Arab oliy madrasasi va "Jo‘ybori Kalon" ayol-qizlar
o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy raqamli muhitda diniy e‘tiqod va aqidaviy qadriyatlarni saqlash muammolarini o‘rganadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi musulmon jamiyatida aqidaviy xavf-xatarlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot oqimining ortishi bilan bir qatorda soxta diniy ma‘lumotlar, ekstremistik g‘oyalar va sekularizatsiya ta‘siri kuchaymoqda. Maqolada Muslim jamiyatida diniy savodxonlikni oshirish, ishonchli manbaalardan foydalanish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali aqidaviy himoya strategiyalari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: aqida, axborot oqimi, raqamli muhit, diniy savodxonlik, islom, ijtimoiy tarmoqlar, ekstremizm, diniy bilim

KIRISH

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inqilobiy rivojlanishi insoniyat hayotining barcha jabhalarini o'zgartirdi va diniy sohaga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Internetning global tarmoqqa aylanishi, smartfonlarning keng tarqalishi va ijtimoiy media platformalarining jadal o'sishi axborot olish va tarqatish usullarini tubdan o'zgartirdi [1]. Musulmon jamiyati ham bu jarayonlardan chetda qolmadi va zamonaviy raqamli muhit islom aqidasi saqlash va rivojlantirishda ham imkoniyatlar, ham xavf-xatarlar yaratdi. Sof islom aqidasi himoya qilish muammosi bugungi kunda yangicha ko'rinishga ega bo'lib, an'anaviy diniy ta'lim tizimidan tashqari ko'plab yangi va nazorat qilinmaydigan axborot manbalari paydo bo'ldi [2]. Axborot oqimining ortishi bilan bir qatorda, soxta diniy fatvolar, bid'at va xurofotlarni targ'ib qiluvchi kontentlar, ekstremistik talqinlar va diniy bilimlarning noto'g'ri sharhlari keng tarqalmoqda. Bu vaziyat ayniqsa yoshlar orasida aqidaviy adashishlar xavfini oshirmoqda, chunki raqamli avlod axborotni asosan internet orqali oladi va har doim ham manba ishonchliligi va ma'lumot to'g'riligini tekshira olmaydi [3].

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslanadi va zamonaviy ilmiy manbalar, diniy adabiyotlar hamda axborot texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Campbell raqamli diniy amaliyotlar (digital religion) tushunchasini tahlil qilar ekan, zamonaviy texnologiyalarning diniy hayotga integratsiyasi diniy institutlar va shaxslar uchun ham imkoniyatlar, ham muammolar keltirib chiqarganligini ta'kidlaydi [4]. Muallif ijtimoiy tarmoqlarda diniy ma'lumotlarning tez tarqalishi bir tomondan bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishini, boshqa tomondan esa sifatsiz va noto'g'ri axborotning ham oson yoyilishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi. Bu holat ayniqsa aqida kabi nozik va asosiy diniy bilimlar sohasida xavfli bo'lib, odamlar rasmiy ulamolardan emas, balki noma'lum internet manbalaridan ma'lumot olishga moyil bo'lmoqda.

Bunt musulmonlarning raqamli makondan foydalanish uslublari to'g'risidagi tadqiqotida islom aqidasi oid bilimlarni tarqatishda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarning o'sib borayotgan rolini ko'rsatadi [5]. Muallif musulmon yoshlarining 70% dan ortig'i diniy savollariga javob izlashda internetdan foydalanishi va bu jarayonda ular ko'pincha manbalarning ishonchliligi va diniy vakolatlilikini tekshirmasligini aniqlaydi. Bu holat soxta olimlar, ekstremistik guruhlar va bid'at tarqatuvchilarning axborot makonida faoliyat yuritishi uchun qulay zamin yaratmoqda. Rossiyalik olim Malashenko post-sovet makonida islomning transformatsiyasi va raqamli texnologiyalar ta'sirini tahlil qilib, yoshlar orasida an'anaviy diniy institutlarga ishonchning pasayishi va muqobil axborot

manbalariga murojaat qilish tendentsiyasini qayd etadi [6]. Bu esa sof aqidani saqlash bo'yicha an'anaviy mexanizmlarning samaradorligini pasaytirishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonlik tadqiqotchi Erkaev milliy diniy ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalarini ko'rib chiqar ekan, yoshlarni diniy ekstremizm va radikalizm xavflaridan himoya qilishda raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi [7]. Muallif diniy bilimlarni to'g'ri va ilmiy asosda tarqatishda rasmiy diniy tashkilotlar va ta'lim muassasalarining mas'uliyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Zarrinkub ijtimoiy tarmoqlarda diniy kontentning tarqalish mexanizmlarini o'rganib, algoritmik tizimlarning foydalanuvchilarni ularning mavjud e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlar bilan ta'minlashi natijasida "axborot pufakchalari" (echo chambers) yuzaga kelishini aniqlaydi [8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy axborot oqimining islom aqidasi ta'sirini bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha baholash mumkin. Birinchidan, raqamli texnologiyalar diniy bilimlarni tarqatish va o'rganishda katta imkoniyatlar yaratdi, ammo ayni paytda sifat nazorati va manba ishonchliligi muammolari keskinlashdi. Internetda islom aqidasi oid minglab saytlar, video darsliklar, ijtimoiy media sahifalari va mobil ilovalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati vakolatli diniy olimlar tomonidan tekshirilmagan yoki hatto ziddiyatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [9]. Bu holat oddiy musulmonlar uchun to'g'ri va sof aqidaviy bilimlarni noto'g'ri va buzilgan ma'lumotlardan ajratishni qiyinlashtirmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va instant messenger dasturlar orqali diniy fatvolar va sharh-izohlarning tez tarqalishi, ko'pincha kontekstsiz va qisqartirilgan holda, aqidaviy tushunchalarning soddalashtirilishi va noto'g'ri tushunilishiga olib kelmoqda. Murakkab diniy masalalar oddiy post yoki qisqa video formatida taqdim etilganda, ularning chuqurligi va nozik jihatlari yo'qolib, yuzaki va ba'zan xato tushunchalar shakllanadi.

Uchinchidan, ekstremistik va radikallashtirilgan guruhlar raqamli texnologiyalardan yoshlarni o'z saflariga jalb qilish uchun faol foydalanmoqda va ular islom aqidasi buzilgan talqinlarini targ'ib qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, terrorchilik guruhlar professional darajada tayyorlangan raqamli kontentlar orqali yoshlarning diniy hissiyotlariga ta'sir ko'rsatadi va ularni g'oyaviy jihatdan qayta dasturlashga harakat qiladi [10]. To'rtinchidan, sekularizm va g'arbiy falsafiy oqimlarning axborot makonida keng tarqalishi, ayniqsa ingliz tilida kontent istemol qiladigan yoshlar orasida, diniy e'tiqodlarni zaiflashtirish va shubha uyg'otish jarayonlarini tezlashtirmoqda. Postmodernizm, ateizm va agnostitsizm

kabi qarashlar ijtimoiy tarmoqlarda jozibador va mantiqiy ko‘rinishda taqdim etilib, diniy asoslarga shubha tug’dirmoqda. Biroq, bu muammolarning echimi ham raqamli texnologiyalarning o‘zida yotadi. Rasmiy diniy institutlar va vakolatli olimlar zamonaviy media formatlaridan to‘g’ri va sof aqidaviy bilimlarni tarqatish uchun foydalanishi mumkin va bu yo‘nalishda ba’zi ijobiy tajribalar mavjud. O‘zbekistonda Musulmonlar idorasi, turli diniy ta’lim markazlari va olimlar ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lib, to‘g’ri diniy ma’lumotlarni tarqatmoqda.

XULOSA

Zamonaviy axborot oqimi islom aqidasi saqlash va himoya qilish sohasida yangi muammolar va imkoniyatlar yaratdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi diniy bilimlarni tarqatish jarayonini demokratlashtirdi, ammo ayni paytda sifat nazorati, manba ishonchliligi va kontekstsiz ma’lumotlar tarqalishi kabi muammolarni kuchaytirib yubordi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, musulmon jamiyati, xususan yoshlar, internetdan diniy bilim olishda faol bo‘lib, bu jarayonda ular ko‘pincha noto‘g’ri, buzilgan yoki hatto ekstremistik talqinlarga duch kelmoqda. Sof islom aqidasi himoya qilish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, u diniy savodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ishonchli axborot manbalarini yaratish va targ’ib qilish, hamda an’anaviy diniy ta’limni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilishni o‘z ichiga olishi kerak. Rasmiy diniy institutlar va olimlar raqamli makondan faol foydalanib, to‘g’ri aqidaviy bilimlarni professional va zamonaviy formatda taqdim etishlari lozim. Shuningdek, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat a’zolarining raqamli savodxonligi va axborot manbalarini tanqidiy baholash qobiliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anderson, J. Q. & Rainie, L. (2018). *The future of well-being in a tech-saturated world*. Pew Research Center.
2. Богословский, В. А. & Мухаметзянова, Р. М. (2020). Исламское образование в условиях цифровизации общества. *Ислам в современном мире*, 16(2), 45-62.
3. Erkaev, A. (2020). Yoshlar ma’naviyatini shakllantirish: zamonaviy yondashuvlar. *Islom universiteti ilmiy jurnali*, 4(3), 78-95.
4. Campbell, H. A. (2017). Surveying theoretical approaches within digital religion studies. *New Media & Society*, 19(1), 15-24.
5. Bunt, G. R. (2018). *Hashtag Islam: How cyber-Islamic environments are transforming religious authority*. University of North Carolina Press.
6. Малашенко, А. В. (2019). Ислам в интернете: новые формы религиозной коммуникации. *Мировая экономика и международные отношения*, 63(8), 95-103.

7. Эркаев, А. Э. (2020). Миллий ғоя ва маънавият асослари: замонавий муаммолар. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi axboroti*, 2, 112-125.
8. Zarrinkub, F. (2021). Echo chambers and filter bubbles: The impact of social media on religious discourse. *Journal of Religion, Media and Digital Culture*, 10(1), 56-78.
9. Куропятник, М. С. & Куропятник, А. И. (2021). Социальные сети как инструмент распространения религиозной информации. *Вестник Московского университета. Серия 10: Журналистика*, 3, 67-84.
10. Conway, M. (2020). Terrorist use of social media and how to counter it. *The RUSI Journal*, 165(3), 42-53.

АНВАР ШОҲ КАШМИРИЙ – БУЮК ҲАНАФИЙ МУҲАДДИС

Низомиддинов Ҳошимжон Муҳаммаджонович

*Имом Термизий номидаги ислом институти катта ўқитувчиси
+998901682955*

Аннотация: Ҳадис ривоятлари тадқиқ қилинар экан ҳадис, фикҳ ва бошқа фанлар бўйича Аллома деб тан олинган Анвар Шоҳ Кашмирий (1875-1933)нинг аҳли сунна вал жамоа, хусусан, ҳанафий мазҳабида экани, бўлганда ҳам унинг ҳимоячиси ўлароқ бу йўлда хизмат қилганини кўриш мумкин. Айниқса, эътиқод ва шаръий ҳукмларга доир ривоятларда буни яққол кўриш мумкин. Қуйида аҳком ва эътиқодга тегишли ривоятларнинг Кашмирий томонидан қандай услубда шарҳланганига эътибор бериб, унинг ҳадисларни шарҳлашдаги маҳоратини таҳлил қиламиз.

Калит сўзлар: Ҳадис, таҳлил, шарҳ, мазҳаб, ҳанафий, услуб, қироат, таҳорат, масҳ, “Фотиҳа”, фикҳий, далил, китоб.

Алломанинг ҳадис соҳасидаги фаолиятини ўрганар эканмиз, фақиҳ кимлиги ва у қандай бўлиши кераклигини билиб оламиз. Тадқиқотлар натижасида шу маълум бўлдики, Анвар Шоҳ Кашмирий ҳадис ва калом илмидан кейинги ўринда энг кўп фикҳий мавзуда асарлар ёзган. Кўпгина асарларида фикҳий ихтилофларга тегишли масалаларни ёритган. Шу билан бир қаторда, мазҳаблар ўртасида ихтилофли масала саналган намозда имом орқасида “Фотиҳа” сурасини ўқиш ва намоз ичидаги такбирларда қўлларни кўтариш мавзуларида алоҳида-алоҳида иккита фикҳий асар ёзган. Анвар Шоҳ Кашмирийнинг ҳанафий мазҳабига мансублиги тақлидий эмас, балки далилларга таянган ҳолда бўлган. Ҳадисларни шарҳлашда холислик билан иш юритган, ҳаттоки баъзи ўринларда ҳанафий олимлардан бирорта хато кўрса, албатта, буни айтиб, тўғриси қандай бўлишини ўз ўрнида билдириб кетган.

Фикҳ ва фикҳул ҳадисдаги юсак салоҳиятидан фойдаланиб, ҳанафий мазҳабини ҳадислар билан қўллаб-қувватлашни ўзига мақсад қилган Анвар Шоҳ Кашмирий бунинг учун дарс ҳалқалари ва китоб ёзишдан кенг фойдаланган. Ҳанафий мазҳабини ривожлантириш учун ҳаётининг ўттиз йилини илм-маърифат таратиш хизмати билан ўтказган аллома ўрни келганда ҳанафийлик мазҳабини устунлиги, ҳақлигини исботлайдиган далилларни илгари сурган ва “Билгинки, Аллоҳ мени Абу Ҳанифанинг мазҳабини қўллаб-қувватлаш учун яратган” [9:92] деб ўзининг қарашларини билдирган. Қуйида алломанинг ҳанафий мазҳабини далиллар билан қувватлаш учун ҳадисларни қандай қўлагани борасида айрим намуналарни кўриб ўтамиз:

Мазҳаблар орасидаги ихтилофли масъалаларда ҳанафий мазҳабининг фойдасига далил бўла оладиган ҳадисларни зукколик билан излаб, уни танлаб олишига яна бир ёрқин мисол имомнинг ортида иқтидо қилиб, намоз ўқиётган жамоатнинг Фотиҳа сурасини ўқимаслик масъаласидир. Мазҳаблар орасида ихтилофга сабаб бўлган бу масала хусусида кўплаб китоблар ёзилган, шу жумладан, Имом Бухорий “ал-Қироату холфа-л-имам” номли асар ёзиб, унда бу борадаги ривоятларни жамлаган.

Ҳанафийлар бу масалада имом ортида намоз ўқувчи қироат қилмай, жим туриши кераклигини таъкидлаганлар. Бунга тескари ўлароқ шофеъийлар фарз намоз ўқувчи муктадийга “Фотиҳа” сурасини ўқишни фарз бўлади, дейишган ва бу борада кўплаб китоблар ёзишган. Аллома ҳанафийлар тутган йўлини қўлловчи икки дон ҳадислар борлигини, аммо Имом Бухорий уларни ўзининг китобида келтирмаганини маълум қилган [3:302]. Анвар Шоҳ Кашмирий Имом Байҳақийнинг бир ҳанафий олимга нисбатан ушбу масалада танқиди борлигига жавобан мавзуга доир бир асар ёзиш зарурати бор деб ҳисоблаган [3:302] ва масалани кенг равишда олиб, “Сунани Термизий”ни шарҳлашда бу борада ўн тўрт бет баҳс юритган [3:302-316].

Анвар Шоҳ Кашмирий “Сунани Термизий”да келган Убода ибн Сомит (ваф. 34/654) ривоят қилган صلاة لا لمن لم يقرأ بفاتحة الكتاب – “Фотиҳату-л-китоб”ни ўқимаганнинг намози йўқдир” [1:823] деган ҳадисни шарҳлаб, унда икки масалага урғу берган:

Биринчиси, “Фотиҳа” сурасининг ҳукми бўлиб, уни ўқиш ҳанафийлар наздида вожиб, қолган уч мазҳабда эса, рукн (фарз) ҳисобланади.

Иккинчи масала эса, жамоат имомнинг орқасида “Фотиҳа” сурасини ўқиш ё ўқимаслигидир.

Аллома ушбу ҳадисни шарҳлар экан, ҳанафийлар қарашини қўллаб қуйидаги икки ривоятни далил қилиб келтирган: “Ким имомга иқтидо қилса, имомнинг қироати унга ҳам қироат ҳисобланади” [4:460]; “Имом қироат қилса,

жим туриб, кулоқ солинг” [6:278; 7:240]. Сўнгра Убайда ибн Жарроҳ (р.а.) ривоят қилган ҳадисни шарҳлашга ўтиб, (لا صلاة) – “намози йўқдир” ифодасини баъзи ҳанафийлар айтганидек “мукаммал намози йўқдир” шаклида жавоб беришга қарши чиққан ва қуйидагиларни айтган: “Менинг фикримча, бундай жавоб қарши тараф фойдасига эътирознинг эшигини очиш саналади. Чунки “Фотиҳа” сурасини ўқиш бизда вожибдир. “Мукаммал намози йўқдир” деган жавобга кўра, намозда “Фотиҳа” сурасини ўқиш вожиб эмаслиги келиб чиқади. Зеро усул уламолари айтганларидек, субут жиҳатиданми ё далолати жиҳатиданми зонний бўлган бир ҳадис билан вожиблик собит бўлмайди” [8:385-386].

Кўриниб турганидек, Анвар Шоҳ Кашмирий усул қоидаларини ишлатиб, кўринишда ҳанафийлар фатвосига қарши кўринган бир ҳадисни ҳанафийларнинг далиллари таркибига олиб кирган. Шунингдек, “Ла солата” дан сўнг “камила” сўзини тақдир қилиш, яъни бор деб фараз қилиш араб тили нуқтаи назаридан фасоҳатли гапириш бўлмаслигини, кўпгина наҳв-грамматика олимлари бу ишни қабул қилмаслигини айтиб ўтган [3:253-254].

Анвар Шоҳ Кашмирий “Муззаммил” сурасининг “Қуръондан муяссар бўлганича ўқинг” деган 20-оят билан баҳс қилинаётган ҳадис ўртасида ўзаро мувофиқлик борлигини айтиб, бу борада ҳанафийларнинг қараши ниҳоятда тўғри эканлигини таъкидлайди ва намозда “Фотиҳа” ва унга бир сурани кўшиб ўқишнинг ҳукми бир деб уқтиради. Аллома шофеъийларнинг намозда “Фотиҳа” сурасини ўқишни фарз, зам сурани суннат дейишларини танқид қилиб, намозда бу иккисини ўқиш хабари воҳид билан собит бўлганини ва бундай ҳолатда иккисига икки хил ҳукм бериш тўғри эмас [8:394-395], деб ҳисоблайди.

Хулоса қилиб айтганда ҳанафийларнинг айтгани каби умумий маънода намозда қироат қилиш оят сабабли фарз, “Фотиҳа” ва замми сура бўлса, хабари воҳид билан собит бўлгани учун иккисининг ҳукми вожиб бўлиши энг тўғри фикрдир.

Анвар Шоҳ Кашмирийнинг ҳанафийлик мазҳабини қўллаб-қувватлашини баъзан бир қарашда киши хаёлига келмайдиган ҳадисларни далил қилиб келтириш билан амалга оширганини ҳам кўриш мумкин. Бунга “Сунани Термизий”да келган мана бу ҳадис мисол бўла олади:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ : إِذَا تَوَضَّأَ الْعَبْدُ الْمُسْلِمُ - أَوِ الْمُؤْمِنُ - فَغَسَلَ وَجْهَهُ خَرَجَتْ مِنْ وَجْهِهِ كُلُّ خَطِيئَةٍ نَظَرَ إِلَيْهَا بِعَيْنَيْهِ مَعَ الْمَاءِ - أَوْ مَعَ آخِرِ قَطْرِ الْمَاءِ أَوْ نَحْوَ هَذَا - وَإِذَا غَسَلَ يَدَيْهِ خَرَجَتْ مِنْ يَدَيْهِ كُلُّ خَطِيئَةٍ بَطَشَتْهَا يَدَاهُ مَعَ الْمَاءِ - أَوْ مَعَ آخِرِ قَطْرِ الْمَاءِ - حَتَّى يَخْرُجَ نَفْيًا مِنَ الذُّنُوبِ

“Абу Ҳурайрадан (р.а.) ривоят қилинади: “Расулуллоҳ (с.а.в.) айтдилар: “Мусулмон киши таҳорат олаётиб юзини юваркан, сувнинг охириги томчилари

оқиши билан кўзлари билан қараб қилган барча хатолари юзидан тўкилади. Қўлларини ювганда қўллари билан содир этган барча хатолар қўлларидан оқаётган охирги томчи сув билан оқиб кетади. Шунда (кичик) гуноҳлардан тоза бўлиб қолади” [2:21].

Анвар Шоҳ Кашмирий бу ҳадисни қисқа равишда зикр этгач, “Бошини масҳ қилган вақтда кулоқлари билан содир этган барча хатолар тўкилади” [5:72] деган иловасини ҳам келтирган ва ўзининг бу борадаги фикр-мулоҳазаларини қуйидагича баён этган: “Бу ҳадис шуни кўрсатяптики, кулоқлар бошнинг ҳукми билан бир хилдир. Шу сабаб ҳанафий олимлар айтганидек, бошга масҳ тортгандан сўнгра кулоқларга масҳ тортиш учун янги сув олиш шарт эмас” [3:39; 8:37].

Ҳанафийлар таҳоратда кулоқлар бошнинг ҳукмида эканлигини далил қилиб, бош учун олинган сув билан кулоққа масҳ тортишга чекланиб, янги сув олмасликка тавсия этганлар ва бунга “Кулоқлар бошдандир” [1:49; 2:158] деган ҳадисни далил қилиб келтирганлар. Анвар Шоҳ Кашмирий эса, аслида таҳорат фазилати ҳақида зикр этиладиган Абу Ҳурайрининг (р.а.) ривоятини ҳанафий мазҳабининг фойдасига далил қилиб келтирган. Бу ҳам алломанинг далил келтиришдаги кучли маҳоратига далолат қилади.

Ўрганиб ўтилган ушбу икки фикҳий масала мисолида Анвар Шоҳ Кашмирий ҳадисларни шарҳлаш жараёнида ихтилофли масалаларга ечим беришга алоҳида эътибор қаратиши ва уларни ҳанафий-мотуридийлик қарашлари асосида очиб бериши хулосаланди. Анвар Шоҳ Кашмирий ҳанафийлар наздида ҳадисларни мана шу услуб ва йўллар билан ҳам тушунилиши ва амалга киритилишини кўрсатиб берган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

- 1) Абу Довуд Сулаймон ибн Ашъас Сижистоний. Сунани Абу Довуд. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1996. – Б. 823.
- 2) Абу Исо Муҳаммад ибн Исо Термизий. Сунани Термизий. – Байрут: Муассасату-р-рисола ноширун, 2021. – Б. 1488.
- 3) Анвар Шоҳ Кашмирий. Ал-Арфу-ш-шазий. – Байрут: Дор ихё ат-турос ал-арабий, 2004. – Ж. 1. – Б. 302.
- 4) Ибн Можа. Сунани ибн Можа. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1998. Биринчи нашр. – Ж.1. – Б. 460.
- 5) Молик ибн Анас. Ал-Муватто. – Карачи: Мактаба ал-бушро, 2011. Биринчи нашр. – Ж.1. 608 б.
- 6) Муслим ибн Ҳажжож. Саҳиҳи Муслим. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1999. 576 б.

- 7) Аҳмад ибн Шуъайб ибн Али Насоий. Ас-Сунан ал-кубро. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1997. – Ж. 1. 240 б.
- 8) Муҳаммад Юсуф Баннурий. Маорифу-с-Сунан. – Карачи, Покистон: Адабу-л-манзил, 1992. – Ж. 2. 548 б.
- 9) Муҳаммад Юсуф Баннурий. Нафхату-л-анбар фи ҳаяти Анвар. – Каротиший: Ал-Мактаба ал-Баннурийя, 1424. 349.

YOSHLAR ORASIDA SOF AQIDANI TARG‘IB QILISHNING USULLARI VA VOSITALARI

Kasimov Farrux Inoyatovich
Buxoro Davlat Universiteti
islomshunoslik yo‘nalishi magistranti
+998978308008
@Farrukh_Ka

Annotatsiya. Maqolada yoshlar orasida sof aqidani shakllantirishning ijtimoiy, ma’naviy va ta’limiy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda diniy-ma’rifiy markazlar, oila va ta’lim tizimining bu jarayondagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot makonida yoshlarni soxta g‘oyalardan himoya qilish, islomning asl mohiyatini tushuntirishda qo‘llanilayotgan usullar va vositalar tahlil etiladi. Maqola islom olimlari asarlari va O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida yozilgan.

Kalit so‘zlar: sof aqida, yoshlar, e’tiqod, ma’naviyat, diniy-ma’rifiy markaz, Moturidiy, Imom Buxoriy, Islom sivilizatsiyasi, oila tarbiyasi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning diniy e’tiqodi, ma’naviy qarashlari va dunyoqarashi turli axborot oqimlari ta’sirida shakllanmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan soxta diniy ma’lumotlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir etmoqda. Shu bois, ularni **sof aqidaga** asoslangan to‘g‘ri diniy bilimlar bilan qurollantirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi [3, b. 2–3].

Sof aqida – islom dinining asosiy poydevoridir. U Allohning yagonaligiga, payg‘ambarlar, vahiy, oxirat va taqdirga bo‘lgan e’tiqodni o‘z ichiga oladi [4, b. 15]. Aqidaning buzilishi inson ruhiyatida adashish, jamiyatda esa ma’naviy zaiflikni keltirib chiqaradi [6, b. 21]. Shu sababli sof e’tiqodga ega yoshlarni tarbiyalash – millatning ma’naviy mustahkamligini ta’minlash demakdir.

Islom dini insonni to‘g‘rilik, adolat va poklikka chorlaydi. Sof aqidani yoshlar orasida keng targ‘ib etish ularni diniy jaholat, ekstremizm va g‘arazli oqimlardan asrashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul

qilingan “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonda ham yoshlarni diniy jihatdan sog’lom ruhda tarbiyalash ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan [3, b. 1–2].

Islom olimlari — Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning asarlari sof aqidani ilmiy asoslab bergan, e’tiqod masalalarida to’g’ri yo’lni ko’rsatgan muhim manbalardir [4, b. 40; 5, b. 112]. Ularning ta’limotini yoshlar ongiga singdirish – diniy barqarorlik va milliy o’zlikni asrashning eng ishonchli yo’lidir.

Yoshlar dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalari va oila asosiy o’rin tutadi. O’zbekiston Islom akademiyasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy markazlari, Mir Arab oliy madrasasi kabi diniy ta’lim muassasalari orqali yoshlar e’tiqodiy jihatdan etuk bo’lib etishmoqda [7, b. 52].

Dunyoviy oliy o’quv yurtlarida ham “Dinshunoslik” va “Ma’naviyat asoslari” fanlarining o’qitilishi natijasida yoshlarning diniy savodxonligi oshib bormoqda [8, b. 33]. Shu bilan birga, ota-onalar ham farzandlarining diniy tarbiyasiga mas’ul bo’lishi zarur. Oila muhiti — to’g’ri e’tiqodning birlamchi manbai hisoblanadi [6, b. 45].

Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan diniy manipulyatsiyalardan himoya qilish uchun ularning **tanqidiy fikrlash** ko’nikmalarini rivojlantirish, diniy kontentni ajratib olish malakasini oshirish muhim [9, b. 20–21].

O’zbekiston mustaqillik yillarida diniy-ma’naviy sohani rivojlantirishda xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari muhim o’rin egallaydi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2017-yilda **Samarqand shahrida** tashkil etilgan bo’lib, buyuk muhaddis Imom Buxoriy merosini o’rganish, sof aqidani targ’ib qilish yo’lida faoliyat yuritmoqda [13, b. 2].

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2017-yilda **Termiz shahrida** tashkil topgan va hadis, aqida hamda fiqh ilmlarini yoshlar orasida keng targ’ib etib kelmoqda [14, b. 4–5].

Islom sivilizatsiyasi markazi esa **Toshkent shahrida**, 2017-yil 23-iyunda tashkil etilgan bo’lib, 2022-yildan faoliyat yuritadi. U islom madaniyati va ma’naviyatini yoshlar ongiga to’g’ri singdirish bilan shug’ullanadi [12, b. 7].

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2020-yil 11-avgustda Toshkentda tashkil topgan. Markaz sof aqida masalalarini ilmiy asosda o’rganadi hamda Moturidiy ta’limotini zamonaviy talqinda yoshlar ongiga singdirish bilan shug’ullanadi [11, b. 28].

Mazkur markazlarning faoliyati yoshlar ongida **diniy bag’rikenglik, milliy o’zlik va sof e’tiqod** qadriyatlarini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar orasida sof aqidani targʻib qilish – diniy barqarorlik, maʼnaviy poklik va milliy birlashuvning asosi hisoblanadi. Bu borada davlat siyosati, taʼlim tizimi, oila tarbiyasi va diniy-maʼrifiy markazlar oʻzaro hamkorlikda harakat qilishi zarur. Imom Moturidiy, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning merosi yoshlarni haqiqiy eʼtiqod va insoniylik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Sof aqida – faqat diniy tushuncha emas, balki millat maʼnaviyatining, tinchlik va barqarorlikning kafolatidir. Shunday ekan, uni yoshlar ongiga ilmiy asosda singdirish, zamonaviy usullar bilan targʻib etish har bir pedagog, olim va ota-onaning muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2023.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonun. – Toshkent: Adolat, 2021.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni: “Diniy-maʼrifiy soha faoliyatini yangi bosqichga koʻtarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”. – Toshkent, 2021.
4. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. *Kitob at-Tavhid*. – Qohira: Dar al-Kutub, 2000.
5. Abu Homid al-Gʻazzoliy. *Ihyo ulum ad-din*. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1998.
6. Karimov I.A. *Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch*. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
7. Toʻxtasinov N., Joʻrayev A. *Islom taʼlimoti va aqida asoslari*. – Toshkent: TDShI nashriyoti, 2019.
8. Abdurahmonov M. *Diniy-maʼnaviy tarbiya va yoshlar*. – Toshkent: Istiqlol, 2020.
9. Yuldashev A. *Zamonaviy yoshlar va diniy qadriyatlar*. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2021.
10. Muslim.uz, Azon.uz, Islom.uz rasmiy veb-saytlari – diniy-maʼrifiy maqolalar.
11. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. *Moturidiy taʼlimoti va eʼtiqod masalalari*. – Toshkent, 2020.
12. Islom sivilizatsiyasi markazi. *Oʻzbekiston islom merosi va maʼnaviy qadriyatlar*. – Toshkent, 2022.
13. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. *Sof aqida va islomiy merosning yoshlar ongidagi oʻrni*. – Samarqand, 2022.
14. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. *Moturidiy taʼlimoti va zamonaviy eʼtiqod masalalari*. – Termiz, 2023.

YOSHLAR ORASIDA SOF AQIDANI TARG‘IB QILISHNING USULLARI VA VAZIFALARI

*Haqnazarova Iroda Ismoilovna
BuxDU tarix va yuridik fakulteti
Islomshunoslik yo‘nalishi I-bosqich
magistranti, “Jo‘ybori Kalon” ayol-qizlar,
o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasasi
o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sof aqida va uning qisqacha mazmuni va mohiyati, sof aqidaning jamiyat hayotidagi ahamiyati, yoshlar orasida sof islomiy aqidani shakllantirish va uni to‘g‘ri uslublar orqali targ‘ib qilish masalalari, hamda yoshlar ongini sog‘lom e‘tiqod asosida tarbiyalash zarurligi yoritiladi. Maqolada ta‘lim, ommaviy axborot vositalari, oilaviy tarbiya va diniy muhit sof aqidani targ‘ib qilishning samarali usullari keltirib o‘tilgan. Shunigdek, ekstrimestik g‘yalar ta‘siridan yoshlarni himoya qilish, diniy savodxonlikni oshirish, milliy va diniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: Sof aqida, yoshlar, ta‘lim, tarbiya, diniy savodxonlik e‘tiqod ma‘naviyat, tarix, oila, ogohlik, soxta salaflar, baxt-saodat, bag‘rikenglik, o‘qitish usullari, oqimlar.

Ma‘rifatli va barqaror jamiyat barpo etishning asosi-shu jamiyatning har bir a‘zosi sof aqidaga ega bo‘lishlaridir. Bugungi kunda mustaqil vatanimiz taraqqiyot yo‘lini tanlab, jahon hamjamiyatiga o‘zining boy tarixi va tunganmas ma‘naviy xazinasini bilan qo‘shilayotgan ekan, bu qutlug‘ safarda sof aqida so‘zining ma‘nosi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

So‘fi Olloyor bobomiz aqoid ilmini o‘rganish zarurligini quyidagicha bayon qilganlar:

Aqida bilmagan shaytona eldur,

Agar ming yil amal deb qilsa eldir.

Aqoid so‘zi lug‘atda “ishonib bog‘langan narsalar” ma‘nosini anglatadi. Istelohda esa quyidagicha ta‘rif beriladi: “Islom shariatidagi e‘tiqodiy hukmlarni o‘rganishdir”.

Sof aqida asosida yashashning go‘zal natijasi shuki, u insonni ikki dunyo baxt-saodatiga erishtiradi.

Sog‘lom aqidaning avvali Alloh taoloning borligiga, birligiga va komil sifatlar bilan sifatlanganiga iymon keltirish hisoblanadi.

Ulamolarimiz “Sog‘lom aqidani qisqacha qilib Alloh taologa, farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, oxirat kuniga, so‘ng qayta tirilishga iymon keltirishidir”, deb tushuntirib berganlar.

Sof aqidani asosan ushbu to‘rt mashhur matnlar orqali ta’lim olinadi:

1. “Fiqhul akbar”, Imom Abu Hanifa (rohimahulloh)
2. “Aqidatut Tahoviy”, Imom Tahoviy (rohimahulloh)
3. “Aqoidun Nasafiy”, Umar Nasafiy (rohimahulloh)
4. “Bad’ul Amoliy”, Sirojiddin O‘shiy (rohimahulloh)

Bundan tashqari sof aqida Qur’oni Karim va sahih hadislar asosida shakllangan. Ushbu aqida insonni bid’at-u xurofotlardan va adashishdan asraydi. Ahli sunna val jamoaning tutgan yo‘li esa, ana shu sof islom aqidasi poydevoridir. Bugungi kundagi axborot almashinuvining keng tus olganligi, natijada turli xil g‘oyalar va oqimlar erkin tarqalishi yoshlarning ongiga va e’tiqodiga bevosita ta’sir korsatmoqda. Shu bois yoshlar qalbiga sof islomiy aqidani singdirish, ularni turli buzuvchi g‘oyalardan himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki sof aqida – nafaqat shaxsning, balki jamiyatning xavfsizligi garovidir.

Sof aqida borasida so‘z ketganda Abu Mansur Moturidiy zikr qilmaslik katta xatodir. Fitnalar g‘alayon qilib, haqiqat va botil aralashgan, aqlni mezon qilib olingan bir davrda, gapga chechan mo‘taziliylarning naqliy va aqliy dalillariga javob berib, ularni to‘xtata oladigan, omma musulmonlarini to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itmasliklariga sabab bo‘ladigan kuchli olimga nihoyatda muhtoj edi. Bu zalvorli va sharaflil vazifa sunnatni himoya qiluvchi va bid’atlarni bostiruvchi unvonini olgan Abu Mansur Moturidiy rohimahullohga nasib etdi.

Ming afsuski hozirgi kunda ham yot g‘oyalarga ergashib ketayotgan yoshlar oramizda yo‘q emas. Moturidiy bobomizning ilmiy meroslarini puxta o‘rganib, ana shu yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash har birimizning burchimizdir. Zero, ulamolarimiz aytadilarki, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarish amali to‘xtasa, qiyomat qoyim bo‘lajak. Yoshlarga sof aqidani anglatishda bir qancha usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ota-bobolarmiz aytadilarki: “Maqsadga etolmaslik uslub bilmaslikdandir”.

1. Ta’lim-tarbiyada sof aqidani mustahkamlash uchun quyidagilarni amalga oshirish, amalda bo‘lib turganlari uchun esa qulay dasturlar ishlab chiqish lozim.

- ❖ maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida “tarbiya”, “Dinshunoslik” fanlari orqali sof aqidaning mohiyatini ilmiy asosda o‘rgatish.
- ❖ milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, tarixiy ildizlarga hurmatni ta’lim berish.
- ❖ ilmini asoslay oladigan ustozlar tomonidan aqidaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ma’ruza va suhbatlarni sezilarli tarzda ko‘paytirish

2. Ommaviy axborot vositalari va internetdan samarali foydalanish:

- ❖ yoshlar ko‘p vaqtini internetda o‘tkazayotganini inobatga olib, ijtimoiy tarmoqlarda sof aqidani targ‘ib qiluvchi va soxta salafiylarga raddiyalarni ilmiy asosda ochib beradigan qisqa videolar va animatsion roliklar tayyorlash;
- ❖ ulamolar ishtirokida o‘tkazilayotgan diniy-ma’rifiy video suhbatlarni ko‘paytirish

3. Oila muhitida tarbiyaga diqqat qilish:

- ❖ Yoshlarni sof aqidali qilib tarbiyalashda asos bo‘lib xizmat qiladigan usul oilada berilgan tarbiyadir. Tarbiya asnosida ota-onalar farzandlarini kimlar bilan do‘st tutinayotganiga va qaysi axborot manbalarini kuzatayotganiga e’tiborli bo‘lishlari kerak

Qo‘shimcha tarzida yana “mo‘tadillik va bag‘ri kenglik”, “sof aqida tinchlik va taraqqiyot garovi” kabi shiorlar ostida Respublika bo‘ylab tanlovlar, forumlar tashkil qilinishi ham yaxshi samara beradi.

Sof aqidani targ‘ib qilishning asosiy vazifalari shundan iboratdir:

- ❖ Ularni har xil yot g‘oyalardan himoya qilish
- ❖ Jamiyatda tinchlik va o‘zaro hurmat muhitini yaxshilash
- ❖ Boshqa e’tiqod vakillariga nisbatan hurmat va muomala madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Bu dolzarb muammolarni hal qilish uchun ota-onalar va ustozlar o‘z vazifalarini sidqidildan ado etishlarini talab qilinadi. Yoshlar o‘rtasida sof aqidani targ‘ib qilish – nafaqat diniy balki, milliy xavfsizligimizning va kelajagimiz barqarorligining asosi hisoblanadi. Yosh avlod islomni toza manbalardan o‘rganar ekan, u har qanday yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E’tiqod durdonalari. Abdul Qodir Abdurrohim. 11,40-betlar
2. Kreativ fikrlash. I.S.Xotamov, M.K.Olimov. 7-bet

ABU HANIFA AQIDASI VA “AL-FIQH AL-AKBAR” RISOLASI

To‘xtayev Nasrulloh

“Imom Termiziy” o‘rta maxsus islom ta’lim

muassasasi o‘qituvchisi

+998 91 908 76 76

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom ta’limotida muhim o‘rin tutadigan buyuk alloma Imom A’zam Abu Hanifa No‘mon ibn Sobitning hayoti, ilmiy faoliyati va aqidaviy qarashlari yoritilgan. Muallif Abu Hanifaning “al-Fiqh al-akbar” risolasidagi asosiy g‘oyalar, uning shariat hukmlarini chiqarishda tutgan usullari hamda hanafiy mazhabining shakllanishidagi ilmiy asoslarini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada murjiylar bilan bo‘lgan bahslar, “imon” tushunchasining ma’naviy va ilohiy jihatdan izohi keng yoritilgan. Tadqiqotda ulamolarning asarlari, Qur’oni karim va sunnat manbalariga tayanib, Abu Hanifaning aqidaviy merosining ahamiyati, uning ahli sunna val jamoaga asoslangan e’tiqodiy yo‘lining bugungi kundagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqola Islom falsafasi, kalom va aqida sohasiga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Abu Hanifa, “al-Fiqh al-akbar”, ahli sunna val jamoa, imon, murjiylar, hanafiy mazhabi, ijtihod, qiyos, urf, aqida.

Kirish. Islom sivilizatsiyasi tarixida fiqh, aqida va kalom ilmlarining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalardan biri — Imom A’zam Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit (80–150 h.) hisoblanadi. U kishi faqihlik, zohidlik va ilmga sadoqati bilan tanilgan bo‘lib, musulmon ummati ichida ahli sunna val jamoa ta’limotini asos solgan ulug‘ imom sifatida nom qozongan. Abu Hanifaning fiqh va aqida sohalaridagi ilmiy faoliyati islom huquqshunosligi va e’tiqodiy ta’limotning rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. U kishi islom manbalaridan hukm chiqarishda Qur’on va Sunnatni asosiy manba deb bilib, ularning ma’nolarini keng qamrovli ijtihodiylar tahlil orqali amaliyotga tatbiq etgan.

Abu Hanifaning “al-Fiqh al-akbar” risolasi uning aqidaviy qarashlarini jamlagan, ahli sunna val jamoa e’tiqodining nazariy poydevori sifatida tan olingan asardir. Unda imonning ma’nosi, uning ziyoda yoki kamaymasligi, amal bilan bog‘liqligi, Allohning sifatlari, taqdir va inson irodasi masalalari ilmiy asosda bayon qilingan. Bu risola kalom fani rivojiga ta’sir ko‘rsatgan birinchi manbalardan biri bo‘lib, keyinchalik Moturidiy va Ash’ariy ulamolari tomonidan keng sharhlangan.

Abu Hanifa fihiy masalalarda ham, aqidaviy bahslarda ham mo‘tadil yo‘lni tutgan. U zot aql va naqlni uyg‘un holda qo‘llab, diniy masalalarda fan va mantiqni chuqur anglashni lozim deb bilgan. Shu jihatdan, u ijtihod, qiyos, ijmo‘, istehson va

urf kabi manbalarga asoslanib, shariat hukmlarini zamon ehtiyojlariga muvofiq ravishda talqin qilgan.

Maqolada Abu Hanifaning hayoti, ilmiy faoliyati, uning asarlari, ayniqsa “al-Fiqh al-akbar” risolasining mazmun-mohiyati, murjiylar bilan bo‘lgan ixtiloflar va imon tushunchasiga oid ta’limoti keng yoritiladi. Shuningdek, bu ta’limotning hozirgi zamondagi ahamiyati va musulmon jamiyatidagi ahloqiy-ruhiy ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

1. Abu Hanifaning hayoti, obro‘-e’tibori va hukm olishda tutgan yo‘li.

Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit ibn Zutiy (80-150 h.) Kufa shahrida saksoninchi hijriy sanada tavallud topdilar. U kishi axli sunna fiqh mazhab boshliqlari ichida eng avval tug‘ilganlaridir. Yoshliklarida Qur’oni karimni yod olganlar. Ramazon oyida Qur’onni o‘ttiz marta xatm qilardilar. Hayotlarini ham Qur’onga amal qilib o‘tkazdilar. O‘n olti yoshlarida otalari bilan hajga bordilar. Abu Hanifa rahmatullohi alayxning otalari Ali (r.a.) bilan uchrashgan va o‘ziga hamda zurriyotiga baraka tilab, u kishining duolarini olgan edi. U kishi tobe’in bo‘lganlari, sahobalardan Anas ibn Molik (r.a.)ni ko‘rganlari aniq dalillar asosida isbotlangan. Bundan tashqari Abdulloh ibn Abu Avfo, Abu Umoma, Ibn Abbos kabi sahobai kiromlar bilan muloqotda bo‘lganlari ham tarix kitoblarida keladi.

Abu Hanifa tobe’inlardan ilm olgani haqida hech qanday shubha yo‘q. U kishi juda ko‘p ustozlardan ilm o‘rganganlar. Shulardan ba’zilar quyidagilar:

1. Sha’biy. Asarga ko‘p etibor berar edi.

2. Ikrima. U kishi ibn Abbos (r.a.)ning shogirdi edi.

3. Nofe’. U kishi Ibn Umar (r.a.)ning shogirdi edi.

4. Ato ibn Abu Raboh. Ibn Abbosning ilmi o‘sha kishida edi.

5. Hammud ibn Sulaymon. Abu Hanifa u kishidan fiqhni to‘la egalladilar. Imom A’zam o‘n sakkiz yil davomida to vafot etguncha undan fiqh ilmini o‘rgandilar.

6. Zayd ibn Ali ibn Husayn Zaynulobidiyn. U kishi qiroatlar va ulumul Qur’on ilmlari, fiqh va aqoid ilmlarida ko‘zga ko‘ringan allomasi edi. Abu Hanifa u kishidan ikki yil dars olganlar.

7. Ja’far Sodiq. U kishi Abu Hanifa bilan tengdosh bo‘lganlar. Abu Hanifa: “Allohga qasamki, Ja’far ibn Muhammad Sodiqdek faqihni ko‘rmaganman», deganlar.

8. Abdulloh ibn Hasan ibn Hasan. Abu Hanifa bu kishiga shogird tushganlarini Makkiy, Ibn Bazzoziy va boshqalar ta’kidlaganlar. U kishi hadis va boshqa ilmlarda peshqadam edilar.

9. Muhammad Boqir ibn Zaynulobidiyn. Bu kishi chuqur ilmga ega bo‘lganlari uchun Boqir lakabini olgan edilar.

Abu Hanifaning shogirdlari juda ham ko‘p bo‘lganidan ularning nomma nom zikr kilib o‘tishning o‘zi mushkil. Bulardan eng mashhurlari quyidagilar:

1. Ya‘qub ibn Ibrohim ibn Habib al-Ansoriy bo‘lib, Abu Yusuf kunyasi bilan mashhurdirlar.

2. Muhammad ibn Hasan Shayboniy(132–189h.).

3. Abul Huzayl Zufar ibn Huzayl ibn Qays Kufiy.

4. Hasan ibn Ziyod Lu‘lu‘iy (204 h.y.da vafot egan).

Bulardan tashqari Dovud Toiy, Asad ibn Amr, Hasan Lu‘lu‘iy, Nuh al-Jomi‘ va juda ko‘p mashhur ulamolar shogird bo‘lganlar.

Ustozlari Hammud ibn Sulaymon vafot etganida Abu Hanifa qirq yoshda edilar. Ustozining halqadagi o‘rnini egalladilar. U kishining darslari, ilmiy bahslari bora-bora fiqhiy mazhabga aylandi.

Abu Hanifa va uning ikki shogirdi buzuq e‘tiqodlilarga raddiya berish maqsadida aqida bo‘yicha gapirganlarning avvalgilaridandir. “Manaqibul kardariy”da Xolid ibn Zayd al-Umariydan rivoyat qilinadi: “Abu Hanifa, Abu Yusuf, imom Muhammad, Zufar va Hammud ibn Abi Hanifa insolarga kalom bilan raddiya berardilar, ya’ni muxoliflarni mulzam qilardilar”⁷. Imom Abu Abdullohdan rivoyat qilinadi: “imom Abu Hanifa o‘z davrida bu ummatning mutakallimi edi”.

Abu Hanifaning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan manbalarda uni ilmiga amal qiluvchi olim, parhezkor obid, taqvodor zohid, Allohga doimiy iltijo qiluvchi kamtarin inson sifatida ta’rif qiladilar. Uning ilm va taqvoda tengsiz ekanini, o‘z zamonasi va undan keyingi davr ulamolari e’tirof etishi bilan bir qatorda, ahli sunna mazhablariga kiruvchi shofe’ilik va molikiylik mazhablarining asoschilari imom Shofe’iy va imom Molik rahmatullohi alayhlar ham o‘zlarining yuksak baholarini berganlar. Jumladan imom Shofe’iy: **“Fuqaholarning barchasi fiqh borasida Abu Hanifaga boqimandadirlar”**, deganlar. Imom Molik Abu Hanifa bilan turli bir qancha ilmiy munozaralar xususida bahs qilganlaridan so‘ng: **“Albatta, u buyuk fkaqihdir”**, deya ta’kidlaganlar.

Abu Hanifaning shogirdlaridan bo‘lgan Imom Abu Yusuf ustoz haqida shunday degan edi: **“Hadis va undagi fiqhga oid nuqtalarni izohlab berishda ustozim Abu Hanifadan ko‘ra olimroq odamni ko‘rmaganman”**⁸.

Ustoz Abu Zahra: **“Abu Hanifa rahmatullohi alayhning ijtohodlari va hadislarni o‘rganishda tutgan yo‘li, u yashagan muhitda ko‘p qiyos qilishga va**

⁷ Akmaluddin Muhammad ibn Muhammad al-Bobartiy. Sharhu Vasiyatil imam Abi Hanifa. – Ummon: Dorul Fath liddirosati van nashr, 2009. – B 102

⁸ Muhammad ibn Abdurahmon al-Homish. Usul ad-din indal Imom Abi Hanifa. – Ar-Riyod: Dor as-samiiy, 2007. – B. 245.

uning taqozosiga qarab qismlarga bo‘lishga bois bo‘lgan. Ilm doirasining kengligi tufayli, ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan masalalarnigina bahs qilish bilan chegaralanib qolmay, balki, kelajakda voqe’ bo‘lishi mumkin va kutilayotgan masalalarni ham nazaridan chetda qoldirgan emas”, deganlar.

Abu Hanifa o‘ziga nisbatan, u boshqa dalillarni Qur’oni karim va Sunnati nabaviya ko‘rsatmalaridan ustun qo‘yadi degan muxoliflariga raddiya berib, shariatning asosiy manbalaridan hukm chiqarish bo‘yicha o‘z uslublarini quyidagicha bayon qilganlar: **“Kimki, bizni Qur’on va Hadis ta’limotlaridan Qiyosni ustun qo‘yadi deb ayblasa, Allohga qasamki, u yolg‘onchi va tuhmatchidir. Qur’on va Hadis turgan joyda kim ham Qiyosga ehtiyoj sezadi?! Biz qiyoslash uslubini o‘ta zarur bo‘lgandagina tatbiq etamiz. Biror masala uchun Qur’on va Hadisda dalil topa olmaganimizdagina, uni boshqa dalilu hujjati bor masala bilan qiyoslaymiz. Birinchi navbatda dalil va hujjatni Qur’ondan, so‘ngra Hadisdan izlaymiz va ulardan topa olmagan taqdrimizdagina, sahobalar so‘zlariga murojaat qilamiz. Sahobalar ham mazkur masalada hamfikir bo‘lmagan taqdirlaridagina, ma’noning oydinlashishi uchun ikki masalaning umumiy illatini topib, bir hukmni ikkinchi hukmga qiyos qilamiz”**.

Ushbu bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, Abu Hanifaning hukm chiqarish uslubini quyidagi etti asosga tayangan deb aytish mumkin bo‘ladi:

1. Qur’oni karim. Qur’on islom shariatining barcha hukmlarining va Allohning mustahkam dinining asos manbasi hisoblanadi.

2. Sunna. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning so‘zlari, amallari va taqrirlari (tasdiqlari)dan iborat bo‘lib, Qur’on oyatlarini izohlovchi, umumiy hukmlarni xoslashtiruvchi, mutloqlarni muqayyad qiluvchi, noaniq bo‘lgan iboralar va hukmlarni aniqlab beruvchi manbadir.

3. Ijmo’. Uning lug‘aviy ma’nosi “qasd qilmoqdir”. Muftahidlarning bir hukmga ittifoqiga “ijmo” deyilishining boisi – mazkur hukmni shar’iy hukm deb qasd qilishlaridir. Istilohda esa, musulmonlardan bo‘lgan muftahidlarning Rasululloh (s.a.v.) vafotlaridan so‘ng biror davrda, shar’iy hukmga qilgan ittifoqiga ijmo’ deyiladi. Olimlar ittifoqi asosida ijmo’ hujjat, ya’ni shariat hukmlarini belgilash uchun qat’iy dalil hisoblanadi.

4. Qiyos uslubi. Biron bir muammoning echimi Qur’on, Sunna yoki sahobiy qavlidan topilmasa, Abu Hanifa rahmatullohu alayh ray’ va qiyosga asoslanib amal qilardilar.

5. Istehson. Lug‘atda “bir narsani yaxshi deb hisoblash” ma’nosida ishlatiladi. Usul ulamolari istilohida esa, “muftahidning ochiq – ravshan qiyosdan

maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan ju'iy hukmga o'tishligi" tushuniladi. Bunday o'tishlikni uning ijtihodi taqozo qilgan bo'ladi.

6. Sahobalar so'zlari. Sahobalar Rosululloh (s.a.v.)ga oyatlar nozil bo'lishining guvohlari sifatida oyatlarning sababi nuzuli va hadislarning nima uchun aytilganligini yaxshi tushungan holda, kelajak uchun etkazgan insonlardir.

7. Urf. Kishilar o'rganib, odatlanib qolganliklariga asosan qilib kelayotgan ishlariga, so'zlariga urf deyiladi. Urfni odat deb ham yuritiladi. U ikki xildir: **1. Urfi fosid** – nassga zid bo'lgan urf-odat bo'lib, islom huquqida unga amal qilinmaydi. **2. Urfi sahih** – xalqning nassga zid bo'lmagan urf-odatlari bo'lib, Islom qonunchiligida, ayniqsa, Hanafiy mazhabida katta ahamiyatga ega.

Abu Hanifa Qur'on yoki hadis, yoki sahobalardan rivoyat qilingan so'z va amal mavjud bo'lmagan holda, shuningdek, qiyos urfga qarshi turganda, urf-odatga asoslanib hukm chiqarganlar. Urfga katta e'tibor qaratish Hanafiy mazhabi rivojlanib, keng ko'lamda tarqalishining muhim omillaridan biri bo'lgan.

Xulosa. Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit islom tarixida ilmiy mustaqillik, aqliy tahlil va e'tiqodiy barqarorlik tamoyillarini ilk bor mukammal tarzda shakllantirgan zotdir. Uning ilmiy merosi, ayniqsa "al-Fiqh al-akbar" risolasi, ahli sunna val jamoa e'tiqodining asosiy manbalaridan biri bo'lib, musulmon fikriy merosining rivojida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Abu Hanifa aqidani faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy hayot bilan chambarchas bog'liq holda talqin etgan. Uning ta'limotida imon qalb bilan tasdiq va til bilan iqrar etish orqali amalga oshishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, amallar imondan ajralgan holda emas, balki uning samarasi sifatida ko'rilgan. Bu esa insonning axloqiy yuksalishi va jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad ibn Abdurahmon al-Homish. Usul ad-din indal Imom Abi Hanifa. – Ar-Riyod: Dor as-samiy, 2007. – 699 b.
2. Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti / Monografiya. – T.: Nur poligraf, 2008. – 190 b.
3. Prozorov S.M. Islam kak ideologicheskaya sistema. M., IFVL, 2004.
4. Xrestomatiya po islamu. Sost. I otv. Redaktor S.M.Prozorov. M., IFVL, 1994 (Razdel IV. Dogmatika. Ideynye rasxojudeniye v islame).
5. Shahrisoniy, Abul Fath. Al-Milal van nihal: 2 jildli / Muhammad Abdulqodir al-Foziliy nashri. – Damashq: al-Maktaba al-asriya, 2000. – 478 b.
6. Akmaluddin Muhammad ibn Muhammad al-Bobartiy. Sharhu Vasiyatil imam Abi Hanifa. – Ummon: Dorul Fath liddirosati van nashr, 2009. – 159 b.

7. Ali ibn Sulton Muhammad al-Qoriy. Sharhul Fiqhil akbar. – Damashq: Dorun Nafais, 2009. – 271 b.

8. Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; Mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – 624 b.

SOG‘LOM E’TIQODNING JAMIYAT BARQARORLIGIDAGI O‘RNI

Parmonov Bobosher

*“Imom Termiziy” o‘rta maxsus islom ta’lim
muassasasi o‘qituvchisi
+998999061095*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom e’tiqod tushunchasi Moturudiy aqidaviy maktabi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi va uning jamiyat barqarorligi, ijtimoiy totuvlik, adolat va ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rniga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, xalqaro Islomiy birlashmalar (OIC, ISESCO, Global Imams Council va boshqalar) sog‘lom e’tiqod va musulmon ummatining birlik tamoyillariga doir qarashlari tahlil qilinadi. Maqola ilmiy-tahliliy uslubda tayyorlangan bo‘lib, tadqiqotchi, talabalar va ma’naviy-faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar uchun foydali bo‘lishi mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar. Moturudiy, sog‘lom e’tiqod, ijtimoiy barqarorlik, Islomiy birlik, OIC, ISESCO, Global Imams Council, ma’naviyat, ijtimoiy totuvlik.

KIRISH. Barqaror jamiyatning poydevori sifatida e’tiqod va ma’naviyat muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, musulmon dunyosi uchun sog‘lom, ilmiy asoslarga tayangan e’tiqod jamiyatni ekstremizm, radikalizm va ijtimoiy bo‘linishlardan himoya qilishi mumkin. Abu Mansur Moturudiyning aqidaviy maktabi — e’tiqod va aql uyg‘unligi, tafakkur asosida ishonch — shunday sog‘lom e’tiqod konsepsiyasini ilgari suradi. Biroq bugungi kunda musulmon ummatining global muammolari (geosiyosiy ziddiyatlar, diniy bo‘linishlar, ma’naviy bo‘shliqlar) fonida xalqaro Islomiy tashkilotlar sog‘lom e’tiqod va birlik tamoyillarini targ‘ib qilishga alohida urg‘u bermoqda. Shuning uchun, ushbu maqolada nafaqat Moturudiy maktabi, balki xalqaro tashkilotlarning fikrlari ham integrativ ravishda tahlil qilinadi.

Moturudiy ta’limotida sog‘lom e’tiqod tushunchasi, Moturudiy maktabining aqidaviy qarashlarida sog‘lom e’tiqodning asosiy xususiyatlari quyidagicha: Aql va naql uyg‘unligi

Moturudiy e’tiqodda aqlfaoliyatini inkor etmaydi; balki aqliy dalillar bilan vahiy ma’lumotlarini tushunishga intiladi. Ixtiyoriylik va mas’uliyat E’tiqod taqlidga (bilimsiz ergashish) asoslanmasligi va insonning tanlov qobiliyati hamda javobgarligi tan olinishi kerak.

Amal bilan bog‘liqlik: E’tiqod faqat ichki ishonch bo‘lib qolmasdan, amaliy hayotga — axloq, huquq, ijtimoiy mas’uliyatga ham yo‘nalgan bo‘lishi talab qilinadi. Moderatlik (mutedillik)

Firqachilik, mutaassiblik va ekstremizmga qarshi bo‘lish, mo‘tadil yondashuvni saqlash. Moturudiy maktabi Islom dunyosi ichida sunniy aqidaviy maktablar orasida keng tarqalgan bo‘lib, uning merosi O‘zbekiston ilmiy muhitida ham alohida e’tibor markaziga aylanmoqda. Xalqaro Islom birlashmalarining sog‘lom e’tiqod va birlik haqidagi fikrlari

Quyida ayrim xalqaro Islomiy tashkilotlar sog‘lom e’tiqod va Umma birdamligi bo‘yicha qilgan tashabbuslari va qarashlari: OIC (Organisation of Islamic Cooperation / Islom hamkorlik tashkiloti), OIC musulmon mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy, madaniy va ta’limiy hamkorlikni rivojlantirish orqali Umma birlik tamoyillarini mustahkamlashga intiladi. So‘nggi diplomatik sammitlarda OIC “Islomiy dunyoning birlik, mustaqillik va tenglik ramzi” sifatida ta’kidlangan. OIC doirasida, masalan, ISESCO (Islomiy Ta’lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti) kabi tuzilmalar din va ilm uyg‘unligini, ma’naviy-ma’rifiy hamkorlikni eng muhim yo‘nalish deb biladi. ISESCO (Islamic Educational, Scientific and Cultural Organization) ISESCO musulmon mamlakatlar o‘rtasida ta’lim, ilm-fan va madaniy almashinuvni targ‘ib qiladi va ular orasida birlik va totuvlikni mustahkamlashga chaqiradi. ISESCO bayonotlarida musulmon dunyosi “tashqaridan bosim, ekstremizm va bo‘linishga” duch kelayotgani ta’kidlanib, diniy olimlarga birdamlik va hamkorlikka chaqiriladi.

Global Imams Council (GIC)

Bu keng ko‘lamli imamlar tashkiloti bo‘lib, turli mazhab va maktablardagi Qur’on va Sunnatga tayangan olimlarni birlashtirishga intiladi. GIC asosiy maqsadi: musulmon dunyosida ekstremizmga qarshi kurash, diniy tolerans, tinchlik, va birlashuv — barcha mazhab va oqimlar orasida muloqotni rivojlantirish. Masalan, GIC tomonidan radikalizmga qarshi fatvolar chiqarilishi va “Musulmonlar va boshqa din vakillari o‘rtasidagi hurmat” tamoyillarini ilgari surish ishlari e’lon qilingan. Boshqa tashkilotlar (bir oz umumiy ma’lumotlar)

World Assembly of Islamic Awakening — musulmon uyg‘onish harakatini qo‘llab-quvvatlash va musulmon mamlakatlar orasida tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan sanaladi.

International Institute for Muslim Unity (IIMU / IJMWS) — dunyo musulmonlari orasida birlik va ilmiy dialogni mustahkamlash maqsadi bilan tadqiqot, konferensiyalar, nashrlar bilan shug‘ullanadi. Xalqaro tashkilotlar sog‘lom e‘tiqod va birlik konsepsiyasini ilgari surishda bir necha yo‘nalishga e‘tibor beradilar: Extremizm va dartsiz guruhlar bilan kurash, radikal qarashlarning ildiziga e‘tibor. Diniy-ma‘rifiy dialog va muloqotni rivojlantirish. Ta‘lim, ilm-fan va madaniy almashinuv orqali universal qadriyatlarni mustahkamlash. Eng muhim — ijtimoiy adolat, huquq va jamiyatda barqarorlikni ta‘minlash. Bu xalqaro qarashlar Moturudiy maktabining sog‘lom e‘tiqod konsepsiyasi bilan sinergiya hosil qiladi — ya‘ni ham aqlga asoslangan e‘tiqod, ham ijtimoiy mas‘uliyat va birlik tamoyillari global darajada qo‘llab-quvvatlanadi.

Sog‘lom e‘tiqod va jamiyat barqarorligi: tahliliy qarashlar

Ma‘naviy immunitet va ekstremizmga qarshi qaror, sog‘lom e‘tiqodga ega jamiyat, ya‘ni diniy ma‘lumotga, tafakkurga asoslangan, bo‘linish va radikalizmga qarshi immunitetga ega bo‘lishi mumkin. Bunday jamiyatda yoshlar va odamlarga noto‘g‘ri ta‘siralar kiritish qiyin bo‘ladi. Ijtimoiy totuvlik va bag‘rikenglik Moturudiylikdagi moderat yondashuv, va xalqaro tashkilotlarning keltirayotgan birlik tamoyillari jamiyatdagi turli diniy yoki mazhablararo ziddiyatlarni yumshatishi, bag‘rikenglikni mustahkamlashi mumkin. Huquqiy madaniyat va adolat, E‘tiqodiy qarashlar jamiyatda adolat, halollik, ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda davlat siyosati, qonun-inshootlar va jamiyat elementlari ham bog‘liq. Ma‘rifiy taraqqiyot va ilmiy niyat Sog‘lom e‘tiqod ilmiy izlanish va tafakkurga hurmat bilan bog‘liq. Bu esa jamiyatda ilmga, madaniyatga, bilimga qiziqishni oshiradi — bu o‘z navbatida ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Xalqaro birlik va integratsiya, Islomiy tashkilotlar va moturudiy qarashlar o‘rtasidagi uyg‘unlik jamiyatlarni global musulmon ummat bilan mustahkam bog‘laydi, shu bilan birga xorijiy ta‘siralar va bo‘linish oqimlariga qarshi barqaror turg‘uzadi.

Xulosa. Ushbu maqolada sog‘lom e‘tiqod tushunchasi Moturudiy ta‘limoti asosida yoritildi va uning jamiyat barqarorligi, ma‘naviy totuvlik, adolat va ijtimoiy barqarorlik yo‘lida qanday rol o‘ynashi tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro Islomiy birlashmalar (OIC, ISESCO, Global Imams Council va boshqalar) sog‘lom e‘tiqod va birlik haqida qanday tamoyillarni ilgari surishi ko‘rib chiqildi. Moturudiylik maktabi va xalqaro tashkilotlarning birlik yondashuvlari o‘zaro qo‘shimchaviy bo‘lishi mumkin — ya‘ni e‘tiqodiy ildizlar, aqlga hurmat va ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillari global musulmon ummatning barqaror taraqqiyoti va birdamligi yo‘lida mustahkam poydevor bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. O‘zbekiston musulmonlari idorasi — “Moturidiylik ta’limoti bibliografiyasi” maqolasi, Muslim.uz sayti. muslim.uz
2. Uzpedia — “Imom Abu Mansur Moturudiy” maqolasi (o‘zbek tilida) UzPedia
3. ISESCOning musulmon ummatda birlikka chaqirishi haqidagi xabarlar (IRNA / ISESCO bayonoti) IRNA English
4. OIC hamkorligi va islomiy birlik haqidagi ma’lumotlar, OIC rasman sayt materiallari va yangiliklar (masalan, “The OIC in a Transforming World” hisobot) cfm51.oic-oci.org+1
5. Global Imams Council ta’riflari va faoliyati haqidagi ma’lumotlar (Wikipedia) Википедия
6. IJMWS / IIMU tashkiloti haqida umumiy ma’lumotlar (ingliz tilida) IJMWS

أهمية العقيدة الإسلامية في عصر العولمة

سيد محمد خان ابن داود خان
أستاذ في المدرسة المتوسطة الخاصة
الأسلامية باسم خواجه بخاري
Muhibullayes@gmail.com
+998908860773

الملخص:

تركز هذه الدراسة على أهمية العقيدة الإسلامية في مواجهة تأثيرات العولمة على الهوية الدينية والثقافية للمسلمين. وتوضح الدراسة كيف يمكن للقيم الإسلامية، مثل الوسطية، التسامح، والرحمة، أن تكون أدوات فعالة للحفاظ على التماسك الاجتماعي والثقافي، وتعزيز الهوية الإسلامية في مواجهة التحديات العالمية. كما تبحث الدراسة في التحديات التي يواجهها الشباب المسلم نتيجة الانفتاح الثقافي العالمي، وتقدم حلولاً عملية لتعزيز الهوية الإسلامية والمحافظة عليها بين الأفراد والمجتمعات.

الكلمات المفتاحية:

العقيدة الإسلامية، العولمة، الهوية الدينية، الوسطية، التسامح، التحديات الثقافية. تعتبر العقيدة الإسلامية الأساس الذي يبني الهوية الفردية والجماعية للمسلمين، فهي تجمع بين العقيدة، القيم الأخلاقية، والمعايير الاجتماعية، وتوجه السلوك اليومي والسياسي والثقافي للفرد [4:160]. في عصر العولمة، أصبح الحفاظ على الهوية الدينية والثقافية تحدياً مركزياً، حيث تؤثر وسائل الاتصال الحديثة والتبادل الثقافي السريع على سلوكيات الأفراد والمجتمعات.

لقد أدت العولمة إلى زيادة الترابط بين الشعوب والثقافات، بحيث يمكن للفرد في أي مكان أن يتأثر بثقافات أخرى بسرعة غير مسبوقة. وهذا يؤثر بشكل مباشر على طريقة فهم الشباب للدين والهوية الثقافية، حيث يظهر تباين واضح بين من يحرص على الحفاظ على هويته الدينية التقليدية، وبين من يتبنى القيم الحديثة والثقافات الأخرى [6:102].

كما أن للعولمة جوانب إيجابية، فهي تتيح للمسلمين فرصة لإعادة تقييم فهمهم للدين، وتطبيق القيم الإسلامية بطريقة تتناسب مع العصر الحديث. فتجعلهم أكثر وعياً بمرونة الإسلام وقدرته على التكيف مع مختلف البيئات الثقافية والاجتماعية [7:78].

تحديات العصر الحديث:

1. **صراع القيم:** تظهر صراعات بين الالتزام بالقيم الدينية والمحافظة على التراث الثقافي المحلي، مما قد يولد توترًا بين الأجيال [8:33].
 2. **الإفراط والتطرف الديني:** الإفراط في العبادة أو التشدد في تفسير الأحكام قد يؤدي إلى التطرف الذي يهدد وحدة المجتمع [9:45].
 3. **التفريط أو الليبرالية الدينية:** التغاضي عن الالتزام الديني يؤدي إلى تآكل الهوية وفقدان التماسك الاجتماعي [10:112].
 4. **غياب الوسطية:** عدم تحقيق التوازن بين الالتزام الديني والانفتاح على الحداثة يؤدي إلى صعوبة التكيف دون التفريط في جوهر الدين [11:56].
- تشكل العولمة تحديًا كبيرًا أمام المجتمعات الإسلامية في الحفاظ على هويتها الدينية والثقافية. فالتفاعل المستمر مع الثقافات الأجنبية يؤدي إلى ظهور عدة مشكلات يمكن تلخيصها فيما يلي:

1. **صراع القيم الثقافية والدينية**
مع الانفتاح الثقافي السريع، يظهر أحيانًا تعارض بين الممارسات الثقافية الحديثة والقيم الدينية التقليدية. فبعض الشباب يتبنى عادات جديدة لا تتوافق مع المبادئ الإسلامية، مما يولد صراعًا داخليًا حول الهوية والانتماء.
- على سبيل المثال، الانفتاح على وسائل الإعلام الحديثة قد يؤدي إلى تبني أنماط حياة غربية تتعارض مع التعاليم الإسلامية المتعلقة بالملبس، السلوك الاجتماعي، أو العلاقات الأسرية [2:102].
2. **الإفراط والتطرف الديني**
التطرف الديني يمثل خطرًا واضحًا على الوحدة الاجتماعية. إن الإفراط في العبادة أو التشدد في الأحكام يؤدي إلى عزلة الفرد وتهميشه للمجتمع، كما حدث تاريخيًا مع جماعة الخوارج التي انفصلت عن المجتمع الإسلامي واعتبرت الصحابة كفارًا [3:45].
- وقد جاء التحذير النبوي واضحًا من الغلو في الدين، حيث قال النبي ﷺ: "إياكم والغلو في الدين؛ فإنما أهلك من كان قبلكم الغلو في الدين" [4:2791].
- هذا يوضح ضرورة تطبيق الوسطية في الدين لتحقيق التوازن بين الالتزام بالقيم الإسلامية والانفتاح على العالم الحديث.

3. **التفريط والليبرالية الدينية**
التفريط في الالتزام الديني قد يؤدي إلى ضياع الهوية وتفكيك المجتمع. وغالبًا ما يرتبط هذا بالإفراط في الانفتاح على الثقافة الغربية أو الليبرالية الحديثة، حيث يسعى بعض الأفراد إلى تفسير التعاليم الدينية بشكل شخصي دون مراعاة الضوابط الشرعية.
- ومن الأمثلة العملية، رفض بعض الشباب للواجبات الدينية أو التغاضي عن الممارسات الشرعية الأساسية تحت تأثير بيئات حديثة أو ثقافات غير إسلامية.

4. **ضعف الوسطية**
عدم الالتزام بمبدأ الوسطية يضعف قدرة الفرد على مواجهة التحديات المعاصرة دون الإفراط أو التفريط. الوسطية تعتبر الركيزة التي توازن بين الحفاظ على الهوية الدينية والانفتاح على متطلبات العصر [56:8].

فالوسطية تحمي المجتمع من التطرف الذي يؤدي إلى تفكك الوحدة الاجتماعية، وكذلك من التفريط الذي يهدد الهوية الثقافية والدينية [1:160].

تحليل إضافي:

- **التأثير النفسي والاجتماعي:** يواجه الشباب تحديات نفسية نتيجة صراع القيم، مما قد يؤدي إلى الارتباك وفقدان الاتجاه.
- **التحديات الإعلامية:** وسائل الإعلام الحديثة تنقل قيماً وثقافات أجنبية بسرعة، وقد تؤثر على الهوية إذا لم يكن هناك وعي ديني وثقافي.
- **الفجوة بين الأجيال:** كبار السن قد يتمسكون بالقيم التقليدية، بينما الشباب يميلون إلى الانفتاح على التغيير، مما يولد توتراً بين الأجيال.

استنتاج - ب:

إن المشكلات المرتبطة بالعولمة تتطلب دراسة مستفيضة لفهم العلاقة بين الدين والهوية الثقافية. وتبرز الحاجة إلى تطبيق الوسطية، وتعزيز القيم الإسلامية الأساسية، وفتح قنوات حوارية مع الشباب لتوضيح كيفية التوازن بين الالتزام الديني والانفتاح على الثقافات الحديثة.

الدين والعقيدة كوسيلة لحل المشكلات

تلعب العقيدة الإسلامية دوراً محورياً في مواجهة تحديات العولمة، حيث تقدم إطاراً متوازناً للحفاظ على الهوية الدينية والثقافية، وتعزيز الانسجام الاجتماعي. ومن خلال القيم الأساسية مثل التوحيد، الوسطية، التسامح، والرحمة، يمكن للمجتمعات الإسلامية مواجهة الضغوط الحديثة دون التفريط أو الإفراط. في عصر العولمة، تبرز أهمية علم العقيدة في توجيه الأفراد لفهم الدين بطريقة شاملة ومتوازنة. وقد أشارت زينب توقبا ألباكير في مقالها "تصور العالم في ضوء العولمة في القرآن" إلى أن التحديات العالمية تتطلب من المسلمين إدراك المبادئ الأساسية للإسلام والعمل على تعزيز الهوية الدينية الصحيحة في مجتمع متغير [13:259-286] وترى الباحثة أن فهم العقيدة يساعد على مواجهة التأثيرات الثقافية المختلفة، ويضمن استقرار المجتمع من خلال الالتزام بالقيم الإسلامية، كما يعزز القدرة على التفاعل مع التغيرات الحديثة دون المساس بجوهر الدين. وهذا يشير إلى أن علم العقيدة ليس مجرد دراسة نظرية، بل أداة عملية لبناء مجتمع متماسك ومتوازن في ظل التحولات العولمية.

1. تعزيز الوسطية

الوسطية هي أحد المبادئ الأساسية في الإسلام، وتتيح للفرد تحقيق التوازن بين الالتزام الديني والانفتاح على المتغيرات الحديثة. فالوسطية تمنع الانحراف نحو التطرف أو التهاون، وتساعد على تكوين مجتمع مستقر ومتوازن. على سبيل المثال، الالتزام بالعبادات بطريقة متوازنة يحافظ على الصحة النفسية والاجتماعية للفرد، ويجنب الآثار السلبية للإفراط في العبادة مثل الإرهاق أو العزلة الاجتماعية.

في واقع عصر العولمة، حيث تتسارع التبدلات الثقافية والاجتماعية ويُحتم على المجتمعات الإسلامية فهماً عميقاً لهويتها الدينية، تبرز أهمية دراسة علم العقيدة كضرورة فكرية وثقافية. فقد أكد عددٌ من الباحثين والعلماء في أوزبكستان، ومنهم الباحثون في مركز الإمام الماتريدي الدولي للدراسات الإسلامية في طشقند، أن تجديد دراسة العقيدة الماتريدية يُسهم في ترسيخ الوسطية الفكرية ومواجهة التيارات الفكرية المتطرفة التي تنتسّل عبر وسائل الإعلام والعولمة الثقافية.

ويُظهر هذا التوجّه أن العقيدة ليست علماً نظرياً محضاً، بل هي منظومة فكرية وروحية قادرة على تعزيز الاستقرار الاجتماعي والنفسي للمسلم، وتزويده بالقدرة على التفاعل الإيجابي مع التغيرات العالمية دون المساس بالثوابت الشرعية أو الانغلاق على الذات. ومن هنا، فإن ترسيخ الوعي بالعقيدة على نهج أئمة أهل

السنة، كالماتريديّة والأشعرية، يمثّل ضرورةً لحفظ الهوية الإسلاميّة في زمن العولمة والتغيّرات العالميّة المتسارعة.

2. استخدام العقيدة لتعزيز الهوية الثقافية

يمكن استخدام الدين لتعزيز الهوية الثقافية عبر التركيز على القيم المشتركة والأخلاق الحميدة. فالتراث الإسلامي غني بمبادئ توجيهية تساعد على الحفاظ على الهوية الثقافية، مثل احترام الأجيال، العدل، والرحمة [4:78]. كما أن التعليم الديني المنظم والتوجيه الروحي يمكن أن يساعد الشباب على فهم دينهم بشكل صحيح، ويتيح لهم التفاعل مع العالم الحديث دون التخلي عن المبادئ الأساسية للإسلام.

3. الحوار والتواصل

الحوار المفتوح حول الدين وأهميته في تشكيل الهوية الثقافية يعد أداة فعالة للتصدي للتحديات. فالتواصل بين الأجيال والمجتمعات المختلفة يخلق وعياً مشتركاً ويعزز الانسجام الاجتماعي. وتشير الدراسات إلى أن المجتمعات التي تشجع على الحوار البناء بين المؤسسات الدينية والمدنية تكون أكثر قدرة على مواجهة الضغوط الثقافية الحديثة وتحقيق توازن بين الأصالة والانفتاح.

4. مواجهة التطرف والتفريط

تعتبر العقيدة الإسلامية الوسيلة المثلى للحد من التطرف أو التفريط.

- **مكافحة التطرف:** التشديد على الوسطية والرحمة يقي المجتمع من الانحراف نحو الغلو الذي يهدد وحدة الأمة.

- **مواجهة التفريط:** التوجيه الديني السليم والوعي الثقافي يقي الأفراد من التهاون في الواجبات الدينية، ويعزز التمسك بالقيم الأساسية للإسلام.

5. تطبيق القيم الإسلامية في الحياة المعاصرة

يمكن استخدام القيم الإسلامية لإيجاد حلول عملية للتحديات اليومية، مثل:

- تعزيز التسامح مع الاختلافات الثقافية والدينية داخل المجتمعات المسلمة.
- التأكيد على الحرية الفردية ضمن إطار الضوابط الشرعية للحفاظ على الهوية.
- تعزيز المسؤولية الاجتماعية والتعاون بين أفراد المجتمع لتحقيق التنمية المستدامة.

استنتاج - ب:

إن الدين والعقيدة الإسلامية يوفران أدوات عملية للتعامل مع تحديات العولمة، من خلال الوسطية، التسامح، والرحمة. وتساعد هذه القيم على الحفاظ على الهوية الدينية والثقافية، وتوفير حلول متوازنة تمنع الانحراف نحو التطرف أو التفريط. كما أن تعزيز الحوار والوعي الديني يمكن الشباب من التفاعل الإيجابي مع التغيرات العالمية مع الحفاظ على جوهر الإسلام.

الخاتمة

يمكن القول إن العقيدة الإسلامية تلعب دوراً محورياً في الحفاظ على الهوية الدينية والثقافية للمسلمين في عصر العولمة. فهي توفر إطاراً متوازناً يتيح للفرد التكيف مع التغيرات العالمية دون التفريط في المبادئ الأساسية للإسلام أو الانحراف نحو التطرف. تُظهر الدراسة أن تطبيق القيم الأساسية مثل الوسطية، التسامح، والرحمة، وكذلك تعزيز الحوار بين الأجيال والمجتمعات، يمكن أن يسهم بشكل كبير في مواجهة التحديات الحديثة.

كما أن استخدام الدين كأداة لتعزيز الهوية الثقافية يوفر حلولاً عملية لمشكلات الصراع بين القيم الحديثة والقيم الدينية التقليدية، ويحافظ على وحدة المجتمع واستقرار أفراده. وبذلك، فإن فهم العلاقة بين العقيدة الإسلامية والعولمة ليس فقط موضوعاً أكاديمياً، بل له تطبيقات عملية في صياغة السياسات الثقافية والتعليمية والاجتماعية التي تدعم الهوية الإسلامية في العالم المعاصر.

المراجع:

1. نور الدين مرجوني، كمال الدين. *التحديات الدينية في عصر العولمة*. دار النشر: دار الفكر العربي، عمان، 2019، ص. 160.
2. رولاند روبرتسون. *العولمة: تأثيراتها على الدين والثقافة*. دار النشر: جامعة كامبريدج، المملكة المتحدة، 2000، ص. 78.
3. ابن عاشور، محمد الطاهر. *تفسير القرآن: وحدة الأمة والتوحيد*. دار التفسير الحديث، تونس، 2000، ص. 102.
4. مسلم، عبد الله بن الحسين. *صحيح مسلم*. دار الفكر الإسلامي، الرياض، 2003، ص. 2791.
5. أبو بكر البيهقي. *السنن الكبرى*. دار الكتب العلمية، بيروت، 2003، ص. 67.
6. ليونيد غرينين. *الإسلاموية والعولمة: تحديات الهوية*. دار العلوم الثقافية، القاهرة، 2021، ص. 45.
7. لوك دبلو جالن. *الليبرالية والدين: دراسة تحليلية*. جامعة هارفارد للنشر، الولايات المتحدة الأمريكية، 2016، ص. 112.
8. تيموثي لارسن. *مفهوم الحرية في الفكر الغربي*. دار الفكر الاجتماعي، لندن، 2018، ص. 56.
9. Olivier Roy. *La laïcité face à l'Islam*. Presses Universitaires de France، باريس، 2000، ص. 78.
10. عمان اليوم. *الهوية الدينية والثقافية تواجه تحديات العولمة والحوار والتفاعل الإيجابي*. صحيفة التوازن. صحيفة عمان اليومية، عمان، 2021، ص. 33.
11. Sanadkk.com. *العولمة وأثرها على الهوية الإسلامية*. موقع إلكتروني، 2020، ص. 87.
12. مركز الإمام الماتريدي، الإمام الماتريدي وتراثه الفكري، طشقند: مطبعة إحياء التراث الإسلامي، 2022.
13. Zeynep Tuğba Albakır, *Kur'an'da Küreselleşmeci Âlem Tasavvuru*, Journal of Analytic Divinity, Vol.4, No.1, 2020, s. 259-286, Turkiya.

GLOBALLASHUV VA DINIY QADRIYATLAR O'ZARO MUNOSABATI: SOF AQIDA YONDASHUVI

Begimov Muhammadjon Begimovich

Ko'kaldosh o'rta maxsus islom bilim yurti o'qituvchisi
+99891 408 90 80

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonining diniy qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ijtimoiy va ma'naviy ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Muallif globallashuvni insoniyat taraqqiyotining muqarrar bosqichi sifatida baholagan holda, uning natijasida paydo bo'layotgan e'tiqodiy va ma'naviy muammolarga sof

aqida nuqtayi nazaridan yondashuvni ilgari suradi. Maqolada globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, diniy ong va qadriyatlarning o‘zgarish dinamikasi, islomiy e’tiqod sofligini saqlash zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, diniy qadriyatlar, sof aqida, e’tiqod, ma’naviyat, islom, taqvo, diniy ong, zamonaviylik, ma’naviy barqarorlik.

XXI asr insoniyat tarixida globallashuv davri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu jarayon inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini — siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, axborot, ta’lim, fan va diniy hayotni ham o‘z ichiga olgan murakkab, ko‘p qirrali hodisadir. Globallashuv, bir tomondan, insoniyat taraqqiyoti, texnologik yutuqlar va axborot almashinuvi tezligining oshishi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, milliy va diniy qadriyatlarning o‘zaro aralashuvi, madaniyatlar bir-biriga singib ketishi kabi jarayonlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bugungi dunyo “axborot jamiyati” deb nom olgan bosqichda yashamoqda. Internet, sun’iy intellekt, ommaviy madaniyat, xalqaro iqtisodiy aloqalar - bularning barchasi inson tafakkurini, dunyoqarashini va hayot tarzini o‘zgartirmoqda. Shu o‘zgarishlar orasida eng muhim va nozik sohalardan biri bu diniy ong va diniy qadriyatlar tizimidir. Diniy qadriyatlar - bu insoniyatni axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan birlashtiruvchi, ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy ustunlardir. Ammo globallashuvning ma’naviy ta’siri bu qadriyatlarga yangi sinovlarni keltirib chiqarmoqda. Islom dini tarixan insoniyatga ma’naviyat, adolat, tinchlik, bag‘rikenglik va halollik tamoyillarini olib kirgan din sifatida o‘z qadriyatlar tizimiga ega. Shu bois musulmon jamiyatlarida globallashuvga nisbatan turlicha munosabat shakllanmoqda: kimdir uni taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida qabul qilsa, kimdir uni e’tiqodiy va ma’naviy xavf sifatida ko‘radi. Aslida, globallashuvning o‘zi neytral jarayon bo‘lib, uning ijobiy yoki salbiy ta’siri insonning unga qanday yondashishiga bog‘liqdir. Sof aqida nuqtayi nazaridan, globallashuvga qarash muhim ahamiyatga ega. Chunki sof aqida - bu musulmonning e’tiqodiy asoslarini, Allohga bo‘lgan ishonchini, Payg‘ambar (s.a.v.)ning sunnatiga sadoqatini, bid’at va xurofotlardan yiroqligini ifodalovchi e’tiqodiy tizimdir. Globallashuv davrida insonlar turli mafkuraviy oqimlar, dunyoviy falsafalar va g‘arbona dunyoqarashlar ta’sirida qolmoqda. Natijada diniy ongda nisbiylik, e’tiqodiy zaiflik, diniy bag‘rikenglikni noto‘g‘ri talqin qilish holatlari yuzaga kelmoqda. Shu bois, sof aqida yondashuvi globallashuv davrida insonning ma’naviy mustahkamligini saqlab qolishda asosiy mezon sifatida qaraladi. Mazkur mavzu dolzarbligi shundan iboratki, globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan bir davrda diniy qadriyatlar, ayniqsa, islomiy aqida sofligini saqlash masalasi nafaqat diniy ulamolar, balki keng jamoatchilik uchun ham muhim masalaga aylanmoqda. Diniy ongni mustahkamlash, sof aqida asoslarini keng targ‘ib qilish, yoshlarni ma’naviy immunitet bilan qurollantirish -

bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir. Shunday ekan, “Globallashuv va diniy qadriyatlar o‘zaro munosabati: sof aqida yondashuvi” mavzusining o‘rganilishi diniy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, islom aqidasiining zamonaviy jarayonlar bilan uyg‘unlashuvini tahlil qilish va e’tiqodiy soflikni asrash nuqtayi nazaridan alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Globallashuv” atamasi XX asr oxirida keng ilmiy muomalaga kirib keldi. U lotincha “globus” - “yer shari” so‘zidan olingan bo‘lib, dunyo miqyosida bir butunlik, o‘zaro bog‘liqlik va integratsiyani anglatadi. Globallashuv – bu insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, unda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalarida millatlararo chegaralar tobora yo‘qolib bormoqda[1 48]. Tarixiy jihatdan, globallashuvning ildizlari qadimgi sivilizatsiyalararo aloqalarga borib taqaladi. Ammo u zamonaviy ko‘rinishga sanoat inqiloblari, xalqaro savdo va axborot texnologiyalarining rivojlanishi orqali ega bo‘ldi. Ayniqsa, XX asr oxiri - XXI asr boshlarida internet va raqamli kommunikatsiyalar globallashuv jarayonini keskin tezlashtirdi.

Diniy qadriyatlar - bu ilohiy manbalarga asoslangan, inson hayotining ma’naviy, axloqiy va e’tiqodiy me’yorlarini belgilovchi tamoyillardir. Ular jamiyat hayotida barqarorlik, tinchlik, adolat, bag‘rikenglik, halollik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Islom dini nuqtayi nazaridan, insonning eng yuksak qadriyati - iymon va taqvodir.

Globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy almashinuv kuchaygani bilan birga, ma’naviy sohada ham turli ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Ba’zi hollarda diniy qadriyatlar “eskilik sarqiti” sifatida talqin qilinmoqda, bu esa insonni ruhiy bo‘shliq va e’tiqodiy zaiflikka olib keladi. Masalan, g‘arb dunyosida sekulyarizm (dinni jamiyatdan ajratish) tendensiyasi kuchaygani sababli, ko‘plab musulmon yoshlar diniy qadriyatlardan uzoqlashmoqda. Shu o‘rinda islomiy qadriyatlarni zamonaviy shaklda tushuntirish, ularni hayot bilan uyg‘unlashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Diniy qadriyatlar insonni nafaqat Allohga yaqinlashtiradi, balki uni axloqan mustahkam qiladi. Halollik, vafodorlik, mehr, sabr-toqat kabi fazilatlar e’tiqoddan oziqlanadi. Globallashuv ta’sirida yuzaga kelayotgan iste’molchilik madaniyatiga qarshi turish ham aynan diniy qadriyatlar bilan bog‘liqdir. Chunki sof diniy qadriyatlar insonni nafsdiy xohishlar emas, balki ilohiy mezonlar asosida yashashga da’vat etadi.

“Aqida” — arabcha so‘z bo‘lib, “bog‘lanmoq”, “ishonmoq” ma’nolarini anglatadi. Islomda aqida deganda, musulmonning Alloh, farishtalar, payg‘ambarlar, vahiy, qiyomat kuni va taqdir haqidagi e’tiqodi tushuniladi[2 14]. Sof aqida esa bu e’tiqodning bid’at, xurofot va g‘ayriislomiy qarashlardan xoli bo‘lgan, Qur’on va Sunnatga asoslangan toza shaklidir. Imom Moturidiy va Imom Ash’ariy kabi

allomalar islom aqidasi ilmiy asosda izohlab, e’tiqodiy soflikni saqlash zarurligini ta’kidlaganlar. Ularning ta’limoti bugungi kunda ham musulmonlarning ma’naviy immuniteti sifatida ahamiyatlidir. Globallashuv davrida inson turli axborot oqimlari, mafkuraviy bosim va madaniy sintez ichida yashaydi. Natijada, diniy tushunchalarda aralashmalar, yanglish talqinlar va radikal qarashlar paydo bo’lishi mumkin. Shu bois sof aqida:

E’tiqodiy barqarorlikni ta’minlaydi;

Bid’at va ekstremistik qarashlardan himoya qiladi;

Din nomidan suiiste’mol qiluvchi oqimlarga qarshi mafkuraviy asos yaratadi. Masalan, ayrim global mafkuralar “diniy erkinlik” niqobi ostida e’tiqodiy befarqlikni targ’ib qilmoqda. Sof aqida esa insonni islomning asosiy tamoyillariga — Tavhid (yagona Allohga ishonish), Risolat (Payg’ambar sunnati) va Oxirat (hisob kuni) g’oyalariga qaytaradi. Sof aqidaga ega inson dunyoviy o’zgarishlardan, g’oyaviy bosimlardan cho’chimasdan, e’tiqodini mustahkam saqlay oladi. Shuning uchun, globallashuv davrida:

Aqidaviy bilimlarni chuqurlashtirish;

Qur’on va Sunnat asosida ishonchni mustahkamlash;

Yosh avlodni ma’naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish zarur.

Bu yo’lda masjidlar, diniy ta’lim muassasalari va ulamolar zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Chunki ular sof aqidani targ’ib qilish orqali jamiyatda ma’naviy uyg’onish va e’tiqodiy birligini mustahkamlashlari kerak. Bugungi globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha sohalarini, jumladan, diniy va ma’naviy hayotni ham tubdan o’zgartirmoqda. Texnologik taraqqiyot, axborot oqimining tezlashuvi, madaniyatlarning o’zaro aralashuvi natijasida inson ongida yangi qadriyatlar tizimi shakllanmoqda. Shu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u diniy ong va e’tiqod sohasida jiddiy sinovlarni ham yuzaga keltirmoqda. Globallashuv insoniyatni axborot jihatdan birlashtirib, ma’lumot olish imkoniyatini kengaytirgani bilan, ayrim hollarda diniy qadriyatlarning nisbiylashuvi, milliy o’zlikning susayishi, sekulyar va individualistik dunyoqarashlarning kuchayishiga sabab bo’lmoqda[3, 63]. Ayniqsa, yoshlar orasida diniy befarqlik, iste’molchilik va ma’naviy relativizm kuchayib borayotganligi bu jarayonning salbiy oqibatlaridan dalolat beradi. Shu nuqtayi nazardan, islom dini va uning e’tiqodiy tizimi - sof aqida globallashuv davrida insonni ma’naviy himoya qiluvchi eng ishonchli tayanch sifatida maydonga chiqadi. Sof aqida insonning Alloh bilan bo’lgan aloqasini to’g’ri yo’lga qo’yadi, bid’at va xurofotlardan asraydi, din nomidan suiiste’mol qiluvchi oqimlarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qiladi. Bu yondashuv nafaqat e’tiqodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki insonni zamonaviy hayotning murakkab jarayonlarida to’g’ri yo’ldan adashmaslikka chorlaydi. Globallashuvni inkor etish

emas, balki uni sof aqida mezonlari orqali baholash va undan foydali jihatlarda foydalanish muhim. Chunki globallashuvda mavjud texnologik, ilmiy va madaniy imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanilsa, ular dinni keng targ‘ib etish, islom madaniyatini dunyoga tanitish, umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lida xizmat qilishi mumkin. Ammo bu jarayonda musulmonlar o‘z e‘tiqodiy mezonlaridan chekinmasliklari zarur.

Bundan tashqari, globallashuv davrida diniy qadriyatlarni asrab-avaylashda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratish lozim:

1. Diniy ta‘limni isloh qilish va zamonaviylashtirish. Yosh avlodga islom aqidasi ilmiy asosda, zamon ruhiga mos usulda o‘rgatish, ularning ongida mustahkam e‘tiqod va tanqidiy tafakkurni shakllantirish zarur.
2. Ommaviy axborot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda sof islomiy g‘oyalarni targ‘ib etish, noto‘g‘ri diniy ma‘lumotlarning oldini olish.
3. Ma‘naviy immunitetni kuchaytirish. E‘tiqodiy soflik, halollik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi islomiy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularni g‘arbona iste‘molchilik madaniyatidan himoya qilish.
4. Dinlararo muloqotni rivojlantirish. Sof aqida yondashuvi boshqa din vakillariga nisbatan adolatli, tinchlikparvar va hurmatli munosabatni targ‘ib etadi, bu esa global tinchlik uchun muhim omildir.

Natijada, sof aqida yondashuvi globallashuv jarayonida insonni e‘tiqodiy beqarorlikdan, ma‘naviy yo‘qotishlardan va g‘oyaviy tahdidlardan himoya qiluvchi, islom dinining asl mohiyatini asrab qoluvchi yondashuv sifatida o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydi[4, 42]. Globallashuv shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda, har bir musulmon, xoh u olim, xoh oddiy fuqaro bo‘lsin, sof aqidani o‘z e‘tiqodining asosi sifatida anglab, uni hayotining barcha jabhalarida qo‘llashi kerak. Chunki sof aqida nafaqat diniy tozalikni, balki insoniylik, adolat va ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlaydigan ilohiy yo‘ldir. Xulosa qilib aytganda, globallashuv va diniy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat murakkab, ammo zarur tahlilni talab qiluvchi masaladir. Globallashuvdan to‘g‘ri foydalanish, diniy qadriyatlarni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish va sof aqida mezonlarida e‘tiqodni mustahkamlash orqali biz nafaqat o‘z milliy-ma‘naviy o‘zligimizni, balki butun insoniyatning ruhiy barqarorligini saqlab qolishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamatqulov, Z. Globallashuv va diniy tafakkur transformatsiyasi. – “Tafakkur” jurnali, 2020.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Aqoid ilmi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018.

3. To‘xtayev, A. Globallashuv va milliy o‘zlikni anglash. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Rasulov, Sh. Globallashuv jarayonlari va diniy qadriyatlar. – Toshkent: O‘zbekiston islom akademiyasi nashriyoti, 2021.

GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Yunusov Ramazonjon,

Mir arab o‘rta amaxsus islom ta’lim muassasi

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada globallashuvning yurtimizda inson ma’naviy hayoti va e’tiqodiga ta’siri, uning jamiyatni birlashtiruvchi ijobiy jihatlari hamda ma’naviy qadriyatlarga salbiy ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, aqida, moturidiylik, Abu Mansur Moturidiy, Abu Hanifa, salafiylik, soxta salafiylik, Shavkat Mirziyoyev, ilmiy-tadqiqot markaz.

Globallashuv – bugungi kunda bu tushuncha hayotimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylangani hechkimga sir emas. Hozirda uning turli ko‘rinishlari bor. Avvalo, “Globallashuv”ning hayotimizda qanday ahamiyat kasb etishini o‘rganishimizdan oldin bu terminning qay usulda bizning jamiyatimizga kirib kelganini va bu jarayonda musulmon qatlami qanday o‘rin egallashini o‘rganishimiz kerak.

Globallashuvga berilgan ta’riflar ko‘p. Unga qisqa ta’rif bermoqchi bo‘lsak, uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishi deyish mumkin. Globallashuv dastlab o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan qo‘llanila boshlandi. Bu jarayon insoniyatning o‘zaro aloqa, axborot va hamkorlik orqali yaqinlashuv jarayoni hisoblanadi. Uning salbiy tomoni bu “ommaviy madaniyat” namunalarining keng tarqalishi, mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi bilan ham ifodalanuvchi tushunchadir. Hozirgi paytga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la chegaralanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb ishonch bilan aytish mumkin. Globallashuv bu shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumni buzish uchun harakatlar hisoblanadi. Vaholanki islom dini bizni hamjihatlikka, totuvlikka va ayniqsa tinchlikka buyurgan. Alloh taolo o‘izining kalomida shunday marhamat qiladi: **“Va barchangiz Allohning arqoniga (Qur’oniga) bog‘langiz va bo‘linmangiz.”**⁹

⁹ Oli imron surasi 103-oyat.

Hozirgi davrga kelib globallashuv jarayoni yurtimizga turli sohalar singari diniy sohaga ham o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Xususan, aqida borasida insonlarga noto‘g‘ri tushunchalarni singdirishga urinishlar bo‘lmoqda. Taassuflar bo‘lsinki, hozirda ayrim nodon va ilmsiz yoshlar bu boradagi eng nozik masalalarni ko‘tarib, musulmonlar birligiga rahna solishga sababchi bo‘lmoqda. Bunday yoshlar dinda g‘uluvga ketib g‘ayridin uchun tushirilgan oyat va hadislarini noto‘g‘ri talqin qilish bilan musulmonlarni dindan chalg‘itish uchun qurol sifatida qo‘llashga harakat qilmoqda. Bu albatta bevosita aqida bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shunday pallada bu kabi globallashuvning salbiy ta‘sirining qurboniga aylangan yoshlarni ogohlantirish va ularni bunday yo‘ldan qaytarish har bir ziyoli, ma‘rifatparvar insonning vazifasi sanaladi. Avvalo bu o‘rinda ahli sunna val jamoa e‘tiqodi, xususan, hanafiya mazhabi e‘tiqodiy masalalarnibizgacha qusrsiz etishiga hissa qo‘shgan buyuk olimlarimiz ilmiy me‘rosini chuqur o‘rganish va ularni adashgan yoshlarga to‘g‘ri talqin qilish bilan o‘rgatmoqligimiz darkor.

Imom Abu Mansur Moturidiy ¹⁰- imom, faqih va kalom ilmining etuk olimlaridan biri. Sunniy e‘tiqodidagi ikki yirik oqimlaridan biri bo‘lmish Moturidiya oqimining asoschilaridan hisoblanadilar. Imomning nasablarini Kamoliddin Qozi Bayzoviy mashhur sahobiy Abu Ayyub al-Ansoriy roziyallohu anhuga borib taqilishiga haqida naql qilganlar¹¹. Imom Moturidiy “Hidoyat imomi”, “Hidoyat bayrog‘i” va “Musulmonlar aqidasi to‘g‘irlovchi” kabi bir qancha nomlar bilan mashhur bo‘lganlar. U kishi va shogirdlari aqidaviy maktab tashkil qilishdi va u Moturidiya aqidaviy yo‘nalishi deb atalib ketdi. Ba‘zilar davo qilgani kabi u zot yangi din yoki yangi firqa olib kelmadi. Balki Ahli sunna sof aqidasi jamlab, sharhladilar. Bu ishda Abu Hanifa rahmatullohi alayhi qoldirgan ilmiy me‘rosidan foydalandi. Shu sababli bu aqidaviy maktabning ko‘pchiligini hanafiy mazhabidagi musulmonlar tashkil etadi. Hozirgi kunda musulmon ummatining yarmidan ko‘pi Moturidiya aqida mazhabiga ergashib kelmoqda. Yurtimizda hozirgi kunda olimlar tomonidan ajdodlarimizning hayoti va ilmiy merosi chuqur o‘rganilmoqda. Xususan, bu buyuk bobokalonimiz bo‘lmish Imom Moturidiy so‘nmas merosini o‘rganishda chuqur izlanishlar olib borilyapti. Bunga misol o‘laroq, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2020-yil 3-4-mart kunlari Samarqand shahrida “Imom Moturidiy va moturidiya ta‘limoti: o‘tmish va bugun” mavzuidagi xalqaro konferensiya yuqori saviyada tashkil etildi. Unda 15 mamlakatdan 55 nafar taniqli ulamo, muftiy, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchi qatnashdi. Jumladan, Misr Bosh imomi, Al-Azhar majmuasi shayxi

¹⁰Hijriy 240-333 Samarqand.

³“Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi” O‘Mi nashri

Ahmad Tayyib boshchiligidagi 19 nafar misrlik nufuzli diniy arbobning ishtiroki konferensiyaning xalqaro maqomini yanada oshirdi. Bunda tashqari, 2020-yil 11-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Ushbu markazda alloma merosi chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yonida moturidiylik ta’limotini o‘rganish maqsadida kalom ilmi maktabi, Qarshida aqida maktabi faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda millatning sof e’tiqodiga xavf solayotgan tahdidlardan yana biri “ommaviy madaniyat”dir. Avvalo bu tushunchaning mohiyatnini anglamog‘imiz darkor. Bu tushuncha XX asr o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, unga qisqaroq ra’rif beradigan bo‘lsak, bizga chetdan kirib kelayotgan, milliy va diniy qarashlarimizga yot ma’naviy va axloqiy illatlarni o‘z ichiga olgan xurujlar yig‘indisidir. Bu bevosita globallashuv jarayonining ildizlaridan biri hisoblanadi. Mana shunday yomon illatlar sababli ham ixtilof chiqaradigan toifalarning keyingi vaqtlarda ommaviy axborot vositalari orqali musulmon ummatini parokandalikka duchor etishga qaratilgan g‘oyalari tez suratda jamiyatga singdirilmoqda. Bunga misol o‘laroq keltiradigan bo‘lsak, hozirgi kunda keng tarqalgan ibora “Soxta Salafiylik” dir. Bu friqaning aqidasi ko‘ra, Alloh yaratilganlarga xos olti jihatga ega. Uning jismoniy a’zolari bor. Allohga tashqaridan biror ta’sir bo‘lishi mumkin. Ular Allohga harakat, ya’ni joydan boshqa joyga ko‘chishni mansub qiladi. Imom Moturidiy va u kishining yo‘llarini tutgan olimlar qarashlariga ko‘ra esa, “U kabi hech narsa yo‘q”¹² oyati asosida Allohga a’zolar mansub qilinmaydi. Ahli sunna e’tiqodiga ko‘ra, Alloh zamon va makonni yaratishdan oldin qanday bo‘lsa, ularni yaratgandan keyin ham shunday bo‘lib qolgan. Uning boshlanishi va nihoyasi yo‘q. Unga makon va zamon ta’sir o‘tkazmaydi, aksincha, ularning o‘zi Allohga muhtoj. Shu bois, Allohga makon, taraf, harakat, zamon, jism sifatini berish mumkin emas. Bu qarash nafaqat moturidiylikning qarashi, balki salaf olimlari va ulardan keyingi xalaf olimlarining ham fikridir. Ana shunday aqliy va naqliy dalillar orqali ahli sunnaning sof e’tiqodi hisoblangan, Moturidiya yo‘nalishini saqlab uni nafaqat yurtimiz balki jamiki shunday salbiy xurujlar etib borayotgan hudularga ham targ‘ib etish va musulmon olamining ustunlari hisoblangan zotlarning ilmiy meroslarini o‘rganish va o‘rgatish bilan qalqon sifatida himoyalaniish mumkin. Bunday keng ko‘lamli tashabbuslar hozirgi davrda eng ustuvor va dolzarb ilmiy-amaliy masalalar sirasiga kiradi. Zero So‘fi Allohyorning shunday so‘zlari bor:

Aqida bilmagan shaytonga eldur,

¹² Shuro surasi 11-oyat

Agar ming yil amal deb qilsa eldur.¹³

Xulosa o‘rnida aytamizki hozirgi kunda globallashuvni salbiy jihatlari hisoblangan ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” va “ommaviy axborot” kabi dolzarb turlari dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda. Bular esa ming yillardan beri ota-bobolarimiz amal qilib kelayotgan sof e’tiqodimizga va islomiy ilmlarining eng sharaflisi hisoblangan tasavvuf ilmiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmayapti. Shu bilan birga dunyo bo‘ylab, xususan, bizning yurtimizdan ham bunday xurujlar ildiz otishi bilan birga bunga qarshi keng ko‘lamli ma’naviyat devorlari bo‘lmish islohotlar ham amalga oshirilib kelinmoqda. So‘zining yakunida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltiraman:

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”.¹⁴

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- [1] U. I. daminov "Aqidaparast oqimlar va tahdid" Toshkent: "Mumtoz so‘z", 2019.
- [2] O‘. M. idorasi “Soxta salafiylarning buzg‘unchi g‘oyalari” *hidoya*, pp. 10-11, 2021.
- [3] I. Karimov "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" Toshkent : Ma'naviyat, 2008.
- [4] T. v. t. m. S. A. Mansur "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" Toshkent, 2009.
- [5] Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'at, Toshkent: G'afur G'ulom, 2010.
- [6] O‘. M. idorasi, Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar echimi, Toshkent: Matbaachi, 2023.
- [7] Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf "Aqoid ilmi" Toshkent: Hilol-Nashr, 2022.
- [8] T. A. "Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar" Toshkent: Turon, 2015.

¹³ “Sabotul ojizin” kitobi.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 2018-yil 28-dekabr.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SOF AQIDA VA TASAVVUF MASALALARI

*Nuriddinova Ruxshona Zehniddin qizi,
BuxDU Filologiya fakulteti talabasi,
Ilmiy rahbar:, BuxDU Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrası o‘qituvchisi
Vohidova Dilshoda Vohid qizi
(91-444-10-86)*

Annotatsiya. Jamiyat taraqqiyotida zamonaviy globallashuv – sun’iy ong inson tafakkurining barcha qatlamlariga kirib borib, uning ma’naviy olamiga tubdan ta’sir ko’rsatmoqda. Axborot oqimining cheksizligi va texnologik taraqqiyotning shiddati insonni ruhiy osoyishtalikdan, ichki uyg‘unlikdan tobora uzoqlashtirmoqda. Suniy ongni tabiiy ongga ta’sir etish jarayonida tasavvuf va sof aqida ta’limotlari inson qalbining izdan chiqqan muvozanatini tiklovchi, uni o‘z ma’naviy ildizlariga qaytaruvchi nurli manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Axborotlashgan jamiyatda sof aqida va tasavvuf masalalariga qaytish — bu o‘tmishga yuzlanish emas, balki ma’naviy kelajakni saqlab qolishdir. Chunki insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida eng yuksak kamolot — ruhiy uyg‘unlik va tafakkur tozaligida namoyon bo‘ladi. Tasavvuf va aqida inson mavjudligining eng chuqur ma’nosini ochuvchi, ma’naviy uyg‘onish sari yetaklovchi eng yuksak tafakkur darajasi ekanligi kabi mulohazalar ushbu maqolada falsafiy tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, inson tafakkuri, ma’naviy dunyo, ruhiy muvozanat, tasavvuf, sof aqida, tafakkur yuksalishi, borliq mohiyati, ilohiy uyg‘unlik.

XXI asr insoniyatni bir-biriga yaqinlashtirgan eng shiddatli jarayon — globallashuv davridir. Axborot oqimlari, madaniy ta’sirlar va g‘oyaviy tizimlarning chegarasiz aralashuvi natijasida qadimiy ma’naviy asoslar yangicha talqin va sinovlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, islom tafakkurining ajralmas bo‘lagi bo‘lgan tasavvufiy qarashlar bugungi g‘oyaviy raqobat makonida nafaqat diniy e’tiqodning, balki milliy va ma’naviy barqarorlikning tayanch omili sifatida qayta o‘rganilmoqda. Globallashuv insonning o‘zini anglashi va e’tiqodiy mezonlarini baholashida yangi savollarni tug‘dirar ekan, sof aqida masalalari faqat kalom ilmi doirasida emas, balki sotsial-falsafiy va ma’naviy xavfsizlik muammolari bilan ham uzviy bog‘lanmoqda. Tasavvuf esa bugungi axborot bosimi, ma’naviy bo‘shliq va ruhiy bezovtalik sharoitida insonning o‘z “men”ini topish, komillik sari intilish hamda jamiyatni ruhiy muvozanatda ushlab turish imkoniyatlarini namoyon qilmoqda. Demak, globallashuv nafaqat iqtisodiy yoki texnologik jarayon, balki aqidaviy poklik, ma’naviy me’rosni asrash va ruhiy qarashlarni yangicha talqin qilish zaruratini kun tartibiga olib chiqayotgan murakkab hodisadir. Shu bois sof aqida va tasavvuf masalalarini bugungi davr munosabatida tahlil qilish — nafaqat

diniy ehtiyoj, balki intellektual mas’uliyat va ilmiy zaruratdir. Shunday bo’lsa-da, bir holatni e’tiborga olishimiz darkor, bu ham bo’lsa – tasavvuf va aqidaning o’zi kishilar orasida turli tortushuvlarga sabab bo’lgan, bu so’zlarning ma’nolari ham ahli tasavvufning va boshqalarning orasida anchagina munozaralarga sabab bo’lgan. Chunki, ming afsuslar bo’lsinkim, hijriy ettinchi asrdan keyin barcha islomiy bilimlar boshiga tushgan tanazzul tasavvuf va aqidani ham chetlab o’tmadi. Zamon o’tishi bilan tasavvufning surati buzilib, Islom ta’limotlaridan, shariat ahkomlaridan uzoqlasha bordi. [2.9] Sababi, tasavvufning asl ko’rinishidan chekinishi biror-bir tasodifiy jarayon emas, balki turli tarixiy, ilmiy va ijtimoiy omillarning yig’indi natijasidir. Avvalo, tasavvufning Qur’on, hadis va kalom ilmidan ajralib, mustaqil yo’nalishga aylanishi uning nazariy poydevorini zaiflashtirdi. Shu bilan birga, ilmiy va taqvodor shayxlar o’rnini saviyasi past, karomatparast “murshidlar” egallay boshladi. Siyosiy kuchlar esa tasavvufni ruhiy poklanish vositasi emas, ijtimoiy nazorat quroli sifatida ishlata boshladi. Natijada tasavvufning ichki ma’nosi o’rnini xurofot, mahalliy irimlar va asossiz rivoyatlar egalladi. Tarkidunyochilik, mubolag’ali zo’hidlik va karomatga ruju qo’yish esa shariatdan asta-sekin uzoqlashishga olib keldi.

Lekin bu holat XX asr oxiri – XXI asrga kelib yaxshi tomonga o’zgara boshladi, ya’ni bu davrga kelib musulmon dunyosida e’tiqodiy va ma’naviy uyg’onish jarayoni keng ko’lamda yuz bera boshladi. Uzoq yillar davom etgan mustamlakachilik, mafkuraviy bosim va diniy ta’limning cheklanishi natijasida so’nib borayotgan diniy tafakkur, ayniqsa aqida va tasavvufga oid qarashlar qayta tiklana boshladi. Bu davr insoniyat tarixida nafaqat siyosiy mustaqillik, balki diniy o’zlikni anglash va ma’naviy yangilanish davri sifatida muhim o’rin tutadi. Mustaqillikka erishgan ko’plab musulmon mamlakatlarida, xususan, Markaziy Osiyo hududida diniy erkinlik muhitining yaratilishi aqida va tasavvufga oid ilmiy izlanishlarning jonlanishiga sabab bo’ldi. Qur’on, hadis, kalom va fiqh ilmlariga qayta murojaat qilinishi natijasida sof aqida masalalari yangicha tahlil etilib, e’tiqoddagi bid’at va xurofotlardan xalos bo’lishga intilish kuchaydi. Shu bilan birga, tasavvufning shariatdan ajralmagan, asl manbalar asosidagi talqini tiklana boshladi. XX asrning o’rtalaridan boshlab musulmon mamlakatlarida diniy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar faoliyati yo’lga qo’yildi. Natijada, tasavvuf endi faqat karomat va sirli tajribalar sifatida emas, balki axloq, ruhiy poklanish va ma’naviy komillik tizimi sifatida o’rganila boshlandi. Bu davrda Ahmad Sirhindiy, Shah Valiyyulloh Dahlaviy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi mutasavviflarning g’oyalari qayta o’rganilib, ularning soflikka, shariatga sodiqlikka da’vat etuvchi jihatlari yangidan qadrlana boshlandi. Globallashuv jarayoni insoniyat tafakkurida yangi savollarni tug’dirgan bo’lsa-da, ayni paytda tasavvufga

nisbatan xalqaro miqyosda qiziqishning ortishiga ham sabab bo'ldi. G'arb va Sharqda ma'naviy bo'shliq, ruhiy notinchlik kuchaygani sari tasavvuf insonni tinchlikka, ichki uyg'unlik va mehr-oqibatga chorlovchi manba sifatida qayta kashf etildi. Shu tariqa, tasavvuf faqat diniy yo'nalish emas, balki umuminsoniy qadriyatlar, ruhiy sog'lomlik va ma'naviy muvozanat manbai sifatida tan olina boshladi. Bugungi kunda aqida va tasavvufning uyg'un holda o'rganilishi islom tafakkurining eng muhim yutug'iga aylandi. Aqida insonning e'tiqodiy poydevorini mustahkamlasa, tasavvuf shu poydevor ustiga ruhiy komillik, axloqiy etuklik va qalb pokligini quradi. Shuning uchun ham zamonaviy islomshunoslikda bu ikki yo'nalish “e'tiqod va ma'naviyat tizimi” sifatida bir butun qaralmoqda. Umumam olganda, 20-asr oxiri va 21-asrda aqida hamda tasavvufga bo'lgan qarashlar diniy erkinlik, ilmiy tadqiqotlar, global ma'naviy uyg'unish va sof manbalarga qaytish jarayoni tufayli sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda ular insonni faqat e'tiqodli emas, balki ruhiy barkamol, ma'naviy etuk va tafakkurli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Endilikda, diniy poydevorimizning shunday pog'onaga etishi uchun sezilarli hissa qo'shgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Tasavvuf haqida tasavvur” kitoblariga nazar solib mavzuga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, bu jarayon aslida inson takakkurining kamolot yo'lini aks ettiradi. Masalan, kitobda shunday jumlar keltirilgan, “Tasavvufning ta'rifidagi ixtilofga kelsak, u kishilarning suluk darajalaridagi martabalariga oiddir. Ularning har biri o'z ehzosini o'z maqomida tarjima qilgandir. Bu bilan o'zidan boshqaning maqomiga qarshi chiqqan hisoblanmaydi, chunki haqiqat bittadir. U katta bog'ga o'xshaydi. Har bir solik bir daraxtning ostida turib, o'sha daraxtni vasf qilgandir. Bu zinhor, bog'da bundan boshqa daraxt yo'q, degani emas. Ta'riflar qanchalik ixtilofli bo'lmasin, ularning barchasi poklanish va taqvo martabasiga etib boradi.” [2.34] Bu fikrning ichki g'oyasi va so'zlarning falsafiy uyg'unligiga qaraydigan bo'lsak, inson tafakkuri o'z tabiati bilan cheksiz izlanish sari intiladi. U har bir narsa, har bir hodisada haqiqatni izlaydi, uni turlicha anglaydi va har safar yangi haqiqat jilvasiga duch keladi. Bu g'oyalar esa inson tafakkurining o'sish va kamolot yo'lini ifodalaydi. Chunki insonning fikr doirasi tor bo'lganida u haqiqatni faqat o'z nuqtayi nazaridan ko'radi. Ammo tafakkur kengayib, idrok yuksalgan sari u boshqacha qarashlarda ham Haqning jilvasini ko'ra boshlaydi. Bu — fikriy kamolotning eng yuksak bosqichi, ya'ni inson o'z “men”i doirasidan chiqib, borliqni umumiy birlik sifatida anglay boshlaydigan darajadir. Tasavvuf ahli bu holatni shunday izohlaydi: har bir solik o'z maqomida Haqni his qiladi, lekin bu his-tuyg'ularning barchasi yagona Haqiqatdan kelib chiqadi. Xuddi shunday, inson tafakkurining turli bosqichlari ham — bolalikdagi sodda idrokdan tortib, falsafiy tafakkurga qadar —

bitta maqsad sari yoʻnalgan ruhiy sayohatdir. Demak, bugungi kungacha saralanib kelgan sof tasavvuf va aqidalar shunchaki diniy yoki maʼnaviy gʻoya emas, balki inson tafakkurining oʻz-oʻzini anglash jarayoniga ham taalluqlidir. Har kim haqiqatni oʻz tajribasi, oʻz ruhiy holati orqali koʻradi, ammo har bir anglash, har bir izlanish — kamolot sari qoʻyilgan bir qadamdir. Zero, tafakkur kamol topgan sari inson boshqalarni rad etmaydi, aksincha, ularning fikrida ham Haqning bir zarrasi borligini sezadi. Bu hol — fikriy etuklik, maʼnaviy ulgʻayish, va haqiqatni koʻp qirrali idrok etish darajasidir. Shunday qilib, inson tafakkurining kamolot yoʻli — Haqiqatga eltuvchi koʻp yoʻllarning birlashish nuqtasidir.

Xulosa qilib aytganda, zamonamiz globallashuv toʻlqinlari ichida inson tafakkuri mislsiz surʼatda oʻzgartirib bormoqda. Axborotning cheksiz oqimi, texnologik taraqqiyotning hukmronligi va moddiy qadriyatlar markazida aylanayotgan ong insonni asta-sekin maʼnaviy ildizlardan uzoqlashtirmoqda. Shunday bir ruhiy beqarorlik manzarasida aqida va tasavvufning sof manbalari inson qalbiga muvozanat, tafakkurga tiniqlik, eʼtiqodga esa sobitlik baxsh etuvchi eng yuksak maʼnaviy tayanch sifatida namoyon boʻladi. Tasavvuf va aqida — bu ikki yoʻnalish aslida bir-birini toʻldiruvchi maʼnaviy poydevordir. Aqida — inson eʼtiqodining aniqligi, Haqni bilishdagi qatʼiylilikni ifodalasa, tasavvuf — shu eʼtiqodning ruhiy tatbiqi, uni qalbdagi his etish, yashash sanʼatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: “Oʻzbekiston” 2022
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent “Hilol-nashr” 2022

“TA’VILOT AL-QUR’ON” ASARIDA BAG’RIKENGLIKKA OID QARASHLAR

Avazxoʻjayeva Nafisaxon

Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Dinshunoslik” yoʻnalishi 4-kurs talabasi

avazxojaevanafisaxon@gmail.com

+998978000786

Ilmiy rahbar: “Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy oʻrganish UNESCO” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Moʻmin Mirzo Abdupattayev

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom Abu Mansur Moturidiyning “Taʼvilot al-Qurʼon” asarida bayon etilgan bagʻrikenglik gʻoyalari tahlil qilinadi. Unda turli eʼtiqod vakillariga nisbatan hurmat, adolat va tinch-totuvlik tamoyillari Qurʼoni

karim oyatlari asosida izohlanganligi yoritiladi. Shuningdek, muallif Moturidiy tafsirida “Dinga majburlash yo‘q” (Baqara, 256) oyati hamda Mumtahana surasining 8-oyati sharhlari orqali e’tiqod erkinligi, insonni majburlashsiz iymon keltirishi lozimligi va musulmon bo‘lmaganlarga nisbatan adolatli munosabatni asoslaydi. Tadqiqotda “Ta’vilot al-Qur’on” asarining hozirgi davrda diniy bag‘rikenglik va dinlararo totuvlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan ko‘rsatib beriladi. **Kalit so‘zlar:** Imom Moturidiy, “Ta’vilot al-Qur’on”, bag‘rikenglik, e’tiqod erkinligi, adolat, dinlararo totuvlik, islom tafsiri, tolerantlik, Qur’on tafsiri, Moturidiylik ta’limoti.

Hozirgi davrga kelib, dinlararo totuvlik va millatlararo hamjihatlik masalalari har doimgidan-da dolzarblik masalasi yuqori o‘rinda turibti. Islom dinining ikki asosiy aqidaviy ta’limotlaridan biri hisoblangan Moturidiylik ta’limotida ham bag‘rikenglik masalasida o‘zga e’tiqod vakillariga nisbatan chiroyli munosabatda bo‘lishlikka chaqirivchi bir qancha ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Moturidiylik ta’limoti ilm egallash jarayonida bag‘rikenglik g‘oyasi asosida inson aql-zakovatining o‘rni va ahamiyatiga yuksak e’tibor qaratadi. Bu o‘z navbatida ushbu ta’limotning keng ommalashuvida muhim o‘rin tutgan. Bunday g‘oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda”¹⁵ deya ta’riflar bilan bir qatorda ushbu ulug‘vor g‘oya Imom Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” tafsirida ham o‘z aksini topgan.

Bag‘rikenglik bu turli din va e’tiqod vakillarining o‘z diniy qarashlari, urf-odatlar hamda e’tiqodidagi farqlarga qaramasdan, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlik, tinch-totuv yashashlik va o‘zaro hamjihatlikda hayot kechirish tamoyilidir. Bu tamoyilga beqiyos hissa qo‘shgan bobomiz Imom Abu Mansur Moturidiy ta’limoti hali-hanuzgacha musulmon jamiyatlarda turli din va e’tiqod vakillari o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Imom Abu Mansur Moturidiy “Imom al-Hudo”, “Imom al-mutakallimin” kabi sharaflil nomlar bilan tilga olinadi. Olimning to‘liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy as-Samarqandiy bo‘lib, 870-yilda Samarqandning Moturid qishlog‘ida tavallud topgan. Alloma ilk ilm tahsilini Samarqanddagi “Iyoziy” madrasasida oldi. Alloma Subkiy Imom Moturidiy haqida shunday deydi: “U din asoslariga aqliy dalillar bilan mustahkam asos yaratdi va ahli sunnani og‘ish hamda tafriqadan himoya qildi.” Alloma 944-yilda vafot etdi va vasiyatiga ko‘ra, Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Abu Mansur

¹⁵ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 18-oktabrdagi Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidan // <https://president.uz/oz/lists/view/34>

Moturidiyning shoh asari – “Ta’vilot al-Qur’on” (“Ta’vilot ahlis-sunna”) Qur’oni karim tafsirining etuk namunasi bo’lib, allomaning yuksak tafakkur va ulkan iste’dod namoyondasi ekanini ko’rsatadi. Ushbu tafsir va undagi ilg’or g’oyalar nafaqat o’z davri uchun muhim bo’lgan, balki bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan.

“Ta’vilot al-Qur’on”da diniy bag’rikenglik tushunchasiga o’ziga xos yondashuvlar mavjud. Unda turli e’tiqod vakillari o’rtasidagi tolerantlikni ta’minlash hamda iymon, amal, kufr, shirk, bog’iylik va gunohkorning taqdiri kabi mavzulardagi noto’g’ri tushunish oqibatida kelib chiqadigan muammoli holatlarning oldini olishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Ushbu masalalarning adashgan oqimlar tushunchalariga raddiya sifatida berilgani esa, musulmonlar orasida noto’g’ri aqidalarni tarqalishiga katta to’siq bo’lishiga xizmat qilib kelmoqda. Bu borada “Ta’vilot al-Qur’on” asarida bugungi kun uchun katta ahamiyatga ega g’oyalarni uchratish mumkin, xususan kitobining 2-juzida keltirilgan **“Dinga majburlash yo’q”** (Baqara, 256) mazkur oyatning tafsirida Imom Moturidiy: “Dinga majbur qilish yo’q, ya’ni majburlash bilan qabul qilinadigan din din emas, hatto u iymon ham hisoblanmaydi”, – deb keltiradi.

Imom Moturidiy bu erda dinni faqat erkin va ixtiyor, shu bilan birgalikda ishonch va anglash bilan qabul qilish mumkinligini ham ta’kidlaydi. Olimning yondashuviga ko’ra, iymon qalb ishi bo’lib, kim dinni qabul qilgan bo’lsa majburlash orqali emas balki ochiq-ravshanlikdan qabul qilgandir. Moturidiy keltirgan yana bir fikrga ko’ra, mazkur oyatning nozil bo’lish sababi ansorlardan bo’lgan bir qavm haqidagi hodisaga asoslangandir. Ansorlar qabilasidan ba’zi oilalar bolalarini yahudiy ayollariga emizish uchun berishar edi. Islom dini Madinagacha yoyilib, ansorlar musulmon bo’lishdi va keyinchalik yahudiylar qo’lida qolgan va yahudiylik diniga e’tiqod qila boshlagan farzandlarini islomga majburan kiritmoqchi bo’lishdi. Shunda: “Dinga majburlash yo’q”, oyati nozil bo’lishi ushbu voqea bilan bog’liq ekani aytiladi¹⁶.

Yuqoridagi oyat tafsirida ko’rish mumkinki, Moturidiy hech qaysi insonni dinga majburan kiritish mumkin emasligini aytadi va Baqara surasidagi bu oyatning nozil bo’lishiga ham o’zga din vakillarini islomga majburlash holati sabab bo’lgani haqidagi rivoyatni keltiradi. Din avvalo qalb amri bilan qabul qilinishi lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, islomni qabul qilgan kishilar ham ibodatlarga majburlanmasligi, islom talablari va ko’rsatmalarini iymon taqozosiga ko’ra, ixtiyoriy bajarishlari kerakligini aytadi. Imom Moturidiy batafsil to’xtalgan ushbu ma’lumotlar islom asoslariga ko’ra har bir insonga e’tiqod erkinligi ta’minlanishini

¹⁶Abu Mansur Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2005. – J. 2. – B. 18-19.

namoyon etadi va bu bugungi kunda xalqaro huquqning umuminsoniy tamoyillariga ham to‘la mos tushadi.

Qur’oni karimning Mumtahana surasida “Dinlaringiz to‘g‘risida sizlar bilan urush qilmagan va sizlarni o‘z diyorlaringizdan (xaydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishlaringizdan va ularga adolatli bo‘lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko‘radir” oyatini Imom Moturidiy Qu’ronning boshqa oyati bilan sharh qiladi. Alloma ushbu oyatni Moida surasining 8-oyati bilan quyidagicha sharhlaydi: “Biror qavmni yoqtirmaslik sizlarni adolatsizlik qilishga undamasin! Adolatli bo‘lingiz!”. Bunga ko‘ra olim dushmanlik sabab adolatsizlik qilish halol emasligini, va Alloh ta’kidlab qaytarganligi aytilmoqda. Shunday ekan, mazkur oyatdagi “qaytarish” fe’li “ularga nisbatan yaxshilik qilish”ga tegishli hisoblanadi.

Mumtahana surasining 8-oyatini tafsirida Luqmon surasining 15-oyatidagi kabi “Ularga dunyoda yaxshi muomalada bo‘lg’in” deb ta’kidlanishi, musulmon bo‘lmasa-da, yaxshilik qilishga amr etilishiga e’tibor qaratilgan. Shu kabi boshqa ma’noda uchrovchi “yaxshilik qilishingizdan... qaytarmas” oyatida ham “Sizlarni bundan qaytarmaydi, balki buyuradi” ma’nosini anglatishligini ko‘rishimiz mumkin. Yoki oyatning “sizlarga ruxsat etiladi” degan ma’noda bo‘lishi ham mumkin. Alloma Mumtahana surasining keyingi oyatining tafsirida ham, bir shaxsda kimgadir yaxshilik qilish va u bilan do‘stlashmaslik jamlanishi mumkin ekan, do‘stlashishdan qaytarilgan kishiga ham yaxshilik qilishga amr etilishi ham mumkin”¹⁷ deya insonlarga yaxshilik qilishlikni ta’riflaydi. Bundan kelib chiqadiki islom dinining muqaddas manbasi bo‘lmish Qur’onda, xossatan moturidiylik ta’limotida har bir musulmon, jamiyatdagi turfa xil millat va e’tiqod tarafdorlariga yaxshilik qilishi va chiroyli munosabatda bo‘lishiga ko‘plab dalillar mavjud.

Xulosa o‘rnida, “Ta’vilot al-Qur’on” tafsirida qayd etilgan 18 ta islomga oid adashgan toifalarga raddiya berish davomida Abu Mansur Moturidiy islom dinining asl maqsadi bo‘lgan tinchlikni asos qilgan holda oyatlarni sharhlagan va an’anaviy islom ta’limoti tarafdorlarining aqiydaviy qarashlari borasida ma’lumotlarning ahamiyatli jihatlarini bayon etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. *Ta’vilot al-Qur’on (Ta’vilot ahl as-sunna)*. – Istanbul: Dar al-Kutub al-Islomiyya, 2005.
2. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. *Ta’vilot al-Qur’on*. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2005. – J. 2.

¹⁷Abu Mansur Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on. – T.: “Hilol-nashr”, 2024. – J. 27-28. – B. 507-508.

3. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. *Ta'vilot al-Qur'on* (2-juz). Tarjimonlar: Alouddin Hofiy va boshqalar. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2021.
4. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. *Ta'vilot al-Qur'on*. – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2024. – (27–28-juz).
5. Mirziyoyev, Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyev. 2016-yil 18-oktabrda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/34> (murojaat qilingan sana: 28.10.2025).
7. Subkiy, Tajuddin as-Subki. *Tabaqat ash-shafi'iyya al-kubra*. – Qohira: Dar al-Hadith, 1992.
8. Rasulov, A. *Moturidiy ta'limotining falsafiy asoslari*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
9. Ochilov, M. Islomda bag'rikenglik g'oyasi va uning zamonaviy talqini // *O'zbekiston islom akademiyasi ilmiy jurnali*, 2020, №2. – B. 45–53.
10. Qur'oni karim. Ma'nolar tarjimasi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017.
11. Azizov, A. *Imom Moturidiy merosining bugungi ahamiyati*. – Samarqand: Registon nashriyoti, 2022.
12. Khalidov, A. A. *Islamic Tolerance in Classical Tafsir Literature*. – London: Routledge, 2015.
13. Boboqulov, S. *Imom Moturidiy hayoti va ijodi* [Elektron resurs] // Muslim.uz. – URL: <https://muslim.uz> (murojaat qilingan sana: 28.10.2025).

2.SHO‘BA GLOBALLASHUV DAVRIDA TASAVVUF: NA’NAVIY MEROS VA ZAMONAVIYLIK.

НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИНИНГ ИНСОНПАРВАРЛИК МОҲИЯТИ

Наврузова Гулчеҳра Негматовна

Бухоро давлат техника университети

“Ижтимоий фанлар ва жисмоний маданият”

кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори

Тел: +998914117707 email: premium.progress@mail.ru

Аннотация: Мақолада Бухорои Шарифнинг Еттинчи Пири Баҳоуддин Нақшбанд (1318-1389) томонидан асосланган Нақшбандия таълимотининг инсонпарварлик моҳияти манбалар асосида далилланган.

Калит сўзлар: Тасаввуф, Баҳоуддин Нақшбанд, Нақшбандия, “Хилват дар анжуман”, “Дил ба Ёру, даст ба кор”.

Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёев 2025 йил 21 апрелда “Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш ҳамда диний-маърифий соҳадаги ислохотларни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғриси”да фармони қабул қилди.[1] Фармонда Қўмита, Ўзбекистон мусулмонлари идораси ҳамда Бухоро вилояти ҳокимлигининг Баҳоуддин Нақшбанд ёдгорлик мажмуаси маркази муассислигида Баҳоуддин Нақшбанд илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш ва қуйидагиларни унинг асосий вазифалари этиб белгилаш тўғрисидаги таклифлари маъқулланди:

а) буюк аждодимиз Баҳоуддин Нақшбанд ва нақшбандийлик тариқати алломаларининг юксак инсонпарварлик ғояларини илмий асосда ўрганиш, ёш авлодни бағрикенглик ҳамда ўзаро ҳурмат руҳида тарбиялаш мақсадида тарғибот ишларини олиб бориш;

б) тасаввуф таълимоти тарихи ва унинг бугунги кундаги аҳамиятини илмий тадқиқ этиш, “Етти пир” алломалари ва азиз авлиёларнинг бой илмий-маънавий меросини халқаро майдонда кенг тарғиб қилиш;

в) нақшбандийлик таълимотининг эзгу ғояларини тадқиқ этиш учун илмий-назарий ва услубий масалаларга бағишланган анжуман, конференция, кўргазма, семинар-тренинг, танловлар ҳамда бошқа маданий-маърифий тадбирларни ташкил этиш;

г) тасаввуф таълимотининг илмий асосланган ғояларини тарғиб қилиш, сохта тариқатчиликнинг олдини олиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш.

Президентнинг Нақшбандия таълимотига алоҳида эътибор беришларига асос мавжуд. Бу таълимот инсонпарварлик моҳиятига эгадир. Янги Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш учун маънавий меросимизни чуқур ва ҳар томонлама ўрганишимиз зарур. Президент фармонларига асосан Бухорода Баҳоуддин Нақшбанд илмий-тадқиқот маркази ташкил топди. Бу марказ Нақшбандия таълимотини илмий ўрганади.

Нега Нақшбандия таълимотига махсус эътибор берилмоқда? Чунки Бухорои Шарифда Баҳоуддин Нақшбанд томонидан асосланган Нақшбандия таълимоти бошқа тасаввуфий тариқатлардан ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан ижобийлиги билан фарқ қилади.[8, 91-97 б.] Бу таълимот инсонпарварлик тамойилларига асослангандир.[8, 146-150 б., 6] Бу нималарда кўринади?

Нақшбандия таълимотида инсон олий илоҳий хилқат сифатида қандрланади ва унга инъом этилган барча неъматлар ҳадди, меъёрида эканлиги, унинг эҳтиёжи уйғунлиги эътироф этилади. Инсон тана, рух, нафс, ақл ва қалбдан яратилган вужуддир. Нақшбандия бу илоҳий неъматларни эҳтиёжлари даражасида фойдаланиш лозимлиги ва уларнинг имкониятларидан самарали фойдаланиш унинг камолотига ёрдам беради деб уқтиради.[5, 9, 10]

Инсон тана ва руҳи ўзаро диалектик боғланган. Инсон вужудини имкониятларини англаш, ўзини билиши лозимлиги тушунтирилади. Ҳар бир инсон танасидаги узвлар имкониятини ва моҳиятини англаб ундан тўғри фойдаланиш инсон камолоти учун зарурдир. Баъзи бир тасаввуфий таълимотларда тана инкор этилади. Унинг истаклари эътиборга олинмаслик уқтирилади. Нақшбандия таълимотида эса тана инкор этилмайди. Аксинча уни қувватларидан рух, нафс, ақл, қалб ва латоифларнинг камолоти учун фойдаланиш зарурлигини уқтиради.

Нақшбандия таълимотида нафс инкор этилмайди, аксинча уни тарбиялашга махсус эътибор берилади.[7] Нафс рух асосида танада вужудга келади. Нафс истаклари тана эҳтиёжларидир. Бу эҳтиёжларга меъёрида муносабатда бўлиш лозим. Нақшбандия таълимоти аммора нафсга қарши туришни, уни тарбиялаб мутмаъина – хотиржам нафс даражасига етказиш кераклигини уқтиради. Бу таълимотда мутмаъина нафси меъёрдаги нафсдир. Уни тарбиялаш натижасида инсон камол топади ва унинг нафси розия, марзия, сафия даражасида юксалиб инсонда валийларга хос ҳолатларни вужудга келтиради.

Нақшбандия таълимотида инсонга берилган барча имкониятлар эзгулик йўлида сарфланиши лозим ва шу билан бирга уни истакларини инкор этмаслик керак. Бунга далил Нақшбандия тариқатида хилват, узлат инкор этилган.

Нақшбандия тариқатининг асосий тамойили “Хилват дар анжуман” – “анжуманда хилватддир”. Бу эса инсонга оилали бўлиш, ота-онаси, қон-қариндоши ҳақларини адо этиш, меҳнат қилиш, жамият талабларига уйғун яшаш имконини беради. Таълимотнинг “Дил ба Ёру, даст ба кор” – “Қалб Оллоҳ билан, қўл меҳнатда” шиори инсонни мукаммал ҳаракат ҳолатида бўлишда имкон беради. Инсон қалбида иймони билан холис, Оллоҳ розилиги учун шукроналик билан эзгу ишларни қилишга рағбат қилади. Баҳоуддин Нақшбанд нақшбандиянинг бу хусусиятини таърифлаб қуйидаги мисраларни айтганлар:

Аз дарун шав ошнову, аз берун бегонаваш,
Ин чунин зебо равиш, кам мебувад андар жаҳон.[3, 121 б.]

Мазмуни:

Ботинан, ичдан қалбинг билан Оллоҳга ошно бўл, уни хуфия зикр эт, дилда Ёр – Оллоҳ бўлсин. Зоҳиран, ташқи томондан бегонадай, яъни ҳамма билан бир хил бўл, ўзингни кийиминг, бошингдаги нарсалар билан ўзгалардан фарқ қилмай юр.

Бундай зебо – гўзал равиш жаҳонда кам топилади. Чунки бу равиш холис, пок, ҳалол фақатгина Оллоҳ ризолиги учундир.

Нақшбандия таълимотининг инсонпарварлик хусусиятлари яна шундаки, инсонни ҳалолликка ундайди. Ҳалол лукма, ҳалол кийим, ҳалол манзил ва ҳалол муносабат бу таълимотнинг асосидир. Нақшбандия таълимотида инсоннинг вужудининг барча имкониятлари эзгуликка равона этилиши билан бирга унинг ақлу шуури қалб амрига бўйсиниши, нафсини бошқаришига хизмат қилиши лозимлиги таъкидланади. Бу мазмунда манбада қуйидаги мисралар келтирилган:

Зери девори вужуди ту бувад ганжи гуҳар,
Ганж зоҳир шавад гар зи миён бархези.[3, 152 б.]

Мазмуни:

Вужудинг девори остида гавҳар ҳазинаси мавжуд,
Бу ҳазина сен ўртадан кетгандан кейин, яъни нафсингни бошқариб пок бўлгандан кейин зоҳир бўлади.

Инсон нафсини бошқариб холис ҳалол меҳнат қилса вужуди илоҳий нурга айланади ва унинг камолотига хизмат қилади.

Баҳоуддин Нақшбанд рубойларида бу мазмунда қуйидагича ёзилган:

Ё Раб, Ту Карими карамат ом бувад,
Инъоми Ту бар халқи жаҳон том бувад.
Ту соҳиби жудду карами, ман муфлис,

Инъом намо гар вақти инъом бувад.[2, 49 б., 4, 18 б.]

Мазмуни:

Роббим Сен Каримсан караминг ҳаммагадир,

Сенинг инъоминг жаҳон халқига мукамалдир.

Сен саховат ва карам соҳибсан, биз муфлисиз,

Инъом этгин имъон вақти бўлса агар.

Нақшбандия инсонни фаол ҳаёт тарзи руҳида тарбиялайди. Тариқатдаги “Даст ба кор” шиори ўзгаларни оғирини енгил қилиш, бировга юк бўлмаслик, озор бермаслик, ҳалоллик, тамадан йироқ бўлиш, Оллоҳ берган ризқига рози бўлишга ундайди. Бу шиор инсонларда меҳнатсеварлик, Оллоҳга таваккал қилиб фаол бўлишга чорлайди. Баҳоуддин Нақшбанднинг биринчи шогирди Алоуддин Аттор нақл этишларича, устози қуйидаги ҳадисни кўп такрорлаганлар: “Ибодат ўн қисмдан иборат, унинг тўққиз қисми ҳалол учун ҳаракатдир, бир қисми қолган ибодатлардир”. [3, 83 б.] Бу ҳадисни Баҳоуддин Нақшбанд суҳбатларда кўп такрорлаганлар ва ҳалол бўлишга буюрганлар. [6] Ҳозирги кунда ҳам тадбиркорлик ишлари кенгаймоқда. Аммо, ҳалол тадбиркорликка барака бўлишини англамаган ҳолда фаол бўлишлари ва ўзларини фойдаларини кўзлашлари ёмон оқибатларга олиб келмоқда.

Нақшбандия таълимоти Қуръон ва Ҳадисларга асосланади. Қуръони Каримда “Наҳл” ва “Намл” суралари бор. Асалари учиб барча гуллардан нектарини териб асал қилиб инсониятга бағишлайди. Нақшбандлар ҳам асалари каби эзгу ишларни қилишлари ва инсониятга хизматда бўлишлари лозим. Чумоли ҳам меҳнаткаш, аммо, фақат ўзи учун ҳаракатда бўлади. Нақшбандлар бундай инсонларни қоралайдилар.

Нақшбандия таълимоти “Ақраб-ут-тариқ” – “Энг яқин йўл” деб ёзилган. Чунки бу меъёрдаги инсон камолотининг йўли бўлиб уни ғафлат уйқуидан уйғотиб мушоҳада, тафаккур қилиб, ўз-ўзини англашга ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Нақшбандия таълимотидаги 11 тамойил инсон камолотига ёрдам беради.[11, 32-42 б.] Бу тамойиллар инсонни нафас олиш, кўриш, юриш, нафс, қалб, тафаккур қилиш, хотира, хаёл, ботинни бошқариш қувватларини “Ҳуш дар дам”, “Назар бар қадам”, “Сафар дар Ватан”, “Хилват дар анжуман”, “Ёдкард”, “Бозгашт”, “Ниғаҳдошт”, “Ёддошт” рашҳалари орқали бошқаради ва эзгуликка равона этиш услубларини ўргатади.

“Вукуфи замоний” - вақтни асраш, уни кадрлаш, “Вукуфи адади” - тавҳид, борлиқни ягона асосини англаш ва унга муҳаббат билан назар қилиш, “Вукуфи қалбий” - қалбни поклаш, уни Оллоҳ назаргоҳи ва манзилига айлантириш услубларини ўргатади.

Нақшбандия таълимоти инсонни камолотга етказишнинг энг яқин, мақбул, меъёрадаги йўлидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёев 2025 йил 21 апрелдаги “Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш ҳамда диний-маърифий соҳадаги ислохотларни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғриси”да фармони.
2. رباعيات خواجه نقشبند مرتب و شارح محمد قسورى اردوبازار لاهور الدينية پبليکیشنز ۱۹۹۸
۱۸۴ صحيفه
3. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд / Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 335 б.
4. Баҳоуддин Нақшбанд. Рубоийлар. Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2023 – 84 б.
5. Баҳоуддин Нақшбанд. (Манбалар таҳлили). Тўплаб нашрга тайёрловчи, мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи. Г. Н. Наврўзова. Т.: “Sano standart” нашриёти, 2019. 256 б.
6. Баҳоуддин Нақшбанд. Ҳикматли сўзлар. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. Ҳикматли сўзларни тўпловчи ва мақолалар муаллифи. Г. Н. Наврўзова, Ҳикматли сўзларни инглиз тилига таржима этувчи З. Расулов. “Sadriddin Salim Buxoriy”. “Durdona” nashriyoti. 2020. 52 б.
7. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Фан, 2005. – 233 б.
8. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. – 244 б.
9. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – ҳушёрлик йўли. Т.: Фан, 2024. 184 б.
10. Наврўзова Г.Н. Нақшбанд рубоийлари фалсафаси. Т.: Фан, 2025. 184 б.
11. Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-ҳаёт («Обиҳаёт томчилари»): тарихий-маърифий асар / Табдил қилувчилар, нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир: Б.Умрзоқ (ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти). – Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004. – 536 б.

ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИ – ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИК ОМИЛИ

*Шарипова Ойгул Турсуновна
БухДУ Ислом тарихи ва манбашунослиги,
фалсафа кафедраси профессори, ф.ф.д.
(DSc) “Жўйбори Калон” аёл қизлар, ўрта
махсус ислом таълим муассасаси директори*

Аннотация. Мазкур мақолада инсоният тафаккурининг бебаҳо бойлиги ҳисобланган тасаввуф таълимоти, тариқатлар, мазкур таълимотнинг вазифалари, мақсади, унинг жамият ҳаётидаги ўрни, жамиятни барқарорлаштиришдаги ўзига хослиги ифодаланган. Миллий қадриятларни, урф-одатларни, тарихий, маданий - маърифий меросни тиклаш улуғ мутафаккирларимизнинг таълимотларини ўрганиш, илмий- назарий жиҳатдан таҳлил қилиш шу асосда туғилган фикр ва мулоҳазаларни ёшлар онгига сингдириш, Ўзбекистонда тарбия ишларини тўғри йўлга қўйиш учун дунёвий таълим ютуқларини жорий этиш билан бирга маънавият оламининг муқаддас китоби ва рисоалари, тасаввуф илмининг намояндалари асарларидан илмий равишда кенг фойдаланиш лозимлиги ифодаланган.

Калит сўзлар: тасаввув, тариқат, жамият, барқарорлик, беқарорликмиллий қадриятлар, Хожагон тариқати, ибодат, поклик, сўфийлар, руҳий ва ахлоқий камолот.

Мустақиллигимизнинг 34 йиллиги нишонланди. Ушбу муддатда қанчадан-қанча улуғвор ишлар амалга оширилди. Ўзбекистоннинг иқтисодий тараққиётида, халқимизнинг ҳаётида, давлатимизнинг сиёсий ҳаётида туб ўзгаришлар бўлди. Халқимиз ўзининг буюк келажагини яратмоқда. Уни яратишда улуғ аجدодларимиз буюк файласуфлар, дин арбоблари, буюк мутасаввиф донишмандлар, улуғ алломалар таълимотини ўрганиш имкониятига эга бўлди. Асрлар мобайнида халқимиз сақлаб келаётган умуминсоний, миллий ва маънавий қадриятларни илмий тадқиқ қилиб, ривожлантиришга янги имкониятлар яратилди.

Миллий қадриятларни, урф-одатларни, тарихий, маданий - маърифий меросни тиклаш улуғ мутафаккирларимизнинг таълимотларини ўрганиш, илмий- назарий жиҳатдан таҳлил қилиш шу асосда туғилган фикр ва мулоҳазаларни ёшлар онгига сингдириш, Ўзбекистонда тарбия ишларини тўғри йўлга қўйиш учун дунёвий таълим ютуқларини жорий этиш билан бирга маънавият оламининг муқаддас китоби ва рисоалари, тасаввуф илмининг намояндалари асарларидан илмий равишда кенг фойдаланиш лозимлиги доимо таъкидланади.

Тасаввуф инсоншунослик таълимоти сифатида инсониятни тарбиялайдиган, уни тўғри йўлга бошлайдиган, жамиятда барқарорликни вужудга келишига, ёшларни баркамол қилиб тарбияланишларига хизмат қиладиган буюк таълимотдир. Тасаввуф-бу инсоннинг руҳияти ва маънавий оламидаги жараён бўлиб, инсонни руҳий ва ахлоқий камолотга етказувчи бир илмдир. Тасаввуфнинг мавзуси-ҳаққа етишиш учун нафси тийиб, ахлоқни гўзаллаштириш бўлиб, унинг мавзусини инсон руҳи, хулқи ва руҳоний тузилиши ташкил қилади.

Яқин ва Ўрта Шарқда IX аср бошларига келиб, тасаввуфнинг назарий ва амалий асослари ишлаб чиқилди. Бу даврда сўфийларнинг амалий-руҳий машқлар орқали ўз-ўзини тарбиялаш ва чиниктириш тадбир усуллари шаклланди. Шариат, тариқат, маърифат, ҳақиқат деган тушунчалар юзага келиб, тасаввуфнинг ушбу тўрт қисмга оид қарашлар мажмуи тузилди. Тасаввуф алоҳида мазҳабий илм ва амал сифатида қарор топди.

Марказий Осиёда тасаввуфнинг кубровия, яссавия, хўжагон-нақшбандия йўналишлари вужудга келди ва аҳолининг турли табақалари орасига кириб борди. Тасаввуф, хусусан, хўжагон вакиллари Марказий Осиёда Темур ва темурийлар, сўнграқ Ҳиндистондаги Бобурийлар давлатида катта эътибор қозонди. Тасаввуф тарихи, унинг турли ўлкаларда намоён бўлиши, мақсад-маслаги, мазмун-моҳияти, тамойиллари, йўл-йўриқлари, фалсафа, адабиёт, маънавиятга бевосита таъсири каби масалаларга кўплаб тадқиқотлар бағишланган.

“Тариқат” арабча сўз бўлиб, “усул”, “йўл”, “маслак”, “сўфийлик йўли” маъноларини англатади.

Тариқат аҳли-сўфийлардир. Шайх Воиз Кошифийнинг «Футувватномаи султоний» асарида ёзилишича, тариқат маъноси «рост, тўғри йўл»дир. Тариқат аҳли, яъни сўфийлар эса уч нарсада: дам, қадам, қарамда ўзгаларга ибрат бўлишлари лозим. Яъни кераксиз-ўринсиз гаплардан тийилмоқ-дам, беҳуда ишларга қадам қўймаслик-қадам, зарурий пайтда ёрдам бериш-қарам ҳисобланади.

Тариқатнинг асл моҳияти ибодат ва поклик бўлганлиги учун мазкур мазҳаб дину исломга зид эмас. Тариқат башарий вужуддан қутилиб, руҳий камолотга муяссар бўлиш орзуси, яъни инсонийлик, илоҳийлик ҳақиқатини топишдан иборатдир. Шу маънода, Абдуҳолиқ Ғиждувоний асос солган хўжагон тариқатининг ҳам асосини муқаддас исломий манбалар ташкил этган бўлиб, ўзига хос маънавий-ахлоқий кадриятларга асосланган таълимотдир.

“Тариқат”нинг маъноси илоҳий маърифатни эгаллашга бел боғлаган кишининг руҳий-ахлоқий камолот йўли экан, уни тасаввуфнинг амалий қисми

деб таърифлайдилар. Чунки пир - муриднинг қоидалари, одобига риоя этиш, солиқ бажариши керак бўлган йўл-йўриқлар ва бошқа усуллар шунинг ичига киради.

Биз қуйида устозимиз Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, фалсафа фанлари доктори, профессор Болтаев Муҳаммад Назаровичнинг тасаввуф таълимоти борасидаги фикрларини келтирмоқчимиз.

“Сўфийлар руҳоният оламининг улуғ сиймолари бўлиб, инсоният учун ҳақиқий, абадий ҳаёт йўлидаги улкан машъалдирлар. Улар жаҳонда шон-шуҳрат қозонган, ҳақ йўлини ошкор этган башарият раҳнамонларидирлар.

Аслида тасаввуф мавҳум фикрлаш, мантиқий тафаккур эмас. У кенг маънода Мутлақ ҳақидаги фалсафий таълимот, амалий тариқатдир. Тасаввуф инсон миясини куруқ, маъносиз ғоялар билан тўлдириш билан эмас, у дунёқарашни тубдан ўзгартиришга интилади. Кўпчилик одамлар турли фикрларга дуч келадилар, аммо ҳамиша ҳам ҳақиқатни тўлиқ англаб етмайдилар. Инсонни фикрлар эмас, борликдаги Мутлақ ҳақиқат ташвишлардан қутқазади. Шунинг учун ҳақиқат фикрлар эмас, балки кечинмадир.

Тасаввуф-фикрлар тизимини ижод қилиш бўлмай, амалий тариқатдир. Қадимий донишмандлар айтганидек, тасаввуф- алхимия (алкимё) бўлиб, уни одам тушуниб олса, у одамни Мутлақ ҳақиқатга, Олий ҳақиқатга эриштиради.

Тасаввуф-муайян кечинмага ета олиш учун амалга оширилган шахсий тажриба, ўз-ўзлигини билиб олиш тажрибасидир. Инсоннинг мана шу кечинмага етиши белгилаб қўйилган. Одам пайпаслайди, ҳис этади. Унинг изланиши ҳақни қалбий, руҳий кўз билан кўришда хотима топади. Тасаввуф бу ҳақни одам томонидан кўнглининг қаъридаги негизи, ядросининг кечинмаси, уни руҳий “наззора этиши” - дейди Алишер Навоий. Ҳақ ким қаерда эмас. Ҳақ шу ерда, тозаланган, софланган қалб, кўнгилдаги нафас олувчи, пульсация этувчи, англовчи абадий мавжудот – Ҳақ одамнинг ҳамма амалиёти: фикрлар, сўзлари, ишларидан воқиф, хабардор.

Сўфийлар фикрлашга, мантиқий тафаккурга ишонмайдилар: ўз кўзларига ишонадилар. Уларнинг айтишича, ҳақиқий диний эътиқод - кўриш, руҳий назорат этишдир. “Ким ўзга нарсаларни билиб олган бўлса, у донишманд, ҳаким”,-дейди машҳур сўфийлардан бири. Олим бўлиш осон, донишмандлик, ҳакимлик бу дадиллик, мардликни талаб этади. Нима учун бу дунёда ўзини билиб олиш, шижоат, жасурликни талаб этади? Бунинг сабаби бор. Агар сиз кўнглингизга, ботинингизга руҳий кўз билан назар қилсангиз, тирик, умумий марказни кўрасиз, у ерда ҳеч қандай шахсийлик, ҳеч қандай “менлик” йўқ. Мана шу ҳолат кўркувни туғдиради. Сиз, сўфийларнинг сўзи

билан айтганда, ўзлигингизни йўқотасиз, ўз аслини билиб олишда одам ғойиб бўлади. Бунда ичкаридаги ҳақиқий Абадий Мавжудот - шоҳид. Бу шоҳидни “мен” доирасида чегаралаб қўйиш мумкин эмас. Бу - соф борлиқ.[1:3-7]

Ҳақни излаш, уни билиб олиш ва васлига етишнинг энг муҳим шартларидан бири ҳар қандай ёмон, ярамас хислатлардан қутулиш ва яхши хислатларга, сўфий ибораси билан айтганда, мақтовли сифат, фазилатларга эга бўлиш ҳисобланади. Ҳақнинг маскани инсоннинг ўз қалби, кўнглида. Шунинг учун сўфийлар, жумладан, Абдуҳолиқ Ғиждувоний айтганларки, бу дунёдаги кўпликнинг ягоналик жиҳатини англаган, кўрган киши Ҳаққа яқинлашади. Кимки кўплик оламида ягоналикни кўрса, кимки саноксиз жонларда ягона Рух, жонни кўрса, кимки турли шакллар оламида ягона Мутлақ Вужудни пайқаса, у абадий оромлик ҳолатига етади.

Ҳақ васлига етишга интилиш, Худони васлига етишни яшаб туриб, бу дунёдаги нарса ва ҳолатлар билан амалга ошириш мумкин ёки тўла тарки дунё эта туриб, зоҳид дарвеш бўла туриб, Ҳақни англаб, билиб олиш ҳам мумкин.

Улуғ сўфий Хўжайи Жаҳон баланд мартабали, ўзгаларга фақат яхшилик қилувчи инсон бўлганлар.

Барчага яхшилик қилиш, фикрида, сўзда ва амалда ҳам хайрли бўлиш йўли билан бу дунёдаги ҳаётни юксалтириш, ҳақиқий инсоний мартабага ета олиш мумкин.

Каҳру ғазаб, зулму ситам, худбинлик-инсонийликдан узоқлашиш, илоҳийликдан четга чиқиш демакдир. Бу ҳақда улуғ инсонпарвар Ғиждувонийнинг қуйидаги мисралари диққатга сазовордир:

Аз хислати бад агар музаҳҳаб боши,
Бо халқи жаҳон жума уаддаб боши,
Бо неку бади жаҳон ба раҳмат мебош.
То назди Худо абди муқарраб боши. .[2:7]

Таржимаси:

Агар ёмон хислатлардан тозаланган, софланган бўлсанг,
Жумлаи жаҳон халқига нисбатан адабли, хайрли бўласан,
Жаҳон яхши-ёмонларига нисбатан меҳрибон, раҳмдил
бўлгил,
Ўшанда Худо олдида унга яқин банда бўла оласан.

Ахлоқий қоида ва қонунлар одамнинг ҳақиқий инсон бўлиши, маънавий-руҳий юксалиши, илоҳий оламга яқинлашиши ва Ҳақ сифатларини ўзида

мужассамлаштириши учун қай даражада лозимлиги ва аҳамиятини тасаввуф аҳлининг буюк сиймолари ўз асарларида ҳар томонлама ва муфассал баён этганлар.

Тасаввуфда солиқнинг руҳий маънавий босқичларини қуйидагилардан иборат қилиб қўйган: 1.Тавба 2.Ирода 3. Муриднинг шайхга эҳтиёжи 4.Зикр 5.Ҳалоллик 6.Ҳаж мартабаси 7.Дарвешлик одоби 8.Зухд 9.Аллоҳни таниш 10.Нафс сифатлари 11.Қалбнинг саломатлиги 12.Сабр ва ризо 13.Муроқаба ва мусохаба 14. Муҳаббат ва сидқ 15.Таслим ва тавфиз 16.Шукр ва таваккул 17. Аллоҳ Таоллоҳнинг маърифати 18. Ихлос ва риё 19. Илоҳий ахлоқ 20. Мушоҳида ва муоина 21. Хирқа маъноси 22. Кечки ибодат 23. Йўл масаласи.

Тасаввуфда қоронғилик ҳижоби билан қуршаб олинган дунёни нуқул ёмонликдан иборат деган одам учун, Коинот дўзах шаклида намоён бўлади, ўзгача яшаш, ҳаёт хурсандчиликларига интилувчи одам учун олам жаннатга айланади; ҳақиқий комил инсон, авлиё ва сўфийлар учун зоҳирӣ, жисмонӣ, моддий дунёнинг ҳамма мавжудотлари фонӣ бўлади ва охир оқибатда руҳӣ, илоҳӣ оламга етишиб, абадий ораликда яшаб, ҳақиқий бахт - саодатга етишади.

Биз биламизки жамият моддий ва маънавий омиллар бирлигидан иборат.Ҳар бир фуқаро ўзи яшаб турган жамият фаровонлиги учун қайғуриши, унга муносиб бўлмоғи керак.Хожаи Жаҳон айтадиларки”Халқдин оғирликни кўтармак керак, бу иш қўлдан келмаса, зарар ҳам етказманг” .[36-12]

Ҳақни излаш, уни билиб олиш ва васлига етишнинг энг

Тасаввуфнинг турли ижтимоӣ-ахлоқӣ таҳлили шуни кўрсатдики, унда бу соҳадаги қатор умуминсонӣ қадриятлар ўз ифодасини топган. Турли ижобӣ, ахлоқӣ қоидалар, инсонлар алоқасини мустаҳкамлаш, илм-фанга ижобӣ муносабат, ҳар қандай инсон учун фойдали билимларни ҳимоя этиш, оила ва унинг аъзолари ўртасида алоқаларни маълум тартиб-қоидалар доирасида сақлаб туриш каби масалаларнинг ёритилиши ҳозирда ҳам кўп жиҳатдан ўзининг муҳим тарбиявий аҳамиятини сақлаб қолганини кўрсатади. Шу билан бирга жамият, маданиятнинг тарихӣ ривожӣ ҳам унинг қонун-қоидаларининг умумӣ мазмунига шубҳасиз ўзининг ижобӣ таъсирини кўрсатмай қолмайди.

Адабиётлар рўйхати

- 1.Ойгуларипова. Абдуҳолик Ғиждувонӣ. Монография.Тошкент,”Фан”нашриёти.Сўз боши.3-7 бетлар.
- 2.Ўша ерда 7-бет
3. Абдуҳолик Ғиждувонӣ.Мақсад ас солиқин.Қўлёзма Б.-12.

اللُّغَةُ الْعَرَبِيَّةُ وَالتَّعْرِيبُ فِي عَصْرِ الْعَوْلَمَةِ

إعداد: د. أَيْمَنُ عُثْمَانُ عَبْدَ الْعَلِيمِ مُحَمَّدَ الشَّرِيعِي
أُسْتَاذُ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ بِجَامِعَةِ بُخَارَى الْحُكُومِيَّةِ – أُوزْبِكِسْتَانِ
المقدمة:

إنَّ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ لَيْسَتْ مَجْرَدَ وَسِيلَةٍ لِلتَّخَاطُبِ أَوْ التَّوَاصُلِ، بَلْ هِيَ وَعَاءُ الْفِكْرِ وَمِرَاةُ الْحَضَارَةِ، وَحَافِظَةُ التُّرَاثِ، وَمَصْدَرُ الْقُوَّةِ الرُّوحِيَّةِ وَالثَّقَافِيَّةِ لِلأُمَّةِ الْإِسْلَامِيَّةِ. لَقَدْ فَضِضَتِ الْعَوْلَمَةُ وَأَقْعَا جَدِيدًا فِي الْعِلَاقَاتِ الثَّقَافِيَّةِ وَالْاِقْتِصَادِيَّةِ وَالْإِعْلَامِيَّةِ، حَتَّى غَدَتِ الدُّنْيَا "قَرْيَةً صَغِيرَةً" كَمَا يُقَالُ، وَلَكِنَّهَا فِي الْوَقْتِ نَفْسَهُ جَعَلَتْ اللُّغَاتِ الْمَحَلِّيَّةَ أَمَامَ تَحَدٍّ وَجُودِيٍّ، إِذْ بَاتَتْ مَهْدَدَةً بِالتَّهْمِيشِ أَوْ الدُّوْبَانِ تَحْتَ سَطْوَةِ اللُّغَاتِ الْأَجْنِبِيَّةِ فِي الْعِلْمِ وَالتَّقْنِيَّةِ وَالْإِدَارَةِ. وَمِنْ هُنَا جَاءَتْ أَهْمِيَّةُ هَذَا الْبَحْثِ الَّذِي يَسْعَى إِلَى دِرَاسَةِ قَضِيَّةِ التَّعْرِيبِ وَالمَصْطَلَحَاتِ الْعَرَبِيَّةِ فِي عَصْرِ الْعَوْلَمَةِ مِنْ زَاوِيَةِ تَحْلِيلِيَّةٍ تُبْرِزُ الْعِلَاقَةَ بَيْنَ اللُّغَةِ وَالْهَوِيَّةِ، وَتُوضِّحُ إِمْكَانِيَّاتِ الْعَرَبِيَّةِ فِي اسْتِيعَابِ مَعْطِيَاتِ الْعَصْرِ دُونَ فَقْدَانِ ذَاتِهَا. وَاعْتَمَدَ الْبَحْثُ الْمَنْهَجَ الْوَصْفِيَّ التَّحْلِيلِيَّ.

المبحث الأول: العولمة وأثرها في اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ:

تُعَدُّ الْعَوْلَمَةُ مِنْ أَبْرَزِ الظُّوَاهِرِ الَّتِي شَكَّلَتْ مَلَامِحَ الْقَرْنِ الْحَادِي وَالْعَشْرِينَ، إِذْ لَمْ تَقْتَصِرْ عَلَى الْجَانِبِ الْاِقْتِصَادِيِّ فَحَسَبَ، بَلْ امْتَدَّتْ لِتَشْمَلَ مَجَالَاتِ الْحَيَاةِ الْفِكْرِيَّةِ وَالثَّقَافِيَّةِ وَالْاجْتِمَاعِيَّةِ وَاللُّغَوِيَّةِ. وَقَدْ أَصْبَحَتِ اللُّغَةُ مِنْ أَكْثَرِ الْمِيَادِينِ تَأْتَرًا بِظَاهِرَةِ الْعَوْلَمَةِ، لَكُونِهَا الْوَعَاءُ الَّذِي تُعَبَّرُ بِهِ الْأُمَمُ عَنْ ثِقَافَتِهَا وَهَوِيَّتِهَا وَحَضَارَتِهَا. وَمِنْ ثَمَّ، فَإِنَّ دِرَاسَةَ أَثَرِ الْعَوْلَمَةِ فِي اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ تُعَدُّ مِنْ الْقَضَايَا الْجَوْهَرِيَّةِ فِي مِيْدَانِ الدِّرَاسَاتِ اللَّغَوِيَّةِ وَالثَّقَافِيَّةِ الْمَعَاصِرَةِ.

لَقَدْ بَدَأَتْ الْعَوْلَمَةُ بِوَصْفِهَا مَشْرُوعًا اِقْتِصَادِيًّا غَرْبِيًّا، هَدَفَهُ تَوْحِيدُ الْأَسْوَاقِ وَتَحْرِيرُ التِّجَارَةِ، لَكِنَّهَا سَرْعَانِ مَا تَحَوَّلَتْ إِلَى ظَاهِرَةٍ ثَقَافِيَّةٍ كَبْرَى تَهْدَفُ إِلَى بَسْطِ النِّفُوذِ الثَّقَافِيِّ الْغَرْبِيِّ عَلَى سَائِرِ الثَّقَافَاتِ الْإِنْسَانِيَّةِ. فَاللُّغَةُ الْإِنْجِلِيزِيَّةُ مَثَلًا، لَمْ تَعُدْ وَسِيلَةً لِلتَّخَاطُبِ فَحَسَبَ، بَلْ أَضْحَتْ أَدَاةً لِلْهَيْمَةِ الْفِكْرِيَّةِ وَالْمَعْرِفِيَّةِ فِي شَتَى الْمَجَالَاتِ الْعِلْمِيَّةِ وَالتَّقْنِيَّةِ. وَبِذَلِكَ أَصْبَحَتِ الْعَوْلَمَةُ تَحْدِيًّا حَضَارِيًّا يُوَاجِهُ اللُّغَاتِ الْقَوْمِيَّةِ، وَعَلَى رَأْسِهَا اللُّغَةُ الْعَرَبِيَّةُ الَّتِي تُعَدُّ إِحْدَى أَعْرَقِ لُغَاتِ الْعَالَمِ وَأَوْسَعَهَا انْتِشَارًا فِي التُّرَاثِ وَالْمَعَارِفِ الدِّينِيَّةِ وَالْإِنْسَانِيَّةِ.¹⁸

إنَّ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ، بِمَا تَمْتَلِكُهُ مِنْ نِظَامِ نَحْوِيٍّ وَصَرْفِيٍّ دَقِيقٍ، وَبِمَا تَتَسَمَّ بِه مِنْ قُدْرَةٍ عَلَى الْاِسْتِقَاقِ وَاسْتِيعَابِ الْمَصْطَلَحَاتِ الْحَدِيثَةِ، أَثْبِتَتْ عَلَى مَرِّ الْعُصُورِ قُدْرَتَهَا عَلَى التَّطَوُّرِ وَالتَّفَاعُلِ مَعَ الْمُسْتَجِدَّاتِ الْحَضَارِيَّةِ. غَيْرَ أَنَّ مَا أَحْدَثَتْهُ الْعَوْلَمَةُ مِنْ انْفِتَاحٍ غَيْرِ مَسْبُوقٍ فِي وَسَائِلِ الْإِعْلَامِ وَالْاِتِّصَالِ الرَّقْمِيِّ قَدْ أَوْجَدَ حَالَةً مِنَ التَّحْدِيِّ اللَّغَوِيِّ، حَيْثُ بَاتَتْ الْعَرَبِيَّةُ تَوَاجِهَ طَغْيَانِ الْمَفْرَدَاتِ الْأَجْنِبِيَّةِ وَالْاِخْتِصَارَاتِ التَّقْنِيَّةِ الَّتِي تَنْتَسِلُ إِلَى الْاِسْتِعْمَالِ الْيَوْمِيِّ لِلْمَوْطِنِ الْعَرَبِيِّ، خُصُوصًا فِي وَسَائِلِ التَّوَاصُلِ الْاجْتِمَاعِيِّ وَالْإِعْلَانَاتِ التِّجَارِيَّةِ.¹⁹ وَقَدْ أَشَارَ بَعْضُ اللَّغَوِيِّينَ إِلَى أَنَّ أخطرَ مَا فِي الْعَوْلَمَةِ عَلَى اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ هُوَ إِضْعَافُ الْحَسَنِ اللَّغَوِيِّ لَدَى الْأَجْيَالِ الْجَدِيدَةِ، إِذْ أَصْبَحَ كَثِيرٌ مِنَ الشَّبَابِ يَمِيلُونَ إِلَى اسْتِعْمَالِ مَزِيْجٍ مِنَ الْعَرَبِيَّةِ وَالْإِنْجِلِيزِيَّةِ، يُعْرَفُ بِـ "الْفَرَانْكَو-عَرَبِيٍّ"، مِمَّا أَفْقَدَ اللُّغَةَ هَيْبَتَهَا فِي الْحَيَاةِ الْعَامَّةِ وَالتَّعْلِيمِ وَالْإِعْلَامِ.²⁰ وَمِنْ هُنَا يَرَى الْمَفْكَرُونَ الْعَرَبُ أَنَّ مَوَاجِهَةَ هَذَا التَّحْدِيِّ لَا تَكُونُ بِالْاِنْغِلَاقِ عَلَى الذَّاتِ، بَلْ بِتَنْقِيلِ مَشْرُوعِ لُغَوِيٍّ عَرَبِيٍّ يَهْدَفُ إِلَى تَوْحِيدِ الْجُھُودِ فِي مَجَالَاتِ التَّرْجُمَةِ وَالتَّعْرِيبِ وَإِحْيَاءِ مَجَامِعِ اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ وَتَحْدِيثِ مَنَاهِجِ التَّعْلِيمِ.²¹

1. محمد عابد الجابري، العولمة والهوية الثقافية، مركز دراسات الوحدة العربية، بيروت، 1998م، ص 22.
2. عبد الصبور شاهين، اللغة العربية ومستقبلها في ظل العولمة، مجلة مجمع اللغة العربية بالقاهرة، العدد 76، 2000م، ص 45.
3. تمام حسان، اللغة العربية معناها ومبناها، دار الثقافة، الدار البيضاء، 1994م، ص 61.
4. عبد الرحمن الحاج صالح، من أجل سياسة لغوية عربية معاصرة، المجلة العربية للثقافة، تونس، 2002م، ص 33.

لقد أثبت التاريخ أنَّ اللغة لا تموت ما دامت قادرة على التجدد واستيعاب التطور، والعربية تمتلك من المرونة ما يؤهلها لذلك. فحينما واجه العرب موجة الترجمة في العصر العباسي، لم يقفوا موقف الرفض، بل سعوا إلى تعريب العلوم والفلسفات الوافدة، حتى أصبحت العربية لغة العلم والمعرفة في العالم الإسلامي. واليوم، في ظل العولمة، يمكن للعربية أن تستعيد دورها الحضاري إذا ما وُضعت السياسات اللغوية الرشيدة التي تُعنى بتقوية التعليم بالعربية، وتشجيع البحث العلمي بها، ودعم المحتوى العربي في الفضاء الرقمي.²² ولا يمكن إغفال الدور الذي تلعبه المؤسسات التعليمية والإعلامية في تعزيز مكانة اللغة العربية. فالإعلام العربي المعاصر كثيرًا ما يُقحم العبارات الأجنبية في برامج وإعلاناته، مما يضعف الذوق اللغوي العام. لذلك، لا بدَّ من سنِّ تشريعات لغوية تُلزم وسائل الإعلام الرسمية والخاصة باعتماد اللغة العربية السليمة في خطابها، حفاظًا على هوية الأمة اللغوية والثقافية.²³

إنَّ العولمة ليست شرًّا مطلقًا، كما أنها ليست خيرًا خالصًا، وإنما هي واقع إنساني يمكن للأمم أن تتفاعل معه بإيجابية، متى ما امتلكت الوعي اللغوي والثقافي اللازم. ومن هنا فإنَّ الحفاظ على اللغة العربية لا يعني الانعزال عن العصر، بل يعني امتلاك أدواته بلسان عربي مبين. فالعربية لغة دينٍ وحضارةٍ وعلمٍ، قادرة على استيعاب معطيات التقنية الحديثة متى ما وُجد التخطيط اللغوي المدروس والوعي الثقافي الراشد.

24

المبحث الثاني: التَّعْرِيبُ وَالْمُصْطَلَحَاتُ الْعَرَبِيَّةُ فِي عَصْرِ الْعَوْلَمَةِ:

يُعَدُّ التعريب أحد أبرز مظاهر القدرة الحضارية للغة العربية على التفاعل مع العلوم والثقافات الأخرى. فمنذ حركة الترجمة في العصر العباسي، فتحت العربية أبوابها لاستيعاب الفلسفات والعلوم والفنون الوافدة، عبر صياغة مصطلحات دقيقة تُعبّر عن المعاني المستحدثة في الفكر الإنساني. ومع ذلك، فإن ظاهرة العولمة بما تحمله من تسارع معرفي وتقني غير مسبوق قد أوجدت تحديات كبيرة أمام عملية التعريب وضبط المصطلحات العلمية باللغة العربية.

لقد أفرزت الثورة المعلوماتية وتطور تقنيات الاتصال والإنترنت سيلاً متواصلًا من المصطلحات التقنية، تتوالد بوتيرة سريعة تفوق قدرة المجامع اللغوية على ملاحقتها وتوحيدها، مما أدى إلى ظهور تعددية اصطلاحية بين الأقطار العربية، حيث يُستعمل المصطلح الواحد بأشكال مختلفة، مسببًا اضطرابًا في التواصل العلمي والثقافي.²⁵

ويرى اللغويون أنَّ من أسباب ضعف التعريب في عصر العولمة بطء آليات العمل في المجامع اللغوية وغياب التنسيق بين المؤسسات العلمية واللغوية في الوطن العربي، إضافة إلى ميل بعض الباحثين والدارسين لاستعمال المصطلحات الأجنبية بحروفها الأصلية ظنًا منهم أنَّ ذلك يمنحهم حداثة علمية، في حين أنَّه يُكرّس التبعية اللغوية ويُضعف الثقة بالعربية كلغة علم ومعرفة.²⁶

ومن مظاهر تأثير العولمة في المصطلحات العربية انتشار المصطلحات الدخيلة في الإعلام (Internet) و (Marketing) والاقتصاد والإدارة دون محاولة تعريبها أو إيجاد بدائل عربية لها، مثل ، التي تُستعمل في اللغة اليومية بلفظها الأجنبي، حتى أصبحت مألوفاً لدى المتعلمين (Software) والعامة.²⁷ وهذا التسرّب اللغوي يحمل خطرًا ثقافيًا يتمثل في تشويه البنية اللغوية الأصيلة وإضعاف قدرة المتكلمين على التعبير عن مفاهيم العصر بلغتهم الأم.

5. إبراهيم أنيس، في اللهجات العربية، مكتبة الأنجلو المصرية، القاهرة، 1981م، ص 75.
6. عبد العزيز حمودة، الهوية الثقافية ومقاومة التبعية، الهيئة المصرية العامة للكتاب، القاهرة، 2004م، ص 58.
7. عبد الكريم بكار، اللغة العربية والتحديات المعاصرة، دار القلم، دمشق، 2005م، ص 90.
8. أحمد مطلوب، قضية المصطلح في اللغة العربية، دار الشؤون الثقافية، بغداد، 1999م، ص 14.
9. فاضل السامرائي، في التعريب والمصطلح العلمي، مجلة مجمع اللغة العربية الأردني، العدد 52، 2003م، ص 27.
10. عبد الله درويش، اللغة العربية والتقنية الحديثة، دار الفكر، دمشق، 2001م، ص 41.

إن التعريب ليس مجرد ترجمة لفظية، بل هو فعل حضاري يستلزم فهماً عميقاً للثقافة المصدر والثقافة المستقبلية معاً، ويستلزم توحيد الجهود على المستوى المؤسسي. ومن هنا، دعا مجمع اللغة العربية بالقاهرة إلى إنشاء "المركز العربي للمصطلحات الموحدة" ليكون مرجعاً أساسياً في توحيد المصطلح العلمي والفني في الدول العربية²⁸.

وبتعيين دعم سياسة لغوية عربية موحدة تجعل من التعريب أداة لتجديد اللغة، فهو سبيل لتوطين العلم والمعرفة، وجسر يربط بين الأصالة والمعاصرة. ونجاح التعريب في مواجهة تحديات العولمة مرهون بوعي المؤسسات الأكاديمية والإعلامية بأهميته وقدرتها على نشر الوعي اللغوي في المجتمع. وقد سجل التاريخ العربي نماذج مشرقة في التعريب، أبرزها العلماء في بيت الحكمة ببغداد، حيث نقلوا مؤلفات الفلاسفة والعلماء من اليونانية والفارسية إلى العربية مع ابتكار مصطلحات دقيقة ما زالت مستعملة إلى اليوم، مثل "المنطق"، و"الكيمياء"، و"الفيزياء"²⁹. هذا يدل على أن العرب حين امتلكوا زمام الحضارة لم يخافوا من التفاعل مع الآخر، بل جعلوا لغتهم أداة للعلم والمعرفة.

الخاتمة:

خلص البحث إلى أن التعريب في زمن العولمة ليس مجرد دفاع عن اللغة العربية، بل هو دفاع عن الهوية الحضارية للأمة، وأن التعريب والمصطلحات العربية يمثلان ركيزة أساسية في الحفاظ على الهوية الثقافية للأمة العربية في عصر العولمة، الذي فرض ضغطاً متزايداً من اللغات الأجنبية في مجالات الإعلام، والتقنية، والتعليم.

وأظهرت الدراسة أن التعريب الواعي، أي نقل المصطلحات الأجنبية وتكييفها وفق قواعد العربية، يمثل جسراً بين التراث والمعاصرة، ويضمن استمرار دور العربية في العلوم والتقنية والإعلام.

أهم التوصيات:

1. تفعيل دور المجمع اللغوية العربية وإنشاء قاعدة بيانات موحدة للمصطلحات الجديدة لتسهيل الترجمة العلمية.
2. تشجيع البحث العلمي في مجال التعريب وربط الجامعات العربية بالمجامع اللغوية لضمان جودة المصطلحات المستحدثة.
3. إدماج مقررات التعريب في كليات اللغة العربية والإعلام والتقنية لتعزيز وعي الطلاب بالمصطلحات الصحيحة.
4. دعم المحتوى العربي الرقمي وتشجيع وسائل الإعلام على استخدام الفصحى في برامجها ومواقعها.
5. تعزيز التعاون بين الدول العربية لتوحيد المصطلحات العلمية والتقنية بما يسهم في رفع كفاءة التعليم والبحث العلمي.
6. اعتماد العربية في المؤتمرات الدولية العلمية والثقافية لتعزيز حضورها العالمي.
7. تحقيق التوازن بين الانفتاح على اللغات الأجنبية وصيانة العربية من الذوبان عبر التعريب الواعي والمستنير.

قائمة المراجع:

1. إبراهيم أنيس، في اللهجات العربية، مكتبة الأنجلو المصرية، القاهرة، الطبعة الثانية، 1981م.
2. أحمد مطلوب، قضية المصطلح في اللغة العربية، دار الشؤون الثقافية، بغداد، الطبعة الأولى، 1999م.
3. أحمد مطلوب، اللغة والهوية الثقافية، مجلة اللسانيات، جامعة الجزائر، العدد 15، 2019م.

11. مجمع اللغة العربية بالقاهرة، محاضر الجلسات السنوية للمجمع، المجلد 66، القاهرة، 2005م، ص 53.

12. عبد السلام المسدي، العرب والانتشار اللغوي، المركز الثقافي العربي، بيروت، 2006م، ص 88.

4. أنور الجندي، معركة المصطلحات بين الغرب والإسلام، دار الاعتصام، القاهرة، الطبعة الأولى، 1993م.
5. تمام حسان، اللغة العربية معناها ومبناها، دار الثقافة، الدار البيضاء، الطبعة الخامسة، 1994م.
6. طه عبد الرحمن، سؤال العولمة: الفلسفة الأخلاقية للعولمة، المركز الثقافي العربي، الدار البيضاء، الطبعة الأولى، 2003م.
7. عبد العزيز حمودة، الهوية الثقافية ومقاومة التبعية، الهيئة المصرية العامة للكتاب، القاهرة، الطبعة الأولى، 2004م.
8. عبد الصبور شاهين، اللغة العربية ومستقبلها في ظل العولمة، مجلة مجمع اللغة العربية بالقاهرة، العدد 76، 2000م.
9. عبد السلام المسدي، العرب والانتحار اللغوي، المركز الثقافي العربي، بيروت، الطبعة الأولى، 2006م.
10. عبد السلام المسدي، الهوية العربية والأمن اللغوي، مركز دراسات الوحدة العربية، بيروت، الطبعة الأولى، 2005م.
11. عبد الكريم بكار، اللغة العربية والتحديات المعاصرة، دار القلم، دمشق، الطبعة الأولى، 2005م.
12. عبد الله العلايلي، مقدمة لدرس لغة العرب، دار العلم للملايين، بيروت، الطبعة الثانية، 1995م.
13. عبد الله درويش، اللغة العربية والتقنية الحديثة، دار الفكر، دمشق، الطبعة الأولى، 2001م.
14. عبد الرحمن الحاج صالح، من أجل سياسة لغوية عربية معاصرة، المجلة العربية للثقافة، تونس، العدد 57، 2002م.
15. عبد الله الخليفة أبو بكر، التعريب في الوطن العربي، المنظمة العربية للتربية والثقافة والعلوم، تونس، الطبعة الأولى، 2012م.
16. فاضل السامرائي، في التعريب والمصطلح العلمي، مجلة مجمع اللغة العربية الأردني، العدد 52، 2003م.
17. محمد عابد الجابري، العولمة والهوية الثقافية، مركز دراسات الوحدة العربية، بيروت، الطبعة الأولى، 1998م.
18. محمد عمار، اللغة والهوية في زمن العولمة، دار الشروق، القاهرة، الطبعة الأولى، 2006م.
19. محمود فهمي حجازي، اللغة العربية وتحديات العصر، الهيئة العامة لقصور الثقافة، القاهرة، الطبعة الأولى، 2010م.
20. مالك بن نبي، شروط النهضة، دار الفكر، دمشق، الطبعة الخامسة، 1987م.
21. مجمع اللغة العربية بالقاهرة، محاضر الجلسات السنوية للمجمع، المجلد 66، القاهرة، الطبعة الأولى، 2005م.
22. مجمع اللغة العربية الأردني، التقرير السنوي للتعريب، عمان، الطبعة الأولى، 2018م.
23. المنظمة العربية للتربية والثقافة والعلوم، تقرير اللغة العربية في الفضاء الرقمي، تونس، الطبعة الأولى، 2020م.

المراجع الإلكترونية:

1. موقع مجمع اللغة العربية بالقاهرة www.arabacademy.gov.eg
2. المنظمة العربية للتربية والثقافة والعلوم (الألكسو) www.alecso.org
3. مقالات أكاديمية حول التعريب والهوية الثقافية – مجلة عالم الفكر الإلكترونية.
4. قاعدة بيانات Springer Open للبحوث اللغوية www.springeropen.com :

МУСОХОН ДАХБИДИЙНИНГ ХОЖАГОН-НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИ РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ

Юлдашходжаев Хайдар Ҳашимханович

Янги аср университети кафедра мудири, доцент,

тарих фанлари номзоди

+99893-398-35-96 haydarxon69@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада нақшбандия-муҷаддидия тариқатининг йирик вакили Мусохон Даҳбидий томонидан комил инсон тушунчасининг талқин этилишидаги ўзига хос ёндашувлар ҳақида сўз боради. Даҳбидий ўз асарларида Нақшбандия таълимотидаги “комил инсон”, “комил жамият”, “ноқислик”, “камолот”, “одамнинг яратили” масалалари кенг ёритилган. Шунингдек пирлик–шайхлик мақоми мутасаввиф алоҳида эътибор қаратган жиҳатлардан бўлиб, у бу даражани “энг мукаммал мақом” дейди.

Таянч сўзлар: ҳадис, шариат, суфий, ирфон, комил инсон, комил жамият, ноқислик, “камолот”, одамнинг яратили, нафс, мушоҳада, тажаллий.

КИРИШ

Мусохон Даҳбидий асарларида инсон камолоти масаласи

Нақшбандия-муҷаддидия тариқатининг намоёндаси Мусохон Даҳбидий катта орифий илм соҳибӣ бўлганлигини фақат унинг шогирдлари ва фарзандлари тўплаган маноқиблар тасдиқлаб қолмасдан, балки ўзи ёзган илмнинг турли соҳалари, айниқса, Нақшбандия тариқатининг назарий ва амалӣ муаммоларини тадқиқ этишга бағишланган асарлари ҳам тасдиқлаб турибди.

Мусохон Даҳбидийнинг тўлиқ исми Муҳаммад Мусохонхожа ибн Муҳаммад Исохожа ибн Муҳаммад Бобохожа ибн Муҳаммад Розикхожа ибн Абд ал-Мўминхожа ибн Хожа Ҳошим ибн Муҳаммад Аминхожа (Хожайи Калон) ибн ҳазрат Маҳдуми Аъзамдир. У Маҳдуми Аъзам ал-Косоний (1461-1542)нинг еттинчи авлоди бўлиб, Самарқанддан 15 км. шимол тарафда жойлашган Даҳбид мавзесида дунёга келган. Тадқиқот жараёнида дуч келинган муаммолардан бири Даҳбидийнинг туғилган санаси билан боғлиқдир. Мазкур шахснинг ҳаёти билан шуғулланганлар орасида ҳам ушбу масала тугал ечимини топмаган. Тадқиқотчи Комилхон Каттаев, унинг тахминан 1708-1709 йилларда таваллуд топгани хусусида маълумот беради. Аммо Даҳбидий замонасига яқин даврда яшаган Мир Муҳаммад Сиддиқ унинг 80 ёшлар чамаси умр кўрганини ёзади. Демак, Мусохон Даҳбидий тахминан 1698-99 йилларда таваллуд топган, деб белгилаш мумкин.

Мусохон Дахбидийнинг ёшлиги Мовароуннахрда иқтисодий ва сиёсий таназзул жараёнлари кечаётган бир паллага тўғри келган. Шу боис дастлабки тахсилни Самарқанддаги Тиллакори мадрасасида олган Дахбидий илм истагида отаси билан Ҳисор яқинидаги Қарнак қабиласига – тоғаси Муҳаммад Ризо Қарнакий ёнига борган. Муҳаммад Ризо Ҳисордаги Кубравийя тариқатининг кўзга кўринган шайхларидан эди. Бир қанча вақтдан сўнг Мусохон Дахбидий амакисининг маслаҳати билан ҳаж зиёратига отланади. Кашмир томон йўлда Нақшбандия-Мужаддия тариқатининг шайхи – Аҳмад Сирхиндий авлодидан бўлган – Миён Обид Жаҳонободий (ваф. 1738-39) билан танишади ва унинг муриди бўлиб қолади.

Дахбидий бу устози кўлида унинг вафотига қадар тахсил олади. Устозидан сўнг унинг ишини давом эттириб, Мужаддия тариқатини қайта тиклайди.

Мусохон Дахбидий ҳазрат Муҳаммад Обид ҳузурида тасаввуфнинг сирларини ўрганиш билан бирга, ўша ерлик олимлардан тафсир, фикҳ, ҳадис, мантиқ, балоғат, сарф-наҳв каби илмларни ҳам пухта ўзлаштиради.

Мусохон Дахбидийнинг Нақшбандия-Мужаддия тариқатига кириши ҳамда унинг Ҳиндистондаги таҳсили тўғрисида Қози Абу Тоҳирхожа ўзининг “Самария” асарида шундай ёзади: “Самарқанд ва унинг атрофида бўлган бузғунчилик ва вайронагарчилик вақтида ҳазрат Мусохон Ҳиндистон мамлакатига кетиб, унда ҳазрати Миён Муҳаммад Обид соҳибига мурид бўлиб, ҳазрати Миён аجدодларининг Алфи соний тариқатини янгилади ва шариф боболарининг силсиласини давом эттирди”.

Мусохон Дахбидий Ҳазрати Эшон Хўжа Ҳошимийни ҳам ўзининг билвосита маънавий устози сифатида кўради. Бу ҳақда “Наводир ал-маориф” асарида шундай қайд этади: “Ҳазрати Эшон Хўжа Ҳошимий (қаддасаллоху руҳаху) ушбу муаллифнинг (Мусохон Дахбидийнинг – Ҳ.Ю.) ҳазратларидан биридир. Ҳасби иродатга кўра, бу фақир икки восита бирла унга етади. Насаб йўли билан эса тўрт восита билан (етади)”. Шундан сўнг асарда Хўжа Ҳошимийнинг кароматлари ва тариқат йўлидаги амаллари баёни зикр қилинади.

Шайх Муҳаммад Обид Мусохоннинг Махдуми Аъзамдек пири комилнинг авлодига мансублиги ҳамда ўта зеҳнли ва қобилятли бўлгани учун унга кўп иззат-икром кўрсатган ва тўрт тариқат: Нақшбандия, Қодирия, Сухравардия ва Чиштиёга раҳнамолик қилиш ижозатини берган. Ҳазрат Муҳаммад Обид вафот этгандан сўнг Мусохон Дахбидий 1738 йилдан эътиборан ўн саккиз йил мобайнида Ҳиндистонда туриб Хуросон, Мовароуннахр ва Шарқий Туркистонгача бўлган мусулмон ўлкаларидаги

тариқат аҳлига раҳбарлик қилган. Шундан сўнг Мусохон Даҳбидий ва унинг атрофидаги йирик халифалари Самарқандга кўчиб келадилар. Мутасаввиф Нақшбандия марказини ўзлари билан бирга Ҳиндистондан Мовароуннаҳрга қайта олиб келганлар. Албатта, унинг Самарқандга келиши ҳаммага ҳам маъқул бўлавермайди. Чунки ўша пайтларда Самарқанд ва унинг атрофида ўзини шайх деб билиб, илми ва тақвоси етарли бўлган мансабпарастлар кўпайиб кетган эди. Улар ўз ортларидан эргашиб келаётган халқнинг бошқа томонга бурилиб кетишини хоҳламас эдилар.

Мовароуннаҳр ўлкасидан илм-фаннинг турли соҳалари бўйича етук олимлар, фозил уламолар, буюк мутафаккирлар ва беназир алломалар етишиб чиққан. Улар илм-маърифатнинг юксалишига хизмат қилиш баробарида ўзлари мансуб бўлган юртнинг номини бутун дунёга таратганлар. Мақолада ҳаёти ва фаолияти таҳлил этилган Мусохон Даҳбидий ўшандай мутафаккирлардан биридир;

Мусохон Даҳбидий минтақада тасаввуф таълимотининг ривожига катта ҳисса қўшган мутафаккир, Заҳириддин Муҳаммад Бобурдек улўф давлат арбоби ва шоирга устозлик қилган Махдуми Аъзам Косоний Даҳбидийнинг авлодларидандир;

Мусохон Даҳбидий Нақшбандия-Мужаддибия сулукининг назарий ривожига катта ҳисса қўшди, асарларида тариқат таълимотини шариат мезонлари асосида қайта ишлаб чиқди, уни турли нотўғри ақида ва амалиётлардан тозалади. XVII асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб маркази Ҳиндистонга кўчган бу тариқатни Даҳбидий ўз ватани – Мовароуннаҳрга қайтариб олиб келди ва ривожлантирди.

Инсоннинг яралиши, моҳияти ва жамиятда тутган ўрни фалсафий муаммолар тизимида муҳим ўрин тутди. Турли фалсафий таълимотларда бу масалалар турлича талқин этиб келинган. Шундай бўлиши табиий ҳам эди, чунки инсон моҳиятан ижтимоий-тарихий ва маданий мавжудот сифатида ҳар бир янги тарихий шароитда ўзлигини чуқурроқ англашга, инсоний моҳиятини рўёбга чиқаришга интилаверади.

Комил инсон ғояси ҳам миллий, ҳам умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзотга хос энг юксак маънавий ва жисмоний баркамолликни мужассам этган, уни ҳамиша эзгуликка ундайдиган олийжаноб туйғудир. Бу ғоя нафақат алоҳида шахсларни, балки бутун-бутун халқларни юксак тараққиёт сари етаклаган, уларни маънавият ва маърифат бобида тенгсиз ютуқларга илҳомлантирган. Комилликни орзу қилмаган, баркамол авлодни вояга етказиш ҳақида қайғурмаган халқнинг, миллатнинг келажаги йўқ. Бундай халқ таназзулга маҳкумдир. Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “бунда, авваламбор,

инсон онги ва дунёқарашини ўзгартириш, инсоннинг эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал эгаси бўлишига урғу берилган. “Авесто” битиклари, тасаввуф илми, “фозил инсон”, “комил инсон” ҳақидаги таълимотларда ушбу масалага катта эътибор қаратилган.

Маълумки, ҳар қандай жамият алоҳида инсонлардан ташкил топади. Адолатли ва етук, комил жамиятни фақатгина комил инсонларни тарбиялаш орқали қуриш мумкин³⁰. Инсон камолоти барча қадимги битиклар ва фалсафий манбаларда асосий ғоя бўлган.

Бутун маънавият тарихи шуни кўрсатадики, цивилизatsiя дегани – бу инсоннинг ўз-ўзини англаши, ўзини камол топтириш учун олиб борган курашининг ҳосиласидир. Барча динлар, таълимотлар, тафаккур даҳолари инсон қобиляти, руҳияти ва ахлоқини ўрганиш, инсонни тарбиялаб, тўғри йўлга бошлаш, ноқисликлар ва иллатлардан халос этиш билан шуғулланиб келдилар. Қуръони каримнинг Ал-исро сурасида “Ва лақад каррамно бани одама” (Биз одам болаларини азизу мукаррам қилиб яратдик). Инсон яратилишининг мақсади Ҳақ маърифати, яъни яратилган жонзот ичида инсон Аллоҳни таниш ва билиш истеъдодига эгадир. Аллоҳ инсонни ақл-идрок ва комиллик билан шарафлантирган. Инсон руҳиятининг забардаст тадқиқотчиси Жалолиддин Румий руҳни инсон моҳияти, унинг табиатдаги бошқа жонзотдан фарқ қилувчи белгиси сифатида тушунтирган:

Тингла найдин, чун ҳикоят айлағай,

Айрилиқлардин шикоят айлағай³¹.

“Маснавий”да тилга олинган най – инсоний руҳ, орифлик мартабасига эришган комил инсондир. Байтдаги ҳикоятнинг ирфоний маъноси қуйидагича: инсон руҳи “олами малакут” (руҳлар олами)да Ҳақнинг ишқ, маърифати билан машғул ва “мустағрақ” (ғарқ) эди. “Олами носут” (жисмлар олами)га боғланиб қолганидан сўнг, жисмоний сифатлардан бўлган шахват ва ғазаб руҳга ғолиб келди. Унинг руҳоний сифатлари, яъни муҳаббат, маърифат ва истиқоматида нуқсон пайдо бўла бошлади. Руҳда ҳол-мастлик (сукр) ҳолати пайдо бўлса, комил инсон суҳбати, ишқ ва аҳли ишқ мутолааси, далил-ҳужжат ёки ишқ мастлиги орқали руҳий ҳолати, аслий сифатларини эслаганида ўз аслини йўқотгани ва нафсига мағлуб бўлганини “қол” тили (ошкора) ёки “ҳол” тили (яширин) билан изҳор этади.

Комил инсон тушунчаси биринчи марта Мухйиддин Ибн Арабий томонидан муомалага киритилганини қайд этмоқ жоиз. Ибн Арабий наздида

³⁰ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б.419.

³¹Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. – Б. 8.

“комил инсон-бу ақли аввал ёки нафси аввал, ақли кул”³² тушунчалари билан маънодошдир. Чунки Тангри таоло илоҳий нурдан илк марта Ақли аввални яратди ва унинг сурату шаклини комил инсон қиёфасида зуҳур этди.

Нақшбандия-Мужадиддия тариқатининг намоёндаси Мусоҳон Даҳбидий рисоаларини таҳлил қилганимизда, мутасаввиф инсон ва унинг камолоти масаласини ирфоний-фалсафий очиб берганлигини гувоҳи бўлдик.

Алломанинг фикрича, “Аллоҳ нуқс ва ҳудус симотидан муназзаҳ (пок) ва мубарродир. Чунки камоли тазаллул ва ҳузуъ ва инкисор (синиқлик) дан иборат бўлган ибодатга мустаҳик бўлган нарса-инсондир. Барча камолот унга (Аллоҳга) собитдир. Ва барча нуқсонлар ундан маслубдир. Вужуддаги ва вужудга тобе бўлган ҳамма нарса унга муҳтождир. Ва у ҳеч бир ишда ҳеч нарсага муҳтож эмасдир. Унга ҳеч нарса на фойда, на зарар кўрсата олмайди. Ва ҳеч нарса унинг изни (рухсати) сиз бирор ва нафъ (фойда) етказа олмайди. Аллоҳ таолодан бошқа бундай комил сифатларга эга бўлган ҳеч бир кимса йўқ ва бўла олмайди. Агар ғайр (бошқа бирор кимса) бу комил сифатларга бекаму кўст ва бенуқсон мутаҳаққиқ бўлганда эди ғайр бўлмас эди”³³.

Комил инсон ҳақида тасаввуф адабиётида кўп асарлар битилган. Ана шундай кишилардан бири ХИИИ асрда яшаган Азизиддин Насафий бўлиб, “Инсони комил” номли рисоласида комил инсонга таъриф бериб, шундай ёзади: “Билгилки, комил инсон деб шариат ва тариқат ва ҳақиқатда етук бўлган одамга айтадилар ва агар бу иборани тушунмасанг, бошқа ибора билан айтайин: билгилки, комил инсон шундай инсондирким, унда қуйидаги тўрт нарса камолатга етган бўлсин: яхши сўз, яхши феъл, яхши ахлоқ ва маориф”³⁴.

Мусоҳон Даҳбидий фикрича, олами кабир ажзо (қисм)ларининг энг ашрафи (шарафлироғи) арши мажиддир. Унга хос бўлган тажаллий бошқа ажзолар тажаллиётидан устундир. Чунки у тажаллий жомедир. Ва у мустажмаъи само ва сифоти вужудийдир. Ва(яна) у доимий тажаллийдир. Комил инсон қалбининг аршга муносабати бор. Уни аршуллоҳ дейдилар. Ўша арший тажаллийдан кўп насибадор бўлади. Ул тажаллий куллийидир. Ва бу тажаллийнинг ўша тажаллийга нисбати бор. Аршда эса йўқ. Ва у шутажаллийга шуурдир. Ва яна қалб мазҳардир ва зоҳирига гирифторлиги бор. Арш эса ўша гирифторликдан холидир. Бас, қалбга шуур(онг) воситасида ва гирифторлик воситасида тараққий мақсуди мумкин ва бор нарсадир. Зероки “алмаръу маа ман аҳабба” ҳукмига кўра, қалб киши биландир ва унга боғлиқлиги бор, унинг муҳаббатининг мафтунидир. Агар муҳиб асмо(исмлар)

³²Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. -Т.: Ёзувчи, 1996. – 145 б.

³³ Мусоҳон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақа’иқ. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 46Б.

³⁴ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Т.: Ёзувчи, 1996. 147-бет.

ва сифатлар бўлса, у (қалб) ўша асмо ва сифатлар биландир. Агар муҳиб зоти таоло ва тақаддас бўлса, дил у билан биргадир³⁵.

Адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев. Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O`zbekiston, 2021. – Б. 236.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. . –Б. 43.
3. Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Тошкент: Фан, 2021. – Б. 41.
4. Maulana Fahr ad-din 'Ali b. Husayn Va'iz Kashifi. Rashahat 'ayn al-hayyat / Noshir 'Ali Muiniyat, jild-i avval. – Tehron, 1975. – S. 32–33, 59–61.
5. Хисматуллин А.А. Суфийская ритуальная практика (на примере братства Накшбандия). – Санкт-Петербург.: Петербургское Востоковедение, 1996. – С. 44.
6. Paul Ju. Doctrine and Organization. The Khwajagan/Naqshbandiya in the first generation after Baha'ad-din. Anor-1. – Halle-Berlin, 1998. – P. 20-26.
7. Каттаев К. Махдуми Аъзам ва Дахбед. - Самарқанд: Сўғдиёна, 1994. – Б.24.
8. Мир Мухаммад Сиддиқ. Таржима-йи холи Мусохон. – Тошкент: ФА ШИ, Қўлёзма, инв. № 2663/І.
9. Жумақули Хумулий. Тарих-и Хумулий. – Тошкент: ФА ШИ. Қўлёзма, инв. № 37/VI.
10. MULLA JUM'A-QULĪ KHUMŪLĪ, TĀRĪKH-I KHUMŪLĪ. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhojayev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2013. Text: 243 pages. Introduction (in English and in Uzbek): 42 pages.

АБУ БАКР КАЛАБОДИЙНИНГ “ТАЪАРРУФ” АСАРИДА АҚИДА ВА ТАСАВВУФ МУНОСАБАТИ

*Ўзбекистон халқаро исломишунослик академияси
Исломишунослик ва ислом цивилизациясини
ўрганиш ICESCO кафедраси доценти, PhD
Нилуфар Туйчиева
nilufartuychieva79@gmail.com
+998940130022*

Аннотация. Ушбу мақолада Мовароуннахр тасаввуфий мактабининг йирик намояндаларидан бири – Абу Бакр Калабодий ва унинг “Таъарруф ли мазҳаби аҳли тасаввуф” асарида ифода этилган ақидавий ва тасаввуфий қарашлар

³⁵ Мусохон Дахбидий. Зубдат ал-ҳақā’ик. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 51Б.

таҳлил қилинган. Муаллиф асарда ақида ва тасаввуф муносабатини аҳли сунна вал жамоа таълимоти асосида изоҳлаб, соф ва саҳиҳ тасаввуфни Қуръон ва суннат доирасида шакллантиришга интилади. Калабодийнинг ақидавий ёндашуви, унинг муътазила, шиа ва бошқа оқимларга муносабати ҳамда сунний тасаввуфни ҳимоя қилишда тутган илмий усули ёритилган. Шунингдек, мақолада “Таъарруф” асарининг илк тасаввуф назариясидаги ўрни ва кейинги суфийлар – хусусан Қушайрийнинг эътиқодий қарашларига таъсири кўрсатиб берилган. Тадқиқот натижасида Абу Бакр Калабодийнинг тасаввуфни аҳли сунна ақидаси билан уйғун ҳолда баён этганлиги ва “саҳиҳ тасаввуф” тушунчасига асос солганлиги илмий асосда очиб берилди.

Калит сўзлар: Абу Бакр Калабодий, “Таъарруф”, ақида, тасаввуф, аҳли сунна вал жамоа, саҳиҳ тасаввуф, суннийлик, муътазила, Қушайрий, илк назарий тасаввуф.

Мовароуннаҳрда тасаввуф назариясини яратишга хизмат қилган ва тасаввуф ҳақида аниқ ва ишончли мабалаларга таянган ҳолда қимматли асар қолдириб кетган мутасаввиф Абу Бакр Калабодий 385/995 йилларда вафот этгани тахмин қилинади. Ҳаёти ҳақида манбаларда жуда кам маълумот берилган бўлиб, тўлиқ исми Абу Бакр Муҳаммад бин Исҳоқ бин Яқуб ал-Бухорий ал-Калабодий. Абу Бакр Калабодий Бухоронинг Гулобод маҳалласида таваллуд топган. Калабодийга суфий, шайх, ориф, муҳаддис, ҳофиз, факих, қутби замон, тожул ислом каби турли унвонлар берилган. У асосан фикҳ, ҳадис, калом ва тасаввуф илмлари билан шуғулланган. Эътиборли жиҳати шундаки, у ўзи шуғулланган барча соҳаларда юксак чўққига эриша олган, соҳасининг етук вакили эди. Зеро асл мутасаввифлар тасаввуф билан бирга албатта бошқа ислом билимларини чуқур эгаллаганлиги билан ажралиб турган.

Калабодий ўша вақтда илм маркази бўлган она шаҳри Бухорода дастлабки таълимини олиш билан бирга юртдан ташқари илм марказларига ҳам сафарлар қилган. Олим нафақат яшаган даврининг диний ва тасаввуфий ҳаётига таъсир ўтказди, балки ўзидан кейинги суфийларга тўғри эътиқод, амалий ва ахлоқий жиҳатдан саҳиҳ бир тасаввуф анъанаси нима эканини танитишга хизмат қилди. Соғлом тасаввуф анъаналарини бугунги кунгача етиб келишида қўшган ҳиссасига муносиб тарзда тарихда ўчмас из қолдира олди. Биламизки, илк назариётчилар айни вақтда тасаввуфий атамаларнинг таъсис этувчилари ҳамдир. Шу жиҳатдан олим ўзидан аввалги Муҳосибий каби мутасаввифларнинг китобида учраган айрим терминларни янада аниқроқ ва батафсилроқ очиқлаб бергани билан ҳам ажралиб туради [1:13 б].

Калабодий ислом ҳудудлари кенгайган, сиёсий ва фикрий тортушувлар авж олган бир даврда яшаган. Бу ҳолатлар унинг асарларида ҳам ўз аксини топди [2: 7 б]. Бундан ташқари Абу Бакр Шиблий (ваф. 334/945), Абу Наср Саррож (ваф. 378/988), Абу Толиб Маккий (386/996) каби машҳур тасаввуф назариётчилари билан замондош эканлиги ҳам эътиборга моликдир. Бу назариётчилар билан замондош бўлиш Калабодийга тасаввуф илмининг ривожланиш жараёнини кузатиш имконини берди.

Ҳанафий мазҳабига амал қилган Калободий рай усулидан кенг фойдаланган, мантиқнинг барча нозик жиҳатларига риоя қилган ҳанафий фикҳ олимларининг методларидан фойдалангани сабабли нас ва ақлга таянган бир тасаввуфий қарашни илгари сурди. Бу жиҳати билан Калабодий сунний тасаввуф пешқадамларидан деб қабул қилинган [3:19 б].

Тасаввуфнинг илк назарий асари ҳисобланмиш Абу Наср Саррожнинг “Лумаъ” асарида фикҳ ва тасаввуф муносабатига кўпроқ аҳамият қаратилган бўлса, Калободийнинг “Таъарруф ли мазҳаби аҳли тасаввуф” китобида ақида ва тасаввуф алоқадорлиги ёритилган. Калабодийнинг китобида мавзу ёки исроилиёт ҳадислар учрамаслигининг сабаби унинг муҳаддис бўлганлиги ва бу соҳани яхши билганлиги билан боғлиқ. Унинг тасаввуф тушунчаси Қуръон ва ҳадис билан чегараланган бўлиб, мўътадил ўрталикни топишга уринган.

Одатда тасаввуфнинг илк назарий манбаларида эътиқодий масалалар қисқа бир шаклда битта мавзу остида баён қилиниши анъана тусини олган эди. Кейинчалик тасаввуфга отилган айрим тухмат тошлари натижасида тасаввуф аҳлининг эътиқоди билан боғлиқ батафсил асарга эҳтиёж сезила бошланди. Ана шу бўшлиққа ва тортишувга чек қўйиш мақсадида Калабодий мазкур асарини яратди. Натижада унинг ақидавий қарашлари ўзидан кейинги суфийлар учун асос вазифасини ўтади.

Қушайрий “Суфий шайхларнинг ақидалари усул ва ақоид масалаларида ҳақ аҳли саналган суннийларнинг қарашларига мувофиқдир” дея таъкидлаган [4:4 б.]. Бу фикрни эса Қушайрийга таъсир ўтказган Калабодийнинг “Таъарруф” асарида ҳам кўришимиз мумкин. Бу эътиборга молик фикр суфийларни ақидаси аҳли суннадан айри эканини таъкидловчилар ва динсизликда айбловчиларга қарши бир муҳаддис, фақиҳ ва суфий назариётчи томонидан келтирилган ҳужжат сифатида муҳим саналади. “Таъарруф”дан аввал биронта суфий адабиётида ақида мавзусига бу қадар батафсил тўхталинмаган. Китобнинг деярли ярими ақида ва қисман фикҳий масалаларга бағишлангани ҳам бежиз эмас. Бу ҳолат муаллифнинг мақсади тасаввуфни ислом билимлари доирасидан эканини яна бир бор исботлаш ва унинг ақидаси софлигини кўрсатиб беришга қаратилганини кўрсатади.

Калабодий ақида масаласини ёритиш услубида танқидларга учрамаган ва муболағадан қочувчи бир муаллиф сифатида эътироф этилади. Аҳли сунна ақидасини ва бу ақидага таянган тасаввуф тушунчасини муҳолифлардан ҳимоя қилишни мақсад қилган Таърруф асарида суннийлик доирасидан ташқари бўлган мазҳабларни исмларини очиқ тилга олмаган. Адашган фирқаларни номларини ва ақидаларини танқид қилиш ўрнига, аҳли суннанинг тўғри қарашларини чуқур таҳлил қилишга кўпроқ эътибор қаратган. Муътазилийлар томонидан илгари сурилган ваъд, вайъд, истатоат, руъятуллоҳ ва ҳолқу Куръон масалаларини суфийларга ҳос босиқлик услубида аҳли сунна эътиқоди доирасида муҳокама қилган. Уларга қарши кескин муносабат ўрнига далиллар билан жавоб беришга уринган. Бошқа бидъат гуруҳларга ҳам худди шундай муносабат кўрсатган. Масалан 18 ва 19 қисмларда маҳси устига масҳ тортиш ва халифалик масалаларидан сўз кетганда шиалар номини танқид қилмасдан аҳли сунна қарашларини маърифий йўл билан келтирган [5:21 б.]. Бу қарашлари билан Калабодий тутган йўл мужодала эмас балки маърифий шаклда бўлганини кўриш мумкин. Муътазилий, шиа ва карромий кабиларнинг номларини келтирмаса-да, уларга ҳос масалаларни зикр қиларкан аҳли сунна қарашини ҳимоя қилгани кўзга ташланади.

Унинг ақидавий қарашлари худди “Фикҳул акбар” ва Насафий ақидаси маълумотларига ўхшашдир. Бу орқали Калабодий аҳли сунна мазҳабида эканини ва уларнинг ақидасини ҳимоя қилишини очиқ намоиш қилган[6:192].

Калабодий суфийларнинг эътиқоди сунний каломга тобедур жумласи билан “саҳиҳ тасаввуф” атамасига асос солди. Сабаби Калабодий наздида аҳли сунна ақидаси ва фикҳига мувофиқ бўлган тасаввуф саҳиҳдир. У тасаввуфни Пайғамбар (с.а.в.) даврларидагидек ҳолатда, бидъат хурофотдан озод бир фан сифатида кўради. Унинг “Таъарруф” асаридан сўнг суфийликдан гапиришга ҳақли бўлмаганлар турли уйдирма ёки тухматларни қилмасликлари таъминланди.

Абу Бакр Калабодий классик тасаввуф даврининг муҳим шахсларидан бўлиб, тасаввуф илми системасининг асосчиси ҳамдир. Калабодий тасаввуфни оддий зуҳд ҳаракатидан тизимлашган ҳолга келишида муҳим ўрин эгаллаган. Мутасаввиф тасаввуфнинг асосий атамаларини шакллантиришга ҳам хизмат қилган. “Таъарруф ли мазҳаби аҳли тасаввуф” асари тасаввуф вакиллари ва ақида уламолари муносабатини иликлашишига ва ижобийлашувига таъсир қилган. Натижада олим саҳиҳ тасаввуф ҳар доим аҳли сунна фикҳи ва ақидасига мувофиқ эканини асослаб берди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Vahit GÖKTAŞ. KELABAZÎ VE TASAVVUFÎ GÖRÜŞLERİ. EKEV AKADEMİ DERGİSİ Yıl: 12 Sayı: 36. 2008. – S. 90.
2. Mücahit Akbal-Hasan Kamil Yılmaz. Sûfilerin İtikâdî Konulara Yaklaşımı: Kelâbâzî ve Sühreverdî Örneği. – İstanbul. 2023. Tasavvuf İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi. 26/51. – S. 7
3. Hazırlayan. Süleyman Uludağ. Doğuş devrinde Tasavvuf. Ta’arruf Kelâbâzî. Dergâh Yayınları, İstanbul. 2021. –S.19.
4. Абдулкарим Қушайри. Рисолаи қушайрия. – Қоҳира: – Б. 4.
5. Hazırlayan. Süleyman Uludağ. Doğuş devrinde Tasavvuf. Ta’arruf Kelâbâzî. Dergâh Yayınları, İstanbul. 2021. –S.21.
6. TDV İslâm Ansiklopedisi. KELÂBÂZÎ, Muhammed bin İbrâhim. – Ankara: 25 c. – S. 192-193.

МУСОХОН ДАҲБИДИЙНИНГ ТАСАВВУФ РИВОЖИДА TUTGAN ЎРНИ

*Юлдашходжаев Ҳайдар Ҳашимханович
Янги аср университети кафедра мудири,
доцент, тарих фанлари номзоди
+99893-398-35-96 haydarxon69@mail.ru*

Аннотация. Ушбу мақола мутасаввиф фикр ва қарашларида инсоннинг олий мақоми, қалб ва руҳий камолоти, шунингдек, инсон ва Аллоҳ ўртасидаги муҳаббат муносабатларини таҳлил қилади. Мақолада Мусохон Даҳбидий таълимотига мувофиқ, инсон борлиқнинг маркази сифатида кўрилади, қалб эса Ҳаққа етиш йўлида тоза ва пок бўлиши лозимлиги таъкидланади. Шунингдек, мақолада комил инсон сифатида Пайғамбар Муҳаммад (С.А.В.) ва бошқа пайғамбарлар мисолида маҳбубият, муҳаббият ва руҳи камолат тушунчалари ёритилган. Инсоннинг вужудий, руҳий ва қалбий жиҳатлари орасидаги уйғунлик, ирфонийнинг тафаккурий таҳлили орқали очиб берилган. Мазкур мақола ирфоний ёндашувда инсоннинг моҳияти, яратилиш мақсади ва камолот йўлини тушунтиришга қаратилган.

Калит сўзлар: Мутасаввиflik, инсоннинг олий мақоми, комил инсон, қалб ва руҳий камолот, маҳбубият, муҳаббият, ирфоний тафаккур, пайғамбар Муҳаммад (С.А.В.), вужуд ва руҳ уйғунлиги, Аллоҳ билан муносабат

Мутасаввиф фикру қарашларида инсон юксак мақомни эгаллайди. Унинг таъбирича, одам борлиқ мевасидир. Вужуд силсиласининг мартабалари унинг хизматида. Олам яратилиши, барча улуғлик ва азаматлиги билан бир инсондек ҳисобланади. Одам ёлғиз ҳолда барча оламларнинг жамловчисидир.

Қалб доирасининг марказий нуқтаси эса Ҳақдир. Қалбларнинг исми Аъзамга етишувидан туғилган бу нидо ва фиғонлар ихтиёр ва иродасидан озод бўлсагина пок ва холис бўлади. Агар у ихтиёр ва иродадан ажрала олмаса, бу нидолар ихлос саройига асло кира олмаслар.

Мусохон Даҳбидий комил инсон деб Муҳаммад (С.А.В) ни билади. “Билмоқ керакки, ҳазрати пайғамбаримиз (С.А.В.) икки исм билан исмлангандирлар. Ул зотнинг иккала муборак исмлари Қуръони мажидда яширилгандир. Биринчи исмлари Муҳаммаду-р-расулуллоҳдир. Ва яна рухуллоҳ башорат қилиб айтган ҳикояларида исмуҳу Аҳмад. Ҳар иккала исмнинг валояти алоҳидадир. Валояти Муҳаммадий гарчи унинг маҳбубийят - мақомидан келиб чиққан бўлсада аммо маҳбубийяти сирф (пок маҳбубийят) бўлиб, муҳаббатдан бир белги бордир. Ва валояти Аҳмадий маҳбубийяти сирфдан келиб чиққандирки муҳаббат шоибаси йўқдир. Бу валоят олдинги валоятдан пешқадамдир. Ва бир марҳала (масофа) матлубга яқинроқдир. Ва муҳибга марғуброқдир. Маҳбуб гарчи (ҳар қанча) маҳбубийятда етук бўлса ҳам, унинг истиғно ва бениёзлиги (муҳтож эмаслиги) комилроқ (етукроқ) бўлади. Ва муҳаббат назарида зебороқ (гўзалроқ) ва раънороқ кўринади. Муҳибни кўпроқ мутажаззиб қилади.

Байт:

На танҳо офатам зебои у-аст,

Балои ман зи нопарвои у-аст³⁶.

Мазмуни: Менинг офатим фақат унинг гўзаллиги эмас, Менинг балойим унинг бепарволигидандир.

Маҳдуми Аъзам таълимотича, қачонки инсон айтиб ўтилган йўллар орқали кўнгил кўзгусини ҳар қандай зангу ғуборлардан покиза қилсагина, ўша замон ҳақиқий маҳбуб жамол ва жалол сифатида кўнгилнинг кўзгусида тажаллий (намоён бўлиши) қилади:

Раб (Ҳақ) нинг зоти тажаллий қилар бўлса,

Қасам бердим сенга ғофил қолмагил.

Ҳар бир нафасинг билгил бир гавҳардур,

Ҳар бир зарранг Ҳақ йўлига раҳбардур.³⁷

Мусохон Даҳбидий комил инсондаги маҳбубийят, муҳиббийят ва муҳаббат масаласига алоҳида эътибор беради. “Маҳбубийяти зотийя камолотининг зуҳури хотаму-н-набиййин (С.А.В) га мусалламдир. Маҳбубийят томонида икки камол бордир: феълий ва инфиюлий. Феъл аслдир

³⁶ Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақа’ик. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 79А.

³⁷ Маҳдуми Аъзам Даҳбидий. Рисола - йэ вужудия. –25 в.

ва инфиол унга тобе. Лекин инфиол ғойибий иллатдир. Гарчи вужудда мутааххир бўлса-да, аммо тасаввурда мутақаддим. Муҳаббатийя камолоти зуҳури ҳазрати Калимуллоҳга (Мусо а.с) насиб бўлгандир. Нафси муҳаббат абу-л-башар ҳазрати Одам (ало набиййиyo ва алайҳи-с-салот васалом) га аввало ўша жойда машҳуд бўлди (кўринди) ва кейинчалик ҳазрати Иброҳимга ҳам ўша ерда машҳуд бўлди. Учинчи марта ҳазрати Нух ҳам ўша эътиборда назарга кирди. Вал – амру илаллоҳ субхонаҳу ҳазрати зоти таъоло ва тақаддис, чунончи, ўзини дўст тутади. Ўзининг асмoий, сифотий ва афъомий камолотини ҳам дўст тутади. Ҳазрати зоти таоло ва тақаддиснинг ўз асмо ва сифотига бўлган бу муҳаббатининг зуҳури ҳазрати Халилда батамом бордир. Асмoий ва сифотий ва афъолий маҳбубийят зуҳури бошқа пайғамбарларда ҳам муҳаққикдир. Буларнинг муҳаббати зуҳурига ўхшаш, вужуд, асмо, сифот ва афъолнинг соялари бордир. Ўша зилол маҳбубиятининг зуҳури уларнинг усуллари воситасида авлиёи мардон ва маҳбубларнинг насибидир. Авлиёи муридин ва муҳибинларга муҳаббат шаклида насиб бўлган ўша зилол муҳаббати зотия мақомидан юқори бўлган «хубб мақомидирки, уларнинг ижмоли ва ризо мақоми мақоми муҳаббат ва хубб» дан устундир. Ризо мартабаси муҳаббат мартабасидан юқоридир. Чунки муҳаббатда вужуд нисбатдир. Ризо мақомида ҳазрати зотга муносиб бўлган ҳадафи нисбат бордир ³⁸.

Маҳбуб (Аллоҳ - Ҳ.Ю.) севгисининг алангаси ошиқ қалбида туташиганидан кейин, унинг қалбидаги ҳақиқий маҳбуб васли йўлида тўсқинлик қилиб турган барча ҳижобларни ёндириб ташлайди.

Мусохон Даҳбидий инсон тушунчасини ирфоний таҳлил қилиб қуйидаги фикрни келтиради: “одамзод жомеа бир нусхадирки, у ажзои ашарадан, аносири арбаадан, нафси номиқа, қалб, рух, сир, хафий, ихфодан таркиб топгандир. Инсонга мавжуд бўлган қувват ва бошқа жавоҳирлар тупроққа қайтгувчидир. Бу ажзолар (кўриниб турган) дир. Шунингдек халқ оламининг амр оламига бўлган зиддияти ҳувайдо (мавжуд)дир. Амр оламининг ҳар бири бир амрга махсусдир. Нафси номига эга ўз ҳаво (ҳавас) сига эга бўлган худҳоҳлардир. Улар бир – бирига бўйсунмайди. Худобанди жалла султoнаҳуни инояти бу ашёи мутазодани ўз комил қудрати билан ҳар бирининг суратини бўлак-бўлак жамлаб унга хос мажоз ва ваҳдоний ҳайъат ато этгандир. Хос мазоже ва ваҳдоний ҳайъатдан сўнг ўз етук ҳикмати билан унга сурат бергандир. Токи ажзoи мутафарикқа ҳифзи унинг мутазодасини кўрсатсин. Бу мажмуани инсон деб атаб, жомеият ва ваҳдоний ҳайъат ҳусули эътибори

³⁸ Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақā’ик. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 81А.

билан халофат истеъдоди шарафига мушарраф қилган. Бундай давлат инсондан бошқа ҳеч бир нарсага муяссар бўлмагандир. Олами қодир (буюк олам) гарчи бузрук бўлса-да жомеиятдан холидир ва ваҳдоний ҳайъатдан бенасибдир. Бу ҳол барча инсоний афродга собитдир. Инсоннинг хавоси (хослари) ва авоми (олийлари) бу маънида шерикдирлар»³⁹.

Мутасаввиф аввало инсон ким? Нега яралган? Уни яратишдан мурод нима? каби масалаларни ёритиб, кейин тана ва руҳ алоқадорлиги, унинг камолоти масаласига тўхталган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев. Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O'zbekiston, 2021. – Б. 236.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. . –Б. 43.
3. Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси.– Тошкент: Фан, 2021. – Б. 41.
4. Maulana Fahr ad-din 'Ali b. Husayn Va'iz Kashifi. Rashahat 'ayn al-hayyat / Noshir 'Ali Muiniyat, jild-i avval. – Tehron, 1975. – S. 32–33, 59–61.
5. Хисматуллин А.А. Суфийская ритуальная практика (на примере братства Накшбандия). – Санкт-Петербург.: Петербургское Востоковедение, 1996. – С. 44.
6. Paul Ju. Doctrine and Organization. The Khwajagan/Naqshbandiya in the first generation after Baha'ad-din. Anor-1. – Halle-Berlin, 1998. – P. 20-26.
7. Каттаев К. Махдуми Аъзам ва Дахбед. - Самарқанд:Сўғдиёна, 1994. – Б.24.
8. Мир Мухаммад Сиддик. Таржима-йи ҳоли Мусохон. – Тошкент: ФА ШИ, Қўлёзма, инв. № 2663/І.
9. Жумақули Хумулий. Тарих-и Хумулий. – Тошкент: ФА ШИ. Қўлёзма, инв. № 37/VI.
10. MULLA JUM'A-QULĪ KHUMŪLĪ, TĀRĪKH-I KHUMŪLĪ. Edited by Ghulom Karimiy and Iroda Qayumova. Editor-in-chief: Haydar Yuldashkhojayev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2013. Text: 243 pages. Introduction (in English and in Uzbek): 42 pages.

³⁹ Мусохон Дахбидий. Зубдат ал-ҳақā'ик. – Т.: ФА ШИ. Қўлёзма, инв № 6576/І. – В. 51А.

MALAYZIYADA SO’FIYLIK TARIQATLARINING JAMIYAT VA DAVLAT HAYOTIGA TA’SIRIDA SO’FIYLIK MARKAZLARINING O’RNI.

Avliyoqulov Uchqun

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Mir Arab oliy madrasasi prorektor.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Malayziyada so’fiylik tariqatlarining tarixi, faoliyati va ularning bugungi kunda Malayziya jamiyati va davlat hayotida tutgan o’rni, so’fiylik tariqatlari markazlari faoliyati haqida tahlil va xulasalar keltirilgan.

Kalit so’zlar. So’fiylik, tariqat, tasavvuf, so’fiylik markazlari, populistik so’fiylik, falsafiy so’fiylik, sxolastik so’fiylik

So'fiylik tariqatlari faoliyati, kundalik amllari va hoyot tarzlar Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi xalqlari islomiy merosining ajralmas qismiga aylanibgina qolmay, hozirda siyosiy darajada jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim institut sifatida ahamiyatini ortishi ham yuz bermoqda.

Yaxshi bilamizki, o'zini poklash va ma'naviy poklanish so'fiylikning asosi bo'lgan. Shuning uchun u islomiy jamiyatlarga, ayniqsa, Janubi-sharqiy Osiyoning yirik musulmon jamoasiga ega mamlakati – Malayziya jamiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu jamiyatga so'fiylikning ayrim amaliyotlari, masalan, iltijolar, zikrlar va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan boshqa islomiy marosimlari ta'sir ko'rsatdi. Ushbu amaliyotlar uzoq tarixiy davr mobaynida Malayziya jamiyatining nafaqat musulmonlariga, balki, musulmonlar orasida yashovchi musulmon bo'lmaganlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatib keldi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan so'fiy tariqat vakillari va so'fiylik markazlari faoliyati sabab, bugungi kunda ko'p millatli Malayziyada ularning “yumshoq kuch (soft power)” instrumenti sifatida namoyon bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur yo'nalish radikal diniy g'oyalar va haraklatlar keng tarqalgan bugungi kunda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili sifatida Malayziyada ko'rilmogda.

Ushbu maqolada Malayziya jamiyatiga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy so'fiylik jamoalari va markazlari umumiy faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Islomshunos olim Xayruddin Aljunaydning fikricha, so'fiylar Janubi-Sharqiy Osiyoda Islomni yoyish uchun innovatsion usullardan foydalanganlar va asosan musulmon bo'lmagan, madaniy jihatdan boy aholini o'ziga jalb qilganlar. XI asrdan boshlab mintaqada so'fiylikning uchta asosiy tarmog'i faoliyat yuritgan, ularning har biri turli malay auditoriyalariga yoqqan:

1. Populistik so'fiylik: bu yo'nalish so'fiylar mahalliy e'tiqod va amaliyotlarni moslashtirib, ularni islomiy marosimlar va hikoyalar bilan uyg'unlashtirgan.

So'fiylar xalq orasida mo'jizalar ko'rsatgan, shifo usullaridan foydalangan. Islomni mavjud shamanistik amaliyotlarning davomi sifatida ko'rsatgan. Ular shuningdek, islom qadriyatlarini nozik tarzda joriy etish uchun wayang kulit (soya orqali qo'g'irchoq o'ynatish), zikr barat (she'r yordamida lirik bahs qilish) va gamelan [1] musiqasi kabi san'atlardan foydalanganlar.

2. Falsafiy so'fiylik: tasavvuf nomi bilan tanilgan bu yo'nalish chuqur ma'naviy tadqiqotlarga e'tibor qaratgan va Vahdatul Vujud (Vujud birligi) va Nur Muhammad (Muhammad nuri) kabi tushunchalarni targ'ib qilgan. Hamza Fansuriy kabi taniqli shaxslar islom ta'limotlarini yetkazish uchun she'riy til va metaforalardan foydalanganlar, murakkab g'oyalarni tushunarli va jozibali qilganlar.

3. Sxolastik so'fiylik: bu Arab dunyosi, Fors va Hindistondan kelgan so'fiy olimlarni o'z ichiga olgan. Bu olimlar yangi dinni qabul qilganlarga Islom asoslarini o'rgatishgan hamda maktablar va diniy muassasalar tashkil etishgan. Ular ratsional fikrlash va intellektualizmga e'tibor qaratishgan, bu esa shariat qonunlariga ko'proq asoslangan Islomdan foydalanishga sabab bo'lgan. Ular ko'pincha turli diniy an'analarni aralashtirib yuborgan amaliyotlarni tanqid qilishgan. Nuruddin Al-Raniri va Abdul Rauf al-Sinkili kabi mashhur shaxslar Islom amaliyotlarini isloh qilish va yangilashda muhim rol o'ynaganlar[2, 42-48 b.].

Tarixiy ma'lumotlar Malay arxipelagida so'fiylikning Qodiriylik, Naqshbandiylik, Rifoiylik, Shoziliylik, Chistiylik, Shattariylik, Tijoniylik va Alaviylik kabi birqancha mashhur tariqatlari aholi orasida tarqalganini va o'z davri jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazib kelganini ko'rsatadi[3, 32 b.].

Janubi-Sharqiy Osiyoning yirik musulmon davlatlaridan sanalgan Malayziyada turli so'fiy jamoalar faoliyat yuritgan bo'lib, ularga o'z davrining yirik tariqat vakillari rahbarlik qilishgan. Shuni aytish lozimki, Malayziyadagi so'fiylik tariqatlarining tarqalishiga hind so'fiy vakillari, ayniqsa Qodiriya va Naqshbandiya tariqatlaridan bo'lganlar katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Shu sababli ham ushbu tariqatlar vakillari hozirgi malay jamiyatida kata sonni tashkil qiladi. Zamonaviy Malayziyadagi tasavvuf tariqatlari rivojlanishidagi o'ziga xoslik shundaki, mavjud tariqatlar markaziy yetakchisiz ham, ko'plab mahalliy shayxlarning xarizmatik yetakchiligi va ma'naviy ta'limotlari evaziga mashhur bo'lgan. Aynan ushbu mahalliy yetakchilar so'fiylik amaliyotlarini yoyishda va izdoshlar tarmog'ini yaratishda muhim rol o'ynaganlar. Shunday so'fiylik yetakchilaridan biri Johorlik Hoji Fozil (Fadhil) (1951-yilda vafot etgan) bo'lib, u Qodiriya va Naqshbandiya tariqatlariga rahbarlik qilgan va o'z davrida to'rt mingga yaqin izdoshiga ega bo'lgan. Yana shunday yetakchilardan biri Johorning[4] sobiq Bosh Qozisi va Naqshbandiya tariqati yetakchisi Hoji Muhammad Shoh bo'lib, uning o'n to'rt mingga yaqin izdoshi bo'lgan. Ikkala yetakchi ham Makkada Shayx Ahmad Xatib as-Sambasi qo'l ostida

tahsil olgan, bu ularning Malayziya jamiyatidagi obro'si va ta'sirini mustahkamlagan. Har bir shayxning qancha izdoshi borligi haqida biror manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Biroq, tarixan Qodiriya, Naqshbandiya va Ahmadiya tariqatlari Malayziyada juda mashhur bo'lganligi aniq. Boshqa tariqat yo'nalishlariga qaraganda Qodiriya va Naqshbandiya tariqatlari mintaqada, ayniqsa, Malayziya xalqi orasida keng tarqalgan va chuqur ildiz otgan. Xulosa qilib aytganda, Malayziyada so'fiylik tariqatlarining tarixan mavjudligi va rivojlanishi mahalliy shayxlarning ta'limoti va harakatlari natijasida saqlanib kelingan. Bu omillarning barchasi mintaqadagi Islomning boy ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan[3, 31-33 b.].

Malayziyalik islomshunos olim Muhammad Fahmi Abdul Hamidning so'zlariga ko'ra, tarixan Negeri Sembilan shtati Malayziyadagi mahalliy voizlar tomonidan targ'ib qilingan tasavvuf ta'limotini chinakamiga qabul qilgan birinchi shtatlardan biri bo'lgan. XX asrning boshlarida Naqshbandiylik tariqatining amaliy jihatlari ushbu hududta birinchi bo'lib keng joriy etilgan. Dastlab, Negeri Sembilanda so'fiylikni tartibga soluvchi rasmiy tashkilot bo'lmagan. Tasavvuf tariqatining ma'lum masalada ruxsati va amaliyotlari haqidagi mavjud yozuvlar doimiy ravishda yangilanmagani yoki saqlanmagani bois, uning asosiy tamoyillariga zid ravishda noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatish va shu bilan odamlarda so'fiylik g'oyalariga nisbatan chalkashliklar kelib chiqishiga sabab bo'lgan[5, 79 b.].

Malayziya sultonlik va shtatlardan tashkil topgan davlat bo'lgani sabab, 1987-yilda diniy idoralar tasavvuf tariqatlari tomonidan amaliy marosimlarini o'tkazishlariga taqiq qo'yilgan. Shunga qaramay, Negeri Sembilan muftiylik boshqarmasi (NSMD) uni himoya qilib chiqqan. Bu esa birinchi bo'lib tasavvuf tariqatlarining amaliyotlarini Islom qonunlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha siyosat va ko'rsatmalarni belgilovchi 2005-yilgi Negeri Sembilan Tasavvuf Tariqati Qonuni (ETTNS)ni qabul qilinishiga olib keldi. Ushbu qonunning ijrosi sifatida, mamlakat fatvo qo'mitasiga tasavvuf tariqatlari masalalarida yordam berish uchun kichik qo'mita tashkil etildi. 2007-yilda Negeri Sembilan muftiylik boshqarmasi qoshida Tasavvuf Tariqati Bo'linmasi (DTT)ning tashkil etilishi, hukumatning Negeri Sembilandagi tasavvuf tariqati faoliyatini boshqarish va nazorat qilish masalalariga ham e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Tasavvuf Tariqati Bo'linmasi barcha tasavvuf tariqatlari amaliyotlarini Negeri Sembilan Tasavvuf Tariqati Qonuni ko'rsatmalariga hamda ularning Qur'on va Sunnatga muvofiqligini ta'minlashga mas'ul sanaladi[5, 79 b.]. 2018-yil holatiga ko'ra, Negeri Sembilanda 13 ta tasavvuf tariqati yo'nalishlari ro'yxatdan o'tgan va tan olingan[6, 1-10 b.]. Ular orasida eng ko'p ergashuvchilariga egalari 5 ta bo'lib ular: Ahmadiylik-Idrisiylik tariqati,

Naqshbandiylik tariqati, Qodiriylik-Naqshbandiylik tariqati, Shoziliylik tariqati va Dusuqiylik tariqatlaridir.

Malayziyada so'ngi yillarda ortodoksal islom ilmlariga keng targ'ibot qilinayotgan bir davrda, so'fiylik tariqatlarining faoliyatida siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga ham e'tibor qaratilayotganini ko'rish mumkin. Mutaxassislar bu holatni so'fiylikning bugungi global o'zgarishlar fonida zamonaviylikka moslashishi sifatida baholashmoqda. Bu so'fiylikning klassik Islom bilan birgalikda, zamonaviy jamiyatga ham moslashayotganini anglatadi[7, 269 b.]. Malayziyada ko'plab so'fiylik tariqatlari markazlari o'zlarining iqtisodiy salohiyatiga ham ega bo'lib ulgurishgan. Ular o'zlariga tegishli turli biznes faoliyat orqali a'zolarini iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlamoda va so'fiylik turmush tarzini targ'ib qilmoqda.

Shu o'rinda savol tug'uladi, nega Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida, xususan Malayziyada, so'ngi yillarda so'fiylik tariqatlari faoliyatining o'sishi, rivoshlanishi va jamoalarining ko'payishiga davlat darajasida e'tibor berilmoqda? Savolni javobini quyidagi yo'nalishlarda ko'rishimiz mumkin:

1. Tarixan ushbu mintaqaga islom fatxsiz, da'vat asosida kirib kelgan va tub joy aholi tomonidan o'z qadriyatlarini saqlagan holda islom va uning madaniyatini qabul qilishgan. Islomning bu mintaqaga keng kirib kelish davri islom olamida so'fiylik tariqatlarining uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Shu sababli ham, mintaqadagi islom diniga ergashuvchilar dastlabki islom dinini ko'p hollarda tariqat vakillari amali, ilmi va e'tiqodi timsolida ko'rishgan. So'fiylarning o'ziga xos hayot tarzlari tokim bugungi kunga qadar mintaqa musulmon jamiyatlari xarizmasi shakllanishida kata ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

2. Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi doim Janubiy Osiyo musulmon jamoalari ta'sirida bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, juda ko'plab tasavvuf shayxlari aynan Janubiy Osiyo mintaqasidan bugungi Malayziya, Indoneziya kabi davlatlar hududlariga brogan va u yerda o'zlari ergashgan tariqatlarni yoyishga harakat qilishgan. Bu omil sabab, mintaqada doim so'fiylik tariqatlari ta'siri ostida bo'lgan.

3. Bugungi murakkab geosiyosiy jarayonlar sodir bo'layotgan davrda ko'plab musulmon jamoalariga ega davlatlarda dinga radikal xarakterga ega ergashuvchilar ortib bormoqda va bu bevosita davlat va jamiyatda keskin fikrlar va harakatlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. E'tibor beradigan bo'lsak, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi ahli tasavvuf orasida keskin fikrlar va harakatlar doim inkor qilib kelingan. Ular bilan bog'liq keskinlikni keltirib chiqaruvchi holatlar bo'lmagan. Qaysidir ma'noda bu jihat Malayziya davlatida olib borilayotgan siyosatga ham muvofiq sanaladi. Shu sababli ham so'fiylik tariqatlarning mamlakatda faoliyat

yuritishiga davlat darajasida to'sqinlik yo'q, balki faoliyat yuritishlaridan manfaat bor.

4. Bugungi Malayziya musulmon jamiyati barqarorligiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin deya qaralayotgan yangi diniy g'oyalardan bo'lgan “salafiylik” va “vahhobiylik”ga qarshi kurashishda so'fiylik tariqatlarining ahamiyati yuqori baholanmoqda. 2025 yil 25 fevral kuni Malayziyaning Perak shtatida bo'lgan yirik forumda shtat sultoni Yang di-Pertuan Agong Sultan Nazrin so'fiylik tariqatlarini yuqorida ta'kidlangan muammolarni oldini olishda muhimligini ta'kidlab, butun Malayziya bo'ylab yoyish va faoliyatini mustahkamlash lozimligini ta'kidlagan[8].

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, so'ngi yillarda Malayziyada so'fiylik tariqatlari faoliyatining davlat darajasida qo'llab quvvatlanishining asosiy sabablaridan biri, ular mamlakatdagi Islomga e'tiqod qiluvchilarning jamiyatda o'zaro munosabatlarga kirirshishdagi qattiq va byurokratik ko'rinishlarini yumshatish yo'lida ijobiy ta'sir kuchiga ega harakat sifatida ko'rilmogda.

Havola va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gamelan - asosan gong, ksilofon va metallofon kabi zarbli cholg'ulardan tashkil topgan an'anaviy Malayziya musiqiy ansambli.
2. Aljunied, Syed Muhd Khairudin. Islam in Malaysia: An entwined history. Oxford University Press, USA, 2019. 42-48.
3. Attas, Muhammad Naguib al. Some Aspects of Şufism: As Understood and Practised Among the Malays. Ta'dib International Sdn Bhd, 1963. 32.
4. Johor - Malayziya janubida joylashgan shtat
5. Hamid, Mohammad Fahmi Abdul, Meerangani, Khairul Azhar, Suliaman, Ishak, Ariffin, Mohd Fahran Md, Halim, Amran Abdul. "Strengthening Spiritual Practices among Community: Dhikr Activities in Negeri Sembilan, Malaysia." 2021. 79.
6. Fahmi, Abdul Hamid Mohammad and Sulaiman, Ishak. "Impact of integrated management on the development of Tarekat Tasawuf in Negeri Sembilan, Malaysia." Jurnal Intelek 12.2 (2017): 1-10.
7. Syahrul, Muzakkir, Hidayat, Ziaulhaq. New Face of Contemporary Sufism in Southeast Asia: Experience of Indonesia and Malaysia. Teosofi: Jurnal Tasawuf dan Pemikiran Islam 11, no. 2 (2021): 269.
8. Mohd Faizal Musa. State-Level Empowerment of Sufism in Addressing the Salafi-Wahhabi Threat in Malaysia. FULCRUM: Analysis on Southeast Asia.30 Apr. 2025.

بسم الله الرحمن الرحيم

أئمة الحديث الشريف وامتحاناتهم العقديّة الإمام النسائي رحمه الله وكتابه "خصائص علي" و "مسند
علي" "أنموذجاً"

مقدمة

الحمد لله رب العالمين، والعاقبة للمتقين، ولا عدوان إلا على الظالمين، وأشهد أن لا إله إلا الله وحده لا شريك
له، وأشهد أن سيدنا محمداً عبده ورسوله صلى الله عليه وآله وسلم ورضي عن أصحابه أجمعين أما بعد:
سخر لهذا الدين رجالاً من أئمة العلماء العدول، والأولياء الصالحين، ينفون عن هذا الدين كل ما كان الله
تحريف الغالين، وانتحال المبطلين، وتأويل الجاهلين.

ومن هؤلاء الأئمة الأعلام من غُذِبَ، ومنهم من أخرج من بلده، ومنهم من أُوذِيَ، ومنهم من حبس، بل وصل
الأمر ببعضهم إلى القتل ومن هؤلاء الأئمة رضوان الله عليهم سيدنا الإمام أبي عبد الرحمن أحمد بن شعيب
النسائي رحمه الله ورضي عنه.

التعريف بالإمام النسائي رحمه الله ورضي عنه، وكتابه

وكرم الله وجهه. وبصاحب موضوع الكتابين "الخصائص" و "المسند" سيدنا علي

أولاً: التعريف بالإمام النسائي:

هو: أَحْمَدُ بْنُ شُعَيْبِ بْنِ عَلِيٍّ بْنِ سِنَانِ بْنِ بَخْرٍ بْنِ دِينَارٍ أَبُو عَبْدِ الرَّحْمَنِ النَّسَائِيُّ الْحَافِظُ مُصَنِّفُ السُّنَنِ وَأَحَدُ
الْأَيْمَةِ الْمُبَرِّزِينَ

رَوَى عَنْ: ثُنَيْيَةَ بْنِ سَعِيدٍ، وَإِسْحَاقَ بْنِ رَاهُوَيْهِ، وَهَشَامِ بْنِ عَمَّارٍ، وَعِيسَى بْنِ حَمَادٍ رَغَبَةً فِي خَلْقٍ كَثِيرِينَ.
رَوَى عَنْهُ: ابْنُهُ عَبْدُ الْكَرِيمِ، وَأَبُو سَعِيدٍ بْنُ يُونُسَ، وَأَبُو سَعِيدٍ بْنُ الْأَعْرَابِيِّ، وَأَبُو عَوَانَةَ الْإِسْفَرَايِينِي، وَأَبُو
جَعْفَرٍ الطَّحَاوِيُّ، وَأَبُو جَعْفَرٍ الْعَقِيلِيُّ، وَأَبُو الْقَاسِمِ الطَّبْرَانِيُّ، وَأَبُو بَشِيرٍ الدُّوَلَابِيُّ، وَأَبُو بَكْرٍ بْنُ السَّيِّ،
وَخَلَّائِقُ، آخَرُهُمْ؛ أَبِيضُ بْنُ مُحَمَّدٍ الْفَهْرِيُّ.

قَالَ الْحَافِظُ أَبُو عَلِيٍّ النَّيْسَابُورِيُّ: النَّسَائِيُّ الْإِمَامُ فِي الْحَدِيثِ بِلَا مُدَافَعَةٍ، وَقَالَ أَيُّضاً: مِنْ أَيْمَةِ الْمُسْلِمِينَ.
وَقَالَ مَنْصُورُ الْفَقِيهِ وَالطَّحَاوِيُّ: إِمَامٌ مِنْ أَيْمَةِ الْمُسْلِمِينَ.

وقال قاسم المطرز: هو إمام أو يستحق أن يكون إماماً..

وَقَالَ الدَّارِقُطْنِيُّ: مُقَدِّمٌ عَلَى كُلِّ مَنْ يُذَكَّرُ بِهَذَا الْعِلْمِ مِنْ أَهْلِ عَصْرِهِ. وَسُئِلَ الدَّارِقُطْنِيُّ: إِذَا حَدَّثَ النَّسَائِيُّ وَابْنُ
خُرَيْمَةَ أَيْمَا يُقَدِّمُ؟ فَقَالَ: النَّسَائِيُّ، فَإِنَّهُ لَمْ يَكُنْ مِثْلَهُ وَلَا أَقْدَمَ عَلَيْهِ أَحَدًا، وَلَمْ يَكُنْ فِي الْوَرَعِ مِثْلَهُ. (وقال مرة في
المفاضلة بينهما فيمن يقدم النسائي أو ابن خزيمة قال النسائي على أي لا أقدم على النسائي أحداً وإن كان ابن
خزيمة إماماً ثبنا معدوم النظير).

وَقَالَ الدَّارِقُطْنِيُّ يَقُولُ: كَانَ النَّسَائِيُّ أَفْقَهُ مَشَايِخِ مِصْرَ فِي عَصْرِهِ، وَأَعْرَفَهُمْ بِالصَّحِيحِ وَالسَّقِيمِ مِنَ الْأَثَرِ،
وَأَعْلَمَهُمُ بِالرِّجَالِ.

وَقَالَ ابْنُ يُونُسَ: كَانَ إِمَامًا فِي الْحَدِيثِ ثِقَةً ثَبَتًا حَافِظًا، كَانَ خُرُوجُهُ مِنْ مِصْرَ فِي ذِي الْقَعْدَةِ سَنَةَ اثْنَتَيْنِ
وَتَلَاثِمِائَةٍ وَتُوفِّيَ بِفِلَسْطِينَ يَوْمَ الْاِثْنَيْنِ لِثَلَاثِ عَشْرَةِ خَلَتْ مِنْ صَفَرٍ سَنَةَ ثَلَاثٍ وَثَلَاثِمِائَةٍ. وَقَالَ أَبُو عَلِيٍّ
الْعَسَائِيُّ: لَيْلَةَ الْاِثْنَيْنِ. وَكَذَا قَالَ الطَّحَاوِيُّ: مَاتَ فِي صَفَرٍ بِفِلَسْطِينَ.

وَقَالَ الْحَافِظُ أَبُو عَامِرٍ الْعَبْدَرِيُّ: إِنَّهُ تُوُفِّيَ بِالرَّمْلَةِ مَدِينَةِ فِلَسْطِينَ وَحُمِلَ إِلَى بَيْتِ الْمَقْدِسِ فُدِّنَ بِهِ.
وَحَكَى ابْنُ مُنْدَه عَنْ مَشَايِخِهِ بِمِصْرَ أَنَّهُ خَرَجَ مِنْ مِصْرَ إِلَى يَمَشَقَ فَوَقَعَتْ لَهُ بِهَا كَائِنَةٌ، ثُمَّ حُمِلَ إِلَى مَكَّةَ
وَمَاتَ بِهَا سَنَةَ ثَلَاثٍ وَثَلَاثِمِائَةٍ. وَهُوَ مَدْفُونٌ بِهَا وَكَذَا قَالَ الدَّارِقُطْنِيُّ أَنَّهُ حُمِلَ إِلَى مَكَّةَ فَتُوُفِّيَ بِهَا فِي شَعْبَانَ
سَنَةَ ثَلَاثٍ وَكَانَ مَوْلَدُهُ سَنَةَ أَرْبَعِ عَشْرَةٍ وَمِائَتَيْنِ.

ومن تتمة كلام العلماء عنه وعن مكانته رحمه الله:

وَقَالَ أَبُو الْحُسَيْنِ مُحَمَّدُ بْنُ الْمُظَفَّرِ الْحَافِظُ: سَمِعْتُ مَشَايخَنَا بِمِصْرَ يَعْتَرِفُونَ لِأَبِي عَبْدِ الرَّحْمَنِ النَّسَائِيِّ بِالتَّقَدُّمِ وَالْإِمَامَةِ، وَيَصِفُونَ مِنْ اجْتِهَادِهِ فِي الْعِبَادَةِ بِاللَّيْلِ وَالنَّهَارِ، وَمَوَاضِبَتِهِ عَلَى الْحَجِّ وَالْاجْتِهَادِ، وَأَنَّهُ خَرَجَ إِلَى الْفِدَاءِ مَعَ وَالِي مِصْرَ فَوُصِفَ مِنْ شَهَامَتِهِ وَإِقَامَتِهِ السُّنَنَ الْمَأْثُورَةَ فِي فِدَاءِ الْمُسْلِمِينَ، وَالْمَشْرُوكِينَ وَاخْتِرَازِهِ بِدِمَشْقَ مِنْ جِهَةِ الْخَوَارِجِ. عَنِ مَجَالِسَةِ السُّلْطَانِ الَّذِي خَرَجَ مَعَهُ،... وَأَنَّهُ لَمْ يَزَلْ ذَلِكَ دَأْبُهُ إِلَى أَنْ اسْتُشْهِدَ وَقَالَ الدَّارِقُطْنِيُّ أَيْضًا: .. فَلَمَّا بَلَغَ هَذَا الْمَبْلَغَ حَسَدَوْهُ فَخَرَجَ إِلَى الرَّمْلَةِ، فَسُئِلَ عَنْ فَضَائِلِ مُعَاوِيَةَ، فَأَمْسَكَ عَنْهُ فَضْرَبُوهُ فِي الْجَامِعِ. فَقَالَ: أَخْرَجُونِي إِلَى مَكَّةَ، فَأَخْرَجُوهُ إِلَى مَكَّةَ وَهُوَ عَلِيلٌ، وَتَوَفَّى بِهَا مَقْتُولًا شَهِيدًا.

ونقل الدارقطني عن أبي بكر ابن الحداد وكان كثير الحديث وكان له فضل في العبادة ولم يحدث عن أحد غير أبي عبد الرحمن النسائي فقط، وقال: رضيت به حجة بيني وبين الله. وقال أبو بكر محمد بن موسى بن يعقوب بن المأمون الهاشمي: (وكان من أصحاب النسائي) كان يصوم يوما ويفطر يوما. قال: وسمعت قوما ينكرون عليه كتاب "الخصائص" لعلي رضي الله عنه وتركه لتصنيف فضائل أبي بكر وعمر وعثمان رضي الله عنهم، ولم يكن في ذلك الوقت صنفها فحكيت له ما سمعت، فقال: دخلنا إلى دمشق والمنحرف عن علي بها كثير فصنفت كتاب "الخصائص" رجاء أن يهديهم الله. ثم صنف بعد ذلك فضائل أصحاب رسول الله صلى الله عليه وسلم، وقرأها على الناس وقال أبو بكر ابن المأمون أيضا: عن النسائي قال: رحلتي الأولى إلى قتيبة كانت في سنة ثلاثين ومئتين، أقمت عنده سنة وشهرين.

قال الحاكم: ومع ما جمع أبو عبد الرحمن من الفضائل رزق الشهادة في آخر عمره، فحدثني محمد بن إسحاق الأصبهاني، قال: سمعت مشايخنا بمصر يذكرون أن أبا عبد الرحمن فارق مصر في آخر عمره وخرج إلى دمشق فسئل بها عن معاوية بن أبي سفيان وما روى من فضائله، فقال: ألا يرضى معاوية رأسا برأس حتى يفضل؟! فما زالوا يدفعون في حضنيه حتى أخرج من المسجد ثم حمل إلى مكة ومات بها سنة ثلاث وثلاث مئة وهو مدفون بمكة.

قال الحافظ أبو القاسم: وهذه الحكاية لا تدل على سوء اعتقاد أبي عبد الرحمن في معاوية بن أبي سفيان، وإنما تدل على الكف في ذكره بكل حال. ثم روى بإسناده عن أبي الحسن علي بن محمد القابسي، قال: سمعت أبا صاحب رسول الله صلى الله عليه وسلم على الحسن بن أبي هلال يقول: سئل أبو عبد الرحمن النسائي عن معاوية بن أبي سفيان؟ فقال: إنما الإسلام كدار لها باب، فباب الإسلام الصحابة، فمن أذى الصحابة إنما أراد الإسلام، كمن ولا الله نقر الباب إنما يريد دخول الدار، قال: فمن أراد معاوية فإنما أراد الصحابة.

قال المزي: الحافظ، صاحب كتاب "السنن" وغيره من المصنفات المشهورة. أحد الأئمة المبرزين والحفاظ المتقنين والأعلام المشهورين، طاف البلاد، وسمع بخراسان والعراق والحجاز ومصر والشام والجزيرة.

قال الذهبي: الإمام، الحافظ، الثبوت، شيخ الإسلام، ناقد الحديث. وقال: وَكَانَ مِنْ بُحُورِ الْعِلْمِ، مَعَ الْفَهْمِ، وَالْإِتْقَانِ، وَالْبَصَرِ، وَتَقَدُّمِ الرِّجَالِ، وَحُسْنِ التَّأْلِيفِ. قال مُحَمَّدُ بْنُ مُوسَى الْمَأْمُونِيُّ صَاحِبُ النَّسَائِيِّ: سَمِعْتُ قَوْمًا يُنْكِرُونَ عَلَى النَّسَائِيِّ كِتَابَ (الْخَصَائِصِ) لِعَلِيِّ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ وَتَرْكُهُ تَصْنِيفَ فَضَائِلِ الشَّيْخَيْنِ، فَذَكَرْتُ لَهُ ذَلِكَ، فَقَالَ: دَخَلْتُ دِمَشْقَ وَالْمُنْحَرِفُ بِهَا عَنْ عَلِيٍّ كَثِيرٌ، فَصَنَّفْتُ كِتَابَ (الْخَصَائِصِ) رَجَوْتُ أَنْ يَهْدِيَهُمُ اللَّهُ تَعَالَى. ثُمَّ إِنَّهُ صَنَّفَ بَعْدَ ذَلِكَ فَضَائِلَ الصَّحَابَةِ قَالَ الْحَاكِمُ: كَلَامُ النَّسَائِيِّ عَلَى فَهْمِ الْحَدِيثِ كَثِيرٌ، وَمَنْ نَظَرَ فِي (سُنَنِهِ) تَحَيَّرَ فِي حُسْنِ كَلَامِهِ. قَالَ الدَّارِقُطْنِيُّ: كَانَ أَبُو بَكْرٍ بْنُ الْحَدَّادِ الشَّافِعِيُّ كَثِيرَ الْحَدِيثِ وَلَمْ يُحَدِّثْ عَنْ غَيْرِ النَّسَائِيِّ، وَقَالَ: رَضِيتُ بِهِ حُجَّةً بَيْنِي وَبَيْنَ اللَّهِ تَعَالَى.

ثانيا: الكلام على الكتابين:

الكتاب الأول:

وكرم الله وجهه. ﷺ "خصائص علي"، وكتاب "مسند علي" بن أبي طالب (40) ويكفي أن ﷺ أما كتاب الخصائص فقد سماه حاجي خليفة: الخصائص في فضل علي بن أبي طالب وأنه ألفه للرد على المبتدعة الذين ينحرفون عن علي بن أبي ﷺ تعرف أنه سبب استشهاد الإمام النسائي ويناصبونه العداوة أو لا يقدرين له قدره العظيم ومكانته الشامخة، وقال الحافظ ابن حجر رحمه ﷺ طالب من الأحاديث الجياد النسائي في كتاب الخصائص (41). ﷺ الله: "وأوعب من جمع مناقب علي وقد سبق النقل في ترجمة الإمام أنه قيل له لم لا صنف في فضائل الشيخين؟ قال: دخلت إلى دمشق والمنحرف عن علي بها كثير، فصنفته رجاء أن يهديهم الله سبحانه وتعالى، فأذكروا عليه، وأخرجوه من المسجد، ثم من دمشق إلخ القصة.

الكتاب الثاني

ﷺ وأما كتاب مسند علي

فإني لم أعتز على كتاب مسند علي رضي الله تعالى عنه للإمام النسائي رغم ثبوت نسبته له، ومسند سيدنا جزءاً من المسانيد الكبرى كمسند جع يعتبر كغيره من مسانيد الصحابة الكرام ﷺ علي بن أبي طالب أحمد بن حنبل، وأبي يعلى الموصلي وغيرهم. هذا وقد جمع بعض المعاصرين واسمه (علي رضا بن عبد الله بن أحمد بن علي رضا يوسف أوزبك⁽⁴²⁾)، (43) "ورتبته على طريقة تحفة ﷺ كتاباً كبيراً سماه "الموسوعة الحديثية الكبرى مسند علي بن أبي طالب الأشراف من حيث الراوي عن سيدنا علي بن أبي طالب ويبدو أن في الكتاب أسلوب القص واللصق فهو يصور الحديث من مصدره وإن كان مخطوطاً ولا يهتم كثيراً بتخريجه من مصادر أخرى حتى إنه قد يصور برقم الهامش المذكور من محقق الكتاب ولا يذكر التعليق ويقع الكتاب في سبع مجلدات وآخر رقم من أرقام أحاديثه (17482)، ويذكر حكماً على إسناد الحديث بدون ذكر سبب أو مصدر الحكم ولم أستفد من هذا الكتاب شيئاً وإن كان جهداً جميلاً جرى الله جامعه خيراً واطلعت على نسخة مصورة من الكتاب وليس هذا داخل في موضوعنا ولم يتعرض لمسند علي للنسائي.

وقد جمعت بحمد الله وتوفيقه (129) حديثاً مما نسبته الأئمة لكتاب مسند علي للنسائي وهذه الأحاديث تشمل إن لم يكن لكل فلمعظم ما خرجه الأئمة من كتاب مسند علي بن أبي طالب للنسائي من الأحاديث. • فهذا الكتاب قد وقع للإمام المزي رحمه الله. فخدمه بعض الخدمات منها:

(أ) أنه أضاف أسماء رواته ورجاله لرجال الكتب الستة في كتابه تهذيب الكمال في أسماء الرجال. (ب) وأنه حين يذكر الإمام المزي اسم راوٍ من هؤلاء الرواة فإنه يرمز أمام شيوخه وتلاميذه برمز من أخرج له النسائي في مسند علي أيضاً فيعرفنا شيوخ وتلاميذ الراوي الذين روى عنهم وأخرج لهم النسائي في مسند علي. (ج) لكنه أحياناً إذا كان الراوي قد أخرج له النسائي في أحد كتبه الأخرى كالسنن الكبرى، وخصائص علي، وكعمل اليوم والليلة، فإنه يقتصر على رمز هؤلاء ولا يذكر رمز مسند علي فإذا أخرج له النسائي في أكثر من كتاب فإنه لا يلتزم بذكر رمز جميع الكتب بل يذكر أشهرها إلا إذا كان هناك أفراد براو أو شيخ أو تخريج حديث فحينئذ يذكر رمز مسند علي أو غيره هذا كله غالباً لا دائماً.

(40) كشف الظنون (706/1).

(41) فتح الباري (74/7).

(42) وإن أوهمت الصفحة الأولى في الكتاب أن يوسف أوزبك، غير علي رضا بن عبد الله فإنه كتب تأليف يوسف أوزبك، ثم قال: خرج أحاديثه علي رضا بن عبد الله. ويتضح بعد قراءة المقدمة ونحوها أنها واحد.

(43) طبعته دار المأمون للتراث - دمشق - سنة (1416 - 1995).

- (د) وإذا ذكر الإمام المزي اسم الراوي ونسبه لمسند علي للنسائي فإنه أحيانا يخرج له حديثا أو أكثر بإسناد لنفسه على طريقة المستخرجات يلتقي فيه مع النسائي في شيخه أو من فوقه لعلو في الإسناد أو فائدة فيه.
- (هـ) وأحيانا يذكر المزي أن النسائي أخرج لهذا الراوي في مسند علي حديث كذا فيذكر طرفا من الحديث يدل على بقيته، ونكون قد استفدنا هذا الطرف للحديث، والوجه الذي أخرجه منه النسائي.
- (و) وأحيانا يذكر كلام النسائي على الإسناد، وبيانه للاختلاف على الراوي فيه، ونحو ذلك.
- (ز) ويضيف المزي أيضا إضافات في الأسانيد والمتون وأسماء الرجال، منها بيان بعض الأوهام في أسماء بعض الرواة التي وقعت في نسخته من مسند علي فيقول من الأوهام كذا.
- كل هذا الجهد من الإمام المزي جعلني أتوق إلى جمع هذه الأحاديث سواء التي أخرجها بإسناده، أو ذكر طرفا منها فأخرجها وأحكم عليها وأبين بعض غريبها ومشكلها وأضيف إليها الكثير من الفوائد الحديثية، حتى يخرج جزء من كتاب مسند علي للنسائي كما ذكره مؤلفه أو قريبا منه وهذا الذي صنعه الإمام المزي ولم أجد أحدا آخر صنع مثل صنيعه، حتى هو في كتاب "تحفة الأشراف" لم يذكر أطراف هذا الكتاب (غير حديثين ذكرهما استطرادا في غير موضعهما من زياداته) رغم أنه ذكر كثيرا من الكتب المتعلقة بالكتب الستة، غير أنني وجدت الإمام السيوطي في الجامع الكبير نسب حديثا واحدا لمسند علي للنسائي، ولم أجد عنده غير هذا الحديث. فجمعت هذه الأحاديث التي في كتاب "تهذيب الكمال" وأضفت إليها الحديثين اللذين ذكرا في "تحفة الأشراف" والحديث الذي ذكره الإمام السيوطي "الجامع الكبير".
- وكل ما ذكره الإمام المزي فإنه ذكر وجه إسناده فهو إما أخرجها بأسانيد لنفسه، على طريقة المستخرجات، وإما ذكر طرفا منها في ترجمة الرجل الذي أخرج له النسائي في "مسند علي" أما الحديث الذي ذكره الإمام السيوطي فلم يذكر وجه إسناده. وبلغ عدد هذه الأحاديث المجموعة (129)، حديثا، وقد جمعت هذه الأحاديث وخرجتها، وحكمت على أسانيدها، وشرحت غريبها، وبينت مشكلها، وتكلمت على عللها، وشيء من فقهاء.
- أسأل أن يوفقني في ذلك، وأن يعم النفع به، وأن يرزقني الإخلاص والقبول إنه ولي ذلك والقادر على ذلك.
- عليه وهو حسبي ونعم الوكيل.
- ولهذا الموضوع أهمية عظيمة فكتاب "مسند علي" للنسائي من الكتب المهمة في بابهِ
- وكرم الله وجهه. وعظيم منزلته في الإسلام. ﷺ لجلالة صاحب المسند
 - ثم لجلالة المصنف وهو الإمام النسائي صاحب أحد الكتب الستة، وفضله لا يخفى.
 - ﷺ يضاف إلى تلك المنزلة العظيمة للإمام النسائي مزيد اهتمامه بأمور سيدنا علي بن أبي طالب
- حتى ألف في مناقبه وفضائله مؤلفا خاصا وهو كتاب خصائص علي. فإذا جمع له مسندا سيكون هذا المسند جامعا بين الحسن والإتقان والدقة في العمل.
- كل هذا مع كثرة أحاديث الكتاب وكون كثير منها في درجة القبول.
 - مع ندرة أسانيد بعض هذه الأحاديث، وتلك الأوجه التي أخرجها منها النسائي، وما فيها من زيادات توضح متنا أو إسنادا.
 - وما فيها من بقية الفوائد الحديثية فأردت أن أجمع بعض ما تفرق من هذا الكتاب النافع.
 - ثم وفاء بحق مؤلفه (الإمام النسائي رحمه الله ورضي عنه)، حتى ينتفع الناس بكتابه.
 - وقبل ذلك قياما ببعض ما يجب نحو أمير المؤمنين أسد الله الغالب سيدنا علي بن أبي طالب ﷺ وكرم الله وجهه صاحب هذا المسند. حتى ينتفع الناس وأهل العلم بما جمعته من هذا الكتاب.
 - يضاف إلى ذلك أنني لم أر مصنفات تعرض لهذا الموضوع من الناحية الحديثية، جامعا للأحاديث

وَدَارِسَا لَهَا سِنْدَا أَوْمَتْنَا، وَإِنَّمَا هِيَ أُمُورٌ تَذَكَّرُ فِي بَعْضِ الْكُتُبِ كَمَا تَقْدُمُ.

• كَمَا أَنَّ خِدْمَةَ هَذَا الْمَوْضُوعِ وَدِرَاسَتَهُ سَتَكُونُ مَحَاطَلَةً لِنَشْرِ السَّنَةِ النَّبَوِيَّةِ الْمُشْرِفَةِ بِوَجْهِ مَا وَعَلَى صُورَةٍ مَا.

ثالثاً: الكلام على أمير المؤمنين سيدنا علي بن أبي طالب هو أمير المؤمنين: عَلِيُّ بْنُ أَبِي طَالِبٍ وَاسْمُ أَبِي طَالِبٍ عَبْدُ مَنَافٍ بْنُ عَبْدِ الْمُطَّلِبِ بْنِ هَاشِمٍ (أَبُو الْحَسَنِ وَأَبُو ثَرَابٍ الْهَاشِمِيُّ ابْنُ عَمِّ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَامِيرُ الْمُؤْمِنِينَ، وَزَوْجُ ابْنَتِهِ سَيِّدَةِ نِسَاءِ أَهْلِ الْجَنَّةِ سَيِّدَتُنَا ، وَأَحَدُ الْعَشْرَةِ الْمُبَشِّرِينَ بِالْجَنَّةِ، رَوَى عَنْ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَعَنْ أَبِي بَكْرٍ □ فَاطِمَةَ الزَّهْرَاءِ وَرَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا، وَمُحَمَّدُ بْنُ الْحَنَفِيَّةِ، وَعُمَرُ، وَفَاطِمَةُ، وَابْنُ أَخِيهِ □ رَوَى عَنْهُ: أَوْلَادُهُ الْحَسَنُ وَالْحُسَيْنُ عَبْدُ اللَّهِ بْنُ جَعْفَرٍ، وَابْنُ عَمِّهِ عَبْدُ اللَّهِ بْنُ عَبَّاسٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا وَأُمُّ لَا يُحْصَوْنَ، وَكَانَ لَهُ مِنَ الْوَلَدِ أَرْبَعُونَ إِلَّا وَلَدًا، وَكَانَ عَلِيٌّ أَصْغَرَ وَلَدِ أَبِي طَالِبٍ كَانَ أَصْغَرَ مِنْ جَعْفَرٍ بِعَشْرِ سِنِينَ وَجَعْفَرٌ أَصْغَرَ مِنْ عَقِيلٍ بِعَشْرِ سِنِينَ وَعَقِيلٌ أَصْغَرَ مِنْ طَالِبٍ بِعَشْرِ سِنِينَ.

وهو أَوَّلُ مَنْ آمَنَ رُويَ ذَلِكَ عَنْ جَمَاعَةٍ مِنَ الصَّحَابَةِ مِنْهُمْ زَيْدُ بْنُ أَرْقَمَ، وَأَبُو ذَرٍّ، وَالْمِقْدَادُ، وَأَبُو أَيُّوبَ، أَجْمَعِينَ، وَأَنْشَدَ لَهُ الْمَرْزُبَانِيُّ فِي ذَلِكَ: وَأَنْسَ، وَسَلْمَانُ، وَجَابِرُ، وَأَبُو سَعِيدٍ، وَخَزِيمَةُ بْنُ ثَابِتٍ، أَلَيْسَ أَوَّلَ مَنْ صَلَّى لِقِبْلَتِهِمْ

وَأَعْلَمَ النَّاسَ بِالْفُرْقَانِ وَالسُّنَنِ

وَادَّعَى الْحَاكِمُ نَفْيَ الْخِلَافِ فِيهِ فَقَالَ فِي عُلُومِ الْحَدِيثِ: لَا أَعْلَمُ خِلَافًا بَيْنَ أَصْحَابِ التَّوَارِيخِ أَنَّ عَلِيًّا أَوَّلُهُمْ إِسْلَامًا. قَالَ: وَإِنَّمَا اخْتَلَفُوا فِي بُلُوغِهِ، ثُمَّ قَالَ الْحَاكِمُ بَعْدَ ذَلِكَ: وَالصَّحِيحُ عِنْدَ الْجَمَاعَةِ أَنَّ أَبَا بَكْرٍ الصِّدِّيقَ أَوَّلُ مَنْ أَسْلَمَ مِنَ الرِّجَالِ الْبَالِغِينَ.

وَقَدْ اخْتَلَفَ فِي سَبِّهِ حِينَ أَسْلَمَ فَقِيلَ: سَبُّهُ ثَمَانٍ، وَقِيلَ: سَبُّهُ عَشْرٌ، وَقِيلَ: ثَلَاثَ عَشْرَةَ، وَذَكَرَ ابْنُ إِسْحَاقَ أَنَّهُ شَهِدَ بِذَرٍّ وَلَهُ خَمْسٌ وَعَشْرُونَ سَنَةً، وَقِيلَ: كَانَ يَوْمَئِذٍ ابْنُ عَشْرِينَ سَنَةً، وَلَمْ يَتَخَلَّفْ عَنْ شَيْءٍ مِنَ الْمَشَاهِدِ إِلَّا تَبُوكَ، فَإِنَّ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ خَلَفَهُ عَلَى الْمَدِينَةِ وَعَلَى عِيَالِهِ وَقَالَ لَهُ يَوْمَئِذٍ: "أَنْتَ مِنِّي بِمَنْزِلَةِ هَارُونَ مِنْ مُوسَى إِلَّا أَنَّهُ لَا نَبِيَّ بَعْدِي" وَهُوَ فِي الصَّحِيحَيْنِ مِنْ حَدِيثِ سَعْدِ بْنِ أَبِي وَقَّاصٍ.

فِي غَزْوَةِ خَيْبَرَ: لَأُعْطِينَ الرَّايَةَ غَدًا رَجُلًا يُحِبُّهُ اللَّهُ وَرَسُولُهُ أَوْ قَالَ: يُحِبُّ اللَّهُ ﷻ وَقَالَ سَيِّدُنَا رَسُولُ اللَّهِ وَرَسُولُهُ { أَخْرَجَاهُ مِنْ حَدِيثِ سَهْلِ بْنِ سَعْدٍ . وَلِمُسْلِمٍ مِنْ حَدِيثِ عَلِيٍّ قَالَ : { وَالَّذِي فَلَقَ الْحَبَّةَ وَبَرَأَ النَّسَمَةَ إِنَّهُ لَعَهْدُ النَّبِيِّ الْأُمِّيِّ إِلَيَّ : إِنَّهُ لَا يُجِبُّنِي إِلَّا مُؤْمِنٌ وَلَا يُبْغِضُنِي إِلَّا مُنَافِقٌ } وَقَالَ التِّرْمِذِيُّ : حَدِيثٌ حَسَنٌ صَحِيحٌ وَمَنَاقِبُهُ كَثِيرَةٌ . وَقَالَ عُمَرُ : أَفْضَانَا عَلِيٌّ وَكَانَ يَنْعَوُذُ مِنْ مُعْضَلَةٍ لَيْسَ لَهَا أَبُو حَسَنِ ، بُويعَ عَلِيٌّ بَعْدَ مَقْتَلِ عُثْمَانَ ، وَتَخَلَّفَ عَنْ بَيْعَتِهِ مُعَاوِيَةُ وَأَهْلُ الشَّامِ ، فَكَانَ بَيْنَهُمْ مَا كَانَ بِصِقِينَ ثُمَّ انْتَدَبَ لَهُ قَوْمٌ مِنَ الْخَوَارِجِ فَقَاتَلَهُمْ فَظَفَرُوا بِهِمْ ، ثُمَّ انْتَدَبَ لَهُ مِنْ بَقَايَاهُمْ أَشْقَى الْأَخْرَيْنِ عَبْدُ الرَّحْمَنِ بْنُ مُلْجَمٍ الْمُرَادِيُّ ، وَكَانَ قَاتِلًا مُلْعُونًا فَطَعَنَهُ فِي رَمَضَانَ سَنَةَ أَرْبَعِينَ ، وَفُيِضَ أَوَّلَ لَيْلَةٍ مِنَ الْعَشْرِ الْأَوَاخِرِ . وَاخْتَلَفَ فِي مَوْضِعِ دَفْنِهِ وَفِي مَبْلَغِ سَبِّهِ فَقِيلَ ثَلَاثٌ وَسِتُّونَ قَالَهُ أَبُو نُعَيْمٍ وَغَيْرُهُ ، وَهُوَ قَوْلُ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عَمْرٍ وَصَحَّحَهُ ابْنُ عَبْدِ الْبَرِّ ، وَقِيلَ سَبْعٌ وَخَمْسُونَ ، وَقِيلَ: ثَمَانٍ وَخَمْسُونَ ، وَهُوَ قَوْلُ الْبُخَارِيِّ وَقِيلَ أَرْبَعٌ وَسِتُّونَ ، وَقِيلَ خَمْسٌ وَسِتُّونَ وَقِيلَ اثْنَانِ وَسِتُّونَ وَهُوَ قَوْلُ ابْنِ حِبَّانَ (44).

(44) ينظر: تاريخ بغداد (458/1)، تهذيب الكمال (472/20)، تاريخ الإسلام (350/2)، طرح التثريب (85/1)، الإصابة (564/4)،

أثر التعليم الديني في مواجهة العنف والإرهاب

د/ أحمد محمد علي المصري

مدرس التفسير وعلوم القرآن

بجامعة الأزهر ومدرسة ميرعرب العالية

مقدمة

التعليم الديني ليس مجرد دروس تلقى، وانما هو رسالة ذات مضمون فكري وديني واجتماعي، وله أثر كبير في توجيه الإنسان وتهئية طاقاته لمواجهة مختلف تغيرات الحياة نحو الكمال الخلقي، من حيث حثهم على الالتزام بالقيم الحميدة والابتعاد عن العنف والإرهاب ومحاربة فكره المنحرف الضال. وانحرافه جاء نتيجة للفهم الخاطئ للدين. ومن هنا يجب علي علماء الأمة الإسلامية مواجهة هذه التحديات الخطيرة بتنوير الفكر، وتوضيح الرؤية، وتصحيح المفاهيم، ومحاربة فكر الإرهاب والعنف والتشدد والتطرف، ببيان ما فيه من ضلال وانحراف، وما يترتب عليه من المفسدات الكبيرة علي الأفراد والجماعات وبإبراز النموذج الإسلامي الصحيح الذي يُوجب المحافظة علي الأمن العام، وعلي سلامة الأنفس والأعراض والأموال والعقول التي أوجب الله حفظها .

وللإسلام منهجه المتفرد في تحقيق الأمن ومكافحة العنف، فهو يهتم بالجوانب التربوية والوقائية التي تمنع وقوع العنف أصلاً، كما يهتم بالجوانب الجزرية والعقابية، التي تمحو آثاره، وتمنع من معاودته وتكراره، وهذا بخلاف ما عليه المناهج البشرية، والقوانين الوضعية التي تهتم بمعالجة العنف بعد وقوعه، أكثر من اهتمامها بمنع حدوثه ابتداءً.

وكان هذا المنهج شمولياً حيث جمع بين النص (النظرية) والمقصود منه القرآن الكريم والسنة النبوية المطهرة، والمنهج العملي (التطبيق) من خلال نبي الرحمة وصحابته الكرام .

النصوص الدينية الناهية عن العنف والإرهاب :

أولاً : القرآن الكريم

القرآن الكريم أولى عناية كبيرة في النهي عن الإيذاء بكافة صنوفه ، والاعتداء بكافة أشكاله ، والجريمة بكل أنواعها بألفاظ مختلفة كالسيئة والإثم والخطيئة في قوله تعالى { وَمَنْ يَعْمَلْ سُوءًا أَوْ يَظْلِمْ نَفْسَهُ ثُمَّ يَسْتَغْفِرِ اللَّهَ يَجِدِ اللَّهَ غَفُورًا رَحِيمًا (110) وَمَنْ يَكْسِبْ إِثْمًا فَإِنَّمَا يَكْسِبُهُ عَلَى نَفْسِهِ وَكَانَ اللَّهُ عَلِيمًا حَكِيمًا (111) وَمَنْ يَكْسِبْ خَطِيئَةً أَوْ إِثْمًا ثُمَّ يَرْمِ بِهِ بَرِيئًا فَقَدِ احْتَمَلَ بُهْتَانًا وَإِثْمًا مُبِينًا } [النساء: 110 - 112] وجاء النهي صريحاً وعماماً في حرمة الاعتداء قال تعالى {وَلَا تَعْتَدُوا إِنَّ اللَّهَ لَا يُحِبُّ الْمُعْتَدِينَ (190) } [البقرة: 190] فهذه الآية تحذير من الاعتداء والاعتداء ابتداء بالظلم .

وقد حرّم القرآن الاعتداء بداية من اعتداء الإنسان على نفسه لأنها ليست ملكاً له، وإنما هي ملك لخالفها وموجدها عز وجل، قال الله تعالى: {وَلَا تَقْتُلُوا أَنْفُسَكُمْ إِنَّ اللَّهَ كَانَ بِكُمْ رَحِيمًا} {وَمَنْ يَفْعَلْ ذَلِكَ عُدْوَانًا وَظُلْمًا فَسَوْفَ نُصْلِيهِ نَارًا وَكَانَ ذَلِكَ عَلَى اللَّهِ يَسِيرًا} [النساء: 29 - 30] .

كذلك حرّم اعتداء الإنسان على غيره لأن اعتدائه على غيره أشدّ تحريماً، وأعظم إثماً، وأغلظ عقوبة، وأسوأ عاقبة. قال الله تعالى: {وَلَا تَقْتُلُوا النَّفْسَ الَّتِي حَرَّمَ اللَّهُ إِلَّا بِالْحَقِّ} [الإسراء: 33]

إِنَّ اللَّهَ سُبْحَانَهُ جَعَلَ الْمُؤْمِنِينَ فِي تَوَادِّهِمْ وَتَرَاحُمِهِمْ وَتَوَاصُلِهِمْ كَالْجَسَدِ الْوَاحِدِ، إِذَا اشْتَكَى مِنْهُ عُضْوٌ تَدَاعَى لَهُ سَائِرُ الْجَسَدِ بِالْحُمَى وَالسَّهَرِ، فَإِذَا أَتَلَفَ الْقَاتِلُ مِنْ هَذَا الْجَسَدِ عُضْوًا، فَكَأَنَّمَا أَتَلَفَ سَائِرَ الْجَسَدِ، وَالْمَ جَمِيعَ أَعْضَائِهِ (45) ، وَقَدْ قَالَ النَّبِيُّ - صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ - : «لَا تُقْتَلُ نَفْسٌ ظُلْمًا بِغَيْرِ حَقٍّ، إِلَّا كَانَ عَلَى ابْنِ آدَمَ الْأَوَّلِ كِفْلٌ مِنْهَا؛ لِأَنَّهُ أَوَّلُ مَنْ سَنَّ الْقَتْلَ» (46) .

كما أمر سبحانه بالتعاون المثمر البناء قال تعالى {وَتَعَاوَنُوا عَلَى الْبِرِّ وَالتَّقْوَى وَلَا تَعَاوَنُوا عَلَى الْإِثْمِ وَالْعُدْوَانِ وَاتَّقُوا اللَّهَ إِنَّ اللَّهَ شَدِيدُ الْعِقَابِ} [المائدة: 2]

أَمَّا الْأَمْرُ بِالتَّعَاوُنِ عَلَى الْبِرِّ وَالتَّقْوَى فَهُوَ مِنْ أَرْكَانِ الْهُدَايَةِ الْاجْتِمَاعِيَّةِ فِي الْقُرْآنِ ؛ لِأَنَّهُ يُوجِبُ عَلَى النَّاسِ إِجَابًا دِينِيًّا أَنْ يُعَيِّنَ بَعْضُهُمْ بَعْضًا عَلَى كُلِّ عَمَلٍ مِنْ أَعْمَالِ الْبِرِّ الَّتِي تَنْفَعُ النَّاسَ أَفْرَادًا وَأَقْوَامًا فِي دِينِهِمْ وَدُنْيَاهُمْ، وَكُلُّ عَمَلٍ مِنْ أَعْمَالِ التَّقْوَى الَّتِي يَذْفَعُونَ بِهَا الْمَقَاسِدَ وَالْمَضَارَّ عَنْ أَنْفُسِهِمْ، فَجَمَعَ بِذَلِكَ بَيْنَ التَّحْلِيَّةِ وَالتَّخْلِيَّةِ، وَلَكِنَّهُ قَدَّمَ التَّحْلِيَّةَ بِالْبِرِّ، وَأَكَّدَ هَذَا الْأَمْرَ بِالنَّهْيِ عَنْ ضِدِّهِ ؛ وَهُوَ التَّعَاوُنُ عَلَى الْإِثْمِ بِالْمَعَاصِي وَكُلِّ مَا يَعُوقُ عَنِ الْبِرِّ وَالْخَيْرِ، وَعَلَى الْعُدْوَانِ الَّذِي يُغْرِي النَّاسَ بَعْضُهُمْ بِبَعْضٍ، وَيَجْعَلُهُمْ أَعْدَاءً مُتَبَاغِضِينَ يَتَرَبَّصُ بَعْضُهُمُ الدَّوَائِرَ بِبَعْضٍ وَالْعِقَابُ هُنَا يَشْمَلُ عِقَابَ الدُّنْيَا وَالْآخِرَةِ (47)

والقرآن الكريم في هذا السياق يتكلم عن العنف ويدينه إدانة شديدة ويتكلم عن مآلاته وعواقبه الوخيمة مثل إزهاق الأرواح والنفوس أو إلحاق الأذى بالناس أو الإفساد في الأرض ويضيق بالعنف لأن الفطرة السليمة تأبى ذلك وتنفر منه ، فإلحاق الضرر بالبيئة ، أو بأحد المرافق والأملاك العامة أو الخاصة ، فكل هذا من صور الفساد في الأرض ، كما قال تعالى

{وَلَا تَنْفَعُ الْفُسَادَ فِي الْأَرْضِ إِنَّ اللَّهَ لَا يُحِبُّ الْمُفْسِدِينَ} [القصص: 77] أي ولا تقصد الإفساد في الأرض بالظلم والبغي والإساءة إلى الناس، فإن الله يعاقب المفسدين، ويمنعهم رحمته وعونه وودّه (48) .

الجواب الكافي لمن سأل عن الدواء الشافي ص: 149⁴⁵

صحيح البخاري 4 / 133⁴⁶

تفسير المنار 6 / 108⁴⁷

التفسير المنير للزحيلي 20 / 161⁴⁸

ونهى القرآن الكريم عن الإيذاء سواء باليد باللسان، فعلى المسلم الحق أن يصون يده عن السرقة، والبطش، والضرب في غير حق، ويصون نفسه عن الظلم، والإعانة عليه قال تعالى { وَالَّذِينَ يُؤْذُونَ الْمُؤْمِنِينَ وَالْمُؤْمِنَاتِ بَغَيْرِ مَا اكْتَسَبُوا فَقَدْ احْتَمَلُوا بُهْتَانًا وَإِثْمًا مُّبِينًا } [الأحزاب: 58] وقد نهى النبي صلى الله عليه عن الإيذاء لجميع الناس وخص منهم الجار وجعل عدم إيذائه من شروط الإيمان فعن أبي هريرة رضي الله عنه ، قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: " مَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ، فَلَا يُؤْذِي جَارَهُ " (49)

ومنهج الإسلام يقوم على الرفق واللين ، لا على العنف والشدّة، فالإسلام يحمي النفس الإنسانية أيا كانت عقيدتها أو جنسيتها أو عرقها إلا في حالة العدوان ، ويعد قتل الفرد جريمة تعادل في بشاعتها قتل أبناء الإنسانية كلها ، قال تعالى :{مَنْ قَتَلَ نَفْسًا بِغَيْرِ نَفْسٍ أَوْ فَسَادٍ فِي الْأَرْضِ فَكَأَنَّمَا قَتَلَ النَّاسَ جَمِيعًا وَمَنْ أَحْيَاهَا فَكَأَنَّمَا أَحْيَا النَّاسَ جَمِيعًا} [المائدة: 32]

(فَكَأَنَّمَا قَتَلَ النَّاسَ جَمِيعًا) لِأَنَّ الْوَاحِدَ يُمَثِّلُ النَّوْعَ فِي جُمْلَتِهِ، فَمَنْ اسْتَحْلَ دَمَهُ بِغَيْرِ حَقٍّ يَسْتَحِلُّ دَمَ كُلِّ وَاحِدٍ كَذَلِكَ ؛ لِأَنَّهُ مِثْلُهُ، فَتَكُونُ نَفْسُهُ ضَارِبَةً بِالْبُغْيِ لَا وَازِعَ لَهَا مِنْ دَاتِهَا وَلَا مِنَ الدِّينِ (وَمَنْ أَحْيَاهَا فَكَأَنَّمَا أَحْيَا النَّاسَ جَمِيعًا) أَيِّ وَمَنْ كَانَ سَبَبًا لِحَيَاةِ نَفْسٍ وَاحِدَةٍ بِإِنْفَادِهَا مِنْ مَوْتٍ كَانَتْ مُشْرِفَةً عَلَيْهِ فَكَأَنَّمَا أَحْيَا النَّاسَ جَمِيعًا ؛ لِأَنَّ الْبَاعِثَ لَهُ عَلَى إِنْفَادِ الْوَاحِدَةِ - وَهُوَ الرَّحْمَةُ وَالشَّفَقَةُ فَالْآيَةُ تُعَلِّمُنَا مَا يَجِبُ مِنْ وَحْدَةِ الْبَشَرِ وَجَرِصِ كُلِّ مِنْهُمْ عَلَى حَيَاةِ الْجَمِيعِ، وَاتِّقَانِهِ ضَرَرَ كُلِّ فَرْدٍ ؛ لِأَنَّ انْتِهَاكَ حُرْمَةِ الْفَرْدِ انْتِهَاكٌ لِحُرْمَةِ الْجَمِيعِ (50) .

وقد بلغ الإسلام في نهيه عن الاعتداء على النفوس إلى حد النهي عن مجرد ترويع وتخويف المسلم المؤمن وجعله غير آمن في مقامه غير مطمئن على روحه، قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: " لَا يَحِلُّ لِمُسْلِمٍ أَنْ يُرَوِّعَ مُسْلِمًا (51) قال المناوي : ولو هازلا لما فيه من الإيذاء (52) ، وفي حديث آخر: مَنْ أَسَارَ إِلَى أَخِيهِ بِحَدِيدَةٍ ، فَإِنَّ الْمَلَائِكَةَ تَلْعَنُهُ ، حَتَّى يَدْعَهُ ، وَإِنْ كَانَ أَحَاهُ لِأَبِيهِ وَأُمِّهِ (53) .

والإسلام هو دين السلام والرحمة والمحبة والأمن والأمان والتعاون بين بني البشر، وعدم البغي والظلم،

مسند أحمد 64 / 13 وقال الشيخ شعيب : إسناده صحيح على شرط الشيخين. 49

تفسير المنار 6 / 288 50

مسند أحمد 38 / 163، وقال الشيخ شعيب إسناده صحيح 51

عون المعبود 9 / 2283 52

صحيح مسلم 8 / 33 53

وعدم الإكراه، حتى في أمر الدين ، والقرآن الكريم سبق كل الأنظمة والقوانين طريقة وأسلوباً ونوعاً
وهدفًا وأوفى هذا الموضوع حقه في المعالجة الوقائية والعلاجية. ويجب أن يتذكر المسلم
أن المسلم الحق – هو – ما قاله المعصوم- صلى الله عليه وسلم – الْمُسْلِمُ مَنْ سَلِمَ الْمُسْلِمُونَ مِنْ لِسَانِهِ
(54) . وَيَدِهِ هُوَ مَنْ سَلِمَ لِسَانَهُ وَيَدَهُ

ثانيا : السنة النبوية

إن نبي الرحمة وعنوان الرفق واللين يبين حرمة الاعتداء على الدماء ولأعراض والأموال يقول -
صلى الله عليه وسلم - في خطبة الوداع : إِنَّ دِمَاءَكُمْ وَأَمْوَالَكُمْ وَأَعْرَاضَكُمْ عَلَيْكُمْ حَرَامٌ ، كَحُرْمَةِ يَوْمِكُمْ
هَذَا ، فِي شَهْرِكُمْ هَذَا ، فِي بَلَدِكُمْ هَذَا ، فَلْيُبَلِّغِ الشَّاهِدُ الْعَائِبَ (55) وكثير من الأحاديث النبوية الشريفة منها

1- حديث ابن مسعود - رضي الله عنه - قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: «أول ما يقضى
بين الناس يوم القيامة في الدماء» (56) .

قال ابن حجر: "في الحديث عظم أمر الدم، فإن البداءة إنما تكون بالأهم، والذنب يعظم بحسب
عظم المفسدة وتقويت المصلحة، وإعدام البنية الإنسانية غاية في ذلك". (57)

2- حديث ابن عمر رضي الله عنهما قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: «لن يزال المؤمن في
فُسْحَةٍ من دينه ما لم يُصب دماً حراماً» (58) .

3- حديث البراء بن عازب - رضي الله عنه - أن رسول الله صلى الله عليه وسلم قال: «لزوال الدنيا
أهونُ على الله من قتل مؤمنٍ بغير حق» (59) .

وترقي الإسلام إلي أعلى درجات الرحمة فنهى عن التعدي على الحيوان بإزهاق روحه ظلماً وعدواناً،
جريمة يستحق فاعلها دخول النار ففي الصحيحين عن عبد الله بن عمر - رضي الله عنهما - أن رسول

⁵⁴ صحيح مسلم 1/ 48

⁵⁵ صحيح مسلم 5/ 108

⁵⁶ صحيح البخاري: 6/ 2517

⁵⁷ فتح الباري 11 / 397

⁵⁸ صحيح البخاري: 2/ 18 .

⁵⁹ رواه البخاري: 3/ 246

الله صلى الله عليه وسلم قال: «دخلت امرأة النار في هرة ربطتها، فلم تطعمها، ولم تدعها تأكل من خشاش الأرض» (60)

وجاء المنهج العملي مطبقا بين المسلمين وغيرهم ، فقد جاء الإسلام في فترة جاهلية أهدرت كرامة الإنسان وحرية فاعاد الإسلام بناء الإنسان من جديد ونظم علاقته بربه وعلاقته بالآخرين. وعبر تاريخ دولة الإسلام كان يعيش في داخلها غير المسلمين في مراحل قوتها وضعفها، فلم يجبروا على ترك معتقداتهم أو يكرهوا على الدخول في الإسلام، قال تعالى {لَا إِكْرَاهَ فِي الدِّينِ قَدْ تَبَيَّنَ الرُّشْدُ مِنَ الْغَيِّ فَمَنْ} [البقرة: 256] والقاعدة العظمى في الإسلام أن لا إكراه في الدين، ولذا فقد عاش الذميون وغيرهم في كنف دولة الإسلام دون أن يتعرض أحد لعقائدهم ودياناتهم .

إن الإسلام لم يقم على اضطهاد مخالفيه أو مصادرة حقوقهم أو تحويلهم بالكره عن عقائدهم أو المساس الجائر لأموالهم وأعراضهم ودمائهم وتاريخ الإسلام في هذا المجال أنصع تاريخ على وجه الأرض (61)

و كانت سماحته – صلى الله عليه وسلم – يوم الفتح غاية ما يمكن أن يصل إليه صفح البشر وعفوهم فكان موقفه ممن كانوا حربا على الدعوة ولم يضعوا سيوفهم بعد عن حربها أن قال لهم: «اذهبوا فأنتم الطلقاء» (62)

وبعد هذا العرض نستخلص أهم النتائج والتوصيات وهي :

- 1- أهمية التعليم الديني في نبذ العنف والإرهاب .
- 2- بيان قيمة العلم وفضيلته لأن الجهل من أسباب التعصب والجمود المؤدي إلى العنف والإرهاب
- 3- أن للإسلام منهجه المتفرد في تحقيق الأمن ومكافحة العدوان والعنف.
- 4- أهمية الأمن، وأنه حاجة إنسانية ملحة، ومطلب فطري لا تستقيم الحياة بدونه، ولا يستغني عنه فرد أو مجتمع.
- 5- جاءت نصوص كثيرة في الكتاب والسنة، تحذر من القتل بغير حق تحذيرًا شديدًا، وتبين سوء عاقبته، وعظم عقوبة فاعله، وهي عامة في المؤمن والكافر.

رواه البخاري: 3318، ومسلم: 2242.60

التعصب والتسامح بين المسيحية والإسلام، محمد الغزالي، ص 6.61

سيرة ابن هشام 2/ 19.62

- 6- وضع الإسلام الضوابط الكاملة لجميع ميادين الحياة في علاقة المرء بربه وفي علاقته ببني جنسه وفي علاقته بسائر المخلوقات، وجاءت جميع هذه الضوابط متوافقة مع فطرة الإنسان وعقله، فيها من التيسير والسماحة والمرونة، وهذه من خصائص الإسلام العظيمة
- 7- الأمن من أهم مقومات السعادة والاستقرار، وأهم أسباب التقدم والتحضر والرقى، وهو مطلب تتفق على أهميته جميع الأمم والشعوب، والأفراد والمجتمعات، في كل زمان ومكان.
- 8- إن العلم الديني المؤسس على الكتاب والسنة هو الذي يهذب النفوس، ويطهر القلوب، ويقيد صاحبه عن العنف والإجرام، ويمنعه من الظلم والعدوان، ويحمله على تعظيم حقوق العباد وحفظ مصالحهم، وهو يمنع من العنف ابتداءً، وهو أيضاً من أعظم الأسباب المعينة على علاج هذه الظاهرة الخطيرة.

وعلی الله قصد السبیل

**TASAVVUFNING IJTIMOY BARQARORLIKKA KO'RSATADIGAN
TA'SIRI: JAMOADA BAG'RIKENGLIK IMMUNITETINI
SHAKLLANTIRISHDA TASAVVUF G'OYALARINING O'RNI**

Mas'udxon ISMOILOV

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO” kafedrasi dotsenti

Nigora HASANOVA,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO” kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvufning jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlovchi ma'naviy-axloqiy tizim sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif tasavvuf tarixiy jihatdan faqat ruhiy-ma'rifiy oqim emas, balki madaniy uyg'unlik va ijtimoiy murosa tamoyillarini shakllantiruvchi ijtimoiy institut sifatida rivojlanganini asoslaydi. Maqolada Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlari faoliyatining ijtimoiy hayotdagi tinchlik, halollik, murosa va axloqiy tarbiya jarayonlariga ta'siri ko'rsatib beriladi. Shuningdek, tasavvuf ta'limotining radikalizm va keskin mafkuraviy qarashlarga qarshi “bag'rikenglik immuniteti”ni shakllantirishdagi o'rni misollar orqali ochib berilgan. Jaloliddin Rumiyning insonparvarlikka asoslangan falsafasi orqali tasavvufdagi murosaviy yondashuvning metafizik ildizlari tahlil qilinib, tasavvufning zamonaviy globallashuv sharoitida ijtimoiy tinchlikni ta'minlovchi dolzarb mexanizm ekanligi isbotlanadi.

Kalit soʻzlari: tasavvuf, bagʻrikenglik, ijtimoiy barqarorlik, Yassaviya, Naqshbandiya, Rumi, maʼnaviy tarbiya, radikalizmga qarshi immunitet, murosa madaniyati, maʼrifiy taʼlimot, tolerantlik, ijtimoiy uygʻunlik.

Zamonaviy global jarayonlar, axborot oqimining keskin tezlashuvi va madaniy xilma-xillik sharoitida ijtimoiy barqarorlik — har bir jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega boʻlgan omildir. Barqarorlikning eng muhim asoslaridan biri — madaniy va diniy bagʻrikenglik, oʻzaro hurmat va murosa madaniyatidir. Markaziy Osiyo tarixida tasavvuf ana shu jarayonning kuchli mafkuraviy poydevori boʻlib xizmat qilgan. Tasavvuf nafaqat ruhiy-axloqiy tizim, balki jamiyatda totuvlik, adolat, oʻzaro hurmatni mustahkamlovchi ijtimoiy institut sifatida shakllangan.

Tasavvufning asosida shaxsning ichki olamini poklash, ruhiy komillikka erishish, nafsni tarbiyalash yotadi. Tasavvuf namoyandalari nafsni engish, gʻazab, hasad va kibrdan xalos boʻlishni insoniylikning yuqori bosqichi deb bilgan⁶³. Shaxsning ruhiy poklanishi jamiyatdagi tajovuz, mojarolar, zoʻravonlik va radikalistik gʻoyalarga qarshi immunitet hosil qiladi.

Mashhur tasavvuf namoyandasi Imom Junaid Bagʻdodiy shunday deydi: “Tasavvuf — odamlarga ozor bermaslik, oʻzi ozor koʻrsa ham sabr qilishdir”⁶⁴. Bu tamoyil ijtimoiy totuvlikning asosiy maʼnaviy mexanizmi sifatida qaraladi.

Ahmad Yassaviy tariqati turli qabila va elatlar oʻrtasida maʼnaviy birlik hosil qilgan, xalqning axloqiy tarbiyasiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan⁶⁵.

Naqshbandiya tariqati “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili bilan halollik, mehnat, odoblilikni targʻib etgan. Bu jamiyatda mehnat etikasini kuchaytirgan va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilgan⁶⁶.

Tasavvufda bagʻrikenglilik (tasamuh) “boshqani qabul qilish” bilan cheklanmaydi. U insonni Allohning yaratgan mavjudoti sifatida qadrlash uzra quriladi. Rumiyning mashhur fikriga koʻra: “Bizning diniy yoʻlimiz muhabbatdan iborat. Kimda muhabbat boʻlsa – u bizdan”⁶⁷.

Rumi, Attor, Yassaviy, Navoiy asarlarida turli din, millat va madaniyat vakillariga hurmat ruhining kuchli boʻlishi tasavvufning insonparvarlik tabiatini koʻrsatadi⁶⁸.

⁶³ A. Kocaев, Tasavvuf falsafasi asoslari. – Samarqand: Registon, 2021, 112-b.

⁶⁴ Junaid Bagʻdodiydan rivoyat. Sufiylik etikasi, 2020, 87-b.

⁶⁵ A. Yassaviy, Devoni hikmat, ilmiy sharh bilan. – Turkiston: 2018.

⁶⁶ A. Qahhorov, Naqshbandiya tarixi va taʼlimoti, 2017, 143-b.

⁶⁷ Jaloliddin Rumi, Masnaviy. – Istanbul nashri, 2015, 41-b.

⁶⁸ A. Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2019.

“Bag‘rikenglik immuniteti” – jamiyatning diniy, mafkuraviy yoki siyosiy keskinliklar ta’siriga tushib qolmasligi uchun ma’naviy himoya mexanizmidir. Tasavvuf ushbu immunitetni quyidagi yo‘llar bilan shakllantiradi:

1. Nafs tarbiyasi – tajovuzkorlik va nafrat ildizlarini bartaraf etish;
2. Ichki tinchlik – tashqi tinchlikning manbai;
3. Murosa madaniyati – fikr xilma-xilligini ixtilof emas, imkoniyat sifatida qabul qilish;

4. Insoniylik qadriyatlari – saxovat, halollik, adolat jamiyatni birlashtiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham tasavvuf qadriyatlarining radikalizmga qarshi ma’naviy immunitet sifatida samarali vosita ekanini ko‘rsatadi⁶⁹.

Tasavvuf murosani zaiflik emas, aql va odob belgisi sifatida ko‘radi. “Suhbat yo‘li” (suhbat tariqati) orqali insonlarni muloqot va mantiqiy isbot bilan to‘g‘ri yo‘lga boshlash tasavvufning asosiy tarbiyaviy metodlaridan biridir⁷⁰.

Tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki: Turkistonda Yassaviya tariqatining shayxlari qabilalararo nizolarni ma’rifiy suhbatlar va nasihat orqali hal qilgan.

Naqshbandiya shayxlari ko‘plab hukmdorlar o‘rtasida tinchlik muzokaralariga vositachi bo‘lgan⁷¹.

Tasavvuf ta’limoti jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, uning asosini insonparvarlik, muhabbat, bag‘rikenglik va murosa tamoyillari tashkil etadi. Tasavvuf nazariyasida “kasb al-qalb”, ya’ni qalblarni zabt etish tushunchasi mavjud bo‘lib, bu tamoyil keskinlik va adovatdan ko‘ra mehr, hikmat va suhbat orqali insonni yuksaltirishga tayangan. Shu jihatdan tasavvuf “bagrikenglik immuniteti”ni shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy omilga aylanadi, kishi boshqani dushman emas, yaratilishda barobar mavjudot sifatida ko‘radi, natijada jamiyat ziddiyatlarni kuch bilan emas, ruhiy muvozanat orqali engadi.

Bu holat tarixiy tasavvufiy manbalarda ham yaqqol aks etgan. Ayniqsa Jaloliddin Rumi merosi mazkur tamoyilning yorqin misoli. Manbalarda naql qilinishicha, Rumi bir kuni yo‘lda yig‘lab o‘tirgan nasroniy yigitni ko‘radi. Rumi undan g‘am sababini so‘raganda, yigit shunday javob beradi: “Men go‘dakligimda cho‘qintirilgan suvdan yutib yuborgan edim, endi eshitdimki, kim o‘sha suvni ichgan bo‘lsa jannatga kira olmaydi.”

Rumiyning javobi tasavvufdagi murosa, keng ko‘ngillik va “rahmat ilmi”ning eng go‘zal talqinidir: “Agar suv seni jannatdan mahrum qilgan bo‘lsa, men seni o‘sha jannatdan ham aziz ekaningga guvohlik beraman. Chunki Alloh rahmati

⁶⁹ J. Voll, *Islamic Sufism and Social Harmony*. – Oxford University Press, 2013.

⁷⁰ S. Rypin, *Sufism as Conflict Resolution Mechanism*, 2018.

⁷¹ Z. Rajabov, O‘rta Osiyoda tasavvuf diplomatiyasi, 2022, 211-b.

suvdan ham ulug‘dir. Agar u seni bir hovuch suv sabab jazolamoqchi bo‘lsa, Unda Rahmonlikning mazmuni qayerda?”

Bu rivoyatda uch jihat alohida ahamiyatlidir:

1. Rumi aqidaviy farq ustiga qurilmagan, balki inson sha’ni va Alloh rahmati ustiga qurilgan talqinni tanlaydi;

2. U “dinni najot vositasi sifatida tor talqin qiladigan ong”ga qarshi rahmat falsafiy yondashuvini qo‘yadi;

3. Nasroniy yigitni tasalli berish orqali ijtimoiy adovat urug‘ini emas, qalb ko‘prigini barpo etadi.

Rumi tarixiy shaxs bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy-falsafiy konsepsiya muallifi hamdir. Uning qarashlari tasavvufda bag‘rikenglik tasodifiy emas, balki metafizik asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Barcha odamlar “ilohiy nafas” bilan yaratilgan, demak yaratuvchidan kelgan nurni inkor qilish – insonni inkor qilish bilan barobar. Shuning uchun tasavvufda bag‘rikenglik – murosa yoki diplomatiya emas, balki aqidaviy maslakdan ustun turuvchi ontologik haqiqat sifatida talqin qilinadi.

Xulosa o‘rnida aytilish mumkinki, tasavvuf jamiyatda ijtimoiy muvozanatni yuzaga keltiruvchi kuch sifatida:

- millatlararo va dinlararo muloqotni kuchaytiradi;
- “boshqani tushunish” madaniyatini shakllantiradi;
- agressiv diniy tafakkurni yumshatadi;
- adovatning oldini oladigan “bagrikenglik immuniteti”ni mustahkamlaydi.

Shuning uchun tasavvuf g‘oyalari zamonaviy jamiyat uchun qadimiy ruhiy meros emas, balki ijtimoiy tinchlik va totuvlikni ta’minlovchi amaliy mexanizm sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Turkiston, 2018.
2. Jaloliddin Rumi. Masnaviy. – Istanbul: Insan, 2015.
3. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Voll J. Islamic Sufism and Social Harmony. – Oxford University Press, 2013.
6. Rajabov Z. O‘rta Osiyoda tasavvuf diplomatiyasi. – Toshkent: 2022.
7. Qahhorov A. Naqshbandiya tarixi va ta’limoti. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.

GLOBALLASHUV DAVRIDA HAKIM TERMIZIY TA’LIMOTINING FALSAFIY-MA’NAVIY QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O’RNI VA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Xaitov Lazizbek Azamatovich

BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi,

falsafa kafedrası falsafa fanlari bo’yicha

falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

falsafa.phd.1991@mail.ru

+998973052723

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv davrida Hakim Termiziy ta’limotining yoshlar tarbiyasidagi falsafiy-ma’naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Hakim Termiziy ta’limotidagi ma’naviy qadriyatlar tizimini o’rganish va ularning zamonaviy yoshlar tarbiyasiga o’rnini aniqlashdir. Maqolada tarixiy-falsafiy, analitik va taqqoslash metodlari qo’llanilgan. Natijalar shuni ko’rsatadiki, Termiziy ta’limotining asosiy printsiplari - nafsni tarbiyalash, ma’naviy kamolotga intilish, bilim va axloq uyg’unligi- zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim vositadir.

Kalit so’zlar: Hakim Termiziy, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, falsafiy meros.

XXI asrda globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha sohalariga, xususan, madaniyat, ma’naviyat va ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko’rsatmoqda. Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash va zamonaviy yoshlarni ijtimoiy-faol, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan keng ko’lamli islohotlarni o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, o’z davrining yirik mutafakkiri bo’lgan Hakim Termiziy (820-932) ta’limotidagi falsafiy va ma’naviy qadriyatlar hozirgi davrda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. [1.4]

Hakim Termiziy falsafiy ta’limotining asosiy printsiplari – nafsni tarbiyalash, ma’naviy kamolotga intilish, bilim va axloq uyg’unligini ta’minlash – yoshlar tarbiyasida markaziy rol o’ynaydi. Globallashuv davrida esa yoshlar ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal etish borasida qo’shimcha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu sababli Hakim Termiziy ta’limotining falsafiy merosi va uning zamonaviy ta’lim jarayoniga yo’naltirish yoshlarni axloqiy barqarorlik va ma’naviy etuklikka etaklashda samarali vosita hisoblanadi. Axloqiy barqarorlik va ma’naviy etuklikka qandash erishish zarurligini Hakim Termiziy qarashlarida ko’radigan bo’lsak, mutafakkir inson fitratini nafsoniy va rabboniyga ajratgan. Mutasavvif “Masoiil ul maknuna” kitobida bunday deydi:

[2.91] “Nafsning jiddu jahdi (Alloh taolodan bo‘lgan) minnat (yaxshilik, saxovat, hadya)ni pardalab, yopmoq, qalbning jiddu jahdi esa bu minnatdagi (nafs tomonidan bo‘lgan) pardalarni ko‘tarib, ularni parchalab tashlamoqdir”. Mutasavvifning bu fikridan ma‘lum bo‘ladiki, nafs insonni haqiqatni anglash yo‘lida parda hijob ekan va uni haqiqatga erishuviga to‘sqinlik qilar ekan.

Globallashuv jarayonlari yoshlar hayotiga ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatdan kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va axloqiy me‘yorlar sustlashishi, yoshlar orasida identitet krizisining kuchayishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Hakim Termiziy tarbiya masalasida nafs tarbiyasiga e‘tibor berish kerakligi, inson beshikdan qabrgacha tarbiyaga muhtojligiga e‘tiborni qaratgan. Nafsni jilovlagan mukofotga sazovor bo‘lsa, unga berilgan mutlaq jazoga uchrashi izohlangan. Uning fikricha, bolalarning tuzaluvchi tarbiyasi – maktablarda; qaroqchilarning tuzaluvchi tarbiyasi qamoqxonalarda; ayollarniki – uylarda; yoshlarniki – ilmda; keksalarniki esa masjidlardadir. [3.266]

Hakim Termiziy ta‘limotini tahlil qilganda, uning quyidagi falsafiy-ma‘naviy tamoyillari yoshlar tarbiyasida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi:

- Axloqiy kamolot: Hakim Termiziy ta‘limotida insonning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, halollik, sabr-toqat va mas‘uliyatni shakllantirish markaziy o‘rinda. Bu globallashuv sharoitida yoshlarni ma‘naviy barqaror qilishga xizmat qiladi.
- Ma‘naviy barkamollik: Ta‘limot ruhiy o‘sish, ichki dunyoni anglash va haqiqatni izlashga yo‘naltirilgan. Natijada, yoshlar o‘zligini anglashi va global jarayonlarga tanqidiy yondashishi mumkin bo‘ladi.
- Bilim va ma‘rifat: Hakim Termiziy ta‘limotida ilmiy bilim va ma‘rifatning tarbiyadagi o‘rni yuqori baholangan. Bu yoshlarni axborot olamida mustaqil fikrlashga, bilimni tanqidiy qabul qilishga undaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Hakim Termiziy ta‘limoti yoshlar tarbiyasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilsa, ijtimoiy va ma‘naviy barqaror shaxslarni tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Globallashuv davrida Hakim Termiziy ta‘limotining falsafiy-ma‘naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rni va yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini quyidagi jadval asosida tahlil qilamiz:

№	Natija	Ta‘rif va izoh
1	Ma‘naviy qadriyatlar tizimining dolzarbligi	Globallashuv davrida Hakim Termiziy ta‘limotidagi ma‘naviy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida markaziy ahamiyatga ega bo‘lib,

№	Natija	Ta’rif va izoh
		ularning ruhiy va axloqiy barkamolligini shakllantiradi.
2	Axloqiy me’yorlarni mustahkamlash	Hakim Termiziy ta’limoti yoshlarni axloqiy jihatdan etuk shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi, bu esa jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.
3	Milliy va global uyg’unlik	Ta’limot yoshlarni milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga, global jarayonlarga moslashuvchan va tanqidiy fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalash imkonini beradi.
4	Zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg’unlik	Hakim Termiziy ta’limotini zamonaviy metodlar va axborot texnologiyalari bilan uyg’unlashtirish yoshlar tarbiyasida yanada samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Globallashuv davrida inson hayotining barcha sohalarida, xususan, ma’naviy va axloqiy rivojlanishda chuqur o’zgarishlar yuz bermoqda. Shu sharoitda yoshlar tarbiyasida milliy va falsafiy qadriyatlarni saqlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo’ladi. Hakim Termiziy ta’limoti bu nuqtai nazardan falsafiy asos vazifasini bajaradi.

Hakim Termiziy falsafasida axloqiy kamolot, ma’naviy barkamollik va bilimga intilish insonning eng oliy qadriyatlari sifatida ko’riladi. Inson o’zligini anglash, ichki dunyosini yuksaltirish va haqiqatni izlash orqali nafaqat shaxs sifatida kamol topadi, balki jamiyatga ham foyda keltiradi.

Globallashuv sharoitida yoshlarni ruhiy va axloqiy jihatdan etuk qilish, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy dunyoqarashga moslashuvchan shaxslar sifatida tarbiyalash Termiziy ta’limotining falsafiy mohiyatidan kelib chiqadi. Shu tariqa, Termiziy falsafasi yoshlar tarbiyasida nafaqat ma’rifiy va pedagogik, balki ruhiy-ma’naviy yo’l-yo’riq sifatida xizmat qiladi. Natijada, Hakim Termiziy ta’limoti globallashuv davrida insonning ichki dunyosini boyitish, axloqiy va ma’naviy barkamollikni shakllantirish hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim falsafiy asos bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xaitov Lazizbek Azamatovich, Hakim Termiziy ma'naviy merosining inson kamolotidagi o'rni: Monografiya / Buxoro shahri “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2023. 148 - b.
2. Ал– Ҳаким Ат– Термизий. Яширин масалалар Масоил ал– Макнуна. / Тарж. М.Исмоилов.– Самарқанд :Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. – Б.91.
3. Обиддин Махмудов. Фарзанднома. - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2020. Б.– 266

ХАТТОТЛИК САНЪАТИ ВА ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИНГ ИНСОНИАТ МАДАНИЯТИГА ТАЪСИРИ

Джураев Хусен Хайруллоевич,

*Бухоро давлат университети “Ислом тарихи ва манбаишунослиги, фалсафа” кафедраси
доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори.
Ўзбекистон, Бухоро. ORCID ID: [0009-0006-9223-4980](https://orcid.org/0009-0006-9223-4980).
E-mail: husaynbuxoriy@mail.ru; x.x.djuraev@buxdu.uz.*

Хайруллоев Саиджон Хусенович,

*Ўзбекистон халқаро Исломшунослик академияси магистранти
saidjonhusaynzoda@gmail.com*

Аннотация: Мазкур мақолада Мамлакатимизда сўнгги йилларда амалга оширилаётган жадал ислохотлар шароитида замонавий хаттотлик санъатининг инсоният маданиятига таъсири, қадимий ёзма манбаларнинг сақланиши, хаттотлик санъатининг ўзига хос услуби, анъана ва мактаблари тарихини ўрганишга катта эътибор берилмоқда. Ўзбекистондаги бир қатор диний марказ ва олийгоҳлар қошида хаттотлик мактабларини очиш, қадимий қўлёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ҳамда тарғиб қилиш тизими янада такомиллаштириш долзарм бўлиб қолмоқда. Ушбу мактаблар Юртимиздаги маданий меросининг дунё миқёсида эътироф этилишига пойдевор бўларди.

Калит сўзлар: Бухоро, хаттотлик, санъат, маданият, қўлёзма, мактаб, китоб таъмири (реставрация), қадимий.

Кириш. Шу маънода Юртимизда хаттотлик мактаблари тарихи ва унинг маданий ҳаётга таъсирини ҳамда ҳуснихат санъатининг тури ва услубларининг хусусиятларини ёритиб бериш юзасидан илмий тадқиқотларни янада чуқурлаштириш зарурати мавжуд.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 сентябрдаги ПФ-5815-сон “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлигини ташкил этиш тўғрисида”ги фармонлари, 2022 йил 10 февралдаги ПҚ-126-сонли “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори ҳамда соҳага оид бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу диссертация муайян даражада хизмат қилади.

Асосий қисм:

Ўзбекистоннинг истиқлоли халқимизнинг миллий ўзлигини англаш ва унутилаётган қадриятларимиз тиклана бориши, авлодларимизнинг ўтмиш тарихи чуқур ўрганилиши қаторида қўлёзмаларни ўрганишнинг долзарблиги, хаттотлик мактабларининг фаолияти ва тарихи ҳамда мирза-мунший ва котиблар ҳақидаги манбаларни излаш, топиш, тадқиқ этиш, илмий муомалага киритиш ҳам барча тарихий воқеалар каби муҳимдир.

Ўтган VIII асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Бухородан кўплаб ўқимишли кишилар, машҳур хаттотлар, маърифатпарварлар ҳамда таржимонлар, шоирлар, тарихчи ва ўлкашунослар етишиб чиққан ва самарали ижод қилиб, келажак авлодга бой маданий ва илмий мерос қолдирганлар.

Аждодларимиз томонидан турли даврларда ёзиб қолдирилган қўлёзмалар халқимизнинг ўтмиш маданияти, тарихи ва турмуш тарзини ўрганишда қимматли маълумотлар берувчи ишончли манба, ҳужжатдир.

Бизнинг тарихимизга оид салмоқли тарихий манбалар аввал араб тилида яратилган бўлса, айниқса давлат раҳбарлари ёки ҳокимлар араб бўлганларида, кейинча форсий тилда битилдиким, бу тил илмий доиралар, мадраса ва мактабларда умумий тараққиёт даражасини белгиловчи зарурат сифатида ўргатилар ва XIX аср охиригача зиёли оилаларда араб тили дин ва “Қуръони карим” тили сифатида, шеърий ҳамда бошқа соҳалар учун форсий ва туркий тиллари истифода этилар эди.

Манбашунос олим т.ф.д профессор, Абдумажид Мадраимов: “Форс тилида битилган тарихий асарлар анъанага биноан араб тилида номланар, уларда ҳам исломий манбалар ҳамда исломий тарихий асарлар хусусиятлари яққол кўзга ташланар эди. Ҳатто, ёзув ёки хат тури араб алифбосида бўлиб, кейинчалик форсий ҳамда туркий тил хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда йигирма саккиз араб ҳарфига тўрт ҳарф қўшилди, натижада араб ёзуви

асосланган форс ва туркий тил ёзуви вужудга келди”⁷² – дея, асосан қўлёзма манбалар форс ҳамда туркий ёзувларида кўчирилганини таъкидлаб ўтган.

XIV асргача, асосан араб ёзувининг мумтоз турларидан куфий, насх ва сулсдан фойдаланилган бўлса, XV асрдан бошлаб янги ёзув настаълиқ теурийлар даврида Ҳирот хаттотлик мактаби вакили Мир Али Табризий номли хаттот томонидан ихтиро этилиб, истеъмолга киритилди. Бу ёзув бадий ва тарихий асарларда етакчи ўрин эгаллади.

Аммо, тарихий асар матни ичида келган “Қуръони карим” оятлари, ҳадиси шарифлар анъанага биноан араб тилида, куфий, насх ва сулс ёзувларида барча ҳаракатлари кўрсатилган ҳолда ажратилиб битилар, сўнгра уларга форсий ёки туркий тилда изоҳ, тафсир келтирилган. Форс тилининг тарихий манбалар тилига айланиш даври ва тараққий этиши китобат санъатининг Мовароуннаҳр ва Хуросонда юксак даражада ривожланиш замониға тўғри келди.

Аксарият форс тилидаги тарихий асарлар олий сифатли қоғозға битилар, китоб турли ажойиб нақшлар ва мўъжаз расмлар билан зийнатланиб, сарой кутубхоналари ҳамда аъёнлар учун яратилган мўътабар қўлёзмалар олтин ва кумуш сувлари, турли бўёқлар билан безатилиб, китобат санъатининг шоҳ асарлари даражасида яратилиб, юксак санъат намуналарига айлантирилар эди.

Манбаларни моддий-техник маълумотларига қараб таҳлил этиш ҳақида манбашунос олим А. Мадраимов: “Манбаларни моддий-техник маълумотлари деганда қўлёзма китоб ёхуд ҳужжат битилган қоғознинг ўлчами, қоғози, варақлар сони, муқоваси, матн ўлчами, хати, сиёҳи, хаттоти, асар номи, муаллифи, китобат тарихи, жойи каби маълумотлар назарда тутилади. Бу маълумотлар асар ёзилиш сабаблари, унинг ёзилган жойи ва ўша вақтдаги техник тараққиёт ва ижтимоий-сиёсий муҳитни ўрганишда муҳим аҳамиятға эға. Бу маълумотларни аниқламай туриб, асарда баён этилган воқеалар ҳақида, умуман қўлёзма асар ҳақида тўғри ва тўла тасаввурға эға бўлиш, унинг хусусида фикр билдириш мумкин эмас”⁷³ – деб маълумот келтирган.

Қўлёзма китобларнинг муаллифи, асар номи, ёзилган вақти ва жойини аниқлаш қийин. Чунки, қадимги қўлёзмаларда бугунги кундаги китоблардаги каби муқованинг ўзидаёқ асар номи, муаллиф номи, китоб бошланиши ва охиридаги каби зарурий маълумотлар келтирилмаган. Баъзи ҳолларда асар охири — колофон-хотимада унинг кўчирилган вақти ва жойи ҳамда котибнинг номи қайд этилади, холос.

⁷² Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2008. – Б. 44.

⁷³ Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2008. – Б. 15.

Маълумотлар келтирилмаган тақдирда, асарнинг матни, ёзилиш ва китобати тарихи, қоғози, хати ҳамда тили ва тил услубига қараб тахминан аниқланади. Бундай маълумотларни аниқлаш тадқиқотчидан катта ҳаётий тажриба ва юксак малакани талаб қилади. Бу анча қийин ҳамда масъулиятли ишдир. Бундай масалаларни машҳур китоб билимдонлари марҳум Ибодулло Одиллов, Абдуқодир Муродов ҳамда Абдулла Носиров каби юксак малакали мутахассисларгина бир неча ёзма манбаларни солиштириш, қиёслаш асосида ҳал қилишлари мумкин.

Асар муаллифи ва унинг шахсини аниқлаш қўлёзма китобни илмий таҳлил этишда катта аҳамиятга эга. Бу асарнинг яратилиш тарихи ва унинг ёзилишига сабаб бўлган ижтимоий-сиёсий муҳитни аниқлаб олиш учун ҳам зарурдир. Одатда, қадимги қўлёзма асарларда кўп ҳолларда муаллифнинг исми маълум ва кўзга ташланадиган жойда, масалан, асарнинг боши ёки охирида қайд этилмайди. Баъзан, у муқаддима қисмида ёки асар ўртасида, воқеалар баёни орасида бирон масала юзасидан тилга олинади. Кўп ҳолларда эса муаллиф ўзининг ҳақиқий исмини айтмай, “фақир-у ҳақир”, “оғиз ва хоксор”, “бу ғариб банда” деб аташ билангина кифояланади. Бундай ҳолларда асар варақма-варақ, сатрма-сатр, алоҳида эътибор ҳамда синчковлик билан ўрганилиши лозим. Шундай ҳам бўладики, асарнинг бирон ерида муаллиф ўзи, отаси ёки яқинлари ҳақида бир-икки калима айтиб ўтади. Ёки баён этилаётган воқеага ўзининг муносабатини (масалан, “Абдуллоҳхон тахтга ўтирган вақтда камина Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад 33 ёшда эдим.”) деб, билдиради.

Хуллас, қўлёзма асарларни тадқиқ этишда муаллифининг шахси, яъни унинг қайси ижтимоий гуруҳга мансублиги, унинг дунёқарашини аниқлаш учун асарнинг умумий ғоявий йўналишини тўғри белгилаб олиш учун муҳим аҳамият касб этади.

Таҳлил ва қиёс:

Бухоро давлат бадиий-меъморчилик музей-қўриқхонаси араб ёзувидаги қўлёзмаларни ўрганиш илмий маркази фонди ўзининг бойлиги, у ерда сақланаётган асарларнинг ранг-баранглиги ва илмий қиммати жиҳатидан Ўзбекистонда қадимий қўлёзма китоблар сақланадиган энг машҳур хазиналардан ҳисобланади. Ушбу илмий марказга турли илм даргоҳларидан; Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти, Ўзбекистон Фанлар академиясига қарашли Тарих институти, Бухоро давлат университети ва бошқа олийгоҳлардан олимлар, илмий тадқиқотчилар ва магистратура йўналишида таҳсил олаётган талабалар

ташриф буюриб, илмий изланишлар олиб бормоқда. Илмий марказда қўлёзмаларнинг баъзи нусхалари сақланмоқда.

Ушбу хазинада сақланаётган қўлёзмалардан бири VIII – IX асрларда кийик терисига кўчирилган Қуръони каримнинг икки томонли бир варағи кўз қорачиғидек сақланмоқда. Архив материалларидан маълум бўлишича, муқаддас китобнинг ушбу варағини XIX аср охирида ҳаж сафарига борган бухоролик зиёратчилар она-юртларига олиб келиб, бебаҳо тухфа сифатида амир Абдулаҳадхонга совға қилганлар. 1319/1901 йилда ҳукмдор топшириғига биноан бу варақ учун саҳхоф Маҳдум Ҳабибуллоҳ томонидан махсус мукова тайёрланган. Ушбу картон мукова яшил рангда ва қизғиш чармдан ишланган.

Муқаддас Қуръон варағи Аркдаги жомеъ масжид меҳробида, кейинчалик амир хазинасида сақланган. Ушбу варақнинг биринчи саҳифасида тўлиқ ва иккинчи саҳифасининг ўртасига қадар Қуръони каримнинг “Мужодала” сураси 12-22 оятлари кўчирилган бўлса, варақ иккинчи саҳифасининг қолган қисмида “Ҳашр” сураси 1-3 оятлари битилган. 55х35 см ўлчамдаги Қуръон саҳифасида араб ёзуви, куфий хатининг ҳижозий усулида, қора сиёҳда кўчирилган.

Музей фондида сақланган ушбу бебаҳо қўлёзманинг даврини аниқлаш учун 2007 йил Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтига юборилган.

Ушбу Қуръони карим нусхасини синчиклаб ўрганган мутахассис олимлар куйдаги хулосаларини берганлар. Бухородан келтирилган Қуръони карим нусхасини Ўзбекистон Фанлар академияси Шарқшунослик институтида ҳамда Ўзбекистон мусулмонлари идорасида сақланаётган VIII асрга мансуб “Катта Лангар” Қуръони варақлари билан таққослаш натижасида Бухоро нусхаси мазкур мушафнинг 58-59 саҳифалари эканлиги аниқланди.

Бундан ташқари Гарвард университети профессори Ричард Фрай ва Кил университети профессори Клаус-Петер Хавс мазкур Қуръондаги ёзув услубига таяниб, Бухорода сақланаётган муқаддас китобнинг ислом дунёсидаги энг кўҳна Қуръонлардан бири экани ҳақида илмий хулосалар беришган. Қуръони карим VIII – IX асрда хати куфийда ёзилган.

Ислом оламида Қуръони каримдан кейинги муқаддас манба муҳаддислар султони Имом ал-Бухорийнинг “ал-Жомийъ ас-Саҳиҳ” асаридир. Илмий марказ хазинасида Имом Қасталоний ва шайхул ислом Закарийё ал-ансорийлар томонидан шарҳ ва ҳошиялар ёзилган “Шарҳи саҳиҳ ал-Бухорий” асарининг ўнга яқин томлари мавжуд. Бундан ташқари Абу Исо Муҳаммад ат-Термизийнинг “ал-Илал фил-Ҳадийс” номли китобларининг қўлёзма нусхаси ҳам мавжуд.

Араб ёзувидаги қўлёзмаларни ўрганиш илмий маркази 1990 йили Бухоро давлат музей-қўриқхонаси қошида ташкил этилган. Илмий марказни ташкил этишдан кўзланган асосий мақсад ва вазифалар қуйдагилардан иборат:

Музейдаги ва халқ қўлидаги барча турдаги араб ёзувидаги қўлёзма ҳамда тошбосма китобларни ва тарихий аҳамиятга эга бўлган ҳужжатларни бир жойга тўплаш, муҳофаза қилиш, уларни тавсифлаш, уларга илмий паспортлар, карточкалар ёзиш, шунингдек, уларни илмий ўрганиш, улар асосида илмий-оммабоп мақолалар, рисоалар тайёрлаш, уларнинг энг қимматли нусхаларини таржима қилиб, нашрга тайёрлаш, оммавий ахборот воситалари-телевидение, радио орқали чиқишлар қилиш, умуман олганда, халқимизнинг, хусусан, ёшларимизнинг маънавий онгини, илмий салоҳиятини оширишда ўз ҳиссасини қўшишдир.

Юртимиз ҳудудида форс тилида яратилган тарихий манбаларда ҳам арабий, ҳам туркий, айрим ҳолларда мўғул тили элементлари, сўзлар, иборалар, атамалар ва ҳужжатлар учраши ҳамда мавжуд бўлиши биз учун бир табиий ҳолдир. Чунки, ўтмишда халқимиз зиёлилари ва намояндалари учун бир неча тилни билиш ҳамда уларни ишлатиш одатий ҳол эди. Халқимизнинг XIII асрлик тарихи ушбу санъат асосида битилди. Буюк хаттотларимиз тарихимизни битар экан ёзаётган сўзларига шунчаки ҳарф бирикмаси деб қарамадилар, улар ҳарфларни ёзиш асносида Шарққа хос бўлган назокат ва нафосатни унутишмаган, шунинг учун ҳам тарихимиз қанчалик улуғвор бўлса, у битиб қолдирган ёзув шу қадар нафис, тарихимиз қанчалик шонли бўлса, у битиб қолдирган ёзув шунчалик муסיқийдир.

Хулоса:

Хулоса ўрнида айтиш мумкин, Бухорода китоб кўчириш араб, форс ва туркий тилларда настаълик ва “Насхий Бухорий” хати расм бўлган. Котиблар ва хаттотлар кўпроқ саройларда, айрим амалдорлар ҳузурида гуруҳ бўлиб ишлаган. Китобат ва хаттотлик санъати Марказий Осиёда темурийлар, шайбонийлар ҳамда сўнгги сулолалар аштархонийлар ҳамда манғитлар (амирлик) даврида юксак даражада тараққий этган ва ривожланган. Бухоро хаттотлик мактаби, хаттотлик санъатининг ривожланишида, китоб безаш ва миниатюра ишлаш борасидаги юксак ютуқларга эришган. Бухоро хаттотлик мактаби ҳуснихат соҳиблари (хаттотлар, котиблар ва мирзамуншийлар) Ўрта Осиё халқлари ичида жаҳон илм-фани ва маданияти тараққиётига ўзларининг салмоқли ҳиссаларини қўшишган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. Бойтуллаев Р., Остонова Г. Мозий дафтаридан саҳифалар. – Т.: O`zbekiston. 2010. – Б. 51.

2. Давлатёр Раҳим. Шихназар Матрасул. Феруз шоҳ ва шоир қисмат. – Т.: Ғ.Ғулом. – Б. 103.
3. Ислон Нури. // Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг диний-маърифий газетаси. № 11. 2017. – Б 1-3.
4. Костыгова Г.И. Дуст-Муҳаммад (ум. 1550). Трактат о каллиграфиях и художниках. Глава о прежних живописцах и близким (к ним мастерах) // Мастера искусства об искусстве. – Т.: И. М., 1965, - С. 169-180.
5. Лобар Асророва билан қилган мулоқоти, 2019 йил 6 август.
6. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.: O‘zbekiston faylasufi milliy jamiyati. 2008. – Б. 15.
7. Малок Ю. Графика и книжок искусство. Ж. Искусство, 1967. № 6. – С. 56.
8. Шарифжон Махдум Шарифжон Махдум Садр Зиё. Тазкират ул-хаттотон. ЎзФАШИ, инв. № 1304. вар. 15.
9. Жўраев Ҳ. Бухоро хаттотлик мактаби тарихи ва унинг маданий ҳаётга таъсири. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий маркази. 2014. – 240 б.

ЯНГИ ЎЗБЕКСТОН ЁШЛАРИНИНГ БАРКАМОЛ ШАКЛЛАНИШИДА ПОРСОЯ ТАСАВВУФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ АҲАМИЯТИ

Мунисхон Гуламова

*БухДУ Ислон тарихи ва манбаишунослиги, фалсафа
кафедраси доценти в.б., фалсафа
фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD),*

Аннотация: Ушбу мақолада нақшбандия тасаввуфий тариқатининг назариётчиси Хожа Муҳаммад Порсонинг маънавий меросида ифодаланган маънавий ўғитлар, уларнинг ёш авлодни тарбиялашдаги ўзига хос ўрни ҳақида фикр билдирилган. Хожа Муҳаммад Поро маънавий меросидаги фаросатли бўлиш, чиройли хулқли бўлиш, ўзликни англаш ички, ботиний поклик, қалб покизалиги, нафс тарбияси каби тушунчалар инсон тушунчаси билан уйғунлик касб этади. Шу маънода ҳам уларнинг ирфоний ахлоқий моҳиятини ўрганиш ўсиб келаётган ёш авлод тарбиясида фойдаланиш йўллари ишлаб чиқиш бугунги кунда долазарб масалалардан бири эканлигига эътибор қаратилган.

Калим сўзлар: тасаввуф, сўфий, мутасаввиф, порсоия, қалб фаросати, ахлоқий тарбия, “фироқат”, зийраклик, сезгирлик, “топқирлик”, бу-қалб кўзи, қалб назари, қалб нигоҳи.

Маънавий-ахлоқий тарбия – бу ёшларнинг маънавий идеаллари ва маънавий қадриятларини шакллантириш жараёни ва натижаси сифатида шахснинг ахлоқий хулқ-атвори асоси бўлиб, у ижтимоий ва инсоний талабларга мос келади. Маънавият, шу жумладан ахлоқий фикрлаш ва ҳис қилиш услуби, инсон ҳар доим, ҳар қандай вазиятда, ахлоқ талабларига қатъий мувофиқ ҳаракат қилишига тўлиқ кафолат бермайди. Аммо маънавиятнинг етишмаслиги, салбий хатти-ҳаракатларни, ахлоқсиз ҳаёт тарзини, умуман бўлмаса ҳам, унинг муҳим жиҳатларини амалга оширишнинг ҳақиқий имкониятларини ўз ичига олади. Демак, маънавият тўғрисида гапирилганда инсон ҳақида гап боради. Чунки, маънавият инсонга хос сифатий тушунча дейиш мумкин.

Аждодларимизнинг бой меросига назар солинса, маънавиятнинг срачашмасига кўз тушади. Ўзининг бутун умрини шу маънавиятга бағишлаган кўплаб алломаларни тилга олиш мумкин. Бироқ, бу масалада тасаввуф алломаларининг маънавий мероси ўзига хос аҳамият касб этади. Уларнинг ирфоний-фалсафий, ахлоқий қарашларидаги маънавиятга хос бўлган тушунчалар категориялар борки, улар инсон маънавиятининг муҳим асоси эканлигига шубҳа қолдирмайди. Шу маънода ватандошимиз мутасаввиф Муҳаммад Порсонинг ҳам мероси шулар жумласидандир. Хожа Муҳаммад Порсо ўзининг “Таҳқиқот” асарида тасаввуфнинг юқорида таҳлил этилган тасаввуфий ахлоқий категориялари хусусидаги фикрларига қўшимча тарзда “فراسات”⁷⁴ “фиросат”, зийраклик, сезгирлик, “топқирлик”. 1) бирор нарсанинг ташқи кўриниши, шакли, суврати ва белгиларига қараб, ичкарисси, ички хусусияти, моҳиятини билиш, зоҳирга қараб ботинни билиш; 2) ғайбий ишларни тафаррус, яъни фаҳм идрок, ички сезги ва топқирлик билан кашф этиш ҳақидаги қарашларини баён қилади. Унинг фикрига кўра, “фаросат бу-қалб кўзи, қалб назари, қалб нигоҳи бўлиб, уч турлидир: биринчиси, “фаросати баҳрия”, уни ажратувчи ёки ақлий фаросат,-деб уқтиради. Чунки, инсон фаросати билан оқ ва қорани, яхши ва ёмонни ажратиб олади. Ўзини қандай тутишни, хатти ҳаракатларини тартибга солади. Иккинчиси, “фаросати истедлолий” бу инсон фикрини ҳодисаларнинг сабаблари ва умумий қонуниятлари асосида далиловчи фаросат. Учинчиси, “фаросати қалбий”, қалбий фаросат, бу қалб назари билан кўриш, таниш, билишдир. Муҳаммад Порсо “Фаслул-хитоб” асарида шундай ёзади: “Фаросат илми шуки ўтганлар шамолларидан бир шамол ва қарам жазабаларидан бир жазаба, йўл юрувчига қабул юзасидан етади. Ғафлат пардаси ҳақиқат кўзи билан ўртадан

⁷⁴ فراسات-фиросат, идрок, нарсаларининг моҳиятини англаш. فرهنگ تفسیری زبانی تاجکی دوشنبه 2008 س. فراسات⁷⁴

кўтарилади. Унинг дийдаси Аҳадият нури билан сурмаланади. Бундай илм ғоят иззатли бўлиб улуғлигидан фақат “хитоб”⁷⁵ (“қатъий қарор”) йўли билан ҳосил қилинади ва ҳарфлару калималар кийимига сиғмайди. Ким Аллоҳни таниса тили айланмай қолади. Ориф ўз маълумотлари моҳиятидан ибора топа олмай қолади. Ким буни завқини топмас экан, билмайди” [1: Б.238.]..

Хожа Муҳаммад Порсонинг маънавий меросида “Фаросат” ахлоқий баркамолликнинг энг юқори даражаси сифатида талқин қилинади. Албатта, сўфиёна камолот англаш, билиш, ирфон тарзида ички интуитив билиш ўзига хос рамз, ишорат, ҳолатлар билан ифодаланади. Соликнинг ҳақиқатдан ғафлатда қолмаслиги унинг фаросатига боғлиқ бўлади. Бироқ унинг маънавий-ахлоқий моҳияти инсон борлигининг туб негизларини кўрсатиб берувчи омил бўла олади. Инсон билимли, ақлли, ҳамма нарсани тушинадиган сифатларга эга бўлиши мумкин, лекин фаросати бўлмаса ҳаммаси бекор. Хожа Муҳаммад Порсо “Фаслул хитоб” асарида “аз илм хуштар ҳеч чиз нийст”-деб таъкидлайди.

Қадимда Мовароуннаҳр ва Хуросондаги мадрасаларда “Фаросат илми” фан сифатида ўқитилган экан. Маълумотларга кўра, Самарқанд, Бухоро, Хива, Тошкент, Балх, Қўқон, Ҳирот ва Бағдод олий мадрасаларида фаросат илми талабаларига тўрт йил мобайнида ўтилган фанларнинг ўзлаштирилганлик даражасини аниқловчи имтиҳон тарзида, яъни якуний давлат ва жамият синовии шаклида ташкил этилган. Фаросат илми фанидан муваффақиятли ўта олмаган битирувчи ўз ҳисобидан яна бир йил мадрасада қолиб алоҳида дастур асосида таҳсил олишга мажбур бўлган. Иккинчи маротаба ҳам етарли даражада салоҳият намоён эта олмаса, унга қайта имтиҳонтопшириш ҳукуқи берилмаган ва умумий маърифати нисбатан суст деб баҳоланган. Абу Али ибн Сино: “Фаросат деб сезгидан келадиган ишоранинг асл маъносига тезда етишмоққа айтилади”, деб таъриф берган. Фаросат уч турга бўлинади: Иймоний фаросат, Касбий фаросат, Хилқий фаросат. Иймоний фаросат фақат мўмин бандаларда бўлади. Мўминларнинг ичидан ҳам Аллоҳнинг нурига мушарраф бўлганларгина сазовордирлар. Имон қанча кучли бўлса, фаросат ҳам шу даражада ўткир бўлади. Қалб - мўминнинг кўзгусидир. Зеро, Гийлоний ўз асарларида Пайғамбаримиз алайҳиссаломнинг “Мўминнинг фаросатидан кўркинг, чунки у Аллоҳнинг назари билан боқади [2: Б.31.]..

Бу ҳолатда қалб ўзида ҳамма нарсанинг тўлиқ ва ҳақиқий аксини кўрсатадиган кўзгуга айланади. Улар Аллоҳнинг нури ила ҳақ ва ботилни, ҳалол ва ҳаромни, тоат билан маъсиятни фарқлайдилар. Аллоҳ ман этган

⁷⁵Хитоб- қатъий қарор

чегараларни асло бузмайдилар. Пайғамбарлар, авлиёлар ва солих бандалар иймоний фаросат соҳибидирлар. Одамлар Аллоҳ нури билан қарайдиган мўминларга озор беришдан сақланмоқлари керак.

Касбий фаросат “Муктасаб” яъни касб қилиб эришиладиган фаросат нафақат мўминлар балки, бошқаларда ҳам бўлади. У имонни тақозо этмайди. Кўп ўқиб-ўрганиш, машқ қилиш ва риёзат билан юзага чиқади. Буни кўпроқ кашфиётчилар, даҳолар, машҳур сиёсатдонлар ҳаётини ва улар амалга оширган ишларда кузатса бўлади.

Хилқий фаросат инсон мияси катта ёки кичик бўлиши, бурмаларининг қай даражада кўп бўлиши унинг ақлли ва салоҳиятли эканлигини кўп жиҳатдан белгилаб беради. Инсон миясининг оғирлиги тахминан 1400 грамм ва ундаги нейрон хужайралар 16 миллиардга яқиндир. Одамзот бошқа жонзотлардан миясининг ҳажми ва оғирлиги борасидан фарқ қилади, ажралиб туради. Демак, инсон фаросатли ёки фаросатсиз бўлиши мумкин экан. Шунинг учун тариқатлар, тасаввуф алломалари фаросатнинг инсон маънавий оламининг асоси сифатида кўра олганлар. Унинг мавжудлиги инсонда зеҳн ўткирлиги, сезгирлик, зийракликни оширади экан. Фаросат ахлоқий комиллик, маънавий етуклик асоси сифатида талқин этилади. Хожа Муҳаммад Порсо асарларида ахлоқий масалалар таҳлилида фаросат илмига алоҳида эътибор қартади. Уни комил инсон сифатлари, фазилатларининг муҳим генезиси сифатида илгари сурган. Шунингдек, унинг “Рисолаи қудсия”, “Фаслул хитоб” асарларида алоҳида ахлоқий қарашлари баён этилган. Хусусан унинг “Хусни хулқ” ҳақидаги қарашлари ахлоқий концепцияларни ишлаб чиқишда муҳим методологик асос бўлган дейиш мумкин.

Шу маънода, Муҳаммад Порсо ўзининг “Фаслул-хитоб” асарида қуйидаги ҳадисни келтиради: “Муҳаммад (с.а.в.) айтдилар: мўминларнинг имони комили чиройли хулқлисидир. Мен сизларнинг чиройли хулқлигингизмандедилар [3: Б.374.]...

Амаллар одатлар билан қизиқиш ва қўрқиш билан бўлади. Ахлоқлар табиий бўлади, уни риёзат билан тарбия билан тузатинглар, покланглар. Агар ахлоқ соғлом бўлса ва покланган бўлса (яхши) чунки у нияти тўғри кишидагина фойда беради. Унинг ўзаги (асли) тоза бўлса, табиати чиройли бўлса, асли пок бўлса шунда фойда қилади. Чиройли хулқ бу табиий фитратдан ўтувчи эмас, албатта у фазилатга ўтишдир. Дин ва дунёда табиий одатга кўра жорий эмасдир. Бадан риёзати учун, ахлоқ тарбияси учун, у билан нафс ва халқ Аллоҳ ва расулига сарф қилиш учун ирода қилинади. Абул Қосим Ҳаким Термизий айтадилар: хусни хулқнинг ғояси энг хулқи ёмон билан бирга яшовчи, уни ёмон хулқли деб гумон қилинади, аслида одамларнинг хулқи

чиройлиси шудир. Аллоҳнинг авлиёлари халқидан холислари уларни ўзи учун танлаб олган. Уларга шу яхши хулқларни иқбол қилган. Уларни ўз қўйнида сақлаган ва уларни бошқалардан рашк (қизғонган) қилган. Улар шундай кишиларки, уларнинг туғилишлари пок, ўсишлари чиройли, табиатлари соф бўлган, сўнгра Аллоҳ уларга одоб берган, одобини чиройли қилган, илм ўрганган, таълимларини чиройли қилганлардир.

Муҳаммад Порсо фикрига кўра, одамларнинг баъзилари туяга ўхшашади, уларда фаҳмлисини топа олмайсан, улар ҳақида пайғамбар айтганлар: одамлар маъданлар кабидирлар, жоҳилиятда яхшилари, исломда ҳам яхшиларидир. Агар кимдаки, мана шу поклик, туғилишдаги ва табиатдаги заковат ва ниятнинг тўғрилиги бўлмаса, у нафс риёзати ва ахлоқини тарбиясига ҳаракат қилиши, шахватига қарши курашиши керак. Сабр билан умрини ўтказмоғи лозим. Чунки, яхшилик одат учун, ёмонлик эса эҳтиёж учундир, дейди.

Бундай тарбияланган яхши хулқ ва муомалага эга кишиларни Хожа Муҳаммад Порсо “Роҳила” деб таъриф беради. Роҳила деб туянинг сафарга миниладигани айтилади. У ўргатилади, чиниқтирилади, итоатли бўлиши учун одоб берилади. У хўжайинига бўйсунадиган бўлади. Ёмонлиги билан яхшилик қилади. Эгасига хор бўлиб, нафси билан яхшилик қилади. Эгаси уни тарбиялайди, ёмон ҳолатлари йўқолади, ҳатто эгаси олдида бир манзилга эга бўлади. Уни бирор кишига унга эғалик қилгани қўймайди ва уни бировга мутлоқ бериб юбормайди. У эгасининг энг яхши мулки ҳисобланади. Хожа Муҳаммад Порсо инсонларнинг яхшиликка, эзгуликка интилишларини, Ҳақ олдида итоаткор бўлишларини, инсон инсонга мутеъ, тобеъ эмас, ўз Роббийсига итоаткор бўлиши, унинг ўзгалар билан қанчалик аҳил ва иноқ, илик муносабатларда бўлишига боғлиқ эканлигини уқтиради.

Хожа Муҳаммад Порсо ўз даврининг айрим кишиларини хулқ-атворда қусурли эканликларини баён этади: одамларнинг ҳоли ҳам шундай, бирорта Раббийсига итоатли бўйсунувчи Роҳиласини топмайсан. Нафсини ибодатга одатлантирганини топиш қийинроқ. Агар “Роҳила” бўлса банда Роббийси ҳузуридан катта насибага эга бўлади. Ундан насибадорлиги билан нажот топади. Нафсини поклайди, хулқини яхшилайдди. Кўкси очилади, томирлари юмшайди. Қалби янгиланади. чиройли хулқ масаласидаги фикр мулоҳаза ва қарашларни тасаввуфга бағишланган аксарият асарларда кўриш мумкин. Чунки, тасаввуф ўзи тутасаввифлар таърифи билан айтганда “тасаввуф бори ахлоқдур”, шу маънода инсон учун энг муҳим сифатлардан бири чиройли хулқ эканлиги тўғрисидаги фикр келиб чиқади. Тасаввуфнинг замонавий илм-фандаги энг кўп ўрганилаётган томонлари ахлоқий-ирфоний жиҳатлари десак

муболаға бўлмайди. Хожа Муҳаммад Поро маънавий меросидаги фаросатли бўлиш, чиройли хулқли бўлиш, ўзликни англаш ички, ботиний поклик, қалб покизалиги, нафс тарбияси каби тушунчалар инсон тушунчаси билан уйғунлик касб этади. Шу маънода ҳам уларнинг ирфоний ахлоқий моҳиятини ўрганиш ўсиб келаётган ёш авлод тарбиясида фойдаланиш йўллари ишлаб чиқиш бугунги кунда долазарб масалалардан биридир. Янгиланиш, маънавий ислохотлар даврида бундай концептуал ғояларни комплекс тадқиқотларга тортиш муҳимдир. Глобаллашувнинг салбий таъсири натижасида ахлоқсизлик, маънавий қашшоқлик инсонни инсонга қарши қилиб қўяётгани, инсонни нафс гирдобига тортаётгани бундай қаршалр тизимини янада чуқурроқ ўрганишни тақазо этади. Сўфийлар инсон ботинни поклаш, қалбнинг, руҳнинг шарафланишига эришишга интиладилар. Шу жиҳатдан инсон қалби Аллоҳнинг жилвагоҳи, бу ойина тоза, саришта бўлса, Аллоҳ нури, Аллоҳ илму ҳикмати унда шунча тиниқ акс этади. Шу каби илоҳиёт руҳи билан суғорилган сўфийларнинг таълимотида зоҳирий ва ботиний олам уйғунлашиб, Аллоҳ, табиат ва инсоннинг ягоналиги ҳақидаги дунёқараш юзага чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Таржима Н.Б. – Бухоро: Когон, Нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42. -Б.238.
2. Муҳйиддин Абу Муҳаммад Абдулқодир Жийлоний. Раббонийликни англаш. Таржимон: Тўлқин Ийсо ўғли. Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси., 2015. –Б.31
3. Хожа Муҳаммад Порсо. Фасл-ул-хитоб би вусул-ил аҳбоб. Инв. 42.1331.-Б.374.

NASRULLOHXON HARBIY NIZOMIDA QO‘SHIN TUZILISHI HAMDA SARBOZLAR TA‘LIMIGA OID QONUN QOIDALAR VA BUYRUQLAR TAVSIFI

*Yunus Shukurillayev,
Buxoro davlat texnika universiteti.
Tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Тел: +998 (93)450-81-14*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Abbosquli Mirzo Kirmoniy tomonidan 1272 hijriy (1856) yilda yozilgan “Buxoro davlatining harbiy nizomi”dagi qo‘shin tuzilishi hamda sarbozlar ta‘limiga oid qonun-qoidalar va buyruqlar tavsifi keltiriladi

Kalit so‘zlar: Nizom, sarboz, sarjuqa, muxabbir, rasad, dasta, bahra, shapur, tabl

Bugungi kunda O‘zbekiston tarixini xolisona o‘rganishda arxiv fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozma manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi qarori [1] bu borada amalga oshirilayotgan ishlar rivojiga muhim qadam bo‘ldi.

Amir Nasrullohxon (1827-1860) xonliklar orasida birinchi bo‘lib muntazam qo‘shin asos solgan, harbiy islohotlar amalga oshirgan hamda Eron, Turkiya va Yevropaning eng rivojlangan (Angliya, Fransiya, Germaniya) harbiy nizomlari asosida harbiy nizom ishlab chiqqan sarkarda sanaladi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mang‘itlar sulolasiga oid 3 harbiy nizom saqlanadi. Abbosquli Mirzo Kirmoniy tomonidan 1272 hijriy (1856) yilda yozilgan “Buxoro davlatining harbiy nizomi” [2, v-93], Amir Abdulahadxon davrida Rossiya harbiy nizomi asosida Mullo Xolmurodbiy va Mullo Muhammad Toqiy tomonidan tayyorlangan nizom [3, v-123] hamda 1308 hijriy (1890-1891) yilda Mirzabiy To‘qsabo tomonidan kengaytirilgan qo‘lyozmalar [4, v-193] bo‘lib forsiyda yozilgan mazkur manbalar hanuzga qadar ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Amir Nasrullohxon tomonidan qo‘llanilgan “Buxoro davlatining harbiy nizomi”da qo‘shin tuzilishi, sarbozlarga ta‘lim berish odobi hamda ta‘limiga oid qonun qoidalar va buyruqlar to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi:

-“Har bir kishi dastada o‘zining joyi va maqomini bilishi kerak. Birinchidan, baland qomatli sarbozlarni safning avvaliga qo‘yish lozim bo‘ladi. Safning boshidan oxirigacha shu tartibda, ya‘ni balanddan pastga qarab qo‘yiladi. Bu tartibga dastajotda ham rioya qilinadi. Sarbozlardan saralangan bahodirlar dastasi boshqa dastalardan balandroq bo‘lishi shart. Ikkinchidan, safdagi har bir sarboz o‘zining oldidagilarni – chapu o‘ng, oldu orqasidagilarni tanishi kerak. Har qachon safga turganida o‘sha tartibda tursinlar, bu qoidaga xilof qilmasinlar. Ikkinchi saf ham xuddi avvalgi safdagi tartibda tuziladi” [2, 1^a-varaq].

Nizomda keltirilgan Buxoro amirligi muntazam qo‘shini tarkibi xususidagi quyidagi ma‘lumotlar Rossiya imperiyasining josuslik, razvedka ma‘lumotlari hamda boshqa mahalliy manbalar bilan taqqoslash imkonini beradi:

-“Bas, bilsinlarki, ikkita safda yuz sarboz saf tortsa, uni “Dasta”- (دسته) deb nomlaydilar. Dastaning yarmini “Rasad”- (رصد) deb, birinchi yarmi o‘ng rasad, ikkinchi yarmi chap rasad deyiladi. Dastaning to‘rtidan birini “Bahra”- (بهره), to‘rt bo‘lak birinchi bahra, ikkinchi bahra uchinchi bahra, to‘rtinchi bahra deb nomlanadi. Birinchi va uchinchi bahralarni o‘ng bahra, ikkinchi va to‘rtinchi bahralarni chap bahra deyiladi. Birinchi safning o‘ng qo‘lidagi birinchi sarbozni o‘ng namoyanda, ikkinchi safning chap qo‘lidagi oxirgi sarbozni chap namoyanda deyiladi. Dasta

boshlig‘ining joyi dastaning o‘ng tomonidagi birinchi safda turgan sarbozning yonida bo‘ladi. Dastaning birinchi noibining joyi chap rasadning oxiridagi uchinchi sarbozning orqasida bo‘ladi. Dastaning ikkinchi noibining joyi o‘ng rasadning boshidagi uchinchi sarbozning orqasida bo‘ladi. Birinchi vakil ikkinchi safda dasta boshlig‘ining orqasida turadi. Qolganlar ikki noibning orqasida turadi.

Dastalarning orasi bir qadamdan bo‘ladi. O‘ng va chap rasadlarning “Sarjuqa” (Sarjuqa – (سرجوقه) olti kishidan iborat harbiy qismda vzvod komandiri) oldingi safdagi sarbozlar bilan bir qatorda turadi. Qachonki, dasta boshlig‘i dastaning chap tomoniga kelsa, noiblar o‘z joylarini o‘zgartiradilar. Birinchi vakil esa aksincha, dasta boshlig‘ining orqasidan keladi. Birinchi favjning birinchi dastasi “Bahodir”lar – (بهادر) deb nomlanadi. Ulardan keyingi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi va sakkizinchi qatorlarni “Muxabbir”lar (Muxabbir - (arabcha: مُخَبِّر) so‘zi arab tilidagi “xabar” (خبر) - ya’ni axborot, ma’lumot, yangilik so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, xabar beruvchi, axborot etkazuvchi - ya’ni, ma’lumot tarqatuvchi shaxs ma’nosini anglatadi) deyiladi. Ikkinchi, to‘rtinchi, oltinchi va sakkizinchilar o‘ng qo‘l, qolganlari esa chap qo‘l deb aytiladi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi bahodirlar dastalari o‘ng tomon qolganlari esa chap tomon deyiladi. To‘rtinchi va beshinchi dastalarni markaz deydilar. Bahodirlar dastasining birinchisini birinchi guruh, ikkinchi va uchinchisini ikkinchi guruh, to‘rtinchi va beshinchisini uchinchi guruh, oltinchi va ettinchisini to‘rtinchi guruh, sakkizinchisi va muxabbirlarni beshinchi guruh deydilar. To‘rtinchi va beshinchi dastalarni markaz guruhlari deydilar, sakkizinchisi va muxabbirlarni oxir guruhlari deydilar” [2, 1^b -2^a varaqlar].

Amir Nasrullohxon qo‘shinidagi qoidalar, xususan harbiycha buyruqlar o‘sha davrning eng zamonaviy qo‘shinlarida ham keng qo‘llanilgan.

-“Sarboz shapur (surnay) va tabl (do‘mbira) chalinganda o‘sha joylarida zudlik bilan bo‘lishi kerak va bunda “Hozirbosh!” – (حاضر باش) (saflan) buyrug‘i beriladi. Safda gap-so‘zsiz va harakatsiz atrofga qaramasdan turishlari lozim. O‘zlarining dasta boshliqlarining amrini kutishlari lozim. Sarbozning safda turish qoidasi shuki, u oyoq poshnalarini bir-biriga juft qilib, oyoq uchlarini to‘rt barmoq kenglikda ochib turadi. Masohat (oyoqning joylashish) qoidasi shuki, oyoq uchlari aylananing to‘rtidan biri miqdorida bo‘ladi. Poshnalar esa aylana markazida bo‘ladi. Oyoqlar ochilib, poshnalar juftlanganda aylananing to‘rtidan birida uchburchak hosil bo‘lishi, tizzalar oldinga chiqmasligi, o‘ngga yoki chapga moyil bo‘lmasdan nihoyatda tekis turishi, safda turganida shovqinli tovushlar chiqmasligi, ko‘kragini oldinga chiqarib, qorinni ichkariga tortib, elkalarini tekis qilishi, badan toshdek qotib turishiga e’tibor qaratish lozim, bo‘yni va boshi yuqoriga, yuzi oldiga qarashi, oyoq ostiga qaramasligi kerak” [2, 2^b - varaq].

“Rohatbosh!”- (راحت‌باش) (“Вольно”, erkin bo‘l) buyrug‘i berilganda o‘ng qo‘lning kaftini chap qo‘lning kaftiga urib, zudlik bilan kamarbandning muqobiliga qilinadi. O‘ng qo‘l barmoqlarini chap qo‘l kaftidan o‘tkazib, o‘ng qo‘l bosh barmog‘ini chap qo‘l kaftining o‘rtasiga qo‘yadi. Chap qo‘l bosh barmog‘ini esa o‘ng qo‘l bosh barmog‘ining oxirgi bandiga olib boradi. Zahmat etmasligini nazarda tutib, qo‘llarini pastroq tushiradi. O‘ng oyog‘ini erga urib, oyog‘i qornini ichiga tortib, o‘ng poshnasini chap oyog‘ining poshnasiga ursin. bu harakatni qo‘l va oyoqlari bilan bir paytda qiladi, bunda o‘ng oyog‘ining tizzasi bukilmasligi kerak. “Xabardor!”- (خبردار) (“Смирно”) buyrug‘i berilganda esa, qo‘llar zudlik bilan ikki yoniga tekis tegiziladi. Agar qo‘lida to‘fang (miltiq) bo‘lsa, uning qo‘ndog‘ini o‘ng qo‘l bilan ushlaydi va ikki qo‘li chap tomonida bo‘ladi. Oyog‘larini hozirboshdagidek bir-biriga juft qilgan holatda qo‘yadi va chap oyog‘ini bir harakatga keltirib qo‘yadi. “Nazar barost!”- (نظر به‌راست) (“Направо”, o‘ngga) buyrug‘i berilganda, sarboz butun badani va a‘zolari, ko‘zi ham harakat qilmasdan, dastaning o‘ng tomonida turgan sarbozlarning ko‘kragi tomon qaraydi. Bu buyruqning foydasi shuki, agar dastadagi sarbozlar oldinma ketin turgan bo‘lsalar hammalari bir xilda rostlanadilar. Bir-birlaridan orqaga qolmasliklari lozim. “Nazar bachap!”- (نظر به‌چپ) (“Налево”, chapga) buyrug‘ida esa yuqorida zikr qilinganlarning teskarisi amaliyoti bajariladi. “Nazar bapesh!”- (نظ به‌پیش) (oldga) buyrug‘ida o‘zining yuzi tomonga qarash tushiniladi. Bu buyruq dasta yoki favjda biron harakat bo‘lsa, shu harakatni tugatib, forig‘ bo‘lish uchun beriladi. Dasta boshlig‘i dastaning qaerida bo‘lsa, bu buyruqni eshitgach, o‘z o‘rniga kelib turadi. “Barost rost!”- (به‌راست راست) (“Направо”, o‘ngga) buyrug‘i jarayonida ikki harakat amalga oshiriladi. Birinchi “barost”ni eshitganda o‘ng oyog‘ini ko‘tarib, chap oyog‘ining qorniga tegizadi. Biroq chap oyog‘i harakat qilmay turadi. Ikkinchi “rost”ni eshitgandan so‘ng panjasi va poshnalarini harakatga keltirib, o‘ng tomonga buriladi. Burilgandan so‘ng oyoqlar orasi doiraning to‘rtdan biriga ochiq turadi. “Bachap chap!” (“Налево”, chapga) buyrug‘i ham ikki harakatdan iborat bo‘lib, birinchi “bachap” buyruqda chap oyog‘ini harakat qildirmaydi va o‘ng oyog‘ini ko‘tarib, avvalgi kabi chap oyog‘ining qorniga tegizib turadi, ikkinchi “chap” buyrug‘idan so‘ng chap tomoniga o‘giriladi. Bunda chap oyog‘ining poshnasi markazdan qochmasligi kerak. U buyruqni eshitganda zudlik bilan o‘z markazidan chapga qaytib, xuddi “Xabardor!” buyrug‘idagidek o‘ng poshnaga tegib, juft bo‘lib turadi [2, 3^a varaq].

Yuqorida keltirilgan buyruqlar hamda unda amal qilish qoidalari nafaqat o‘sha davr rivojlangan davlatlar havrbiy Nizomlari, balki amaldagi Rossiya federatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Nizomlari bilan ham o‘xshashlik jihatlari ko‘zga tashlanadi [5, c-22, 6].

“Front!”- (فرونت) (“Отставить”), “Tarafi rost kard!”- (طرف راست کرد), “Tarafi chap kard!”- (طرف چپ کرد), “Chahor bachahor march!”- (چهار بچهار مارچ), “Du badu march” – (دو بدو مارچ), “Chahor barost!”- (چهار بُراست), “Chahor bachap”- (بُسته بچپ), “Busta basta” – (بُسته بَسته), “Busta bachap!”- (بُسته بچپ), “Busta barost!”- (بُسته بُراست), “Busta ba’qb!” – (بُسته بعقب), “Ohista march!”- (آهسته مارچ), “Zud march!”- (زود), “Holt!”- (هَلت), “Mayl bachap!”- (میل بچپ), “Mayl barost!” – (میل بُراست), “Qadam baland!”- (قدم بلند), “Darjo march!”- (درجه مارچ), “Qadami kÿtoh!”- (پهلوی چپ مارچ), “Pahlu rost march!”- (پهلوی راست مارچ), “Pahlu chap march!”- (پهلوی چپ مارچ), “Qator barost!”- (قطار بُراست), “Qator bachap!”- (قطار بچپ), “Barost rav!”- (بُراست رو), “Bachap rav!”- (بچپ رو), “Bamarkaz rav!”- (بمَرکز رو), “Bamador rav!” – (بمَدور رو), “Barost muxtalif march!”- (بُراست مختلف مارچ), “Bachap muxtalif!”- (بچپ مختلف), “Barost kard!”- (بُراست کرد), “Aqb barost!”- (بُراست مختلف مارچ), “Aqb bachap!”- (عقب بچپ), “Bozu rost pesh!”- (بازو راست کرد), “Davrai barost kard”- (دوره بُراست کرد), “Bomarkaz barost kard”- (بمَرکز بُراست کرد), “Davra bachap kard”- (دوره بچپ کرد), “Safdur march!”- (صفدُر مارچ), “Saf nazdik march!”- (صف نزدیک مارچ), “Rasad boz!”- (رصد بچپ تشتیون), “Bachap tashtivon!”- (بُراست تشتیون), “Pesh dasta bisoz!”- (پیش رصد بساز و پیش بهره), “Rasad tunqator va bahra tunqator!”- (رصد تنقطار و بهره تنقطار), “Chap dasta bisoz!”- (چپ دَسته بساز), [2, 4^b - 15^a ga qadar varaqlar] “Du saf bisoz!”- (دو صف بساز) va boshqa yuzlab buyruqlar, ular ijrosi jaryoni ko‘rsatib o‘tiladi. E’tiborlisi shundaki, ba’zi buyruqlar jarayonidagi harakatlar yo‘nalishi maxsus chizmalarda ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari, Nizomdagi ba’zi qoidalar qaysi davlat harbiy Nizomlaridan olinganligi ham tilga olinadi. Bu esa, amir Nasrullohxonning o‘sha davr Yevropa harbiy Nizomlariga ham katta qiziqishlar bilan e’tibor qaratganligidan dalolat beradi:

-“Se saf bisoz!”- (سه صف بساز), –Angriz(Angliya-Y.Sh) nizomi bo‘yicha tashtivon dasta har doim ikki saf bo‘lgan. Shuning uchun bu buyruqning qoidasi asl kitobda bayon qilinmagan bo‘lsa ham bu joyda bayon qilamiz. Qoida bu tartibda bo‘ladi: dasta uch qismga bo‘linadi, avvalgi uchdan ikki qismi harakat qilmaydi, oxirgi undan bir qismi buyruq berilishi bilan bir qadam orqaga march qiladi va buyruqdan so‘ng yuzini o‘ng tomonga qilib, birinchi saf march qiladi, ikkinchi saf joyda march qilib turadi. Birinchi safning oxirgi sarbozi ikkinchi safning birinchi

sarboziga etib kelganda ikkinchi saf sarbozlari ham unga ergashib march qiladilar. “holt”, **“Front nizom!”**-(فرونت نظام) buyrug‘i berilgach, uchta safga ajraladilar. Bu Faransa (Fransiya-Y.Sh) nizomiga binoan bo‘ldi [2, 14^b varaq].

Xotima qismida Buxoro davlatining harbiy nizomi umumiy qoidalari muxtasar bayon qilinadi va yozilish sanasi sifatida 29 rabi‘ul avval, 1272 (1856) yil, Buxoro shahrida, Abbosquli Kirmoniy tomonidan Malik ul-Vahhob zotning yordami bilan tayyorlanganligi qayd etiladi.

Mazkur Nizom amir Nasrullohxonning sarkardalik salohiyati, etakchilik mahorati va harbiy bilimini ochib beradi. 1852 yilda Qo‘qon xonligiga bosqin boshlanishi bilan amir harbiy islohotlarni kuchaytirib, zamonaviy qo‘shinlarni shakllantirish, Angliya va Fransiya kabi Yevropa davlatlarining harbiy qonun va taktikalari asosida jang uslublarini joriy etishga intilgan. Bu esa, sobiq davrlar tarixi bo‘yicha tarqalgan amirlarning mayishatbozligi yoki befarqligi haqidagi fikrlarni inkor etadi. Shunga qaramay, mintaqadagi ichki nizolar, xonliklar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va malakali kadrlarning etishmasligi sababli boshlangan islohotlarning to‘liq joriy etilishi va kutilgan natijaga erishish imkoni cheklangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi qarori
2. Buxoro davlatining harbiy Nizomi. //Qo‘lyozma. O‘zR FA ShI. №2793. –V. 93.
3. “رسالت النظاميه” – (“Risolatun nizomiya”-Buxoro amirligining harbiy Nizomi). //Qo‘lyozma. O‘zR FA ShI. №3322. –V. 123.
4. “رسالت النظاميه” – (“Risolatun nizomiya”-Buxoro amirligining harbiy Nizomi). //Qo‘lyozma. O‘zR FA ShI. №2794. –V. 193.
5. Строевой Устав Вооруженных Сил Российской Федерatsii (Введен в действие приказом министра обороны Российской Федерatsii от 11 марта) 2006 года № 111 Москва военное издательство 2006. С-22
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 14 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг ҳарбий низомларини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-23-сон Фармони. Ўзбекистон Қуролли кучларининг Ички хизмат низоми, Ўзбекистон Қуролли кучларининг Интизом устави, Ўзбекистон Қуролли кучларининг Гарнизон ва қоровуллик хизматлари Низоми

GLOBALLASHUV DAVRIDA TASAVVUFNING AHAMIYATI: AN’ANAVIY VA IBN SINO NAZARIY YONDASHUVLARI ASOSIDA

Ro‘zimuhammad To‘xtasinov Nurmuhammad o‘g‘li

Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

*Buxoro Davlat universiteti Islom tarixi va
manbashunosligi, falsafa kafedrasi doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonining inson ruhiy hayotiga, axloqiy qadriyatlariga va shaxsiy identitetiga ta’siri tahlil qilinadi. Globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u insonni ma’naviy beqarorlik, individualizm va virtual olamga haddan tashqari bog‘lanish kabi muammolarga olib kelayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Shu nuqtai nazardan, maqolada tasavvufning zamonaviy inson tarbiyasidagi o‘rni, uning ruhiy va axloqiy muammolarga echim berishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ibn Sinoning nazariy tasavvuf qarashlari asosida tasavvufning aql va ruh uyg‘unligini ta’minlovchi falsafiy mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada virtual hayotda yashayotgan yoshlar orasida tasavvufiy qadriyatlarni targ‘ib etishning zamonaviy usullari — raqamli ta’lim, onlayn zikr va ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy-ma’naviy kontent yaratishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, tasavvuf, ma’naviyat, Ibn Sino, ruhiy tarbiya, virtual hayot, yoshlar, ma’rifat, axloqiy qadriyatlar, zamonaviylik.

KIRISH

Globallashuv — bu dunyo davlatlarining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan bir-biriga yaqinlashuvi, insoniyatni yagona axborot va iqtisodiy makon sifatida birlashtiruvchi murakkab jarayondir. U bugungi kunda taraqqiyotning muhim omili bo‘lishi bilan birga, jamiyatning ma’naviy hayotiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shubhasiz, globallashuv insoniyatga ilm-fan, texnologiya, aloqa vositalari va ma’lumot almashish imkoniyatlarini kengaytirib berdi. Ammo bu jarayon bilan birga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning emirilishi, ruhiy beqarorlik, shaxsiy individualizm va ma’nosizlik hissi kabi salbiy oqibatlar ham yuzaga keldi.

Bugungi zamon odami ko‘p narsaga ega bo‘lsa-da, ko‘ngil tinchini yo‘qotgan, ma’naviy tayanchdan uzoqlashgan. Aynan shunday bir davrda insonni o‘z ichki olamiga qaytaruvchi, qalb tarbiyasiga asoslangan tasavvuf ta’limoti o‘zining dolzarbligini yana bir bor namoyon qilmoqda.

Globallashuv davridagi ma’naviy inqiroz va uning sabablari

Globallashuvning salbiy ta’siri eng avvalo inson ma’naviy hayotida sezilmoqda.

Uning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

1. Ma’naviy individualizmning kuchayishi. Har kim o‘z manfaati yo‘lida yashaydi, ijtimoiy birdamlik zaiflashadi.

2. Axborot ifloslanishi. Virtual olamda haqiqiy qadriyatlar soxtasi bilan aralashib ketadi.

3. Madaniyatsiz kosmopolitizm. Diniy va milliy farqlarni yo‘qotish, yagona “global inson” konsepsiyasi orqali ruhiy ildizlarni uzish xavfi.

4. Ruhiy bo‘shliq va ma’nosizlik hissi. Moddiy farovonlik ortidan quvish natijasida ma’naviy hayot so‘nadi.

Bu jarayonlar natijasida zamonaviy inson ruhiy jihatdan charchagan, o‘zligini anglashdan uzoqlashgan. Shu bois globallashuvning bu ma’naviy inqiroziga javoban, ruhiy uyg‘onish manbai sifatida tasavvuf ta’limoti yana kun tartibiga chiqmoqda.

Tasavvuf mohiyati va uning inson tarbiyasidagi o‘rni

Tasavvuf — islomiy ma’naviyatning qalb markazi, insonni ichki poklanish, axloqiy yuksalish va Haq bilan yaqinlik sari yo‘naltiruvchi ruhiy tizimdir. Uning mohiyatini “Allohnin tanish” (ma’rifat) va “nafsni engish” (tazkiya) jarayonlari tashkil etadi. Tasavvuf zohiriy ibodatlardan ruhiy mazmunni ajratmaydi, balki ularni bir butun tarzda inson kamoloti yo‘liga aylantiradi.

An’anaviy tasavvuf maktablari — Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya, Qodiriya kabi suluklar — jamiyatda axloq, poklik, sabr, halollik va muhabbatni tarbiyalashni maqsad qilgan. Bu tariqatlar asrlar davomida musulmon jamiyatlarining ijtimoiy barqarorligiga, ruhiy muvozanatiga va tinchligiga asos bo‘lgan.

Ibn Sinoning nazariy tasavvufi va uning dolzarbligi

Ibn Sino (980–1037) — Sharq falsafasida aql va ruh uyg‘unligini mukammal tarzda tushuntirgan mutafakkir. Uning fikricha, insonning haqiqiy kamoloti — bu aql orqali ruhni Haq sari etaklash jarayonidir. U tasavvufni “aql va tajriba orqali Haqiqatni idrok etish” deb ta’riflaydi.

Ibn Sinoning nazariy tasavvufi an’anaviy tariqatlardan farqli ravishda falsafiy asosga ega: u ruhiy yuksalishni uch bosqichda ko‘rsatadi:

1. Tazkiya — inson o‘z nafsini poklaydi, shahvat va g‘azab kuchlarini nazoratga oladi.

2. Tajalli — qalb ilohiy nurlar bilan yorishadi, bilish va idrok yuqori darajaga chiqadi.

3. Itihod — inson Haq bilan ma’naviy birlashuv holatiga etadi.

Bu yondashuv globallashuv davridagi inson uchun g‘oyat muhimdir. Chunki bugungi davrda inson “aql”ni haddan ortiq qadrlab, “ruh”ni unutgan. Ibn Sino esa

aqlni vosita, ruhni esa maqsad sifatida ko‘rsatadi. Shu jihatdan uning nazariy tasavvufi zamonaviy ilm va ruhiyatni uyg‘unlashtiruvchi mukammal modeldir.

Tasavvuf — globallashuv muammolariga javob sifatida

Tasavvuf nafaqat shaxsiy ruhiy yuksalish tizimi, balki global ma’naviy muammolarga javob bera oladigan falsafiy tizimdir. U quyidagi yo‘nalishlarda globallashuvning inqirozlariga echim taklif etadi:

1. Ruhiy beqarorlikka qarshi muvozanat

Globallashuv insonni moddiy dunyoga bog‘lab qo‘ydi. Tasavvuf esa uni ichki sokinlik, zikr va tafakkur orqali o‘z “men”iga qaytaradi. Naqshbandiya maktabining “dil ba yoru, dast ba kor” (“dil Allohda, qo‘l mehnatda”) tamoyili zamonaviy inson uchun ruhiy barqarorlikni saqlashda juda muhim metoddir.

2. Axloqiy inqirozga qarshi fazilatlar tarbiyasi

Tasavvuf “axloqiy psixologiya” sifatida insonni halollik, adolat, muhabbat, sabr, tavozu’ kabi sifatlar bilan bezaydi. Bugungi jamiyatda axloqiy qadriyatlar emirilayotgan bir paytda, tasavvuf — bu fazilatlarni amaliy tarzda tiklovchi tizimdir.

3. Madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash

Tasavvufning markazida “muhabbat” va “rahmat” tushunchalari yotadi. Jaloliddin Rumi aytganidek:

“Kel, kim bo‘lishingdan qat’i nazar, kel — muhabbat uyiga eshik yopilmagan.” Bu g‘oya madaniyatlararo bag‘rikenglikni targ‘ib qiladi. Demak, tasavvuf global tinchlik va muloqotning ruhiy asosidir.

4. Ilm va ruh uyg‘unligi

Ibn Sino kabi allomalar tasavvufni aql bilan uyg‘un holda tushuntirish orqali “fan – din – axloq” muvozanatini yaratdilar. Bugun ilmiy-texnik taraqqiyot ruhiy inqiroz bilan birga kechayotgani sababli, tasavvuf ana shu muvozanatni tiklash imkonini beradi.

5. Shaxs va jamiyat uyg‘unligi

Globallashuvda inson o‘z jamiyatidan ajralib qoladi. Tasavvuf esa insonni jamiyat uchun foydali, saxovatli, tinchlikparvar shaxs sifatida tarbiyalaydi. Naqshbandiylikdagi “xalq orasida bo‘lib, Haq bilan birga yashash” tamoyili zamonaviy fuqarolik mas’uliyati bilan uyg‘unlashadi.

Virtual olam va tasavvufiy tarbiyaning zamonaviy roli

Bugungi globallashuv davrining eng muhim belgisi — bu inson hayotining tobora raqamli (virtual) makonga ko‘chib o‘tayotganidir. Yoshlar, talabalar va ko‘plab etuk shaxslar o‘z vaqtining katta qismini ijtimoiy tarmoqlarda, sun’iy ong va axborot tizimlari ichida o‘tkazmoqda. Bu holat ularning tafakkuri, ruhiyati va ijtimoiy xulqiga chuqur ta’sir qilmoqda.

1. Virtual olamning ruhiy oqibatlar

Virtual muhit insonning tabiiy his-tuyg‘ularini susaytiradi:

- inson real hayotdagi mehr, sabr, muhabbat kabi hislarni sun’iy “layk” va “izohlar” bilan almashtiradi;

- ma’naviy qadriyatlar o‘rniga shon-shuhrat, ko‘rinish va mashhurlik qadriyatga aylanadi;

- vaqt o‘tishi bilan shaxs “ichki sukut”ni yo‘qotadi, bu esa tafakkur va zikrning so‘nishiga sabab bo‘ladi.

Demak, bugungi inson — ayniqsa yoshlar — ruhiy jihatdan virtual olamga qaram bo‘lib qolish xavfi ostida. Shu nuqtada tasavvuf zamonaviy insonni “virtual borliqdan ruhiy borliqqa” qaytarishning eng tabiiy va insoniy yo‘lini taklif etadi.

2. Tasavvufning zamonaviy raqamli hayotdagi tarbiyaviy imkoniyatlari

Tasavvuf asrlar davomida inson qalbini tarbiyalashning eng nozik va samarali usullarini ishlab chiqqan. Uning asosiy tamoyillari — zikr, tafakkur, muhabbat, sabr, tavozu’ va sukut — bugungi raqamli muhitda ham dolzarbdir.

Raqamli hayotda tasavvufiy tarbiyani quyidagi usullar orqali singdirish mumkin:

a) Raqamli zikr va ma’naviy kontent

Tasavvufda “zikr” faqat og‘iz bilan emas, qalb bilan amalga oshadi. Bugun esa bu ruhiy amaliyotni raqamli shaklda targ‘ib etish mumkin:

- mobil ilovalar, audio zikrlar, onlayn suhbatlar, ruhiy darslar orqali yoshlar qalbini sokinlik sari yo‘naltirish;

- sufiy hikmatlari, ma’rifatli so‘zlar, she’riy parchalarni ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, lekin ta’sirli shaklda tarqatish.

Masalan, Jaloliddin Rumiyning: *“Sokin bo‘l — shunda yuragingda Haq so‘zlaydi”* degan hikmatini vizual dizayn orqali Instagram yoki Telegram sahifalarida tarqatish — bu zamonaviy zikr shaklidir.

b) Virtual suhbatlarni ma’rifiy maktabga aylantirish

Ko‘plab yoshlar onlayn muloqotda o‘z fikrini erkin bildirishni yoqtiradi. Shu imkoniyatdan tasavvufiy suhbatlar, onlayn “majlislar”, Zoom yoki Telegramdagi “ruhiy doiralar” sifatida foydalanish mumkin. Bu tasavvufdagi “suhbat” an’anasining zamonaviy shakli bo‘ladi.

c) “Digital suluk” g‘oyasi

An’anaviy tasavvufda “suluk” — bu muridning ustoz yo‘l-yo‘rig‘i asosida o‘zini tarbiyalash jarayonidir. Bugungi davrda bu tushuncha raqamli ustozlik va o‘zini nazorat qilish tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tasavvufiy “muroqaba” (o‘zini kuzatish) amallarini

o‘rgatuvchi platformalar, kundalik ruhiy mashqlar ilovalari yaratish — yoshlar ruhiyatini sog‘lomlashtiradi.

d) Tasavvufiy axloqni raqamli madaniyatga tatbiq etish

Tasavvufda insonning har bir so‘zi, nigohi va niyati mas‘uliyatli sanaladi. Shu tamoyillarni virtual muhitda ham tatbiq etish lozim:

- so‘zlashdan oldin fikrlash (zikr va sukut odobi),
- g‘iybat va tahqirli izohlardan tiyilish (nafsni tiyish),
- foydali, ijobiy axborot tarqatish (ihson tamoyili).

Bu orqali tasavvuf “raqamli axloq” madaniyatini shakllantira oladi.

3. Tasavvuf yoshlarning raqamli ongini muvozanatga keltirishda

Bugungi yoshlar “tezkor informatsiya” muhitida yashaydi, sabr va tafakkur ularda sekinlik bilan o‘sadi.

Tasavvuf esa insonni ichki sukunat va tafakkur sari etaklaydi. Masalan:

- “Xoyrul umuri advamuho va in qolla” (Ishlarning eng yaxshisi oz bo‘lsa-da, unda baradavom bo‘linganidir) hadisini raqamli platformalarda targ‘ib qilish yoshlarni fikrlashga o‘rgatadi.

- Naqshbandiylkdagi “Xalvat dar anjuman” — ya’ni jamiyat ichida bo‘lib, qalbda Alloh bilan bo‘lish tamoyili — virtual olamda ham amaliy tarzda tatbiq etilishi mumkin: inson onlayn bo‘lsa ham qalbida Haqni eslab yuradi.

4. Natija va amaliy xulosalar

- Virtual olamni rad etish emas, uni ma’naviylashtirish zarur. Tasavvuf bu borada eng qulay yondashuvni taklif etadi.

- Yoshlarni internetda tasavvufiy adabiyotlar, hikmatli videolar, onlayn suhbatlar bilan tanishtirish orqali ruhiy immunitet hosil qilish mumkin.

- Tasavvufning “odob”, “zikr”, “ma’rifat” qadriyatlari raqamli madaniyatning axloqiy asosiga aylantirilsa, virtual hayot ham ma’naviy maydonga aylanadi.

Shu tariqa, tasavvuf globallashuvning raqamli bosqichida ham inson qalbini himoya qiluvchi, uni sun’iy olamda yo‘qolishdan asraydigan ruhiy qalqon sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Globallashuv insoniyatni ilmiy va texnologik jihatdan yuksaltirgan bo‘lsa-da, ruhiy va ma’naviy jihatdan zaiflashtirdi. Bu inqirozdan chiqish uchun inson o‘z ichki dunyosiga qaytishi, qalbini uyg‘otishi zarur.

Tasavvuf — bu nafaqat tarixiy-ma’naviy hodisa, balki zamonaviy davr ehtiyojiga javob beruvchi universal ruhiy tizimdir. Ayniqsa, Ibn Sinoning nazariy

tasavvufi insonni aql va ruh uygʻunligiga asoslangan yuksaklik sari chorlaydi. Demak, bugungi globallashuv davrida insoniyatning maʼnaviy tiklanishi, ruhiy barqarorligi va axloqiy poklanishi uchun eng kuchli javob — bu islom tasavvufining gʻoyalaridir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati

1. Al-Gʻazzoliy, Abu Homid. *Ihyo ulum ad-din*. Qohira: Dar al-Maʼrifa, 1998.
2. Ibn Sino, Abu Ali. *Kitob ash-Shifo: Ilahiyot qismi*. Tehron: Markaz al-Maʼarif, 1983.
3. Jaloliddin Rumiy. *Masnaviy maʼnaviy*. Tehron: Intishoroti Surush, 2002.
4. Yassaviy, Ahmad. *Hikmatlar*. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1991.
5. Al-Qushayriy, Abdulkarim. *Ar-Risala al-Qushayriyya fi ilmi-t-tasavvuf*. Bayrut: Dar al-Kutub al-ʼIlmiyya, 2000.
6. Nasr, S. H. (2007). *Islamic spirituality: Foundations*. New York: HarperCollins.
7. Bauman, Z. (2012). *Liquid Modernity*. Cambridge: Polity Press.
8. Giddens, A. (2000). *Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives*. New York: Routledge.
9. Ibn Sina. (1952). *Risālat al-ʼIshq*. Cairo: Al-Matbaʼa al-Misriyya.
10. Nicholson, R. A. (1963). *The Mystics of Islam*. London: Routledge & Kegan Paul.
11. Chittick, W. C. (1989). *The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-ʼArabi's Metaphysics of Imagination*. Albany: SUNY Press.

“ФУТУХ АЛ-БУЛДОН” АСАРИ МАНБАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

*Умматалиев Соҳибжон Хикматали ўғли
Ўзбекистон халқаро исломишунослик академияси
“Исломишунослик ва ислом цивилизatsiясини
ўрганиши ICESCO” кафедраси катта ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
sohibjonummataliyev91@gmail.com
тел: +998974455562.*

Аннотация. Мақолада IX асрда яшаган тарихчи Аҳмад ибн Яҳё ал-Балозурийнинг “Футух ал-булдон” асари манбалари хусусида сўз юритилади. Муаллиф яшаган даврда тарихий воқеаларни оғзаки тарзда ривоят қилиш кенг тарқалган. Шунинг учун асар манбаларининг аксар қисмини ал-Балозурий

устозларидан нақл қилинган ривоятлар ташкил этади. Баъзи ўринларда тарихий ҳодисада иштирок этган шахслардан келтирилган ривоятларни ҳам учратиш мумкин. Асарда муаллиф ёзма манбадан фойдаланганлиги ҳақида тўхталиб ўтмаган бўлса-да, маълумотни баён қилишдаги услубидан унинг тарихий асарлардан ҳам фойдаланганини билиш мумкин.

Калит сўзлар: ал-Балозурий, Футуҳ ал-булдон, муҳаддис, ровий, санад, ривоят, Ҳишом ибн ал-Калбий, Муҳаммад ибн Исҳоқ, Абул-Ҳасан ал-Мадоиний, Ал-Воқидий.

Аҳмад ибн Яҳё ал-Балазурийнинг “Футуҳ ал-булдон” асари VII-IX асрда араб халифалиги ижтимоий-сиёсий жараёнлари ва унинг ташқи алоқаларини, исломнинг тарқалиш босқичларини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади. Бу давр тарихчилари воқеаларни баён қилганида муҳаддислар каби ровийлар санад⁷⁶и ва мавзуга тааллуқли бўлган барча ривоятларни келтиргани кузатилади. Манбага кўра бирор тарихий ҳодиса ҳақида хабар берувчи шахсларнинг исмлари матнда келтирилиши ўша маълумотнинг ишончли ёки ишончсизлигини белгиловчи мезон ҳисобланади.

Илк ўрта аср манбаларида иснодларни тўлиқ келтиришдан ташқари, айрим ўринларда мухтасар услубдан ҳам фойдаланилган. Бу амалий жиҳатдан дастлаб Муҳаммад ибн Шихоб аз-Зухрий ва Муҳаммад ибн Исҳоқ ривоятларида кузатилган [1, 68 б.]. Ал-Балазурий асарида ҳам ровийлар санадларини қисқартириб келтириш ҳолатлари кўзга ташланади. У ровийларни умумий ном билан: “Менга ҳадис, сийра ва футуҳ илми эгаларидан бир жамоа хабар берди. Уларнинг сўзларини айнан келтирдим” деб айтади [2, б 8.]. Айрим ўринларда “قالوا” (айтадилар) шаклида қайд қилган. Бунинг сабаби IX аср иккинчи ярмида муҳаддислар орасида тарихий мавзуда сўз юритувчи ровийлар ҳақида бир фикрга келинган эди.

Аҳмад ибн Яҳё ихтисор, яъни қисқартириш услубидан барча тарихчилар томонидан ривоят қилинган, тўғрилигига асло шубҳа бўлмайдиган ҳодисалардагина фойдаланган. Масалан: 629 йилда Расулуллоҳ (с.а.в) Хайбарни фатҳ қилганликлари, ундан сўнг Фадак, Водил-қуро, Таймо минтақаларига борганликлари, “Ҳудайбия сулҳи”нинг шартлари каби ўринларда ал-Балазурий ровийлар санадини келтирмай, “قالوا” (айтадилар) шаклида маълумот берган. Бу воқеалар ўз даврида муҳаддис ва тарихчилар ўртасида ихтилофли бўлмаганлиги учун муаллиф ровийлар санадини келтирмаган.

⁷⁶ Санад – матнга олиб борувчи кишиларнинг силсиласи.

Аҳмад ал-Балазурий “Футух ал-булдон” асарида ривоят қилинган ровийларнинг асарлари ҳақида тўхталиб ўтмаган бўлса-да, тазкира китобларидан уларнинг қолдирган илмий мероси ҳақида маълумот олиш мумкин. Жумладан, Абдуллоҳ ибн Ваҳб ал-Мисрийнинг “Ал-мағозий” ва “Ар-ридда” [3, б 14.], Абдураззоқ ас-Санъонийнинг “Мусанниф Абдураззоқ”, “Ал-амолий фи осор ас-саҳоба”, “Ал-мағозий” [4, б 318.], Абу Убайда Муаммар ибн ал-Мусанна ал-Басрийнинг “Футуху Урминия” ва “Футуху Аҳваз [5, б 239.], Абу Убайд ал-Қосим ибн Саломнинг “Ал-Амвол” [3, б 500.], Лут ибн Яҳёнинг “Футуху Шом”, “Футух ал-Ироқ”, “Китоб ал-Жамал”, “Китоб ас-Сиффин” “Китоб ан-Наҳравон”, “Мақтал ал-Хусайн” «китаб ал-Азориқа» [6, б 225-226.], Муҳаммад ибн Исҳоқнинг «китаб ас-сийра вал-мубтадо вал-мағозий» [7, б 9.], Муҳаммад ибн Саъднинг «китаб ахбор ан-Набий» [4, б 145.], “Тобақот ал-кабир” [8, б 60.], Абулҳасан ал-Мадоинийнинг «китаб футух», «китаб ахбору Қурайш», “Ахбору аҳл ал-байт”, “Тарих ал-хулафо”, “Ахбор ал-Ҳажжож” [3, б 446.], Ҳишом ал-Калбийнинг “Жамҳарат ан-насаб”, «китаб ал-Булдон», «китаб ал-Ақолим” ва бошқа асарлари [4, б 142.], Аввона ибн ал-Ҳакамнинг “Ат-Тарих” ва “Сийрату Муовия ва Бану Умайя” [4, б 134.], Муҳаммад ибн Умар ал-Вокидийнинг “Ал-Мағозий”, “Футух ал-Ироқ”, “Футух аш-Шом” [4, б 144.] каби асарлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Доктор Абдулазиз ад-Даврий (1919-2010) “Нашъату илм ат-таърих инда ал-аъроб” номли асарида илк ўрта асрларда мусулмон тарихчилари томонидан ёзилган, бироқ бугунги кунгача етиб келмаган асарлар ҳақида маълумот берган ва Муҳаммад ибн Жарир ат-Табарийнинг “Тарих ар-русул ва ал-мулук”, Муҳаммад ибн Саъднинг “Тобақот ал-кабир”, Аҳмад ибн Яҳё ал-Балазурийнинг “Футух ал-булдон” ва “Ансоб ал-ашроф”, Исмоил ибн Касирнинг “Ал-бидоя ва ан-нихоя” ва бошқа асарлардан айрим парчаларни келтирган. “Нашъату илм ат-таърих” асарида келтирилишича, “Футух ал-булдон”да Муҳаммад ибн Умар ал-Вокидий асаридан “Фатҳу Андалус” [9, б 242.], Абу Махнаф Лут ибн Яҳё асаридан “Вилоят ал-Баҳрайн”, “Фатҳ ар-Рай” [9, б 266-267.], Абулҳасан ал-Мадоиний асаридан “Футух ас-Синд” [9, б 318.] каби мавзулар ўрин эгаллаган.

Абдулазиз ад-Даврийнинг илк ўрта аср тарихчилари асарларидан айрим парчаларни келтиришда “Футух ал-булдон”дан фойдалангани ал-Балазурий ижоди давомида ёзма манбага мурожаат қилганини кўрсатади.

Ал-Балазурийнинг “حدثني” (менга сўзлаб берди), “قال لي” (менга айтди) каби лафзлар билан нақл қилиши воқеалар тафсилотини ёзма манбадан эмас, балки устозларидан эшитиш орқали қўлга киритганини исботлайди. Лекин тарихчи баъзи ўринларда “قال هشام الكلبي” (Ҳишом ал-Калбий айтади) ёки “قال الواقدي” (Ал-

Воқидий айтади) каби жумлалардан сўнг воқеаларни баён қилган. Бу ўринда ровийлар санадининг келтирилмагани ва Ал-Балазурий бевосита эшитганини билдирувчи “حدثني” (менга сўзлаб берди), “قال لي” (менга айтди), “حدثنا” (бизга сўзлаб берди) каби жумлалар қўлланмай “قال” (айтди) ёки “ذكر” (зикр қилди) лафздан сўнг ровийнинг исми келтирилиб воқеанинг баён қилиниши Аҳмад ибн Яҳё ёзма манбадан ҳам фойдаланганини билдиради. Абдулазиз ад-Даврий асарида ал-Воқидий, Абу Махнаф ва ал-Мадоиний асарларидан келтирилган парчалар ҳам “قال” (айтди) жумласи билан бошланган. Аҳмад ибн Яҳё мазкур жумлалар воситасида Ҳишом ибн ал-Калбий, Абдулмалик ибн Қариб ал-Асмаъий, Абу Убайда Муаммар ибн ал-Мусанна, ал-Воқидий, Яҳё ибн Одам, Аввона ибн Ҳакам, Абулҳасан ал-Мадоиний, Муҳаммад ибн Саъд, Абу Махнаф каби тарихчилардан нақл қилган. Шу билан бирга, уларнинг маълумотларини таҳлил қилиб, энг ишончлисини келтирган [10, б 236.].

Тарихчи бошқа манбалардан олинган маълумотларни сўзма-сўз келтириб қўймай, балки қисқартма шаклда, улардан асосан хулоса ва натижаларга урғу берган ҳолатда фойдаланган. Бу ҳолатни “Футуҳ ал-булдон” ва Муҳаммад ибн Умар ал-Воқидийнинг “Футуҳ аш-Шом” асарини қиёслаш орқали кўриш мумкин. “Футуҳ ал-булдон”да Шом ҳудудига кирувчи Дамашқ, Фаластин, Бусро, Ҳумс, Қиннисрин, Ажнадин ва Бусро ҳудудларининг фатҳ этилиши мавзуси ал-Воқидийнинг “Футуҳ аш-Шом” асаридаги маълумотлар билан мувофиқ келса-да, воқеаларни ихчам шаклда ёритганлиги ва тафсилотларни келтирмаслиги билан ажралиб туради [2, б 149-208.]. Муаллиф бу ўринда такрор маълумотлардан қочган ва асосий эътиборни янги маълумотларга қаратган.

Тарихни ўрганишда ёзма манбалар билан бирга тарихий ҳужжатлар ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Улардан муайян давр ижтимоий-иқтисодий ҳаётига оид аниқ ва ишончли маълумотларни олиш мумкин. “Футуҳ ал-булдон”да муаллиф айрим ўринларда девон ҳужжатларидан фойдаланганини айтган. Хусусан, Миср жанубида жойлашган қадимий минтақа – Нубиядан қанча миқдорда солиқ олинishi мавзусида тарихчи ўзида мавжуд девон ҳужжатларидан маълумот топа олмаганлигини ва уни Миср девонидан топганлигини айтган [2, б 333.].

Юқорида санаб ўтилган манбалардан ташқари муаллифнинг ўзи яшаган даврда юз берган ижтимоий-сиёсий воқеалар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ал-Балазурий Аббосийлар саройида яшаб, фаолият юритгани унга IX асрдаги Аббосий халифаларнинг давлат бошқаруви ва араб халифалигидаги ички вазиятдан яхши хабардор бўлиш имконини берган. У фақат Аббосийлар таъсири остида бўлган Хуросон, Мовароуннаҳр, Яқин Шарқ, Кавказ ва Миср

худудларидаги сиёсий вазиятни эмас, балки халифалик таркибидан мустақил бўлиб ажралиб чиққан Шимолий Африкадаги Ағлабийлар ва Андалусиядаги Умавийлар давлатида юз берган воқеа-ҳодисалардан ҳам хабардор бўлган [2, б 328.]. Мана шу эътибордан тарихчининг ушбу асари аҳамиятли ҳисобланади.

“Футуҳ ал-булдон” асарига турли манбалар асос бўлгани ва муаллиф томонидан ўз даврида юз берган тарихий жараёнлар китобда акс этгани ал-Балазурий ижодининг қай даражада муҳим эканлигини кўрсатади. Айни пайтда тарихчининг воқеаларни баён қилишда муҳаддислар услубидан фойдалангани асарнинг ишончли манбалардан бири эканлигига етарли далилдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ryan J. Lynch. Arab Conquests and Early Islamic Historiography The Futuh al-Buldan of al-Baladhuri. – London: Bloomsbury publishing, 2020.
2. Аҳмад ибн Яҳё ал-Балазурий. Футуҳ ал-булдон. – Байрут: Муассаса ал-маориф, 1987.
3. Шамсуддин Заҳабий. Сияр аълам ан-нубало, VIII жуз. – Қоҳира: Дар ал-ҳадис, 2006.
4. Ибн ан-Надим. Ал-Фихрист. – Байрут: Дар ал-маърифат, 1997.
5. Шамсиддин ибн Холликон. Вафийят ал-аъён V жуз / муҳаққиқ Доктор Эҳсон Аббос. – Байрут: Дару Содир, 1972.
6. Муҳаммад ибн Шокир ал-Кутбий. Фават ал-вафаёт, III жуз. – Байрут: Дару Содир, 1973.
7. Қобилжон Зоҳидов. Ислом тарихи фанидан ўқув қўлланма. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2013.
8. Шамсуддин Заҳабий. Сияр аълам ан-нубало, IX жуз. – Қоҳира: Дар ал-ҳадис, 2006.
9. Абдулазиз ад-Даврий. Нашъату илм ат-таърих инда ал-аъроб. – Абу Даби: Маркау зайид лит-турос ва ат-таърих, 2000.
10. Солим ас-Соъидий. Китоб футуҳ ал-булдон ва аҳамийятуҳа лидарис ат-таърих // мажалла ал-малавийя лиддиротот ал-асарийя ва ат-таърихийя. – Самурро, 2017.
11. Ал-Воқидий. Футуҳ аш-Шом. – Байрут: Дар ал-кутуб ал-илмийя, 1997.

TASAVVUFNING IJTIMOIIY BARQARORLIKKA KO‘RSATADIGAN TA’SIRI

Jiyanov Ulug‘bek Nasriddinovich

Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi, Buxoro shahri,

+998507056366

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf ta’limotining jamiyat hayotidagi o‘rni va uning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvufning inson axloqini poklash, bag‘rikenglikni rivojlantirish, tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan g‘oyalari yoritilgan. Shuningdek, so‘fiy allomalarning – Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi mutasavviflarning ijtimoiy hayotdagi ma’naviy etakchilik faoliyati tahlil etiladi. Maqolada tasavvufning zamonaviy jamiyatda ekstremizm va zo‘ravonlik g‘oyalariga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishdagi roli ham ko‘rsatib o‘tiladi. Xulosa sifatida, tasavvuf qadriyatlarini yoshlar tarbiyasiga singdirish, ularni ma’naviy barkamollikka etaklash ijtimoiy barqarorlikning muhim omili ekani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: “Tasavvuf”, “tariqat”, “ruh”, “zuhd”, “tazkiya”, “ibodat”, “ehson”...

Bismillahir rohmahir rohiym

Islom dini insonni kamolotga erishtiruvchi haq yo‘ldir. Undagi talimotlar har bir kishini hayotda moddiy va ma’naviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga chorlaydi hamda yuksaltiradi. Dinimizning go‘zal ta’limotlaridan biri ruhiy tarbiya bo‘lmish tasavvufdir. Tasavvuf – ruhiy poklanish yo‘li bo‘lib, u musulmonlarning eng chuqur ma’naviy hayotini tashkil etuvchi tafakkur yo‘nalishidir. Uni biz umumiy qilib “ruhiy poklanish” deya ta’riflasakda, aslida uning zamirida Allohga yaqin bo‘lish asos bo‘lib, butun jamiyatning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi keng qamrovli tushuncha sifatida ham namoyon bo‘ladi. Chunki ibodat qilayotgan inson uchun ham, mehnat qilayotgan yoki o‘zaro muloqot qilayotgan insonlar uchun ham ruhiy poklik juda muhimdir. Qilinayotgan ishning mukammal bo‘lishi va undan ko‘zlangan natijaga erishish inson qalbidagi sof ishonch va ixlosga bog‘liq. Buni tasavvuf o‘z qolibiga soladi.

Asrlar davomida tasavvuf musulmon jamiyatlarida ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, birdamlik, bag‘rikenglik va adolatli jamiyat barpo etilishida muhim rol o‘ynagan.⁷⁷

Islomning boshida “Zuhd” yoki “Tazkiya” nomlari bilan bilingan bu ruhiy tarbiya yo‘li keyinchalik qalblarning jilosi va sofligiga nisbat berib tasavvuf deb atala boshlandi. Dinimizda “ibodat” tushunchasi juda keng qamrovli hisoblanadi. Kishi kundalik ishlarini, vazifalarini to‘g‘ri va xolis niyat bilan Allohning roziligini ko‘zlab bajarsa – o‘sha ishlar ham ibodatga aylanadi. Shu tomondan olib qarasak

⁷⁷ Abdulkarim Al-Qushayri., Ar-Risala al-Qushayriyya. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002. 33.

tasavvufning doirasi butun hayotni o‘z ichiga oladi. U faqat shaxsning Alloh bilan munosabatini emas, balki insonlarning o‘zaro munosabatlarini ham qamrab oluvchi hamda tartibga soluvchi kuchli ma’naviy qoidalar to‘plamidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Dinimizda har qanday qoida va ta’limot Qur’oni karim va sunnatdan olinadi. Tasavvufning asosini ham oyat va hadislardan topishimiz mumkin. Qur’oni karimning bir qancha oyatlarida ruhiy poklikka chorlanganini ko‘ramiz. Masalan, Alloh taolo namozni to‘la to‘kis, farzu vojiblari bilan hamda qalbiy hozirlik bilan o‘qishga buyuradi. Ota onaga, qo‘ni qo‘shniga yaxshilik qilishga, o‘tganlar haqiga duo qilishga, odamlarga yaxshilik ulashishga, ularning aziyatlariga sabr qilib xatolarini kechirishga undaydi. Shu va shunga o‘xshash ishlarni mukammal bajarish uchun inson ruhiy tomondan tarbiya topgan bo‘lishi kerak. Xuddi shunday, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham musulmon inson uchun amallarning eng yuqori darajasi bo‘lmish “ehson” maqomini ta’riflaganda “Allohgga Uni ko‘rib turgandek ibodat qilishliging”⁷⁸ deya bayon qildilar. Bu ham o‘z o‘zidan tasavvufni – ruhiy tarbiyani taqozo qiladi. Chunki inson bu darajaga etishi uchun ko‘p riyozatlar chekishi kerak.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, tasavvufning mohiyatida insonning qalbini poklash, nafsni tiyish, muhabbat va rahm-shafqat asosida yashash, kibr va hasad kabi qalbiy illatlardan yiroq bo‘lish kabi qadriyatlar yotadi. Aynan shu fazilatlar har qanday jamiyatda totuvlik va barqarorlikning poydevorini tashkil etadi. Zero jamiyatning mustahkamligi va barqarorligi faqatgina qonun yoki kuch bilan emas, balki ma’naviy birlik, qalbiy yaqinlik, o‘zaro hurmat, inoqlik va ahillik, daxldorlik hissi hamda ijtimoiy mas’uliyat bilan belgilanadi. Tasavvuf ana shu fazilatlarni jamiyat ongiga singdirgan holda uning barqarorligini ta’minlashda beqiyos hissa qo‘shgan.

Islom tarixining ilk asrlaridayoq tasavvuf ijtimoiy hayotda faol rol o‘ynay boshlagan. Aynan “Tasavvuf” nomi tilga olinmagan bo‘lsada, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam va U zotning atroflaridagi buyuk sahobalarda dunyo muhabbatidan voz kechish, qalbni poklash, o‘zgalar va jamiyat manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish va Allohga chin muhabbat va sadoqat bilan ibodat qilish tushunchalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tushunchalar sekin – asta rivojlanib, boshqa ilmlar kabi uning ham qoidalari ishlab chiqildi. Bu jarayonlar tobeinlar davrida jonlana boshladi. Tasavvuf faqatgina nazariy bilimlar to‘plami emas, balki amaliyot bilan chambarchas bog‘liq ma’rifatlar majmuasi bo‘lib etishdi. Bunga, Hasan al-Basriy, Junayd al-Bag‘dodiy, Bayazid Bistomiy kabi “So‘fiy” nomi bilan aytilgan ilk namoyondalarning faqat zohidlik bilan emas, balki jamiyatdagi illatlarni

⁷⁸ Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Iymon kitobi – Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashiruun, 2021. 50-hadis, 205-bet.

tanqid qilish, zulmga qarshi kurashish va adolatli ijtimoiy tartibni targ‘ib qilish bilan ham shug‘ullanganlarini misol qilish mumkin. Ularning faoliyati natijasida tasavvuf musulmonlar hayotida axloqiy o‘lchov, ijtimoiy nazorat va ruhiy tarbiya vositasiga aylangan.⁷⁹

Tasavvufning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u kishini o‘z ayblari bilan band bo‘lishga, boshqalarning ayblari bilan ovora bo‘lmaslikka undaydi. Natijada, jamiyatdagi har qanday ziddiyat va bo‘linishlarga qarshi turib, birlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Bu xususiyat eng avvalo unda muqaddas dinimiz ta’limotidagi “Muhabbat”, “Bag‘rikenglik”, “Sabr” va “Tavoze” kabi asosiy tamoyillar aks etgani sabablidir. Islom tasavvufi nazarida inson avvalo Alloh taolo bilan, so‘ngra U zot orqali butun borliq bilan uyg‘unlikda yashashi kerak. Bu teran qarash ijtimoiy hayotda dinning ahamiyatini ta’kidlash bilan birga, madaniy, milliy va siyosiy darajalarda ham barqarorlikni mustahkamlashda kuchli ta’sir qiluvchi omil sanalanadi.

Tasavvuf tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, uning bo‘yi Islom shariatiga teng ekanini ko‘ramiz. Uning osmonida juda yorqin yulduzlar o‘tganini ham alohida ta’kidlash lozim. Bu yo‘lning eng yorqin namoyondalaridan Jaloliddin Rumiy, Abdulqodir Jiloniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk zotlarni tanimagan kishi bo‘lmas kerak. Ularning qoldirgan asarlari hamda tarbiyalagan shogirdlari sof tasavvuf inson uchun dunyo va oxiratda naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Masalan, Rumiy insoniyatni yagona daraxtning shoxlari deb tasvirlaydi va insonlar o‘rtasidagi farqlarni mozaikaning go‘zalligiga o‘xshatadi.⁸⁰ Ahmad Yassaviy esa insonni jamiyatdagi mas’uliyatini chuqur his etishga, boshqalar dardiga befarq bo‘lmaslikka chaqiradi.⁸¹ Hazrat Bahouddin Naqshband esa “dil ba yoru, dast ba kor” (“dil Alloh bilan, qo‘l ish bilan”) degan shiori orqali so‘fiylikni jamiyatdan ajralgan zohidlik emas, balki faol ijtimoiy hayot bilan bog‘laydi.⁸²

Tasavvuf – Allohga erishtiruvchi yo‘l sifatida turli yo‘llardan iborat yo‘nalishdir. Bu tariqatlar deb nomlanadi. Tariqatlar Islomiy yurtlarda yashab ijod qilgan buyuk allomalar – tasavvuf namoyondalari tomonidan tashkil qilingan. Ular turli nomlar bilan nomlangan bo‘lsada, maqsadi “To‘g‘ri yashash, yashashdan maqsadni anglastish va Allohning roziligiga erishish” bo‘lgan yo‘llar hisoblanadi. Bizning diyorlarda ham tasavvuf maktablari bosqinchilar kelguncha davom etgan va ijtimoiy barqarorlikning amaliy tayanchi sifatida faoliyat yuritgan. Ular turli urush va tortishuvlarni yumshatgan, mahalliy nizolarni tinch yo‘l bilan hal etgan,

⁷⁹ Hamid Algar. Naqshbandis: Historical Developments and Present Situation of a Muslim Mystical Order. – Oxford: Oxford University Press, 1990. 48p.

⁸⁰ Nicholson, Reynold A. The Mystics of Islam. – London: Routledge, 2002. 54p.

⁸¹ Ahmad Yassavi. Hikmatlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991. 71-bet.

⁸² Qarshiyev A. Tasavvuf va zamonaviy jamiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. 39-bet.

kambag'allarni qo'llab-quvvatlagan va xalq bilan hokimiyat o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan. Masalan, Yassaviyya tariqati turkiy xalqlarni Islom dinida jamlanishini ta'minlagan bo'lsa, Naqshbandiya tariqati asrlar davomida Markaziy Osiyoda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy kuchlardan biri bo'lgan.⁸³ Ko'rib turganimizdek bu tariqatlar faqatgina shaxsiy komillikka emas, balki jamiyatdagi adolat, totuvlik va tinchlikni ta'minlashga ham qaratilgan ta'limotlarni o'zida mujassam etgan edi.

Biz tasavvuf haqida gapirar ekanmiz, Islomiy haqiqiy tasavvufni nazarda tutmoqdamiz. Hozirgi kunda chiqayotgan, turli yolg'on va xurofotlar ustiga qurilgan tariqatlar haqida gapirmayapmiz. Ularni tasavvuf ham deb bo'lmaydi, aslida.

Muqaddas dinimiz ta'limotiga muvofiq bo'lmish sof tasavvuf bugungi kunda ham ijtimoiy barqarorlikni kafolatlashda o'z o'rniga egadir. Dunyo bo'ylab kuchayib borayotgan diniy ekstremizm, ijtimoiy notinchlik va ma'naviy inqiroz sharoitida sof tasavvuf insoniyatni tinchlik, muhabbat va bag'rikenglik yo'liga chaqiruvchi kuchli mafkuraviy asos bo'lib xizmat qiladi. Dinimiz ta'limotlariga asoslangan sof tasavvuf g'oyalari asosidagi ta'lim-tarbiya dasturlari, madaniy loyihalar va xalqaro muloqotlar bugungi global dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga juda kata rol o'ynaydi deb bilamiz.

Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, tasavvuf asrlar davomida nafaqat ruhiy hayot, balki ijtimoiy tartib va barqarorlikning eng muhim omillaridan biri bo'lib kelgan. U inson qalbini poklash orqali jamiyatni ma'nan poklaydi, muhabbat va bag'rikenglik g'oyalarini singdirish orqali ziddiyatlarni yumshatadi, adolat va ijtimoiy tenglikni targ'ib etish orqali ijtimoiy noroziliklarning oldini oladi. Buni tarixda guvohi bo'ldik.

Demak, biz bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajdodlarimiz merosi bo'lmish sof tasavvufni o'rganishimiz, undagi tarbiya uslublaridan kundalik hayotimizda foydalanishimiz lozim. Alloh barchamizni haqdan ayirmasin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkarim Al-Qushayri. *Ar-Risala al-Qushayriyya*. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002.
2. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Iymon kitobi – Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashiruun, 2021.
3. Ali ibn Usman Al-Hujviri,. *Kashf al-Mahjub*. – Tehron: Nashr Ilm, 1994.
4. Algar Hamid. Naqshbandis: *Historical Developments and Present Situation of a Muslim Mystical Order*. – Oxford: Oxford University Press, 1990.

⁸³ Qarshiye A. Tasavvuf va zamonaviy jamiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. 103-bet.

5. Ahmad Yassavi. *Hikmatlar*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1991.
6. Qarshiyev A. *Tasavvuf va zamonaviy jamiyat*. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2021.
7. Nicholson, Reynold A. *The Mystics of Islam*. – London: Routledge, 2002.

ИЛМИЙ МЕРОСНИ АСРАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Тўлқин Азимов,

Тошкент ислом институти “Ижтимоий фанлар”

кафедраси катта ўқитувчиси, +998909510207

Аннотация. Мазкур мақолада илмий ва маданий меросни асраш ҳамда тадқиқ этишда сунъий интеллект (СИ) технологияларининг аҳамияти ва имкониятлари таҳлил қилинган. Рақамлаштириш, 3D реконструкция, катта маълумотлар таҳлили, архив ҳужжатларини автоматик таниб олиш ва маданий обидаларни мониторинг қилиш каби соҳаларда СИНинг қўлланилишига асосий эътибор қаратилган. Шу билан бирга, мақолада сунъий интеллектдан фойдаланиш жараёнида юзага келиши мумкин бўлган ҳуқуқий, этик ва маданий муаммолар ҳам ёритилган. СИ ва илмий мерос ўртасидаги мувозанатни сақлаш, инсон кадриятларини устувор қўйиш ҳамда маданий меросни замонавий рақамли муҳитда асраб қолиш зарурлиги мақолада таъкидланган.

Калит сўзлар: сунъий интеллект, илмий мерос, рақамлаштириш, маданий обида, 3D реконструкция, архив, машинали ўрганиш, компьютер таҳлили, этика, тараққиёт.

Ҳар қандай маданий, илмий ёки тарихий мерос жамиятнинг ўтмишга бўлган дунёқарабини шакллантириб, бугунги илмий фаолиятини ривожлантиради ва тараққиёт йўлида фойдаланиш учун келажак авлодга ҳам бой илмий мерос қолдиришга замин ҳозирлайди. Технологик ривожланиш, айниқса, сунъий интеллект (Artificial Intelligence) воситаларининг кенг қўлланилиши билан аجدодлардан етиб келган меросни асраш ва тадқиқ этиш янги босқичга чиқмоқда.

Архив ҳужжатлари, манбалар, асарлар, маданий обидалар, илмий-тарихий маълумотларни асраш ва тадқиқ этишда сунъий интеллектнинг имкониятлари, шунингдек, уларни жорий қилишда учраши мумкин бўлган

муаммоларни ҳал қилиш, келгусидаги режа ва йўналишларни белгилаш долзарб масала ҳисобланади.

Илмий мерос деганда, китоблар, манбалар, асарлар, архив материаллари, маданий обидалар, тарихий фактлар ва тадқиқот учун асос бўладиган бошқа маълумотлар тушунилади. Уларни асраш ҳамда тадқиқ этиш жараёнида аниқликни ошириш, ҳужжатларни рақамлаштириш, уларни йўқолишдан сақлаш каби вазифалар мавжуд. Ҳозирги технологик шароитларда сунъий интеллект усуллари бўлган компьютерли кўриниш (computer vision), машинали ўрганиш (machine learning), нейрон тармоқлар (neural networks) орқали илмий меросни асраш ва тадқиқ қилиш вазифаларини самарали амалга ошириш мумкин. Мисол учун, маданий мерос соҳасига оид тадқиқотда СИ усуллари орқали “манбани таърифлаш, классификациялаш, 3D реконструкция қилиш, манбани сақлаш бўйича тавсия тизимлари” каби асосий йўналишда қўлланилган. [1, 378 б.]. Шу билан бирга, СИ воситалари фақат техник восита бўлиб, уларни маънавий жиҳатдан ҳимоялаш, яъни манба реаллиги сақлаш, сохта ва ёлғон маълумотлардан филтрлашда етакчи механизм сифатида кўриш лозим. Масалан, тарихий қўлёзмани тадқиқ қилишда СИ техникасини қўллаш самарали, чунки эскирган саҳифа ва ундаги ёзувларни асл ҳолатига қайтариш, рақамлаштиришда “computer vision”, “3D реконструкция” каби усуллар қўлланилади [1, 38 б.]

Илмий-тарихий асарлар ва манбаларни рақамли форматга ўтказиш жараёнида сунъий интеллект “компьютерли кўриш” усуллари орқали суратлар, ёзувлар, матнлар ва белгиларни танишда аниқлик механизмида ишлайди. Италиядаги Roma Tre University томонидан 2017 йилда ўтказилган “In Codice Ratio” тадқиқот лойиҳаси архивда сақланаётган қадимги латин ёзувидаги ҳужжатларни таниб олиш учун “мукамал ўрганиш” (deep learning) усулларидан фойдаланган [2].

Бу жараён ҳужжатларнинг йўқолишининг олдини олиши, уларни кенг аудиторияга тақдим этишда имконият яратади.

Тарихий обидалар, архитектура ёдгорликлари ёки археологик ҳудудлар СИ бўйича видеосуратлар, лазер сканерлаш ва уч ўлчамли моделлаш усуллари орқали реконструкция қилиниши мумкин. Бу нафақат реставрация жараёнида ёрдам беради, балки виртуал экскурсиялар, таълим дастурлари учун ҳам муҳимдир. “Artificial Intelligence for Sustainable Cultural Heritage”, яъни “Маданий меросни барқарор асраб-авайлашда сунъий интеллектнинг ўрни” мақоласида “3D реконструкция, виртуал реставрация, рақамли маданий мерос” каби элементлар СИ билан биргаликда қандай амалга оширилиши мумкинлиги

кўрсатилган [3, 19 б]. Бу йўл билан илмий меросни асраш жараёнида назорат ва таҳлилнинг янги механизмлари ишлаб чиқилган.

Илмий меросни тадқиқ этишда катта ҳажмдаги маълумотларни, масалан, сканерланган манбалар, архив ҳужжатлари ва маданий осори атиқаларни тезкор таҳлил қилиш зарур. 2019-2023 йиллар давомида ёзилган илмий мақолаларни таҳлил қилинса, СИ орқали илмий меросни асраш билан боғлиқ бешта асосий йўналиш классификация, компьютерли кўриш, 3D реконструкция, тавсия тизимлари ва номоддий маданий меросни рақамлаштириш аниқланган [1, 36 б]. Бу СИНинг тадқиқ ва таҳлил қилувчи сифатида янги инструмент эканини қайд этиш мумкин.

Шу билан бирга, СИни илмий меросни асраш ва тадқиқ этишда қўллашда бир қатор этик, ҳуқуқий ва маданий муаммолар мавжуд.

Биринчидан, муаллифлик ҳуқуқи ва СИ асосида маълумотларни тўплаш, қайта ишлаш жараёнида юзага келаётган масалалар. UNESCO томонидан берилган номоддий маданий меросни СИ билан тадқиқ этишда мерос тегишли бўлган халқларнинг ҳуқуқларини ҳурмат қилиш талаби бор [4, 25 б].

Иккинчидан, СИ моделлари хатоликдан холи эмас. Мисол учун, моделлар ҳали тарихий асл манба билан тўла ўқитилмаган. Манбалардаги маълумотлар мазмунини ноаниқ таҳлил қилиш ҳолатлари учрамоқда. Буюк Британияда СИни қўллашда муаллиф ҳуқуқи талаблари, сиёсий қонун ва тартибларнинг етишмаслиги муаммо эканлиги айтилган [5, 51 б].

Учинчидан, маданий бағрироқлик: Илмий мерос фақатгина техник объект эмас, маданий ва маънавий таркибга эга. СИни қўллашда мероснинг маънавий контексти, воқелик билан алоқаси эътибордан четда қолмаслиги лозим. “Artificial Intelligence in Heritage: Bridging Tradition and Technology” мақоласида СИ ва гуманитар фанларнинг интеграцияси чуқур таҳлил қилинган [6, 65 б].

Амалиётда СИ усуллари илмий меросни асраш ва тадқиқ этишда кенг қўлланилиши ортиб бормоқда. Масалан, тарихий обидалар безаклари ва ёзувларини шикастланиши, емирилиш ҳажмини аниқлаш, уларни реставрация қилиш режаларини тайёрлашда фойдаланилмоқда [7, 43 б].

Келгусида СИ асосида геймификация (gamification) “ўйин элементлари билан бойитилган” иловалар, генератив СИ билан реконструкция қилиш, яъни промпт орқали тарихий асарлар, обидаларни визуаллаш, таъмирлаш ва ҳозирги интернет муҳитида омма учун янада очик ва кенг тарқатиш олимлар жамоаси томонидан режалаштирилган [8, 36 б].

Шу билан бирга, СИ қўлланишида “inclusive data governance” (кенгрок қамраб олиш), маълумотнинг ҳақиқийлигини таъминлаш, маданий қадриятларни инобатга олиш каби принциплар муҳим ҳисобланади [9, 27 б].

Илмий меросни асраш ва тадқиқ этишда сунъий интеллект технологиялари катта имкониятлар яратади. Рақамлаштириш, 3D реконструкция, катта маълумотларни таҳлил қилиш, реставрация жараёнларини мониторинг қилиш каби усуллар самаралидир. Аммо уларни амалга оширишда ҳуқуқий, этик, маданий жиҳатлардан муаммолар мавжуд. Шу сабабли СИни илмий меросни асрашда ёрдамчи восита сифатида кўриш мақсадга мувофиқдир. Илмий мерос ва сунъий интеллект ўртасидаги тартибга солинган интеграция жараёнлари келажакдаги тадқиқотлар ҳамда кутубхоналар, музейлар, архивлар фаолияти учун катта имкониятлар эшигини очади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Gîrbacia, Florin. “An Analysis of Research Trends for Using Artificial Intelligence in Cultural Heritage.” *Electronics*, vol. 13, 2024, – P. 36-38. Web. ([ResearchGate](#))
2. https://en.wikipedia.org/wiki/In_Codice_Ratio?utm
3. Wang, H. “Artificial Intelligence for Sustainable Cultural Heritage.” *Sustainability*, vol. 17, no. 20, 2025, – P. 19. Web. ([MDPI](#))
4. “Exploring the impact of artificial intelligence and intangible cultural heritage.” UNESCO, 24 Oct 2024. – P. 25. Web. ([HKK - ЮНЕСКО](#))
5. Westenberger, P. & Farmaki, D. “Artificial Intelligence for Cultural Heritage Research: the Challenges in UK Copyright Law and Policy.” *European Journal of Cultural Management and Policy*, 2025. – P. 51. Web. ([Frontiers Publishing Partnerships](#))
6. Ghaith, K. “AI in Heritage: Bridging Tradition and Technology.” *International Journal of Educational Development in the Information Era*, vol. 3, no. 1, 2025. – P. 65. Web. ([Digital Commons](#))
7. Akyol, G. “AI Applications in Cultural Heritage Preservation.” SSRN, 2023. – P. 43. Web. ([SSRN](#))
8. Casillo, M. “Artificial Intelligence in Archaeological Site Conservation.” *Journal of Computer Applications in Archaeology*, 2025. – P. 36. Web. ([Журнал ПК Археология](#))
9. Harisanty, D., et al. “Cultural Heritage Preservation in the Digital Age, Harnessing Artificial Intelligence for the Future.” *Emerald Insight*, 2024. – P. 27. Web. ([Emerald](#))

SAYQALIY DOSTONINING QO‘LYOZMALARI KODIKOLOGIK TAHLILI VA ILMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Sultonova Dilovar Ne‘matillo qizi

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
kafedrası 2-bosqich tayanch doktoranti.*

*“Jo‘ybori kalon” ayol-qizlar o‘rta maxsus
islom ta‘lim muassasasi o‘qituvchisi*

Tel: (91) 477 66 96 elektorn pochta: sultonovadilovar0@gmail.com

Orcid: [0009-0008-7389-5411](https://orcid.org/0009-0008-7389-5411)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (O‘zFASHI) saqlanayotgan “Bahrom va Gulandom” dostoni nusxalarining xronologik, kodikologik va matniy tavsifi berilgan. Asarning beshta asosiy qo‘lyozma va toshbosma nusxalari aniqlanib, ularning yozuv xususiyatlari, hajmi, muqova holati va qo‘lyozma sifatidagi ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Bahrom va Gulandom, Sayqaliy, O‘zFASHI, qo‘lyozma, kodikologiya, o‘zbek dostoni, manbashunoslik.

O‘zbek xalq dostonchiligi tarixida alohida o‘rin tutgan asarlardan biri bu - Sayqaliy tomonidan yozilgan “Bahrom va Gulandom” dostonidir. Ushbu doston o‘zining badiiy-uslubiy xususiyatlari, syujetik boyligi va obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Dostonning turli qo‘lyozma va toshbosma nusxalari yurtimizdagi ilmiy muassasalar fondlarida saqlanmoqda. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (O‘zFASHI) fondida mavjud bo‘lgan bir nechta qo‘lyozmalar matnshunoslik, kodikologiya va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega.[1]

Tadqiqot davomida avvalo O‘zFASHI qo‘lyozmalar fondidagi maxsus kataloglar o‘rganildi. Mazkur kataloglar orqali dostonning mavjud barcha qo‘lyozma va toshbosma nusxalari aniqlanib, ularning ro‘yxati tuzildi. Qo‘lyozmalar tavsifida o‘zbek matnshunosligining etuk namoyandalari — S.G‘aniyeva, M.Qayumov, A.Holiqov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim metodologik asos bo‘ldi. Ayniqsa, M.Qayumovning “Adabiy manbashunoslik asoslari” asari qo‘lyozmalarni tarixiy kontekstdagi yondashuvda tahlil etishga zamin yaratdi.

Matnshunoslik nuqtayi nazaridan esa, A.Holiqovning “Matnshunoslik va matn tahlili” nomli qo‘llanmasi matnni zamon, til, yozuv uslubi va tahrirlar orqali o‘rganish metodlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

- **Kodikologik tahlil** – qo‘lyozmaning jismoniy holati, varaq hajmi, qatorlar soni, muqova shakli va yozuv xususiyatlari o‘rganildi;
- **Matniy tahlil** – asarning to‘liqligi, tahrir holati, kirish va xotima qismlarining mavjudligi, yozilgan til va uslubiy o‘ziga xosliklar ko‘rib chiqildi;
- **Manbashunoslik yondashuvi** – nusxalarning tarixiy kontekstdagi qadri, ko‘chirilgan davr yozuvi va muhitini aniqlashga qaratildi;

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Bahrom va Gulandom” dostoniga oid qo‘lyozmalar quyidagilar.

1.3430-III qo‘lyozma

Qissai Bahrom va Gulandom. Yozuvchisi: Sayqaliy. Yozilgan yili-. O‘lchami:15,5x26. 3-kitob Sayqaliyniki 192 varoq. 276-367- betgacha. Qatori:11. Yozuvi: nasta‘liq. Yozuv tili: o‘zbekcha. Yangiligi: kitobni qo‘lga olganda bir varog‘i bor holda topdik. O‘rtasidan bir varoq bor boshi va oxiri yo‘q. [2]

2. 8705 qo‘lyozma

Qissai shahzoda Bahrom va malika Gulandom. Yozuvchisi: Sayqaliy. Yozilgan yili: 1201. Ko‘chirgan yili:1305. Ko‘chiruvchi: Naim Xo‘ja Buxoriy. O‘lchami:13,5 x20. Varog‘i: 121. Qator:15. Yozuvi: nasta‘liq. Yozuv tili: o‘zbekcha. Yangiligi: 122 bet chiqdi.[3]

3. 5030 II majmuada 5ta kitob bor.

Qissai Bahrom va Gulandom. Yozuvchisi: Sayqaliy. Yozilgan yili- Ko‘chirgan yili: 1274/1858. Varoq : 139 bet, 9-139. O‘lchami:15,5 x25,5. Qator:15. Yozuvi: nasta‘liq. Yozuv tili: o‘zbekcha. Yangiligi: 9-147- betgacha ekani aniqlandi. Asar to‘liq holda, muqovasi qattiq jigarrang, poygiri bor.[4]

4. 9816 I , majmua 2ta kitob

Doston Bahrom va Gulandom. Yozuvchisi: Sayqaliy. Ko‘chirgan yili: 1282/1865. Varoq: 81 bet, 1-81. O‘lchami:15 x25. Qator:17. Yozuvi: nasta‘liq. Yozuv tili: o‘zbekcha. Yangiligi: Muqovasi qattiq,qizil, poygiri bor. Kitobning boshi hamd. na‘at qismi yo‘q, lekin oxiri mavjud.[5]

5. 1780 I , majmua 2ta kitob

Doston Bahrom va Gulandom. Yozuvchisi: Sobir Sayqaliy. Yozilgan yili: 1229. Ko‘chirgan yili: 1252. Ko‘chiruvchi: Muhammad Sharif. Varoq : -. O‘lchami:14 x24,5. Qator:15. Yozuvi: nasta‘liq. Yozuv tili: o‘zbekcha. Yangiligi: Hamd qismi yirtilgan. Muqovasi qattiq, yashil, poygiri bor. 94 varoq.[6]

“Bahrom va Gulandom” dostoni keng tarqalgan va ko‘plab qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lgan xalq orasida mashhur asar sifatida qadrlangan. **O‘zFASHI fondidagi beshta asosiy qo‘lyozma** (3430-III, 8705, 5030-II, 9816-I, 1780-I) dostonning muhim kodikologik va matniy manbalaridan hisoblanadi. Qo‘lyozmalar orasida **to‘liq va saqlangan nusxalar mavjud**, bu esa dostonning tanqidiy nashri

uchun asos bo‘la oladi. Asarning **yilma-yil ko‘chirilishi, ko‘chirish uslublari** va **material sifatleri** o‘zgarib borgan, bu esa dostonning zamonlar osha ahamiyatini yo‘qotmaganini anglatadi. Qo‘lyozmalarda kuzatilgan tafovutlar dostonning matniy-tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda **qiyosiy va tarixiy matnshunoslik yondashuvlarini** talab qiladi.

Maqolada qo‘lyozmalarning kodikologik, matniy va manbashunoslik jihatdan tahlil qilinishi, kelgusidagi matnlarni tanqidiy nashrga tayyorlash, filologik qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, saqlanib qolgan to‘liq va qisman nusxalarning farqlari matndagi rivojlanish, o‘zgarishlar, uslubiy va kompozitsion o‘zgarishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, Sayqaliy dostonining ilmiy-nazariy tahliliga doir yondashuvlar yanada takomillashib, qo‘lyozmalarning raqamli katalogini tuzish va elektron nashrini yaratish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (O‘zFASHI) qo‘lyozmalar fondi kataloglari.
2. Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Bahrom va Gulandom dostonining 3430-III, 8705, 5030-II, 9816-I raqamli qo‘lyozma va majmualari.
3. G‘aniyeva, S. (2001). *O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Qayumov, M. (1996). *Adabiy manbashunoslik asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Holiqov, A. (2012). *Matnshunoslik va matn tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

SALJUQIYLAR DAVRIDA TASAVVUFNING IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA’SIRI

*Mirzayeva Muxlisa,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi tadqiqotchisi.
Telefon: 88 781 50 16*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saljuqiylar imperiyasi (1037-1194) davrida tasavvufning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada Saljuqiylar siyosati, ulamo va so‘fiylar o‘rtasidagi hamkorlik, rabot va honaqohlarning ma’naviy-tarbiyaviy faoliyati yoritilgan. Shuningdek, Qodiriylik, Suhrovardiylik va Yasaviylik tariqatlarining jamiyatdagi axloqiy uyg‘unlik va totuvlikni mustahkamlashdagi hissasi tahlil qilinadi. Natijada, tasavvuf Saljuqiylar davrida nafaqat diniy-falsafiy yo‘nalish, balki jamiyatni ruhiy jihatdan birlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi ma’naviy institut sifatida shakllangani ilmiy asosda ko‘rsatiladi.

Kalit soʻzlar: Saljuqiylar, tasavvuf, ijtimoiy barqarorlik, Qodiriylik, Yasaviylik, Suhrovardiylik, honaqoh, rabot, maʼnaviyat, Nizomulmulk.

Kirish. Saljuqiylar imperiyasi (1037-1194) islom olamida siyosiy markazlashuv, ilm-fan va madaniyat yuksalishining davri boʻldi. Shu davrda tasavvuf, yaʼni ruhiy poklanish, maʼnaviy kamolot va ijtimoiy uygʻunlikni targʻib etuvchi harakat keng yoyildi [1, 15 b.]. Tasavvuf faqat diniy yoki falsafiy oqim emas, balki jamiyatda tinchlik, axloqiy uygʻunlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi maʼnaviy kuchga ham aylandi [2, 5 b.]. Saljuqiylar siyosati tasavvufni qoʻllab-quvvatlash orqali xalq orasida birlik va totuvlikni taʼminlashga xizmat qildi.

Asosiy qism. Saljuqiylar sulolasi turli etnik va diniy guruhlarini oʻz ichiga olgan keng hududga hukmronlik qildi. Bu xilma-xillik baʼzan ijtimoiy ziddiyatlarga sabab boʻlgan. Shu sharoitda tasavvufiy taʼlimotlar jamiyatda maʼnaviy muvozanat va totuvlikni saqlashda muhim rol oʻynadi [3, 58 b.]. Saljuqiylar davrida ijtimoiy hayotning bir qismi boʻlgan taʼlim-tarbiya va tasavvufiy jarayonlar madrasalardan tashqari rabot, honaqoh va zoviya deb ataluvchi maskanlarda ham davom etti. Rabot-chegaralar va strategik joylarda harbiy maqsadlarda mustahkamlangan inshootlarga berilgan arabcha nom boʻlib, “jihod uchun bogʻlangan otlar” (Anfol 8/60), “jihod uchun tayyor turish” (Oli Imron 3/200) kabi maʼnolarda Qurʼoni karimda zikr etiladi va ilk islom davrida aholi himoyasi hamda jihod uchun otliq suvoriylarning chegaralarda shay holatda turishlariga atab qurilgan chodirlar maʼnosini anglatadi. Keyinchalik bu chodirlar oʻrnini mustahkam binolar egallay boshladi. Askarlar taʼminoti va himoya tizimlari davlat tasarrufiga olindi. Bosqinchilik faoliyatlari kamaygach, bu binolar yoʻlovchilar, darveshlar, boshpanasizlar va soʻfiylarga qoʻnoq vazifasini oʻtadi. Rabotlarda diniy-tasavvufiy taʼlim, asarlar taʼlifi va muridlar etishtirildi [4, 72-77 b.].

Vazir Nizomulmulk (1018-1092) oʻzining “Siyosatnoma” asarida diniy va axloqiy tartibni saqlashda ulamo va soʻfiylarning oʻrnini alohida taʼkidlaydi [5, 46 b.]. U “Nizomiya” madrasalarini tashkil etib, ilm va maʼrifatni, shu jumladan, tasavvufni jamiyat barqarorligining asosi deb bilgan. Tasavvuf harakati Saljuqiylar davrida xalq ongiga chuqur singdi. Soʻfiylar xalq orasida sabr, tavakkul, adolat, va mehr-oqibat kabi axloqiy qadriyatlarni targʻib qildilar [6, 88 b.]. Turkiyalik tarixchi Ahmad Ojak oʻzining “Saljuqiylarning diniy siyosati” asarida shunday keltiradi: “Saljuqiy sultonlar ilm va ulamo davlatni himoya qiluvchi devor, uni bardavom etuvchi ustunlar, olimlar esa sivilizatsiya mashʼalasi va ummatning kashshofi ekanini angladilar. Ular ilm-fan muassasalarining tarqalishiga yordam berish uchun ulamolarga madrasa, honaqoh va rabotlar qurdirib, olimlarga ehson va ikromda

bo‘ldilar. Chunki ular bu ish davlatning baqosi uchun zarur ekanini anglab etdilar. Sultonlarning saroylari hamisha olimlar, shoirlar va ma’rifat ahllari bilan gavjum edi” [7, 121 b.]. “Sultonlar tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar, ular yaratgan muhitda ulamolarning ilmiy majlislar tashkil etishi, ma’ruza to‘garaklari va ilmiy bahslar o‘tkazishi mumkin edi. Saljuqiylar davrida so‘fiylar odamlarni ibodat, ixlos va birlikka chorladilar, shu sababdan Saljuqiy sultonlar so‘fiylarni himoya qilib, qo‘llab-quvvatladilar. So‘fiylar sharofati bilan jamiyatda ijtimoiy totuvlik va birdamlik shakllandi, bu esa so‘fiylar uchun jamiyatdagi muhim mavqeni yaratti” [8, 286 b. 9, 348 b.].

Honaqoh-darveshlarning zikr va suhbat uchun to‘planadigan, bir muddat qoladigan, ba’zan xilvatga chekinadigan joylari uchun ishlatiladigan atama. Forscha “xon”-“karvonsaroy, uy, ma’bad, sulton”, “xon”- “supa, ayvon”, “xona”- “uy, xona” so‘zlariga “-goh” o‘rin-joy qo‘shimchasining qo‘shilishi bilan yasalgan so‘z. Forscha adabiy va tarixiy matnlarda “xongoh”, “xonagoh”, “xonjoh”, “xonqah”, “xongah” ko‘rinishlarida kelgan bu so‘z arabchaga -“xonaqoh” shaklida o‘zlashgan [10, 55-56 b.]. So‘fiylik harakatining ko‘payishi natijasida ularning doimiy yig‘ilib, ibodat qilishlari uchun kerakli bo‘lgan joy, ya’ni zoviyalar qurildi. Zoviyalar bilan yonma-yon faoliyat olib borgan rabotlar keyinchalik tasavvufiy maqomga ko‘tarilib, zoviyalar darajasiga erishdi . Honaqoh ham xuddi shu ma’noda qo‘llanila boshlagach, bu uch so‘z bilan ifodalangan va vazifalari bir xil bo‘lgan muassasalar so‘fiylar uchun xizmat ko‘rsatishda davom etib, ta’lim-tarbiya va tasavvuf markazlariga aylandi . Islomda diniy ta’lim va ibodat bir-biridan ajratilmagani uchun, honaqohlarning rivojlanishi madrasalarning rivojlanishiga o‘xshash edi. Ta’lim honaqohlarda olib borilgan yoki xonaqohda yotgan talaba boshqa madrasada o‘qigan. Shuning uchun, IX asrda honaqoh va madrasa birikmasi keng tarqalgan [11, 59 b.].

Saljuqiylar davlati barpo etilgandan buyon olimlar va so‘fiylarga katta hurmat-e’tibor ko‘rsatildi. Ular bilan uchrashib, maslahatlariga amal qilish Sultonlar uchun vojib ishga aylandi. Din peshvolarini hurmat qilish, ularning mavqeini yuksaltirish bu shaxslar qatori Sultonlarning ham xalq oldidagi obro‘-e’tiborini oshirdi. Saljuqiylarning Yaqin Sharqqa kelguniga qadar Islom olamidagi siyosiy beqarorlik va shia-botiniy harakatlarining jamiyatda yuzaga keltirgan ma’naviy zarbasi, ayniqsa, axloq va ijtimoiy tuzilmaning buzilishi jarayonida so‘fiylarning odamlarda umid uyg‘otishi, ularni birlik, tenglik va sadoqatga chorlashi natijasida xalqning mana shu kishilar yo‘liga o‘tib, ularning nasihatlariga amal qilishini va so‘fiylarning omma oldidagi hurmatini shakllantirdi [12, 176 b.].

Saljuqiylar davri diniy tafakkurida tasavvuf g‘oyasi mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, u ijtimoiy ong, shaxsiy ma’naviyat va diniy-amaliy hayotga chuqur

ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda mashhur so'fiylar faoliyat olib borgan bo'lib, ularning ta'limotlari orqali xalqlar orasida ilohiy muhabbat (mahabbatulloh), taqvo, sabr va tavakkul g'oyalari keng tarqaldi. Tasavvufiy ta'limotlar xalq diniyligining asosi bo'lib, ulamolar bilan bir qatorda xalq tabaqalarining ham iymon va amaliy hayotiga chuqur kirib bordi. Tasavvuf faqat individual ibodat shakli emas, balki jamiyatni ruhiy jihatdan barqarorlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qildi. Zohidlik, riyozat, uzlat, tavba va xatolardan poklanish singari tushunchalar madrasaviy fiqhiy doiralar bilan o'zaro uyg'unlikda talqin qilindi [13, 324 b.].

Ibodat va zohidlik bilan hayot kechirishni istagan so'fiylar uchun qurilgan rabotlar ta'lif, tasnif, qiroat va ruxsat kabi mavzularni o'z ichiga olgan bo'lib, islom ilmlarining rivojlanishiga yordam bergan. Rabotda yashovchi so'fiylar bu joylarda yashovchi ulamolardan Qur'on, hadis, fiqh kabi ilmlarni o'rganganlar. Saljuqiylar davrida rabotlar so'fiylarning boshpana va ta'lim markazlari bo'lishdan tashqari, bir o'lkadan boshqa o'lkaga sayohat qilayotgan olim va talabalar uchun qo'noq bo'lib ham xizmat qilgan. Ayniqsa Bag'dod ilm-fan va madaniyat shahri sifatida rabotlari ko'p bo'lgan markazga aylangan edi. Boshqa shaharlardan ilm o'rganish uchun bu erga kelgan faqir talabalar shu rabotlarni o'zlariga boshpana tutganlar. Bag'dodda Saljuqiylar davrida madrasa va masjidlar qatorida rabotlar ham xalqning madaniy hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim muassasalarga aylandi. Bu markazlarda to'plangan ulamolar va talabalar dars, bahs-munozara va izlanishlar olib borishdi [14, 721 b.].

Tasavvufning asosiy g'oyasi-“vahdatul vujud” (borliq birligi) insonlar o'rtasidagi tenglik va bag'rikenglikni ta'minlovchi falsafiy asos sifatida namoyon bo'ldi [6, 32 b.]. Bu g'oya diniy, etnik yoki ijtimoiy tafovutlardan qat'i nazar, insonlarni yagona ma'naviy birlikka chaqirdi. So'fiylar ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish, kambag'allar, musofirlar va beva-bechoralarga g'amxo'rlik qilish orqali ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildilar [15, 152 b.]. Saljuqiylar davrida tasavvuf tariqatlari va ularning barqarorlikka qo'shgan hissasi haqida so'z borganda ilk so'fiy tariqatlar bo'lgan qodiriya, suhrovardiya va yasaviya kabi tariqatlarning ahamiyatini unutmaslik kerak.

Abdulqodir Jiloni (1077-1166) asos solgan Qodiriylik tariqati insonni sabr, halollik, tavozelik va bag'rikenglikka o'rgatadi [16, 12 b.]. Uning g'oyalari xalq orasida tinchlik va totuvlikni qaror toptirishga, ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan edi. Qodiriylaroid zoviyalar (so'fiy markazlari) ko'plab hududlarda ijtimoiy yordam va ruhiy tarbiya maskani bo'lgan [17, 67 b.].

Shihobiddin Umar Suhrovardiy (1145-1234) o'zining “Avoriful Maorif” asarida tasavvufni ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlashtirgan holda, so'fiylarni xalq orasida namuna bo'lishga chaqirgan [18, 87 b.]. Uning fikricha, “so'fiylik

jamiyatdan uzilish emas, balki unga xizmat qilishdir” - bu yondashuv ijtimoiy totuvlikning diniy asosini mustahkamladi.

Movarounnahr va Turkiston hududlarida Ahmad Yassaviy (vaf. XII asr o'rtalari) o'z “Devoni hikmat” asarida turkiy xalqlarni axloqiy poklik, kamtarlik va mehrga da'vat etgan [19, 75 b.]. Uning g'oyasi xalq orasida diniy birlikni, etnik uyg'unlikni ta'minlashda kuchli vosita bo'ldi. Yasaviylik tariqatining xalqchil yo'nalishi Saljuqiylar davrida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qildi [12, 17 b.].

Saljuqiy hukmdorlari so'fiylarning xalq orasidagi obro'sini yaxshi tushungan va ularni siyosiy barqarorlikni mustahkamlash vositasi sifatida ko'rgan [13, 135 b.]. Alp Arslon va Malikshoh kabi hukmdorlar so'fiy shayxlarni hurmat qilib, ularning faoliyatiga ruxsat bergan, ayrim hollarda esa ularni maslahatchi sifatida jalb qilgan. Biroq tasavvufning asl kuchi siyosiy hokimiyatda emas, balki xalq orasidagi axloqiy etakchiligida edi. So'fiylar “ruhiy hokimiyat” orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaganlar [7, 15 b.].

Tasavvuf madaniy hayotda ham ijtimoiy totuvlikni mustahkamlovchi omil bo'ldi. She'riyat, musiqa va adabiyot orqali tasavvuf g'oyalari xalq qalbiga singdi. Masalan, G'azzoliyning (1058-1111) “Ihyo ulumud din” asari nafaqat diniy, balki ijtimoiy poklanishning ham nazariy asosiga aylandi [2, 91 b.]. Tasavvuf madaniy birlikni kuchaytirib, turli tabaqa va millat vakillarini yagona ma'naviy qadriyatlar atrofida birlashtirdi [5, 78 b.].

Manbalarga tayangan holda Saljuqiylar davrida faoliyat olib borgan so'fiylar quyidagilardir [13, 148 b.]:

1. Abu Ali Dakkok (vaf. 405/1014 - Nishopur)
2. Abu Abdurrahmon Sulamiy (vaf. 412/1021).
3. Abul Hasan Haraqoniy (vaf. 425/1034).
4. Abu Nuaym Isfahoniy (vaf. 430/1038).
5. Abu Sa'd Abulxayr (vaf. 440/1048).
6. Bobo Tohir Uryon (vaf. 447/1055)
7. Abulqosim Jurjoni (vaf. 450/1058).
8. Abulqosim Abdulkarim Kushayriy (vaf. 465/1072).
9. Abul Hasan Ali ibn Usmon ibn Abu Ali Jullobiy Hujviriy (vaf. 465/1072)
10. Abu Ali Farmaziy (vaf. 477/1085).
11. Abu Bakr Nassoj Tusiy (vaf. 487/1094).
12. Imom G'azzoliy (vaf. 505/1111)
13. Ahmad G'azzoliy (vaf. 520/1126).
14. Aynul Quzot Hamadoni (vaf. 525/1131).
15. Ahmad Nomakiy Jomiy (vaf. 536/1141).

16. Yusuf Hamadoniy (vaf. 534/1133 - Marv)

Xulosa. Saljuqiylar davrida tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy yo‘nalish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi kuchli ma‘naviy institut sifatida shakllandi. So‘fiylar xalqni adolat, sabr, bag‘rikenglik va birlikka chaqirish orqali ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatganlar. Qodiriylik, suhrovardiylik va yasaviylik tariqatlari bu jarayonda faol ishtirok etib, Saljuqiylar davrida jamiyat barqarorligining ma‘naviy poydevorini yaratgan. Tasavvufning bu davrdagi roli bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan - u insoniyatni tinchlik, bag‘rikenglik va ma‘naviy uyg‘unlik sari etaklaydigan kuch sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Trimingham, J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford University Press, 1971.
2. Hodgson, M. G. S. The Venture of Islam, Vol. II. Chicago University Press, 1974.
3. Bosworth, C. E. The Ghaznavids and the Seljuks: Muslim Dynasties of the East. Cambridge University Press, 1996.
4. Hasaneyn A.M., Selaçika Iran ve'l-Irak, - Kahire. 1970.
5. Nizom al-Mulk. Siyosatnoma. Tehran: Amir Kabir, 1987.
6. Ahmad Yassaviy. Devoni Hikmat. Tashkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991.
7. Devin DeWeese. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. Penn State University Press, 1994.
8. Ocak A. Selçukluların dini siyaseti. - Istanbul. [Tarih ve Tabiat Vakfı](#), 2002.
9. Nicholson, R. A. The Mystics of Islam. London, 1914.
10. Keyânî M., Hânkâhlar Tarihi, Çev. Ali Ertuğrul – Süleyman Gökbulut, Büyüyenay yayınlari, - Istanbul. 2013.
11. Knysh, Alexander. Islamic Mysticism: A Short History. Brill, 2000.
12. Ahmet Işık Doğan, Osmanlı mimarisinde tarikat yapıları, tekkeler, zaviyeler ve benzer nitelikteki fütüvvet yapıları, - Istanbul. 1977.
13. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. University of North Carolina Press, 1975.
14. Lapidus, Ira M. A History of Islamic Societies. Cambridge University Press, 2002.
15. Jilani, Abdulqadir. Futuh al-Ghayb. Cairo: Dar al-Ma‘arif, 1966.
16. Suhrawardi, Shihab al-Din. ‘Awarif al-Ma‘arif. Cairo, 1955.
17. Köprülü F., "Harizmşahlar", İ.A. V/I.
18. Server Tanilli, Yüzyılların gerçeği ve mirası insanlık Tarihine giriş. I, - Istanbul. 1990.

19. Eyice S., "Mescid", I.A. VIII.

MUTASHOBIIH SIFATLAR ATROFIDAGI EPISTEMOLOGIK BAHSLAR

Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o'g'li,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.

Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi

Telefon: +99897 417 4334

Annotatsiya. Maqolada Qur'on va Hadisda zikr qilingan mutashobih sifatning ma'nosi hamda ular atrofida ilmiy bahslar tahlil qilinadi. Salaf va xalaf ulamolarining mutashobih oyatlarga yondashuvi — tafviz va ta'vil yo'nalishlari solishtiriladi. Shuningdek, Ash'ariy va Moturidiy maktablarining pozitsiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mutashobih, tafviz, ta'vil, salaf, xalaf, aqida.

Kirish. Mutashobihning lug'aviy ma'nosi: "Arabcha: متشابه — mutashobih" — "o'xshash", "bir-biriga yaqin", "ma'nosi noaniq", "tushunishda mushkil" degan ma'nolarni anglatadi.

Istilohiy ma'nosi: Mutashobih — Qur'on oyatlaridan shunday turidirki, ularning ma'nolari ochiq-oydin emas, ya'ni bir necha ma'noga talqin qilinishi mumkin bo'lgan yoki inson aqliga sir bo'lgan ifoda va ramzlar kelgan oyatlardir.

Modomiki Alloh taolo maxluqotga o'xshashlikdan pok ekan, nega bu mutashobih sifatlar Qur'on va Hadisda zikr qilindi? degan e'tiroziy savol berilsa unga quydagicha javob beriladi:

Birinchi javob: Qur'oni Karim arab tilida nozil bo'lgan, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham arablarga murojaat qilganlar. Ular so'zning mazmunini, o'rnini, kalima qaysi holatda ishlatilayotganini bilishgan va jismni lozim tutuvchi o'sha ma'nolar iroda qilinmayotganini tushunishgan. Shu sababli, sahobalar roziyallohu anhumlar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan Kitob va Sunnatda zikr qilingan "Yad, Vajh, Ayn, Saq, Qadam" kabi mutashobih sifatlar haqida savol so'raganlari haqida hadislar kelmagan. Mushriklar ham zohiriy ma'noga burib, buni muammo (shubha) deb hisoblamaganlar.

Mutashobih deb Masalan: Agar biz majozan: "Ka'ba - Allohning uyidir" desak, faqat yosh bolalar yoki aqliy nuqsoni bor kishilardan boshqa hech kim Alloh Ka'baning ichida, deb o'ylamaydi. Chunki ular uyning Allohga nisbat berilishi sharaf berish uchun ekanligini yoki uy (bayt) so'zining lug'aviy va ma'lum ma'nosidan boshqa narsa murod qilinganligini to'liq anglashadi.

Agar kimdir Bag'dodni bilmaydigan kishiga: "Bag'dod Xalifaning qo'lida" desa, Bag'dodni bilmaydigan kishi Bag'dod Xalifaning kaftidagi bir narsa deb

gumon qiladi. Lekin Bag‘dodni bilgan kishi uning ulug‘ shahar ekanligini biladi va Bag‘dod hech qachon Xalifaning kaftida bo‘lishi mumkin emasligini tushunadi, balki u Xalifaning Bag‘dodga to‘liq egalik qilishini anglatishini biladi.

Bu misollar so‘zning mazmuni, konteksti (siyoq va sabaq) va boshqa dalolatlar (belgilar) lafzni haqiqiy ma’nosidan majoziy ma’nosiga o‘tkazishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi.

Ahlu Sunna val-jamoa ulamolari mutashobihning ma’nosidan nima iroda qilinganini Alloh taolaga tafviz (topshirish) qildilar yoki oddiy xalqni botil mujassima va mushabbiha e’tiqodlaridan saqlash uchun ta’vilga majbur bo‘ldilar.

Ikkinchi javob: Alloh taolo Shuro surasining 11-oyatida shunday marhamat qilgan: **“Unga o‘xshash hech narsa yo‘qdir”**, va Ixlosh surasi va boshqa oyatlarda ham Alloh taolo hech bir narsada Unga o‘xshashi yo‘q ekanligini bayon qildi. Tafvizning birinchi darajasi mutashobih (ma’nosi ochiq-oydin bo‘lmagan) sifatlarga umuman ma’no zikr qilmaslikdir. Ba’zan kishi ta’vil qilishga majbur bo‘ladi va undan qochib qutula olmaydi. Masalan, Alloh taoloning ushbu so‘zi: **“Bugun sizlarni xuddi sizlar ushbu kuningizga ro‘baro‘ bo‘lishni unutganingiz kabi unutmiz”** (Josiya surasi, 34-oyat. Agar bu oyatni zohiriy ma’nosiga haml qilsak, Alloh taoloda “nisyon” (unutish) lozim keladi. Bu esa Ilohiy Zotga zid keladi. Alloh taolo aytadi: **“Robbing unituvchi bo‘lmagan”** (Maryam surasi, 64-oyat). Shu sababli, barcha ulamolar “nisyon (unutish)” so‘zini ta’vil qilib, uni “tark qilish” (tashlab qo‘yish) ma’nosida oldilar. Ya’ni, **“Bugun sizlarni unutmiz”** degani, “Bugun sizlarni tashlab qo‘yurmiz” demakdir.

Tafvizning ikkinchi darajasi — zohiriy ma’noni zikr qilib, yad, qadam va shunga o‘xshashlarning haqiqiyqatini (qandayligini) bilishni Alloh taolaga topshirish (tafviz qilish)dir. Masalan, Moturidiyya ahli sunna ulamolari “Uning yadi bizning qo‘llarimizga o‘xshash emas” deydi. Mutaaxxir Ash’ariylarning ta’vili esa tafsiliy ta’vil (batafsil izohlash) hisoblanadi. Ularning tafsiliy ta’vili, masalan, “Yad” (Qo‘l) so‘zini qudrat yoki ne’mat deb izohlashdir. Bu odamlarni mujassimalarning botil e’tiqodlaridan uzoqlashtirish uchun qilingan.

Xulosa shuki salaflar yo aslida ta’vil qilmaydi, bu tafvizning birinchi darajasidir. Yoki ijmalij ta’vil qiladi. Masalan, “Uning yadi bizning qo‘llarimizga o‘xshash emas” deydi. Bu ijmalij ta’vildir.

Xalaflar esa tafsiliy ta’vil qiladi. Ular: “Uning yadi bor, lekin biznikiga o‘xshash emas, yad (qo‘l)dan murod “ne’mat” yoki “qudratdir”” deydi. Bu tafsiliy ta’vildir. Keyingi mutaaxxir ulamolar ta’vilni joiz deb bilishadi va tafvizni salomatlik jihatidan afzal deb hisoblashadi. Ba’zan esa ommaning (xalqning) aqidasi saqlash uchun ta’vilni vojib deb ham bilishadi.

Ash’ariylar, Moturidiylar, Shofe’iylar va Hanafiy olimlarining barchasi ta’vil qiladilar. Imom G‘azzoliy va Imom Roziy ham ta’vilni ma’qullaydilar. Ibn al-Humom “al-Musoyara” kitobini, uning shogirdi Ibn Abi ash-Sharif esa “al-Musomara” kitobini tasnif etganlar, ularning barchasi ta’vilni joiz deganlar

Ibn Abbos roziyallohu anhumo ushbu oyatni: **“Boldirlar shimariladigan kunda..”** (Qalam surasi, 42-oyat) “Shiddat” deb ta’vil qilganlar. Ba’zilar uni Qiyomat kunining dahshati deb ta’vil qilganlar.⁸⁴

Qudusiy hadisda Payg‘ambarimiz alayhissalom shunday dedilar: “Alloh Azza va Jalla Qiyomat kunida: “Ey Odam o‘g‘li, Men kasal bo‘ldim, sen Meni ziyorat qilmading,” deydi. Banda: “Ey Rabbim, men Senga qanday ziyorat qilaman? Axir Sen olamlarning Rabbisan-ku,” deydi. Alloh: “Bilasanmi, falon bandam kasal bo‘ldi, sen uni ziyorat qilmading. Bilasanmi, agar uni ziyorat qilganingda, Meni uning huzurida toparding,...” va savobini Mendan olarding,” deydi.”⁸⁵

Adabiyotlar

1. Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz. 531-bet. (al-Asmo val-Sifat (Bayhaqiy), 119-320-betlar)
2. Imom Muslim. “Sahihi Muslim”. Riyoz. Baytul afkor. 1037-bet. 2569-hadis.
3. Badriddin ibn Jamoa. “Iyzohud dalil fi qot’i hujaji ahli at-ta’tiyl”. Damashq. Daru iqro. 2005.
4. Ibn al-Javziy. “Daf’ shubhat at-tashbih”. Taqhiq: Muhammad Zohid Kavsariy. Misr. Al-maktaba al-azhariyya litturos. 89 b.
5. Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz. (Sharh an-Navaviy ‘ala Sahih Muslim, 20/5)
6. Alloma Mahmud Muhammad Xattob as-Subkiy. “Ad-Dinul-xolis”. 1991. 503 b.
7. Hofiz Ibn Hajar. “Hady as-sari”. Daru tiyba. 1-juz.

HOZIRGI DAVRDA YOSHLAR TARBIYASIDA SAHL IBN ABDULLOH TUSTARIY MEROSINING AHAMIYATI

*Raximov Xolmurod Majitovich,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi
Email: raximovxolmurod697@gmail.com
Tel: (91) 815 5878*

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutasavvif olim Sahl ibn Abdulloh Tustariy hayoti va ilmiy merosidan yoshlar ma’naviyati, ta’lim va tarbiyasida o‘rnak

⁸⁴ Muborakfuriy. “Al-asiydatus samaviyya sharhul aqiyda at-tahoviyya”. Afrika. Darul ulum. 2020. 1-juz. 531-bet. (al-Asmo val-Sifat (Bayhaqiy), 119-320-betlar)

⁸⁵ Imom Muslim. “Sahihi Muslim”. Riyoz. Baytul afkor. 1037-bet. 2569-hadis.

bo‘ladigan jihatlar, uning nasihatlaridan namunalar, ma’naviyat va axlaqning muhimligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Tustariy, ilm, axloq, yoshlar, ma’naviyat, ajdodlar, halollik, nafs, muhabbat, manmanlik, e’tibor, ibrat.

KIRISH

Bugungi globallashgan tezkor zamonda taraqqiyot ham jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar barcha sohalarni qamrab olgan. Moddiy rivojlanish omillari insoniyatni mushkulini engillashtirib qolmasdan, balki ko‘p sohalarida ish o‘rinlarini ham to‘ldirmoqda. Ayniqsa, zamonaviy kashfiyot hisoblangan sun’iy intellekt yaqin kelajakda ko‘plab ish o‘rinlarini egallab olishi kutilmoqda. Bu jarayon texnologik kompaniyalarga nafaqat arzon ishchi kuchi, balki tizimlashgan qulayliklar yaratadi. Moddiy ishlab chiqarish shiddat bilan o‘sayotgani ko‘z o‘ngimizda kuzatilmoqda, ammo insoniyat ehtiyojlarining ma’naviy jihati ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki ma’naviyati sog‘lom inson jamiyatga ko‘p foyda keltiradi va aksincha bo‘lgan inson esa ko‘plab xatolarga qo‘l uradi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda ma’naviy sohaga, xususan yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda katta ishlar amalga oshirilmoqda, bog‘chadan boshlab doktoranturagacha bo‘lgan tizimda misli ko‘rilmagan ishlar tashkil qilindi. Ajdodlar ma’naviy merosini o‘rganib, ibratli jihatlarini yoshlarga etkazish sohasida ham ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan katta izlanishlar olib borilmoqda. Chunki ajdodlaridan ibrat olgan avlodlar ham ajdodlar kabi buyuk bo‘lishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyat tarixida o‘zidan ilmiy va ma’naviy iz qoldirgan allomalardan biri Sahl ibn Abdulloh Tustariydir. U milodiy 818 yilda Eronning Tustar shahrida tug‘ilgan. Tustariy hayoti va ilmiy merosida bugungi kundagi yoshlar uchun juda foydagi ibratlar va motivatsiyalar mavjud. Yoshlarni etuklikka etkazuvchi eng muhim vosita bu ilmdir. Tustariy bu vositadan juda unumli foydalandi. U uch yoshligidan boshlab ilmga mehr qo‘ydi va tog‘asi Muhammad ibn Savvordan ilm ola boshladi. [1,65-66 b]

O‘n ikki yoshga to‘lgan Tustariy o‘z shahri olimlaridan ilm olib bo‘lib, yana ilmni davom ettirish maqsadida Basra shahriga safar qiladi, biroq u erdan uni qoniqtiradigan ustoz topilmaydi. Abodon shahriga borgan Tustariy Abu Habib Hamza ibn Abdulloh Abodoniyan bir muddat ta’lim oladi va Tustarga qaytadi. [2,68 b] Keyinchalik haj mavsumida Zunnuni Misriy bilan uchrashib, undan ham ilm oladi. Katta ilm to‘plagan Tustariy buyuk mutasavvif olim bo‘lib etishadi va o‘zining “Sahliya” tariqatiga asos soladi.

Tustariy hayotining eng ibratli jihati bu kimdan ta’lim olish imkoniyati bo’lsa, borib ta’lim olar edi. Mashhur muhaddis Abu Dovud oldiga borib: “Rayg’ambarimiz hadislarini aytgan tilingizni chiqaring, men bir o’pay”, deb ehtirom ko’rsatgan. [3,1949-1950 b] Ilmga sustkashlik qilgan talabalarga tanbeh berar edi va “Ilmning shukri unga amal qilish”, deb aytar edi. [4,106 b]

Tustariyga ko’ra, amal qilinmagan ilm shukri ado qilinmagani uchun javobgarlikka sabab bo’ladi. Insonning olgan ilmi o’ziga, jamiyatiga manfaat keltirishi kerak, aks holda uning haqi ado qilinmagan hisoblanadi.

Tustariyning ibratli jihatlaridan biri – halollikka qattiq targ’ib qilar edi. U: “kim halol esa, qalbida sidq, xolislik, rahm-shafqat, marhamatlilik jamlanadi”, deb aytar edi. [4,92 b]

Tustariy halollikni hayotning asosiy qoidasi deb bilar edi. Unga ko’ra, haloldan emagan insonning qalbini parda qoplaydi va ibodatlari qabul bo’lmaydi. Faqat haloldan egan bandani esa Alloh ajoyib mukofotlar bilan siylaydi.

Tustariy insonning nafs xohlagan barcha ishlarni qilmasdan, balki uni tiyish kerakligini ta’kidlaydi. Chunki nafs xohishlarini chegarasi bo’lmaydi, hatto boshqa insonlarning chegarasini ham buzib kiradi. Tustariy do’stlariga: “Agar nafs sizni gunohga boshlasa, unga ochlik va chanqoqlik bilan odob beringlar. Agar u sizni yomonlikka undamasa, unga xohlagancha taom va uyqu beringlar”, deb aytar edi. [2,73 b]

Albatta, yoshlarimiz ilm olish yo’lida qiyinchilik va mashaqqatlarga duch keladilar, o’zlari xohlamagan vaziyatlarga tushadilar. Shu paytlarda sabru matonat bilan qat’iy turib ilm olsalar albatta, natijaga erishadilar. Lekin ko’ngil tusagan o’yin-kulguga ortiqcha berilib ketsalar, maqsad hosil bo’lmaydi. Ajdodlarimiz buyukligining asl sababi – maqsad sari uzluksiz qat’iy mehnat qilish bo’lgan. Bugungi kunda ham intizomli mehnat qilgan yoshlarimiz yaxshi natijalarga erishmoqda.

Tustariyning axloqiy illatlarga qarashi ham salbiy bo’lgan. Ayniqsa, o’zidan ajablanib, manmanlik qilganlarni qattiq tanqid qiladi va shunday deydi: “ujb (o’ziga bino qo’yish)ning etmish eshigi bor, ularning bittasiga Iblis osilgan edi, oqibati yomon bo’ldi”. [4,104 b]

Albatta, manmanlik zamonaviy etika qoidalariga ham to’g’ri kelmaydi va o’zini boshqalardan baland qo’yish esa oxir-oqibat yakkalanib qolishga olib keladi. Manmanlik qilgan shaxs odatda faqat o’z manfaatini ko’zlaydi, xalq manfaati bilan ishi bo’lmaydi. Bunday insonlar jamiyatga foyda keltira olmaydilar.

Tustariyning do’stlarga muhabbat qo’yish borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Tustariy: “do’stga muhabbat – unga ozor bermaslik va unga (qo’lidagini) sarflash bilan bo’ladi”, deydi. [5,121 b]

Tustariyga ko‘ra muhabbat faqat tilda emas, balki amaliy bo‘lishi kerak. Muhabbatning isboti esa do‘stni ko‘ngliga qarash, unga ozor bermaslik va o‘zi yaxshi ko‘rgan mablag‘i va boshqa yordamlarini do‘stiga ravo ko‘rishdir. Aks holda u soxta muhabbat bo‘lib qoladi.

Tustariy aytadi: “Qiyomat kuni bandalarning amallari tarozida tortilganda xalqqa ozor bermaslikdan og‘irroq amal bo‘lmaydi. Faqat ilmida bo‘lganlar bundan mustasno”. [5,140 b]

Tustariyga ko‘ra, hech kimga ozor bermaslik juda savobi katta amallardan ekan. Chunki inson bilib yoki bilmasdan insonlarga ozor berib qo‘yadi. Bundan saqlanish esa qiyin hisoblanadi. Faqat ilm bilan shug‘ullanib, unga amal qilganlarga bundan ham ko‘proq natijaga erishishi mumkin ekan.

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘rta asrlarda yashab o‘tgan allomalar kabi Tustariy ham o‘z ijodida ma‘naviyat va axloqqa katta e‘tibor qaratadi. Yoshlar tarbiyasiga e‘tibori ham salmoqli bo‘lgan. Manbalarda o‘z farzandini iymonli e‘tiqodli bo‘lib voyaga etishiga katta e‘tibor qaratgani kuzatiladi. Bir yosh boladan qushchasini sotib olib, ozod qilgani haqida ma‘lumotlar bor. Yosh talabalarga foydali maslahatlar bergan. O‘zi ham ilm yo‘lida namuna bo‘ladigan hayot yo‘lini bosib o‘tgan. Tustariy merosini o‘rgangan sayin chuqur mulohazali va hech qayerda uchramaydigan fikr va mulohazalarga guvoh bo‘linadi. Uning tibbiyot va kimyo ilmlarida ham mohir bo‘lganini ko‘rish mumkin. Umuman olganda, Tustariy qomusiy olim bo‘lib komillikka etishgan shaxs hisoblanadi. Uning hayotidan ibrat olish albatta, komillik sari etaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ابو القاسم عبد الكريم القشيري. الرسالة القشيرية. بتحقيق الامام عبد الحليم محمود و الدكتور محمود ابن الشريف. القاهرة – مطابع مؤسسة دار الشعب. م1989- 1409هـ. ص. 65-66
2. سهل ابن عبد الله التستري. تفسير القرآن العظيم. بتحقيق طه عبد الرؤوف سعد و سعد حسن محمد علي بيرت - لبنان. دار الحرم للتراث. 1425هـ-2004م. ص. 349
3. امام ابو عبدالله شمس الدين محمد ابن احمد الذهبي. سير اعلام النبلاء. بيت الافكار الدولية. لبنان, 2004م. ص. 1949-1950
4. كوبريلي زاده نعمان باشا. تهذيب كلمات سهل بن عبد الله التستري و كراماته. الاردونية الهاشمية, دار الرياحين 1444هـ-2023م. ص. 232
5. سهل بن عبد الله التستري. المعارضة و الرد على اهل الفرق و اهل الدعاوى في الاحوال. تحقيق الدكتور محمد كمال جعفر. القاهرة, دار الانسان. 1400هـ-1980م. ص 162

THE ROLE OF IMAM BUKHARI'S PEDAGOGICAL TEACHINGS IN THE EDUCATION AND UPBRINGING OF YOUTH

Xaitov Azizbek Azamatovich

PhD student of the Bukhara state pedagogical institute

[*azizbekxaitov5253@gmail.com*](mailto:azizbekxaitov5253@gmail.com)

Abstract: This article explores the pedagogical significance of Imam Muhammad ibn Ismail al-Bukhari's teachings in shaping the moral and intellectual development of youth. Imam Bukhari's approach to knowledge emphasized not only the acquisition of information but also its ethical and spiritual application. His methodology of critical verification, respect for teachers and students, and pursuit of truth serves as a model for modern educational principles. The study highlights how his emphasis on sincerity, discipline, and moral responsibility contributes to forming well-rounded individuals. In contemporary education, Imam Bukhari's legacy offers valuable insights into fostering ethical awareness, perseverance, and critical thinking among young people.

Keywords: Imam Bukhari, pedagogy, moral education, youth upbringing, Islamic philosophy, critical thinking

Introduction.

In the decree on the “Development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” developed by the President of our country Shavkat Miromonovich Mirziyoyev (7 Master Directions, in the direction of ensuring spiritual progress, radical reform of this sphere and taking it to a new level, “The purpose of deep study and promotion of the rich scientific heritage of our great ancestors”, in cooperation with prestigious international organizations and scientific research centers of the world, universities, great attention is paid to the extensive study and promotion of the rich and scientific – spiritual heritage of our great ancestors [1].

The education and moral upbringing of youth have always been among the most important foundations of a stable and prosperous society. In the Islamic intellectual tradition, scholars such as Imam Muhammad ibn Ismail al-Bukhari (810–870) played a crucial role not only as transmitters of knowledge but also as educators and moral guides. Best known as the compiler of *Sahih al-Bukhari*, one of the most authentic collections of Hadith, Imam Bukhari exemplified a deep integration of intellectual rigor and spiritual ethics in the pursuit of knowledge. His pedagogical principles - grounded in sincerity, discipline, and the moral purpose of learning - provide valuable insights for contemporary education systems seeking to combine academic excellence with ethical formation. Studying Imam Bukhari's educational philosophy allows for a deeper understanding of how classical Islamic

scholarship can contribute to the development of well-rounded, responsible, and morally conscious youth in the modern world.

Materials and Methods

This study is based on a qualitative and analytical approach aimed at exploring the pedagogical and moral dimensions of Imam Bukhari's teachings and their relevance to modern education. The primary materials include classical Islamic sources such as *Sahih al-Bukhari*, biographical works and historical records detailing the life and educational activities of Imam Bukhari. Secondary materials consist of modern academic publications, journal articles, and research studies focused on Islamic pedagogy, ethics, and youth education. The research employs a descriptive-analytical method to interpret Imam Bukhari's educational philosophy, focusing on principles such as moral discipline, sincerity in learning, and the integration of knowledge and practice. Comparative analysis is also applied to draw connections between Imam Bukhari's pedagogical principles and contemporary educational theories. Through this methodological framework, the study seeks to reveal the enduring significance of Imam Bukhari's teachings for the moral and intellectual formation of youth in today's globalized world.

Discussion

Imam Bukhari's pedagogical heritage offers timeless lessons for the moral and intellectual education of youth. His educational philosophy was built upon the principle that knowledge must lead to righteous conduct and spiritual refinement. Unlike purely theoretical learning, Imam Bukhari emphasized the transformation of knowledge into action, thus aligning intellectual growth with ethical behavior. This approach remains essential in contemporary education, where moral values are often overshadowed by material and technological advancement.

One of Imam Bukhari's most significant contributions to pedagogy lies in his method of critical verification. His meticulous process in compiling *Sahih al-Bukhari* demonstrates a commitment to truth, reliability, and intellectual integrity. These principles foster analytical thinking, academic honesty, and responsibility - qualities urgently needed among today's youth. By encouraging learners to seek authentic knowledge through careful examination and sincerity, Imam Bukhari's method can help develop critical, independent, and ethical thinkers. [5,45] .

Moreover, his humility, respect toward teachers, and dedication to students set an enduring example for modern educators. The teacher-student relationship, according to Imam Bukhari, should be founded on mutual respect, compassion, and sincerity. Such an approach nurtures emotional intelligence and moral maturity, enabling young people to develop not only academically but also spiritually and socially.

Finally, Imam Bukhari’s perseverance amid hardships reflects a model of resilience and devotion to learning. His lifelong pursuit of knowledge despite poverty and challenges inspires youth to value persistence and patience. Integrating these qualities into modern education can strengthen moral character and prepare students to face life’s difficulties with dignity and faith.

The sahih Hadiths collected by Imam al-Bukhari are of great importance in raising an enlightened person in the enlightened society in New Uzbekistan, kindness, generosity, respect for parents and adults, respect for orphans, being fond of hard working, honesty, love for the motherland, mutual friendship, peaceful coexistence of different peoples in raising a perfect generation. Imam Bukhari’s Qur’an the Karim for Muslims status the calculated work “Al-Jome’ as-sahih” has been translated from Arabic into Uzbek. Imam Ismail Bukhari has many works on ethics and religious upbringing such as “Al-adab al-mufrad” (The masterpieces of Adab), “Al Jome’ assahih” (The faithful collection), etc.

Imam al-Bukhari in the “Book of Knowledge” of “Al-Jame’ as-sahih”: Chapter 10 mentions about the need for knowledge before doing something or speaking: “Knowledge is achieved only by learning” said. It can be concluded from this hadith that seeking knowledge is obligatory for every Muslim. [2, 40]

In the second century of Islam, various sects began to emerge, each attempting to validate their beliefs through Hadiths, which necessitated a critical examination of these narrations. This period saw the establishment of Hadith terminology and the foundational principles of Hadith scholarship, formulated by scholars such as Abdullah ibn Mubarak and Malik ibn Anas

Results

The study’s analysis of Imam Bukhari’s pedagogical teachings produced significant findings that reveal the depth and timelessness of his educational philosophy. His approach to learning and teaching extends beyond the transfer of knowledge to include moral refinement, spiritual discipline, and social responsibility. The main results of the research can be summarized under several key themes.

1. Integration of Knowledge and Morality

The first and most fundamental result of the study is that Imam Bukhari viewed education as an inseparable unity of knowledge (*‘ilm*) and moral action (*‘amal*). He believed that true knowledge must manifest in ethical behavior, sincerity, and humility. This concept challenges modern educational systems, which often prioritize intellectual performance over moral development. Imam Bukhari’s approach demonstrates that effective education should aim to shape not only skilled individuals but also morally upright and socially responsible citizens. [3]

2. Foundation of Critical Thinking and Academic Integrity

The second key result highlights Imam Bukhari’s rigorous methodology of Hadith verification as an early example of critical thinking and research ethics. His meticulous evaluation of narrators, chain of transmission (*isnad*), and textual consistency shows a highly systematic and evidence-based approach to knowledge. This scientific attitude promotes intellectual honesty, accuracy, and accountability - essential components of academic integrity in today’s institutions. By following his model, modern educators can cultivate critical reasoning, analytical thinking, and ethical scholarship among students.

3. The Pedagogical Role of the Teacher

Another important result concerns the teacher’s role as a moral and spiritual guide. Imam Bukhari emphasized that the teacher must serve as a living example of sincerity, humility, and patience. His interactions with students reflected compassion and fairness, reinforcing a respectful and trust-based educational environment. This result supports the view that effective pedagogy relies not only on curriculum and methods but also on the teacher’s personal character and moral influence. Imam Bukhari’s example suggests that ethical role modeling remains one of the most powerful forms of education. [4,245] .

4. The Value of Perseverance and Lifelong Learning

The fourth result reveals that Imam Bukhari’s life itself embodies the values of perseverance, dedication, and love for learning. Despite enduring poverty, illness, and long travels in search of authentic knowledge, he remained steadfast in his pursuit of truth. This lifelong devotion serves as a motivational framework for youth education, emphasizing the importance of patience, resilience, and sincerity. Such values are essential for forming a generation that approaches learning not as a temporary requirement but as a continuous journey of personal and moral growth.

5. Relevance to Contemporary Education

Finally, the research results confirm that Imam Bukhari’s pedagogical principles are deeply relevant to the challenges of modern education. In a world increasingly influenced by materialism and information overload, his emphasis on ethical responsibility, critical verification, and moral purpose provides a balanced model for youth development. Integrating these values into educational curricula can help young people build strong ethical foundations, emotional intelligence, and intellectual discipline - all of which are vital for the creation of a just and harmonious society.

The analysis of Imam Bukhari’s pedagogical teachings revealed several key outcomes relevant to contemporary education and youth upbringing. First, his approach established that knowledge must be connected to moral conduct and

spiritual development. This finding emphasizes that effective education involves not only intellectual growth but also the cultivation of ethical behavior and emotional maturity.

Second, the study identified Imam Bukhari’s method of verifying Hadith as an early form of critical inquiry and evidence-based learning. This demonstrates that critical thinking, academic integrity, and responsibility were integral to classical Islamic scholarship, offering valuable guidance for modern educational practices.

Third, the results show that Imam Bukhari’s relationship with his teachers and students embodied respect, humility, and sincerity - qualities essential for building positive and ethical learning environments. His teaching approach encouraged mutual understanding and compassion, forming a holistic educational model that addressed both mind and character. [6,33-47]

Lastly, Imam Bukhari’s perseverance, discipline, and love for learning serve as a motivational framework for youth development. His life and work illustrate that true education requires patience, sincerity, and dedication - values that remain vital in preparing morally strong and intellectually capable generations.

Conclusion

The study concludes that Imam Bukhari’s pedagogical legacy holds enduring relevance for the moral and intellectual education of youth. His philosophy was founded on the integration of knowledge, faith, and ethical action — a model that modern education systems can benefit from immensely. By emphasizing sincerity in learning, critical verification of information, and the moral responsibility of the learner, Imam Bukhari demonstrated that true education extends beyond academic achievement to the refinement of character..

His example teaches that a teacher’s role is not limited to imparting knowledge but also to guiding students toward moral consciousness and spiritual maturity. The values of patience, humility, and dedication evident in Imam Bukhari’s life inspire youth to pursue learning as a lifelong journey of self-improvement and service to humanity.

In a world facing moral and intellectual challenges, Imam Bukhari’s teachings offer a timeless educational framework that harmonizes intellect with virtue, preparing young people to become ethical, resilient, and socially responsible individuals.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/uz/docs/5841063//O'zbekiston> Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi” to'g'risida. PF – 60 son, 28.01.2022 yil
2. Sahihi-Buxoriy: diniy ma'rifiy / Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy.-

Toshkent: “Munir” nashriyoti, 2021. 40-b

3. Azmi, M. (2019). The Educational Philosophy of Imam al-Bukhari and Its Relevance to Contemporary Pedagogy. Kuala Lumpur: International Islamic University Press.
4. Hassan, A. (2016). Islamic Ethics and the Role of Hadith in Moral Education. Journal of Islamic Studies, 27(3), 245–260.
5. Siddiqui, M. A. (2020). The Role of Classical Scholars in Moral and Spiritual Education. Islamic Research Journal, 12(2), 45–58.
6. Yusuf, H. (2018). Pedagogical Insights from Islamic Heritage: Lessons from Imam Bukhari's Life and Works. Journal of Educational Thought, 52(1), 33–47.

IBN SINO AXLOQIY QARASHLARINING HOZIRGI DAVRDA AHAMIYATI

*Karimov Anvar
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Mir arab oliy madrasasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino merosida o'z ifodasini topgan axloqiy qarashlar va ularning zamonaviy davr uchun dolzarbligi tahlil qilinadi. Mutafakkirning “komil inson”, “odob-axloq”, “ilm va ma'rifatning tarbiyaviy o'rni” haqidagi fikrlari bugungi jamiyat taraqqiyoti, yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash jarayoni bilan bog'liq holda yoritib beriladi. Shuningdek, Ibn Sino axloqiy qarashlarining bugungi globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab-avaylash, ma'naviy immunitetni mustahkamlashdagi o'rni ochib beriladi. Maqolada mutafakkir g'oyalarining hozirgi zamon axloqiy muammolariga echim sifatida qo'llanish imkoniyatlari ham ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: axloq, komil inson, ma'naviyat, odob-axloq, ilm va tarbiya, qadriyatlar, globallashuv, ma'naviy immunitet, jamiyat taraqqiyoti.

Kirish. Ibn Sino fanlar tasnifida eng oliy ilm sifatida metafizikani ajratib ko'rsatadi. Uning asarlari Yevropa o'rta asr ilmiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Sharqda hanuzgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ibn Sino nafaqat tabiatshunoslik va tibbiyot sohasida, balki falsafa va ilohiyotda ham o'z davrining eng etuk komil inson namunasiga aylangan mutafakkirdir. Ayniqsa, o'rta asrlarda nihoyatda murakkab sanalgan axloqiy va ilohiy masalalarni oqilona tushuntirishda u o'zining mantiqiy tafakkuri va chuqur bilimini namoyon etgan. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch asosiy bo'limdan – metafizika, fizika va mantiqdan tashkil topadi. Metafizika – ilohiyot, mavjudot va borliq, dunyoning kelib chiqishi va tuzilishi haqidagi masalalarni qamrab oladi; fizika – tabiat, jism va moddaga oid

ilmiy qarashlarni ifodalaydi; mantiq esa – to‘g‘ri fikrlash va bilish shakllarini o‘rganadi. Umumiy falsafiy masalalar esa nazariy va amaliy jihatlariga bo‘linadi. Shulardan ayniqsa amaliy falsafa qismida axloq, odob va inson kamoloti masalalari keng yoritilib, bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari asosan uch yirik tizim – **mantiq**, **fizika** va **metafizika** (ilohiyot)dan tashkil topgani uchun, ularning barchasi buyuk allomaning eng mashhur asari “Kitob ash-shifo”da o‘z ifodasini topgan. Uning asosiy maqsadi hammaga manzur bo‘ladigan “Mashriq hikmati”ni yaratish edi. Ibn Sinoning fikricha, barcha nazariyalar asosida ilm yotadi, ilm esa aqldan kelib chiqadi. Aql ilohiy olamdan insoniyatga etkaziladigan qudrat sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, inson va uning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda ilohiy bilimlarni tadqiq etish zaruriy sanaladi. Mutafakkir sifatida Ibn Sino **aql va ilmga** nihoyatda katta ahamiyat bergan. U ilmni faqatgina aql mahsuli sifatida emas, balki uni **axloq** va **insoniylik** bilan chambarchas bog‘lab talqin qilgan. Shu boisdan, uning merosida ilm va axloq munosabatlari alohida o‘rin tutadi.

Ibn Sinoning ilmiy va falsafiy merosida ilm va axloqiylik birligi markaziy masala sifatida namoyon bo‘ladi. U bu borada qator asarlar yaratgan bo‘lib, ular orasida “**Risala fi-l-ahd**” (**Burch haqida risola**), “**Kitob al-insaf**” (**To‘g‘rilik haqida kitob**), “**Salamon va Ibsol**” singari asarlarida insoniy barkamollik, diniy-axloqiy me‘yorlar va hayotiy tamoyillar yoritilgan. Bu asarlarda ba’zi joylarda diniy qarashlar bilan ziddiyatli jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning asosiy g‘oyasi insonni axloqiy kamolot sari etaklashga qaratilgan.

Natijalar

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida inson aqli va uning yuksak axloqiy fazilatlarini ulug‘lash qadimdan mavjud an‘anadir. Biroq Ibn Sino merosining qimmatini shundaki, u bu an‘analarni mukammal tarzda jamlab, aniq ifodalangan **axloqiy-gnoseologik tizim** sifatida shakllantira oldi.

Ibn Sino ham davrining ko‘plab mutafakkirlari singari axloqiy masalalarga diniy va idealistik nuqtai nazardan yondoshgan holda, insoniy ilm va axloq manbai sifatida donishmandlik va Yaratuvchining qudratini e‘tirof etadi. Biroq uning ba’zi qarashlari an‘anaviy diniy aqidalar bilan to‘liq mos kelmaydi. Jumladan, u Xudoning ijodiy quvvati inson irodasi yoki xohishidan emas, balki mavjudotning tabiiy zaruriyat asosida voqelikka aylanishidan namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu fikr ko‘plab tadqiqotchilar – E. Renan, M. Tyurker, A. Sayili kabi olimlar tomonidan ham e‘tirof etilgan. Ibn Sinoning nazarida inson yaratilishda zaif mavjudot bo‘lsa-da, uning **aqli** tufayli barcha mavjudotlar orasida markaziy o‘rin egallaydi. Aynan

inson aqli uni hayvonot olamidan farqlab, hayotini mazmunli va maqsadli qiladi. Ilmga chanqoqlik, mehnat faoliyati va yuksak maqsadlarga intilish inson aqlining mahsulidir. Shu bois, inson nafaqat tashqi qiyofasi yoki jismoniy tuzilishi bilan, balki o‘zining **yuksak axloqiylik** va **donishmandlik qudrati** bilan ajralib turadi. Natijada, u yuksak axloqiy fazilatlarning ijodkori va jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida etakchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama

Ibn Sinoning asarlarida, xususan, “Tadbir al-manzil”da inson tabiati tug‘ma ravishda fazilatli yoki axloqsiz bo‘lib dunyoga kelmasligi haqida muhim g‘oya ilgari suriladi. Insonlar tayyor sifatlar va odatlar bilan emas, balki tajriba, avlodlar an‘analari, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayoni orqali shakllanadi. Shu sababli, ta’lim va tarbiya jarayonida inson o‘zida ijobiy axloqiy fazilatlarni ham orttirishi, yoki aksincha, yomon odatlar ta’siriga berilishi mumkin. Ibn Sino ta’kidlaganidek, yaxshi odatlarni shakllantirish qanchalik qiyin bo‘lsa, shakllanib bo‘lgan yomon sifat va odatlardan qutulish ham shunchalik mushkuldir.

Alloma nazarida yomon odatlardan xalos bo‘lishda insonda inersiya kuchi mavjud bo‘lib, bu jarayon ta’lim-tarbiya imkoniyatlarini cheklamaydi, balki insonning o‘z ustida ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bois, Ibn Sino yoshlarni erta davrdan boshlab tarbiyalashni muhim deb biladi. U o‘z davri an‘analariga ko‘ra, ta’limni Qur’oni Karimni o‘qish, dinni anglash va grammatikani o‘rganishdan boshlashni tavsiya etadi.

Ibn Sino odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy notenglikni tabiiy holat sifatida izohlaydi. Uning fikricha, jamiyatning barcha a’zolari birday qashshoq bo‘lib qolishi yoki barchasi hukmron tabaqaga aylanishi ijtimoiy falokatga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, u xizmatkor mehnatidan foydalanishni jamiyat hayotining tabiiy qismi deb bilgan. Ammo allomaning ijtimoiy-axloqiy qarashlarida insonparvarlik va gumanizm ustuvor o‘rin egallaydi. U xizmatkorlarga nisbatan mehribon bo‘lish, ularning ehtiyojlarini qondirish, ularni xo‘rlamaslik, balki ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lish lozimligini ta’kidlagan. Bu orqali Ibn Sino insonni kim bo‘lishidan qat’i nazar, axloqiy hurmat va qadriyat egasi sifatida ko‘radi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda Ibn Sino ilmni egallash jarayonida **axloqiylik**ni alohida qadrlaydi va uni inson kamolotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko‘radi. Uning asarlaridagi qarashlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mutafakkir o‘z davri muammolariga chuqur kirib borib, ularni to‘g‘ri yo‘nalishda hal etishga intilgan va mavjud masalalarning ildizini ochib bera olgan. Ibn Sinoning ratsional fikrlari o‘rta asr arabzabon falsafiy tafakkuri kontekstida jamiyatning ijtimoiy-axloqiy

qarashlarini yanada yuksak bosqichga olib chiqqan. Uning ilm va axloqiylik birligi haqidagi konsepsiyasi shuni ko‘rsatadiki, ilmning o‘zi faqatgina ashyoning mohiyatini anglash vositasi emas, balki eng avvalo, inson va jamiyatning axloqiy yuksalishiga xizmat qilishi zarur. **Fozil jamiyatda** ilm axloqiy fazilatga aylanadi, u axloqiy me‘yorlar va tamoyillar bilan uyg‘unlashadi. Mutafakkir yashagan davr uning idealidan uzoq bo‘lsa-da, Ibn Sino ilgari surgan g‘oyalar shaxs va jamiyatning **axloqiy-aqliy komillikka** erishishida ilm va axloqning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu qarashlar bugungi davrda ham dolzarb bo‘lib, insoniyatni ilmiy yutuqlarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Irisov A. *Abu Ali ibn Sino*. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
2. **Ibn Sino va “Tadbir al-manzil”** / Tarjimai va negaroshi Muhammad Najmi Zenjoni. – Tehron: Elm, 2015. – 124-b.
3. **Ibn Sino va “Tadbir al-manzil”** / Tarjimai va negaroshi Muhammad Najmi Zenjoni. – Tehron: Nashr-e Elm, 2015. – 221-b.
4. Yo‘ldoshev Q., Karimov B. *O‘zbekiston falsafa tarixi*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. G‘ulomov A. *Ibn Sino falsafasi va uning bugungi talqini*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Nasr, Seyyed Hossein. *Islamic Philosophy from Its Origin to the Present: Philosophy in the Land of Prophecy*. – Albany: SUNY Press, 2021.
7. Gutas, D. *Avicenna and the Aristotelian Tradition*. – Leiden: Brill, 2020.

ТАСАВВУФНИНГ МУҲИМЛИГИ

Абдурахмонов Абдулҳодий

Мир Араб олий мадрасаси

"Ижтимоий фанлар ва тиллар" кафедраси ўқитувчиси

+998906219118

Аннотация. Ушбу мақолада тасаввуф илмининг инсон рухий ҳаётидаги аҳамияти ва қалбни поклаш зарурати ҳақида сўз юритилади. Қуръон оятлари, саҳиҳ ҳадислар ҳамда уламоларнинг сўзларига таяниб, инсоннинг зоҳирий амалларидан кўра ботиний (қалбий) амаллар муҳимроқ эканини таъкидланади. Мақолада қалбнинг ислоҳ бўлиши инсоннинг иймони ва садоқатини мустаҳкамлаши, унинг ахлоқий фазилатларини юксалтириши баён қилинади. Шунингдек, ҳасад, риё, кибр каби қалб касалликларидан халос бўлиш йўллари тасаввуф таълимоти орқали изоҳланади. Хулоса ўрнида, тасаввуф

мусулмонлар учун руҳий поклик, ҳалоллик ва иймон камолотига етакловчи муҳим йўналишлардан бири эканлиги қайд этилади.

Калит сўзлар. Тасаввуф, қалб поклиги, иймон, ботиний амаллар, зоҳирий амаллар, Қуръон, ҳадис, ахлоқ, риё, ҳасад, кибр, руҳий тарбия, суфийлик.

Шариатдаги буйруқлар инсонга нисбаттан икки қисмга бўлинади:

1. Зоҳирий амалларга таълуқли бўлган ҳукмлар
2. Ботиний амалларга таълуқли бўлган ҳукмлар.

Бошқача қилиб айтганда инсонни бадани, жисмига таълуқли бўлган ҳукмлар ва инсонни қалбига таълуқли бўлган ҳукмлар.

Баданга таълуқли бўлган ҳукмлар буйруқ ва қайтариқлардан иборат. Буйруққа мисол: Намоз ўқиш, закот бериш, ҳаж қилиш ва ҳоказо... Қайтариқларга мисол: Одам ўлдирмаслик, зино қилмаслик, ўғирлик қилмаслик, ароқ ичмаслик ва ҳоказо...

Қалбий амаллар ҳам худди шундай буйруқ ва қайтариқлардан иборат. Буйруқларига мисол: Аллоҳга, унинг расулларига, фаришталарга, китобларига иймон келтириш, ихлосли бўлиш, хушуъ, таваккул ва ҳоказо... Қайтариққа мисол: Куфр келтирмаслик, ужуб, риё, ҳасад қилмаслик ва ҳоказо...

Гарчи баданий ва қалбий ҳукмларнинг иккаласи ҳам муҳим бўлсада қалбга таълуқли бўлган ҳукмлар биринчисидан кўра муҳимроқдир. Чунки ботиний амаллар зоҳирий амалларнинг асоси ва пойдевори ҳисобланади. Агар ботиний амал бузилса зоҳирий амалларнинг барчаси фасод бўлади.

Аллоҳ Таоло “Каҳф” сурасининг 110 оятида:

“Ким Роббисига рўбарў келишни умид қилса, яхши амал қилсин ва Роббисига ибодат қилишда биронтани шерик қилмасин” [1, 304], деб марҳамат қилган.

Шунинг учун Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васаллам саҳобаларнинг диққатини қалбларини ислоҳ қилишга қаратган эдилар. Уларга: “Инсоннинг салоҳияти, қалбининг салоҳияти, яширин касалликлардан саломатлигига боғлиқ”, дер эдилар.

Имом Бухорий ривоят қилган ҳадисда У зот шундай дейдилар:

“إلا و إن في الجسد مضغة إذا صلحت صلح الجسد كله و إذا فسدت فسد الجسد كله إلا و هي القلب”

“Огоҳ бўлинг! Жасадда бир парча гўшт бор. Агар ўша тузалса жасаднинг барчаси тузалади. Агар ўша бузулса жасаднинг барчаси бузилади. Огоҳ бўлинг! ўша бир парча гўшт қалбдир” [2, 20].

Худди шунгдек У зот соллalloҳу алайҳи васаллам Аллоҳ назар ташлайдиган жой, бу қалб эканлигини уқтирганлар. Имом Бухорий ва Имом

Муслим қилган ривоятда Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васаллам қуйидагиларни марҳамат қилганлар:

“إِنَّ اللَّهَ لَا يَنْظُرُ إِلَى أَجْسَادِكُمْ ، وَلَا إِلَى صُورِكُمْ ، وَلَكِنْ يَنْظُرُ إِلَى قُلُوبِكُمْ ” .

Маъноси: **“Аллоҳ сизларнинг жисмларингиз ёки суратларингизга қарамайди. Лекин сизнинг қалбингизга қарайди”** [3, 10].

Модомики инсоннинг салоҳияти зоҳирий амалларнинг манбаси бўлган қалбга боғлиқ экан, уни Аллоҳ қайтарган ёмон сифатлардан тозалаб ислоҳ қилиш ва уни гўзал сифатлар билан безаш лозим экан. Манашу ишларни қилса, ўша қалб соҳиби қалби салим нажот топувчи кишилардан бўлар экан.

Аллоҳ Таоло Шуаро сурасининг 88-89 оятларида марҳамат қилиб айтадики:

“У кунда молу давлат ҳам бола чақа ҳам фойда бермайди. Фақатгина кимики Аллоҳга салим қалб билан келса, (ўша салим қалб) манфаъат беради” [1, 371].

Қалбни поклаш ва нафсни тарбиялаш фарзи айнларнинг энг муҳимидир. Аллоҳ Таолонинг илоҳий буйруқлари шуни тақозо қилади. Бу ҳақда оят, ҳадис ва уламолар сўз юрутганлар. Ҳозир биз сизга Қуръон, ҳадис ва уламоларнинг сўзларида қалбни ёмон хислат ва касалликлардан поклаш лозимлигига далолат қилувчи ҳужжатларни айтиб чиқамиз.

Қуръондан далиллар: Аллоҳ Таоло Аъроф сурасининг 33-оятида марҳамат қилиб айтади:

“(Эй,Муҳаммад): “Роббим ошкора ва яширин ёмонликлардан қайтарди”, деб айтгин” [1, 154].

Ва яна Анъом сурасининг 151-оятида марҳамат қилиб айтади:

“Гуноҳ ишларнинг ошкора ва яширинига ҳам яқинлашманглар” [1, 148].

Муфассир олимлар оятдаги ички, яширин гуноҳдан мақсад: ҳасад, риё, нифок, деб тафсир қилганлар.

Албатта бу иллатлардан қутулиш ва уларни олдини олиш масаласини тасаввуф муолажа қилади.

Ҳадисдан далиллар: Ҳасад, кибр, риёдан қайтарувчи ва гўзал ахлоқлар билан хулқланишга чорловчи барча ҳадислар бизнинг мавзумизга ҳужжат бўла олади.

Ҳадисларнинг бирида Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васаллам: **“Иймон етмиш нечидир шохчадан иборат. Унинг энг олийси “ЛА ИЛАҲА ИЛЛАЛЛОҲ” калимаси бўлса, унинг энг пастки даражаси, йўлдаги азиятларни олиб ташлаш. Ҳаё ҳам ўша иймоннинг шохчаларидан биридир”**, деганлар.

Иймоннинг мукамаллиги шу шохчаларнинг бир шахсда тўлик жамланиши билан бўлади. Иймоннинг ноқислиги эса ўша шохчаларнинг камайиши билан бўлади.

Тасаввуф айнан мана шу шохчаларни инсонда мужассам бўлишида катта рол ўйнайди.

Олимларнинг сўзларидан далил: Уламолар, алоҳида тавбага муҳтож бўладиган қалбнинг касалларидан бўлган гуноҳи кабираларни санаб чиққанлар. Ва буларнинг барини тасаввуф йўналишида муолажа қилишини баён қилиб чиққанлар.

“Жавҳарату тавҳид” асарида Шайх Бажурий қуйидагиларни айтадилар: “Яхшиликка чақириб, чақимчилик, ғийбат, кибр, риё, ҳасад, тортишув ва жанжалга ўхшаган ёмон ишлардан ўзингни тий. Албатта булар нафснинг айби ҳисобланади. Ва бу дардга учраганларнинг табиби буюк сўфийлар ҳисобланади”.

“Ҳидоятул Алаийя” китобининг муаллифи бу ҳақда қуйдаги сўзларни айтади: “Шариат кўрсатмалари ва олимларнинг ижмоси ҳасад, мусулмонларни таҳқирлаш, кибр, ўзидан ўзи фахрланиб ужубга кетиш, риё, нифоқ ва шунга ўхшаган жирканч ишларнинг ҳаром эканлигига далолат қилгач, бу ишларнинг ҳудуд ва чегараларини билиб олиб, барчасидан четланиш ва узоқлашиш лозим. Бунинг ҳақиқатини эса фақатгина тасаввуф илми баён қилиб беради. [4, 64]

Демак хулоса қилиб айтадиган бўлсак, юқорида келтирилган оят ва ҳадис-шарифлардан шу билинадикки тасаввуф мусулмонлар учун алоҳида аҳамиятга эга бўлган, муҳум йўналишлардан бири эканлиги келиб чиқади”⁸⁶.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маънолар таржима ва тафсири -Тошкент. 2009. 546 б.
2. Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий. Саҳиҳул бухорий. Байрут: "Муассатур рисолатун ноширун". 2019. 1904 б.
3. Муслим ибн Ҳажжож ан-Найсабурий. Саҳиҳи муслим. Риёз: "Байтул афкоруд давлийя". 1998. 1473 б.
4. Алоуддин Обидин. Алҳидоятул Алоийя. Дамашқ: “Доруссалом”. 2003.
5. Шох Валиюллоҳ Деҳлавий. Ҳужжатуллоҳил болиға. Карачи: “Дорут танвир”. 1998.
6. Муҳаммад Ибн Исҳоқ Ал- Бухорий Ал-Калабозий. Ат-тарруф лимазҳаби аҳли тасаввуф. Қоҳира: “Туросул араб”. 2000.

⁸⁶Алоуддин Обидин. Алҳидоятул Алоийя.Дамашқ : Доруссалом. - 2003.- Б. 64.

NAQSHBANDIYA TARIQATI RIVOJIDA BUXORO MUTASAVVIFLARINING O‘RNI

R.Z.Rajabova

*Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: 914107882*

Annotatsiya: Tasavvuf ta’limoti Buxoro madaniyati va adabiyoti ilmi ta’sirida taraqqiy etgan va yangi xalq g‘oyalarining shakllanishiga turtki bo‘lgan. Shunga ko‘ra, Buxoroning islom madaniyatida tasavvufning tutgan o‘rni beqiyosdir. Buxoro zaminidan etishib chiqqan va butun islom olamida katta obro‘ qozongan ilk tasavvuf nazariyotchilarini ko‘plab uchratish mumkin.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, mutasavvif, madaniyat, Naqshbandiya, Buxoro, tariqat, hadis, Dahbed, shayx, pir, murid, murshid.

Naqshbandiya tariqatining bir tarmog‘i sifatida shakllangan, oldingi tariqatlardan bevosita hayotga yaqinligi bilan ajralib turgan “naqshbandiya-mujaddidiya” tariqati mang‘itlar davrida Buxoro hamda uning atroflarida rivojlangan va keng tarqalgan. Naqshbandiya-mujaddidiya tariqati tasavvufdagi ilgari amalda bo‘lgan qattiq qoidalarni bir qadar yumshatadi, mo‘tadillashtiradi, kundalik turmushga moslashtiradi. Bu esa naqshbandiya-mujaddidiyaning keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’minlaydi, O‘rta Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi.

Naqshbandiya va Naqshbandiya-mujaddidiya tariqatlarining rivojida ko‘plab shayxlar va so‘fiylarning faoliyati diqqatga sazovordir. Ulardan biri tasavvuf ilmida mashhurlikka erishgan buyuk avliyo, shariat va tariqat ilmlarida o‘z davrining allomasi – peshqami bo‘lgan Eshoni Imlo (1686-1749) bo‘lib, to‘liq ismlari Hazrat Oxund Mullo Muhammad bo‘lgan. Nosiriddin To‘ra qalamiga mansub “Tuhfat uz-zoirin” asarida yozilishicha, bu zot to‘rt tariqatning piri hisoblangan. Bular: kubroviya, naqshbandiya, ishqiya va jahriya tariqatlaridir. Shu bois “Jome-us-suluk” (Suluklar majmuasi) deb nom olgan. Uning asli ismi Hazrat Oxund Mullo Muhammad bo‘lib, “Imlo” taxallusi bilan g‘azallar bitganligi bois Eshoni Imlo nomini olgan⁸⁷. Eshoni Imloining nasablari xususida ba’zi manbalarda ota tomondan hazrati Aliga (r.a.) va hazrat Abu Bakr Siddiqqa bog‘lanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Eshoni Imlo nomlari bilan bog‘liq qabrston bo‘lib, u kishining qabrlari

⁸⁷ Суюндик Мустафо Нуротой. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. – Т.: Сано-стандарт нашриёти, 2015. –Б. 185.

ham o'sha erda bo'lgan. Lekin bu qabriston keyinchalik tekislanib, ustiga Ibn Sino nomidagi maktab qurilgan.

XVIII-XIX asrlarda naqshbandiya-mujaddidiya tariqati islom olamining ko'pgina sohalarida o'zining gullagan davrini boshdan kechirdi. Mang'itlar davrida Dahbed⁸⁸ va uning atrofida Maxdumi A'zam avlodiga mansub xojalar va mashhur valiy zotlar yashab o'tgan bo'lib, Dahbed kichik mavze'ligiga qaramay Naqshbandiya sulukining markazi bo'lgan. Naqshbandiya silsilasidek ulug' bir sulukni orqama-ketin bir oiladan, ya'ni Maxdumi A'zam tabaqasidan chiqqan bir qancha vakillar boshqarishi ham tasavvuf tarixida uchramagan holdir. XV asrda Dahbedga ko'chib kelgan Maxdumi A'zam keyinchalik uning shogirdlari naqshbandiya-mujaddidiya tariqatini rivojida o'z hissasini qo'shib kelgan. Maxdumi A'zam tabaqasi asrlar davomida tasavvuf ilmining rivojida nafaqat Buxoroda, balki xorij davlatlarda ham shuhrati ketgan shayxlardan bo'lganlar.

Mang'itlar davrida ham tasavvuf shayxlari va so'fiylarning hurmati baland bo'lib, ayniqsa Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida tasavvuf ahli va tariqat peshvolariga katta imtiyozlar yaratib berilgan va amirlar ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlab turgan. Mang'itlar davrida faoliyat olib borgan Maxdumi A'zam silsilasi vakillaridan biri – valiylik bobida mashhur bo'lgan Hazrati Sayyid Nurmuhammad bo'lib, tasavvuf ahlining komil piri sifatida ommani to'g'ri yo'lga boshlashda rahnamolik qilgan. Shayx Sayyid Nurmuhammadning shariat va tariqat ilmlarida peshvo ekanligi, sarf, nahv, mantiq, hadis va tafsir ilmlarining donishmandi bo'lganligi manbalarda qayd etilgan⁸⁹.

Dahbediy xojalar silsilasida alohida o'rin tutgan zotlardan yana biri – Hazrati Musoxonxoja Dahbediy bo'lib, diniy va dunyoviy olamda mo'tabar sanalib, “Qutbul-mutaakhirini” (silsilaning oxirgi qutbul-aqtoblaridan) unvonini egallagan. XVIII asrning ikkinchi yarmida Naqshbandiya tariqatiga rahnamolik qilgan. Hazrati Musoxonxoja, taxminan, 1708/09 yillarda Dahbedda Muhammad Isoxoja ibn Muhammad Boboxoja ibn Muhammad Roziqxoja ibn Muhammad Amin (Kalonxoja) ibn Hazrati Maxdumi A'zam xonadonida dunyoga kelgan. Musoxonxoja otasi hamrohligida Hijoz ziyorati asnosida Hisorga ko'chib, so'ng Hindistonning Jahonobod shahriga tashrif buyurib, Mirzo Joni Jonon orqali ustozi Muhammad Obid Jahonobodiy bilan uchrashadi va unga qo'l berib, shogird tushadi. 1746 yilda Hazrati shayx Muhammad Obid vafot etgach⁹⁰, uning o'rniga 35 yoshlik

⁸⁸ Самарқанд шахрининг шимолий-ғарбий тарафида, Окдарё ва Қорадарё оралиғидаги Миёнқол оролида жойлашган қадимий ва тарихий мавзеълардан бири.

⁸⁹ Суюндик Мустафо Нуротой. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. – Т.: Сано-стандарт нашриёти, 2015. –Б. 540.

⁹⁰ Kattaev K. Catalog of ancient and rare books inherited from Makhdumi Azam Dahbedi and his famous descendants. Colorful, photo-illustrated scientific album-edition. The first book. –Т.: Tafakkur Bostoni, 2015. –Б. 85.

alloma Musoxonxoja Dahbediy naqshbandiya-mujaddidiya tariqati-sulukining rahbari bo‘ladi. Ko‘p o‘tmay naqshbandiya, qodiriya, suhravardiya va chishtiya kabi to‘rt silsiladan tuzilgan bu tariqatning peshvosi bo‘lgan Musoxonxoja naqshbandiya silsilasini Hindistondan Dahbedga olib keladi. Abu Tohirxoja “Samariya” asarida: “Samarqand va uning atrofida bo‘lgan buzg‘unchilik va vayronagarchilik vaqtida Hazrati Musoxonxoja Hindiston mamlakatiga ketib, unda Hazrati Miyon Muhammad Obid sohibga murid bo‘lib, Hazrati Miyon ajdodlarining “Alfi soniy” tariqatini yangilab, sharif bobolari silsilasini davom ettirdi”, deb ta’kidlab o‘tilgan⁹¹.

Musoxonxoja o‘z davrining etuk tasavvuf nazariyotchilaridan hisoblanib, shariatga oid asarlar yozgan. “Kasirul-favoid”, “Jomi jahonnomai”, “Aynul-ma’oni”, “Dorul-asror va sanadul-abror”, “Zubdatul haqoyiq va navodirul-maorif”, “Dar fazilati Payg‘ambar”, “Doril maknun”, “Muhzanul ta’rif” ana shular jumlasidandir⁹². X.Yuldashxodjaev tadqiqotida Musoxonxoja Dahbediy asarlari uslubi va qo‘yilgan masalalarni yoritilishiga ko‘ra tahlil qilinib, quyidagi masalalarga asosiy e’tibor qaratilganligi aniqlangan:

1. Xojagon-naqshbandiya-mujaddidiya silsilasi tarixini yoritish;
2. Tasavvufiy istilohlar sharhi;
3. Tavhid va zikr masalasi;
4. Pir-murid va shayx-murid munosabatlariga doir masalalar;
5. Muridlar (tolibi suluklar) uchun yozilgan qo‘llanmalar.

Musoxon Dahbediy naqshbandiya-mujaddidiya sulukining nazariy rivojiga katta hissa qo‘shib, naqshbandiya tariqatini e’tiqod va amaliyot borasidagi turli xurofotlardan tozalab, asarlarida tariqat ta’limotini Qur’on va sunna asosida qayta ishlab chiqdi. Naqshbandiya tariqatining keng tarqalib rivoj topishida Musoxon Dahbediyning o‘rni beqiyosdir. Musoxonxoja to‘g‘risida ham ko‘plab asarlar mavjud. Urgutlik adib va tarixnavis Jumaquli Urgutiyning “Manoqibi hazrati Muso” asari ma’lumotga boyligi bilan qimmatlidir. Qutbul-aqtob Hazrati Muhammad Musoxonxoja Dahbediy Naqshbandiya tariqatiga 18 yil rahnamolik qilib, 1776 yilda vafot etgan⁹³.

Musoxonxojaning xalifalaridan biri bo‘lgan Xalifa Muhammad Siddiq ham tasavvuf pirlaridan bo‘lib, uzoq yillar Hindiston va Pokistonda tariqat ilmini o‘rganadi va o‘rgatadi. 1746 yilda piri Hazrati Shayx Muhammad Obid vafot etgach, tariqat rahbarligi Muhammad Siddiq zimmasiga o‘tadi. O‘sha mamlakatlarda 12 yil

⁹¹ Абу Тохирхожа Самарқандий. Самария. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. –Б. 149.

⁹² Суюндик Мустафо Нуротой. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. – Т.: Сано-стандарт нашриёти, 2015. –Б. 543.

⁹³ Суюндик Мустафо Нуротой. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. – Т.: Сано-стандарт нашриёти, 2015. –Б. 543.

faoliyat yuritib, yana Naqshbandiya tariqati markazini Dahbedga ko‘chiradi. Yuqoridagi fikrlarni tasavvufshunos olim K.Kattaev ham tasdiqlaydi: “Musoxonxoja Dahbediy Hindistondan xalifa va xodimlari bilan qaytadilar. Ul kishining tarbiyatini olib, xizmatlarini qilgan Xalifa Muhammad Siddiq, Xalifa Xudoyor, Xalifa Mahmud, Xalifa Abdulqayum va Xalifa Hoji Muhammad Yusuf hamda mulozimlari Miraj Sohib hamkorligida Dahbedga keladilar. Shu bilan Naqshbandiya silsilasining markazi yana Dahbedga qaytib keladi. Hazrati Musoxonxojaning ushbu izdoshlari irshod huquqini olib, xalqni to‘g‘ri, hidoyat yo‘liga boshqarganlar”⁹⁴.

Musoxonxojaning xalifalaridan yana biri Muhammad Amin bo‘lib, u asli bog‘ibalandlik bo‘lsada, “Dahbediy” nisbasini olgan. U 1152/1739 yilda tavallud topib, 1229/1814 yilda vafot etgan. Amir Haydarning piri bo‘lgani uchun “Eshoni piri dastgir” (Qo‘l oluvchi pir) laqabini olgan. Yoshligida Hindistonga borib, Musoxonxoja murid tushadi va ul zot bilan Dahbedga qaytadi. Manbalarda keltirilishicha, Amir Haydar unga qo‘l berib, murid tushgach, pirini Buxoroga taklif etadi. Eshoni Piri Dastgir Buxoroga ko‘chishdan oldin faoliyat doirasini ikkiga bo‘ladi: ya’ni Dahbed xonaqohi ishini Abdurahmon Maxdum ibn Muhammad Siddiq bilan Mallaxoja Dahbediylarga, viloyat tariqati rahbarligini esa Muhammad Husaynga topshirib ketadi. Vafot etgach, Dahbed xonaqohiga dafn etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Суюндик Мустафо Нуротой. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. – Т.: Сано-стандарт нашриёти, 2015. –Б. 185.
2. Kattaev K. Catalog of ancient and rare books inherited from Makhdumi Azam Dahbedi and his famous descendants. Colorful, photo-illustrated scientific album-edition. The first book. –Т.: Tafakkur Bostoni, 2015. –Б. 85.
3. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. –Б. 149.
4. К.Каттаев. Махдуми Аъзам ва Дахбед. Самарқанд: Сўғдиёна. 1994. –Б. 60.

⁹⁴ К.Каттаев. Махдуми Аъзам ва Дахбед. Самарқанд: Сўғдиёна. 1994. –Б. 60.

ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ТАСАВВУФИЙ ЁНДАШУВЛАРИ

Бердиева Нилуфар Ахатовна

Хожа Бухорий ўрта махсус ислом таълим муассасаси

Ўқув-услубий бўлим бошлиғи, магистр

Тел: +998(97)950-61-14

Аннотация. Мазкур мақолада глобаллашув даврида диний экстремизмга қарши курашишда тасаввуфий ёндашувларнинг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинади. Муаллиф суфийлик таълимотининг ички маънавий тарбия, меҳр-оқибат, толерантлик ва нафси тарбиялаш каби тамойиллари орқали экстремистик қарашларга қарши туриш имкониятларини ёритади. Шунингдек, суфийликнинг инсонпарварлик, маданий ва ижтимоий бирликни мустаҳкамлашдаги ролига баҳо берилади. Мақолада суфий ёндашувларнинг афзалликлари ва чекловлари, шунингдек, уларнинг Ўзбекистон ва Марказий Осиё шароитидаги амалий аҳамияти ҳам кўрсатилган.

Калит сўзлар: глобаллашув, диний экстремизм, тасаввуф, суфийлик, маънавият, толерантлик, нафс тарбияси, диний бағрикенглик.

Глобаллашув жараёни инсоният ҳаётининг барча соҳаларига, жумладан, дин ва маънавият соҳасига ҳам чуқур таъсир кўрсатмоқда. Ахборот оқимларининг тезлашиши, интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали ғоя ва мафкураларнинг эркин тарқалиши натижасида диний қарашларда ҳам турли тенденциялар шаклланимоқда. Афсуски, глобал жараёнлар доирасида диний экстремизм ва радикализм каби хавфли иллатлар ҳам кенг ёйилмоқда. Бу эса жамиятда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш йўлида янги маънавий-тарбиявий ёндашувларни талаб этади.

Шу нуқтаи назардан, ислом динининг инсонпарвар, бағрикенг ва маънавий юксалишга чорловчи жиҳатларини ёритиб берувчи тасаввуф таълимоти бугунги кунда долзарб аҳамият касб этмоқда. Тасаввуф инсон қалбини поклаш, нафси тарбия қилиш, муҳаббат ва инсонийликни тарғиб этиш орқали жамиятда экстремистик кайфиятларга қарши маънавий иммунитет яратади.

Мазкур мақоланинг мақсади — глобаллашув даврида диний экстремизмга қарши курашишда тасаввуфий ёндашувларнинг илмий-амалий аҳамиятини очиқ бериш, уларнинг ижтимоий-ахлоқий асосларини таҳлил қилиш ва бугунги замон талабларига мос тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқот объекти — диний экстремизм ва унга қарши маънавий-ахлоқий кураш усуллари.

Тадқиқот предмети — суфийлик таълимотининг экстремизмга қарши курашдаги маънавий ва педагогик имкониятлари ҳисобланади. Тасаввуфий ёндашув — таъриф ва асосий хусусиятлар

Тасаввуф, суфийлик Ислонинг суннийлик йўналишида VIII-IX асрларда мустақил таълимот сифатида шаклланган йўналиш ҳисобланади. Тасаввуфнинг шаклланишига туртки бўлган зоҳидлик, таркидунёлик ғоялари ислонинг илк давридан вужудга келган. Айрим мутахассислар VII аср иккинчи ярмида яшаб ўтган саҳобалар Абу Зарр ал-Ғифорий, Ҳузайфа ибн ал-Ямон, Салмон ал-Форсий, Ҳасан ал-Басрийни дастлабки тасаввуф намояндalари ҳисоблайдилар. Дастлабки суфийлар ҳадис тўпловчилар, дарвишлар, қорилар, тақводор ҳунарманд ва савдогарлар бўлган.

IX-XII аср ўрталарига келиб Хуросондаги суфийлар тўпланадиган жой – қаландархоналарда “устоз (шайх, муршид, пир) – шогирд (мурид)” институти шакллана бошлаган. Тасаввуф таълимотига биноан, суфийлик инсоннинг қалбини ёмон иллатлардан тозалаш ва яхши хулқни сингдириш йўли саналиб, ушбу йўл тариқа – ҳақиқатни илоҳий англаш усули ҳисобланади [1, 197-198 б].

Тасаввуфга кўра, суфий руҳий камолотга тўртта босқични босиб ўтиш орқали эришади: *шариат* (Ислон таълимотига кўра амал қилиш), *тариқат* (муридининг ўз шайхига итоатда бўлиб, руҳий тарбияланиши), *маърифат* (Аллоҳни юрак билан англаш), *ҳақиқат* (ҳақиқатга тўла етишиш) [2, 199 б].

Шайх Нажмиддин Кубро бу босқичларга қисқа таъриф бериб: “...бежиз эмаски, орифлар: «Шариат бир дарахтдур, тариқат – унинг шохлари, маърифат – япроқлари, ҳақиқат – мевалари. Дарахт бўлмаса новда ҳам, япроқ ҳам, мева ҳам бўлмайди», дея таълим берганлар” деб айтган ва шариатнинг бирламчилигини таъкидлаган. Хожа Аҳмад Яссавий эса:

Шариатсиз тариқатга кирганларни,

Шайтон лаин имонини олар эмиш – дея шариат илмларини мукаммал эгалламаган киши тариқатга кириши мумкин эмаслигидан қатъий огоҳлантирган.

Қадимдан Марказий Осиёда кенг тарқалган тариқатлар – кубровия, нақшбандия ва яссавия тариқатлари бўлиб келган. Баъзи жойларда Абдулқодир Жилоний асос солган қодирия тариқати ҳам тарқалган. Юртимизда кеенг тарқалган яссавия ва нақшбандия тариқатларининг вужудга келиши тасаввуфнинг йирик намояндаси, “шайхлар шайхи” деб улуғланувчи Шайх Юсуф Ҳамадоний (1048-1140) номи билан боғлиқдир [3, 37 б].

Бугунги глобаллашув фазосида, яъни дин, маданият, технологиялар тез алмашадиган ўта-хавфли муҳитда, суфий ёндашувлар диний радикаликка

қарши “мусбат” тўғрилиқ таклиф этади. Бу тўғрилиқ эса, ички поклик, инсонларга раҳм-шафқатлик ва бирликдир.

Диний экстремизм ва унинг глобаллашув билан боғлиқ ўзига хос жиҳатлари мавжуд. Диний экстремизм — диний эътиқодни юзасидан қаттиқ, гибридлашган, зўравонлик ёки таҳдид орқали амалга ошириладиган ҳаракат ёки идеологиядир. Глобаллашув шароитида экстремизм кўп жиҳатдан томоша, интернет, ижтимоий тармоқ, халқаро алоқалар, мигратсия орқали тарқалмоқда, шу боис қандайдир ички ва ташқи муаммоларни келтириб чиқаради. Шу билан бирга, глобаллашув замирида маданий монотонлик ва “бир типли дин” талаби ҳам пайдо бўлиб, бу жамиятларда радикализмга қарши иммунитетни кучайтирмайди, аксинча, фардий, жамоатий, маданий ажралишларга олиб келиши мумкин. Ушбу шароитда диний экстремизмга қарши курашда фақат ҳукукий-ҳарбий чоралар билан чекланмаган ёндашувлар зарур — маънавий, ижтимоий, маданий ва таълимий чоралар ҳам муҳим. **Динни тўғри тушуниш — фақат матнни ўқиш эмас, балки унинг руҳи, мақсади ва шароитини англашдир.** Суфийлик, фикҳ, калом ва тафсир каби ислоний илмлар айнан шу мақсадда ривожланган яъни, динни чуқур, мувозанатли ва инсоний тарзда тушуниш учун.

Суфий ёндашувлар орқали экстремизмга қарши курашнинг асосий стратегиялари: Суфийлик “жиход ал-нафс” (нафс билан жанг) ғоясини олға суриб, инсонларнинг аввал ўзини назорат қилиш, нафсни тарбиялаш орқали экстремизмга чидамлилиқка эришишини таъкидлайди; Суфий муассиса ва тариқатларда инсонларга нисбатан меҳри, толерантликка асосланган муносабат тарғибот қилинмоқда — бу экстремизмдаги “боғланувчи душманлик”, “ўзгаларни айблаш” ва “қаттиқлик” механизмларига қарши туришга хизмат қилади [4. интернет саҳифаларидан]. Масалан, Мароккода давлат суфийлиқни халқ билан муносабатларда, маданиятда, таълимда жорий этишни экстремизмга қарши чора сифатида қўлламоқда; Суфий жамоатлар ўз тармоқлари орқали жамиятда руҳий, маънавий, таълимий дастурлар — экстремизмга осонлиқча берилиш эҳтимоли юқори бўлган ёшлар, жамоат аъзолари билан ишлашни ташкил этишмоқда [5. интернет саҳифаларидан]; Давлатлар суфийлик тарғиботига қўл қўймоқда, суфий раҳбарлик терапиялари, таълим дастурлари, бошқа диний экстремизмга қарши юритилаётган чораларга қўшиб борилмоқда.

Суфий ёндашувларнинг мавжуд имкониятлари қуйидагилардан иборат:

1. Суфийлик экстремизмга қарши идеологик тажрибаларга рақобатчи нарсга бўлиши мумкин: қаттиқ, манихеистик қарашлар ўрнига меҳр, раҳм-шуурлик, баробарлик ва инсониятпарварликни илгари суриш.

2. Суфий тариқатларнинг жамоатчилик даражасидаги таъсири борлиги — жойларда фаолият юритиши, ёшлар билан ишлаши, маданият орқали маърифатни кенглаштири олиши билан экстремизм тарқалишига қарши профилактика вазифасини бажаради.

3. Глобаллашув шароитида мултимедиа ва ижтимоий тармоқлар орқали суфийликнинг “модерат диний” вариантыни тарғиб қилиш имконияти.

4. Суфийлик тарғиботи — маданий мерос ва миллий идентификatsiya билан бирлашган ҳолда, радикалликка қарши локал жамоаларда яхши қўл келади.

Суфий ёндашувларнинг чекловлари ва муаммолари шундан иборатки:

1. Суфийлик ҳам баъзи жойларда политизatsiya қилинаётган: давлатлар ёки ташқи манбалар суфийликни экстремизмга қарши сиёсий восита сифатида қўлламоқда, бу эса суфийликнинг мустақиллигига ва ҳақиқий руҳий мазмунига зиён келтириши мумкин [6. интернет саҳифаларидан].

2. Суфийликни ямарий тармоқларда самарали жорий этишда тарихий ва маданий контекст жиҳатидан муаммолар бор — баъзи минтақада суфийлик анъаналари заифлашган ёки радикал амалиётларга қарши қаршилиқ курулмаган [7. интернет саҳифаларидан].

3. Экстремизмга қарши курашда фақат суфийлик ёки маънавий стратегиялар етарли эмас — ижтимоий, иқтисодий, маданий омиллар ҳам катта аҳамиятга эга. Суфийлик уларнинг ўрнини тўлиқ босолмайди.

4. Суфийликка қарши сиёсий ёки диний радикал гуруҳлар томонидан ҳужумлар бўлиб туради: масалан, суфий мазҳаблар, суфий диний марказлар экстремистлар томонидан маиший ва идеологик нишонга олинган.

Ўзбекистон ва Марказий Осиё шароитида тасаввуфий ёндашувнинг имкониятлари Марказий Осиёда — шу жумладан Ўзбекистонда — суфийлик анъаналари (масалан, Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти) тарихий тарзда шаклланган. Бу — диний таълим, маънавий тарбия ва жамоат цивилизatsiyasi нуқтаи-назаридан муҳим база бўлиши мумкин. Глобаллашув шароитида ёшлар интернет гидроида экстремизмга осон кириб бораётган бир пайтда, суфийлик ички тарбия ва маънавий мустаҳкамликни ривожлантириш учун вариант бўлиши мумкин. Лекин Ўзбекистон ва минтақада суфийликнинг жамоатчилик ҳаётида, таълимда, жамоат институти сифатида жисмоний ва идеологик жиҳатдан ривожланиши керак — бу учун суфийликни замонавий таълим тизимига мувофиқлаштириш, ёшлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш муҳим.

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, диний экстремизмга қарши курашда тасаввуфий ёндашувлар — маънавий, идеологик ва жамоатчилик

даражасида муҳим восита бўлиши мумкин. Суфийлик инсонни нафс билан жанг этишга, меҳр-севги асосида бошқа инсонлар билан муносабатларда бўлишга, толерантликка қарашга чақиради. Бу – экстремизмдаги қаттиқлик, бошқаларни эътиқод, маданият ёки миллат йўлида рад этиш каби йўналишларга қарши бир “ижобий” алтернативи саналади.

Бироқ, суфийликка таяниш билан бирга, ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ечиш, диний таълимни замонавий масалаларга жавоб берадиган тарзда қайта кўриб чиқиш, жамоатчилик билан самарали алоқа қилиш каби бир қатор чоралар ҳам амалга оширилиши шарт ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. (Ҳ. Ишматбеков, Ў. Ҳасанбоев, Ғ. Холбоев. Диний-маърифий суҳбатлар (тезислар тўплами) “Shamsuddinxon Boboxonov” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – Б. 197, 198.).
2. (Ҳ. Ишматбеков, Ў. Ҳасанбоев, Ғ. Холбоев. Диний-маърифий суҳбатлар (тезислар тўплами) “Shamsuddinxon Boboxonov” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – Б. 199.).
3. (Ж. Каримов. Жаҳолатга қарши маърифат (ўқув қўлланма) Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент – 2021. – Б. 37.).
4. (M. Ahmad et al., “The Sufi order against religious radicalism in Indonesia”, HTS Theologies Studies / Theological Studies, 2021.).
5. (A.M. Khan, “The Role of Sufism in Countering Extremism: A Diplomatic Perspective”, Al Khadim Research Journal of Islamic Culture and Civilization, Vol. VI, No. 1 (Jan–March 2025).
6. (M. Bindaniji, “Sufism and Religious Moderation in Counter Radicalism”, Jurnal Islam Nusantara, Vol. 06 No. 01 (2022) : 103-114.).
7. (H. Cherkili, “El regreso del sufismo al Magreb: la promoción del sufismo como estrategia contra el extremismo”, Laicidad y libertades núm. 23, 2023.).

ILMIY MEROSNI TADQIQ QILISH, QO‘LYOZMALARNI SAQLASH VA YOSHLAR TARBIYASIDA FOYDALANISH.

Asatullayev Farhod Ravshan o‘g‘li

O‘zXIA magistranti,

Ko‘kaldosh O‘MITM o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

Toshkent, tel: +99891136 44 31

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy ilmiy-ma’naviy merosi, xususan, Mulla Ali al-Qori hazratlarining “Anvarul Qur’on va asrorul Furqon” nomli tafsir asarini tadqiq etish, uning aqidaviy va tasavvufiy jihatlarini yoritish masalalari tahlil qilinadi. Mulla Ali al-Qorining Alloh taoloning sifatleri, “istivo”, “nur”, “yad” kabi oyatlarga bergan ta’vili, moturidiya aqidasi muvofiqligi va hanafiylik mezonlariga tayangan holda keltirgan dalillarini ilmiy asosda sharhlanadi. Alloma qarashlarining bugungi globallashuv zamonida diniy ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik muammolarini hal etishdagi ahamiyati ko‘rsatilib, ularning yoshlar tarbiyasida ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida qo‘llanish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, Mulla Ali al-Qorining asari naqliy tafsirlar orasida aqida va tasavvufni uyg‘unlashtirgan yirik manba sifatida baholanadi.

Maqola natijasida ilmiy merosni chuqur o‘rganish, qo‘lyozmalarni saqlash va ularni bugungi ijtimoiy-ma’naviy hayotga tatbiq etish zarurligini asoslanadi. Tadqiqot natijalari diniy tafakkur tarixini o‘rganishda, aqidaviy yondashuvlarni tahlil qilishda hamda yoshlar ongida sog‘lom e’tiqod va diniy bag‘rikenglikni shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Ilmiy meros, Mulla Ali al-Qori, “Anvarul Qur’on va asrorul Furqon” asari, aqida, tasavvuf, hanafiylik, moturidiya, qo‘lyozma, e’tiqod, ma’naviyat.

Yurtimiz boy ma’naviy-ma’rifiy merosga ega ekani va bu yurtning buyuk farzandlari yozib qoldirgan asarlar naqadar qiymatli ekani hech bir ilm ahliga sir emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Hozirgi kunda O‘zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to‘liq o‘rganilmagan, ular olimlar va o‘z o‘quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o‘rtaga qo‘yayotgan juda ko‘p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo‘lida

birlashishga da’vat etadigan teran ma’noli fikr va g’oyalar bugun ham o’z qimmatini va ahamiyatini yo‘qotgan emas”⁹⁵.

Yurtimiz allomalarining qoldirgan boy ilmiy meroslarini o‘rganish va ularning mazmun mohiyatini keng ommaga tushuntirish va ular asosida saodatmand hayot kechirishga targ‘ibot va tashviqot qilish bugungi globallashuv zamonida yanada muhim ahamiyat kasb etgan.

Olimlarning ilmiy meroslari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Mulla Ali al-Qori hazratlarining hayoti va ilmiy faoliyati borasida qator ishlar qilingan bo‘lsada, allomaning bir qancha asarlari borasida qilingan ishlar hali etarli emas. Alloma muhaddis, tasavvufiy olim bo‘lishi bilan bir qatorda tafsir ilmida ko‘zga ko‘ringan shaxs bo‘lgani hammaga ham ma’lum emas. Shu nuqtai nazardan, muallif hazratlarining “Anvarul Qur’on va asrorul furqon” nomi bilan tanilgan tafsirining bugungi kundagi mavjud diniy aqidaparastlik va mutaassiblik muammolarini hal etishdagi ahamiyatini ochib berish, undagi mutashobeh oyatlar va fiqhiy hukmlar moturudiyya aqidasi va Hanafiyya mazhabiga muvofiqligini dalillar bilan quvvatlash, asar tasavvuf ilmi jihatidan yuqori saviyada yozilganligini ifodalab berish lozimdir.

Movarounnahrda omma musulmonlar asosan fiqhda hanafiy va aqidada moturidiya ta’limotiga e’tiqod qilgan bo‘lsalar ham, bu o‘lkada oz bo‘lsada, ash’ariylar ham mavjud bo‘lgan. Ushbu ikki aqidaviy ta’limot o‘rtasidagi farqlar e’tiqoddagi asliy masalalarda emas, balki far’iy masalalarda bo‘lgani ushbu asarda o‘z aksini topgan. Shu ma’noda ushbu asar turli adashgan firqalarning da’volariga raddiyalardan tashqari mazkur ikki aqidaviy ta’limot o‘rtasidagi farqli masalalarni yanada yaqindan o‘rganishga ma’rifiy asos bo‘la oladi. Shuningdek ushbu tafsir butun Islom olamidagi Qur’on to‘liq sharhlangan ilk asarlardan hisoblanadi.

Qur’oni Karimda Alloh taoloning «Arshga istivo» qilgani bayon qilingan. Ushbu «istivo» haqida qanday e’tiqod qilish to‘g‘risida ahli sunnadagilar va boshqa toifalar orasida bir qancha bahslar qilingan. Ularning ba’zilarini alloma Mulla Ali al-Qori o‘zining asaridagi “Istivo” oyatlarida keltirib o‘tgan.

الرَّحْمَنُ عَلَى الْعَرْشِ اسْتَوَى

Ar-Rohman arshga «istivo» qildi⁹⁶.

Alloma bu haqida shunday degan:

Alloh taoloning mutlaq ehtiyojsiz Zot ekani muhkam oyatlar bilan sobit bo‘lgan. Shunga ko‘ra, mutashobih oyatlarda kelgan «istivo» lafzining «tenglashish», «joylashish» kabi ehtiyojmandlikka dalolat qiladigan zohiriy

⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 23 dekabr.

⁹⁶ Toha surasi 5-oyat

ma’nolaridan Alloh taolo pokdir, deb e’tiqod qilamiz. «Istivo»dan nima iroda qilinganini esa Alloh taoloning O’ziga havola qilamiz va Qur’onda bayon qilinganidek arshga «istivo» qilganiga iymon keltiramiz. Bu haqida Molik ibn Anas rohmatullohi alayh shunday deganlar: “Istavo kayfiyati noma’lum, unga iymon keltirish farz va u haqida so’rashlik bid’atdir”⁹⁷.

Alloh taolo makon va tarafdin xoli deb e’tiqod qilinadi. Bu masalada “mushabbiha”, “karromiya” firqalari ahli sunnaga zid qarashni aytishgan. Chunki agar U zot biror makonda bo’ladigan bo’lsa unda o’sha makon azalda bo’lgan bo’lib qoladi. Agar keyinchalik makon olgan deyilsa, unda yo’qdan bor bo’lgan narsalarga mahal bo’lib qolgan bo’ladi.

Mulla Ali al-Qori ushbu o’rinda Ahli sunna val jamoaning barcha aqoid kitoblarida bahs qilingan muhim masalani bayon qilgan. Bu haqida moturidiya mazhabi olimlaridan bo’lgan Shayx Jamoliddin G’aznaviy “Usulud din” kitobida quyidagilarni yozgan: “Olamning yaratuvchisi biror tarafda emas. Uni olti taraf ihota qila olmaydi. Chunki olti taraf hodis bo’lib, ularni U zot yaratgan. Agar U zot ularni yaratganidan so’ng birortasiga xoslangan bo’lsa, biror xoslovchi bilan xoslangan bo’lib qoladi. Bunday deyish esa botil bo’ladi”⁹⁸.

Mulla Ali al-Qori Alloh taolo nurni yaratuvchisi ekanligini Nur surasining 35-oyatida bayon qilgan. Ya’ni Alloh taolo nur emas, balki nurning yaratuvchisidir⁹⁹. Bu masalada mushabbiha firqasi ahli sunnaga zid qarashda bo’lganlar.

“Mushabbiha firqasi eng buzuq aqidadagi firqalardan bo’lgan. Chunki ularning aqidasi ko’ra Yaratuvchiga jism nisbatini berish va Uni basharga o’xshatish ma’nolari bo’lgan”¹⁰⁰.

Mushabbihalar “Alloh osmonlar va erning nuridir” ma’nosidagi oyatning zohirini olib, U zotni nur deb atashgan. Ammo bu oyatni Ibn Abbos (r.a) osmonlarni va erni munavvar qiluvchisi deb tafsir qilgan. Ba’zi ulamolar esa: U zot osmonlar va erning hidoyat qiluvchisi degan ma’noda tafsir qilishgan.

Mulla Ali al-Qori keltirgan ushbu masalani Abu Mansur Moturidiyning “Ta’viylotu ahli sunna” tafsirida quyidagicha bayon qilingan: “Kalom ahli Alloh osmon va erni nurafshon qilguvchisidir” deyishgan. Bu tafsirning to’g’ri ekaniga oyat davomida “masaluhu” (Uning misoli) demasdan, “Masalu nurihi” (nurining misoli) degani dalildir. Chunki agar oyatda aytilgan nurdan Alloh iroda qilingan

⁹⁷ Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. 4-jild. Dorul kutubil ilmiyya. –B. 560.

⁹⁸ Shayx Jamoliddin Ahmad G’aznaviy hanafiy. Usulud din. Bayrut Lubnon: 1998. – B. 69.

⁹⁹ Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. 3-jild. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. Dorul kutubil ilmiyya. –B. 467.

¹⁰⁰ Abu Hafs Sirojiddin G’aznaviy. Sharhu aqidati imom Tahoviy. Misr. Qohira. Doratul Karaz. 2009. . – B. 164.

bo‘lganida “masalu nurihi” demasdan, “masaluhu” degan bo‘lar edi”. Shunga ko‘ra U zot nurdan nafsini iroda qilmagan”¹⁰¹.

Mulla Ali al-Qori Alloh taologa nisbatan “yad” sifatini ta’vildan saqlangan holda Fath surasi 11-oyatinining tafsiri mobaynida shunday deydi: “Alloh taoloning O‘zining muqaddas zoti va sifatlariga xos “yad”i bor deydi. Xususan “yad” sifatidan murod Allohning qudrati va quvvati deya ba’zi ulamolar ta’vilini zikr qiladi¹⁰². Bu haqida A’lo Buxoriy shunday deydi: “Alloh taologa nisbatan “yad”, “vajh” va “ayn” kabi sifatlarni arab tilida nisbat berish joiz, boshqa tilda nisbat berish joiz emas”¹⁰³.

Xulosa shuki mazkur qarashlarning barchasida asosiy maqsad ikkita:

1. Alloh taoloni yaratilgan narsalarga o‘xshatib qo‘yishdan saqlanish;
2. Alloh taoloning sifatlaridan birortasini inkor qilib qo‘yishdan saqlanish”¹⁰⁴.

Alloh taoloning azaliy sifatleri bor deb e’tiqod qilinadi. Karromiylar Alloh taoloning sifatleri bor ammo u sifatleri hodis deb e’tiqod qilganlar.

“Mo’taziliylar sifatleri inkor qilganlar. Chunki ularni isbot qilish bandalarga o‘xshatish bo‘lib qoladi, deganlar”¹⁰⁵.

Mulla Ali al-Qori Alloh taoloning kalom sifatini tafsir qilishda oyati karimaning aqidaviy jihatiga emas, balki Muso alayhissalomga berilgan ne’matning ulug‘ligi haqida zikr qilgan. Ya’ni Niso surasining 164-oyati tafsirida shunday deydi: “Muso alayhissalom vahiyning eng yuqori martabasi ila xoslanganlar. Xuddiki, Ibrohim alayhissalom Allohning xolili-do’ssti bo‘lib xoslanganlari kabi. Lekin, Nabiyyimiz alayhissalomga esa barcha payg‘ambarlarga berilgan xislatlar misli berilgan edi”¹⁰⁶.

Kalom Alloh taoloning zotida bor bo‘lgan azaliy sifat hisoblanadi. “Chunki ishtiyoq qilingan ma’noni biror zotga nisbatan ishlatishda unda o‘sha ma’noning masdari bo‘lmasdan turib ishlatish to‘g‘ri bo‘lmaydi”¹⁰⁷.

Alloh taoloning kalomi harflar va ovozlar jinsidan emas. Chunki harflar va ovozlar araz narsalar hisoblanadi. “Ba’zi olimlar: Alloh taoloning kalomi azalda xabar bo‘lgan, amr, nahiylarning barchasi xabarga taalluqlidir deganlar. Bu qarash

¹⁰¹ Imom Abu Mansur Moturidiy. Ta’viylotu ahli sunna. Bayrut Lubnon. Dorul kutubil ilmiya. Birinchi nashr. Majdiy Boslum tahqiqi. “Nur” surasi, 35 oyat tafsiri.

¹⁰² Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. 4-jild. Dorul kutubil ilmiyya. –B. 515.

¹⁰³ A’lo Buxoriy. Risola fil e’tiqod. Sa’id Abdullatif Fuda ta’liqi. – Quvayt: Dor uz-Ziyo. –B. 131.

¹⁰⁴ Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonlari. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2016 – B. 156.

¹⁰⁵ Sa’duddin Taftazoniy. Sharhu aqoidin Nasafiya. Muhammad Yosir ibn Azizur Rahmon tahqiqi. Diyuzbariy Britaniya. 2016 – B. 62.

¹⁰⁶ Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. 1-jild. Dorul kutubil ilmiyya. –B. 485

¹⁰⁷ Sa’duddin Taftazoniy. Sharhu aqoidin Nasafiya. Muhammad Yosir ibn Azizur Rahmon tahqiqi. Diyuzbariy Britaniya. 2016 – B. 69.

quyidagicha rad qilingan: kalom ma’nolarining xilma-xilligi aniqdir, kalomning ba’zisi qolgan ba’zisini lozim tutishi ularning bir ekanini taqozo qilmaydi”¹⁰⁸.

Haq gap shuki, kalom bitta sifat bo‘lib, taalluq topishi e’tiboriga ko‘ra amr, nahiyy va xabarga dalolat qiladi. Bu haqida Abu Shakur Muhammad ibn Solimiy Keshiy “At-Tamhid fi bayoni tavhid” asarida quyidagilarni aytgan: “Ahli sunna val jamoa aytadi: Alloh taoloning sifatleri takrorlanmaydi va sanalmaydi. Ya’ni Alloh taolo bitta fe’l bilan foil, bitta hayot bilan tirik, bitta eshitish bilan eshituvchidir. Eshitiladigan barcha narsalarni bitta eshitish bilan eshitadi, bitta kalom bilan mutakallim va boshqa sifatleri ham shularga o‘xshaydi”¹⁰⁹.

Mulla Ali al-Qori yashagan davr Movarounnahrda Amir Temur, Misrda mamluklar sultonligi paytiga to‘g‘ri kelgan. Ikki tarafda ham ilmga katta yo‘l ochilib, homiylik qilingani sababli mazkur davrda ilm-fan gullab yashnagan. Mulla Ali al-Qori noto‘g‘ri e’tiqodiy qarashlarga qarshi qattiq kurashgan. Og‘zaki tushuntirishdan tashqari alohida asarlar yozib, ahli sunna val jamoaga zid e’tiqodiy qarashlarni ochib bergan. Hanafiy mazhabining haqiqiy himoyachisi bo‘lgan. Ushbu fikrlar asarda aqidaviy va fihiy oyatlarni yoritishdagi muallif uslublarida ham namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, ilk Islom davridan tortib, muallif yashagan asrlar hamda bugungi kunda ham aqidaviy adashish sabablarining o‘zaro o‘xshash ekanligi ushbu asarda zohir bo‘ldi. Barcha davrlarda ham jaholat, oyat va hadislarni noto‘g‘ri talqin qilish hamda dinda chuqur ketish (g‘uluv) adashishlarning asosiy omillari bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topdi.

Yuqoridagilar shuni tasdiqlaydiki, Mulla Ali al-Qori o‘z asarida keltirgan fikrlar va qarashlar, turli muammolarga bergan echim va tavsiyalari har bir zamon va makon uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Shu bois mazkur asarda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar va olijanob fazilatlar, nafaqat o‘sha davrdagi balki, ayni kundagi g‘arazli maqsaddagi turli oqimlarga berilgan raddiyalar bilan xalqni yaqindan tanishtirish bugungi globallashuv zamonida dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mulla Ali al-Qorining “Anvarul Qur’on va asrorul furqon” asari garchi tor doirada o‘rganilgan bo‘lsada uni yanada kengroq o‘rganish, lozim bo‘lsa o‘zbek tiliga tarjima qilish va ommaning e’tiboriga havola qilish foydadan holi bo‘lmaydi. Chunki bu asar avvalgi tafsirlardan farqli o‘laroq, ham aqidaviy ham tasavvufiy asar bo‘lgani bois unda aqida va tasavvufga doir muhim masalalar o‘ziga xos uslub bilan yoritib berilgan bo‘lib bu ayni kunimizda

¹⁰⁸ O‘sha asar. – B. 71.

¹⁰⁹ Abu Shakur Muhammad ibn Solimiy Keshiy. At-Tamhid fi bayoni tavhid. Tarjimon va izohlar muallifi Soatmurod Primov. Toshkent. Movarounnahr nashriyoti. 2014. – B. 100.

o‘z echimini kutib turgan ba’zi muammolarni hal qilishda muhim o‘rin tutadi. Qolaversa, bu asar naqliy tafsirlardan bo‘lishi bilan bir qatorda qadimiy tafsirlardagi eng muhim ma’lumotlarni o‘zida jam etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 23 dekabr.
2. Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. 4-jild. Dorul kutubil ilmiyya. –B. 560.
3. Shayx Jamoliddin Ahmad G‘aznaviy hanafiy. Usulud din. Bayrut Lubnon: 1998. – B. 69.
4. Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. 3-jild. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. Dorul kutubil ilmiyya. – B. 467.
5. Abu Hafs Sirojiddin G‘aznaviy. Sharhu aqidati imom Tahoviy. Misr. Qohira. Doratul Karaz. 2009. – B. 164.
6. Imom Abu Mansur Moturidiy. Ta’viylotu ahli sunna. Bayrut Lubnon. Dorul kutubil ilmiya. Birinchi nashr. Majdiy Boslum tahqiqi.
7. A’lo Buxoriy. Risola fil e’tiqod. Sa’id Abdullatif Fuda ta’liqi. – Quvayt: Dor uz-Ziyo. – B. 131.
8. Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonlari. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2016 – B. 156.
9. Sa’duddin Taftazoniy. Sharhu aqoidin Nasafiya. Muhammad Yosir ibn Azizur Rahmon tahqiqi. Diyuzbariy Britaniya. 2016 – B. 62.
10. Mulla Ali al-Qori. Anvarul Qur’on va asrorul Furqon. Bayrut Lubnon. Naji Suvayd tahqiqi. 1-jild. Dorul kutubil ilmiyya. – B. 485
11. Sa’duddin Taftazoniy. Sharhu aqoidin Nasafiya. Muhammad Yosir ibn Azizur Rahmon tahqiqi. Diyuzbariy Britaniya. 2016 – B. 69.
12. Abu Shakur Muhammad ibn Solimiy Keshiy. At-Tamhid fi bayoni tavhid. Tarjimon va izohlar muallifi Soatmurod Primov. Toshkent. Movarounnahr nashriyoti. 2014. – B. 100.

ТАСАВВУФ ВА УНИНГ ИСЛОМ МАЪНАВИЯТИДАГИ ЎРНИ

Шаранов Мамур

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,

Mir Arab oliy madrasasi “Ilmiy tadqiqot

faoliyatini tashkil etish sektori” mudiri

Аннотация. Мазкур мақолада ислом дунёқараши ва маънавий тараққиётида тасаввуф таълимотининг тутган ўрни, тарихий шаклланиш ва ривожланиш жараёни, шундай-оқ, унинг асосий мақсадлари – инсонни руҳий ва ахлоқий жиҳатдан комиллик сари йўллаш масалалари ёритилган. Мақолада Ибн Халдун, Маъруф Кархий, Жунайд Бағдодий, Зуннун Мисрий каби машҳур сўфийларнинг тасаввуфга доир таърифлари таҳлил этилади. Шунингдек, мақолада тасаввуф тариқатларининг ислом маънавиятига қўшган ҳиссаси ва мустақиллик даврида Ўзбекистонда бу меросга бўлган эътибор масаласи қамраб олинади.

Калит сўзлар: Тасаввуф, сўфийлик, зуҳд, тақво, комил инсон, шариат, тариқат, ҳақиқат, муршид, мурид, валий, нақшбандия, яссавия, кубровия, ислом маънавияти.

Тасаввуф, сўфийлик — исломда инсонни руҳий ва ахлоқий жиҳатдан комиллик сари йўлловчи таълимот. Тасаввуф сўзининг ўзаги ва мазмуни ҳақида олимлар турли фикр ва тахминлар билдиришган. Улар ичида Ибн Халдуннинг фикри ҳақиқатга яқин деб эътироф этилган. У "Муқаддима" асарида тасаввуф "сувф" - "жун", "пўстин" сўзидан олинган бўлиши керак, зеро қадимдан таркидунё қилган зоҳидлар жундан тўқилган кийим ёки пўстин кийиб юришни одат қилганлар, бу билан улар башанг кийиниб юрувчи аҳли дунёлардан фаркли ҳаёт тарзини ўзларида намоён этганлар, дейди. Тасаввуф ва "сўфий" сўзлари 9-асрнинг бошларида яшаган Абу Ҳошим Сўфийдан бошлаб жорий этилган. Ундан олдинги даврларда бу атама ўрнида "зуҳд" ("зоҳидлик", "таркидунёчилик"), "тақводорлик", "парҳезкорлик" каби сўзлар ишлатилган. Ибн Халдуннинг фикрига кўра, саҳобалар, тобеинлар ва улардан кейинги аср кишиларида ҳидоят, ибодат, тақво ва зоҳидлик каби ҳис туйғулар мужассам бўлган. Лекин ҳижратнинг 2 асри ва ундан кейинги даврга келиб, одамларнинг кўпчилигида мазкур хусусиятлар ўрнида дунёпарастлик, дин ишларига бепарволик, кибр ва риёкорлик каби салбий хусусиятлар пайдо бўла бошлагандан кейин обидлик ва зоҳидликни ихтиёр қилган бир гуруҳ кишилар тасаввуф ва сўфийлик номи билан ажралиб чиққанлар. Тасаввуф турлича талқин қилинган. Масалан, Маъруф Кархий (815 й.в.э.) фикрича, "тасаввуф — ҳақиқат сари интилиш, одамлардан тамагирлик қилмаслик ва фақирликни

ихтиёр этишдир". Зуннун Мисрий (859 й.в.э.), "Сўфий бойлик истаб ўзини чарчатмас ва йўқотган бойлигига ачиниб, безовта бўлмас", деса, Жунайд Бағдодий (909 й.в.э.) "тасаввуф - қалбни соф тутмоқ, туғма заифлик ва нохуш ахлоқлардан фориг бўлиб, ҳайвоний ва нафсоний туйғулар устидан ғалаба қилмоқ", деб таъриф берган. Яна у "тасаввуф бир уй бўлса, шариат унга кирадиган эшикдир", деган. Сўфи Оллоёр бу таърифни қувватлаб:

Шариатсиз киши учса ҳавоға,

Кўнгил берма анингдек худнамоға, деб ёзади.¹¹⁰

Мисрлик олим Иброҳим Басюний "Исломда тасаввуфнинг пайдо бўлиши" китобида ҳижрий 3 ва 4-асрларда яшаб ўтган олимларнинг тасаввуф ҳақидаги 40 та таърифни келтиради. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, тасаввуф ислом шариати талабларини ҳам ихлос билан бажарган ғолда зухд, тақво, камтарлик каби олижаноб фазилатларни ўзида мужассам этиб, нафсни поклаш йўли билан комил инсон даражасига эришишга ҳаракат қилишдан ибора тасаввуф тасаввуфнинг ўзига хос истилоҳи мавжуд. Масалан, тасаввуф илмидан сабоқ берувчи шахс - шайх, муршид, пир, эшон, хожа, мавло, мавлоно, махдум каби унвонлар билан танилган. Тасаввуфдан сабоқ олувчи шахс - мурид, солиқ, аҳли дил, аҳли ҳол, мутасаввиф каби номлар билан аталган. Тасаввуф бўйича олий мақомларга эришган соҳибкаромат пирлар - валий, авлиё, қутб, ақтоб, автод, чилтон, абдол, аброр, аҳрор, нуҷабо, нуқабо, сиддиқ, ғавс ва ҳ.к. дейилган. Тасаввуф аҳли баъзан ошиқ, фақир, ҳақир, дарвеш, қаландар, зоҳид, ориф, девона, аҳли муҳаббат, аҳли сулук, рижолул ғайб, савдойи, гадо каби атамалар билан ҳам ифода этилган.¹¹¹

Тасаввуф истилоҳи асосида ижод этган шоирлар мажоз услубини танлаганлар. Шунинг учун ҳақиқат, мажоз, ташбеҳ, истиора каби мантикий қоидалардан боҳабар бўлмаган китобхон Навойи, Фузулий, Атойи, Умар Хайём каби мумтоз адабиёт намояндаларининг шеърларини тўла англаши қийин кечади. Тасаввуф тарихида кўпгина олимлар тасаввуфга доир сўзлар изоҳига бағишланган луғат ва қомусларни ёзиб қолдирганлар. Улардан айримлари Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институтити қўлёзмалар фондида сақланмоқда. Тасаввуф тариқатларининг инсоният маънавиятини юксалтиришга қўшиб келаётган беназир ҳиссаси бутун дунё халқи томонидан эътироф этилсада, баъзан ислом оламида тасаввуфга салбий назар билан қараш, унинг тариқатлари, машойихлари ва кароматларини инкор этиш кўзга ташланади. Бурҳониддин Бикойи (1406-1480)нинг "Тасаввуф инқироzi",

¹¹⁰ Саботул ожизин. Сўфи Оллоёр.

¹¹¹ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф (1-китоб), Тошкент, 1999.

Абдурахмон Димашқиянинг "Нақшбандия тахлили" китоби ва бошқа китобларда тасаввуфнинг барча тариқатлари ва уларга доир асарлар ҳамда машойихлар қаттиқ танқид қилинган. Азиз авлиёларнинг мақбара ва мазорларини зиёрат қилиш ширк деб саналган. Ваҳоланки, уларнинг бу даъволари шаръан асоссиздир.¹¹²

Ислом ҳуқуқшунослигида, яъни шаръий кўрсатмаларни амалга татбиқ етишда 4 та фикхий мазҳаб бўлганидек, Тасаввуфда ҳам бир неча тариқатлар шаклланган. Машхурлари - тайфурия, жунайдия, ҳакимия, қодирия, яссавийлик, маломатийлар, рифоия, кубровийлик, суҳравардийлик, чиштия, акбария, шозиия, бектошия, мавлавия, нақшбандия, санусия тариқатларидир¹¹³.

Мустақиллик йиллари мамлакатимизда тасаввуф тариқатларини ўрганиш, унга доир асарларни таржима қилиш, атоқди машойихларнинг мақбараларини қайта қуриш ва таъмирлашга аҳамият берилмоқда. Ҳаким Термизий, Нажмиддин Кубро, Абдуҳолиқ Гиждувоний, Хожа Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд, Хожа Аҳрор Валий, Шайх Зайниддин, Занги ота, Шайх Хованди Тоҳур ва бошқа кўплаб тасаввуф тариқатларига мансуб пири комилларнинг ҳаёт ва ижодларини чуқур ўрганиш, қолдирган асарларидан халқимизни баҳраманд этиш борасида муайян ишлар қилинди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Абдулкарим са-Саъмоний. Насабнома. (Ал-Ансоб). Бухоро, 1999 йил.
2. Абдулҳолиқ Гиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний.
3. Абдурахмон Жомий. Нафаҳотул унс мин ҳазаротил қудс. Маҳмуд Обидий нашри, Техрон, 1375.
4. Абу Нуайм ал-Исфажоний. Ҳият ул-авлиё. (Аллоҳ дўстлари). Истанбул, 1996.
5. Абул Муҳсин Муҳаммад Бокир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. М. Ҳасаний таржимаси. Тошкент, 1993.

¹¹² Тасаввуф ва инсон. А.Жузжоний. Тошкент, 2001.

¹¹³ Тасаввуф сабоқлари. Иброҳим Ҳаққулов. Бухоро, 2000.

IMOM FAXRIDDIN AR-ROZIYNING TAFSIR KITOBIDIA DIN VA ILMINING UYG‘UNLIGI

Saidov Shaxboz

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,

Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi

[*shaxbozsdy@gmail.com*](mailto:shaxbozsdy@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va mufasssir Imom Faxriddin ar-Roziyning Qur’on tafsiriga bo‘lgan yondashuvi tahlil qilinadi. Unda tafsir ilmini faqat diniy ilmlar bilan chegaralab qo‘ymasdan, koinot, tabiat va aql ilmlarini ham Qur’on asosida sharhlashga intilgan usulning o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Maqola ilm va e’tiqod uyg‘unligining ar-Roziy tafakkuridagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Imom Faxriddin ar-Roziy, at- Tafsir al-Kabir, Qur’on tafsiri, ilm va din uyg‘unligi, aql va vahiy, islom falsafasi, ilohiy tafakkur, tafsir metodologiyasi, ilmiy tafsir, e’tiqod va ilm, koinot va Qur’on, musulmon tafakkuri, diniy-falsafiy meros

Insoniyat tarixida din va ilm o‘rtasidagi munosabat doimo falsafiy va ijtimoiy tafakkurning markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Islom sivilizatsiyasida bu munosabat ayniqsa muhim o‘rin tutadi, chunki Qur’on insonni tafakkur qilishga, ilm izlashga va borliq ustida fikr yuritishga da’vat etadi. Shu bois musulmon olimlari diniy matnlarni sharhlash jarayonida aqliy, mantiqiy va tabiiy fanlarga tayanib, ilohiy matnning mazmunini yanada chuqurroq anglashga harakat qilganlar. Ana shunday buyuk allomalardan biri — Imom Faxriddin ar-Roziy (544–606 h.) bo‘lib, u tafsir, kalom, falsafa va tabiiy fanlar sohasida chuqur bilimga ega olim sifatida tanilgan.

Faxriddin ar-Roziy o‘zining mashhur “at-Tafsīr al-Kabīr” (“Buyuk tafsir”) asarida Qur’onni faqat diniy yo‘nalishda emas, balki ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan ham tahlil qilgan. U Qur’onni barcha ilmlar manbai deb bilgan va har bir oyatda inson tafakkurini rag‘batlantiruvchi, ilmga undovchi ma’nolar mavjudligini ta’kidlagan. Ar-Roziy tafsir uslubida mantiqiy dalillar, falsafiy tahlil, tabiat hodisalariga oid kuzatuvlar va ilmiy tushunchalar keng o‘rin olgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va ilmiy tafakkur davrida din va fan o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faxriddin ar-Roziyning tafsir merosi bu borada ibratli manba bo‘lib, u islom tafakkurining ilmiy va aqliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Imom ar-Roziyning tafsirida ilm va din uyg‘unligi masalasi, uning

ilmiy-metodologik yondashuvi hamda Qur’onni tafsir qilishdagi o‘ziga xos uslubi tahlil etiladi.

Imom Faxriddin ar-Roziy islom tafsirchilik tarixining eng buyuk namoyandalaridan biridir. U o‘z davrida nafaqat mufasssir, balki faylasuf, mutakallim va tabiatshunos sifatida ham tanilgan. Ar-Roziyning mashhur asari — “التفسير الكبير” (“Buyuk tafsir”) nafaqat diniy tafsir, balki turli fanlar bilan bog‘langan ensiklopedik asar hisoblanadi. Ar-Roziyning fikricha, Qur’on barcha ilmlar manbai bo‘lib, u Qur’onni inson bilimining har bir yo‘nalishiga — shariatdan tortib fizika va falakiyotgacha — ilhom beruvchi manba sifatida talqin qilgan.

Imom ar-Roziy tafsirida ilmiy tafakkur alohida o‘rin tutadi. U tabiat hodisalarini Qur’on oyatlari bilan uyg‘un holda tahlil qilib, koinotdagi tartib va qonuniyatlarni Allohning qudratiga dalil sifatida keltiradi. Roziy: “Kim Qur’onni tafakkur bilan o‘qisa, osmon va yerda Xoliqning hikmatini ko‘radi”. Ar-Roziy ilmiy masalalarni keltirishni e’tiqodning mustahkamlanishi deb bilgan. Chunki tabiatdagi uyg‘unlik va qonuniyatlar insonni Yaratuvchi mavjudligiga olib boradi. Ar-Roziyning tafsiri, shuningdek, munaqasha va ilmiy bahs madaniyati bilan ajralib turadi. U mu’tazila, karromiya, shi’a va faylasuflar kabi turli firqalar bilan ilmiy muloqot olib borgan. Tafsirlarida xosmlarning dalillarini aniq, xolis va ilmiy tarzda keltirib, so‘ng ularni ilmiy raddiyalar bilan boyitgan. Bu uslub Qur’onni tahlil qilishda dialektik tafakkur namunasi bo‘lib xizmat qilgan. Misol uchun, “Allohni ko‘rish” masalasiga doir oyatlarni sharhlar ekan, ar-Roziy bir necha nazariy yo‘nalishlarni tahlil qiladi, ularning mantiqiy asoslilikini solishtiradi va nihoyat Qur’on ruhiga mos ilmiy xulosa chiqaradi.

Ar-Roziyning bu yondashuvi Qur’onni nafaqat diniy, balki ilmiy tafakkur asosida tahlil qilish imkonini bergan. U “ilmiy tafsir” maktabining shakllanishiga asos solgan olimlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, “at-Tafsīr al-Kabīr” asarida u Qur’on oyatlaridagi “ilm”, “tafakkur”, “tadabbur” kabi tushunchalarni chuqur sharhlab, insonni o‘ylash, kuzatish va kashf etishga da’vat qiluvchi ilohiy buyruqlar sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, haqiqiy e’tiqod aql bilan tasdiqlangan iymondir, chunki aql insonni xato e’tiqoddan saqlaydi va uni haqiqatga yo‘naltiradi.

Faxriddin ar-Roziy tafsirida ilmiy dalillanish va diniy e’tiqod o‘rtasidagi uyg‘unlik zamonaviy musulmon tafakkurida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. U yaratgan tafsir metodologiyasi bugungi kunda ham din va ilm o‘rtasidagi munosabatlarni anglashda, shuningdek, diniy bilimlarni ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirishda o‘rnak bo‘la oladi. Ar-Roziy o‘z tafsirida ilmiy xulosalarni Qur’on oyatlari bilan dalillab, Allohning yaratuvchilik qudratini ilmiy kashfiyotlar orqali tasdiqlaydi. Shu jihatdan, u islom tafakkurida “ilm va iymon uyg‘unligi”

g‘oyasini shakllantirgan eng yirik mutafakkirlardan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan.

Faxriddin ar-Roziyning tafsirida aql va vahiy, ilm va iymon o‘zaro uyg‘unlashgan. U Qur’onni nafaqat e’tiqodiy, balki ilmiy haqiqatlarning manbai sifatida talqin qilib, musulmon tafakkuriga yangi ufqlar ochgan. Uning tafsiri — bu nafaqat oyatlarning izohi, balki inson tafakkurining ilohiy nurni izlashdagi safaridir. Bugungi kunda ar-Roziy merosi ilm-fan va din o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglash uchun bebaho manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan manbalar

1. Faxriddin ar-Roziy. “At-Tafsir al-Kabir” Qohira, 2004.
2. Rashid aS-Solihi. Dirasat fi Tafsir ar-Razi, Bayrut. Dor kutub alilmiyya. jild 3, sah. 167.
3. As-Suyuti, Jalal ad-Din. Tabaqat al-Mufasssin. Bayrut. Dorul kutub ilmiyya. 170 bet
4. Al-Biqqa, Burhan ad-Din. Nazm ad-Durar fi Tanasub al-Ayat va as-Suvar.

IMOM TERMIZIYNING ILM QADRI HAQIDA Keltirgan HADISLAR SHARHI

Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich

Mir Arab oliy madrasa o‘qituvchisi,

Buxoro Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tel: +998973716091

E-mail: ibrohim9107@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ilmning fazli haqidagi oyat va uning tafsiri, Imom Abu Iso at-Termiziy “Sunan at-Termiziy” asarida keltirgan ilmni talab qilish sharafi, uni yashirsa gunoh bo‘lishi, ilm yo‘lida safar qilish, ilm o‘rganayotgan kishini gunohlari kechirilishi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: . Ilm, Fazilat, savob, gunoh, safar, niyyat, Abu Iso, yashirish

Ma’lumki har qanday narsaga yetishish uchun albatta ilm kerak bo‘ladi. Ilmsiz hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Qur’oni karim oyatlarida ham hadis shariflarda ham ilm maqtalgan. Zumar Surasining 9-oyatida

قُلْ هَلْ يَسْتَوِي الَّذِينَ يَعْلَمُونَ وَالَّذِينَ لَا يَعْلَمُونَ إِنَّمَا يَتَذَكَّرُ أُولُو الْأَلْبَابِ

Ayting: “Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!” Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar.

Biladiganlar deganda amal qiladiganlar nazarda tutiladi. Bilib amal qilmaydiganlar johil kabidir. Albatta hamma ilmlar ham sharaflil va niyyatiga qarab

savob olaveradi. Lekin ularning ichida eng darajasi yuqorisi shar’iy ilmlar hisoblanadi. Imom Abu Iso Termiziy “Sunan at-Termiziy” kitobida ilmga bag’ishlangan alohida bob ajratganlar. Ulardan ba’zilar bilan tanishib chiqamiz.

«عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ، أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: مَنْ يُرِدِ اللَّهُ بِهِ خَيْرًا يُفَقِّهْهُ فِي الدِّينِ».

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Agar Alloh kimni yaxshi ko’rsa, uni dinda faqih qilib qo’yadi [1, 87 b].”

Dinda faqih qiladi degani Alloh taoloni buyruq va qaytariqlaridagi sirlarini biladigan qilib qo’yadi. Bu esa, Hasan Basriy rohimahulloh aytganlariday bilganiga amal qilganlarga nasib qiladi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَنْ سَلَكَ طَرِيقًا يَلْتَمِسُ فِيهِ عِلْمًا سَهَّلَ اللَّهُ لَهُ
طَرِيقًا إِلَى الْجَنَّةِ

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Kim ilm talabida bir yo’lda yuradigan bo’lsa, Alloh taolo u uchun jannatga bo’lgan yo’lni oson qilib qo’yadi [2, 109 b].”

Bu hadisdan huddi Muso alayhissalom Hizrning yoniga ilm talabida safar qilgani va Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhu bitta hadis eshitish uchun bir oylik masofa bosib Abdulloh ibn Qoys roziyallohu anhuning oldilariga borgan kabi ilm talabida yaxshi niyat bilan yaqin yo uzoq safar mustahab ekanligini tushunamiz.

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَنْ خَرَجَ فِي طَلَبِ الْعِلْمِ فَهُوَ فِي سَبِيلِ اللَّهِ
حَتَّى يَرْجِعَ

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Kim ilm talabida yo’lga chiqsa, to uyga qaytib kelgunga qadar Allohning yo’lidir.”

Ilm deganda farzi ayn yoki farzi kifoya ilmlarni talabida chiqadigan bo’lsa Allohning yo’lidagi odam hisoblanadi.

عَنْ سَخْبَرَةَ، عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: مَنْ طَلَبَ الْعِلْمَ كَانَ كَقَارَةٍ لِمَا مَضَى

Saxbaro roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Kim ilm talabida bo’lsa, o’tgan gunohlariga kafforot bo’ladi [3, 101 b].”

Aliy al-Qori rohimahulloh “Mirqot al-mafotih kitoblarida “kafforot – gunohlarni o’chiruvchi degani tavba qilish, zulmlarni joyiga qaytarish kabi gunohlarni o’chirishga sabab bo’ladigan ishlarga vosita bo’ladi deb, sharhlagan.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَنْ سُئِلَ عَنْ عِلْمٍ عَلِمَهُ ثُمَّ كَتَمَهُ، أُلْجِمَ يَوْمَ الْقِيَامَةِ بِلَجَامٍ مِنْ نَارٍ

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “kim o‘rgangan ilmidan so‘ralsa va uni yashirsa qiyomat kuni olovdan bo‘lgan yugan bilan yuganlanadi [4, 122 b].”

Hadisning ma’nosini ulamolar shunday sharhlaydi: so‘ragan odam dinida muhtoj bo‘lgan narsani so‘rasa olim, esa unga javob bermasa imni ifoda qilish o‘rni bo‘lgan og‘ziga qiyomat kunida olovli yugan solinadi. Chunki ilmni olishdan maqsad uni yoyish, insonlarga manfa‘t berish bo‘lish kerak. Yashirsa o‘sha maqsadni yo‘qoladi.

عَنْ كَعْبِ بْنِ مَالِكٍ قَالَ: سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ: مَنْ طَلَبَ الْعِلْمَ لِيُجَارِيَ بِهِ الْعُلَمَاءَ، أَوْ لِيُمَارِيَ بِهِ السُّفَهَاءَ، أَوْ يَصْرِفَ بِهِ وُجُوهُ النَّاسِ إِلَيْهِ أَدْخَلَهُ اللَّهُ النَّارَ

Ka'b ibn Molik roziyallohu anhuning otalaridan rivoyat qilinadi: “Men Rosululloh sollallohu alayhi va sallamdan eshitdim, u kishi dedilar: “Kim ilmni ulamolar bilan tortishish maqsadida o‘rgansa yoki ahmoqlar bilan bahslashish maqsadida o‘rganadigan bo‘lsa va bu bilan insonlarni o‘ziga qaratishni maqsad qilsa, Alloh uni jahannamga kirgizadi [5, 231 b].”

Bu hadisdan murod, kim ilmni Alloh uchun emas buzuq niyyatda o‘rgansa masalan, kimnidir yengish uchun yoki insonlarni ichida mashur bo‘lish u do‘zaxga kirishga haqli bo‘lib qoladi. Demak tolibi ilm xolis niyyatda shar‘iy ilmlarni o‘rgansa va uni qolganlarga yetkazadigan bo‘lsa ulkan savoblarni oladi. Aksincha niyyati dunyo bo‘lsa, qolganlardan yashirsa oqibati ayanchli bo‘ladi. Ilm o‘zi Payg‘abarning merosi olimlar esa, ularning davomchisi hisoblanadi. Shuning o‘zi ham ilmning fazliga kifoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, Zumar surasi 9-oyat
2. Abul Barokat Nasafiy. Madorik at-tanzil va haqiq at-ta’vil.
3. Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy.– Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashirun. 2020. B. 937.
4. Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy.– Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashirun. 2020. B. 937.
5. Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy.– Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashirun. 2020. B. 938.

YOSHLAR TARBIYASIDA AJDODLAR ILMIY MEROSINING O‘RNI

*Tohirov Akobir To‘lqinovich
Mir Arab oliy madrasasi xodimi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zlikni anglash va milliy g‘ururning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni hamda ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosi orqali ularni ma’naviy-axloqiy, intellektual va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning asarlari yosh avlod uchun ibrat maktabi sifatida baholanadi. Maqolada ajdodlar merosini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish yo‘llari, interaktiv vositalar orqali yoshlar ongiga singdirish mexanizmlari va bu jarayonning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Bedil, Navoiy, Amir Temur kabi siymolarning insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik haqidagi qarashlari asosida yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash g‘oyalari asoslab berilgan

Kalit so‘zlar: O‘zlikni anglash, milliy g‘urur, ajdodlar merosi, ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, ilmiy-ma’rifiy meros, allomalar, ma’naviy qadriyatlar, ta’lim tizimi, Uchinchi Renessans.

O‘zlikni anglash va milliy g‘urur har bir xalqning kelajagini belgilaydigan asosiy omillardan hisoblanadi. O‘zbek xalqi boy tarix va buyuk ilmiy merosga ega bo‘lib, bu meros asrlar davomida jamiyat taraqqiyotiga, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qilib kelgan. Ushbu maqola yoshlar tarbiyasida ajdodlarimizdan qolgan bebaho ilmiy merosning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan [1, 43 b].

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug‘ allomalar – Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqalarning ilmiy asarlari nafaqat dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, balki ularda chuqur tarbiyaviy g‘oyalar ham mujassamdir. Bu meros yoshlar tarbiyasida quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi [2, 51 b]. Allomalarimizning yoshlikdan ilm olishga bo‘lgan intilishi, chekkan zahmatlari va erishgan natijalari yoshlarga namuna maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning qomusiy bilim doirasi zamonaviy yoshlarni faqatgina tor sohada emas, balki keng qamrovli bilim olishga undaydi [3, 123 b]. Vatanga muhabbat va g‘urur tuyg‘usini oshirishda ajdodlar merosi benihoya kattadir. Ajdodlarimizning dunyo sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi haqidagi bilimlar yosh avlodda milliy o‘ziga xoslik, g‘urur va Vataniga bo‘lgan sadoqat tuyg‘ularini kuchaytiradi [4, b]. Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda ham ajdodlar merosio‘rni mavjud. Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asaridagi hadislar, Alisher Navoiyning

"Xamsa"sida ilgari surilgan adolat, insonparvarlik, halollik, odob kabi axloqiy qadriyatlar yoshlar uchun hayotiy dastur vazifasini o'taydi. Ayniqsa, tasavvuf namoyandalari asarlaridagi kamolot, poklik va ezgulikka chorlov yoshlarni salbiy illatlardan himoyalaydi. Tanqidiy Fikrlash va Tahlil Qobiliyatini. Allomalarimizning ilmiy metodologiyasi, har bir masalaga chuqur ilmiy asos bilan yondashishi va yangilikka intilishi yoshlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim andozadir [4, 322. b].

Ajdodlar merosini yoshlar tarbiyasiga joriylash mexanizmlari quyidagicha talqin qilinadi [5, 45. b]. Merosning ta'sirchanligini oshirish uchun uni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish lozim. Maktab va oliy ta'lim darsliklarida ajdodlar asarlaridan olingan iqtiboslar, hikmatlar va tarbiyaviy lavhalarni ko'proq kiritish. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ostida allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga bag'ishlangan maxsus fan va to'garaklarni tashkil etish. Ajdodlarimiz merosini targ'ib qiluvchi mobil ilovalar, qiziqarli videolar va interaktiv o'quv materiallarini yaratish. Allomalarning tavallud kunlarini keng nishonlash, ilmiy-amaliy anjumanlar, yosh olimlarning an'anaviy musobaqalarini o'tkazish.

O'z bilimlarini ulashib biz yoshlarga ibrat bo'lib qolgan ko'plab ijodkorlarimiz Bedil, Muqimiy, Furqat, Avaz o'tar, Zavqiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab ijodkorlarni aytishimiz mumkin. Shulardan Boburiylar davrida ijod qilgan taniqli o'zbek shoiri, mutaffakiri Bedil o'z asarlarida avvalo inson haqida mirishkor dehqon haqida alohida mehr, hurmat va ehtirom bilan gapiradi. U insonni irqiy, milliy, va diniy e'tiqodlaridan qati nazar hurmat va ehtiromga sazovor oliy zot deb biladi. "Bu haqida shunday deydi: "Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u malundir" Qanday ajoyib fikr. Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli va oliyjanobdir. Inson borliqning, olamning toji. Inson o'z baxtini o'zi yaratadigan zot deb qaraydi. Buyuk shaxs Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan o'qisak, o'rgansak, uning ko'p yaxshi xislatlari: to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Amir Temurda vatanni sevish, xalqni ulug'lash, faxrlanish va g'ururlanish singari oliy ma'naviy fazilatlar barq urib turgan. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Ali Yazdiyning "Zafarnomalari" va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlar va o'gitlaridan jamiyatimiz o'zi uchun ibrat olsa bo'ladi. Ma'naviy meros qoldirgan Navoiy o'z asarlarida zolim, mustabid, nodon, maishatparast shoh va hukumdorlarni qoralab, ularga qarshi insonparvar, xalqparvar, odil, adolatli hukumdor obrazini qo'yadi. Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami [6, 136.b].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ajdodlarimizning ilmiy merosi yosh avlod tarbiyasida qadriyat, bilim va kamolot manbai sifatida beqiyos o'rin tutadi. Bu

merosdan to‘g‘ri va samarali foydalanish yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma’naviyatli, vatanparvar va insonparvar shaxs sifatida shakllantirishning eng muhim shartidir. Merosni faqat tarixiy obida sifatida qabul qilmay, balki uni faol harakatdagi hayotiy dasturga aylantirish orqali O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev, "Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz ,1-jild , -Toshkent: "O‘zbekiston"NMIU- 2018..
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Alisher Navoiy. “Xamsa”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti, 2019. (Yoki boshqa oxirgi nashrlardan biri).
4. Imom Buxoriy. “Al-Jome’ as-sahih”. Arabchadan tarjima. Toshkent: Movarounnahr, 2016.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020-yil 24-yanvar). "O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida". Toshkent: Adolat, 2020. (Qonun hujjatlarining rasmiy nashri).
6. Botirova Lobar Xamid qizi. Ajdodlar merosining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati // “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy, amaliy izlanishlar” nomli masofaviy, online konferensiya materiallari. Toshkent, 2025 yil.

BUYUK MUTASAVVUFLAR ASARLARIDA YOSHLAR TARBIYASIGA OID G‘OYALAR: MA’NAVIY MEROS VA ZAMONAVIY AHMIYAT

Xayrilloyev Xo‘jamir A‘zamxo‘jayevich

Mir Arab oliy madrasasi

“Qur‘oni Karim va tajvid” o‘quv kurslari o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyo va Yaqin Sharqning buyuk mutasavvurlari — Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi zotlar asarlarida ilgari surilgan yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga oid g‘oyalar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvufiy ta’limotdagi nafs tarbiyasi, ilmga intilish, halol mehnat va sabr kabi tamoyillarning zamonaviy yoshlar kamolotida tutgan o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy meros, axloq, Naqshbandiya, Yassaviya, komil inson, nafs.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har qanday jamiyat

oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekiston va Sharqning boy ma’naviy merosida bu masalaga doir juda qimmatli manbalar mavjud bo‘lib, ayniqsa, buyuk mutasavvuflar asarlari yoshlarning komil inson bo‘lib yetishishiga xizmat qiluvchi noyob ta’limot manbaidir.

Tasavvuf – inson kamolotining ma’naviy asosi hisoblanadi. Tasavvuf – islomdagi ruhiy va axloqiy kamolotga erishish yo‘li bo‘lib, uning markazida insonning o‘z nafsini tarbiyalashi, qalbini poklashi va Haqqa yaqinlashishi yotadi. Mutasavvuflar yoshlarni dunyoviy hirs va hoyu-havaslardan uzoqlashishga, qanoatga, ilmga va halollikka chaqirganlar. Bunga Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari yorqin misol bo‘la oladi. U yosh toliblarga murabbiy sifatida murojaat qilib, ularni ilm va amal birligiga chaqiradi. Yassaviy hikmatlarida: “Yoshlikda yig‘lamadim, yer ostiga kirdim”, deya zikr etib, yoshlikni g‘aflat bilan o‘tkazmaslik, aksincha, ma’naviy izlanish va riyoziyat bilan o‘tkazishga undaydi. Bu zamonaviy yoshlarda vaqt qadri va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishda muhimdir.

Mutasavvuflar asarlarida axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari mavjuddir. Buyuk mutasavvuflar ta’limotida yoshlar tarbiyasining bir necha fundamental tamoyillari ilgari surilgan.

Nafs Tarbiyasi (Riyoziyat) bo‘yicha Najmiddin Kubroning “Adab ul-muridin” asarida murid (yosh tolib) uchun zarur bo‘lgan odob-axloq qoidalari bayon etilgan. Bu odoblar nafsni yomon illatlardan tozalash, sabr va shukr bilan yashashga undaydi. Nafsni jilovlash – yoshlarni bugungi kunning turli salbiy oqimlariga qarshi immunitetini shakllantirish demakdir.

Halol mehnat va faoliyat bo‘yicha Bahouddin Naqshbandning Naqshbandiya tariqatining asosiy shiorlaridan biri bo‘lgan “Dil ba yoru dast ba kor” (Qalb do‘stda-Allohda, qo‘l ishda) tamoyili yoshlar uchun eng muhim tarbiyaviy g‘oyadir. Bu g‘oya yoshlarni jamiyatga foydali inson bo‘lishga, halol kasb egallashga va birovga qaram bo‘lmaslikka o‘rgatadi. Bu esa yoshlarda islohotlar davrida tadbirkorlik va mehnatsevarlik fazilatlarini rivojlantirish uchun poydevor hisoblanadi.

Ustozga ehtirom va ilmga intilish bo‘yicha, tasavvufda pir yoki murshidga bo‘lgan cheksiz hurmat asosiy shartlardan sanaladi. Bu an’ana yoshlarda ustoz-murabbiylarga bo‘lgan hurmatni, ilmu hikmatga tashnalikni shakllantiradi. Mutasavvuflar nazarida ilm dunyoviy va diniy bilimlarning uyg‘unligidan iborat bo‘lib, u insonni jaholat botqog‘idan olib chiquvchi nurdir.

Ma’naviy merosning zamonaviy ahamiyati juda muhimdir. Mutasavvularning yoshlar tarbiyasiga oid g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Ular yosh avlodning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, mutasavvufilar targʻib qilgan adolatlilik, rostgoʻylik va insof tamoyillari yoshlarni korrupsiya, befarqlik va loqaydlik kabi illatlardan asraydi. Tasavvufiy axloq nafaqat individual kamolot, balki jamiyat farovonligi uchun ham asos yaratadi.

Bahouddin Naqshband Musohibiyning oʻz-oʻzini nafsini nazorat etish, vaqtni qadrlash gʻoyalarini, Junayd Bogʻdodiy asoslagan xushyorlik yoʻlini Xakim Termiziyning valiylik taʼlimotini rivojlantirgan. Bahouddin Naqshband taʼlimoti bunyodkorlik ruhi bilan sugʻorilgan taʼlimotdir: “Dil-ba-yor-u, dast-ba-kor” maʼnosi, “koʻngling xudoda boʻlsin-u, qoʻling ish bilan boʻlsin”- degani. Mustaqilligimizning yuksalishida haqshbandlikda ilgari surilgan xalollik, mexnatsevarlik, togʻrilik, sofdillik, muxtojlariga yordam berish, saxiylik, iymonli va eʼtiqodli boʻlish, mexrshavqat kabi xulq-odob qoidalari katta ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, erkin demokratik jamiyat qurish imkoniyatiga ega boʻldi. Yangi jamiyatni xalqimizning mentalitetiga, milliy maʼnaviy xususiyatlariga mos, ming yillar davomida shakllantirilgan qadriyatlarimizga asoslanibgina qurishimiz mumkin edi. Demak, oʻtmish merosni tiklash, milliy maʼnaviy boyliklarimizni oʻrganish asosida xalqimiz maʼnaviyatini Yangilash zarur edi. Dinga, diniy qadriyatlarga xolisona munosabat ham taqazo qilinardi. Yangi jamiyat qurish, oʻtmish merosimizdan samarali foydalana olish koʻp jihatdan dinga munosabatimizdan kelib chiqar edi. Negaki diniy qadriyatlar yuzlab yillar davomida milliy qadriyatlar bilan Shunday chirmashib ketgan va xalqimiz maʼnaviyatining tarkibiy qismiga aylangan ediki, ularni aniq, keskin bir-biridan ajratib boʻlmaydi. Bundan tashqari jamiyat va xalq rivojlanishining hozirgi darajasi, imkoniyatlarni ham hisobga olish kerak edi. Dinga munosabatning xarakteri qurayotgan jamiyatimizning qiyofasini koʻp jihatdan belgilaydi. Shu tufayli Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov oʻz asarlari va nutqlarida bu masalaga jiddiy eʼtibor berdi, hozirgi davrda dinga munosabatimizning mohiyatini chuqur, har tomonlama asoslab berdi.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” soʻzi arabcha “robba” feʼlidan olingan boʻlib, oʻstirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi maʼnolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil taʼrif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha taʼriflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rogʻib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha taʼrif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga oʻtkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik hamda muvozanat ila oʻstirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng masʼuliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar baʼzi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga

etadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo’ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutasavvuflar o‘z asarlarida yoshlar tarbiyasiga oid chuqur falsafiy va amaliy g‘oyalarni bayon etganlar. Ularning ta’limotlari yoshlarni nafsning balosidan saqlanishga, halol mehnat bilan kun kechirishga, ilm va ma’rifatga intilishga hamda ustoz-murabbiylarga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Mutasavvuflar merosi bugungi kunda yoshlar tarbiyasi strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qilishi lozim. Bu ta’limotlarni zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘rganish orqali jamiyatimiz barkamol, ma’naviyatli va faol yoshlarni yetishtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. B 83, 2004
2. Najmiddin Kubro. Adab ul-muridin. Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. B 152, 2005
3. Isroilov Maxamadjon Ismoilovich. Naqshbandiya ta’limotining tarbiyaviy ahamiyati // Central asian research journal for interdisciplinary studies 88 (carjis) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda. “yangi o‘zbekistonning umidli yoshlari” 1(2)-SON 2022-yil 28-mart 88 bet.
4. G‘azzoliy A. Ihyo ulumid-din. Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. B 122, 2007
5. Bayaliev Djaxongir Kaynarbekovich. Roshlar dunyoqarashini shakllantirishda diniy va dunyoviy mafkuralarning o‘rni va roli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023
6. Nabi Pardaboyevich Jumaboyev. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy va axloqiy qarashlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X

ТАСАВВУФ ИМОМИ АБУ БАКР ГУЛОБОДИЙ БУХОРИЙНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ

Узоқов Абдулвосид Абдувоҳид ўғли

Самарқанд давлат чет тиллари институти

Шарқ тиллари кафедраси 2-босқич магистранти,

Ҳадис илми мактаби ўқитувчиси

Телефон рақами 992873037

Аннотация. Мақолада буюк муҳаддис ва мутасаввиф аждодимиз Абу Бакр Гулободий Бухорийнинг ҳаёти, яшаган даври ҳамда қолдирган манбалари ҳақида сўз кетади. Ҳадис ва тасаввуф илмларига қўшган ҳиссаси, бу илмларнинг ривожланишида тутган ўрни, асарларининг уламолар наздидаги даражаси алоҳида тадқиқ қилинади. Мақола давомида ўқувчи бу зотнинг Ислом илмлари тараққиётидаги таъсирини ўрганиши мумкин.

Таянч сўзлар: Гулободий, Абу Бакр, Баҳрул фавоид, Ат-таарруф, Шарҳ, Таҳқиқ, Ҳадис, Тасаввуф, Мактаб.

Кириш. Дарҳақиқат, Ислом тарихида Мовароуннаҳр диёри ҳадис илмига ҳисса қўшган улкан муҳаддисларни етиштириш билан донг қозонган. Самарқанд ва Бухородан минглаб ҳадис билимдонлари етишиб чиққан. Улар ҳадис илмига оид мусталаҳул ҳадис, жомеъ китоблар ва ҳадис шарҳлари китобларини ёзиб умматга тақдим қилишган эди.

Мовароуннаҳр ҳадис ва тасаввуф мактабининг ёрқин юлдузларидан бири Абу Бакр Гулободий Бухорийдир. Араблар бу исмни “Калобозий” деб талаффуз қилишади. У зот тасаввуф илмида китоб ёзган илк мутасаввиф олимлардан экани ҳеч кимга сир эмас.

Мўътабар исломий манбаларни тушунишда олимнинг хулосалари бугунги ижтимоий муҳитни соғломлаштириш, жамиятдаги жиноятларнинг олдини олиш, ёшларни Ислом одоблари билан хулқланишга чақиришда жуда зарурдир. Бугунги кунга қадар Имом Гулободийнинг илмий мероси ўзбек китобхонлари орасида тарқаманган. Мутахассислар у киши ҳақида маълумотга эга эканини ҳисобга олмасак, у зотга бағишланган тадқиқотлар амалга оширилмаган. Бунга иккита сабаб бор. Биринчиси олимнинг китоблари жуда илмий ва мураккаб. Иккинчидан баъзи китоблари бизгача етиб келмаган.

Ушбу тадқиқотнинг мақсади – Имом Гулободийнинг илмий меросини чуқур ўрганиш ҳамда унинг илмий фаолияти жуда серқирра эканини оммага олиб чиқиш, аждодларимиз меросини синчиклаб ўрганиш ҳамда Ислом маърифати тараққиётига ҳисса қўшишдир.

Тадқиқот методологияси: Тадқиқот методлари: манбашунослик, тасаввуф

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Имом Абу Бакр Гулободийнинг ҳаёти ва илмий мероси ҳақида бир неча манбалар маълумот беради. Жумладан, Ҳожи Халифанинг “Кашфуз зунун аън асамил кутуби вал фунун” асарида муаллиф қисқача тўхталган. Олим ҳақидаги маълумотлар Абдулҳай Лакнавийнинг “Фавоидул баҳия”, Қосим ибн Қутлубғонинг “Тожут тарожим” асарларида ҳам учрайди. У зотнинг ҳаётлари, китоблари ва илмдаги ўринларига энг кўп тўхталган олим Важиҳ Камолиддин Закий бўлиб, имомнинг ҳадисга оид “Баҳрул фавоид” асарларини таҳқиқ қилиш асносида жуда кўп манбалар суянган ва ишончли маълумотларни жамлаган. Қадимги китобларнинг аксарида Абу Бакр Гулободийнинг таржимаи ҳоллари ўта қисқа берилган. Ушбу манбалар унинг илмий ва маънавий меросини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

Абу Бакр Муҳаммад ибн Иброҳим ибн Яъқуб Гулободий Бухорий. Манбаларда у зотга “Тожуддин” (диннинг тожи), “Тожул ислом” (ислом тожи), “Имомул усулий” (усулчи имом) каби унвонлар берилган¹¹⁴.

У зотнинг куняси “Абу Бакр” бўлиб, Бухоронинг яна бир олими Маҳмуд ибн Абу Бакр ҳам куняси шундай. Бу икки уламони ажратиш учун фақиҳлар қуйидаги белги қилиб олишган: агар Абу Бакр Бухорий, дейилса, Муҳаммад ибн Иброҳим, Абу Бакр Гулободий Фаразий дейилса Маҳмуд ибн Абу Бакр тушунилади¹¹⁵.

Имомнинг таваллуд топган йили аниқ эмас. Вафот этган йили эса аксар манбаларга кўра ҳижрий 380 йил, милодий 990 йилга тўғри келади. “Тожу тарожим китобида имомнинг Бухорода жума куни ўн тўққизинчи Жумодул аввалда оламдан ўтган қайд этилган¹¹⁶.

У зотнинг мазҳаблари ҳанафий эканига таржимаи ҳол ёзган барча тарихчилар иттифоқ қилишган. Фиҳқ, усулул фиқҳ, ҳадис, тасаввуф ва бошқа илмларни олишда тўқсонга яқин устозлари, шайхлари бўлгани аниқланган. Жумладан, Абул Фазл Муҳаммад ибн Башир Бухорий, Муҳаммад ибн Фазл Куморий, Муҳаммад ибн Аҳмад Абул Ҳусайн Форисийлар энг катта шайхлари саналади¹¹⁷.

¹¹⁴ Ҳожи Халифа. Кашфуз зунун. Байрут: Муассасату тарихил арабий. 1941. – 140 б.

¹¹⁵ Абдулҳай Лакнавий. Фавоидул баҳийя. Дорус саодат. 1906. – 234 б.

¹¹⁶ Ибн Қутлубғо. Тожут тарожим. Дамашқ: Дорул қалам. 1992. – 333 б.

¹¹⁷ Важиҳ Камолиддин Закий. Баҳрул фавоид. Дорус салом. 2008. – 18 б.

У кишининг, шунингдек, Ҳотам ибн Уқайл, Наср ибн Фатҳ, Абдуллоҳ ибн Муҳаммад, Абдулазиз ибн Аҳмад, Халаф ибн Иброҳим ва бошқа устозлари бўлган.

Муаллифнинг энг машҳур ҳадис асари бўлмиш “Баҳрул фавоид” китобида қуйидаги шайхлардан ҳадис ривоят қилганлар: Аҳмад ибн Саҳл (ундан олтита ҳадис), Аҳмад ибн Абдуллоҳ Музаний (йигирма бешта ҳадис), Аҳмад ибн Алий ибн Амр (тўртта ҳадис), Бакр ибн Муҳаммад ибн Ҳамдон (ўн битта ҳадис), Бакр ибн Масъуд (ўн битта ҳадис), Ҳотам ибн Уқайл (юз ўн битта ҳадис), Халаф ибн Муҳаммад (ўттиз бешта ҳадис), Халаф ибн Муҳаммад Хаййом (ўттиз бешта ҳадис), Саҳл ибн Сарий, Абдулазиз ибн Муҳаммад ибн Марзубан, Алий ибн Муҳтож, Муҳаммад ибн Исҳоқ Рашодий, Муҳаммад ибн Ҳомид Қаворирий, Муҳаммад ибн Ҳиббон Бустий, Муҳаммад ибн Ҳасан Азраканий, Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Фақиҳ, Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ибн Юсуф Аммоний, Муҳаммад ибн Умар Муаддил, Муҳаммад Маҳмудий, Маҳмуд ибн Исҳоқ Хузойи, Абуллайс Наср ибн Фатҳ ва бошқалар.

Имомнинг илмини мерос қилиб олган шогирдлари ҳам кўпчиликни ташкил қилади. Жумладан, Шайх Абу Наср Аҳмад ибн Али Моймарғий, Али ибн Аҳмад Хонбаж, Абу Бакр Аҳмад ибн Али Асбаҳоний. Гулободий машриқ ҳофизи Хатиб Бағдодийнинг ҳам шайхи ҳисобланади.

Имом Гулободий асосан икки китоби билан машҳур. Улар тасаввуф илмида мўътабар манба ҳисобланган “Ат-таарруф лимазҳаби аҳли ат-тасаввуф” ва “Баҳрул фавоид” китоблари ҳисобланади. Тарихчилар олимга тегишли еттита китобни санашган. Гулободий “Баҳрул фавоид” китобининг ичида “Шарафул фақри ва аҳлих” китоби ҳам мавжуд эканини зикр қилган. Айрим тарихчилар “Ат-таарруф” китобига муаллифнинг ўзи шарҳ ҳам битганини зикр қилган. Шу маълумотларни қўшсак Гулободийнинг бизга маълум бўлган китоблари тўққизтага етади.

Гулободийнинг китоблари қуйидагилар:

1. “Ат-таарруф лимазҳаби аҳли ат-тасаввуф”. Ҳожи Халифа айтади: “Бу машҳур мухтасар китоб бўлиб, машойихлар бу китобга алоҳида аҳамият қаратишган. “Таарруф бўлмаганда тасаввуф танилмаган бўларди” деган мақтовни айтишган. Китобга бир қанча шарҳлар битилган. Жумладан:

- Мусаннифнинг қаламига мансуб “Ҳуснут тасарруф” шарҳи. Унда муаллиф тасаввуф йўли, сўфийнинг сийратини баён қилган. Тавҳид ва Аллоҳнинг сифатларига узоқ тўхталган.

- Шайхул ислом Абдуллоҳ ибн Муҳаммад Ансорий Ҳиравий шарҳи

- Қози Алоуддин ибн Али ибн Исмоил Табризий Қунавий.¹¹⁸
2. “Баҳрул фавоид алмашхур бимаонил ахбор” китоби.
3. “Арбауна фил ҳадис”. Бу китоб бизгача етиб келмаган¹¹⁹.
4. “Ал-ашфаъ вал автар”¹²⁰.
5. “Амолий фил ҳадис”.
6. “Фаслул хитоб”.
7. “Китоб фит тафсир”.
8. “Шарафул факри ва аҳлих”.
9. “Ҳуснут тасарруф”¹²¹.

Гулободийнинг илмий даражаси. Гулободий ҳадис ҳофиз, усулий, ўз асрининг имоми бўлган. Ҳадис имлоси мажлислари бўлган. Машриқ ҳофиз Хатиб Бағдодий у зотнинг ҳадис дарслари орқали етиб келган санадларини келтирган. У кишининг фикрларидан Аҳмад ибн Абдулҳалим “Минҳожус сунна набавия” китобида, Ибн Ҳажар Асқалоний жуда кўп китобларида фойдаланган. Хоссатан, “Баҳрул фавоид” китобидаги ҳадис шарҳларидан бир қанча маълумотлардан иқтибос олган. Зайн ибн Иброҳим ибн Нужайм Ҳанафий машхур “Баҳрур роиқ шарҳу канзид дақоиқ” китобида бир қанча ўринларда Имом Гулободийдан нақллар олган. Иброҳим ибн Муҳаммад Ҳусайний ўзининг “Ал-баён ват таъриф” китобида, Муҳаммад ибн Абдулбоқий Зарқоний Имом Моликнинг “Муватто” асарини шарҳлашда Имом Гулободийнинг “Баҳрул фавоид” китобидан иқтибослар келтиришади. Жумладан, Аҳмад ибн Иброҳим ибн Исо “Тавзиҳул мақосид” китобида, Абдурраҳмон ибн Абдурроҳим Муборақфурий, Абдурроуф Муновий ва бошқа бир қатор олимлар Абу Бакр Бухорийнинг фикрларидан иқтибос олган.

Абу Бакр Гулободий Бухорийнинг тасаввуфга оид “Ат-таарруф лимазҳаби аҳлит тасаввуф” асари жуда машхур ва мўътабар саналади. Мазкур манбага кўплаб таълиқлар, шарҳлар битилган, бир неча босмада чоп этилган.

Имомнинг “Баҳрул фавоид алмашхур минаонил ахбор” китоби жуда мўътабар манба бўлишига қарамасдан ҳалигача мукамал ўрганилмаган. Қуйида шу китобга тўхталиш фойдадан холи бўлмайди.

Мазкур китобнинг ҳақиқий номи нима эканида турли қарашлар бор. Бунга қўлёзма нусхаларда келган турфа номлар сабаб бўлган. Китобнинг нусхаларини жамласак, қуйидаги номлар ишлатилгани хулоса қилинади: “Баҳрул фавоид алмашхур минаонил ахбор”, “Маъонил ахбор”, “Маонил

¹¹⁸ Ҳожи Халифа. Кашфуз зунун. Байрут: Муассасату тарихил арабий. 1941. – 348 Б.

¹¹⁹ Важиҳ Камолиддин Закий. Баҳрул фавоид. Дорус салом. 2008. – 23 Б.

¹²⁰ Умар Ризо Каҳола. Мўъжамул муаллифин. Байруи: Мактабатул Мусанно. 2003. – 8 Ж. – 213 Б.

¹²¹ Юқоридаги манба.

осор”, мифтахул ахбор” , “Маъонил ахборил мустафавийя”, “Ал-ихбор бамаонил ахбор” ва ҳоказо.

“Баҳрул фавоид” асарининг Абул Ҳасан Алий ибн Муҳаммад Саъдийга тегишли қўлёзма нусхасида мусаннифга тегишли муқаддима мавжуд эмас. Кириш сўзи эса мазкур носихга тегишли. Бироқ у киши тасаввуфга оид “Ат-таарруф” номли китобига жуда чуқур муқаддима битган. Унда балоғат ва илмийликнинг юксак намунасини кўрасиз.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Абу Бакр Бухорийнинг илмий мероси жуда чуқур бўлишига қарамай ҳали ўзбекзамон мусулмонларига тақдим қилинмаган. У зотнинг юқорида зикр қилинган манбалари ислом маърифати, хусусан тасаввуф ва ҳадис илмларида муҳим ўрин тутди. Айниқса, тасаввуф борасида ёзган асарлари ҳақида олимлардан бири: “Таарруф бўлмаганда тасаввуф номаълум бўлиб қолган бўларди” деган гапи таҳсинга лойиқ. Олимнинг асарларини тадқиқ этиш ва халқимизга тортиқ қилиш барча исломшунос тадқиқотчиларнинг вазифасидир.

Фойдаланилган манбалар

1. Ҳожи Халифа. Кашфуз зунун. Байрут: Муассасату тарихил арабий. 1941.
2. Абдулҳай Лакнавий. Фаваидул баҳийя. Дорус саодат. 1906.
3. Ибн Қутлубғо. Тожут тарожим. Дамашқ: Дорул қалам. 1992.
4. Важиҳ Камолиддин Закий. Баҳрул фавоид. Дорус салом. 2008.
5. Умар Ризо Каҳола. Мўъжамул муаллифин. Байруи: Мактабатул Мусанно. 2003.

MULLA ALI QORINING XAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Mutallimov Islomjon Odiljon o'g'li
BDU Islomshunoslik yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mulla Ali Qorining ilmiy faoliyati, uning hadis, tafsir, fiqh va tasavvuf sohalaridagi merosi keng qamrovli tarzda tahlil qilinadi. Ustozlari, ilmiy maktabi va asarlari chuqur o'rganilib, musulmon dunyosida tutgan o'rni yoritiladi. Olimning ilmiy qarashlari, yondashuvlari va keyingi avlodlarga ko'rsatgan ta'siri bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganini ko'rsatish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Mulla Ali Qori, hadis, tafsir, fiqh, tasavvuf, ilmiy meros, ilmiy maktab.

Islom ilmi taraqqiyotida buyuk allomalar o'z davrida diniy, ma'naviy va ijtimoiy sohalarda katta hissa qo'shib kelgan. Ular o'z asarlari orqali musulmon dunyosining

ilmiy-ma'rifiy rivojlanishida muhim o'rin egallagan. Shunday ulug' siymolardan biri – Mulla Ali Qori bo'lib, u hadis, tafsir, fiqh va tasavvuf sohalarida chuqur bilim egasi sifatida tanilgan. Uning asarlari nafaqat diniy bilim manbasi, balki musulmon jamiyatining ma'naviy hayotini shakllantirishda ham asosiy manbalardan hisoblanadi. Mulla Ali Qorining ilmiy faoliyatini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb vazifa bo'lib, u orqali musulmon ilmiy merosining chuqur qatlamlariga nazar tashlash imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur maqolada olimning ilmiy shakllanishi, asarlari, qarashlari va ta'siri keng qamrovda yoritiladi. Ismi va nasabi. To'liq ismi – Nuriddin Abu al-Hasan Ali ibn Sulton ibn Muhammad al-Qori al-Haraviy al-Makkiy al-Hanafiy bo'lib, “Mullo Ali al-Qori” nomi bilan mashhurdir.¹²² Mullo Ali al-Qorining Hirotda tug'ilganligi to'g'risida hech qanday xilof bo'lmasada, tug'ilgan sanasini haqida ma'lumot qoldirilmagan. Chunki o'sha davrlarda chaqaloq tug'ilganda uning tug'ilgan sanasiga e'tibor bo'lmagani sababli insonlar buni tayin qilishga ahamiyat bermas edilar. Ammo hijriy 1014 (milodiy 1636 yil) sanada Makka shahrida vafot etganligi to'g'risida esa barcha tarixchilar bir xil fikr bildirganlar..

Ta'limi. Mullo Ali al-Qori tug'ilib o'sgan yurt – Hirotda dastlab Qur'oni karim ilmini o'rgandi. So'ng uni yod oldi, tajvid ilmini o'rgandi va ustozlari – o'z davrining etuk olimlaridan bo'lgan Muynuddin ibn al-Hofiz Zayniddin al-Haraviydan dars oldi. U asosiy ilmini Hirotdagi o'sha davrning eng mashhur shayxlaridan o'rgandi. Ilm o'rganishining ilk davridayoq ko'pgina katta kitoblarni o'qib o'rganib puxta o'zlashtirib oldi. Hirot shahri Temuriylar hukmronligi davri (ularning hukmronligi hijriy 817 sanadan hijriy 912 sanagacha davom etgan)da davlat poytaxti, ma'naviyat va madaniyat o'chog'i hisoblanar edi.

Mullo Ali al-Qori tug'ilgan vaqtlar esa, Hirotda ilm-fan gullab-yashnashining orqaga ketayotgan va ma'naviy muhit inqirozga yuz tutib borayotgan bir davr edi. “Posho Ismoil” nomi bilan tanilgan Safaviylarning birinchi podshohi Ismoil ibn Haydar as-Safaviy Hirotda kelganda musulmonlarni zulm bilan qatl qila boshladi. Shu sababli Hirotdan ko'plab ulamolar o'z yurtlarini tashlab chiqib keta boshladi. Shular qatori Safaviylar zulm-istibdodi kuchaygan bir davrda Mullo Ali al-Qori ham o'z yurtini tark qilib, Makkai Mukarramaga hijrat qildi. U safar davomida ko'plab shaharlarda bo'lib, u erlardagi ilmiy davralarda qatnashadi, ulamolar bilan suhbat qurib, ularning ilmidan bahramand bo'ldi. Tarixchilar uning Makkaga rihlat qilgan sanasini zikr qilmaganlar. Ammo, hijriy 952 yilda Makkaga kirib borganini aytganlar.¹²³ Mullo Ali al-Qori Balad al-amin – Makkai mukarrama shahriga kirib

¹²² “Mirqot al-mafotih sharh mishkotul masobih”. Bayrut, Dor al-kutub al-ilmiyya, hij. 1422y, mil. 2001y, 1 jild, 16 bet.

¹²³ «Xulosatul asar», 3 jild 185 bet; “Samt an-nujum”, 4 jild, 393 bet. Bayrut, Dor al-kutub al-ilmiyya. 1999

istiqomat qila boshladi. Shu kundan boshlab uning o‘z ilmiy faoliyatini olib borishi uchun tinch va osuda hayot boshlandi. Mashoyix va ulamolarning dars halqalarida ishtirok etdi. Shu asrning ko‘pgina ulamolarining ilmlaridan bahramand bo‘ldi va ilm olish yo‘lida yuksalib bordi. Bu davrda Makka shahri va xususan, arab diyorlarida ko‘proq Shofe'iy, Molikiy va Hanbaliy mazhablari tarqalgan edi. Mazkur mazhablarga ergashgan ba'zi kishilar etuk alloma Imom A'zam mazhabini kamsitib, uni “faqat ra'yga asoslangan” degan gaplarni tarqatishardi. Ba'zilar esa, hatto Abu Hanifaning o‘ziga malomat toshini otib, u zotni hadis ilmida no‘noqligi borasida nojo‘ya so‘zlar bilan ayblashardi. Mullo Ali al-Qori Hanafiy mazhabiga mansub bo‘lgani uchun ham, mazhab himoyasi yo‘lida ularga qarshi keskin kurashib raddiyalar yozdi, Abu Hanifa sha'nini himoya qilishga va hatto inkor etilish darajasiga etgan hanafiya mazhabini himoya qilishga urindi, buning uddasidan chiqdi ham. Chunonchi, u “an-Niqoya muxtasar al-viqoya” nomli fiqhga oid hanafiy mazhabidagi “Muxtasar al-viqoya” kitobiga yozgan sharhida barcha ahkomlarni oyat va hadis bilan isbotlab bergan.

Alloh taolo uning qalbiga ilmlarni joylash uchun keng qildi va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: **“Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo‘yadi”**¹²⁴, degan hadislarining isboti o‘laroq u kishiga barcha yaxshiliklarni berdi.

Uni qidirgan kishi yo biror kitob oldida o‘tirib mutolaa qilayotganida yoki biror olimning huzurida dars tinglayotganida topishi mumkin edi. U o‘z yurti Hirotda bo‘lganida ham, ilm yo‘lini tutib boshqa yurtlarda bo‘lganida ham o‘z davrining mashhur ulamolaridan ta'lim oldi, hamma joyda olim va fuzalolar davrasida mutassil ravishda o‘z ilmini oshirishga harakat qildi. Mullo Ali al-Qori bir necha yillar Baytulloh al-Harom ulamolaridan dars olishni o‘ziga lozim tutgani, ilm va ta'limga kuchli rag‘bat qo‘ygani bois tez fursatda barmoq bilan sanalgudek bo‘lgan zamonasining etuk olimlaridan bo‘lib etishdi va ular qatorida joy oldi. Ilm talab qilishda tinmadi, diniy ilmlar majmuasi – hadis, tafsir, fiqh va qiroat ilmi bo‘yicha katta shuhratga ega bo‘ldi, ilmiy darajasi yuksalib, yozgan asarlari va sharhlari tezda har tomonlarga yoyildi. Ilmiy faoliyatini yuksaltirish, davom ettirish va tarqatish maqsadida har yili bitta mushaf – Qur'oni karim ko‘chirib yozib uni sotardi va shu orttirgan daromadi kelgusi yilgacha etardi. Shu erda Mullo Ali al-Qorining mohir xattot ekanligi, undan bir necha Qur'oni karim nusxalari qolgani va haligacha mashhur mezeylarda saqlanayotganini zikr qilib o‘tish maqsadga muvofiq.

¹²⁴ Imom al-Buxoriy, “Sahih al-Buxoriy”, Ilm kitobi, 13-bob, 71 hadis.

“Al-Qori” deb nomlanishiga uning qiroat ilmida mohir va peshqadam, bu ilmda etuk bilimdon, mustahkam va puxta egallagani sabab bo‘lib, Islom olamida ham Mullo al-Qori nomi bilan shuhrat topgan.¹²⁵ Bu borada o‘zining yozgan asarlari va sharhlarida bayon qilib berilgan. Ali al-Qoriy egallagan ilmi va asarlarinng mohiyati va undan keyingi davrlarda ham insonlarga foyda keltirdi, ayni davrda u qoldirgan ilmiy meros ilmi toliblar uchun ajoyib tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qilmokda. Shayx Muhammad Abd al-Halim an-Nu'moniy alloma haqida shunday degan:

“Ali al-Qori kutoblarini sotib topgan mablag‘ga qanoat qilib yashardi. Shu qanoati tufayli u zuhd, iffat va taqdirga rizolik, topganiga kifoya qilish darajasiga etdi. Odamlarga kam aralashardi. Taqvosi va ibodati kuchli edi...”.¹²⁶ Imom Mullo Ali al-Qori Makkai Mukarramada hijriy bir ming o‘n to‘rtinchi yil (1014) Shavvol oyida (milodiy hisobda 1636 yilda) vafot etdi.¹²⁷ Makkai Mukarramaning mashhur al-Mu‘allo qabristoniga dafn qilindi. Uning vafoti haqidagi xabar Misrga etib borganida, Misr ulamolari al-Azhar jome'sida u kishining ilm va dinda peshvoligini taqdirlab, ko‘pchilik bo‘lib g‘oyibdan janoza namozini o‘qidilar. Namozda qatnashganlar soni esa to‘rt mingdan ortiq kishidan iborat edi.¹²⁸ Bu esa, Islom olamida allomaning shuhrati balandligidan yana bir darak edi.

Xulosa. Mulla Ali Qori o‘z davrining yirik olimlaridan biri sifatida islom ilmlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning hadis, tafsir, fiqh va tasavvuf sohalarida yozgan asarlari musulmon dunyosida keng tarqalgan va hozirgi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Ali Qorining qarashlari diniy va ma‘naviy hayotda muvozanat, ilmiy asoslanganlik va islomiy an‘analarni asrash tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Bugungi kunda uning merosini o‘rganish islomiy bilimlarning yanada chuqurlashishi va musulmon jamiyatining ma‘naviy hayotida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imom al-Buxoriy, “Sahih al-Buxoriy”, Ilm kitobi, 13-bob, 71 hadis. Toshkent, Hilol-nashr 2022.
2. Muhammad al-Muhibbiy. “Xulosa al-asar fiy a'yon al-qorn al-hadiy 'ashar”. 3 jild, 185 bet;; Bayrut, Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2000.

¹²⁵ Muhammad al-Muhibbiy. “Xulosa al-asar fiy a'yon al-qorn al-hadiy 'ashar”. 3 jild, 185 bet; “Samt an-nujum” 4 jild, 393 bet.

¹²⁶ “Al-Imam Ali al-Qori va asaruhu fiy ilm al-hadis”, 57 bet.

¹²⁷ “Ta’liyyot as-sunna” 8 bet; “Xulosa al-asar”, 3 jild, 186 bet; “Samt an-nujum”, 4 jild, 394 bet.

¹²⁸ “An-niqoya”, 1 jild, 4 bet; Ash-Shavkoniy. “Al-badr at-tole”. Bayrut “Dor al-fikr”, 1989.

3. Mirqot al-mafotih sharh mishkotul masobih”. Bayrut, Dor al-kutub al-ilmiyya, hij. 1422y, mil. 2001.
4. Ali ibn Sulton Muhammad al-Qoriy .Mirkot al-mafotih sharh Mishkot al-masobih. Qohira, “Dor al-kitob al islamiy” 1-tom 1997
5. Al-Imam Ali al-Qori va asaruhu fiy ilm al-hadis”, 57 bet. – Bayrut “Dor al-fikr”, 2000.
6. Shayx Ahmad Suad Ali. Sharh Mulla Ali ibn Sulton Muhammad al-Qoriy al-Hanafiy ala al-fiqh al-akbar. – Misr, “Matbaa Mustafa al-Bobiy al-Halabiy” 1955
- 7 An-niqoya” , 1 jild, 4 bet; Ash-Shavkoniy. “Al-badr at-tole', Bayrut “Dor al-fikr”, 1989.

TASAVVUF ADABIYOTI RIVOJLANISHIDA KUBROVIYLIK MAKTABINING TA’SIRI

Nurmuhammad Matkarimov

*Oriental universiteti magistranti, Imom
Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi
xodimi, Hadis ilmi maktabi o’qituvchisi.*

+99897-199-96-07

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIII–XIV asrlarda tasavvuf adabiyotining rivojlanishida Kubroviylik maktabining tutgan o’rni tahlil etiladi. Najmiddin Kubroning tasavvufiy ta’limoti, uning amaliy va nazariy jihatlarini uyg’unlashtirgan falsafiy qarashlari hamda bu maktabning adabiy, ma’naviy va madaniy hayotdagi o’ziga xos ta’siri yoritilgan. Shuningdek, Kubroviylik tariqatining turli tarmoqlari, ularning shakllanish jarayoni va so’fiylik adabiyotida ramziy-badiiy ifoda uslubining kengayishiga qo’shgan hissasi haqida so’z yuritiladi. Najmiddin Kubroning “rangli nurlar iyerarxiyasi” haqidagi g’oyalari orqali inson ruhiy kamolotining bosqichlari hamda tasavvuf falsafasining chuqur mazmuni ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so’zlar: Tasavvuf adabiyoti, kubroviylik maktabi, Najmiddin Kubro, ruhiy kamolot, tariqat tarmoqlari, rangli nurlar iyerarxiyasi

XIII — XIV asrlar tasavvuf tarixida alohida bir mahsuldor davrdir. Bu davrga kelib tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy jihatdan o’zining yuksak cho’qqisiga ko’tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining ravnaqi ham shu davrga to’g’ri keladi. Ayniqsa Muhiddin ibnu-l-Arabiy, Yahyo Suhrevardiy, Najmiddin Kubro singari shayxlar, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi ulug’ so’fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni hikmat bilan boyitdilar. Natijada tasavvuf Sharq kishisining tafakkur tarzi va axloq me’yorlarini

belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi. Xuddi shu davrda tasavvufning Sharqda keng tarqalgan yo‘nalishlari – tariqatlari rivoj topdi. Jumladan, yassaviylik, kubraviylik, mavlaviya, naqshbandiylik, suhravardiya va shu kabilar.

Tasavvuf tarixi ikki davrga ajratilganidek, uning ta’limini ham ikki qismga: amaliy va nazariy tasavvuf tomonlariga ajratiladi. Amaliy tasavvufni axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalarining muayyan tizimi tashkil etadi. So‘fiylikning axloqiy qoidasini Abu Homid G‘azzoliy shunday ko‘rsatadi: “kambag‘allik uning bezagi, sabr-toqat uning naqshi, qanoat qilish uning oti, ishonch uning qadr-qimmatidir”. Nazariy tasavvuf esa ilohiy qarashlar, orifiy g‘oya va ta’limotlardir. Tasavvuf ta’limotiga xos inson ruhiy-manaviy kamolotining asosiy bosqichlarini ham ana shu ikki qismga ajratish mumkin. Shariat va tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb, marifat va haqiqatni uning nazariy bosqichlari deb tariflaydilar. [7. B. 212-219].

Tasavvufning amaliy va nazariy tomonlari haqida gap borganda, Kubroviylik maktabining bu boradagi hissasi alohida ahamiyatga ega. Najmiddin Kubro boshchiligida XII asrda Movarounnahr va Xorazmda shakllangan Kubroviylik maktabi tasavvufiy tafakkur rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bu maktab tasavvufning amaliy jihatlarini (shariat va tariqat bosqichlarini) nazariy asoslar (ma’rifat va haqiqat) bilan uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirdi.

Bu maktabning asoschisi Shayx Najmiddin Kubro “Shayx al-Vali at-Tarosh” (Avliyolar tarbiyalovchi shayx) nomi bilan mashhur bo‘lgan Najmiddin Kubro (1145-1221) nafaqat o‘z davrining, balki butun islom tasavvufi tarixining eng buyuk namoyandalaridan biridir. U o‘z davrining eng yetuk so‘fiylari qatoriga kirib, o‘zining ta’limoti va ijodi bilan tasavvufiy yo‘nalishga yangi qirralar kiritdi. Kubroviylik maktabi nafaqat tasavvuf falsafasi, balki uning adabiy, lingvistik va ma’naviy jihatlarining rivojlanishida ham o‘ziga xos rol o‘ynadi.

Najmiddin Kubro, tasavvuf tarixida “Dinning yulduzi” va “Avliyolar tarbiyachisi” deb atalgan, Xorazmda ilmiy va ma’naviy hayotning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. U Xorazmning boy ilmiy muhitida voyaga yetib, ilmiy va tasavvufiy ta’limni o‘zlashtirdi. Shayxning ta’limoti tasavvufning chuqur nazariy asoslarini amaliy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirdi.

Kubroviylik tariqati XIII-XV asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Kashmir, Hindiston va Yaman hududlarida keng tarqalib, o‘zining shariat va tasavvuf uyg‘unligiga asoslangan talqini orqali mintaqaning ma’naviy-madaniy hayotida muhim rol o‘ynadi. Bu tariqat tasavvufiy g‘oyalarning nazariy va amaliy jihatlarini shariat qoidalarini bilan birlashtirib, inson ruhiy kamolotining yo‘nalishlarini belgilashda qoidalar tashkil qilgan.

Najmiddin Kubro ta'sis etgan kubraviya tariqati vaqt o'tishi bilan turli tarmoqlarga bo'linib, o'ziga xos shakllarga ega bo'ldi. Najmiddin Kubroning shogirdlari kubraviya tariqatining birinchi avlodini tashkil etgan bo'lsa, keyingi avlodlar Fors va boshqa hududlarda bu tariqatni yangi usullar bilan rivojlantirdilar. Har bir tarmoq o'z shayxi va muridlari orqali Najmiddin Kubroning ta'limotiga bog'langan holda tasavvuf falsafasi va shariatni talqin qilishda turli yo'nalishlarni ishlab chiqdi, bu esa tariqatning mintaqadagi ma'naviy ta'sirini yanada kengaytirdi. Manbalar quyidagi tarmoqlarni qayd etgan:

- Kubraviya-Hamadoniya: Uni Sayid Ali Hamadoniy (vafoti 781/1380yil) asos solgan. Bu Kashmir o'lkasidagi kubraviya tariqatining asosidir.

- Kubraviya-Nuriya: Shayx Nuriddin Isfaroyiniy tomonidan asos solingan.

- Kubraviya-Rukniya: Rukniddin Aloudavla Simnoniy (vafoti 745/1345)ga nisbat beriladi.

- Kubraviya-Jardusiya: Bu kubraviya tariqatining sakkizinchi hijriy asrdagi to'rt asosiy tarmog'ining so'nggisi.

- Zahabiya-Ig'tishoshiya: Bu kubraviya tariqatining bir tarmog'i bo'lib, uni Shayx Is'hoq Xatloniy to'qqizinchi hijriy asrda asos solgan. U Sayyid Abdulloh Mashhadiyga bog'lanadi.

- Nurbaxshiya: Xurosonlik tarmoq bo'lib, uni Shayx Muhammad Nurbaxsh (vafoti 869/1465) asos solgan.

- Aydrusiya: kubraviyaning Yamandagi tarmog'i.

- Firdavsiya: kubraviyaning Hindistondagi tarmog'i. [4. B. 84].

Bu tarmoqlarning barchasi o'zlarining birinchi shayxi Najmiddin Kubroning tasavvufiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Ularning barchasi tasavvufning shariatga muvofiqligini ko'rsatishga, tasavvufiy haqiqatlarning shar'iy asoslarini ta'kidlashga e'tibor berganlar.

Kubroviylik maktabining tamoyillar tasavvufiy adabiyotga yangi mazmun va uslub kiritgan. Xususan: Ruhiy poklanish va qalb tarbiyasi: Kubroviylik maktabida inson qalbini ma'naviy poklash, uning ilohiy haqiqatni anglashdagi roli va ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan.

Kubroviylik maktabining tasavvufiy adabiyotga qo'shgan hissasi ramziy va badiiy ifoda vositalarini keng qo'llashidir. Bu uslub orqali murakkab tasavvufiy tushunchalar sodda, ammo chuqur ma'no bilan ifodalangan.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Najmiddin Kubro islom tasavvuf tarixida o'zining so'fiyona fikrlarini va tasavvuf yo'liga kirgan solikning ma'naviy yuksalish bosqichlarini rangli nurlar iyerarxiyasi asosida tushuntirgan birinchi so'fiy sifatida tanilgan. U qat'iy riyozaat mashqlaridan so'ng erishgan ushbu rangli nurlar tizimiga asoslangan g'oyalarini keyinchalik mashhur shogirdi Najmiddin Doya (Roziy)

hamda uning tariqat yo‘lini davom ettirgan Alauddavla Simnoniy (v. 736/1336) qabul qilib, yanada rivojlantirganlar. [2. B. 95; 1. B. 234; 6. B. 327-335; 8. B. 6-10].

Albatta, Najmiddin Kubrodan avval ham mavjudotni nur orqali izohlagan Ishroq hikmatining asoschisi Suhravardiy tomonidan nurlar iyerarxiyasi yoki mistitsizm shakllangan edi. U modda olamini qorong‘ulik va qora rang bilan, Jabroilni qizillik bilan, Jabroilning qanotlarini esa oq va qora ranglar bilan tasvirlagan. [3. B. 111; 9. B. 228; 207-223]. Biroq, tasavvufiy va irfoniy nuqtai nazarni, ya’ni solikning ruhiy martabalarini nurdan-nurga, rangdan-rangga o‘shish shaklida tushuntirgan va shu jihatdan tasavvufda ranglar nurlar piramidasining asoschisi hisoblangan birinchi so‘fiy – Najmiddin Kubro deb tan olinadi. [2. B. 272-275]

Najmiddin Kubroning rangli nurlar iyerarxiyasining eng quyi nuqtasi – qora nur bo‘lib, bu moddiy dunyoning jismoniy zulmatini anglatadi. Bu yerda “nur ranglarini mushohada qilish” deganda moddiy dunyodagi aniq ranglarni ko‘rish nazarda tutilmaydi. Chunki moddiy dunyo va unga oid barcha sezgilar aslida qorong‘u va qora nurdan iboratdir. Shu sababdan, ko‘zlar yopilmasdan Najmiddin Kubroning so‘zlagan rangli nurlarini ko‘rish mumkin emas. [5. B. 122]

Ya’ni, moddiy dunyoning jozibasidan xoli bo‘lmasdan, jismoniy narsalardan uzilmasdan, moddiy ranglarga nisbatan “ko‘r” bo‘lmasdan va shu yo‘l bilan moddiy ko‘zlar moddiy borliqlarga yopilmasdan, boshqa so‘z bilan aytganda, moddiy olamdan uzilib, ruhiy sayohatga kirishmasdan, sezgidan tashqari nur va ranglar orasida martabadan martabaga ko‘tarilish mumkin emas. Shunday ekan, faqat qalb ko‘zi bilan idrok etilishi mumkin bo‘lgan bu rangli nurlarni ko‘rishning birinchi sharti, moddiy ko‘zlarni yopishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, kubroviylik maktabi tasavvufning amaliy va nazariy jihatlarini uyg‘unlashtirgan holda, tasavvufiy adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maktab XIII-XV asrlarda Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron, va Yaman kabi hududlarda keng tarqalib, shariat va tariqatni nazariy asoslar bilan birlashtirish orqali o‘ziga xos falsafiy tizim yaratdi. Shayx Najmiddin Kubroning “Favoihu-l-jamol va favotihu-l-jalol” asari nafaqat tasavvuf falsafasi, balki uning adabiy-uslubiy boyligini ham namoyon etgan muhim manbalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baltacı, Hasan. Necmeddîn Dâye Râzî. – İstanbul: İnsan Yayınları, 2011. – s. 234.
2. Corbin, Henry. İnsân-i Nurânî der Tasavvuf-i İranî. (Çev. Feramerz Cevâhirî Neyâ). – Tahran: İntişarât-i Gulban, 2013. – s. 95.
3. Corbin, Henry. Zaman-i Edvarî der Mazdayesna ve İrfan-i İsmailiye. (Çev. İ. Rahmetî). – Tahran: İntişarât-i Sofya, 1394. – s. 111.

4. Doktor Yusuf Zaydon. “Favoihu-l-jamol va favotihu-l-jalol” asarini tahqiqi. Qohira: Dar Su‘ad as-Sabboh, 1994-yil. – B. 84.
5. Najmiddin Kubro. Favoihu-l-jamol va favotihu-l-jalol. Qohira: Dar Su‘ad as-Sabboh, 1994-yil. – B. 122.
6. Orhan, Kamil Zeki. Alâüddevle Simnânî ve Tasavvufî Görüşleri. [Doktora tezi]. – İstanbul: Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2016. – s. 327–335.
7. Raxmanov Abdimalik Ergashevich. Tasavvuf falsafasi tarixida naqshbandiylik ta’limotining o’rni. European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2023 y. May. 212-219- betlar.
8. Simnânî, Alâüddevle. Risâle-i Nûriyye. – Maarif Dergisi, c. 13, sayı 1, 1375. – s. 6–10.
9. Sühreverdî. (1375a). Akl-ı Surh. İçinde Mecmua-yi Musannefât (2. bs, C. 3). İntişârât-i Muessese-i Mutalaat ve Tahkikat-i Ferhengi. s. 228. Sühreverdî, Şihabüddin Yahya. Akl-ı Surh. İçinde Mecmua-yi Musannefât (2. bs., C. 3). – Tahran: İntişârât-i Muessese-i Mutalaat ve Tahkikat-i Ferhengi, 1375a. – s. 228.

GLOBAL HUQUQIY MADANIYATNING RIVOJIDA TASAVVUF AXLOQI VA ADOLAT KONSEPSIYASI

*Shodiyeva Dilshoda G‘ulomjonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish
metodikasi (huquq ta’limi) yo‘nalishi,
2-kurs magistri, +998941223075.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada global huquqiy madaniyat rivojida tasavvuf axloqi va adolat konsepsiyasining o’rni tahlil qilinadi. Tasavvuf falsafasi insonning ichki poklanishi, adolat, rahm-shafqat va halollik tamoyillariga asoslanadi. Ushbu qadriyatlar zamonaviy huquqiy tizimlarda inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatgan. Ayniqsa, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mutasavviflarining asarlarida adolat — jamiyat barqarorligining asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Maqolada tasavvuf axloqi va global huquqiy madaniyat o’rtasidagi falsafiy hamda etik bog‘liqliklar ochib berilgan. Shu bilan birga, Forobiy, G‘azzoliy, Bahouddin Naqshband, va Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarning g‘oyalari global adolat va insonparvarlik tamoyillarini shakllantirishdagi o’rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, tasavvuf axloqi nafaqat diniy-falsafiy, balki ijtimoiy-huquqiy sohada ham universal qadriyatlar tizimini yaratgan.

Kalit soʻzlar: tasavvuf, axloq, adolat, huquqiy madaniyat, inson huquqlari, Forobiy, Gʻazzoliy, Rumi, Naqshband, ijtimoiy adolat.

Global huquqiy madaniyatning shakllanishi insoniyat tarixida chuqur falsafiy, diniy va axloqiy ildizlarga ega jarayondir. Har bir jamiyatning huquqiy qadriyatlari, adolat haqidagi tasavvurlari va axloqiy mezonlari oʻziga xos tarixiy rivoj yoʻlini bosib oʻtgan. Shu jarayonda tasavvuf taʼlimoti — inson kamoloti, adolat, bagʻrikenglik va rahm-shafqat gʻoyalari asoslangan ruhiy-falsafiy maktab sifatida muhim oʻrin tutadi. Tasavvuf axloqi nafaqat diniy hayotning bir boʻlagi, balki inson va jamiyat oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlovchi, adolatni hayot mezoniga aylantiruvchi universal qadriyatlar tizimidir.

Tasavvuf tafakkurining asosiy maqsadi insonni ichki poklik, halollik, haqiqatparvarlik va boshqalar manfaatini oʻzidan ustun qoʻyish gʻoyalari orqali kamolga yetkazishdir. Bu jihatlar global huquqiy madaniyat tamoyillari bilan uygʻunlashadi, chunki har qanday huquqiy tizimning asosi — adolat va insonparvarlikdir. Tasavvuf allomalari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Imom Gʻazzoliy, Bahouddin Naqshband, va Jaloliddin Rumi asarlarida inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy masʼuliyat masalalari chuqur falsafiy tahlil qilingan. Ularning fikricha, adolat — bu insonni oʻz nafsidan ustun qoʻygan holda boshqalarga foyda yetkazish, jamiyatda tinchlik va muvozanatni saqlashdir.

Zamonaviy huquqiy tizimlarda, xususan, BMT inson huquqlari deklaratsiyasi va xalqaro adolat tamoyillarida tasavvuf falsafasiga xos axloqiy gʻoyalar bevosita yoki bilvosita aks etgan. Masalan, inson shaʼni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida eʼtirof etish, bagʻrikenglik, diniy va madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarash — tasavvuf axloqining asosiy ustunlaridir. Shu nuqtayi nazardan, tasavvuf falsafasi global huquqiy madaniyatni shakllantirishda ruhiy va axloqiy manba vazifasini oʻtaydi.

Bugungi kunda adolat konsepsiyasini tasavvuf asosida oʻrganish nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosida huquqiy ongning yuksaltirish, inson huquqlarini taʼminlash, tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun tasavvufning axloqiy mezonlari oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan. Tasavvuf gʻoyalari asosidagi adolat konsepsiyasi zamonaviy global muhitda ham universal qadriyatlar tizimini yaratish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va insoniyat manfaatlarini birlashtirishda muhim nazariy poydevor boʻlib xizmat qilmoqda. Shu bois, tasavvuf axloqi global huquqiy madaniyat rivojida faqat tarixiy meros emas, balki amaliy yoʻnalishda ham ahamiyatli metodologik asosdir.

Tasavvuf — islom falsafasining chuqur maʼnaviy-axloqiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, insonning ichki dunyosi, maʼnaviy poklanishi va jamiyatdagi oʻrni

haqida mukammal ta’limotdir. U shaxsni nafsdan yuksak qo’yadi, insonni Haqqa yaqinlashtirish va boshqalarga adolatli munosabatda bo’lishga o’rgatadi. Tasavvufda axloq tushunchasi “ihson” — ya’ni yaxshilik qilish, “adl” — ya’ni adolat, va “rahma” — ya’ni rahm-shafqat bilan chambarchas bog’liq.[2]

Tasavvuf axloqining asosiy maqsadi insonni komillikka yetkazish, ya’ni “insoni komil” darajasiga ko’tarishdir. Bu daraja shaxsning nafaqat diniy e’tiqodda, balki ijtimoiy va huquqiy faoliyatida ham adolatli, halol, mas’uliyatli bo’lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham tasavvuf axloqi insonparvarlik tamoyillarini chuqur ifoda etgan falsafiy tizim sifatida global huquqiy qadriyatlarga ta’sir ko’rsatgan.

Forobiy, G’azzoliy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, va Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlarning asarlarida tasavvuf axloqi — nafaqat diniy-ruhiy, balki siyosiy va huquqiy tizimlarning axloqiy poydevori sifatida talqin qilingan. Forobiy “Fozil shahar” konsepsiyasida adolatni jamiyatning bosh mezoni sifatida ko’rsatadi. Uningcha, har bir inson o’z vazifasini adolat asosida bajarsa, jamiyat muvozanat va barqarorlikka erishadi.

Imom G’azzoliy esa “Ihyo ulum ad-din” asarida insonning halol yashashi, huquq va burchlarini anglab yetishi, nafsni tiyish — adolatga eltuvchi yo’l ekanini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, adolat — bu insonning o’z nafsini jilovlab, boshqalarning huquqini tan olishidir. Shu tariqa tasavvuf axloqi global huquqiy madaniyatda mavjud bo’lgan “inson huquqlari”, “tenglik” va “burch” tushunchalari bilan uyg’unlashadi.[1, 180-b]

Adolat tushunchasi insoniyat tarixida barcha falsafiy maktablarda markaziy o’rin tutgan. Biroq tasavvuf falsafasida adolat nafaqat ijtimoiy me’yor, balki ruhiy-axloqiy muvozanatni ta’minlovchi kuch sifatida talqin etiladi. Tasavvufda adolatning uch darajasi ajratiladi:

Ilmiy adolat – insonning haqiqatni bilishi va uni to’g’ri anglash qobiliyati;

Amaliy adolat – insonning boshqalar bilan munosabatlarida halollik va xolislikni saqlashi;

Ilohiy adolat – Haqning barcha mavjudotga nisbatan teng va rahmli bo’lishi.

Zamonaviy global huquqiy madaniyatda adolat konsepsiyasi inson huquqlari, erkinlik va ijtimoiy tenglik prinsiplarida ifodalanadi. Bu esa tasavvufning asosiy g’oyalari bilan uyg’unlashadi. Masalan, Rumiy o’z asarlarida “insonlar orasidagi farqni na rang, na millat, balki yurakdagi niyat belgilaydi”, deya adolatning universalligini ta’kidlaydi.

Global huquqiy madaniyat — insoniyatning umumiy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va huquqiy tizimlari uyg’unlashgan murakkab hodisadir. Unda inson

sha’ni, qadr-qimmat va huquqlari eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi. Tasavvuf axloqi esa ana shu qadriyatlarning ma’naviy poydevorini shakllantiradi.

Tasavvufda inson — “olamning markazi”, “ilohiy sirni o‘zida mujassam etgan mavjudot” sifatida qaraladi. Shu sababli unga nisbatan adolatli, rahmli va mas’uliyatli munosabatda bo‘lish zarur. Bu g‘oya zamonaviy xalqaro huquqda inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, irqiy va diniy kamsitishlarga qarshi kurashish kabi tamoyillarning ma’naviy ildizini tashkil etadi.[2, 195-b]

Forobiy va G‘azzoliy ta’limotlari G‘arb huquqshunosligiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Renessans davrida musulmon Sharqining axloqiy-falsafiy qarashlari Yevropa huquqiy tafakkuriga kirib kelgan. Masalan, Tomas Akvinskiy, Jon Lokk va Monteske g‘oyalarida “tabiiy huquq” konsepsiyasi tasavvufdagi “ilohiy adolat” tushunchasiga yaqin turadi.

Shuningdek, Rumi va Naqshbandning “sokinlikda adolat” va “dil pokligi bilan boshqalarga xizmat qilish” g‘oyalari bugungi global etik kodekslar, xalqaro tashkilotlarning axloqiy prinsiplarida o‘z ifodasini topgan. BMT, YUNESKO va Yevropa Kengashi tomonidan ilgari surilgan “madaniyatlararo muloqot”, “bag‘rikenglik” va “inson qadr-qimmatiga hurmat” g‘oyalari tasavvuf axloqining zamonaviy talqinidir.[3, 160-b] Tasavvufda axloq tushunchasi “nafsni jilovlash” va “adolatli yashash” g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Bu jihatdan u huquqiy madaniyatda fuqarolik mas’uliyati, burch va ijtimoiy adolatni anglash kabi kategoriyalar bilan uyg‘unlashadi.

Naqshbandiylik tariqatida “dil ba yoru, dast ba kor” (ko‘ngil Ollohda, qo‘l mehnatda) shiori nafaqat diniy, balki ijtimoiy-huquqiy mas’uliyatni ham bildiradi. Bu prinsip global fuqarolik madaniyati va halollik etikasi bilan mos keladi. Har bir inson o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarib, boshqalarning huquqlariga hurmat bilan yondashsa, jamiyatda huquqiy barqarorlik ta’minlanadi.

Bugungi kunda korrupsiya, inson huquqlarining buzilishi, tengsizlik kabi global muammolar tasavvuf axloqidagi “adolat” konsepsiyasini qayta o‘rganish zaruratini kuchaytirmoqda. Chunki tasavvuf adolatni faqat tashqi qonun bilan emas, ichki vijdon bilan o‘lchaydi. G‘azzoliy ta’biri bilan aytganda, “adolatli jamiyat — bu avvalo adolatli qalblar jamiyatidir.” Shu bois, huquqiy tizimni mukammallashtirish faqat qonunlar bilan emas, balki axloqiy tarbiya bilan ham bog‘liq.

Global etik tizimlar — insoniyat tomonidan qabul qilingan umumiy axloqiy me’yorlar majmui bo‘lib, ular xalqaro huquqiy institutlar faoliyatida asosiy yo‘nalish sifatida qaraladi. Tasavvuf axloqi bu tizimlarga chuqur falsafiy mazmun qo‘shadi. Unga ko‘ra, inson faqat o‘z manfaatini emas, balki butun jamiyat va tabiat manfaati uchun yashashi kerak.

Bu g‘oya hozirgi kunda ekologik huquq, insonparvarlik huquqi, migratsiya siyosati va tinchlikni saqlash sohalarida o‘z ifodasini topgan. Rumiylar ta’biri bilan aytganda: “Yer — barchamizniki, adolat — barchamizning yuragimizda bo‘lishi kerak.”[4, 174-b] BMT tomonidan ishlab chiqilgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDGs) tasavvuf axloqiga yaqin bo‘lgan qadriyatlarga asoslanadi. Ayniqsa, “Adolatli jamiyatlar”, “Tinchlik va hamkorlik” kabi yo‘nalishlar Rumiylar va Naqshband g‘oyalarini eslatadi.

Tasavvuf ta’limotlari huquqiy ongning tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Insonni axloqan pok, vijdonan halol bo‘lishga chaqirish — huquqiy madaniyatning eng samarali yo‘lidir. Tasavvufda insonning yurak pokligi uning ijtimoiy burchini anglash darajasini belgilaydi. Shu bois, tasavvuf faqat diniy yo‘nalish emas, balki tarbiyaviy maktab hamdir.

O‘zbekiston, Turkiya, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlarda tasavvuf g‘oyalariga asoslangan ta’lim dasturlari huquqiy va axloqiy tarbiya tizimiga kiritilmoqda. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar qonunlarga nisbatan ongli, adolatli va bag‘rikeng munosabatda bo‘ladilar.

Bugungi global huquqiy tizimda inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, diniy erkinlik, ekologik mas’uliyat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlar tasavvufning falsafiy asoslari bilan mushtarakdir. Xalqaro konvensiyalar, inson huquqlari deklaratsiyasi va madaniyatlararo muloqot tashabbuslari — tasavvufning ruhiy ta’sirini aks ettiradi.

Masalan, YUNESKO tomonidan nishonlanayotgan “Jaloliddin Rumiylar yili”, “Bahouddin Naqshband merosi” kabi xalqaro tadbirlar global miqyosda tasavvuf qadriyatlarining huquqiy va madaniy ahamiyatini ko‘rsatmoqda.[5, 132-b] Tasavvuf axloqi global huquqiy madaniyat rivojida falsafiy, axloqiy va ruhiy manba sifatida xizmat qiladi. U insonni nafaqat qonunlarga bo‘ysunuvchi fuqaro, balki adolatni yuragida his etuvchi axloqiy mavjudot sifatida tarbiyalaydi. Forobiy, G‘azzoliy, Rumiylar va Naqshband g‘oyalaridagi adolat konsepsiyasi bugungi global dunyo uchun ham dolzarbdir — chunki adolat faqat qonun bilan emas, balki vijdon bilan amalga oshadi.

Shunday qilib, tasavvuf axloqi va adolat konsepsiyasi global huquqiy madaniyatni shakllantirishda insoniyatning ma’naviy merosi, axloqiy o‘zlikni anglash va umumiy qadriyatlarni birlashtirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tasavvufning axloqiy va falsafiy merosi zamonaviy global huquqiy madaniyatni yanada insonparvar, adolatli va ma’naviy jihatdan yuksak darajaga ko‘tarishda beqiyos o‘rin tutadi. Shu bois, huquqshunoslik, falsafa va dinshunoslik sohalarida tasavvuf ta’limotini chuqur o‘rganish, uning

adolat konsepsiyasini zamonaviy huquqiy nazariya bilan uygʻunlashtirish insoniyat kelajagi uchun muhim ilmiy-amaliy vazifa boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Komilov, N. Tasavvuf va inson kamoloti. Toshkent: Maʼnaviyat, 2001. – 180 b.
2. Xayriddinov, A. Global huquqiy madaniyat va maʼnaviy qadriyatlar. Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2019. – 195 b.
3. Rahmonov, B. Adolat va inson huquqlari falsafasi. Samarqand: Zarafshon, 2021. – 160 b.
4. Yunusov, I. Islom falsafasi va axloqiy tafakkur tarixidan lavhalar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 174 b.
5. Sodiqov, Sh. Tasavvuf va adolat konsepsiyasi global kontekstdagi oʻrni. Termiz: TIESU nashriyoti, 2023. – 132 b.

TASAVVUFNING IJTIMOIIY BARQARORLIKKA KOʻRSATADIGAN TAʼSIRI

Usmonov Adiz Mansurxoʻjayevich

Buxoro Davlat Universiteti

islomshunoslik yoʻnalishi magistranti

Ilmiy rahbar: (PhD) L.Xaitov

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf taʼlimotining ijtimoiy barqarorlikka koʻrsatadigan taʼsiri chuqur tahlil etilgan. Tasavvuf — bu inson qalbini yomon illatlardan tozalash, ruhiy komillikka erishish va Allohga muhabbat asosida jamiyatda tinchlik va totuvlikni qaror toptirishga xizmat qiluvchi maʼnaviy-axloqiy taʼlimotdir. Maqolada tasavvufning asosiy gʻoyalari — mehr-oqibat, sabr, halollik, kechirimlilik, bagʻrikenglik kabi fazilatlarining jamiyat barqarorligidagi oʻrni yoritilgan. Shuningdek, tasavvufning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, ziddiyatlarni yumshatish va insonlar oʻrtasida oʻzaro hurmatni kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi buyuk mutasavviflarning ijtimoiy hayotga oid gʻoyalari misolida tasavvufning amaliy ahamiyati koʻrsatib oʻtilgan. Shuningdek, bugungi globallashuv va maʼnaviy inqiroz davrida tasavvuf qadriyatlarining yoshlar tarbiyasidagi, millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlashdagi oʻrni ochib berilgan.

Tadqiqot natijalariga koʻra, tasavvuf faqat diniy-falsafiy yoʻnalish emas, balki ijtimoiy hayotni barqarorlashtiruvchi, insonlarni birlashtiruvchi va maʼnaviy uygʻonishga undovchi kuch sifatida talqin etiladi. Shu boisdan, tasavvuf

qadriyatlarini chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy tarbiya hamda jamiyat hayotiga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Tasavvuf, ijtimoiy barqarorlik, komil inson, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, sabr, kechirimlilik, nafs, totuvlik, ma’naviyat.

Insoniyat tarixida ma’naviyat va ruhiy poklik jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan. Har bir davrda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, insonlar o‘rtasida mehr-oqibat va totuvlikni mustahkamlash uchun turli g‘oyaviy yo‘nalishlar paydo bo‘lgan. Ana shunday muhim yo‘nalishlardan biri — **tasavvuf** bo‘lib, u islom ta’limotining ichki, ma’naviy-axloqiy jihatini chuqur tushuntiruvchi yo‘nalish sifatida shakllangan.

Tasavvuf insonni nafaqat Allohga yaqinlashtirish, balki jamiyatda tinchlik, adolat va hamjihatlikni qaror toptirishga da’vat etadi. Unda inson qalbini yovuz niyatlardan poklash, boshqalarga mehr bilan qarash, nafsni tiyish, sabr va kechirimlilik kabi fazilatlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli tasavvuf faqat diniy yoki falsafiy yo‘nalish emas, balki **ijtimoiy hayotni barqarorlashtiruvchi kuch** sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globalashuv davrida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashib borayotgan bir paytda, tasavvufning insonparvarlik g‘oyalari yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. U nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyat miqyosida ham tinchlik, totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, tasavvufning ijtimoiy barqarorlikka ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf insonning ichki dunyosini poklash, Allohga muhabbat orqali komil insonlik darajasiga erishishni maqsad qilgan ta’limotdir. U Qur’on va Sunnatga asoslangan holda, inson qalbini g‘azab, hasad, kibr, manmanlik kabi yomon his-tuyg‘ulardan tozalashni va ularning o‘rniga mehr, sabr, shukr, kamtarlik va halollikni joylashtirishni targ‘ib etadi.

Tasavvufning asosiy g‘oyalaridan biri — **“ichki poklik – tashqi tinchlik garovi”**¹²⁹ degan tamoyildir. Ya’ni, inson o‘z qalbida osoyishtalik va muhabbatni topmasa, jamiyatda ham barqarorlik bo‘lmaydi. Shu ma’noda, tasavvuf inson qalbida tinchlik va Allohga sadoqatni shakllantirib, u orqali jamiyatda ham tinchlikni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Tasavvufda **“komil inson”** tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Komil inson – bu o‘z nafsini yenggan, boshqalarga foyda yetkazuvchi, adolatli, mehr-shafqatli shaxsdir. Bunday insonlar jamiyatning barqarorligini mustahkamlovchi tayanchdir.

¹²⁹ Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Imom G‘azzoliy, Jaloliddin Rumiy kabi mutasavviflarning fikrlari

Tasavvuf ta’limotida har bir inson o‘zini doimo tarbiyalash, o‘z ustida ishlash va jamiyatga foyda keltirishga da’vat etiladi.

Buyuk mutasavviflar – **Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro** kabi allomalar o‘z tariqatlarida insonning ruhiy komilligi bilan bir qatorda, jamiyatdagi axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish masalasiga ham katta e’tibor berganlar. Masalan, “Dil ba yoru, dast ba kor” (“Ko‘ngil Allohda, qo‘l ishda bo‘lsin”¹³⁰) degan hikmatli so‘zi orqali insonni faoliyatda, mehnatda, halollikda sobit bo‘lishga undagan.

Demak, tasavvufning asosiy qadriyatlari – **mehr-oqibat, sabr, kamtarlik, halollik, bag‘rikenglik va adolat** jamiyat hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardandir.

Tasavvuf ta’limoti insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashni o‘zining eng muhim maqsadlaridan biri deb biladi. Mutasavviflar fikricha, insonlar Allohning bandalari sifatida bir-biriga mehr bilan, adolat va hurmat asosida munosabatda bo‘lishlari kerak. Shaxslar o‘rtasida totuvlik bo‘lmagan joyda jamiyatda barqarorlik bo‘lishi mumkin emas. Shu bois tasavvuf g‘oyalari ijtimoiy birdamlikni kuchaytiruvchi, dushmanlik va adovatni kamaytiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasavvufda “**muhabbat yo‘li**” markaziy o‘rinda turadi. Inson Allohni chin dildan sevsa, Uning yaratgan bandalarini ham sevishga majbur bo‘ladi. Shunday muhabbat asosida insonlar bir-biriga nisbatan mehribon, kechirimli va rahmdil bo‘lib, jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini yaratadi. Bu holat, o‘z navbatida, ijtimoiy birdamlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Tasavvuf tarixida ko‘plab tariqatlar va jamoalar xalq orasida axloqiy poklik, saxovat, halollik va mehnatsevarlikni targ‘ib qilib kelganlar. Zikr majlislari, suhbatlar va murshidlar o‘gitlari orqali insonlar o‘zaro mehr-oqibatga, yordam va hamjihatlikka da’vat etilgan. Ayniqsa, **Naqshbandiya**,¹³¹ **Yassaviya**,¹³² **Qodiriya**¹³³ tariqatlarida “xalq ichida, xalq bilan birga yashash” g‘oyasi ilgari surilib, ijtimoiy hayotdagi birlikni mustahkamlashga katta hissa qo‘shilgan.

Tasavvufning bu jihati kambag‘allarga, yetimlarga, beva-bechoralarga yordam ko‘rsatish, sadaqa va ehson qilish, adolatni ustuvor bilish kabi amaliy ishlar orqali ham namoyon bo‘lgan. Bu qadriyatlar tufayli jamiyatda insonlar bir-biriga yelkadosh bo‘lib, o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratganlar.

¹³⁰ Bahouddin Naqshband

¹³¹ Bahouddin Naqshband (1318–1389 yillar)

¹³² Ahmad Yassaviy (taxminan 1103–1166 yillar)

¹³³ Abdulqodir Jiloni (1077–1166 yillar)

Shunday qilib, tasavvuf ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi, insonlar o’rtasidagi mehr, bag’rikenglik va o’zaro hurmatni kuchaytiruvchi muhim ma’naviy omildir.

Jamiyatda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar va nizo holatlari har qanday davrda mavjud bo’lgan. Bunday holatlar ijtimoiy barqarorlikni buzuvchi omillar sifatida qaraladi. Tasavvuf ta’limoti esa bu muammolarga ruhiy-axloqiy nuqtayi nazardan yondashib, mojarolarni tinchlik, sabr va kechirimlilik asosida hal etishni targ’ib etadi.

Tasavvufda insonning eng katta dushmani — bu uning **nafsi** hisoblanadi. Nafs kishini g’azab, hasad, kibr va adovatga undaydi. Mutasavviflar inson avvalo o’z nafsi bilan kurashsa, tashqi dushmanliklar ham yo’qoladi, degan fikrni ilgari surganlar. Shu bois tasavvuf ijtimoiy murosaning boshlanish nuqtasini inson qalbidan izlaydi. Har kim o’z nafsini yenga olsa, jamiyatda tinchlik o’z-o’zidan qaror topadi.

Shuningdek, tasavvuf kechirimlilik va bag’rikenglikni muhim fazilat sifatida ulug’laydi. Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”ida insonni kechirimli, sabrli va boshqalarga mehr bilan qarashga undaydi. Bahouddin Naqshband esa “Har kim bilan yaxshilikda musobaqalash, yomonlikda esa o’zingni tiy” degan hikmatli so’zi bilan ziddiyatlarni tinch yo’l bilan hal etishga chaqirgan.

Tasavvuf tariqatlarida “sabr”, “shukr”, “sukut” va “rahm” kabi fazilatlar insonlar o’rtasida murosani mustahkamlaydi. Bunday fazilatlar ijtimoiy ziddiyatlarning ildizini — g’azab, manmanlik, adovatni yo’qotishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda bag’rikenglik, o’zaro hurmat va tinchlik muhiti kuchayadi.

Shunday qilib, tasavvuf ijtimoiy ziddiyatlarni faqat tashqi chora-tadbirlar bilan emas, balki inson qalbidagi ruhiy uyg’onish orqali yumshatadi. U odamlarni dushmanlik o’rniga muhabbatni, adovat o’rniga kechirimni tanlashga undaydi. Bu esa jamiyatda barqarorlikni ta’minlovchi eng muhim omillardan biridir.

Zamonaviy davrda insoniyat ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan murakkab sinovlarga duch kelmoqda. Globallashuv, texnologik taraqqiyot va ma’naviy qadriyatlarning susayishi insonlar o’rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Ayniqsa, individualizm va manfaatparastlikning kuchayishi jamiyatdagi birdamlik, hamjihatlik va ishonchni zaiflashtirmoqda. Ana shunday sharoitda **tasavvuf qadriyatlari** insonlar o’rtasida ruhiy uyg’onish, mehr-oqibat va tinchlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf insonni Allohga muhabbat bilan bog’laydi, lekin shu bilan birga uni jamiyat hayotidan chetda qoldirmaydi. Aksincha, mutasavviflar insonni **mehnatsevarlik, halollik, saxovat va ijtimoiy mas’uliyatga** da’vat etadilar. Bunday fazilatlar har bir jamiyatda barqarorlik va ishonch muhitini yaratadi.

Bugungi kunda yoshlar orasida ma’naviy bo’shliq, ruhiy izlanish va hayot ma’nosini topish istagi kuchaygan. Tasavvuf ta’limoti yoshlarni ruhiy jihatdan mustahkamlash, ularni sabr, hayo, kamtarlik va poklik ruhida tarbiyalashda katta rol o’ynaydi. Chunki tasavvuf insonni faqat tashqi ko’rinish yoki urf-odatlar bilan emas, balki **ichki dunyo tinchligi** bilan tarbiyalaydi.

Bundan tashqari, tasavvufning bag’rikenglik, o’zaro hurmat va diniy totuvlikka asoslangan g’oyalari millatlararo va dinlararo munosabatlarda ham muhim o’rin tutadi. Bu qadriyatlar har xil diniy yoki madaniy qarashlarga ega insonlar o’rtasida tinchlik va hamkorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, tasavvuf qadriyatlari bugungi kunda ham insoniyatni birlashtiruvchi, ijtimoiy totuvlikni kuchaytiruvchi va ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi kuch sifatida o’z ahamiyatini yo’qotmagan, balki yanada orttirgan desak, mubolag’a bo’lmaydi.

Tasavvuf insoniyat tarixida chuqur ma’naviy ildizlarga ega bo’lgan, ruhiy poklik va komillikka chorlovchi ta’limotdir. U insonni Allohga yaqinlashtirish bilan bir qatorda, jamiyatda mehr-oqibat, bag’rikenglik va tinchlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Tasavvufning asosiy maqsadi — inson qalbini poklash, nafsni yengish va shu orqali jamiyatda ijobiy o’zgarishlarni yuzaga keltirishdir.

Mutasavviflar targ’ib qilgan sabr, kechirimlilik, halollik, saxovat va kamtarlik kabi fazilatlar ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadi, kishilar o’rtasida o’zaro ishonchni mustahkamlaydi. Bunday ruhiy uyg’onish natijasida jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlik muhitini yaratish imkoniyati ortadi.

Bugungi kunda ham tasavvuf qadriyatlarini o’rganish, ularni yoshlar tarbiyasida va ijtimoiy hayotda keng targ’ib etish katta ahamiyatga ega. Chunki tasavvuf insoniyatni ajratishga emas, birlashtirishga; adovatga emas, muhabbatga chorlaydi.

Shunday ekan, tasavvuf nafaqat diniy yo’nalish, balki **ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy tayanch** sifatida har bir davrda o’z ahamiyatini saqlab qoladi. Uning insonparvarlik g’oyalari orqali jamiyatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni mustahkamlash har birimizning ma’naviy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Yassaviy. *Hikmatlar*. — Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Bahouddin Naqshband. *Tasavvufiy hikmatlar va pand-nasihatlar to’plami*. — Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2004.
3. Imom G’azzoliy. *Ihyou ulumiddin*. — Qohira, 1980.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. Jo‘rayev A. *Tasavvuf va ma’naviyat: tarix va bugun.* — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2017.
6. Islomova M. *Tasavvuf falsafasi va ijtimoiy qadriyatlar.* — “Ma’naviyat va jamiyat” jurnali, №3, 2022.

XOJA AHROR VALIY – TINCHLIK VA SULHPARVARLIK VALIYSI

Abbosxonov Muhridin Xayrullo o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs magistranti

Tel: (94) 419 95 88

Annotatsiya. Mazkur maqolada XV asrning yirik mutasavvifi va ijtimoiy islohotchisi Xoja Ahror Valiyning naqshbandiya tariqatini rivojlantirishdagi hissasi, uning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi faoliyatini manbalar asosida yoritildi. Shuningdek, Xoja Ahror Valiyning adolat, insonparvarlik, mehnasevarlik va xalq farovonligi haqidagi g‘oyalari bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Maqola natijasida Xoja Ahror Valiyning nafaqat diniy-ma’rifiy, balki ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni va merosi yoritilib, uning g‘oyalari hozirgi davr uchun ham dolzarb yekanligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar. Xoja Ahror Valiy, tasavvuf, naqshbandiya, ma’naviyat, ijtimoiy islohot, tarixiy manbalar, ruhiy poklanish, adolat, insonparvarlik.

Necha asrlardan buyon noyob aql-zakovati, sobit e’tiqodi, beqiyos insoniy fazilatlari, maslak, e’tiqodi va yezgu amallari, benazir fazilat-xislatlari yellar, yurtlar uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilib kelayotgan “*Shayxlar shayxi*” – Xoja Ahror Valiyning hayoti, ilmiy faoliyati va merosiga yangicha yondashuv, xolis tadqiqot ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb yetib kelmoqda.

Xoja Ahror Valiy hayoti, boy ma’naviy merosi, yuksak yezgulik g‘oyalarini ilm ahliga, xalqimizga, ayniqsa, yoshlarga asl xolicha yetkazish yana bir muhim qadam bo‘lib, yoshlarimizni milliy-ma’naviy va diniy qadriyatlar bilan birga dunyoviy bilimlar asosida tarbiyalashda o‘ziga xos ahamiyat kasb yetadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Mo‘g‘ullarning qariyb ikki asrlik istibdodi davrida tanazzulga yuz tutgan ilm-fan va madaniyatimiz Amir Temurning buyuk islohotchilik siyosati tufayli Movarounnahr o‘zining ko‘hna shuhratini yana tikladi. Biroq, Sohibqiron vafotidan so‘ng temuriyzodalar o‘rtasida siyosiy nizolar, toju taxt uchun kurashlar avj ola boshladi. Shunday bir paytda elu yurt taqdiri, xalq manfaatlarini himoya qilish maqsadida Xoja Ahror Valiy maydonga chiqadi¹³⁴.

¹³⁴ Sirojiddinov Sh. Naqshbandiya tariqati: tarixiy jarayon va mohiyat // Toshkent islomuniversiteti ilmiy-tahliliy axboroti. № 2, 2003. -B.13-14.

U xalq taqdiri uchun qayg‘urish, ayniqsa sultonlarni adolatga chaqirishni naqshbandiya tariqati sufiylarining burchi ekanligini uqtirgan: “Bu zamonda podshohlar huzuriga borib, mazlumlarni va hojatmandlarning mushkulini oson qilishdan yaxshi xislat bo‘lmas. Shunga yerishmoq lozimki, bir mazlumning arziyini sultonlarga yetkazib, unga madadkor bo‘lish, adolasizlik hamda zulmni bartaraf qilish uchun barcha kuch va g‘ayratni ayamalik kerak”¹³⁵.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida quyidagilarni yozadi: “Hazrati Xoja Ubaydullohning mutaalliqdarig‘akim, burun xarj va tahmillarda ko‘p faqir va miskin alarning himoyati bilan zulm va taaddidin xalos bo‘lurlar yerdi”. Xoja Ubaydulloh o‘z ixtiyoridagi yer va mulkdan keladigan daromadlarni xalqboshiga solingan ortiqcha soliqlarni to‘lashga, madrasa, masjid, xonaqoh va boshqa qurilishlarga sarflardi. Xususan, Umar Shayx Mirzo Shosh (Toshkent) aholisidan 250 ming dinor hajmida soliq talab qilganida, Xoja Ubaydulloh bu soliqning hammasini o‘zi to‘lab, yana qo‘shimcha tarzda 70 ming dinorni ham soliq to‘plovchilarga topshirgan¹³⁶. Bularning barchasi mehnatkash aholi nazarida Xoja Ubaydullohning sahovatli va pok qalb yegasi sifatida namoyon yetardi va uni Xojai Ahror deb ulug‘lashardi.

Shuningdek, Xoja Ahror Valiy qalamiga mansub uch risola bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri “Faqarot ul-orifin” (“Oriflar so‘zlaridan parchalar”) nomi bilan mashhur bo‘lib, unda Xoja Ahror Valiyning va ba’zi boshqa tasavvuf namoyandalarning tariqatga oid fikrlaridan namunalar keltirilgan. Ikkinchi risola – “Volidiyya”¹³⁷ (“Otaga bag‘ishlov”) deb atalgan bo‘lib, unda tariqat yo‘liga kirgan kishining odob-axloqi, faqr va fano tushunchalari haqida so‘z boradi. Ushbu risolani Zahiriddin Muhammad Bobur fors tilidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima qilgan. Uchinchi risola – “Havroiya” deb atalib, mashhur mutasavvif shoir Abu Sa’id Abulxayrning “Havro” (“Hurlar” yoki “Farishtalar”) so‘zi bilan boshlanuvchi bir ruboiysini sharhlashga bag‘ishlangan.

Xoja Ahror Valiy naqshbandiya tariqatini rivojlantirish borasida faqat og‘zaki targ‘ibotchigina bo‘lib qolmay, balki bu sohada bir necha muhim asarlarning muallifi hamdir. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida Xoja Ahror Valiyning quyidagi asarlari saqlanmoqda:

1. “Risolai havroiyya” (*Hurlar risolasi*). Ushbu asar “Qutbu-l-avliyo” laqabi bilan tanilgan. U tasavvuf shayxlaridan Abu Sayd Abu-l-Xayr (vaf.440/1048 y.)

¹³⁵ Valixojayev B. Xoja Ahror Valiy. - Samarqand, 1993. - B. 76.

¹³⁶ Valixojayev B. Xoja Ahror tarixi. -T.:Yozuvchi, 1994. -B. 70; Yana qarang: Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar / Nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq, H.Amin. -T.:Adolat,2004. -B. 169.

¹³⁷ Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolai volidiya / Nashrga tayyorlovchi: H.Hasanov. -T.: Toshkent islomuniversiteti, 2004. -52 b; Mirzo Kenjabek. Dunyoning murshidi. -T.: Fan, 2004. -52 b.

qalamiga mansub mashhur bir ruboiyning sharhiga bag‘ishlangan. Shuning uchun risolaning ba’zi qo‘lyozmalarida “Sharhi ruboiyi shayx Abu Sayd Abu-l-Xayr” deb ham nomlangan¹³⁸.

“Risolai havroiyya”ning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida beshta nusxasi saqlanmoqda¹³⁹.

2. “Risolai volidiyya” (“Otaga atalgan risola”; “Muxtasar” deb ham yuritiladi). Risola tariqat ahliga qo‘llanma sifatida tayyorlangan bo‘lib, unda naqshbandiya tariqatining asoslari o‘z bayonini topgan. Xoja Ahror Valiy bu risolani o‘z otasining iltimosi bilan yozgan. Bu haqda uning o‘zi muqaddimada shunday deydi:

“Bu “Muxtasar”ni ta’lif yetishimning sababi - otamning menga qarata aytgan ushbu so‘zlari bo‘ldi: “Ahlulloh (tariqat mashoyixlari)ning so‘zlaridan bizga andak yozib bering, toki biz xam oliy maqomlarga yetishish va haqiqiy ilmlar hosil qilish sharafiga muyassar bo‘laylik. Chunonchi, Rasululloh alayhissalom hadislarida kelmishki, har kim bilgan ilmiga amal qilib borsa, Alloh taolo unga boshqa bilmagan ilmlarni ham bildiribboradi”¹⁴⁰. Bu asarni Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek tiliga she’riy tarjima qilgan.

Asarning to‘rtta qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda¹⁴¹. Uning o‘zbekcha nasriy tarjimasi Toshkentda uch marotaba nashr qilingan

3. “Faqarot ul-orifiyn” (Ma’rifat ahli xayotidan lavhalar). Bu asar “Faqaroti Ahroriyya” yoki “Voridot” ham deyiladi¹⁴². Asar hajm jihatidan Xoja Ahror valiyning boshqa asarlariga nisbatan anchagina kattadir.

“Faqarot”da tasavvuf ahli, jumladan, Xoja Ahror Valiyning turli masalalarga oid fikrlari, tariqat usullari berilgan. Har bir usul “faqra” (band) deb nomlangan. Nasriy tarzda tojik tilida yozilgan. Undagi mulohazalardan Xoja Ahror Valiy haqida maqomat yozgan mualliflar foydalanganlar.

Uning 6 ta qo‘lyozma nusxasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda¹⁴³. Shuningdek, asar 1323-hijriy, 1910-milodiy yilda Toshkent tipolitografiyasida nashr yetilgan¹⁴⁴.

4. “Anfosi nafisa” (Durdona so‘zlar). Bu asarning qo‘lyozma nusxasi kam. O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida uning faqat

¹³⁸ O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 514/2. 6 varaq.

¹³⁹ Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. T.: “Fan”, 1993. B. 22-23.

¹⁴⁰ Kenjabek, Mirzo. Dunyoning murshidi. T.: “Fan”, 2004. B. 13.

¹⁴¹ Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. -T.: “Fan”, 1993. B. 23-24.

¹⁴² Valixo‘jaev B. Xoja Ahror tarixi. T.: “Yozuvchi”, 1994. B. 74.

¹⁴³ Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. T.: “Fan”, 1993. B. 24-25.

¹⁴⁴ Xoja Ubaydulloh Ahror. Faqarotul-orifiyn. T., Orifjonov tipolitografiyasi, 1910.

bitta nusxasigina saqlanmoqda¹⁴⁵. Hindistonda nashr yetilgan toshbosma asarda ko‘pgina mashoyixlarning asarlari qatorida keltirilgan.

Xoja Ahror Valiyning mazkur asarlaridan tashqari fors-tojik tilidabitgan yana ikki risolasi mavjudligi haqida ham ma’lumot bor¹⁴⁶. Qo‘lyozma holdagi ushbu risolalarning sarlavhasiga “Risolai Xoja Ahror Valiy” deb aniq yozib qo‘yilgan va ular mazmun-mohiyati jihatidan Xoja Ahror valiyning shu vaqtga qadar ma’lum bo‘lgan asarlaridan farq qiladi.

Xoja Ahror Valiy o‘z zamonasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-mafkuraviy hayotida katta iz qoldirgan arboblardan biri sifatidagi qirralarini namoyon yetuvchi maktublari muhim ahamiyatga yegadir. Aslida maktub - insho shaklida yuritilib har bir davrning yozma nutqini, savodxonlikni, yozma muomala madaniyatini namoyon yetuvchi xujjatdir. Maktubni mansha’ qilmoq – qog‘ozga tushirmoq yoki mabda’ qilmoq - yozishni boshlamoq xat yozuvchidan juda katta salohiyat, zukkolikni talab yetadi. Ayniqsa, yozilajak maktubdavlat ahamiyatiga molik darajada biror hukmdorga qaratilgan bo‘lsa, uning ta’sir kuchi amalda ijobat natijasini berish darajasida bo‘lmog‘i lozim bo‘ladi. Mana shu o‘rinda Xoja Ahror Valiyning mamlakatda hukm surayotgan notinchlikni bartaraf yetuvchi xonliklar o‘rgasidagi kelishmovchiliklarni izga solish, yel yurtning osoyishini buzilishiga sabab bo‘ladigan o‘zaro urushlarni to‘xtatishga bag‘ishlangan maktublari o‘z samarasini berganligi tarixdan ma’lumdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Valixo‘jayev B. Xoja Ahrori Valiy. Samarqand, “Zarafshon”, 1993. – B. 86.
2. Kenjabek, Mirzo. Dunyoning murshidi. T: “Fan”, 2004. – B. 52.
3. Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. T: “Fan”, 1993.
4. Xoja Ubaydulloh Ahror. Faqarotul-orifiyn. T: Orifjonovtipolitografiyasi, 1910.
5. Hasaniy Mahmud. Xoja Ahror Valiy merosi. Imom al-Buxoriy saboqlari, 2004
6. Sirojiddinov Sh. Naqshbandiya tariqati: tarixiy jarayon va mohiyat // Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti. № 2, 2003
7. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 514/2. 6 varaq.
8. Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. T.: “Fan”, 1993. B.

¹⁴⁵ Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. T.: “Fan”, 1993. B. 25.

¹⁴⁶ Hasaniy, Mahmud. Xoja Ahror Valiy merosi. Imom al-Buxoriy saboqlari, 2004 yil, №2-son.

ИСЛОМ ДИНИНИНГ ЖАМИЯТ ҲАЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ

Қосимов Музаффар Махматқулович

Хожя Бухорий ўрта махсус ислом таълим муассасаси

Маънавий-маърифий ишлар бўйича мудир ўринбосари, магистр

Тел: +998(91)946-98-82

Аннотация. Мақолада ислом динининг инсон тарбияси, маънавий ва ахлоқий юксалишдаги ўрни ҳамда унинг жамият ҳаётидаги ижтимоий-руҳий аҳамияти таҳлил қилинган. Муаллиф исломнинг эзгуликка, тинчликка, адолат ва бағрикенгликка даъват этувчи ғоялари орқали миллий маънавият ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини асослаб беради. Шунингдек, Қуръони карим оятлари ва Пайғамбаримиз (с.а.в.) ҳадислари асосида диннинг инсонпарварлик моҳияти, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, миллатлар ва динлар ўртасидаги тотувликни таъминлашдаги роли ёритилган. Мақолада замонавий жамиятда ислом таълимотини тўғри англаш ва ундан радикал ғоялардан ҳимояланишнинг аҳамияти, Ўзбекистонда дин ва давлат муносабатларининг конституциявий асослари ҳамда дунёвий ва диний қадриятлар уйғунлигини таъминлаш борасидаги сиёсат илмий жиҳатдан таҳлил этилган.

Калит сўзлар: ислом, маънавият, ахлоқ, бағрикенглик, адолат, тинчлик, диний қадриятлар, миллий ўзлик, Қуръони карим, инсонпарварлик, радикализм, дин ва давлат муносабатлари, Ўзбекистон, фуқаролик жамияти.

Ислом дини баркамол авлодни тарбиялаш, маънавий ва ахлоқий юксакликка даъват этиш билан бир қаторда, уни ёвуз, қабих амаллардан қайтариш хусусиятлари билан ҳам ажралиб туради. Шу сабабли ҳам жамиятимизнинг миллий, диний-маърифий асосларини ташкил этган ислом ҳозирги маънавий-ахлоқий юксалишимизнинг манбаи бўлиб хизмат қилмоқда.

Миллий ва диний қадриятларнинг ҳаётимизда муҳим ўрин тутиши, тарихий хотирамизни тиклаб, ўзлигимизни англашимиздаги роли, янги жамият қуришда муҳим куч-қудрат манбаи экани давлатимиз раҳбарининг қуйидаги фикрларида яққол ўз ифодасини топган: “... биз ўз миллатимизни мана шу муқаддас диндан айри ҳолда асло тасаввур қила олмаймиз. Диний қадриятлар, исломий тушунчалар ҳаётимизга шу қадар сингиб кетганки, уларсиз биз ўзлигимизни йўқотамиз”.

Ислом бошқа динга эътиқод қилувчилар билан ҳамкорлик қилишни тақиқламаслиги, унинг таълимоти диний бағрикенглик тамойилларига асосланиши барча манбаларда ўз аксини топган. Жумладан, Қуръони каримнинг “Мумтаҳана” сураси 8-оятида: “**Дин тўғрисида сизлар билан**

урушмаган ва сизларни ўз юртингиздан (хайдаб) чиқармаган кимсаларга нисбатан яхшилик қилишингиз ва уларга адолатли бўлишингиздан Аллоҳ сизларни қайтармас. Албатта, Аллоҳ адолатли кишиларни севар” [1, 550-б.], деб таъкидланган.

Ислом — миллий маънавиятимизнинг ажралмас бўлагидир. Ушбу ҳақиқат ҳукуматимиз томонидан дин соҳасида қабул қилинаётган қарорлар ва фармойишларда ҳам ўз аксини топмоқда.

Дин миллий ҳаётнинг табиий йўлдошидир. Зеро, у этник бирликлар аъзолари ҳаёт тарзини ташкил этувчи, тартибга солувчи ҳамда кишиларнинг ижтимоийлашувига хизмат қилувчи меъёрий омиллардан бири бўлиб келган. Диннинг бундай роли унинг тарихан шаклланган ўзига хос хусусиятлари билан белгиланади. Чунки дин, республикамиз Президенти таъкидлаганидек, биринчидан, умуминсоний ахлоқ меъёрларини ўзига сингдириб олиб, уларни ҳамма учун мажбурий ҳуқ-атвор қоидаларига айлантирган; иккинчидан, одамларнинг баҳамжиҳат яшашига кўмаклашган; учинчидан, одамларда ишонч ҳиссини мустаҳкамлаган ҳамда ҳаёт синовлари, муаммо ва қийинчиликларни енгиб ўтишларида куч бағишлаган; тўртинчидан, умуминсоний ва маънавий қадриятларни сақлаб қолиш ҳамда авлоддан-авлодга етказишга ёрдам берган ва шу йўл билан маданият ривожига катта таъсир кўрсатган.

Тарихдан маълумки, Ўрта Осиё минтақаси жаҳонга фан ва маданиятнинг турли соҳаларида буюк намоёндаларни етиштириб берди. Инсоният тараққиёти тарихида ўчмас из қолдирган мўътабар зотларнинг асарлари ҳозирги кунга қадар ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Ислом дини бирон бир давлат, миллат ёки муайян гуруҳларга мансуб бўлмай, унинг ҳаётбахш таълимоти, аввало, инсонни энг азизу мукаррам зот сифатида эъзозлайди. Унинг маънавий камолотига ва ҳаётий манфатларига хизмат қилади Инсонпарварлик руҳи устуворлиги ва адолат ғоялари ўзида мужассамлиги билан бутун жаҳон Исломнинг таъсир доираси тобора кенгаймоқда.

Қуръони каримда аввало динга зўрлаб киритиш ғояси рад этилади. Бу тинчлик ва миллатлараро тотувликнинг ўзагидир. Динга зўрлаб киритишнинг рад этилиши ислом динининг эркин ва маърифатга асосланган дин эканлигини кўрсатади. “Бақара” сурасининг 256-ояти шундай нозил бўлган:

“Динда зўрлаш йўқ, зеро, тўғри йўл янглиш йўлдан ажрим бўлди. Бас, ким шайтон(ёхуд бутлар)ни инкор этиб, Аллоҳга иймон келтирса, у мустаҳкам халқани ушлабди. Аллоҳ эшитгувчи, билгувчидир” [2, 256-оят.]. Демак бу ўринда шундай фикрлар илгари сурилади:

“Динга зўрлаб киритиш йўқ”, яъни иймон келтириш ёки келтирмаслик кишининг ихтиёрий, ишидир.

Қуръони каримда талқин қилинган тинчлик ва миллатлараро тотувликнинг иккинчи ғояси бу - ислом динининг тинчликпарвар, адолатпарвар дин сифатида тақдим қилинишидан иборат. “Моида” сурасининг 8-оятида шундай дейилади: **“Эй мўминлар, Оллоҳнинг ўзи учун ҳақ йўлни тутгувчи, адолат билан гувоҳлик берувчи бўлингиз! Бирон қавмни ёмон кўришингиз сизларни адолат қилмасликка тортмасин! Шу тақвога яқинроқдир. Аллоҳдан кўрқингиз! Албатта Аллоҳ қилаётган амалларингиздан хабардордир”**.

Демак бу ўринда шундай фикрлар баён қилинган:

Мусулмон одам Тўғри йўлни тутиши;

Адолатпарвар бўлиши;

Тўғри гувоҳлик берувчи;

Бирон қавмни меъёридан ортиқ ёмон кўрмаслиги;

Тўғрилиқ ва Адолатни тақво деб билиши;

Аллоҳдан кўрқиб ёмон хатти-ҳаракат қилмаслиги;

Эзгу амал қилиши лозим.

Бу ислом динининг ва мусулмон кишининг моҳиятидир. Чунки Аллоҳдан кўрққан киши тинчликпарвар ва адолатпарвар бўлиб, ҳеч кимга ёмонликни раво кўрмайди. Иймон келтирган ёки иймон келтирмаган кишини ҳам меъёрдан ортиқ даражада ёмон кўрмайди. Бу ислом динидаги диний бағрикенгликнинг мазмун-моҳиятидир. Хабарларда келишича, Шайх Маъруф Кархий (ВИИИ аср) тирик вақтида “унинг лутфидан, хусну хулқидаги камолидан жухудлару насоролар “Маъруф биздандир” деб мусулмонлар билан талашар эдилар” [3, 70-б].

Қуръони карим ирк, насаб ва ватанидан қатъи назар инсон қавмининг бир эканини баралла эълон этди: “Хужурот сураси 13-оят” **“Эй инсонлар, дарҳақиқат, Биз сизларни бир эркак (Одам) ва бир аёл (Ҳавво)дан яратдик ҳамда бир-бирларингиз билан танишишинглар (дўст-биродар бўлишинглар) учун сизларни (турли-туман) халқлар ва қабила-элатлар қилиб қўйдик. Албатта, сизларнинг Аллоҳ наздидаги энг ҳурматлироғингиз тақводорроғингиздир”** [4, 13-оят.].

Ҳаётда баъзи шахслар мартабаси кўтарилди, бир тоифани бой қилиб, бир тоифа фақир бўлди. Бир одам ҳоким бўлиб, халқ унга бўйсунди. Баъзи қавмларнинг танаси оқ бўлса, бошқа миллатларнинг ранги қора бўлди.

“Бас, ким (ҳаёти дунёдалиқ пайтида) зарра мисоличалиқ яхшилик қилса, (Қиёмат кунда) ўшани кўрур. Ким зарра мисоличалиқ ёмонлик

қилса, уни ҳам кўрур!” [5, 7-8-оятлар.]. Улар жамият вужудида ҳам баробардирлар. Кучлилари заифларини, жамоа эса шахсининг ҳолатини тушунади. “Мўминларнинг ўзаро муҳаббат ва марҳаматдаги мисоллари бир жасаднинг мисолига ўхшайди. Агар ундан бирор аъзо шиква қилса, бошқа аъзолар иситма ва бедорлик билан унга ҳамдард бўладилар”.

Одамларнинг барчасига динлари, ирқлари, рангларидан қатъий назар инсоний мукаррамликни исбот этган пайтда ислом дини бундан ҳам юксакликка кўтарилди.

“Дарҳақиқат, Биз Одам болаларини азиз ва мукаррам қилдик” [6, 70-оят.]. Одамларнинг ҳаёти, эътиқоди, илм олиши ва умр кечиришдаги барча ҳуқуқларига кафил бўлган бу ҳурмат уларнинг барчаси учун баробар эди. Одамларнинг ҳаммасига истисносиз бир хил даражада кафил бўлиш давлатнинг мажбурияти эди. Инсонларни мукофотлаш ва жазолаш асослари уларнинг зоҳир амалларига қараб эмас, балки ниятларига қараб бўлишини эълон қилган пайтда ислом дини инсоний юксакликнинг бундан ҳам юқори чўққисига кўтарилди.

Ислом одамлар ўртасида бир ота-онадан бўлган оға-иниларники каби инсоний бирликни эълон этишда худди шу тарзда йўл тутди. У жамиятдаги ижтимоий бирликни дарахтга ўхшатдики, агар шамол эсса, тепадагими, пастдалигидан қатъи назар, барча шохлари қимирларди. Шу ўринда Қуръоннинг инсонларга асл инсоний бирликларини эслатиб турадиган ушбу:

“Эй инсонлар... Эй Бани одам!” деган лафзлар билан кўп маротаба хитоб қилганини, шунингдек, бир дин фарзандларини миллати, тоифасини ажратмай, “Эй имон келтирганлар... Эй мўминлар!” дея чақирганини мулоҳаза этиб ўтишимиз фойдадан холи эмас.

Албатта, одамларнинг динларидаги ихтилофлари бир-бирларини ўлдиришларига ёки бир-бирларига адоват қилишларига сабаб бўлмаслиги керак. Балки эзгу ишларни қилишда, ёвузликка қарши курашда ўзаро ҳамкор бўлишлари лозим:

“Яхшилик ва тақво йўлида ҳамкорлик қилингиз, гуноҳ ва ҳаддан ошиш йўлида ҳамкорлик қилмангиз!” [7, 2-оят.]. Улар ўзаро ихтилоф қилаётган нарсаларига ҳукм этишга келсак, буни қиёмат куни Аллоҳ таолонинг ўзи ҳал қилади:

“Яҳудийлар: “Насронийлар ҳақ эмаслар”, дейишди. Насронийлар: “Яҳудийлар ҳақ эмаслар”, дейишди. Холбуки, улар (яъни, яҳудийлар ҳам, насронийлар ҳам) китоб (яъни, Таврот, Инжил) тиловат қиладилар, шунингдек, билмайдиган кимсалар уларнинг гапига ўхшаш гап айтдилар (яъни, Маккадаги мушриклар: “Муҳаммад ҳақ эмас”, дейишди). Бас,

уларнинг ўзаро ихтилоф қилиб ўтган нарсалари ҳақида Аллоҳ қиёмат кунида ҳукм қилади” [8, 113-оят.].

Албатта, динлардаги ихтилоф яхшилик, силаи-рахм ва меҳмондорчиликдан тўса олмайди:

“Бугун сизлар учун барча покиза нарсалар ҳалол қилинди. Китоб берилган кимсаларнинг таомлари сизлар учун ҳалолдир ва сизларнинг таомларингиз улар учун ҳалолдир... Сизлар учун мўминлар орасидан ўзларини ҳаромдан сақлаган аёллар ва сизлардан илгари Китоб берилган кимсалардан бўлган ўзларини ҳаромдан сақлаган аёллар ҳам ҳалолдир” [9, 5-оят.].

Хулоса ўрнида, диний ва дунёвий қадриятлар уйғунлигини тиклаш зарурати, ҳеч бир муболағасиз, мамлакат тақдирини ҳал қилувчи омиллардан бўлиб қолди. Ўзбекистон Республикаси раҳбарияти олдида мустақилликнинг биринчи кунлариданоқ ўзининг динга бўлган муносабатини аниқ-тиниқ ва принципиал тарзда белгилаб олиш зарурати турар эди. Ашаддийлик кайфиятидаги диний арбоблар ва уларнинг ортида турган миллатчи кучларнинг мисли кўрилмаган даражадаги фаоллашуви. Улар фаолиятининг сиёсийлашуви исломий ва умуминсоний ниқобларга ўралган “Ислом лашкарлари”, “Адолат”, “Одавийлик ва инсонийлик” ҳамда бошқа жангари ташкилотлар шакллана бошлаган XX асрнинг 90-йилларининг бошидаёқ намоён бўлди. Кўриниб турганидек Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини куриш шароитида динийлик билан дунёвий ўртасидаги янги нисбатни шакллантириш ҳар доим ҳам силлиқ кечмаган. Бу йўлда мусулмон аҳоли диний онгини радикаллаштириш ва сиёсийлаштиришга қаратилган муайян кучларнинг фаолияти келтириб чиқарган қийинчиликлар пайдо бўлиб турди. Бундай ҳаракатларнинг аниқ кўринишларидан бири сифатида ҳизб ат-таҳрир ал-исломийнинг янги асрнинг боши — ўтган асрнинг сўнгги йилларидаги варақалар тарқатиш йўли билан йирик шаҳарлар, айниқса Тошкент аҳолиси ўртасида олиб борган фаол қўпоровчилик-тарғиботчилик ишини кўрсатиш жоиз.

Чет эллик манбалар томонидан ҳам маънавий, ҳам моддий қўллаб - қувватланган радикал кайфиятдаги диний гуруҳарнинг барча уринишларига қарамасдан, дунёвий ва диний қадриятлар ўртасидаги янги нисбатнинг тобора чуқурлашиб бораётган шаклланиш жараёнида Ўзбекистон Конституциясида белгилаб қўйилган давлатнинг ўз вазифалари, диннинг ўз вазифалари бор тамойили устуворлиги ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда. Ушбу жараёнда бугунги ўзбек жамиятининг мутлақ кўпчилиги диннинг юксак ахлоқи инсонни тарбиялашдаги яратувчан руҳини қўллаб - қувватламоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуазиз Мансур. Қуръони карим маънолари таржимаси “Бақара сураси” 256-оят. -Т.: ТИУ, 2001.
2. Ф.Аттор. Тазкират ул-авлиё. -Т.: 1997. 70-бет.
3. Абдуазиз Мансур. Қуръони карим маънолари таржимаси. “Ўжурот” сураси. 13-оят. -Т.: ТИУ, 2001
4. “Залзала” сураси. 7-8-оят
5. “Ал-Исро” сураси, 70-оят
6. “Моид” сураси, 2-оят
7. “Бақара” сураси, 113-оят
8. “Моид” сураси, 5-оят

ABUL QOSIM NAYSOBURIY VA UNING “ RISOLA AL-QUSHAYRIYYA ASARI” BAYONI

Voxidov Xasanboy Abduxalil o'g'li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1-bosqich magisrtanti
+998932732797

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom Abul Qosim al-Qushayriy an-Naysoburiy (376/986–465/1071) hayoti va ijodi, xususan, uning “Risola al-Qushayriyya” asarining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Asarda tasavvufning nazariy va amaliy jihatlari, soʻfiylik maqomlari – tavba, sabr, tavakkul kabi bosqichlar izohlanadi. Al-Qushayriyning asari nafaqat tarixiy jihatdan, balki zamonaviy ruhiy-maʼnaviy tarbiyada ham muhim ahamiyatga yega yekanligi yoritiladi. Tadqiqotda asosiy manbalar sifatida arab, ingliz va uzbek tillaridagi nashrlar tahlil yetilgan.

Kalit soʻzlar: Abul Qosim al-Qushayriy, “Risola al-Qushayriyya”, tasavvuf, tavba, sabr, tavakkul, Ashʼariy, Nishopur, sufiylik taʼlimoti.

Kirish

Tasavvuf – islom maʼnaviyatining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi ilmiy-amaliy yoʻnalishdir. Bu yoʻnalishdagi yeng mashhur asarlardan biri Abul Qosim al-Qushayriyning “Risola al-Qushayriyya”sidir. Mazkur asar XI asrda yozilgan boʻlib, u tasavvuf terminologiyasini tizimlashtirgan, soʻfiylikning maʼnaviy bosqichlarini izchil bayon qilgan ilk manbalardan sanaladi.

ASOSIY QISM

Imom Abul Qosim Abu al-Karim ibn Havazin al-Qushayriy an-Naysoburiy ash-Shofiʼiy (376 /986 - 465 /1071) yilda, hozirgi Yeronning Nishopur yaqinidagi

“Ustuvo” shahrida Robi’ul avval oyida tug’ilgan. Nasilda u arablardan bo’lgan Qushayr ibn Ka’bga bog’lanadi. Yoshlik vaqtida yetim qolib, yetimlikda katta bo’lgan. Al-Qushayriy hali bolalik paytidayoq otasidan ayrilgan. Ma’lumotlarga ko’ra, uni onasining akasi – mintaqadagi mashhur yer yegasi bo’lgan dehqonchilik bilan shug’illanuvchi tog’asi o’z tarbiyasiga olgan. Al-Qushayrining asosiy so’zlashuv tili fors tili bo’lgan bo’lishi mumkin, ammo u arab ulamolaridan ta’limini olgan. U arab tili va adabiyotini o’rganish bilan birga ot chopish, qurol ishlatish va jang san’atlarini o’rganan¹⁴⁷.

Yoshligida al-Qushayriy o’z mulkini boshqarish maqsadida moliya va ma’muriyat ilmini o’rganish uchun Nishopurga yo’l oladi. O’sha davrda Nishopur yirik shahar bo’lib, musulmon dunyosining ilmiy markazlaridan biriga aylangan yedi. U Nishopurga kelganiga ko’p bo’lmay, o’zining birinchi ma’naviy ustozini Shayx Abu Ali ad-Daqqoqni (vaf. 405/1015) uchratadi. Uning darslariga qatnashib, ustozidagi ixlos, taqvo, yuzidagi nurni ko’rib shariat ilmlarini olishga jazm qiladi. Hamda uning rahbarligida Qur’on va Sunnat ilmlarini, fiqh (islom huquqi) va kalom (islom ilohiyoti)ni chuqur o’rganadi.

Ustoz va shogird o’rtasidagi munosabat shu darajada mustahkamlanadiki, Shayx ad-Daqqoq al-Qushayriyni o’z qizi Fotimaga uylantiradi. Ad-Daqqoq vafotidan so’ng, al-Qushayriy ustozini asos solgan madrasaaga ustozining o’rin bosari sifatida qoladi. Al-Qushayriy Nishopurdagi mashhur ulamo Abu Abdurrahmon as-Sulamiydan (vaf. 412/1021) ham ilm olgan. Al-Qushayriy diniy fanlarni o’rganishda davom yetib, Iroq va Hijozda bo’lgan sayohatlari davomida hadis olimlari bilan ham uchrashgan. Aqida ulamolaridan bo’lgan Abu Ishoq Isfiroiydan ham dars olgan. U ustozlari dars o’tayotganida jim tinglab o’tirsa, sen nima uchun yozmayabsan? – deb, savol bersalar, imom Qushayriy barcha masalalarni yodidan aytib berar yedi. Shunday holatlarning birida Shayx Isfiroiy shogirtini istedodiga lol qolib, sen meni darsimga kelmay qoyaver, kitobdagi ba’zi masalalarni o’rganib olsang bo’ldi, deb aytadi¹⁴⁸.

Al-Qushayriy o’zining mashhur “Risola” asarida tasavvufni asosan Nishopurda “Shofi’iy fiqh maktabi” va “Ash’ariy aqidasi” tarafdorlari amal qilgan yo’l sifatida ta’riflaydi. Al-Qushayriy Ash’ariy aqidasi faol himoyachisiga aylangan va uning tamoyillarini asoslab, himoya qiluvchi sifatida bir necha risolalar yozgan. Uning 437/1045–46 yillarda yozgan asarlaridan yeng mashhurlari “Risola

¹⁴⁷ Abu l-Qasim Abd al-Karim al-Qushayri, *Lata’if al-Isharat: Subtle Allusions. Great Commentaries on the Holy Qur’an, Suras 1–4*, trans. Kristin Zahra Sands (Louisville, KY: Fons Vitae, in association with the Royal Aal al-Bayt Institute for Islamic Thought, 2017 -P 12-14

¹⁴⁸ أبو القاسم عبد الكريم بن هوازن بن عبد الملك بن طلحة. الرسالة القشيرية، مع شرح شيخ الإسلام القاضي زكريا بن محمد الأنصاري. تحقيق الشيخ طه عبد الرؤوف سعد. دار جوامع الكلم الجعفري، الدارسة، ٢٠٠١، ص ١٦.

al-Qushayriyya” tafsir ilmiga oid “Latoif al-Ishorat” hamda odob-axloq, zikrlarga ta’alluqli bo’lgan “Nahv al-Qulub” asarlaridir¹⁴⁹.

“Risola” asarining xozirda qo’lyozma nusxasi mavjud bo’lib, uni Jiddadagi dorul-minhaj nashridatasdiqlangan bolib , u hijriy 488-yilda yozilgan qo’lyozmadir. Xozirgi vaqtda Istanbuldagi Ibrohim Bosho kutibxonasida 3-raqam ostida saqlanadi¹⁵⁰.

Al-Qushayrining tasavvufga oid “Risola al-Qushayriyya” asarni o’rganar yekanmiz avvalo Tasavvuf so’ziga nazar solsak: Shayx Abu Muhammad Jaririy bunday ta’riflagan: “Tasavvuf barcha ulug’vor xulqlarga kirish va barcha razil xulqlardan chiqishdan iborat” degan.

Shayx Muhammad ibn Ali Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib aytganlarki: “Tasavvuf ulug’vor xulqlar bilan sinonim ismdir. Kimning xulqi sizdan yaxshiroq bo’lsa o’sha kishi sizdan tasavvuf jixatidan ham yaxshiroq bo’ladi”¹⁵¹.

Abul Qosim al-Qushayriy “Risola” asarida so’fiylik tamoyillari va amaliyotlarini yoritishga harakat qilgan. Tasavvuf ilmida ko’plab tushunchalar mavjud bo’lsada, ularning tizimli va ilmiy tavsifi kam uchraydi. So’fiylik terminlari va ruhiy tajribalarini tushunarli bayon qilish hamda Allohga yaqinlashish yo’lidagi bosqichlar bayoni risolaning asosiy vazifasidir. Shu sababli so’fiylik terminlari va ruhiy tajribalarini zamonaviy tadqiqotchilar uchun tushunarli tarzda bayon qilish muhim ishlardandir. Shu sababli “Risola” asarida muallif Allohga yaqinlashish yo’lida bosib o’tiladigan murakkab bosqichlar maqomlarni batafsil bayon qiladi.

Bunda birinchi maqom tavba, ya’ni pushaymonlikdir. Al-Qushayriy tavbani ruhiy yo’lning asosi deb ta’riflaydi. Tavba shunchaki kechirim so’rash yemas, balki kelgusida gunohlardan tiyilish uchun mustahkam qaror chiqarishdir. Tavba maqomi so’fiydan o’zini tanish, o’z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qilishni talab yetadi. Shu sababli birinchi maqom sifatida tavba maqomi qo’yilgan bu bosqichdan o’tgan insongina qolgan bosqichlarga tayyor bo’ladi.

Al-Qushayriyning “Risolasida” tasavvufning mazmun-mohiyati chuqur yoritilgan bo’lib, ilohiy yaqinlik sari ma’naviy ziyoratga sodiq bo’lganlar uchun mayoq vazifasini o’taydi. Allohga boradigan yo’l doimiy ichki kurash, axloqiy to’g’rilik, sadoqatdan iborat yekanini ta’kidlaydi.

Bu maqomning birinchisi tavba, ya’ni pushaymonlikdir. Al-Qushayriy tavbani ruhiy yo’lning asosi deb ta’riflaydi. Tavba shunchaki kechirim so’rash yemas, balki kelgusida gunohlardan tiyilish uchun mustahkam qaror chiqarishdir.

¹⁴⁹ أبو القاسم عبد الكريم بن هوازن القشيري، الرسالة القشيرية، تحقيق خليل المنصور، دار الكتب العلمية، بيروت، ١٤٢٣هـ / ٢٠٠٢م، ص. ١٣.

¹⁵⁰ <https://ar.wikipedia.org/wiki/>

¹⁵¹ Abdulqodir Abdu Rahim. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. Shayx Zulfikar Ahmad Naqshbandiyning “Tasavvuf va suluk” asari tarjimai va izohlari. Toshkent: G’ofur g’ulom, 2023.- B. 27-28

Bu maqom soʻfiydan oʻzini tanish, oʻz xatti-harakatlari uchun masʼuliyatni his qilishni talab qiladi.

Tavbadan keyin solik koʻpincha sabr maqomini boshidan kechiradi. Bu bosqich shaxsning sabr-toqatini sinovdan oʻtkazadi, ularni qiyinchilik sinovlar va qiyinchiliklarga chidamli boʻlishiga majbur qiladi. Sabr ichki kuch va chidamlilikning bir shaklini singdiradi.

Tasavvuf yoʻlidagi yana bir muhim maqom: “Tavakkul” – Allohga toʻliq ishonch maqomidir. Tavakkulda solik barcha ishlarni va natijalarni ilohiy irodaga, Allohning rejasiga topshiradi.

Shu tarzda al-Qushayriy tasavvuffiy ruhiyatning axloqiy asoslarini chuqur tahlil qiladi. U tasavvuf yoʻlida fazilatlar va qalbni poklashning beqiyos ahamiyatiga alohida yeʼtibor qaratadi¹⁵².

Abul Qosim al-Qushayriyning “Risola al-Qushayriyya” asari tasavvuf va islomiy ruhiyat olamida chuqur va davomli taʼsir koʻrsatgan boʻlib, murakkab ruhiy tushunchalarni sodda va aniq ifodalash orqali, nafaqat tajribali soʻfiylar balki bu yoʻlni endigina boshlagan talabalar uchun ham foydali qoʻllanmadir. Uning aniq uslubi va chuqur mazmuni tufayli asrlar davomida tasavvuf yoʻlini anglashda asosiy manba sifatida oʻz oʻrnini saqlab kelmoqda. Islom olamining markazlaridan tortib, Yeron, Hindiston va Usmoniylar imperiyasigacha boʻlgan hududlarda bu asar oʻqilgan, eʼzozlangan va mahalliy ruhiy amaliyotlarga singdirilgan. Koʻplab madrasalarda asosiy manbalardan biri sifatida oʻqitilgan. Shu sababli, tasavvuf tarixidagi eng nufuzli va barhayot asarlardan biri sifatida eʼtirof yetilib kelinmoqda.

Zamonaviy oʻquvchilar uchun Al-Qushayriyning “Risola”dagi taʼlimotlari hamon ruhiy barqarorlik va ichki tinchlik manbayi sifatida ahamiyatlidir.

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

1. Abdu Rahim, Abdulqodir. Tasavvuf va nafs tarbiyasi: Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiyning "Tasavvuf va suluk" asari tarjimasi va izohlari. p. 27–28.

2. Ал-Қусхайри, Абу ал-Қасим Абд ал-Карим. Латаъиф ал-Исҳарат: Субтле Аллусионс. Грат Сомментариес он тхе Холй Куръан, Сурас 1–4. Транслатед бй Кристин Захра Сандс. Лоуисвилле, КЙ: Фонс Витае, ин ассосиатион витх тхе Роял Аал ал-Байт Институте фор Исламис Тхоугхт, 2017. П 12-14.

3. . القشيري، أبو القاسم عبد الكريم بن هوازن. الرسالة القشيرية. مع شرح شيخ الإسلام القاضي زكريا . بن محمد الأنصاري. تحقيق: طه عبد الرؤوف سعد. القاهرة: دار جوامع الكلم الجعفري، الدارسة، ٢٠٠١.

¹⁵² Abu al-Qasim Abd al-Karim ibn Hawazin al-Qushayri, The Risalah: Principles of Sufism, trans. Rabia Harris, ed. Laleh Bakhtiar, series ed. Seyyed Hossein Nasr. 2002. P 24

4. Al-Qushayri, Abu al-Qasim Abd al-Karim ibn Hawazin. The Risalah: Principles of Sufism. Translated by Rabia Harris. Yedited by Laleh Bakhtiar. Series yedited by Seyyed Hossein Nasr. Louisville, KY: Fons Vitae, 2002.P 15-24

5. القشيري، أبو القاسم. (٢٠٠١). الرسالة القشيرية. القاهرة: دار الكتب العلمية.

6. القشيري، أبو القاسم عبد الكريم بن هوازن. الرسالة القشيرية. ضبطه وعلّق عليه خليل المنصور. بيروت: دار الكتب العلمية، 2002م

7. القشيري، عبد الكريم بن هوازن بن عبد الملك النيسابوري الشافعي. الرسالة القشيرية. تحقيق أنس محمد عدنان الشرقاوي. جدة: دار المنهاج، 2017م

MA’NAVIYAT — SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Uzaqbayev Quralbay Qarjavbay o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,

Siyosatshunoslik va ma’naviyat asoslari kafedrası o‘qituvchi-stajyori

Annotatsiya: Ushbu ishda ma’naviyatning shaxs kamolotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ma’naviy qadriyatlarning inson shaxsiyatini shakllantirish, uni barkamol yetib tarbiyalashdagi ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, yosh avlod ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik, axloqiy poklik kabi fazilatlarni shakllantirishda ma’naviyatning tutgan o‘rni yoritiladi. Jamiyatning taraqqiyoti bevosita ma’naviy yetuk shaxslar faoliyatiga bog‘liqligi asoslab beriladi. Ish davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, oila va ta’lim muassasalarining bu jarayondagi roli ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘urur, barkamol avlod, vatanparvarlik, ma’naviy yetuklik, tarbiya, jamiyat taraqqiyoti

O‘zbek xalqining yeng qadimgi davrlardan hozirgacha davom yetib kelayotgan, o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri - ota-onani yuksak darajada e‘zozlash, hurmat qilishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan mehribon, aziz va ulug‘ zot yo‘q. Ota-ona farzandlarning tayanchi, eng katta boyligidir.

Ota-ona o‘z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat in’om yetgan ulug‘liklari ham ana shunda. O‘zbek xalqi odob-axloqiga ko‘ra, ota-onaning oldidan salom bermay o‘tish gunoh hisoblanadi. Ota-onani e‘zozlash, ularning bemisl, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarini olish - farzandlarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning yeng muhim talablaridan biridir. Ulug‘ bobomiz hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani e‘zozlash..."farzandlar uchun farzdir. Ota-onaga xizmatni birday qil, xizimating qancha ortiq bo‘lsa shunda ham kam deb bil. Ota oldida boshingni qurbon yetib, onang uchun butun vujudingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, o‘sha ikki odamning

roziligini ol! Tuni kuning nur berib turgan - birini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning soʻzlaridan tashqari bir narsa yozmang, ular chizgan chiziqdan tashqaridan bir qadam ham bosmang. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "odob" soʻzidagi "dol" singari qomatingni ham qil."

Tan olishimiz kerak, sovet davrida kattalarni, ota-onalarni hurmat qilish haqidagi milliy qadriyatlarimiz ancha xira torta boshladi. Ayrim yoshlarimizda oʻzidan kattalarni, oqkoʻngil keksalarni hurmat qilish, ularning pand-nasihatlariga quloq solish kabi yuksak maʼnaviy fazilatlar yoʻqolib borayotgani sezilmoqda.

Keksalar uchun ajratilgan uylarda farzandlari tirik oʻziga toʻq boʻlgan ota-onalar yashayotganiga chidab boʻlmaydi. Ahyon-ahyonda boʻlsa-da, ota-onaga qoʻl koʻtarish, undan ham ogʻirroq jinoyat sodir yetish holatlari yuz berayotganini yeshitamiz! Bu - oddiy kamchilik yemas, balki yeng katta nuqsonimiz, milliy qadriyatlarimizni oyoq osti qilish, oʻz insoniyligimizni yoʻqotishdir. Milliy qadriyatlarimizni oyoq osti qiladigan holat hisoblanadi.

Oʻzbek xalqi oʻzining uzoq tarixi davomida yaratilgan taʼlim-tarbiyaga oid boy meroslarga yega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, doʻstlik, iymon-eʼtiqod, mehr-oqibat, odob-axloq kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning noyob tajribasini toʻplagan. Maʼlumki, maʼnaviy-axloqiy fazilatlar hech qachon oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, balki ularning kelib chiqishining asl manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiruvchi kuchlar mavjuddir. Har qanday axloqiy qoidalar maxsus bir tarixiy zaruriyat natijasida paydo boʻladi va maxsus bir qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Mana shu narsani alohida aytib oʻtish kerak, Sharq mutafakkirlarining taʼlim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqidir. "Tarbiya" soʻzi arabcha "robba" feʼlidan olingan boʻlib, oʻstirdi, ziyoda yetdi, rahbarlik qildi maʼnolarini anglatadi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni turlicha taʼriflaganlar. Xususan, imomlardan biri quyidagicha taʼriflaydi: "Tarbiya bir narsani oz-ozdan kamolga yetkazishdir" Rogʻib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha taʼriflaydi: "Tarbiya bir narsani bir holatdan ikkinchi holatga oʻtkazib, butunlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik hamda muvozanat bilan oʻstirishdir." Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning yeng masʼuliyatli va uzoq davom yetadigan burchlari hisoblanadi.

Odob masalasini insoniyat tarixida toʻlaligicha Islom boshlagan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Islomda inson hayotidagi har bir narsaning oʻz odobi bor. Dunyodagi axloqqa bagʻishlangan asarlarning asosini va koʻpchiligini islom xalqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil yetadi. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda gʻoyalar bugungi kunda ham zarur taʼlim-

tarbiya manbai sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy oziq bermoqda. Uzoq va boy tarixga yega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, rivojlantirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, insonlarga va tabiatga do'stlik, saxovat kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil yetadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning faqat o'tgan davri, shu bilan birga, istiqboli uchun ham kuch va fidoyilik manbaidir." Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari bor, ular pedagogik ong rivojining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvur va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota-ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini xohlaydi, o'zlari qila olmagan orzu-umidlariga farzandlari tomonidan yerishilishini istaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun yeng baxtli damlardir. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflaydi. O'tgan zamonda buyuk mutafakkirlarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, vatan, xalq istiqboli, farovon hayot, halol mehnat, ilm-fan rivoji, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon yetganliklariga guvoh bo'lamiz.

Ana shunday allomalar qatoriga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga g'oyat katta hissa qo'sha olganligi olib borilgan tadqiqotlardan ayon bo'lmoqda." Xoja Ahmad Yassaviy nuqtayi nazariga ko'ra, makkorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollikni targ'ib qiladi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi insonga hushyorlikka, faol harakat qilishga yordam beradi"[1]. Shu sababli ham ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir buyuk allomalardan biri Burhoniddiy Marg'inoniydir. Burhoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida or-nomus, imyon, vijdon, burch, insoniylik haqidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va barqaror rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik vakili Burhoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida yerkinlik, insonparvarlik, imyon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, adolat, birodarlik, bilimdonlik, mustaqil fikr fazilatlarini asosiy o'rinni yegallaydi [2]. Ulamo Marg'inoniy o'zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining

yuksalishiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Farzandga odob, hunar o‘rgatishni meros deb bil.

Yoshlarda yuksak ma‘naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Mashhur o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo ofat, yo saodat - yo falokat masalasidir"[3] deb yozgan yedi.

Ulamolarning ta‘kidlashicha, "har bir millatning saodati, mamlakatlarning tinchligi va farovonligi yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liq." A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta‘lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o‘qitilgan. A. Avloniy asarini chuqur o‘rganar yekanmiz, biz o‘sha davrda maktablarda o‘quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, Qur‘on oyatlari, hadislar hamda buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlaridan imkon qadar keng foydalanilganini ko‘ramiz.

Shunday yekan, oilada bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammo hisoblanadi. Shu sababli har qanday jamiyatning oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda - davlatning, ota-onaning bolalar tarbiyasidagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas‘uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: "Farzandlarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz kerak. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq muloqot qilish, ularning qalbiga quloq solish, masalalariga yechim topish uchun amaliy yordam berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar davomida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz"[4]. Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yoshlar tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning ana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, yendigina hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, buyuk ajdodlarimiz qanday ta‘riflagan: "Xalqning aniq bir maqsad tomon harakat qilishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, kuchli bo‘lishi yoki kuchsiz bo‘lib xo‘rlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e‘tibordan qolib, o‘zgalarga bo‘ysunuvchi va qul, tutqun bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyasiga bog‘liq" deb aytib o‘tdi.

Tarbiya o‘z navbatida oiladan boshlanar yekan, biz o‘z farzandlarimizni baxt-saodatli, kamolotli, iqqbolli, buyuk inson bo‘lib yetishishini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta‘minlaydigan ma‘naviy qo‘rg‘oni bo‘lgan o‘z oilamizning mustahkamligini ko‘rishni istar yekanmiz, shunday yekan oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol yetib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga ye‘tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada shaxs ma‘naviyati va ma‘naviyati, yoshlar ongida milliylikni chuqurlashtirish masalalarini o‘rganib chiqdik. Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda yagona tayanch - ma‘naviyatdir. Chunki donishmandlar juda o‘rinli ta‘kidlaganidek, "ma‘naviyatni yetakchi qilmagan jamiyatda qonunlar o‘ladi."

Insoniyatga tegishli bo‘lgan har bir narsa, hodisa ijtimoiy mohiyatga yega bo‘lgani kabi turmush farovonligi ham ijtimoiy munosabatlar tizimida vujudga keladi va rivojlanib boradi. Insonning jamiyatga birlashib yashash zarurati uning ta‘limi, ma‘naviy dunyosining rivojlanishi natijasidir. Chunki insonning aql-idroki rivojlanib borishi bilan u o‘zining manfaat va yehtiyolarini shakllantira oladi va ularni yolg‘iz o‘zi qondira olmasligini anglay boshlaydi. Insonning dunyoqarashi ma‘rifiy qadriyatlar bilan boyigan davrdan boshlab u o‘zini o‘rab turgan muhitga inson va insoniy munosabatlarga ehtiyaj seza boshlaydi. Inson o‘z manfaatlari va orzu-istaklarini amalga oshirish uchun ham o‘z atrofidagi jamiyat a‘zolarining umumiy manfaatlari va ehtiyolarini aynan o‘zinikidek qabul qilishi, umumiy manfaatlar yo‘lida beixtiyor ishtirok yetishini anglay boshlashi bilan uning hayotida ma‘naviy-ma‘rifiy bosqich boshlanadi. Bunday jamiyatda har bir soha rivojiga ma‘naviyat yetakchilik qiladi. Zero, Prezidentimiz juda o‘rinli ta‘kidlaganlaridek, "agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir."

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
2. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marginoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
4. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
5. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
6. O‘zbekiston musulmonlari idorasi — “Moturidiylik ta‘limoti bibliografiyasi” maqolasi, Muslim.uz sayti. muslim.uz

7. Uzpedia — “Imom Abu Mansur Moturudiy” maqolasi (o‘zbek tilida) [UzPedia](#)
8. ISESCOning musulmon ummatda birlikka chaqirishi haqidagi xabarlar (IRNA / ISESCO bayonoti) [IRNA Yenglish](#)
9. OIC hamkorligi va islomiy birlik haqidagi ma’lumotlar, OIC rasman sayt materiallari va yangiliklar (masalan, “The OIC in a Transforming World” hisobot) cfm51.oic-oci.org+1
10. Global Imams Council ta’riflari va faoliyati haqidagi ma’lumotlar (Wikipedia) [Vikipediya](#)
11. IJMWS / IIMU tashkiloti haqida umumiy ma’lumotlar (ingliz tilida) [IJMWS](#)

TASAVVUFNING IJTIMOIIY BARQARORLIKGA KO‘RSATADIGAN TA’SIRI

Sodiqova Malika Kozimjon qizi

TDIU Andijon fakulteti

Buxgateriya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

[Tel:+998972572701](tel:+998972572701)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf ta’limotining ijtimoiy hayotdagi o‘rni va uning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tasavvuf inson qalbida ruhiy poklik, bag‘rikenglik, sabr-toqat, adolat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish orqali jamiyatda tinchlik va totuvlikni qaror toptiradi. Shuningdek, maqolada tasavvufning insonlar o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni tiklash hamda ma’naviy tarbiyada tutgan o‘rni yoritilgan. Muallif tasavvuf g‘oyalarining hozirgi davrda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi amaliy ahamiyatini tahliliy misollar bilan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviyat, axloq, bag‘rikenglik, totuvlik, insonparvarlik, ruhiy poklik, jamiyat, ma’naviy tarbiya.

Kirish. Har qanday jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, avvalo, inson qalbidagi ma’naviy uyg‘unlikka bog‘liqdir. Insonning ruhiy muvozanati, axloqiy barkamolligi va o‘zini anglash darajasi jamiyat taraqqiyotining yeng muhim omillaridan biridir[1]. Tasavvuf ana shu ruhiy uyg‘unlikni ta’minlovchi ma’naviy ta’limot sifatida tarixan ham, bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Tasavvuf ta’limoti insonni o‘z “men”ini poklash, nafsni tiyish va qalbni Alloh muhabbatiga to‘ldirishga da’vat yetadi. Uning asosiy g‘oyasi — insonni komillikka yetaklash, jamiyatda mehr-oqibat va totuvlikni qaror toptirishdir[2]. Shu bois, tasavvufni faqat diniy-falsafiy yo‘nalish sifatida yemas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy tizim sifatida o‘rganish muhimdir.

Asosiy qism.

1. Tasavvufning mohiyati va inson tarbiyasidagi o‘rni

Tasavvuf — bu Allohga muhabbat yo‘li, ruhiy poklanish va ma’naviy komillik sari intilishdir. U Qur’oni karim va hadisi shariflarda asosini topgan bo‘lib, insonning qalbini yovuzlikdan tozalash, nafsni jilovlashni o‘rgatadi[3]. Mashhur mutasavvif Bahouddin Naqshband “dil ba yoru, dast ba kor” (“dil do‘st bilan, qo‘l mehnatda”) shiorini ilgari surib, insonning ichki dunyosi bilan tashqi faoliyatini uyg‘unlikda olib borish kerakligini takidlagan[4]. Shuningdek, Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlarida insonni sabr, adolat, saxovat va kamtarlikka chaqiradi. Uningcha, “kimda nafs bor, unda tinchlik yo‘q” degan hikmat jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy muammolarning ildizini tushuntiradi[5]. Shunday qilib, tasavvuf insonni ichki tozalikka undash orqali jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlaydi. Chunki ruhiy osoyishtalik — tashqi totuvlikning manbaidir.

2. Tasavvuf va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik

Jamiyatda barqarorlik — bu nafaqat siyosiy va iqtisodiy omillar, balki ma’naviy birlikning natijasidir. Tasavvuf ta’limoti insonlar o‘rtasida bag‘rikenglik, kechirimlilik, mehr-oqibat va hamjihatlikni targ‘ib qiladi[6]. Bunday fazilatlar yesa ijtimoiy barqarorlikning mustahkam poydevoridir. Tasavvuf g‘oyalari asosida yashagan jamiyatlarda adovat, hasad, zo‘ravonlik va kibr kabi illatlar kamayadi. Chunki tasavvuf har bir insonni o‘z xatosini anglashga, boshqalarning huquqlarini hurmat qilishga o‘rgatadi. Jaloliddin Rumi shunday degan:

“Dunyo bir tanadek — bir a’zo og‘risa, boshqasi ham azob chekadi.”[7] Bu hikmat jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik g‘oyasining mukammal ifodasidir. Insonlar bir-birining dardiga hamdard bo‘lgandagina haqiqiy barqarorlik qaror topadi. Bugungi kunda tasavvuf g‘oyalari yekstremizm va radikalizmga qarshi ma’naviy qalqon sifatida ham ahamiyat kasb yetmoqda. Chunki u insonni nafratdan yemas, muhabbatdan, adovatdan yemas, bag‘rikenglikdan yo‘l izlashi kerakligini o‘rgatadi[8].

3. Hozirgi davrda tasavvuf g‘oyalarining amaliy ahamiyati

Globallashuv va axborot oqimi kuchaygan hozirgi davrda inson qalbida ruhiy bo‘shliq, ma’naviy inqiroz kuchaymoqda. Bunday sharoitda tasavvufning “ruhiy uyg‘onish” g‘oyalari nihoyatda muhimdir[9]. Tasavvuf insonni o‘zlikni anglashga, vijdoniy poklikka va insonparvarlikka chorlaydi. O‘zbekiston Respublikasida tasavvuf merosini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida “ajdodlarimiz yaratgan tasavvuf maktabi — yoshlar uchun ma’naviy tarbiya manbaidir” deb ta’kidlagan [10]. Bugungi kunda Buxoro, Termiz, Turkiston kabi hududlarda tasavvuf merosiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar o‘tkazilmoqda. Bu hol tasavvuf g‘oyalarining jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi o‘rnini yanada

kuchaytiradi[11]. Tasavvuf yoshlarni sabr, mehnatsevarlik, halollik, adolat va mehr-oqibatga oʻrgatish orqali ularni maʼnaviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu tariqa, tasavvuf faqat tarixiy meros yemas, balki hozirgi ijtimoiy taraqqiyot uchun ham dolzarb hayotiy yoʻl-yoʻriqdir[12]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tasavvuf inson tafakkurining yeng nozik, chuqur va ruhiy qatlamlarini oʻzida mujassam yetgan maʼnaviy-falsafiy yoʻnalish sifatida ijtimoiy barqarorlikning yeng muhim manbalaridan biridir. Tasavvufning mohiyati insonni ichki dunyosi bilan uygʻunlashtirish, qalb pokligi va ruhiy osoyishtalikni qaror toptirish orqali tashqi hayotda totuvlik, hamjihatlik va tinchlikni shakllantirishdan iboratdir. Tasavvufning asosiy gʻoyalaridan biri boʻlgan “komil inson” konsepsiyasi jamiyat barqarorligining poydevoridir. Chunki komil inson — bu oʻzini anglagan, boshqalarni tushunadigan, adolat va toʻgʻrilikni hayot mezoniga aylantirgan shaxsdir. Shunday insonlar jamiyatda koʻpaysa, u yerda adovat, gʻazab, zoʻravonlik, nafrat kabi illatlar kamayadi. Demak, tasavvufning ijtimoiy vazifasi insonni nafaqat diniy, balki axloqiy, fuqarolik va ijtimoiy jihatdan ham yetuk shaxs darajasiga olib chiqishdir. Tasavvuf taʼlimoti ijtimoiy barqarorlikka ikki yoʻnalishda taʼsir koʻrsatadi: birinchidan, u individual darajada inson ruhiyatini osoyishtalik va poklik sari yetaklaydi; ikkinchidan, bu ruhiy holat jamiyatda oʻzaro hurmat, bagʻrikenglik, hamjihatlik muhitini yuzaga keltiradi. Inson qalbidagi osoyishtalik — ijtimoiy totuvlikning boshlangʻich nuqtasidir. Shu bois, tasavvufni “ruhiy barqarorlik maktabi” deb atash toʻgʻridir.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf taʼlimoti inson qalbini uygʻotadi, ijtimoiy ongni poklaydi, jamiyatni yezgulik sari yoʻnaltiradi. U oʻzining chuqur maʼnaviy falsafasi bilan millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik va insonparvarlikni mustahkamlaydi. Demak, tasavvuf — bu nafaqat ruhiy kamolot yoʻli, balki ijtimoiy barqarorlikni taʼminlovchi kuchli maʼnaviy omildir. Bugungi globalashuv va maʼnaviy inqiroz sharoitida tasavvufning hayotiyligi yanada yaqqol namoyon boʻlmoqda. Insonlar oʻrtasida oʻzaro hurmat, mehr, adolat va tinchlikni qaror toptirish uchun tasavvufning gʻoyalari — yeng samarali yoʻl, ijtimoiy uygʻunlikning kalitidir. Shu bois, tasavvufni nafaqat oʻtmish merosi, balki bugungi va kelajak barqarorligining poydevori sifatida yeʼtirof yetish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov, B. (2017). *Tasavvuf va uning falsafiy mohiyati*. Toshkent: Akademnashr. (Maqolada jamiyat barqarorligi inson ruhiy holatiga bogʻliqligi haqida fikr berilgan joy uchun ishlatilgan.)
2. Azizov, N. (2019). *Tasavvuf va maʼnaviyat: Uygʻunlik sari*. Samarqand: Registon. (Tasavvufning komillikka yetaklash haqidagi qismi uchun.)

3. Qur’oni Karim. Surai Baqara, oyat 177. (Tasavvufning Qur’oni karimdagi asoslariga ishora qilingan joyda.)
4. Naqshband, B. (XIV asr). *Kalomoti Bahouddin Naqshband*. (Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2003-yil nashri asosida.) (“Dil ba yoru, dast ba kor” tamoyili keltirilgan o’rinda ishlatilgan.)
5. Ahmad Yassaviy. (2004). *Hikmatlar*. Toshkent: Movarounnahr. (Sabr, adolat va nafsni tiyish haqida so’z yuritilgan qism uchun.)
6. Shodmonov, A. (2018). *Tasavvuf — ma’naviy barkamollik yo’li*. Toshkent: Hilol-Nashr. (Tasavvufning jamiyatdagi bag’rikenglik va totuvlik g’oyalari haqida.)
7. Rumi, Jaloliddin. (2005). *Masnaviyi ma’naviy*. Tehron: Nashriyoti Firdavs. (“Dunyo bir tanadek...” degan iqtibos keltirilgan joyda.)
8. Ishoqov, M. (2020). *Tasavvuf ta’limoti va zamonaviy jamiyat*. Buxoro davlat universiteti jurnali, №2. (Tasavvufning yekstremizmga qarshi ma’naviy qalqon sifatidagi o’rni uchun.)
9. To’xtayev, S. (2021). *Globallashuv sharoitida ma’naviy qadriyatlar yevolyutsiyasi*. Toshkent: Yangi asr avlodi. (Globallashuv, ma’naviy inqiroz va tasavvufning ahamiyati tahlil qilingan o’rinda.)
10. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). *Yangi O’zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O’zbekiston nashriyoti. (Prezidentning tasavvuf va yoshlar tarbiyasi haqidagi fikrlarida.)
11. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2023). *Tasavvuf merosi va zamonaviylik*. Toshkent: Akademiya nashriyoti. (Tasavvufga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar haqida.)
12. Karimov, I. A. (1998). *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: O’zbekiston. (Tasavvufning yoshlar tarbiyasidagi o’rni va ma’naviy qadriyatlar tahlili joyida.)

TASAVVUF TA’LIMOTIDA TASLIMIYAT TUSHUNCHASI VA IJTIMOIIY BARQARORLIKDAGI TA’SIRI

Nuriddinova Ruxshona Zehniddin qizi,

BuxDU Filologiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Vohidova Dilshoda Vohid qizi, BuxDU Islom

tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasida o’qituvchisi

(91-444-10-86)

Annotatsiya. Tasavvuf insonni tolerantlikka, fikriy bag’rikenglikka o’rgatadi. Har bir insonning haqiqatni o’z holicha anglashini tan olish — bu fikriy kamolotning belgisidir. Demak, globallashuv davrida dunyo xalqlari, turli e’tiqod va madaniyat vakillari o’rtasidagi muloqotda tasavvufning bu tamoyili o’ta muhim. Chunki u insoniyatni qarama-qarshilik yemas, balki birlik ruhida birlashtiradi. Shu ma’noda tasavvuf ta’limotidagi muhim tushunchalardan biri taslimiyat tushunchasi bo’lib,

taslimiyat - insonni adashishdan asraydi va uni Allohga yaqinlashtiradi. Taslimiyat - inson aqlini poklab, qalbni tozalaydi va *homo modern* uchun ma'naviy kompas vazifasini bajaradi. Taslimiyat orqali inson o'z “men”ini Allohning irodasiga taslim yetib, zamon shiddati orasida ham o'zini, yo'lini va maqsadini yo'qotmaydi. Ushbu maqolada taslimiyatning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri falsafiy tahlil yetiladi.

Kalit so'zlar: taslimiyat, ilohiy iroda, ruhiy kamolot, ikki qutbli holatlar, haqiqat sari intilish, qalb sayohati, ma'naviy uyg'onish, tafakkur yuksalishi.

Taslimiyat — ya'ni Yaratganning irodasiga to'liq bo'ysunish va taqdir oldida rozilik, inson ruhining kamol sari sayrida yeng oliy darajani ifodalaydi. Aslida, bu jarayon insonning haqiqat sari uzluksiz intilishi, qalbning ilohiy manba bilan tutashish yo'lidagi sayohatidir. Shu bois, taslimiyat inson mavjudligining yeng chuqur ma'nosini ochuvchi, ma'naviy uyg'onish sari yetaklovchi yeng yuksak tafakkur darajasidir.

Shayx Najmiddin Kubro o'zlarining “Tasavvufiy hayot” kitoblaridagi “Taslimiyat” bo'limida shunday mulohaza yuritilgan: “Allohning muqaddar qadariga va muborak qazosiga rozilik taslimiyat talablaridandir. Quyida keltirilganlar ham taslimiyatga daxldordir. Bular: faqr-g'ino, huzun-xafv, qabz-bast, uns-haybat, ma'rifat, muhabbat, mahv-isbot, huzur-ihzor, shuhud-ishhod, bud-ibad, qurb-taqarrub, sahv-sakr, sabr-shukr, mahvul asar, mahvul ayn, mahvul yeyn, mujohada-mushohada, humud-jumud, o'rgimchaklar uya to'qigan manzillarning zuhur qilishi, munodama-munohasa, munojot-muhovara, mukoshafa-muhodasa. Shular tufayli qalbim menga Rabbimdan xabar berdi”. [2.92] Agar bu fikrning ichki mohiyatiga, undagi g'oyaviy qatlamlar va so'zlarning ma'naviy uyg'unligiga nazar tashlasak, unda inson tafakkurining botiniy sayri, ma'no va haqiqat orasidagi nozik uyg'unlikni ko'rish mumkin. Xususan, insonning mavjudlik sahnasidagi yeng buyuk sinovi bu — o'z irodasini Yaratuvchining irodasiga topshira bilish, ya'ni taslimiyatdir. Allohning muqaddar qadari va muborak qazosi inson taqdirining har bir zarrachasida mujassamdir. Bu taqdirni rozilik bilan qabul qilish — nafaqat imonning ifodasi, balki tafakkurning yuksak bosqichi, ruhning kamolot yo'lidir. Chunki rozi bo'lish — bu befarqlik yemas, balki haqiqatni tan olish, borliqdagi ilohiy tartibni his yetishdir. Taslimiyat — inson qalbining ilohiy uyg'unlik sari sayridir. Bu sayrda ruh faqr va g'ino, huzun va xafv, qabz va bast, uns va haybat kabi ikki qarama-qarshi holatlarni kechiradi. Har bir qarama-qarshilik aslida ruhning tozalash, sinash va haqiqatni anglash yo'lida bosib o'tgan pog'onasidir. Chunki har bir “qabz”dan so'ng “bast”, har bir “huzun”dan keyin “uns” keladi. Shunday qilib, inson qalbi dard bilan tozalanib, muhabbat bilan yuksaladi. Ma'rifat va muhabbat — bu yo'lning ikki qanotidir. Ma'rifat — bilish orqali yaqinlashish, muhabbat yesa his qilish orqali birlashishdir. Ular uyg'unlashganda, inson “mahv” va “isbot”,

“shuhud” va “ishhod”, “sabr” va “shukr” kabi ruhiy holatlar orqali borliq mohiyatiga singib ketadi. Har bir bosqich — ruhning ichki uygʻonishi, har bir holat — tafakkurning yangi darajasi. Bu yoʻl “mujohada”dan “mushohada”ga, “munojot”dan “muhovaraga”, “mukoshafa”dan “muhodasa”ga olib boradi — yaʼni, inson oʻzini izlashdan Haqni topishga, Haqni topishdan Haq bilan suhbatga erishadi. Shu orada qalb uygʻonadi, sukut soʻzga aylanadi, soʻz esa haqiqatning sadosiga. Aslida, bu taslimiyat — inson tafakkurining yeng oliy nuqtasidir. Chunki kim Allohning irodasiga rozi boʻlsa, u dunyodagi tartibning bevosita guvohiga aylanadi. Uning qalbi oʻziga yemas, Rabbisidan xabar beruvchi oynaga aylanadi. Har bir hissiyot, har bir fikr, har bir sokin on — ilohiy hikmatning zarralari bilan toʻladi. Demak, taslimiyat — insonni ojizlikka yemas, balki ruhiy ozodlikka yeltuvchi kalitdir. U orqali inson oʻz “men”ining chegarasidan chiqib, abadiyat bilan tutashadi. Shunday qilib, taslim boʻlgan qalb — Allohning irodasini his yetgan, haqiqat bilan uygʻunlashgan, tafakkur kamolotining choʻqqisiga yuksalgan qalbdir.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv zamonida inson koʻp hollarda moddiy qadriyatlar girdobida maʼnaviy yoʻnalishini yoʻqotadi. Bu jarayonda tasavvufiy tafakkur — ichki uygʻonish, ruhiy tozalanish va ilohiy uygʻunlik sari qaytish yoʻlini eslatadi. Chunki taslimiyat gʻoyasi — Allohning irodasiga rozi boʻlish, dunyoviy shovqin orasida qalb sokinligini topish, ichki haqiqatni anglash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: “Oʻzbekiston” 2022
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent “Hilol-nashr” 2022

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI <i>Elov Jobir Rustamovich</i>	5
1.SHO‘BA: GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	
МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИДА ТАФВИЗ ВА ТАЪВИЛ МЕТОДОЛОГИЯСИ <i>Аллоқулов Абдулатиф Абдуллаевич</i>	6
ГЛОБАЛЛАШУВНИНГ МУСУЛМОН УММАТИГА МАДАНИЙ-МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРИ ВА ҲИМОЯ ЙЎЛЛАРИ <i>Хусен Хайруллоевич Джурсаев, Дилшод Жўрақулович Алиев,</i>	11
GLOBALLASHUV VA UNING DINIY ONGGA TA’SIRI: SOF AQIDA NUQTAYI NAZARIDAN <i>G‘uzarov O‘tkir Umbarovich</i>	15
GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Jiyanov Ulug‘bek Nasriddinovich</i>	19
MOTURIDIYLIKDA ILM MANBALARINING KOMIL TIZIMI <i>Maxmudov Asrorxon Yusufxonovich,</i>	23
AQIDA BO‘YICHA KLASSIK ASARLARNING BUGUNGI TALQINI <i>Saidov Ibrohim</i>	25
BUYUK SALJUQIYLAR DAVRIDA XUROSONDA KALOM ILMINING RIVOJI (XI ASR) <i>Rajapov Pirnazar Sardor o‘g‘li,</i>	29
RUDAKIY IJODI VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING ISLOM AQIDALARDA YORITILISHI. <i>Azimov Adiz Abdullayevich</i>	33
HANAFIY MAZHABIDA E’TIBOR QOZONGAN BA’ZI FIQHIY MATN KITOBLARI <i>Ro‘zmetov Muhammad Mustaf</i> o	37
ALLOH TAOLONING MUTASHOBIH SIFATLARI BORASIDA SALAFLAR, XALAFLAR VA SOXTA SALAFIYLAR HAMDA MAZHABSIZLARNING AQIDAVIY QARASHLARI O‘RTASIDAGI FARQLARI VA IXTILOF NUQTALARI. <i>Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o‘g‘li,</i>	41
AHLI SUNNA VAL-JAMOANING ALLOH TAOLONING MUTASHOBIH SIFATLARINI BORASIDA TUTGAN YO‘LI <i>Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o‘g‘li,</i>	44
YOSHLARNING ORASIDA SOF ISLOMIY AQIDANI TARG‘IB QILISH YO‘LLARI VA VOSITALARI <i>Raxmonov Akbar</i>	48
ZAMONAVIY AXBOROT OQIMIDA SOF AQIDANI HIMOYA QILISH <i>Boqiyev Azizbek Abdullajon o‘g‘li</i>	51
АНВАР ШОҲ КАШМИРИЙ – БҮЮК ҲАНАФИЙ МУҲАДДИС <i>Низомиддинов Ҳошимжон Муҳаммаджонович</i>	55
YOSHLAR ORASIDA SOF AQIDANI TARG‘IB QILISHNING USULLARI VA VOSITALARI <i>Kasimov Farrux Inoyatovich</i>	59
YOSHLAR ORASIDA SOF AQIDANI TARG‘IB QILISHNING USULLARI VA VAZIFALARI <i>Haqnazarova Iroda Ismoilovna</i>	62
ABU HANIFA AQIDASI VA “AL-FIQH AL-AKBAR” RISOLASI <i>To‘xtayev Nasrullo</i> h	65

SOG‘LOM E‘TIQODNING JAMIYAT BARQARORLIGIDAGI O‘RNI <i>Parmonov Bobosher</i>	70
سید محمد خان ابن داود خان_أهمية العقيدة الإسلامية في عصر العولمة	73
GLOBALLASHUV VA DINIY QADRIYATLAR O‘ZARO MUNOSABATI: SOF AQIDA YONDASHUVI <i>Begimov Muhammadjon Begimovich</i>	77
GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Yunusov Ramazonjon</i> ,	82
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SOF AQIDA VA TASAVVUF MASALALARI <i>Nuriddinova Ruxshona Zehniddin qizi, Vohidova Dilshoda Vohid qizi</i>	86
“TA’VILOT AL-QUR’ON” ASARIDA BAG‘RIKENGLIKKA OID QARASHLAR <i>Avazxo ‘jayeva Nafisaxon, Mo ‘min Mirzo Abdupattayev</i>	89
2.SHO‘BA GLOBALLASHUV DAVRIDA TASAVVUF: NA‘NAVIY MEROS VA ZAMONAVIYLIK.	
НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИНИНГ ИНСОНПАРВАРЛИК МОҲИЯТИ <i>Наврузова Гулчехра Негматовна</i>	94
TASAVVUF TAЪЛИМОТИ – ИЖТИМОЙ БАҲҚАРОРЛИК ОМИЛИ <i>Шарипова Ойгул Турсуновна</i>	99
إعداد: د. أَيْمَنُ عُثْمَانُ عَبْدُ الْعَلِيمِ مُحَمَّدُ الشَّرِيعِي_اللُّغَةُ الْعَرَبِيَّةُ وَالتَّعْرِيبُ فِي عَصْرِ الْعَوْلَمَةِ	104
МУСОХОН ДАҲБИДИЙНИНГ ХОЖАҒОН-НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИ РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ <i>Юлдашходжаев Хайдар</i> <i>Ҳашимханович</i>	108
АБУ БАКР КАЛАБОДИЙНИНГ “ТАЪАРУФ” АСАРИДА АҚИДА ВА TASAVVUF МУНОСАБАТИ <i>Нилуфар Туйчиева</i>	113
МУСОХОН ДАҲБИДИЙНИНГ TASAVVUF РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ <i>Юлдашходжаев Хайдар Ҳашимханович</i>	117
MALAYZIYADA SO‘FIYLIK TARIQATLARINING JAMIYAT VA DAVLAT HAYOTIGA TA‘SIRIDA SO‘FIYLIK MARKAZLARINING O‘RNI. <i>Avliyoqulov Uchqun</i>	121
أئمة الحديث الشريف وامتحاناتهم العقديّة الإمام النسائي رحمه الله وكتابه "خصائص علي" و "مسند علي" "أنموذجاً"	126
د/ أحمد محمد علي المصري أثر التعليم الديني في مواجهة العنف والإرهاب	131
TASAVVUFNING IJTIMOY BARQARORLIKKA KO‘RSATADIGAN TA‘SIRI: JAMOADA BAG‘RIKENGLIK IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA TASAVVUF G‘OYALARINING O‘RNI <i>Mas ‘udxon ISMOILOV, Nigora HASANOVA</i> ,	136
GLOBALLASHUV DAVRIDA HAKIM TERMIZIY TA‘LIMOTINING FALSAFIY-MA‘NAVIY QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O‘RNI VA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI <i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i>	140
ХАТТОТЛИК САНЪАТИ ВА ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИНГ ИНСОНИАТ МАДАНИЯТИГА ТАЪСИРИ <i>Джураев Хусен Хайруллоевич, Хайруллоев Саиджон Хусенович</i> ,.....	143

ЯНГИ ЎЗБЕКСТОН ЁШЛАРИНИНГ БАРКАМОЛ ШАКЛЛАНИШИДА ПОРСОЯ ТАСАВВУФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ АҲАМИЯТИ <i>Мунисхон Гуламова</i>	149
NASRULLOHXON HARBIY NIZOMIDA QO‘SHIN TUZILISHI HAMDA SARBOZLAR TA‘LIMIGA OID QONUN QOIDALAR VA BUYRUQLAR TAVSIFI <i>Yunus Shukurillayev,</i>	154
GLOBALASHUV DAVRIDA TASAVVUFNING AHAMIYATI: AN‘ANAVIY VA IBN SINO NAZARIY YONDASHUVLARI ASOSIDA <i>Ro‘zimuhammad To‘xtasinov Nurmuhammad o‘g‘li</i>	160
“ФУТУХ АЛ-БУЛДОН” АСАРИ МАНБАЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ <i>Умматалиев Соҳибжон Хикматали ўғли</i>	165
TASAVVUFNING IJTIMOYIY BARQARORLIKKA KO‘RSATADIGAN TA‘SIRI <i>Jiyanov Ulug‘bek Nasriddinovich</i>	170
ИЛМИЙ МЕРОСНИ АСРАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ <i>Тўлқин Азимов,</i>	174
SAYQALIY DOSTONINING QO‘LYOZMALARI KODIKOLOGIK TAHLILI VA ILMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI <i>Sultonova Dilovar Ne‘matillo qizi</i>	178
SALJUQIYLAR DAVRIDA TASAVVUFNING IJTIMOYIY BARQARORLIKKA TA‘SIRI <i>Mirzayeva Muxlisa,</i>	180
MUTASHOHIH SIFATLAR ATROFIDAGI EPISTEMOLOGIK BAHSLAR <i>Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o‘g‘li,</i>	186
HOZIRGI DAVRDA YOSHLAR TARBIYASIDA SAHL IBN ABDULLOH TUSTARIY MEROSINING AHAMIYATI <i>Raximov Xolmurod Majitovich.</i>	188
THE ROLE OF IMAM BUKHARI'S PEDAGOGICAL TEACHINGS IN THE EDUCATION AND UPBRINGING OF YOUTH <i>Xaitov Azizbek Azamatovich</i>	192
IBN SINO AXLOQIY QARASHLARINING HOZIRGI DAVRDA AHAMIYATI <i>Karimov Anvar</i>	197
TASAVVUFNING MUXXIMLIGI <i>Абдурахмонов Абдулҳодий</i>	200
NAQSHBANDIYA TARIQATI RIVOJIDA BUXORO MUTASAVVIFLARINING O‘RNI <i>R.Z.Rajabova</i>	204
ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ТАСАВВУФИЙ ЁНДАШУВЛАРИ <i>Бердиева Нилуфар Ахатовна</i>	208
ILMIY MEROSNI TADQIQ QILISH, QO‘LYOZMALARNI SAQLASH VA YOSHLAR TARBIYASIDA FOYDALANISH. <i>Asatullayev Farhod Ravshan o‘g‘li</i>	213
TASAVVUF VA UNING ISLOM MA’NAVIYATIДАГИ ЎРНИ <i>Шарапов Мамур</i>	219
IMOM FAXRIDDIN AR-ROZIYNING TAFSIR KITOBIDIA DIN VA ILMINING UYG‘UNLIGI <i>Saidov Shaxboz</i>	222

IMOM TERMIZIYNING ILM QADRI HAQIDA KELITIRGAN HADISLAR SHARHI <i>Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich</i>	224
YOSHLAR TARBIYASIDA AJDODLAR ILMIY MEROSINING O‘RNI <i>Tohirov Akobir To‘lqinovich</i>	227
BUYUK MUTASAVVUFLAR ASARLARIDA YOSHLAR TARBIYASIGA OID G‘OYALAR: MA’NAVIY MEROS VA ZAMONAVIY AHMIYAT <i>Xayrilloev Xo‘jamir A‘zamxo‘jayevich</i>	229
TACABBYF IMOMI ABU BAKR GULOBODIY BUXORIYNING XAËTI VA ILMIY FAOLIYATI <i>Uzoqov Abdulvosid Abduvoxid ўg‘li</i> .	233
MULLA ALI QORINING XAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI <i>Mutallimov Islomjon Odiljon o‘g‘li</i>	237
TASAVVUF ADABIYOTI RIVOJLANISHIDA KUBROVIYLIK MAKTABINING TA’SIRI <i>Nurmuhammad Matkarimov</i>	241
GLOBAL HUQUQIY MADANIYATNING RIVOJIDA TASAVVUF AXLOQI VA ADOLAT KONSEPSIYASI <i>Shodiyeva Dilshoda G‘ulomjonovna</i>	245
TASAVVUFNING IJTIMOYIY BARQARORLIKKA KO‘RSATADIGAN TA’SIRI <i>Usmonov Adiz Mansurxo‘jayevich</i>	250
XOJA AHROR VALIY – TINCHLIK VA SULHPARVARLIK VALIYSI <i>Abbosxonov Muhridin Xayrullo o‘g‘li</i>	255
ИСЛОМ ДИНИНИНГ ЖАМИЯТ ХАËТИДА ТУТГАН ЎРНИ <i>Қосимов Музаффар Махматқулович</i>	259
ABUL QOSIM NAYSOBURIY VA UNING “ RISOLA AL-QUSHAYRIYYA ASARI” BAYONI <i>Voxidov Xasanboy Abduxalil o‘g‘li</i>	264
MA’NAVIYAT — SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY OMILI SIFATIDA <i>Uzaqbayev Quralbay Qarjavbay o‘g‘li</i>	268
TASAVVUFNING IJTIMOYIY BARQARORLIKKA KO‘RSATADIGAN TA’SIRI <i>Sodiqova Malika Kozimjon qizi</i>	273
TASAVVUF TA’LIMOTIDA TASLIMIYAT TUSHUNCHASI VA IJTIMOYIY BARQARORLIKDAGI TA’SIRI <i>Nuriddinova Ruxshona Zehniddin qizi</i> ,.....	276

QAYDLAR UCHUN

GLOBALLASHUV DAVRIDA SOF AQIDA VA TASAVVUF MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(2025 yil 13-noyabr)

Muharrir: F.Usmonov
Texnik muharrir: B.Ashurov
Musahhih: M.Kuziyeva
Sahifalovchi: X.Axrоров

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Orginal maketidan bosishga ruxsat etildi: 12.11.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 17,75. Adadi 100. Buyurtma № 205.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri Hofiz Tanish
Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.



“BUKHARA HAMD PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy